

83.8
418

Ў
ZBEK
BOLALAR ADABIYOTI
ANTOLOGIIYASI

IKKI JILDLIK

II

Nasr

D/K

CHO'LPON NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2006

341

Tahrir hay'ati:

Abdulla ORIPOV

Bobur ALIMOV

Hakim NAZIR

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

Nosir FOZILOV

Anvar OBIDJON

Tohir MALIK

Abdulahob YARMUHAMBEDOV

Shoyim BO'TAYEV

To'plovchi va so'zboshi muallifi
pedagogika fanlari doktori, professor **Safo MATJON**

Antologiyaga XX asrning boshlarida ijod qilgan G'afur G'ulom, Oybek, Mirkarim Osim singari keksa so'z san'atkorlari bilan bir qatorda, bolalar adabiyotida ma'lum bir iz qoldirgan adiblarining mashhur nasriy asarlaridan namunalar kiritildi.

Bu asarlar o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini belgilashda muhim vazifani o'taydi.

Y $\frac{4802060000 - 91}{3601041 - 2006}$ - 2006

ISBN 978-9943-05-017-4

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006-y.


Beg'ubor tuyg'ular ko'zgusi

(Kirish)

Badiiy adabiyotning mazmun-mohiyatiga ko'ra ramziy ma'noda gulzorga, ummonga qiyoslashadi. Gulzor turfa gullardan, ummon esa daryo va irmoqlardan tashkil topgani kabi badiiy adabiyot ham turli janrlarga mansub asarlardan yuzaga keladi, XX asr o'zbek bolalar adabiyoti umumadabiyotning muhim qismini tashkil etadi. XX asr boshlarida bu adabiyot ijtimoiy-tarixiy muhit tufayli ma'rifatparvarlik harakatining badiiy ifodasi o'laroq, kichik kitobxonlarni o'qish va bilim olishga da'vat qilish ruhi bilan sug'orilgan, kitob, maktab, maorif insonning «ong ko'zi» (Q. Muhammadiy)ni ochib, o'zligini tanitishi, binobarin, istibdod kishanlarini faqat bilimlarni egallash orqali parchalab, milliy istiqlolga erishish mumkinligini keng miqyosda targ'ib qilgan. Bolalar adabiyotining bu davrdagi taraqqiyotida Hamza va Abdulla Ayloniy, Sadridin Ayniy va Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov kabi ilg'or ziyolilarning ijodi muhim o'rin tutadi.

Hamzaning «Yengil adabiyot», «Qiroat kitobi», «Axloqiy hikoyalar», A.Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Adabiyot va milliy she'rlar», «Turkiy guliston yoxud axloq», M.Behbudiyning «Kitob at tfl («Bolalar uchun kitob»), S.Ayniyning «Qiz bola yoki Xotida» «Tahzib us-sibyon» («Bolalar tarbiyasi») singari darsliklarga kiritilgan hikoyatlarida insonning xulq-atvorini yaxshi amal-

2237



259325-2010u

rus
xuz

larni bajarishga yo'naltirish, unda iymon, e'tiqod, ishonch, insof, diyonat, hayo, sadoqat, halollik, to'g'rilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, vafo, adolat singari tuyg'ularni shakllantirish muhim o'rinni egallaydi.

Aslida odob-axloq tarbiyasining ilm-ma'rifat, kasbhunar targ'iboti bilan bog'liqligi g'oyasi xalq og'zaki ijodi, xususan, bolalar folkloridan boshlangan bo'lsa, bu yozma adabiyotning yuzaga kelishi bilan Abu Ali ibn Sining «Solomon va Ibsol», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Nizom ul-mulkning «Siyosatnoma», «Ro'shnoinoma», Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugna-kiyning «Hibat-ul haqoyiq», Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», Munisning «Savodi ta'lim», Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarlarida davom ettirildi. Bu g'oya XX asr boshlaridagi bolalar adabiyotida milliy ozodlik uchun kurash tushunchasi bilan yanada boyitildi, ijod o'tgan asrning 20—30- yillarida shakllangan G'afur G'ulom, Elbek, G'ayratiy, G'ulom Zafariy, Dorjiya Oppoqova, Majid Fayziy, Zafar Diyor, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Shokir Sulaymon, Shukur Sa'dulla kabi shoir va yozuvchilarning asarlarida turli darajada yoritildi.

XX asr o'zbek bolalar nasrining tarixiga nazar tashlan-
sa, uning taraqqiyotida xalq og'zaki ijodi bilan birga, mum-
toz adabiyot, jahon adabiyoti, xususan, A.S.Pushkin,
L.Tolstoy, I.S.Turgenevlar ijodining barakali ta'sirini ko'rish
mumkin.

Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodining boy an'analari ru-
hida yaratilgan G'G'ulomning «Shum bola» nomli tari-
xiy-sarguzasht qissasi xalqning achchiq qismati yuksak dara-
jada badiiy gavalantirilgani bilan bolalar adabiyotining oltin
fondidan o'rin oldi. Asar qahramoni Shum bolaning
«shum»ligi adib tomonidan o'ylab topilgan sun'iy to'qima
bo'lmasdan, uning sarguzashtlari erkka tashna xalqning
turmush tarzi, maishati, orzu-armonlarining tabiiy

in'ikosi, badiiy solnomasi bo'lishi bilan muhim estetik tarbiyaviy qimmat kasb etadi.

XX asr bolalar adabiyotining katta qismi garchi kommunistik mafkura tazyiqi va zamonasozlik ruhi ustuvor bo'lgan davr mahsuli sanalsa-da, taraqqiyotdan to'xtagani yo'q. Uning rivojida Oybekning bolalar kitobxonligi doirasiga kiradigan «Bolalik», Abdulla Qahhorning «O'tmishdan ertaklar» nomli avtobiografik qissalari, Mirkarim Osimning «To'maris», «Shiroq», «O'tror», «Temur Malik», «Mahmud Torobiy», Alisher Navoiyning hayotiga bag'ishlangan bir qator hikoyalari, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qasoskorning oltin boshi», Aziz Qayumovning «Ustoz Beruniy», «Alisher Navoiy» nomli tarixiy mavzudagi asarlari muhim rol o'ynadi.

Oybekning «Miskin bolalar», «Qonli barmoqlar» hikoyalari bilan boshlangan, Mirmuhsinning «Dyambo», A. Muxtorning «Dunyo bolalari», Sh.Sulaymonning «Oq negr», «Jem ham Ellin», «Yama va Hama», «Bolalar turmasi» bolalar adabiyoti ufqini kengaytirgan bo'lsa, H.Shayxovning «Noma'lum odamlar», «Do'stimning kashfiyoti», «Umid sayyorasi», T.Malikning «Tiriklik suvi», «Sadoqat», M. Mahmudovning «Men — men emas», «Rayhondagi zarpechak», O.Yusupovning «Sirli so'qmoqlar», M.Rahmonov va Q.Do'stmuhamedovning «Tungi telepatiya» kabi ilmiy-fantastik asarlari xalq ertaklari va jahon fantastikasining eng yaxshi an'alarini davom ettirishi bilan kichkintoylar adabiyotining alohida sahifasini tashkil etadi.

Ikkinchi jahon urushidan so'nggi yillar bolalar nasrida sof realistik va sarguzasht xarakterida yaratilgan H.Nazirning «Yonar daryo», «So'nmas chaqmoqlar», «Kenjatoy», «Lochin qanotlari», Yo.Shukurovning «Ona mehri», «Uch savol», «Qanotli bola», N.Fozilovning «Oqim», «Qorxat», «Saraton», X.To'xtaboyevning «Sir ochildi», «Sariq devni minib», «Besh bolali yigitcha», L.Mahmudovning «Chinor», «Qopga yashiringan odam»,





O.Husanovning «Tog'da o'sgan bola», F.Musajonning «Buloq suvi», H.Po'latovning «Kichik sehrgar», «Teshik qozon», E.Raimovning «Ajab qishloq», «Mehribonlarim», S.Anorboyevning «To'rtko'zning sarguzashtlari», «Sulaymon ovchi va uning iti haqida qissa», A.Qosimovning «Oqqush» kabi qissa va romanlari kichkintoylar adabiyotining katta ishlarga ham qodirligini amalda ko'rsatdi.

Ayni shu davrda A.Muxtor («Dunyo bolalari»), P.Qodirov («Akromning sarguzashtlari»), Mirmuhsin («Hasan va Husan»), O.Yoqubov («Tengdoshlar»), Shuhrat («Yetim boshin silaganlar»), M.Ismoilii («Bizning roman»), Sh. Xolmirzayev («Oq otli»), O. Muxtor («Bolakka sayohat»), O'.Hoshimov («Yalpiz somsa») singari kattalar adabiyotining namoyandalari ham bolalar adabiyotining rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Garchi asarlari mazkur to'plamga kiritilmagan bo'lsa-da, bolalar adabiyoti sohasida baholi qudrat qalam tebratgan G'ayratii, R.Bekniyoz, M.Ikrom, R.Azizxo'jayev, S.Yunusov, N.Nazarov, N.Orifjonov, O.Qo'chqorbekov, M.Xidirlarning xizmatlarini ham eslab o'tish o'rinli bo'lur edi.

Antologiyaga bulardan tashqari, she'rda ham, nasrda ham barobar ijod qilib, asarlari birinchi jildan o'rin olgan Shuhrat, A.Muxtor, M.A'zam, A.Abdurazzoq, S.Barnoyev, A.Obidjon, A.Ko'chimov kabi yozuvchilar asarlari kiritilmadi.

Holbuki, ulardan A.Obidjonning «Dahshatli Meshpolvon», «0099 raqamli yolg'onchi» kabi qissalari, «Bulbulning cho'pchaklari» turkum ertaklari bolalar nasrining yorqin namunalari qatorida turadi. Adibning «Bulbulning cho'pchaklari» turkum ertaklarini hech mubolag'asiz jahon ertakchiligi, birinchi navbatda, G.Andersen va Sh.Perrolar ertaklari bilan muqoyasa qilish mumkin.

Beg'ubor bolalikni xalq badiiy tafakkurining dahosi yaratgan ertaklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kichik kitobxonlar hali o'qish-yozishni bilmagan go'dakligidayoq xalqni

turli balo-ofatlardan himoya qiladigan jasur ertak qahramonlaridan ibrat oladi. H.Olimjon, T.G'oyipov, A.Abdu-razzoq, M.Murodov, S.G'afurov, Olloyor kabi yozuvchilar yaratgan ertaklar shu jihatdan e'tiborga loyiq.

Bolalar adabiyoti umumadabiyotning ajralmas qismi sifatida zamon va makondan ayricha yashamaydi. Binobarin, jamiyat hayotidagi yangilanishlar kichkintoylar adabiyotida ham o'z aksini qoldirishi tabiiy. Istiqlol davri bolalar adabiyoti buning yorqin dalilidir.

So'nggi yillar bolalar nasridagi shakl va mazmun uyg'unligi bilan bog'liq ijodiy izlanishlar haqida so'z ketganda Qo'ldosh Mirzo, S.Jumag'ulov, X.Seitov, S.Ravshan, Z.Ibrohimova, M.Ibrohimova, M. Niyozov, M.To'laganova, H. Badalov, H.Mallayev, U.Mustafo, S.Abdullayeva va boshqa ijodkorlarning ham bu boradagi xizmatlarini ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Har bir davr o'z adabiyotini yaratadi. XX asr o'zbek bolalar nasri ham bundan mustasno emas. Bu adabiyotning iste'dodli adiblari ijod namunalarining jahondagi mavjud adabiy an'analardan ijodiy oziqlangani holda allaqachon o'z qobig'ini yorib chiqib, ko'pgina jahon xalqlarining adabiy mulkiga aylangani qalbimizda faxr tuyg'usini uyg'otadi.

Antologiyaga, asosan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zolari bo'lgan adiblarning eng yaxshi asarlaridan namunalar tanlab olindi. Lekin shu bilan birga, o'zbek bolalar adabiyoti uchun bir umr xizmat qilib kelgan, bolalar uchun ko'pgina to'plamlar nashr ettirgan, o'zlari esa Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'lmagan, endilikda oramizda yo'q-ba'zi adiblar ham badiiy ken-gash va tahrir hay'ati a'zolarining taklifi bilan mustasno tariqasida to'plamga kiritildi.

Safo MATJON,
pedagogika fanlari doktori,
professor.

Safo



G'afur G'ULOM

(1903—1966)



O'zbek xalqining ardoqli farzandi, akademik shoir G'afur G'ulom 1903- yil 10- mayda Toshkentning Qo'rg'ontegi mahal-lasida tug'ilgan. Otasidan bolaligidayoq yetim qolgan bo'lajak adib dastlab rus-tuzem maktabida tahsil ko'radi. 1918- yili muallimlar tayyorlash kursida o'qib, Toshkentdagi «Irfon» nomli maktab qoshidagi yetim bolalar uyida tarbiyachi va mudir vazifalarida ishlaydi. «Bir kuni, — deb eslaydi adib,— bolalar bog'chasi-dagi yetim bolalardan 15 tasini bizning internatga o'tkazdilar. Men bu go'daklar bilan birga tunab qoldim. Kechasi uxlamay, kuzatuv-chilik qilib chiqdim. Shu kechasi o'z yetimligim, boshimdan kechirganlarim va shu yetim bolalar ahvoli to'g'risida she'r yozdim». Darhaqiqat, beg'ubor va shiddatkor bolalik olami keyinchalik G'afur G'ulomning butun ijodida markaziy o'rinni egalladi, de-yish mumkin. Uning «Mukofot» (1940), «She'rlar» (1946), «Tong-otar qo'shig'i» (1949), «Bari seniki» (1953), «Bir g'uncha ochil-guncha» (1955), «Siz mening yoshligimsiz» (1958) she'riy to'plamlari, «Shum bola», «Tirilgan murda» (1934), «Yodgor» (1935), «Mening o'g'rigina bolam» (1965) va boshqa qissa hamda hikoyalari-dagi G'afur degan o'smir bilan donishmand G'afur G'ulomning uyg'un timsolini ko'rish mumkin.

Xalqlar do'stligi g'oyasining tolmas targ'ibotchisi, millatimiz faxri darajasiga ko'tarilgan hozirjavob adib asarlari jahonning turli tillariga tarjima qilingan.

XX asr o'zbek adabiyotining bayroqdor adibi G'afur G'ulom 1966- yili vafot etgan.

SHUM BOLA

(Qissadan parcha)

I bo'lim

Rastalar obod. Qaymoq bozorining burilishida, mahkamaning boshida Ijhom samovarchining kattakon choyxonasi bo'lib, unda grammofon chalinadi. Turli-tuman plastinkalar orqali To'ychi hofiz, Hamroqul qori, Hoji Abdulaziz va Farg'ona yallachi xotinlari ketma-ket maqomlar, yallalar, ashulalar aytadi. Choyxonada joy yetishmaydi. Uzun rasta, juhud rasta, attorlik va boshqa rastalarning boyvachchalari savdodan bo'sh vaqtlarida bu choyxonaga yig'ilib, mehmonxonalardek o'rtada katta barkashlardan qand-qurs, pista-bodom, murabbo-nisholda, obi non, shirmoy nonlar bilan shamaloq bezatilgan dasturxon atrofida chaqchaqlashib o'tirishadi. Ba'zi boyvachchalarning dasturxonida qorniga qaldirg'och surati solingan, ustiga poxoldan to'r to'qilgan konyaklar ham ko'rinar edi.

Bu choyxonaga bozor-o'charga sang'ib tushib qolgan dehqon, kambag'al kosib, qozoq, qirg'iz va boshqa oddiy fuqaro kirolmas edi.

Samovarchi Asra kal degan xipchadan kelgan, qotma, epchil yigit edi. Ustida oldi ochiq yaktak, oyog'ida qala kavush, zangori shohi qiyiq bog'lagan, yelkasiga xolparang ro'mol tashlagan xushfe'l yigit edi. Choyxo'r boyvachchalardan birontasi:

— Asra!

Yoki:

— Kal! — deyishi bilan:

— Labbay, mulla aka, choymi, chilimmi? — deyardida, darrov bir qo'lida kichkina choynak, ikkita kichkina xitoy piyola yo bo'lmasa yarqirab turgan kattakon mis chilimning sarxonasiga tamaki bosib, ustiga cho'g' qo'yib, bir-ikki qulduratib tortib, pishitib, kashandaning xizmatiga yugurar edi.



Bu choyxonada meni mahliyo qilgan narsalarning biri kiraverishning shipiga ilib qo'yilgan katta, simlariga zarhal berilgan har xil tumorlar, bayroqchalar bilan bezatilgan qafas va bu qafasdagi jonli to'ti edi, o'lib ketay agar, tirik to'ti edi. Patlarining rang-barangligi Oysha chevarning ish qutisidagi ipaklarday tovlanar edi. Ko'k, qizil, zangori, sariq, oq, pushti, jigar rang, go'los, pistoqi — boringchi, dunyoda qancha rang bo'lsa, shu to'tining patida bor edi. Ayniqsa bu to'ti qurmagur shunaqa ham biyron ediki, endigina tilga kirayotgan uch yasharlik qizlarning ovozig a'xshatib:

«Asra, Asra! Mehmonga qara, bir choy, bir chilim. Keling, mulla akalar, keling, boyvachchalar», degani hali ham qulog'imdan ketmaydi.

Biz yalang oyoq, bo'z ko'yлак-ishtonli, kir-chir bolalar to'tiga yaqinlashib:

— To'ti, to'ti....

— To'ti-to'ti... — deb qichqirar edik. Asra kal bizni quvlar edi, qo'liga tushsak urardi. To'ti bo'lsa orqamizdan:

— Buvingni... — deb so'kardi.

Bozorda sanqib yurgan biz daydi bolalar uchun quvonchli ermaklardan biri bozor, mahalla, ko'cha-ko'y jinnilari edi. O'sha yillarda Toshkentda, shunaqa ham jinni ko'p ediki, sanab sanog'iga yetolmaysiz: Malla jinni, Karim jinni, Mayramxon, Xol parang jip-jinni, Tojixon, Juft kaptar, Olim jinni, Eshon oyi, Avaz jinni va boshqalar... Har bir jinning o'ziga xosligi, tantiqligi, «shirin»ligi bor edi. Karim jinni so'kkani-so'kkan edi. Unga na xudo, na payg'ambar, na Shohidoyat hoji-yu, Orifxo'ja eshon, na Olim qozi-yu, Sharifjon Duma — baribir so'kaverar edi. Yetti pushtidan tortib, astar-avrasini ag'darib so'kaverar edi. U ilgari bo'zchi ekan, chit ko'payib ketganidan keyin bo'z o'tmay qolib, bozori kasodga uchrab, bola-chaqasini boqolmay, jinni bo'lib qolibdi, deb eshitganman.

Eshon oyi degan xotin ham jinni edi. U qirq-qirq besh yoshlar chamasidagi qorachadan kelgan, xushqomat,

qalam qosh bir xotin edi. Bu xotin aslida qalandarxonalik Mittixon to'ram degan eshonning xotini bo'lib, eshon shu xotinning singlisi bilan o'ynashib turganida, ustidan chiqib qolib, jinni bo'lib qolgan ekan.

«Juft kaptar»ga hukumatdan tekkan edi. Nikolay bormi, Kaufman bormi, Mochalov bormi, Nabi o'g'ri degan mirshab bormi — hammasini bir qozon qilib, martaba-sining pasti-balandligiga qaramay so'kaverar edi.

Xol parang tagi qo'qonlik ekan, Qo'qonda baxmal to'qir ekan. Keyin do'kon-dastgohiga o't tushib ketib, jinni bo'lib qolibdi.

Avaz bo'lsa havaskor jinnilardan edi.

Kunlardan bir kun Tojixon jinni bitta ketmon dasta bilan o'tgan-ketganni quvlab urib-so'kib: «Hammang bir tomonga yur, tarqalib yurma! Tartib kerak, intizom kerak», deyar edi. Hech kim unga bas kelolmas edi. Shunda Olim jinni kelib qolib:

— Hoy, hoy nima deyapsan, jinni?— deb so'rab qoldi.

— Nimaga odamlar bir tomonga yurmasdan, har qayoqqa tarqalib yuradi? Nikolay poshsho zamonida tartib-intizom kerak, bir tomonga yursin-da!

Bunga Olim jinni:

— Ahmaqsan, Toji, ahmaqsan. Yer axir taroziga o'xshagan narsa bo'ladi, hamma bir tomonga yursa, yer barkashday bir yoqqa og'ib, hammamiz Qurдум daryoga g'arq bo'lib ketamiz-ku, — dedi.

Zirapchani nina bilan olganday, jinnining gapi jinniga ma'qul tushib, odamlarni urishdan to'xtadi.

Jinnilarning ichida o'ziga xos tantiqlaridan biri Mayramxon edi. Asli ismi Mamatraim bo'lib, xalqqa «erka» bo'lganidan «Mayramxon» deb atar edilar. U eskidan chilangar ekan. Ketmonning zug'otasi, eski tish, otashkurak, tunuka qaychi, shunga o'xshagan eski-tuski temir-tersaklarni bir simdan o'tkazib, boshiga kiyib yurar edi. O'z qo'li bilan ovqat yemas edi. Uning bozordagi mayda kosib-lardan ixlosmandlari ko'p edi. Beshikchilar, taroqchilar,



dugchilar Mayramxonni o'z qo'llari bilan ovqatlantirishni «baxt» deb bilar edilar. Go'yo Mayramxon biror kosisibning do'koniga borib egasi qo'lidan ovqatlansa, shu do'konga qut-baraka kirgan hisoblanar edi.

Temir-tersak asboblari zavoddan chiqar boshlagandan keyin Mayramxon «sinib» jinni bo'lib qolgan ekan.

Xullas Toshkentda, jinni ko'p edi. Ba'zi kunlar bir jinniga tosh otib, ikkinchi jinnini o'yinga solib, uchinchi jinnidan kaltak yeb, kech kirib qolganini ham sezmas edik. Namozgar-namozshom o'rtasi uyga qaytib atalami, umochmi, moshqovoqmi, moshxo'rdami, ugra oshmi apir-shapir ichib, yana ko'chaga chopar edik.

Mahallamizning bir tomoni Tikonli mozor, bir tomoni Qo'rg'ontagi. Uzun ko'chaning o'ng, chap tomonidagi pastqam, tor ko'chalarda o'g'il va qiz bolalar to'planib, har xil o'yinlar o'ynaymiz. Kurash, «botmon-botmon», «oq terakmi ko'k terak», «qushim boshi», «mindi-mindi», «o'g'ri keldi», «bekinmachoq» degan o'yinlarimiz bor.

Bular hammasi oqshom o'yinlari, kunduzgi o'yinlar boshqacha: har xil oshiq o'yini, yong'oq o'yini, to'p o'yini, zumchillak o'yini, yov-yov, o'q kamalak otish, yalang'och poyga, ot o'g'risi va hokazo. Xullas, na kechasi, na kunduzi o'yin vajidan taxchilik tortmas edik.

Otalarimizning ko'pchiligi mayda kosisblar, qorovul, xodimgar, meshkob, otboqar, hammol, so'fi, folbin, arqon tovlaydigan, nog'ora-childirma qoplaydigan, to'qimdo'z, chegachi va hokazo bo'lganliklari uchun ularning qo'lidan hunarlarini olib yoki ularning yoniga ko'makchi bo'lib tushish bizga to'g'ri kelmas edi. Otalarimizning o'ziga ish topilmaganda, bizga ish qayoqda deysiz. Ertadan kech ko'cha changitib hammaning joniga tegib, kampirlardan qarg'ish eshitib, o'spirinlardan kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan uvin-to'da bekorchi bolalarimiz. Bitta qo'lom-qo'rg'oshin qo'yilgan rangdor oshiq yoki dugchilar qirib bergan mo'guz soqqa, yoki yong'oq soqqa,

hech bo'lmaganda birorta soatning qopqog'i bizning katta davlatimiz hisoblanadi.

Ramazon oyida o'yinimizning turlari yana ko'payib ketadi. Oqshomlari mahallada eshikma-eshik yurib, ramazon aytamiz. Namozshomdan saharlik oshgacha machitma-machit yurib qorilarning qiroatini eshitamiz.

Ayniqsa oydin oqshomlar maza qilib o'ynaymiz. Yoz, kuz, bahor vaqtlarida-ku, ko'chalarimiz tuproq bo'lganligi uchun, yumshoqqina, maza bo'lar edi, ammo qish kunlari belgacha loy, botqoq bo'lganidan o'yinlarni katta maydonlarga yoki bostirma yo'lkalarga ko'chiramiz. Har mahallaga bittadan shahar dumaxonasi o'tqazgan xira fonuslarning ichida yettinchi pilikli kerosin chirog' yonar edi. Bu chirog'larni har kuni kechqurun narvon ko'targan chirog'bon kerosinidan, piligidan xabar olib, shishasini artib o'zi yoqib, azonda o'zi o'chirib ketadi. Bu ko'cha fonuslarining yorug'i uncha bo'lmaydi. Uzoqdan qaragan kishiga qorong'idagi mushukning bir ko'ziga o'xshab yiltirab ko'rinadi. Chetiga xarsang terilgan tor yo'lkalardan ketuvchi yo'lovchilarga uzoqdan «men bor» degandek, qizg'ish shu'la ko'rsatsa ham yorug' bermaydi. Bu chirog'larning tagida o'ynab bo'larmidi? Katta kishilar ham xuftonni o'qir-o'qimas soat yetti-sakkizlarda-yoq uyga kirib ketishadi. Ko'chada zog' uchmaydi. Faqatgina bekinmachoq o'ynab yurgan bizlar qolamiz. Xullasi kalom, o'yinimiz ko'p.

«Qushim boshi» shunaqa o'yin: bolalar ikki to'daga ajralib, ular ichidan ikkitasi «onaboshi» bo'ladi. Ular bitta lattani qushga o'xshatib tugadi. Har ikki bola bir-biriga shivirlashib, bir qushning otini yashirishadi. Suttimi, baliqchimi, chittakmi, qumrimi, itolg'imi, qirg'iymi, miq-qiyimi — biror qushning nomini yashirishadi. Keyin bolalarga lattadan qilingan qushni ko'rsatib:

— Qushim boshi shuncha, tana-manasi bilan mana shuncha, toping nima? — deb savol beradi.

Bolalar javobga oshiqib chuvvos bilan:



— Kalxat! — deyishadi.
— Yo'q, topolmading, — deb javob qaytarishadi onaboshilar.

— Tovuq.

— Yo'q, topolmading.

— Zarg'aldoq.

— Yo'q, topolmading.

— Ukki.

— Topding, topding! — deb tan berishadi onaboshilar.

O'sha zamon topgan tomon topmagan tomonni bittabitta minib oladi. Hammasi baravar «xix, eshagim» deb ma'lum belgilangan joygacha opichib boradi. O'sha yerga boranda onaboshilarga bolalardan bittasi: «Otliqmi, yayov?» deb savol beradi, agar onaboshi:

— Ost-ustiga, — deguday bo'lsa, minganlar tushib, mindirganlar unga opichib oladi.

Shunda ashulalarimiz ham bo'ladi:

Xum-xum hazrati xum.

Umarali xonu Madalibek,

Madalibekning zamonida

Tarala gijdangu

Tarala gijdang.

«Yalang'och poyga» degan o'yinimiz yaxshi o'yin. Ikki do'ppini chekkalarimizga bog'lab, otning qulog'iga o'xshatib orqa etaklarimizni tugib dum qilib, turli masofaga kim o'zarga yugurishamiz. Bizniki Tikonli mozor, Qoratosh, Yalanqari, Olmazor, Devonbegi, Qo'rg'ontegi, yana Tikonli mozor mahallalari bo'ylab o'tgan masofada — taxminan uch chaqirimcha keladigan bir doirada o'tkaziladi. Oldin kelgan bolalarga chapak chalib, barakalla aytib hurmat ko'rsatamiz. Ikkinchi poygagacha u zo'r hisoblanib yuraveradi.

Kurash o'yinimiz bo'lsa, o'zingizga ma'lum.

O'yinlarimizning hammasini bir chekkadan ta'rif qilaversam gap cho'zilib ketadi.

Bizning mahallamiz kichkinagina bo'lsa ham gavjum. Karim qori degan gazlamafurush, Yoqub qovoq degan mumfuru-
rush, Abdullaxo'ja degan bo'yoqfurush boylarni hisobga
olmaganda, qolganlari bosmaxona va qandolatxona (kondi-
terskiy) ishchilari edi. Mahallamizda ikkita machit, bitta
choyxona, ikkita baqqollik bor. Samovarchi — Qodir aka
degan yalanto'sh kishi. Machitning bittasi Tikonli mozor-
da, ikkinchisi — Yetimmachit — Qo'rg'ontegida. Har ikki
machitning ham yonida maktab bor. Mahalla imomlari o'z
navbatida o'qituvchi. Tikonli mozor machitida Shamsi domla
muallim. Qo'rg'ontegida Hasanboy domla o'qitadi.

Men Hasanboy domlada o'qidim. U bizlarni «Haf-
tiyak»dan emas, «Ustodi avval» kitobidan o'qitib, tez
savodimizni chiqardi.

Mahalladagi mening o'rtoqlarim: Omon, It Obid, Bit
Qbid, Turobboy, Yo'ldosh, Husni, Solih, Abdulla,
Po'latxo'ja, Miraziz va boshqalar.

Omonning otasi Tursunboy aka qalamtarosh pichoq
qiladi. Xotini o'lib ketib beva yashaydi. Omon yolg'iz o'g'il.

It Obidning otasi Zohid aka yakanchi (eski-tuski
yig'uvchi) edi.

Bit Obidning otasi Rasulqo'zi aka qin tikar edi. Turob-
boyning otasi Ziyamat aka g'o'zafurush edi.

Yo'ldoshning otasi Buyaka bo'lsa ko'n etik tikar edi,
lekin yoshligida o'lib ketib, Yo'ldosh ota-onasiz shum
yetim edi. Bizlarning ko'p maslahatimiz Yo'ldoshning uyida
bo'lar edi.

Husnibiyning dadasi Omonboy bo'yincha tikar edi.

Solihning otasi Yunus aka hofiz edi.

Abdullaning otasi Aziz aka kerosinfurush edi. Ot-arava
bilan ko'chama-ko'cha yurib «Nobel» shirkatining kero-
sinini sotar edi.

Po'latxo'janing otasi qal'a savdogari bo'lib, besh olti
yillab Qashqarda, Irbitda savdogarchilik bilan yurgan yil-
larida onasining qornida «olti oylik yopishib qolib», dadasi
kelgan yili uch oydan keyin tug'ilgan ekan.

Usta Miraziz etikdo'zlikda mening ustam. Otasi Salimboy so'fi kushxonadan so'ngak olib kelib qaynatib, yog'ini olib tirikchilik qilar edi. So'fi ota o'z vaqtida — 1860- yillarda Yoqubbekning askari bo'lib, Qashqar qo'zg'olonida bitta xitoy qizini o'lja qilib ot orqasiga mingashtirib olib kelib, musulmon qilib nikohlab olgan ekan. Uning xitoycha otini Baxtibuvi deb o'zgartirgan. Miraziz aka Baxtibuvining uch o'g'li dan eng kenjasi.

Mahallamizdagi men taniydigan qo'ni-qo'shnilarimiz mana shular, esimdan chiqqanlari bo'lsa, esimga tushganda yo'l-yo'lakay aytarman.

Shunday qilib, bu falokatli ishni Yo'ldosh boshladi. Mahallaning bir to'lda o'spirin bolalari Laylakmachitning jilovxonasiga yig'ilib, oshiq o'ynamoqda edik. Men bugun juda ko'p yutgan edim. Olacha yaktagimning cho'ntagi, yengim, lippam oshiqqa to'lib ketgan edi.

— Bolalar qanda, oshiqqlar manda, — deb sevinch bilan qichqirmoqda edim. Xuddi shu oraga Yo'ldosh shilqim suqildi-yu, ishning pachavasini chiqardi. U bari mog'orlab ketgan surp yaktagining etagi bilan burnini arta-arta gapira boshladi:

— Bolalar, halfana qilamizmi?

— Bo'пти, qilamiz.

— Qayerda?

— Rizqi xalfaning ko'chib ketgan hovlisida.

— Bo'пти.

Halfanaga palov qilmoqchi bo'ldik. Masavur otaliqning nabirasi Omonboyning o'g'li Husnibiy oshpaz bo'ladigan bo'ldi. Qozon, cho'mich, tuz, qalampir, s'uv — undan, qolgan masalliqlarini shu yo'sinda taqsim qildik: guruch bilan sabzi — Yo'ldoshdan. Go'sht — Abdulla do'lvordan. Yog' — mendan. Qolgan-qutgan narsalar — Po'latxo'ja mug'ambirdan. Hamma har tarafga qarab ketdi. Men ham yog' keltirgani uyga ketdim. Onam oshxonada yertandirga o't qalab, qovoq somsa yopish taraddudida edi. Bizning ro'zg'or mayda-chuydalari zax uyning orqasidagi uzun

hujrada bo'lar edi. Ayvonda o'rtancha singlim kichik ukamni ovutib o'tirgan ekan. Uning yonidan hujraga kirishning evini topolmadim, birorta hiyla ishlatish kerak edi.

— Shapag', — dedim unga, — katta to'ping qayerda?

— Qo'g'irchoqlarimning oldi-da, nima qildi?

— U yerda yo'q-ku!

— Ha... o'lgur, sen olgandirsan, hozir berasan, ber.

Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo'ydi-da, qo'g'irchoqlarining oldiga yugurib ketdi. Men ham «lip» etib hujraga kirib, ho'qachadan yog' o'yib oldim. Yog'ni bir qog'ozga turmuchlab, lippamga qistirdim. U yerdan chiqib o'tinxonaga kirdim. Kul rang tovug'im piyozdan qilingan moyak ustida tug'ib o'tirar edi. Sekin borib, qanotini ko'tarib qarasam, allaqachon tug'ib bo'lgan ekan, — lekin onalik mehri bilan tuxum ustida bosib yotar ekan. Tuxumni oldim. Tovuuq qaqalab qochdi.

O'rtoqlarimga yaxshi ko'rinish uchun, rasamadda ko'rsatilmagan bo'lsa ham, yog' yoniga tuxumni ham qo'shib olib borishni o'zimga ma'qul qilgan edim. Zing'illab ko'chaga chiqib keta boshladim. Oshxonamiz yo'l ustida bo'lganidan, onam ko'rib qoldi.

— Hoy juvonmarg, zumrasha, tag'in ko'chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo'nashtirib ket, tutay berib ko'zimni ko'r qilayozdi.

Noiloj qoldim, tuxumni qalpoqchamga solib, kiyib oldim-da, oshxonaga kirdim. Onam meni tergay boshladi. Men jimgina quloq solib, o'choqning yoniga cho'qqayib, o't qalastirmoqqa boshladim.

Men bilmagan ekanman. O'tning taftiga lippamdagi yog' erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qo'lidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi.

— Juvonmarg, kap-katta bola, uylansang bolang bo'ladi, shu yerda, shunday Fotimai Zahroning dastgohlari bo'lgan qutlug' yerda siyib o'tiribsanmi?

Oyim boshimga o'qlov bilan urganda qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachaqlangan edi. Uning sarig'i oqiga



aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi. Oyim: «Bola bechoraning boshini yorib, qatig'ini chiqarib yubordimmi», — deb esi chiqib ketgan ekan. Men bo'lsam, halfana qilamiz, deb o'margan o'g'irligim ochilib qolganidan, bir chekkasi qo'rqish va bir chekkasi uy ichidagilardan uyalganimdan, oshxonadan chiqib, ko'chaga qochgan edim. Yog' erib oqqan, tuxum singan bo'lganidan, halfanachi o'rtoqlarimning oldiga borishdan ma'no chiqmas edi. Kechqurun uyga qaytib kelish ham mushkul, nima qilish kerak, qayerga borish kerak?!

O'ylab-o'ylab topdim. Sa'vonda bitta ammam bor. Shunigiga boraman. O'zi befarzand. O'zi ham, eri ham meni juda yaxshi ko'rishadi, bularning uyida kishi zerikmaydi ham. Ammamning eri mo'ynado'z — kosib. Bola-chaqalari bo'lmaganidan, uylari biznikiga o'xshash to's-to'polon emas — yig'inchoqlik, innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxona. Unda dunyodagi hamma narsa bor.

Ovga kirishadigan sohibchangel qushlardan — qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy, urishadigan qushlardan — dakangxo'roz, oddiy xo'roz, amirkon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib, cho'p qafasda, to'rqovoqda saqlanadi).

Sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar. Bulardan tashqari faqat uyning ziynati uchun boqiladigan bitta ov tozisi, bitta ko'ppak, bitta laycha kuchuk, besh-oltita bolalari bilan bitta Buxoro baroq mushugi bor edi.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q: gulbeor, gulra'no, gulsafsar, gulhamishabahor, qo'qongul, qalampirgul, namozshomgul, sanbitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul — ishqilib sanab tugatib bo'lmaydi.

Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuri diydalariday parvarish qiladilar. Har holda, menga o'xshagan o'yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. Zerikib qolmayman.

Ammam va pochcham meni erkalab qarshi oldilar.

— Kel-a, bo'yingdan girgitton bo'lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi, — dedi ammam.

— Ha, balli azamat, necha kundan buyon ko'zim uchib, yo'lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur yaxshilikka ko'rindi. Sen kelar ekansan, balli-balli, — dedi pochcham.

Men bu erkalatishlardan juda taltayib ketdim.

Pochcham har kuni to'qqiz pul choychaqa beradi. Men pulni olib, ko'chaga shataloq otaman. Bu mahalladan ham yangi og'aynilar orttirganman. Kamalak otamiz, oshiq o'ynaymiz, it urishtiramiz.

Bir kun pochchamning ko'ppagini yashirib olib chiqib, urishtirdim. Oldingi bir oyog'i sinib qaytdi va bir umr cho'loqlanib qoldi.

Yoz payti pochchamning o'rtoqlari qovun sayilga chaqirgan. Bir tarafi hayitlashib ham kelaman-ku, degan niyat bilan yoniga tozisini, ham qarchig'ayini olib, matrab ko'tarib uch-to'rt kunga dalaga chiqib ketdi, ketar oldida menga uchta Buxor tanga¹ berib:

— Qushlarning ovqatidan xabar olib tur, ochiqib qolmasin, — deb tayinladi. Men juda quvondim — mana endi o'sib ham qoldim, yoshim o'n to'rtga kirdi, odamlar menga ishonadigan bo'lib qoldi, deb ich-ichimdan sevindim: kimsan miqqiy, kimsan qirg'iy, deganday sohibchangel qushlarning ixtiyori mening qo'limda.

Qushxonaga kirdim, uyning bir burchagida miqqiy, bir burchagida qirg'iy — boshlarini yelkaga tiqib, qo'ndoqda o'tirar edilar.

Ov qushlarining tezagi oppoq bo'lar ekan. Qatiq icharmikan-a? Albatta qatiq ichadi, bo'lmasa tezagi oq bo'lmasa kerak, deb o'yladim.

Ammamdan yashirib, oshxonaga kirdim-da, katta xurmachani ko'tarib bozorga ketdim. Bir tangani maydalab, bir paqirga (ikki tiyin) bir xurmacha qatiq olib, uyga keldim.

¹ Buxoro amirlari zamonasidagi kumush tanga. Bizning o'n besh tiyinga baravar.



Ikki kosani qatiq bilan to'ldirib, har ikki qushning oldiga qo'ydim. Har ikki qush ham ovqatga qo'ndoqdan turib sipohgarchilik bilan bir ko'zlab qaradi-da, yuzini chirtta teskari o'girib oldi.

Nima ham qilsa zotdor, tagi ko'rgan qushlar-da, kishi oldida och bo'lsa ham ovqatga qaramaydi. Tovuq bo'lganda edi, pastlik bilan, uyalmasdan o'zini ovqatga urar edi, deb o'yladim. Qushxonadan chiqib ketdim.

Oradan ikki-uch soat o'tkazib, yana qaytib qushxonaga kirdim, sipohi qushlar hali ham o'tirgan qo'ndog'idan tushmay, ovqatga ters qarab o'tirar edi. «Chumchuqday joni bilan bularga sipohgarchilikni kim qo'ygan ekan, izzat-obro' bo'lsa qildim, biroq ovqat yeyayotganda qarab turish yaxshi emas», deb chiqib ham ketdim. Tag'in nimasi qoldi! Jahlim chiqdi. Qushxonaning qirmagul qozig'ida pochchamning qush qo'ndiradigan ov qo'lqopi ilig'li turgan ekan. Qo'limga kiyib oldim-da, miqqiyini ko'tardim. Butimga qisib, og'zini yirib, kumush qoshiq bilan qatiq ichira boshladim. Obdan to'ydi, boshqa qushlarni ham shunday qildim: «Ana endi to'ydilaring. Kishi bir yerda qadalib o'tira bersa ham charchaydi, qorin to'q bo'lgandan keyin kishi tolmaydi. Mana endi o'tira beringlar, qor-nilaring to'q — qayg'ularing yo'q».

Shu xilda ikki-uch kun ammamdan yashirib, o'z bilgimcha qushlarni qatiq bilan siylab yurdim. Qushlarning ichida o'zim yaxshi ko'radigan bittasi bor edi, unga boshqalardan yashirib, qatiqning yuzini berar edim.

Uchinchi kunga borganda erta bilan qushxonaga kirib qaragam, hamma qushlar qo'ndoqdan pastda — hammasi hurpaygan, boshini ichiga olgan, ayniqsa miqqiy qo'ndiq tagida bir qanotini ostiga solib, oyog'ini barala uzatib, yonboshlab yotgan edi.

— Ha, mana, bu kiroyi ish bo'пти, — deb o'yladim. — Yarim qorong'i uyda hadeb qo'nib o'tira berish ham kishini zeriktiradi. Shunaqa o'tirish-turishni ham qilib turgan yaxshi, yonbosh qil, yot, kerish.

Nahorlikka qushlar yana qatiq ichishdi, tushlik no-nushtasi uchun suzma bermoqchi edim, chunki bechora qushlar juda ham yovg'onsirab ketdi.

Qushxonaga kirib, ne ko'zim bilan ko'ray. Miqqiyning qulog'i ostida qolgan, ya'ni o'lgan edi. Qarchig'ay ham jon beray deb turibdi. Masala menga ravshan bo'la boshladi. Endi pochchamga nima deyman! Bu qushlarning har bittasini u ko'zining qorachig'iday ko'rar edi-ku. Bu yerdan ham nasibam uzilganday ko'rinib ketdi. Pochcham qushlarga ovqat olish uchun bergan puldan ikki tangayu bir mirisi hali yonimda. Katta darvozaning ro'parasidagi yo'lakning tepasiga qafasda osib qo'yilgan bir juft qumrini juda ham yaxshi ko'rar edim. Asta borib, qafasni ilgagidan chiqardim. Boshimga qo'yib, katta safar uchun yo'lga tushdim, ammam mushuklarga shovla pishirish bilan ovora bo'lgani uchun, mening chiqib ketganimni payqamay qoldi. Belimda pul, boshimda savag'ichdan to'qilgan katta qafasda kukulab turgan bir juft qumri. Etakni turmaklab, sag'rimga bir mushtlab, «Hayyo, hu» deb, shahardan tashqariga qarab yo'lga ravona bo'ldim.

*Men ketarman yo'lda yig'lab, sen qolursan zor-zor,
Qumri qushning bolasidek ikkalamiz intizor.*

Intizorlik torta-torta tanda toqat qolmadi.

Yo'l chivindek sarg'ayib, yurarga holat qolmadi.

Yo'l chivinning holini yo'lda yo'lovchidan so'rang,

Biz g'aribning holini aqli rasolardan so'rang.

Bir talay manzil-marohil yo'l bosib, ko'p yurib, ko'p yursam ham mo'l yurib, Achchabod degan «shahri azim»ga borganimda, bir to'da katta-kichik, qora-qura o'spirinlar atrofimni o'rab olishdi. Oralarida jussasi menga bir yarimta keladiganlari bo'lgani kabi to'rttasini bir musht bilan qulatadiganlari ham bor edi. Avvaliga yaxshilikcha qumrini sotishni so'rashdi, ko'nmasam zo'rlik bilan olib qolishlari menga ma'lum bo'lgan edi, chor-nochor sotishga ko'ndim, olg'irlar qumrini molga almashtirishni zo'rlab iltimos qildi-



lar. Qumrini molga movoza qildim, molning turlari quyidagilardan iborat:

Uch dona g'alvir gardish, bitta yog'och shaqildoq, ikki dona bolalar o'ynaydigan yog'och beshikcha, bitta terisi va gardishi qizilga bo'yalgan chirmandacha, bitta tutash dastali kurak, ikki chaynam saqich va boshqalar...

Mendan ketdimi, ulardan ketdimi, — xudoga ayon. Tavakkal, yo ostidan, yo ustidan.

Bu yuklar qumriga qaraganda ikki baravardan ko'proq og'ir edi. Hammasini yelkamga qo'yib, bu shahardan ham chiqib ketdim. Oldimda katta bir cho'li azim paydo bo'lgan edi, «qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan» bu cho'lda yelkamda boyagi yuklar bilan ketib borar edim. Uzoqdan bir kishining qorasi ko'rina boshladi. Men unga, u menga qarab kelar edik. Nihoyat to'qnashdik, bu to'qnashish mening behad va bepoyon xursandchiligimga sabab bo'ldi. Chunki bu kishi o'z shahrimdan, bir mahallalik, mendan bir-ikki yosh kattaroq Omonboy — Tursun pichoqchining o'g'li, o'z o'rtog'im edi. Yelkasida yetti yarim qadoqlik ketmon — mardikor ishlab yurgan ekan. U mening ustimdagi yuklarni ko'rib hayron qoldi. Ayniqsa, gardishni ko'rib, meni chalma quyish uchun qishloqqa chiqib ketyapti, deb o'ylagan ekan. Yo'lning chekkasiga chiqib, bu cho'l-biyobonda bo'lgan yakkagina jiydaning salqinida o'tirib hasratlasha ketdik.

Yakka jiydada meva ko'rinmas edi. Men Omonga juda biladiganlarday ma'nodor qarab:

— Jiyda solkash¹ ko'rinadi, bu yil meva qilmapti, — dedim. Omon menga qarab kuldi.

— Voy, ahmoq. Hozir saraton. Saratonda jiyda mevalari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi. Bir oydan keyin mevalar qaytib keladi, — dedi. Men esimdan chiqargan ekanman.

¹ Bir yil hosil qilib, bir yil hosil qilmaydigan meva daraxtlari solkash deb ataladi.

Har ikkovimizning ham dunyo qidirib, baxt izlab yurgan o'spirinligimiz ma'lum bo'ldi. Molu jonni bir qilib, ahdu paymon qilishdik-da, katta ulug' safarni mo'ljal oldik. U ham kelgan izi bilan orqaga qaytdi, birgalashib, «cho'li malik» bilan ketar edik. Kechga yaqin juda ham katta bir «shahar»ga kirib bordik. Bu shaharning oti Ko'kterak ekan. O'rtog'imning yonida mardikorlik bilan topgan puli — mirkam ikki tanga, menda bo'lsa qatiqdan qolgan ikki tanga bir miri pul bor. Samovarga tushdik. Bozorni kutib ikki-uch kun shu pullar bilan samovarda tunadik. Juma kuni bozor edi. Erta bilan bozorga chiqdik.

Hay-hay, bozor bo'lganda ham qanday bozor deng? Bu tomoni Eronu Turon, Makkayu Madina, Maymanayu Maysara, Xitoyu Chin, Istambul Mozandaron — na quyi, na past, na o'ngu, na chap. Bunday katta bozorni odam bolasi ko'rmagan bo'lsa kerak. Bozordagi rastalarini ayting, mollarning shig'al to'lib ketganligini ayting, bozor ahlining turlanganini ayting. Savdogarlarning makkor basharalarini, rango-rang kiyim-boshlarini ayting. Baybay, bunday bozor «Qissasul-anbiyo»da ham, «Huriliqo» degan kitobda ham yozilmagan, hech qayerda — tarixda yo'q.

Mana, bir chekkada tomosha qiling! Mana bu attorlik. Bir qator attorlar eski qop, yag'ir sholcha, yirtiq bo'z parchalardan qizil, oq, ko'k, yashil laxtak quroqlardan turli-tuman soyabonlar yasab, mollarni bevosita yerning o'ziga yoyib qo'yibdilar. Bu mollar ichida jahondagi attorlikning hamma jihozi topiladi. Bit, burgaga qarshi ishlatiladigan o'ldirilgan simob deysizmi, qo'tirga qarshi indov yog'i, yomon yaraga qarshi xuni dori, mozi, zanjabil, sanoyi makka, kuchala, ko'zmunchoq, dumaloq upa, ko'rpa igna, soqol taroq, halilan zang degan quvvat dori, ishtonbog', ishton pocha, buxor saqich, qora saqich, har qanday yaraga dori bo'lgan balzammoy, qalampir munchoq, tomir dori — qo'ying-chi, hamma narsa bor. Irvit deysiz, Irvit!



Bu mollarni saralab turlaganga, bir yerga jam qilishga aqli yetgan kishiga qoyil qolaverish kerak.

Ana, ikkinchi rasta! Bir tomonda kulollik mollari, bir tomonda sovungarlik. Sopol tog'ora deysizmi, tog'oracha deysizmi, xumdondan yangi chiqqan xum deysizmi, xurmacha, xo'qacha deysizmi? Chertib ko'rishga ma'tal, jaranglab ketadi.

Bir tomonda kulcha sovun, yaxnak sovun, mum sham. Sovungarlar oldida qopda, xurjunda harom o'lgan mollarning jizzasi, ichak-chavoqlari. Ming-ming zangori pashshalar g'uvillab turibdi. Bulardan bir qadoq sovun olmoq uchun yo dimog'ni ro'mol bilan bog'lash kerak yoki burrunni eng ichiga olib turish kerak. Ba'zi xushmuomala sovunganlar xaridorni alaxsitib, o'ziga jalb qilish uchun bir piyola choy, bir burda non ham taklif qilib qo'yadilar. Dunyodagi hidlar ichida sovun bozorning hididay «xushbo'ylik» jahonda bo'lmasa kerak. Kimga nima yoqadi? Omonga sovun bozor yoqar edi.

Bu bozorlar ichida menimcha ta'rif-tavsifi yetti iqlimga ketgani «bit bozor» deb nomlangan rasta bo'lsa kerak. Bu yerda joningizga orom beradigan hamma narsa topiladi: saldoti shim deysizmi, poyma-poy sag'ri kavush deysizmi, biror yetti yilgina kiyilgan, asli matoi nima ekanligi ma'lum bo'lmagan guppi deysizmi, Mallaxon zamonidan qolgan mursak deysizmi, chevar qizlar uchun rango-rang quroqlar deysizmi, ot bo'ktargisi, yolpo'sh, gulchin bilan tagcharm qo'yilsa hali kiysa bo'ladigan nimdoshgina saxtiyon mahsi deysizmi, paytavabop mollarning va lungibop matolarning son-sanog'i yo'q.

Bu mollarni yoyib o'tirgan chayqovchilarning aftibasharasini aytmaysizmi. Betlariga bu hafta ichi suv tegmagan, soqollari ustaradan ozod, basharalaridan «nur» yog'ilib turadi. Bir molni so'rab qolsangiz, eng avval xuddi ammasining o'g'li tirilib kelgandek, albatta, qo'l olib so'rashadi, keyin narx aytadi. «Amirkon-amirkon» degan joy bor, deb eshitib yurar edik, amirkoni shudir-da!

Xuddi ana shu bozorda o'z mahallam, o'rtog'im, bo'yinchado'z Omonbiyning o'g'li Husnibiyni uchratib qoldim. U ota kasbini o'zgartirib, laxtakfurushlik qilib yurar edi. Laxtak deb har bir to'p molning tagida qolganini aytiladi. Chunonchi bir to'p chitni gazlab-gazlab sotib bo'lgandan keyin oxirida to'p tagi bo'lib, yarim gaz, chorakkam bir gaz laxtak qoladi. Bu laxtaklarni katta chitfurush gazlamachilar arzonroq baho bilan ko'tarmachilarga sotadilar. Ular bu rang-barang, guli-guliga to'g'ri kelmaydigan turli-tuman laxtaklarni xurjunga solib, yelkaga tashlab, bozorma-bozor sotib yuradilar. Eng kattasi bir yarim gazdan oshmagan bu laxtaklarning xaridori ko'p bo'lar edi. Chunki bir gaz arzon chit sakkiz yarim paqir (bir paqir — ikki tiyin) bo'lgani uchun bosh-oyoq ko'ylak-ishtonni nuqul chitdan qilish ko'p kambag'allarga muayassar bo'lmas edi. Shuning uchun ular ko'ylak-ishtonni bo'zdan qilib, ko'ylakning yeng uchini, ishtonning pochalarini — ko'rinadigan joylarini chitdan qilishar edi.

Husnibiy bir xurjunning ikki ko'zi to'la laxtak, qo'lida gazcho'p:

— Poplin deysizmi, xushvoq deysizmi, chidaganga chiqargan deysizmi, burga chit deysizmi, rohatbadan deysizmi, madipolom deysizmi, surup, tik, shayton teri deysizmi, kep qoling, xaridor! — deb bozorni boshiga ko'tarib, baqirib yurar edi.

Birdaniga men bilan Omonga ko'zi tushib qoldi. Xuddi Imom Hasan bilan Imom Husanni tirik ko'rgandek quvonib ketdi.

— Iya, o'z'laringmi? — dedi-da, menga qarab: — Sen lo'liga shogird tushdingmi? Sen-chi, Omon? Men ota kasbimdan baraka topmaydigan ko'rindim. Laxtakfurushlikka o'tdim. Dastmoyam uch yarim so'mga yetdi. Mana bu mollarni qara. Yusuf Davidovning magazinida ham yo'q.

So'ngra menga qarab javray ketdi.

— O'zing bir hafta-o'n kundan buyon qayerlarda sanqib yuribsan? Onang bechoraning qidirmagan joyi qolmadi-



ku. Bir og'iz xabar berib qo'ysang o'larmiding! Haytovur pochchang kelib onangni tinchitib ketibdi. Besh kuncha biznikida turdi, undan keyin Qoplonbekka — amakilarinikiga chiqib ketdi. Kuzgacha dehqonchiligiga qarashib, biror nima orttirib kelmoqchi ekan, debdi. Undan keyin oying yig'lamay qo'ydi. Birrov tushib chiq, ahmoq.

— Uncha-muncha pul qilay, kiyim-boshimni tuzatay.

— Voy ablah-ey, pochchangning qumrisini nima qilding?

— Nima qilibman?

— Lo'lilarga sotgan ekansan-ku!

— Sotmaganman, molga ayirbosh qilganman.

— Mollaring shumi, boy bo'lib qolibsani, ey lo'livachcha. Qo'rqma, pochchang Nabi mirshabni yetaklab borib, ikki so'm to'lab qumrisini ajratib olibdi.

— Ajab bo'пти, bundan keyin hushyor bo'ladi, kim ko'ringanga «boyvachcha» qushlarini ishonib topshiravermaydigan bo'ladi. Ha, mayli. Endi buni qo'y, mahallada nima gap, qiziqroq gap bormi?

— Nima ham bo'lar edi. Jalil baqqol machit tobutxonasining tepasiga beda bosib qo'ygan ekan, o't tushib ketdi. O't o'chiruvchilar kelib rosa tomosha bo'ldi.

Po'latxo'ja akasining to'pponchasini o'g'irlab, qorovulning itini otib qo'ygan edi, mirshab bir kun qamab qo'ydi. Tekshirgani ikkita mirshab bilan Mochalovning o'zi keldi. Hamma in-iniga urib ketgan degin, men bilan Solih Miraziz akaning boloxonasidan mo'ralab rosa tomosha qildik.

— Ay-ay, sart, — dedi Mochalov, — jaman, savsem jaman, tuvaya Sibir poydesh, ey kizimni...

— Juda ham dahshat. Po'latxo'janing akasi «pojaliska, pojaliska», deb ancha pul berib zo'rg'a ajratib oldi.

Shundan buyon Po'latxo'ja o'rtoqlarimiz ichida Nabi mirshabingdan ham, Mochalovingdan ham, Ko'r Rahim qorovulingdan ham qo'rqmayman, deb kekkayib

yuribdi, «Qo'y-qo'y» desak, «Hammangni otib tashlayman» deb do'q qiladi.

— O'zim borganda tanbehini berib qo'yaman, — dedim.

Omon piching aralash: «Shunday qilib qo'y», — dedi.

— Oyimga, ukalarimga salom aytib qo'y, xavotir olishmasin. To'xta, mana shu bir mirini Yo'ldoshga berib qo'y, tunov kuni oshiqda yutqazgan edim. G'irromlik qildi, deb yurmasin. Xayr!

Ikkovimiz ikki tomonga ketdik. Omonning ketmoni bilan mening qumriga morvoza qilgan mollarimni bozorga soldik. Xaridor juda ko'p bo'ldi. Mollarimizning bozori chaqqon. Xaridorlardan ham ko'ra so'rab o'tuvchilar ko'p edi. Bu kishilar ayniqsa mening mollarimning bahosidan ko'ra, bu mollar turmushda nimalarga kerak bo'lishini so'rar edilar.

Biror soat sanqiganimizdan keyin, Omonning ketmoni bilan mening yog'och kuragimni sotishga ulgurdik. Shunda ham o'rtaga dallollar tushdi.

— Qani, ha uka, baraka de, — deb yarim soatcha qo'l siltab savdolashgandan keyin ketmonni yarim so'mga, kurakni bir yarim tangaga «bor baraka top» qildik. (Yoz bo'lgani uchun kurakning bozori kasod edi, attang, arzon ketdi).

Pulning hammasini Omon belbog'iga tugdi. Endi qolgan mollarni pul qilish kerak edi. Bola beshik bilan shaqildoqni Omonga berdim. Gardishlar bilan childirma menda edi. Men childirmani, Omon shaqildoqni bozorga solib chala ketdik. Bu tekin sayyor konsertning nogahon ovozini eshitgan, tevarak-atrofdan salanglab yurgan o'zimiz singari bir talay uvin-to'da bolalar bizni qurshab olgan edilar. Ayniqsa bir do'lvargina bolaga shaqildoq yoqib qoldi. Dehqon bola ekan. Qo'yarda-qo'ymay bir qovun, ikki tarvuzga alishib oldi. Men Omonga: «Qoyilman, qo'ling yengil ekan», degandek ko'zimni qisib qo'ydim.

Childirmani naqd pulga, bittangayi ashrafga saman ot mingan xushmo'ylov yigitga pulladik. Tez orada g'ardishlar



bilan bola beshikning ham «ko'r xaridori» topildi. Bozorga tovuq, tuxum, so'k, qurt olib tushgan qozoq kampir:

— Voy-bo'y qaraqlarim, o'si beshikti mag'an berag'o'y. Boldaring'a bozorliq olib borib quvontirayin, — dedi.

— Beshik gardishdan ajratib sotilmaydi, — dedi Omon Xo'tan savdogarlariga xos sipoyigarchilik bilan.

— Voy-bo'y qarag'im, to'ri jo'q g'albiringni ne qilayin. Keytayin, olsam olayin. Boldar o'ynab jurar. Ne berayin, ne so'raysinlar?

Uzoq savdolashdik. Keyin yigirmata tuxum, bir do'ppi so'k, o'nta tuya qurtga biz ham rozi bo'ldik, kampir ham ko'ndi. Mollarni tamoman sotib, qushday yengil tortdik.

— Charchadik, ozgina ovqatlanaylik, — dedi Omon.

— Yur bo'lmasa, nima yeymiz?

— O'zi arzonu to'q tutadigan ovqat bo'lsin, — dedi Omon.

— Bo'lmasa tariq go'ja ichamiz.

— Bo'pti.

Bir paqirga ikkita qovoq solgan zog'orani olib, ovqat bozorga ketdik. Bu yerdagi ne'matlarni ko'ring. Hay, hay, hay. Bir oz hidi bo'lsa ham jigar kabob deysizmi, kartoshka somsa, oqshoq bo'tqa, umoch, bug'doy go'ja, tariq go'ja deysizmi — hammasi ham chelak-chelak, xo'randaga muntazir. Xo'randalar sotuvchining atrofini o'rab, yerga cho'qqayib o'tiribdilar. Oshpazlar cho'michlab suzib berib turibdi. Bir tovoq uvra oshdan bir nima chiqdi shekilli, xo'randa:

— Buning nimasi? Pashshami? — deb so'rab qolgan edi, oshpaz:

— Oshda pashsha nima qiladi! Piyozning kuygani, — deb kosaga qo'l tiqib «kuygan piyoz»ni olib og'ziga solib yubordi.

Arzonginasi, halolginasi shu deb biz ham bir tovoqdan quydirdik. Bir tovog'i to'qqiz pul — uch tiyin ekan. Biz savdolashib ikki tovog'ini bir miri — besh tiyinga ko'ndirdik. Bay-bay, maza bo'pti-da. Qirsillab turgan zog'ora

bilan sal achinqiragan uvra osh og'zimizga qaymoqday ta-
tib ketdi. Tovoqni boshiga ko'tarib, huzur qilib xo'rillab
ichayotgan Omon peshonasidagi marjon-marjon terlarini
chap qo'lining barmog'i bilan dam-badam sidirar edi.

Ovqatdan so'ng maza qilib kerishib oldik. Tuxum, so'k,
qurtlarni mening belbog'imga tugib oldik. Omon:

— Oziqlik ot horimas, qolgan zog'orani ham ro'molga
tugib qo'y, — dedi.

Qovun bilan tugunchani men, tarvuzni Omon ko'tarib
oldi. «Semizlikni qo'y ko'tarar» deganlaridek, Omonga ba-
davlatlik yoqmas edi. O'rtadagi hamma pulimiz allaqachon
uch so'mdan oshib ketgani uchun Omon yangi qiliq —
boyvachcha qiliq chiqara boshladi.

— Yur, — dedi u menga, — qo'y bozorga kiramiz.

— Nima qilamiz?

— Men o'zimga tegishli aqchaga birorta to'qli olib sha-
harga haydab ketaman.

— Nima-nima? — dedim men. — Darrov pul qutur-
tirdimi? O'zing so'qqa joningni boqolmaysanu, to'qlini
qanday qilib boqasan. Yoki dadang Tursunboy akaning
to'qliga ko'zi uchib turibdimi?

Baribir gap kor qilmadi. Meni sudrab mol bozorga
olib kirdi. Tugunni-ku, ishonmas edik. Bozor darvozasi
oldida turgan pattachining oldiga qovun bilan tarvuzni
omonat qo'yib ichkari kirdik.

Mahshar deganning xuddi o'zginasi shu yerda ekan. Bir
tomonda bir arqonga bog'langan qo'shoq-qo'shoq qo'ylar,
bir tomonda echkiyu uloqlar tinmay ma'rashib turibdi. Bir
chekkada qoramol bozori: sigirlar, buzoqlar, g'unajinlar,
buqalar, ho'kizlar. Narigi tomonda ot bozori. Jalloblar
qirchang'ilarni Zolariq suviga solib, qamchilab, arg'imoqday
dingillatib xaridorlarga ko'z-ko'z qilib yuribdi. Sotuvchi ko'p,
undan oluvchi ko'p, hammasidan ham dallol ko'p.

Kun — tig'ida, jazirama, chang. Hamma yoqni tezak,
ter, jun hidi bosib ketgan. Bir meshkob orqasida bir mesh
suv, qo'lida ikkita sopol tovoq.

— Obi xudoyi, obi xudoyi, — deb chanqaganlarga suv ulashib yuribdi.

Bergan biror chaqani sopol tovoqqa tashlaydi, bermagan bilan ishi yo'q.

Bir chekkada yalang oyoq ikkita bola «muzdek ayron», deb qichqiradi. Chelakning ichida bir burda kir muz. Muzni qayerdan oldi ekan?

Bozorning bir chekkasida — beshyog'ochlik qo'ychi boylardan Soyibnazar qo'ychi bilan Ilyos bo'rdoqi. Kiyiz chakmonli, namat qalpog'ini bostirib kiygan qozoq qo'ychilari qo'l siltashib savdolashyapti. Dallollar «oling, oling», «soting, soting, boy ota», deb javrab turibdi. Bularning savdosi oz deganda yuzlab qo'yning teppasida.

Biz hali biror tuyaning tishini ko'rmasdan, biror otning yo'rig'ini bilmasdan, biror buqaga «bor, baraka top» demasdan, qo'y bozorning kun chiqar tomonidan g'ala-g'ovur janjal ko'tarilib qoldi.

— Ur, sheshangdi!..

— Kisabir, kisabir!

— Bozorg'a uri aralabdi!

«Chur-chur» hushtakbozlik. Bir qo'li bilan qilichini ko'tarib, ko'k movut shimini eplay olmay, alpong-talpong bir qozoq va bir o'zbek mirshabi o'sha tomonga qarab yugurdi. Hamma o'sha yoqqa qarab chopdi. Biz ham ularning ketidan yugurdik.

Ne ko'zim bilan ko'ray, mana ishonmasangiz Omon ham guvoh. O'rtada bizga qo'shni bo'lgan Qo'g'urmoq mahallalik mashhur Sulton o'g'ri turar edi. Bu gal u kisavur sifatida emas, balki pul o'g'irlatgan jabrdiyda bechora sifatida kosibsimon yuvoshgina bir yigitning yoqasidan ushlagan holda ko'ziga yosh olib turar edi.

— Musulmonlar! — der edi u. — Pulimni oldirib qo'ydim. Yonimda mana shu yigit ilashib yurgan edi, gumonim shundan.

Yigit bechoraning rangi quv o'chib ketgan, lablari piri-piri uchadi.

— Ey xudo, quruq tuhmatıngdan asra, qanday baloga yo'liqdim, o'zing saqla! — deb javob berar edi u.

— Qancha aqchang bor edi? — deb so'radi qozoq mirshab Sulton kisavurdan.

— Sakkiz so'mu mirikam to'rt tanga. Ola tik hamyonda edi. Ichida «Yo Ali» degan tamg'alik kumush uzugim ham bor. O'zim kambag'al kosib odamman, birorta oriq-turiq qo'y olib kuzgacha semirtirib yuraman deb kelgan edim.

Shu tobda Sultonning ko'zi men bilan Omonga tushib qoldi.

— Mana bu bolalar ham guvoh!

Hang-mang bo'lib qolgan Omon: «Iye, iye», — deganicha dadasiga to'qli olib borishni ham esidan chiqarib orqasiga qarab qochdi. Men bezrayib turaverdim.

— Seni qancha aqchang bor edi? — deb so'radi mirshab sho'rlik kosib yigitdan.

— Meniki ham olacha tik hamyon. Men ham qo'y olgani kelgan edim. Pulim sakkiz so'mu mirikam ikki tanga (mirikam ikki tanga — o'ttiz besh tiyin).

— Guvoh-puvohning hojati yo'q. Qani ikkoving oqsoqolning oldiga yurchi, o'sha yerda yechamiz. Olomon tarqalsin, — dedi o'zbek mirshab.

Ikkovini yetaklab bir tomonga olib ketdilar. Biz orqalaridan bormadik.

Sulton o'g'ri guvohlikka tortgandan keyin qo'rqib qochgan Omonni kechgacha qidirib, bozor tarqalganda Tuya saroyidan topib oldim. Hali ham qo'rqqanidan o'ziga kelmagan edi.

— Oxiri nima bo'ldi? — deb so'radi Omon mendan.

— Kisavurga sen sherik ekansan. Mirshablar qidirib yuribdi, — dedim men.

— Rostingni? Endi nima qilamiz?

— Nima qilar edik. Seni jatingga qovun bilan tarvuz pattachining qo'lida qolib ketdi.

— Endi qayerda yotamiz?

Bir-ikkita samovarga borib ko'rdik. Hammasini savdo-



garlar, lattafurush chayqovchilar egallab olibdi, yotar joy yo'q.

— Endi qayoqqa boramiz? — dedi Omon.

— Qo'rqma, bultur tog'am bilan shu yaqin orada bir bo'zagar kampirning uyida yotib qolganmiz. Yaxshiqiz degan kampir meni taniydi. O'shaning o'tovida tunab qolamiz.

It quvgan tulkiday olazarak Omon menga ergashdi. Tunni ko'tartirdim. Yaxshiqiz degan bo'zagar kampirning o'toviga qarab ketdik.

Kampirning o'tovi Zolariqning chap qirg'og'ida edi. Atrofi ozodagina qilib supurilgan. Tuproqdan kattagina supacha ko'tarilib, ustiga bir kir sholcha tashlab qo'yilgan. O'tovning yonboshida loy o'choqqa o'rtacha kattalikdagi bir qozon o'rnatilgan. O'choqdan nariroqda ikkita ayriga ip arqon tortib, unga chamberaklarda uch-to'rtta sopol tovoq osib qo'yilgan. Sut-qaymoq bo'lsa kerak. Ikkita qovoq idish osig'liq turibdi. Ularda qatig bo'lsa kerak. Qozon tuvoqsiz, uning yonida bir o'g'ir, bitta kuv turibdi. Bitta yechiq buzoq shatoloq otib o'ynoqlab yuribdi. Chala qurigan bir tolga bog'lab qo'yilgan qari ola ko'ppak juda hafsalasizlik bilan ko'ksovlarning yo'taliga o'xshagan ovoz bilan hurib bizlarni kutib oldi. Itning ovozig a o'tov ichidan kampir— Yaxshiqiz chiqib keldi. Oltmishlardan oshgan bir xotin, oq oralagan sochlari taralmagan boshida dakana, belida shol belbog'. Ayolning orqa sochiga besh-oltita bir so'mlik, yaram so'mlik so'lkovoylardan saqina¹ osilgan.

— Salom, sheshe.

Kampir alik olishdan avval itga «shpcht adrag'og'ur» deganga o'xshagan ovoz chiqardi. It hurishdan tindi.

— Kelinglar, jigittar, o'si jerga o'tirib turinglar, — supadan o'rin ko'rsatdi u.

Men imlab qo'ydim. Omon qo'lidagi tugunni kampirga tutqizdi.

¹ Saqina — sochpopuk o'rniga taqiladi.

— Ozg'intoy bozorliq, — dedim men.

— Keregi jo'qg'o'y. Ne qilib alek bo'lib juribsendar, — degan bo'lsa ham, tugunni olib o'tovga kirib ketdi.

Bir nafasdan keyin chiqib:

— Qani, jigittar, bo'za ichasingdarmi? Et osaymi? — dedi.

— Jo'q, sheshe, bo'za ham ichmaymiz, et ham os-mang, o'ntacha tuxum pishirib bersangiz bo'ladi. Joy ber-sangiz tunab ketamiz.

— Jaqsi, — dedi kampir, — xudoyning osmoni ham, yeri ham keng. Joz kuni. Qalag'an yerlaringda jota berasin-dar. Ikkoving bir tanga berasin.

— Jo'q, sheshe, — dedim, — ikkovimiz yarim tanga beramiz.

— Sartting bolasi quv bo'ladi, jota qollaring. Bu kecha bozor kech, qo'noqlar keledi, boyvashshalar keledi, an-gime zo'r bo'ladi.

Kampir bizga tuxum qovurib bergani qozonning tagiga o't qo'yib, tappi tutata ketdi. Omon bilan ikkovimiz endigi safarimizning rejasini tuzib, maslahatlashib o'tirdik. Ya-rim soatlardan keyin bitta sopol laganda tuxum qovurdoq bilan, qozonga yopgan ikkita chap-chap non keltirdi. Bir kosadan sovuq suvni oldimizga qo'yib, mohazarni tushira ketdik.

Omon laganning tagini non surkab yalab turganda ko'cha-ko'yni to'ldirib, ayqirib-chayqirib besh kishi ki-rib keldi. Novcha bir yigitning yelkasida bir nimta go'sht, qo'lida tugun, unda non, kartoshka, piyoz bo'lsa kerak. Yana bir yigit mullavachchalarga o'xshash qulf soqol qo'yan, boshida girdak kir sallasi bor, xushtovoze. Ich yaktagining ustidan belbog' bog'lab, uning ustidan yana bitta yaktak kiyib olgan. Oldinda kimsan, Sulton kisavur. Shimining pochasi shimarilgan, belbog'i burab-burab ar-qon qilib bog'langan. Egnida yoqasi ochiq tik yaktak, is-qirt, do'ppisining bir chekkasi qaytarilgan. Boshi sal orqaga moyil, basharasi behayo. Qo'lida to'rtta xirpa oshiqni o'ynab



kelar edi. Qolgan ikki yigitni ham Sultonning nusxasi desa bo'ladi. Faqat bittasining bir ko'zida g'olakdek oqi bor. Bittasining o'ng yelkasi chap yelkasidan baland. Shuning uchun ham chap qo'li o'ng qo'lidan uzun ko'rinadi.

Bularni ko'rish bilanoq Omonning chaynagani og'zida, yutgani bo'g'zida qolib, menga baqrayib qaradi. Men unga «supani bo'shatamiz» degandek imo qildim. O'rnimizdan turdik. Zolariq yoqasida it bog'langan tolning tagidagi may-saga borib o'tirdik. Sul-ton kisavur:

— Shesha, omonmisan, — dedi. — Bu kech bizni qo'noq qilasan. Yaxshi chiqqan bo'zalardan bormi?

Keyin bizga ko'zi tushib qolib:

— Hoy, sen haromilar, bu yerda nima qilib yuribsan-lar? Qani bu yoqqa kel! — dedi.

O'zi va ulfatlari supaga chiqib o'tirib, bizni ham yon-lariga chaqirdilar. Noiloj kelib o'tirdik. Kampir kir das-turxonga bir dasta non o'rab olib kelib o'rta-ga tashladi. Keyin katta quruq yog'och chora ham olib chiqib o'rta-ga qo'ydi. Sultonga qarab so'radi:

— Oqshoq bo'za ichasindermi, tari bo'za ichasindermi?

— Zo'r chiqqanidan olib kelaver, — dedi Sul-ton.

Kampir o'tovga kirib ketdi. Sul-ton bizlarga qarab:

— Hali mol bozorda nima qilib yuruvdilaring? — dedi.

— O'ynab yuruvdik.

— Ha-ha. U yerda nima o'yin bor ekan. Yo o'zimga sho-gird qilib olaymi? — Omonni ko'rsatib: — Mana bundan tomteshar chiqadi. Kisavur bo'lolmaydi, qo'pol, — dedi.

Shu hazil-mazax paytdan foydalanib, undan so'radim:

— Sul-ton aka, haligi janjalning oxiri nima bo'ldi?

— Voqea aslida bunday bo'lgan edi, uka, — deb Sul-ton kisavur gapirib ketdi. — Ko'kterakning samovarida bir necha kisavurlar o'zining epchilligi, qo'rqmasligi, ayyor-ligi bilan maqtanishar edik. Shunda men o'g'irlagan pulimni halol qilib, egasini rozi qilib ololaman deb yuborgan edim. Ulfatni bo'zaga to'ydirishdan bahs boylashgan edik. Qo'y bozorga kirdim. Ko'zimga o'sha ko'rganing bayov kosib yigit

uchrab qoldi. «Shilt» etib hamyonini oldim, pulini sanab ko'rsam sakkiz so'mu mirikam ikki tanga ekan, yonimdan unga ikki tanga qo'shdim. Uzugimni ham hamyonga solib, hamyonni qaytadan yigitning cho'ntagiga joylab qo'ydim. Keyin o'sha ko'rganing maynabozlik, yolg'ondakam ayyuhannosni soldim. Mirshablar oqsoqolga olib borishdi. Oqsoqol mening da'vomni, uning raddini eshitib, pulni tekshirishga tushdi. Kosibning cho'ntagidan hamyonni olib, ichidagilarni xontaxtaning ustiga qo'ydi. Mening da'vom to'g'riligi uchun yigit «kisavur» bo'lib chiqdi.

Hamyonni, pulni, uzukni menga olib berdilar. Lekin bir yarim tanga cho'tal olib qoldilar. Shunday qilib, o'rtoqlarim bilan qilingan garovni yutdim.

— Iye, sho'rlik begunoh kosib yigit qulog'ini ushlab ketaverdimi? — dedim.

— Yo'q, birpas qamalib yotdi, keyin bechoraga rahmim kelib, mirshabga bir so'm pora berib, yigitni qutqazib yubordim, da'vom yo'q, dedim. Yigit bechora xursand bo'lganidan bo'ynimdan quchoqlab o'pib:

— Rahmat, aka, bu yaxshiligingizni o'lgunimcha unutmayman, qiyomatlik aka-uka tutindik, uyim To'qli jallob mahallasida, otim Abdurayim, — deb minnatdor bo'lib ketdi.

— Balli, yigitlik shunday bo'пти-da, aka, — dedim.

Sulton kisavur miyig'ida kulib «shunday» degandek qilib qo'ydi.

Hammamiz qah-qah urib kulishdik. Sulton kisavur yonboshlab, tirsagiga tayangan, novcha kishi supaning yonida tikka turibdi. Mullanamo kishi tiz cho'kib, ikki qo'lini qovushtirib Sultonning gaplariga miyig'ida odob bilan tabassum qilib o'tirar edi. Qolgan ikki yigit bir-biriga ro'para chordana qurib, gugurt otishib «ermak qimor» o'ynab o'tirishgandi.

Kampir et osib yubordi. O'choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o'rlab, tevarak-atrofga ko'rpadek yoyilar edi.



Shom cho'kib, quyosh botib borar edi... O'choqda o't tutashib ketgandan keyin kampir o'tovga kirib ikkita qovoq manak (bo'za quyiladigan idish)da bo'za keltirib qo'ydi. Bir necha zarang kosa olib keldi. Novcha yigit darrov belbog'ini yechdi, uni qoqqan bo'lib, choraning ustiga tarang qilib yoydi, bo'zani suza boshladi. (Bo'za odatda ilitib ichiladi. Kampir olib chiqqan bo'za kuni bo'yi oftobda turgani uchun ilitishga hojat yo'q edi). Bo'za suzishning o'z qoidasi bor. U siqib suzilmaydi, balki ro'molni sidirib suziladi.

Novcha yigit suzgan bo'zadan ozgina tatib ko'rib, birinchi oyoqni Sultonga uzatdi.

— Hammaga quy! — dedi Sulton.

Novcha yigit ikkinchi-uchinchi oyoqni haligi ikkita yigitga uzatib, so'raganday Sultonning ko'ziga qaradi.

— Bolalarni qo'yatur, domlaga uzat, — dedi Sulton.

— Yo'g'-e, yo'g'-e, o'zlaridan bo'laversin. Biz ichmaymiz. Ya'ni, xudo kalomida aytganki...

— Kalom-palomingni yig'ishtirib qo'y, qachondan buyon ichmaydigan bo'lib qolding, — deb o'shqirdi Sulton, — islovatda sarqitimizga mast bo'lib yurar eding-ku.

— Ya'ni, ya'ni... tavba qilganmiz.

— Kisavur bilan o'g'rining tavbasi tavba emas. Esingdami, kisavurlikni ham uddasidan chiqqan qiladi. Bultur kuzakda Salor bo'yidagi Kapponda oraga men tushmasam, olomon seni o'ldirib yuborar edi. «O'g'ri qarisa so'fi, g'ar qarisa parixon bo'ladi», deb bekorga aytmagan-da. Tavba qildim, deydi-ya! Ha-ha, endi eshon bo'lib, qishloqma-qishloq murid ovlab yuribsanmi? Ol buni!

Domla juda qimtinib, o'ng'aysizlanib, zarang kosani qo'liga oldi.

— Durvazang qizigandan keyin alyor ham aytib berasan hali. Ich-ey, payg'ambarning merosxo'ri!

Ortiqcha gap o'tmasligini sezgan domla ko'zini chirt yumib, bo'zani shimirib yubordi.

Bizni ichishga ko'p zo'rlamadi. «Hali obdon icharsanlar», — dedi Sulton.

Manak ustiga manak keldi. Chala pishgan sho'rva keldi, ichaverdilar, domla bo'lsa allaqachon sallani chuvatib, beliga bog'lab olgan. Xudoning birligini o'rtaga solib, tilab olib ichmakda edi. Almoysi-aljoyi alyorlar:

*Bu tog'larning yonboshida o'tim yurgan,
 Quyushqoni sag'risiga botib yurgan.
 Sendek-sendek nomardlarni men ko'p ko'rgan
 Oq tomog'im, yo'rg'alang, alyor bo'lsin.
 Onasini boyvachchaga sotib yurgan.
 Alyorey-alyor, alyor bo'lsin-ey.
 Tog'dan quyon qochirdim, iyagi yo'q,
 Qizlar ko'ylak kiyadi jiyagi yo'q,
 Jiyagi yo'q joylariga qo'lim solsam,
 Qo'sh kaptari hurkib qochar, suyagi yo'q.
 Alyorey-alyor, alyor bo'lsin.
 Oq tomog'im, yo'rg'alang-ey, alyor bo'lsin.*

O'tirish sekin-sekin bema'ni tomonga qarab qizib borar edi. Sekin o'rnimdan turib, Omonni imladim. Yalinib-yolvorib Yaxshiqiz kampirdan bitta kichik sholcha bilan bitta xushvaqtdan tikilgan kir lo'la bolish so'rab oldik. O'tovning orqasiga o'tib, joy qilib yotdik. Mastlar payqagani ham yo'q. Tun yarim kechadan oqqan bo'lishiga qaramasdan mastbozlik, shovqin-suron, to'polon tobora avjiga chiqar edi. Yana kimlardir kelib qo'shildi, tanish bo'lmagan ovoz ko'payib ketdi. Kimdir kular edi. Kimnidir tutib olib urardilar shekilli, dodlab, xudoni o'rtaga solib yig'lar edi.

— Azbaroyi xudo, borim shu, boshqa pulim bo'lsa, imom a'zam ursin.

— Lippasini axtar, dayusni!

Domlani to'namoqda edilar. Bunday to'polonlarni ko'ra berib ko'nikib ketgan Yaxshiqiz kampir bemalol o'choq boshi bilan o'tov o'rtasida xizmat qilib yurar edi.



Keyin uxlab qolibmiz. Qancha uxlaganimizni bilmayman. G'ira-shirada kimdir biqinimga turtganidan uyg'onib ko'zimni ochdim. Tepamda kechagi domla turar edi. Boshida shoshib-pishib o'ralgan kir salla, bir chakkasi ko'kargan, qovog'i shishgan, bir ko'zi qontalashgan.

— Tur, uka, turinglar, hammasi dang uchib yotibdi. Qochmasak bo'lmaydi. Mening bo'ladiganim bo'ldi, rasvo qilishdi. Nos puli ham qolmay, bor-yo'g'imni shilib olishdi, yana bir baloga yo'liqmaylik. Boshim yorilguday charsillab turibdi.

Omonni uyg'otdim, dik etib turib, Zolariqning muzdek suviga apir-shapir yuz-qo'limizni yuvgan bo'ldik, o'z etagimizga artindik.

— Xo'sh, qayoqqa qochamiz, taqsir?

— Xudoy taoloning dargohi keng, to'rt tomonimiz qibla. Yuqoriga, Qing'iroq tepa tomonga qochamiz.

Uchovlon «shilt» etib chiqib ketayotganimizda Yaxshiqiz kampir yo'limizni to'sdi:

— Qayoqqa qochyapsanlar, aqchamni berib ketlaring!

Omon cho'ntak kovlab bitta o'n besh tiyinlik Buxor tanga berdi.

— Mana, shesha, yarim tanga haqqingizga, bir miri non bilan tuxum qovurgan yog'ning puli.

— Xo'sh, — dedi pulni olib kampir, — kelib-ketib turinglar.

Shunday qilib, kallayi saharlab yo'lga ravona bo'ldik.





Turg'unboy G'OYIPOV

(1904—2003)



Turg'unboy G'oyipov 1904- yil Marg'ilonda dehqon oilasida tavallud topadi.

1931- yil Farg'ona pedagogika texnikumini, 1934- yil Farg'ona pedagogika institutining kechki bo'limini tugatadi. Marg'ilon shahar maktablarida, xotin-qizlar texnikumida ona tili va adabiyotdan dars beradi. 1941—1947- yillarda harbiy xizmatda bo'ladi. 1959—1964- yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Kartografiya bo'limida faoliyat ko'rsatadi, so'ngra o'rta maktablarda ona tili va adabiyot o'qituvchisi bo'lib ishlaydi.

T.G'oyipovning ijodiy faoliyati 1935- yilda yaratilgan «Hayollar qanotida» hikoyasi bilan boshlanadi.

«Ertakchi bobo» nomi bilan mashhur T.G'oyipovning ertak, hikoya va dramalaridan tashkil topgan 30 dan ortiq kitobi nashr qilingan. «Sirli so'z» (1960), «Tulunboy haqida qissa» (1963), «Tanbur» (1964), «Notanish bola», (1965), «Sirli darvoza», (1968), «Qo'lsiz rassom» (1970), «Yangi pyesalar», (1974), «Hur qizlar saltanati» (1984) va boshqa kitoblari shular jumlasidandir.

T. G'oyipovning «Zamonaviy ertaklar» to'plami rus, tojik va qirg'iz tillarida ham nashr qilingan.



G'ANI DEGAN BOLANING PARVOZI

Bir shahardagi bolalar yoz kunlaridan birida sayohatga jo'namoqchi bo'lishibdi. Ularga Jahongir degan bolaning ukasi G'ani ham ergashibdi.

— Sen nima qilasan? — debdi jahli chiqib Jahongir.

— Nima qilardim, sizlar bilan birga boramanda.

— Biz sehrli tepaga boramiz. Sen charchab qolasan.

Sehrli tepada shunday vahshiy hayvonlar borki, ko'rsang yuraging chiqib ketadi! — deb ukasini aldamoqchi bo'libdi Jahongir.

— Siz qo'rqmaysizmi, aka?

— Yo'q.

— Mayli, men sizning yoningizda bo'laman.

Jahongir ukasining javobini eshitib:

— Mayli! Bo'lmasa, qani, ketdik! — debdi.

Bolalar safar xaltalarini yelkalariga tashlab yo'lga tushishibdi! Ular yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Oxiri sehrli tepaga yaqinlashishibdi. Tepalik doim bulutga, qorga burkanib yotar, atrofda biron giyoh o'smas, g'orlari ko'p ekan. G'orlar bir-birlariga tutashgan qorong'i, tor yo'lkalardan iborat ekan. Bolalar qiziqib g'orlarni tomosha qila boshlabdilar. G'ani ajoyib joylarga mahliyo bo'lib, yo'ldoshlaridan ajralib qolibdi. Shu payt g'orning ichkasida yorug'lik ko'rinibdi. G'ani: «Sheriklarim chiroq yoqib yurishgandir», — deb o'ylab, o'sha tomonga jo'nabdi. Yaqin borib qarasa, g'orning bir burchagida kichkinagina yog'och ot turganmish. Yorug'lik shu otning ko'zlaridan chiqayotgan nur ekan. G'ani: «Bu ot qaydan kelib qoldi, buning egasi kim ekan?» — deb hayron bo'libdi. U qo'rqapisa otga yaqinlashib, uning yolini silabdi. Lekin ot qimir etmabdi. Juda qiziqib qolgan G'ani otning yuganidan tortib tashqariga olib chiqmoqchi bo'libdi. Ammo uni o'rnidan qo'zg'atolmabdi. G'ani otning ustiga minib, ikki oyog'i bilan qorniga niqtab, «chuh!» — degan ekan, birdan o'ynoq-

labdi. Uning kishnashidan g'or jaranglab ketibdi. Biqinida ikki kumush qanot paydo bo'libdi va g'ordan chiqib osmonga ko'tarilibdi. G'ani qo'rqib otning yoliga yopishibdi.

Yo'lda birdan kuchli bo'ron qo'zg'alibdi. Bo'ron shunday kuchli ekanki, hatto katta-katta daraxtlarni ham tomiri bilan qo'porib uchira boshlabdi.

G'ani mingan ot daraxtlardan biriga urilishiga sal qolibdi.

Bir joyda dengizdan to'fon ko'tarilib, osmonda uchib yurgan katta-katta baliqlarni, boshqa joyda qop-qanorlari bilan havoda to'zg'ib yurgan bug'doylarni ko'ribdi. Oxiri u otdan yiqilib tushibdi. Shamol otni boshqa tomonga surib ketibdi. G'ani qandaydir tepa ustiga yiqilganicha hushidan ketibdi. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, asta ko'zini ochib atrofga boqibdi. To'lin oy nuri hammayoqni kunduzday yoritgan. Endi nima qilishini bilmay hayron bo'lib turgan ekan, tepa ortidan oq kiyim kiygan uch kishi chiqib kelibdi. Ularning biri oq soqoli ko'ksiga tushgan nuroniy cholu, ikkinchisi yoniga sanitar sumkasini osib olgan jajjigina qiz, uchinchisi qizchadan sal kattaroq o'g'il bola ekan. Oqsoqol chol G'aniga nimalardir debdi, lekin G'ani uning nima deganini tushunmabdi. Qizcha G'aning ko'ragini va yelkalarini tekshirib ko'ra boshlabdi. Keyin cholga nimadir debdi. Chol tepa tomonga qarab qo'l siltagan ekan, o'sha yoqdan o'n beshtacha bola yugurib kelibdi. Ikki bola G'aning qo'ltig'idan suyab, yelib ketibdi. Qizcha ham ular bilan jo'nabdi.

G'anini yarqiragan katta saroydagi bir xonaga olib kirishibdi. Xonaning bir burchagidagi oltin dekchada xush is taratib nimadir viqirlab qaynab turganmish. Xonaning boshqa burchagidagi kumush dekcha atrofida suv muzlab, sumalaklar osilib yotganmish. G'anini yechintirib avval oltin dekchaga keyin sovuq suvga tushirishibdi. Badanini sochiq bilan artib egniga jun ko'ylak kiydirishibdi. G'ani o'zini yana dadil, sog'lom his qilibdi. Keyin uni boshqa xonaga boshlab kirishibdi. Oqsoqol qo'lidagi mis qalpoqni G'aniga kiydiribdi. Qalpoqning so'l tomonidagi murvatni



burashi bilan G'ani ularning hamma gapiga tushuna boshlabdi. Mis qalpoq «Kibir tarjimon» deb atalar, uning vositasida dunyodagi barcha tillarni tushunish va javob qaytarish mumkin ekan.

G'aniga savollar yog'ila boshlabdi.

— Qayoqdan kelding? Yolg'iz o'zingmisan?

— Kelishdan maqsading nima?

— Qanday mashinada uchib kelding?

G'ani stolga qo'yilgan mevalardan yeb, qornini to'yg'azib olibdi-da, savollarga javob bera boshlabdi. U yer farzandi ekani, uchar ot minib kelgani, bu yerda otini yo'qotib qo'ygani haqida so'zlabdi. Yog'och ot haqida eshitgan bolalar yalt etib oqsoqolga qarashibdi.

— Bobojon, uchar ot haqida ertak so'zlab beraman degan edingiz-a, ertagingiz yana shu ot haqida bo'lmasin? — deb so'rabdi sho'x qizcha. Uning ismi sayyora-dagi xalq tilida Uva-tuva — Baxt guli ekan. Oqsoqol yog'och ot haqida ertak boshlabdi. Ertakchi boboning ismi Madabu Santu — Donolik ko'zgusi ekan.

YANA UCHAR OT HAQIDA

Aytishlariga qaraganda, qadim zamonda bir podsho yashagan ekan. Uning juda injiq, tantiq o'g'li bor ekan. U doim: «Dada, uni yasatib bering, buni toptirib bering!» — deb xarxasha qilaverib otasiga tinchlik bermas ekan. Bir kuni enagasi uchar yog'och ot haqida ertak so'zlab beribdi. Shahzoda ertakni eshitgan zahoti otasining oldiga yuguribdi.

— Ota, menga shunaqa ot yasatib bering, — debdi. Podsho mamlakatga jar soldiribdi.

— Kimki uchar ot yasasa, uning tilagini bajaraman! — debdi.

Shu shaharda bir olim bor ekan. Uning qarindoshurug'lari zindonda ekan. «Agar uchar ot yasab, podsho huzuriga olib borsam, podsho talabimga ko'ra qarindosh-

urug'larimni va boshqa begunohlarni zindondan ozod qilar. Yana yurtni obod qilish, kambag'allarga yordam berish haqida so'rasam yo'q demas», deb o'ylabdi u. Olim oqko'ngil kishi ekan. U kecha-kunduz urinib, oxiri, ajoyib bir yog'och ot yasabdi. Uning ustiga minib «chuh!» — deb oyog'ini niqtasa, ot o'ynoqlay boshlar va ko'kka parvoz qilar ekan. Olim otni ko'tarib shoh huzuriga boribdi. Shoh va vazirlari olimga va u keltirgan otga ajablanib qarashibdi. Shoh, olimdan otni qanday yasaganini so'zlab berishni so'rabdi. Bular gapga ovora bo'lib turganlarida shahzoda otga minibdi va yurgizmoqchi bo'lib «chuh!» debdi. Shu zahoti ot osmon-falakka ko'tarilibdi. Saroyda qiy-chuv ko'tarilibdi. Odamlar nima qilishlarini bilmay shoshib qolishibdi. Oxir podsho olimga o'shqiribdi:

— Sen aybdorsan, sen!!! Sen meni o'g'limdan judo qilding! Jallod!!!

— Labbay, qilichim qonsiragan! — deb jallod yugurib kiribdi.

— Buni darhol dorga os! — deb baqiribdi shoh, lekin bu jazo ham kam ko'rinibdi. — To'xta, buni ot dumiga bog'lab, changalzorga hayda! Go'shtlari butalarda bir parchadan qolib ketsin! — debdi.

Shunda bosh vazir oraga tushib:

— Shohim, o'g'lingizdan xabar topgunimizcha bu odam zindonda yotgani ma'qul. Qanday jazolashni keyin hal qilarmiz.

Olimni zindonga tashlashibdi. U zindonda boshini toshlarga urib, oh chekibdi. U doim: «Dunyoda tengsiz bir mo'jiza yasagan edim. Shu tufayli kishilarga yaxshilik qilaman, deb o'ylagandim. Lekin mana oqibati nima bo'ldi? Hunarimdan xalq foydalansa, biron mushkuli oson bo'lsa yaxshi bo'lmasmidi?» — der ekan.

Shohning o'g'lidan xabar bo'lavermabdi. Olim zindon azobiga chiday olmay vafot etibdi. Nihoyat o'n ikkinchi kuni shahzoda yog'och otda saroyga qaytib kelibdi. Boshidan o'tgan voqealarni otasiga so'zlab beribdi. Otasi o'zicha:



«O'g'lim bu gal tirik qaytib keldi, yana ot minib biror falokatga uchramasin, bu otni ko'zdan yashirganim ma'qul!» — deb o'ylabdi.

Shahzoda uxlab yotganida shoh otni g'orning bir burchagiga yashirtiribdi. Ana shunday qilib, uchar ot g'or ichida qolib ketgan ekan. Nihoyat, o'sha otga G'ani duch kelib qolibdi. Lekin yog'och otni hali o'zimiz ko'rganimiz yo'q.

Oqsoqol jim bo'libdi. Jimlikni qo'ng'iroqday ovoqli Uvatuva buzibdi:

— Bobojon, axtaraylik, ot ham yiroqqa tushmagandir.

— Gaping rost. Lekin oy botib qoldi. Dala, qirg'oqlar qorong'i. Qidirishni erta tongdan boshlaymiz.

— Ayting-chi, bobo, men qayga kelib qoldim, sizlar kimsizlar? Yerdamanmi, ko'kdamanmi? — deb so'rabdi G'ani.

— Sayyoramiz Oveta — Yangi yulduz deb ataladi. Biz shu sayyoraning tog'li rayonida joylashganmiz. Men bu yerda bolalar uchun «Ertaklar saroyi» qurdirganman. Bu bolalar mening shogirdlarim. Anavi qiz bo'lsa nabiram Uvatuva. Biz boshqa sayyorada yashardik. Bu sayyorani yaqinda o'zlashtirganmiz. Bu yerda odamlar yashamas ekan. Lekin kiyik, ayiq, quyonlar bor ekan. Ko'llarida baliqlar ko'p. Bizning xaritamizda yer olis nuqta qilib ko'rsatilgan. Ora juda uzoq. Biz yerni kimsasiz, bo'sh deb o'ylardik. Yerda ham odam yasharkan-da, a?

— Bo'lmasam-chi... yer katta joy... Ayting-chi, endi men qanday qilib o'z sayyoramga keta olaman?

— Yerga hali bora olganimiz yo'q. Oting topilmasa, se-ning qanday ketishingga hayronman! Hamma ishni yig'ishtirib, otni qidirishga to'g'ri keladi. — Shunday deb, oqsoqol bolalarni dam olgani jo'natibdi.

G'ani ko'rsatilgan karavotda uyquga ketibdi.

Erta tongda bolalar, oqsoqol va G'ani otni qidirgani jo'nashibdi.

O'QILON VA NON

Qadim zamonda bir shahar nonvoylari o'z hunarlari bilan dong taratgan ekanlar. Nonni hech kim ularchalik laziz va ko'rkam yopa bilmas ekan. Shuning uchun ular yashaydigan joy «Sehrgar nonvoylar mahallasi», deb atalarkan. Biror kimsa safarga chiqsa: «Yo'lda hamrohim, xavfu xatarlardan saqlanishda madadkorim bo'ladi», deb o'zi bilan non olib ketarkan. Kunlardan bir kuni Qosim ismli yigit ham qo'yniga non solib yo'lga chiqibdi. Yo'l yirtqich hayvon va qaroqchilardan xoli emaskan. Eng dahshatlisi, tog' o'ngirida yovuz o'qilon yashardi. U yaqinidan o'tgan kimsani omon qo'ymas ekan. Ilon shu kuni o'lja topa olmay qahriga mingan vaqtda, so'qmoq yo'ldan kelayotgan Qosimni ko'rib qolibdi. Xar'sang tosh orqasiga o'tib pisibdi, yigit yaqin kelishi bilan to'satdan sapchib uning ko'ksiga zarba uribdi. Lekin kutilmagan hodisa yuz beribdi. Olamni olov bo'roni qoplaganday, tog'lar dahshat bilan qulaganday bo'libdi. Og'riq va alamiga chiday olmagan ilon arang ko'z ochib, o'zini yerdagi chilparchin yotganini ko'ribdi. Uning zaharli tishlari tutday to'kilib ketgan emish. Yigit esa qarshisida sog'-omon turganmish. O'qilon hayratlanibdi.

— Vishshsh... bu qanaqasi bo'ldi? — deb qichqiribdi u alam bilan. — Bu qanaqasi bo'ldi? Bir zarb bilan uydan katta toshlarni teshib o'tish menga pisand emasdi! Endi kelib-kelib sendan yengilib o'tiribmanmi? Sen sababli tishimdan ayrildim. Bunda bir sir bor, albatta. Ayt, kimsan o'zing, devmisan, parimisan?

Shunda yigit qo'ynidan quyosh sifat porlagan nonni olib ko'rsatibdi:

— Barcha gap shu aziz nonda. Bunga sehrimiz kuchi, dehqonlar, nonvoylar mehnati singgan. Quyosh tafti, ona yurtimiz qudrati, mehri singgan. Ko'ksimga qalqon bo'lgan bu aziz tilsimga tishing o'tarmidi?! Yo'limni to'sma, yovuz!



O'qilon sudralib jo'nab qolibdi. O'shandan buyon kishilar ko'ziga qayta ko'rinmashish. Yigit esa yo'liga ravona bo'libdi. O'lis shahardagi qadrdon do'stlari, o'rtoqlari bilan omon-eson diydor ko'rishibdi, yurtiga qaytganida nonni ham o'zi bilan olib qaytib, o'pib, e'zozlab, safaridan xotira sifatida uy to'riga ilib qo'yibdi.

OLTIN SHOXLI KIYIK

Katta soyning bo'yidagi tomoshabog'da oltin shoxli kiyik yasharkan. Bog'da bulbulday sayrab, odamday gapira oladigan juda ajoyib Tovus; turli tusda tovlanuvchi, yiliga bir dona qovun qiladigan daraxt; bir bargi pushti, bir bargi qizil, havorang, yoqimli is taratib turadigan gul ham bor ekan. Bu narsalar bog'ning ko'rkigina emas, ko'p kishining quvonchi, g'ururi ekan. Ularni ko'rish uchun atayin juda olislardan sayohatchilar kelisharkan.

Kutilmaganda, kimdir Tovusni o'g'irlab ketibdi. «Bu kimning ishi bo'ldiykin?» — deb bog' xizmatchilari soqchini chaqirib rosa koyibdi:

— Kechasi uxlab qolib, qaramagansan! Qanday bo'lmasin uni topasan! — deb turib olibdi.

Soqchi oyog'i kuygan tovuqday Tovusni qidirib, har tomonga yuguribdi.

Bog' egasi vahimaga tushibdi: «Qovunimizni ham o'g'irlab ketishmasin. O'zim poylamasam bo'lmaydi!» deb kechqurun to'rvaga non, pishloq, uzum, pomidor, bodring, suv, tuxum, shaftolilarni solib olibdi. Uyqusi kelsa ovqatlardan yeb, tetik bo'lib tong ottirmoqchi ekan. Kech kirib, atrofda hech kim qolmagach, qo'rqa boshlabdi: «o'g'ri kelib, menga ziyon-zahmat yetkazib o'tirmasin. Kel, yaxshisi qovun daraxtining ustiga chiqib turay. Biron shubhali odam kelib qolsa, yuqoridan turib bir baqirsam qo'lidagini ham tashlab qochadi», — deb o'ylab, qovun daraxtining ustiga chiqibdi-da, oyog'ini osiltirib

o'tirib olibdi. Ammo ovqatni ko'p yegani uchun pishilab uxlab qolib, daraxtdan «gup» etib yiqilib tushib: «O'g'rini ushla», — deb baqirib yuboribdi. Lat yegan biqinini ushlab, oqsab, sudralib chetga chiqibdi. Ertalab kishilarga, «o'g'rini rosa do'pposladim, qochib qutuldi, bu yerga qayta kelmaydi!» — deb maqtanibdi. Uchinchi kuni bog'dan noyob gul yo'qolibdi. Uni tomiri bilan qo'porib olib ketishibdi. Buni eshitib bog' sohibi soqchini yana koyibdi. Soqchi tong yaqinlashgach, uxlab qolib qovunni ham oldirib qo'yibdi.

Soqchining o'n yashar o'g'li bor ekan. U: «O'zim poylayman», — deb kechasi soqchilikda turibdi. Uxlab qolmayin, deb barmog'ini sal kesib, o'sha joyga tuz sepibdi. Ana shunday dovyurak va ziyrak bola ekan u. Yarim kechadan o'tganda boqqa kimdir kirganini sezibdi. Asta daraxtlar orqasiga yashirinib kuzata boshlabdi. Shubhali kimsa oltin shoxli kiyik raqsga tushib, sakrab o'ynaydigan joyga tomon borayotgan emish. Ana u, kiyikni qoziqdan yechib olib, asta yetaklab keta boshlabdi. Bola borib kiyikka yopishibdi. Uni orqaga tortib o'g'riga do'q ura boshlabdi:

— Ko'pchilikning mulkini o'g'irlab ketaverasanmi? Kiyikni buyoqqa ber!

— Yo'qol, mahmadona! Bo'lmasa kaltakka o'lasan.

— Kaltaklab ko'r-chi!

— Nari tur, deyman!

Bularning shovqin-suroniga soqchi uyg'onib ketibdi. U ham qo'liga panshaxa olib yuguribdi. Bog' egasi va yana bir qancha odamlar yugurib kelishibdi.

O'g'rini o'rtaga olib, qo'lini orqasiga bog'lashibdi. Ishga tergovchilar ham aralashibdi. O'g'rining hovlisiga borib qarasarlar, noyob gul hovlining bir chetida so'liy deb yotganmish. Tovus daraxt ostida turganmish. Qovun po'choqlari esa har qayerlarda sochilib yotganmish! Hovlida o'n to'rt yoshlar chamasidagi, sochlari hurpaygan, ola-bula ko'ylak, pochasi tor shim kiygan olifta bir bola bor ekan. U otasiga:



— Nima gap? — debdi.

— Sen meni majbur qilib, kiyikni o'g'irlab kelishga yuborgan eding, bularga endi o'zing javob ber! — debdi o'g'ri.

Xaloyiq bilsaki, bu bola ota-onasidan xohlagan narsasini undirar, aytganini ijro qildirar ekan. Ota-onasi ham: «Buyuring, o'g'lim, xohlaganingizni darhol muyassar qilamiz!» — deyisharkan-da... Shu bolaning diliga tomoshabog'dagi qovunni yemak havasi tushib, otasi orqali qovunni oldirib yegan ekan. Bolaning zavqi kelib: «Tovusni ham keltirib ber, tomosha qilib yuraman!» — degan ekan, otasini gul o'g'irlashga majbur etgan ham shu bolaning o'zi ekan. Bu safar u otasini kiyikni o'g'irlab kelishga yuboribdi. Bu bezori bola ko'pchilikning manfaatini sira ham o'ylamas ekan. Kiyikning o'ynashidan, qushning sayrashidan, gulning ochilishidan faqat o'zim zavqlansam, der ekan u. O'zim bo'lay deya faqat o'z vaqti xushligini o'ylagan bu bola: «Oy tug'sa ham, kun tug'sa ham menga bo'lsin», der ekan. Daraxt o'tqazish o'rniga sindiradigan, gul ekish o'rniga uni payhon qiladigan shu bolaga o'xshagan shumg'iyalar ham bo'lar ekan!.. O'g'irlab kelingan narsalar o'z joyiga qaytarilibdi. Yana undan ko'pchilik bahramand bo'ladigan bo'libdi.






OYBEK
(1905—1968)



XX asr o'zbek adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri — ulug' adib, shoir, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905- yili Toshkent shahrida bo'zchi oilasida tavallud topadi.

Bo'lajak adib o'rta maktabda, keyinchalik Toshkent pedagogika texnikumida, O'rta Osiyo Davlat dorilfununining ijtimoiy fanlar fakultetida, Sankt-Peterburgdagi Plexanov nomidagi Xalq xo'jaligi institutida tahsil ko'radi, oliy o'quv yurtlarida siyosiy iqtisoddan dars beradi. Ayni shu davrda badiiy ijodga bo'lgan qiziqishi uni adabiyotning sehrli olamiga yetaklaydi. Ilk she'riy to'plami «Tuyg'ular» nomi bilan 1926- yilda chop etiladi. «Dilbar— davr qizi» (1931), «O'ch» (1932), «Baxtigul va Sog'indiq» (1933), «Temirchi Jo'ra» (1933) dostonlari o'zbek adabiyotiga hassos shoir kirib kelayotganidan darak beradi.

Davr to'fonlari shoirni keng miqyosda fikrlashga da'vat etadi. Milliy ozodlik qo'zg'oloniga bag'ishlangan «Qutlug' qon» (1940), ulug' bobomiz Alisher Navoiy va u yashagan davr hayotidan hikoya qiluvchi «Navoiy» (1944) romanlari ana shunday izlanishlar samarasi o'laroq yuzaga keladi. Shundan keyin adibning «Oltin vodiyan shabadalar» (1949), «Quyosh qoraymas» (1958), «Ulug' yo'l» (1967) romanlari chop etiladi.

Oybek xorijiy xalqlar hayoti mavzusida «Nur qidirib» qissasi, «Haqgo'ylar», «Zafar va Zahro» dostonlarini yaratadi. «Bola-



lik» qissasi Oybek ijodida alohida o'rin tutadi. Unda yosh Muso sarguzashtlari misolida xalqimizning XX asr boshlaridagi hayoti qalamga olinadi.

O'zbek kitobxonlari A.S.Pushkinning «Yevgeniy Onegin», M.Yu.Lermontovning «Maskarad», arman eposi «Sosunli Dovud»ni Oybek tarjimasida o'qigan.

Oybek «Bola Alisher» (1969) qissasida ulug' bobomizning yoshlik yillarini qalamga oladi.

BOLA ALISHER*(Qissadan parcha)*

Hirotda hayajonda. Ikki kun ilgari Bag'doddan polvonlar kelgan. Hirot polvonlari yuraklari taka-puka holda tayyorgarlik ko'rmoqdalar, xalq esa sabrsizlik bilan birinchi kurashni kutmoqda.

— Bugun jum'a namozi kuni. Jum'a namoz o'qilgach, xalq mashhur katta maydon — Maydoni siloh shuri tomon oqa boshladi.

G'iyosiddin Kichkina ko'rkam jiyron otda, orqasiga Alisherni mingashtirib keldi; maydon orqasida, uzoqda turgan bir to'da ot yoniga otini bog'lab, qamchinni egarga qistirgach, o'g'lini yetaklab maydonga kirdi: odamlar orasidan o'tib, mirshablar ko'rsatgan yo'l bilan beklar, barloslar to'dasiga yetib, joylashdi.

Maydon shovqin-suron to'lqinida chayqalardi. Shahzoda Alovuddavla, vazirlar kelgach, g'ala-g'ovur tina boshladi.

Shohruh viloyatlarning birida yana bosh ko'targan shahzoda bilan jang olib borar edi.

Vazirlar va bir necha shahzodalar bilan birga Alovuddavla ko'ringan hamon xalq duv o'rnidan qalqdi. Alovuddavla gilamlar ila bezalgan ravoqqa joylashib o'tirgach, qarshida tiz cho'kkan barlosga, kurashchilar boshlig'iga:

— Qani, polvonlar kurashni boshlasunlar, ko'raylik, — deb buyurdi.

Qo'llarini qovushtirgan holda ta'zimda bukilgan barlos o'zini ikki qadam orqaga tashlab, kimgadir imlagan edi, birdan karnay-surnay, nog'oralar sadosi maydonni ko'chiray dedi. Keyin Bag'doddan kelgan arab polvonlar va Hirot polvonlari safi shahzoda Alovuddavla oldida baland qadlarini qayta-qayta bukib, salom bergach, orqaga chekindilar. So'ngra ikki polvon ta'zim ila o'rtaga chiqdi: biri bag'dodlik, biri hirotlik edi.



Xaloyiq hayajonda, sukutda. Hamma har ikki polvonni qiziqib kuzatardi. Bag'dodlik polvon novcha, yag'rindor, pishiq, kelishgan, gavdali yigit. Hirotlik polvon uncha savlatli emas, bo'yi pastroq, ammo mashhur, dongdor, kurashlarda yiqilmagan edi.

— Bag'dodlik polvon zo'r va shijoatli ko'rinadur. Bizniki bas kelurmikan, deb qo'rqamen, yiqilsa-ya?— shivirladi hayajonlanib Alisher dadasiga.

— Gavdasiga qarama, o'g'lim, kuch bo'yda emas, payda yotadi. Qolaversa, mashqda. Ko'ramiz-da.

Alisher kurash boshlanganidanoq oppoq oqargan, ko'zlarini uzmay polvonlarning har bir harakatini kuzatar edi. Maydonda tag'in bir juft polvon kurash boshladi. Arab ingichka, qotma, o'rta bo'yli, chiyroq edi. Hirotlik polvon bir oz yag'rindor, baqaloq, ammo uning quvligini va epchilligini hamma bilurdi: «Nima qilardi bu polvoncha, doim chatoq tushadi», «G'irrom, nuqul oyoq chaladi, ko'rganmiz»,— shivirlar edilar odamlar. Hirotlik polvon kurashning boshidanoq keskin harakatlar ila olishardi, ketma-ket hamlalar ila hujum qilganidan arabga bo'sh kelmaydurgan ko'rinurdi. Bu hujumlarga o'zini og'ir tutaroq qarshilik ko'rsatib turgan arab to'satdan bir hamla ila hirotlikni ko'tarib oldi-da, havoda bir aylantirib chiqdi, uloqtirib tashlashga endi rostlangan edi hamki, birdan hirotlik pakana o'zini o'nqlab olib, oyoqlarini yerga qattiq tirab oldi. Hirotliklar nafaslarini yutganicha qotib qoldilar.

— Omad!— dedi kimdir shivirlab.

— Chirpirak bo'lishiga sal qoldi-ya,— dedi Alisherga o'tirganlardan kimdir.

— Hali ko'rursiz, «Pakana demang bizni, ko'tarib urur-miz sizni!» Qarab turing, arabga ko'rsatib qo'yadi, — dedi polvonning ixlosmandlaridan birov. Jimgina pusib, yangi hujumni kutib turgan hirotlik polvon arab hamlaga otilgan hamon birdan uning oyog'ini chalib yuborgan edi, gup etib, yiqilib tushdi.

— G‘irrom, g‘irrom!— deya qichqirdi g‘azabda xaloyiq. Jahlidan titrab o‘rnidan turgan bag‘dodlik o‘z tilida nimadir dedi, lekin hirotlik polvon bo‘lsa gerdaygan holda: «Xaloyiq ko‘rdi-ku, halol ko‘tarib urdim», — derdi uyalmay.

Ikki polvon tag‘in olishib ketdi.

— Tush, ablah, g‘irrom, chap urding! — qichqirdi qari polvonlardan biri.

— Hirotlik polvon ayyorlik qilyapti, dada, arab — halol,— shivirladi Alisher.

— Pakananing g‘irromligi barchaga ayon, o‘g‘lim, — javob berdi otasi.

Bir necha zo‘r polvonlar kurashni kuzatib, atrofda og‘ir, vazmin yurar edilar.

— Tezlatsinlar, kurash susaydi-ku,— dedi shahzoda Alovuddavla vazirga.

— Qani, polvonlar, ildam-ildam, shahzoda hazratlari buyurdilar! — dedi maydonda yurganlardan biri.

Bir-birini sinab, bir-birini poylab yurgan birinchi juft polvonlar to‘satdan qattiq olishib ketdilar. Xaloyiq jim. Ularning har ikkovi haqiqiy, zo‘r polvon ekan. Bag‘dodlik shiddatli hujumga o‘tgan, lekin hirotlik ham bo‘sh kelmas, har ikkovi bir-biriga qattiq hamla qilar edi.

Arab butun kuchini yig‘ib, hirotlikni yerdan uzib oldi; hirotlik esa uning ustiga mingandek kiftiga yopishib qolgan, arab polvon qimirlay olmas edi.

— Bir-biriga sira bo‘sh kelmaydi-ya! — dedi ehtiros bilan Alisher.

G‘iyosiddin o‘g‘lining yelkasiga qoqib qo‘ydi.

Kurash qattiq bo‘ldi. Maydonda goh shovqin tinar, goh g‘ulg‘ula falakka yetgandek tuyular edi.

Ikkinchi juftdagi hirotlik pakana zimdan chatoq usullarni ishlatar, lekin qotma arab zo‘r edi. U bor g‘azabiyu kuchini bir yig‘di-da, hirotlikni ikki-uch daf‘a havoda gir aylantirib, yerga gursillatib urdi. Xalq orasida ajab bo‘ldi, deganday kulgi ko‘tarildi, barcha mamnun edi. Pakana



o'rnidan turdi, yerdan boshini ko'tarmasdan, ust-boshini qoqdi, izza holda o'zini chetga olishni mo'ljallarkan, arab polvon kulib, uning yelkasini quchdi va o'z tilida nimadir gapirib qo'ydi. So'ng u shahzodaga yaqinroq borib qulluq qildi. Shahzodaning buyrug'i bilan uning yelkasiga ipak to'n yopilganda va o'n tanga oltin solingan hamyon berilganda, xaloyiq mamnuniyat bildirib, uni uzoq olqishladi.

Birinchi juft pahlavonlar kurashi avjida. Ikkovi ham zo'r, bir-birini gup-gup yerga urar, ammo yelkasini yerga tekkizolmas, darhol bir-biriga yopishib, tag'in chir-chir aylanib olisha boshlar edilar.

Mana, ravoq oldiga yaqin kelganda, hirotlik polvon arabni qattiq bir hamla bilan quchog'iga olib, bir aylantirdi va unga dam bermay, darhol chaqqonlik bilan yerga yotqizdi. Arab g'azab bilan to'lg'anib, o'zini yerdan uzishga urindi, ammo yelkalaridan qattiq bosib turgan raqibning kuchiga bas kelolmasligini anglaganligi uchun kuchdan taranglanib turgan paylari bo'shashgan holda shilq etib tushdi. Ajoyib kurash edi bu! Hirotlik polvon peshana terini qo'li bilan sidirib tashladi-da, arabni turg'azdi; yelkasidan quchoqlagan holda o'zi bilan shahzoda Alovuddavla tomon bir-ikki qadam olib bordi, qo'lini arab yelkasidan olib, qulluq qildi.

Hirotlik polvonga qirmizi zarbof to'n yopilgach, shahzoda unga xushomad qildi:

— Borakalloh, xo'p xursand qilding! Zo'r va chaqqon polvon ekansen.

Olomon olqishi tinmaydi, polvonga chaqa-tanga berishar, hayajonda o'z choponlarini yechib yopgan yigitlar ham bor edi. G'iyosiddin Kichkina bir tillo tangani Alishega tutqizdi. Alisher sevinch va ishtiyoq ila odamlar orasidan aylana-aylana yo'l topib, polvon oldida to'xtadi va ta'zimda bukilib, ikki qo'llab tangani uzatarkan, dedi:

— Zafaringizni qutlaymiz!

Atrofdagilar bolaning odob va zakovatidan hayratda edilar.

— Ofarin, ajoyib o'g'lon ekan! — dedi kimdir.

Polvon Alisherning yelkasidan quchdi.

Shu payt bag'dodliklardan bir polvon tag'in o'rtağa tushdi. Birdan xalqning nafasi kesildi, maydonga sukunat cho'kdi. Baland bo'yli, bahaybat gavdali bu polvon maydon o'rtaşida bir tunj¹ haykal kabi turardi. Vazirlar, bекlar shivirlasharkan, shahzoda Alovuddavla sekin dedi:

— Tavba, bundayini aslo ko'rmagandurmen!

— Haybati misoli dev, mudhish bir mahluq, — dedi bosh vazir.

Shu on maydonga uning raqibi chiqdi. Bu polvonning shuhratini eshitmagan kishi yo'q, u samarqandlik, butun Turkiston o'lkasida tengi yo'q, hanuz yelkasi yerga tegmagan bir polvon edi. Hirotdan xalqi yengil tortdi: «Uh, bor ekan-ku!» — dedi ko'plar.

Alisher ham sevingan edi, u otasining pinjiga kiribroq o'ltirdi. «Arablar — payg'ambar avlodi. Ammo Hirotdan to Hindikushgacha cho'zilgan buyuk o'lkamizning o'ziga xos shavkati, dabdabasi, an'anasi bor», — deb o'ylardi Alisher o'zicha.

Maydondagi ikki polvon salmoqli harakatlar bilan birbirlarini sinashga kirishgan edilar. Ularning kuchlari tengligini tomoshabinlar payqagan. «Arabning payi pishiq, olishishi chaqqon», — derdi ba'zilar; «Yo'g'-e, bizning polvon chakki emas, ko'ring, belida gap ko'p, bilagi zarbdor», — deyishardi boshqa birovlar. Alisher atrofdagi bu aytilgan so'zlarning hammasini uqib o'ltirardi.

Polvonlar endi astoydil olisha boshladilar. Qizg'in, zo'r kurash bo'ladigan ko'rinardi.

— Bizning polvonlarimiz aksariyat quvvatda benazir va qomatdor bo'ladilar, — deya g'urur-la shivirladi yonidagi vazirga shahzoda. — Samarqandlik polvonimizga razm so'ling, xushqomat, hamlador, eti pishgan.

¹ Tunj — vajohatli.



— O'lkamizda zo'r polvonlar bor, hazratim, — ta'zim ila shahzodaga murojaat etdi sarkardalardan biri. — Ular kurash hadisini yaxshi bilurlar. Afsuski, Ulug'bek Mirzoning dillari yolg'iz ilmga bog'lanib qolmish, sipohi, polvonlar bilan ishlari yo'q.

Bir on sukut etgach, tovushsiz shivirladi: — Samarqand vodiysini bir kun Tangrim shahzodamga ato qilg'ay.

Alovuddavla ichdan sevingan esa-da, siltab javob qildi:

— Hazrat Ulug'bek podshohi olamdirki, ellar, qavmlar, barchasi uning muborak ilkida bo'lmog'i lozimdur. — Bir zum sukut etgach, davom etdi: — Hazrat tilsimot olamig'a g'arq bo'lmishki, albatta, bu islom diniga xilof. Astag'firullo, gunohi azim!

— Shahzodam, amiri buzrug Temurning evarasi, gavhari charog'onisiz, — dedi shahzodaning yaqin sipohlaridan biri. — Jannatmonand Samarqand sizning nasibangizdir.

Shahzodaning yuzi yorishib ketdi-yu, ammo sukut saqladi.

Kurash dahshatli borardi. Olomon zo'r hayajonda, Alisher zavq ila berilib kuzatar, goho otasining qo'lini olib siqib, nimadir deb qo'yar edi.

— Arab ham, bizning polvon ham misoli dev, dada. Kurash mundoq mudhish bo'lurmi?..

G'iyosiddin kuldi:

— Kichiklikda ko'p ko'rganmiz, o'g'lim. Shunday polvonlar bor ediki... Ba'zilari olamdan o'tdi, ba'zilari munkillab yuribdi. Ha, bular ham chakki emas.

— Fahmimda, polvonlarning eng zo'ri shulardir, — dedi Alisher.

Birdan xalq dengizida bir to'lqin paydo bo'ldi shu tobda. «Shahzoda ketdi, shahzoda ketdi», — degan gap bir lahzada og'izdan-og'izga tarqaldi. Yangi xabarni barcha eshitgan edi. Chopar kelib, shahzodaga xabar yetkazgan edi: qishloqlarda dehqonlar qo'zg'olon ko'tarmish, falon emish, fiston emish...

G'iyosiddin darhol borib, bir necha beklar, barloslar bilan gplashdi-da, Alisherning oldiga qaytdi.

— Yur, o'g'lim, ketdik!

G'iyosiddin Kichkina Alisher bilan tartibsiz harakatdagi olomon orasidan turtina-turtina bazo'r ot oldiga yetib borgach, shoshilib uni qoziqdan yechdi va o'g'lini ko'tarib, egar ortiga o'tqizdi, o'zi yengil irg'ib otga mingan hamon, yo'rg'a ot uchib ketdi. G'iyosiddin uyga yetgach, Alisherni tushirdi-da, oshig'ich holda saroyga jo'nadi.

Alisher eshikdan kirgan hamon onasiga kurash taasurotlarini gapirmoqqa shoshur edi.

— Afsus, qizg'in kechayotgan kurash zumda buzildi-da. Qishloqlar notinch emish. Ha, shahzoda darhol o'rdaga jo'nab qoldi...

— Mayli, azaldan shunday, dehqon qo'zg'olon ko'taradi, podsho ezib tashlaydi.

* * *

Alisher yangi taxtachani qo'ltig'iga mahkam qistirgan, shod va mag'rur, uch qadamcha ilgarilagan holda otasi-ning oldida borur edi. Onasi ixlos bilan cho'miltirib, pokiza kiyintirgan. Oppoq salla, mullayoqa ko'ylak ustidan yengil adras to'n kiygan, oyoqlarida etik. G'iyosiddinbek ham soddagina, kamtar kiyingan. Ustida uzun yaktak, katta salla, oyog'ida mahsi-kafsh, katta dasturxonga tugilgan bir talay non va qatlamani ko'tarib borar edi. U ham shod, ruhi ko'tarinki. Bolasining salohiyatiga shubhasi yo'q, imoni komil.

Ular guzardan o'tib, o'ngga burilganlarida, quyuq daraxtlar orasidan maktab ko'rindi. Alisherning hayajoni tobora oshardi.

— Domulla mo'tabar odam,— dedi G'iyosiddin o'g'lining yelkasini quchib.— Hurmat ila salom berib, qo'lini o'p!

— Jonim bilan aytganingizni bajo keltirurmen,— javob berdi Alisher.



G'iyosiddinbek o'g'lini yetaklab, maktab xonasiga kirar ekan, o'qish shovqini shartta to'xtadi: bolalar duv etib o'rinlaridan turdilar va «Assalomu alaykum!» deya ta'zim qilgach, qayta o'rinlariga cho'kdilar. G'iyosiddin Alisher-ning qo'lidan ushlagan holda domulla oldiga borib, ehtirom ila salom berib ko'rishdi.

— Assalomu alaykum, taqsim!— deya Alisher egildi-da, qizarib domullaning qo'lini o'pdi.

— Borakalloh, o'qishga keldingizmi? Balli, o'g'lon,— deya G'iyosiddinga joy ko'rsatdi domulla.

Qari, sersoqol, gavdali domlaning egnida ikki-uch qat to'n, boshida katta salla, ulug'vor, savlat to'kib o'ltirar edi.

— Taqsim, panohingizga keldik,— javob qildi Alisher, hayajondan titrab.

— Ofarin, balli. Taxta keltirdingizmi? Ko'p yaxshi. Alifboning avvalgi harfi Ollohning muborak ismidan boshlanur. Buni aslo unutmagaysiz, — dedi-da, domulla G'iyosiddinga qaradi.— Alisherbek tuyg'un va zaki ko'rinadur.

G'iyosiddin qulluq qildi:

— Tashakkur. Ixtiyoringizga topshirdim, taqsim! — U tugunni domulla oldiga surdi va kissasidan bir tillo chiqarib, ta'zim ila domullaga tutdi. — Taqsim, endi kaminaga javob bersinlar, — deya qo'llarini ko'ksiga qo'ydi.

— Alisher mullo bo'lg'ay!— deya jiddiy va ulug'vor ohangda duo qilib, qo'llarini yuziga surtdi domulla.

G'iyosiddin ham unga ergashib ixlos ila duo qildi-da, xayrlashdi.

— Beri kel, chirog'im!— deya chaqirdi domulla bolalardan birini.

Irg'ib o'rnidan turib, domulla oldida hozir bo'lgan bolaga kulcha va qatlamalar tugilgan dasturxonni uzatdi:

— Otin oyingga eltib ber va tez qayt, uqdingmi?

— Xo'b, taqsim! — deya dasturxonni ko'tarib yugurdi bola.

Shogirdlar saboqlarini sustroq o'qir edilar. Domulla uzun jing'il tayoqni qo'liga olib, havoda bir aylantirdi:

— Qani, ildam o'qinglar!

O'qish shovqini darhol avjga mindi. Bolalarning toza, jarangdor tovushlari xonani to'ldirdi.

Domulla archa hidi burqiragan yangi taxtaga qamish qalam bilan yirik qilib xushxat ila yoza boshladi.

— Hali aytganim, bu Oллоhning oti, uqdingmi?

— Alif!— deb o'qidi Alisher ixlos bilan.

— Be! — dedi domulla qamish qalamni tortib.

— Be-ye!.. — dedi Alisher qoidasi bilan, cho'ziq ohangda.

Domulla qirt-qirt qilib qalam tortib, yoza boshladi. U o'qtin-o'qtin to'xtab, uzun soqollarini silab qo'yar va tag'in yozishda davom etur edi.

Shogirdlar o'qish orasida bir-birlarini turtib, zimdan xilma-xil o'yinlar, sho'x hunarlarini ham davom ettirur edilar. Domulla taxtani uzatur ekan, Alisher suyunib ikki qo'llab oldi. Taxta yuzi harflarga to'lgan edi.

— «Alif», «be»... O'qi, o'g'lim, — deya kichkinalar qatoridan joy ko'rsatdi domulla.— O'tib o'ltur, ertaga yangi saboq berurmen.

Alisher sevinchga to'lgan holda domullaga qulluq qilib, ko'rsatilgan joyga o'ltirgach, tiniq, baland ovozda «alif», «be»ni qayta-qayta takrorlashga kirishdi.

Peshin vaqti bo'lganda kichkinalar ozod qilinib, kattalarga tanaffus berildi. Shogirdlar shovqin-suron ila ko'chaga otilidilar.

«Alif», «be»ni takrorlashdan tomoqlari qirilgan Ali bir to'da bolalar bilan birga o'z mahallasiga jo'nadi.

— Oyi, qornim och, taom bering! — deya onasining qo'liga taxtani tutqazdi darvozadan yugurib kirgan Alisher va darhol qo'llarini yuvishga kirishdi.

— Sahardan to shomga qadar ko'cha-ko'yda kezar eding. Mana endi yaxshi bo'ldi, Aliginam, peshindan so'nggi o'yin ham yetadi.



Oppoq sochiq ila yuz-qo'llarini nari-beri artar ekan, Alisher:

— Mayli, maktab — ulug' dargoh, oyijon, ko'p hikmatlarga oshna bo'lurmen, — dedi kattalardek.

Onasi Alisherning oldiga ovqat qo'yib, mamnun holda qarshiga o'ltirdi va birinchi saboq haqida, domulla haqida surishtira boshladi.

* * *

Kuz fasli. Quyosh olachalpoq bulutlar orasida muhtasham kezadi. Suvlar, go'yo og'ir uyquga cho'mgandek, holsiz suzilib oqadi. Naq alangadek oltinlangan daraxtlar qimir etmaydi. Qop-qanor, o'tin-cho'p ortilgan arava, ot, eshak, xachirlarda bog'dorlar shahar tomon sekin boradilar. Kuz qishning xabarchisi, deb barcha kishilar qish tashvishini o'ylaydilar.

Kichkina Alisherning ham o'ziga yarasha tashvishi bor. Har kuni ertalab onasi bir shokosa qaymoqqa yumshoq non burdalab, oldiga qo'yar, Alisher nari-beri oshalab, taxtani jildga suqadi-da, maktabga yuguradi. Domulla hali bo'yra puli, hali ko'mir puli so'rar.

Shogirdlar domullani hurmat qilar, ham qo'r qar, hayiqar edilar. Barvasta qomatli, hamisha sallasi, katta o'siq qoshlari ostida ma'nodor ko'zlar... — butun qiyofatida ulug'vorlik aks etadi. O'zbek tilidan tashqari, u fors va arab tilini mukammal bilar, shogirdlarga bu tillardan saboq berar edi. Savodi chiqqan shogirdlar fors shoirlarining she'rlarini biram ravon, ohangdor o'qirdilarki, Alisher havas bilan tinglar edi.

Alisher taxtani suvdek bilar, har kuni uyda sabog'ini bir necha daf'a takrorlar, otasi ham o'qitib tinglar, tekshirar edi. Ammo domullasi tushkur uni taxtadan yuqoriga tezroq o'tkaza qolmasdi. Nihoyat, bir kun domulla Alisherni yoniga chaqirib, dedi:

— Borakalloh, o'g'lim, zehning baland, erta haftiyak keltir! — Domullaning serajin yuziga tabassum yoyildi. —

Rasmi, bolalar haftiyakka qo‘shib quymoq keltirurlar, uqdingmi?

— Albatta keltirgumdur, — javob berdi Alisher mamnun holda.

Peshin chog‘i ozod bo‘lgan bolalar har vaqtdagidek shovqin to‘lqinida ko‘chaga otilishar ekanlar, bir to‘da shogirdlar Alisherni chaqirdilar:

— Yur, biz bilan Chorsuga. Bugun mahbuslarga jazo berilur.

Alisher bir zumgina ikkilandi-da, so‘ng o‘rtoqlariga qo‘shilib Chorsu tomon shoshildi.

* * *

Chorsuda xaloyiq qalin. Kambag‘al dehqonlar, chorikorlar to‘da-to‘da. Barchasining yuzlarida qayg‘u, ko‘zlarida g‘azab chaqnar; to‘dalashib ivir-shivir so‘zlashur edilar. Soqchilar do‘q va zug‘um ila bironvi turtib, bironvi so‘kib, qo‘llarida darra, maydon ichiga o‘tib oldilar.

— Voy-bo‘, qator-qator dorlar qurilibdi-ku! — dedi dahshatli hayajonda bir bola.

— Jallodlar ko‘rinmaydi?

— Dehqonlarni qamoqxonadan jallodlar keltirur, — javob qildi bolalardan kimdir.

Alisherning qovog‘i soliq, hayajonda dorlarga bir-bir qarardi. Hislari parishon, dorlarni ko‘rgan hamon ichidan titroq bosmishdi. U otasidan, bobosidan, aqrabolardan, o‘rtoqlaridan dor, darra, turli jazolar haqida eshitgan, ammo o‘zi dorni birinchi daf‘a ko‘rishi edi.

Shu tobda yelkasini kimdir turtganidan qattiq seskanib ketdi. O‘z mahallasidagi, mehnatdan bukchaygan, keksa bo‘zchi unga engashib shivirlardi:

— Oyoq ostida ne qilib yurursen? Jo‘na uyingga! Buni dor deyдилar, — maydon o‘rtasiga imo qildi u. — Hafta sayin bo‘lib turaturgan savdo bu!

— Yolg‘iz emasmen, bobo, o‘rtoqlarim bor, tashvish qilmagaysiz, — javob berdi Alisher va kattalardan



eshitgan va diliga quyib olgan iboralar ila jiddiy tusda so'radi. — Jahannam dahshatiga o'xshaydur... Ne voqea? Qishloqlardan keltirilib hibbs etilgan dehqonlar emish. Och-yalang'och bu bechora kambag'allarning jinoyati ne ekan?

— E-e, jujuq, gap ko'p, joyi emas,— shivirlab javob berdi bo'zchi. — Zolimlar besanoq bu jahonda. Kambag'al dehqonlar, chorikorlar beklarga qarshi qo'zg'olon ko'targan emishlar. Bu g'ariblarning yemishi arpa non bo'lsa, shunga ham qursog'i to'y masa, ne degan narsa!.. Beklarning har birida ming-ming tanob yer, tillosi sandug'iga sig'maydur. Ey, falak!

Shu payt maydon o'rtasiga «Po'sht, po'sht!» xitoblari ila jallodlar va sipohilar yetti mahbusni olib keldilar. Ularning ust-boshi juldur, ranglari bo'zdek oqargan, kishanband oyoqlari esa qo'rg'oshindan quyilgandek og'ir, bazo'r surgab bosishur edi.

Mahbuslar orasida hirotlik bir yosh yigit va nozik qomatli, quyuq sochlari uzun, boshiga qalin ro'mol yopingan bir qiz ham bor edi. Xaloyiq bir to'lqinlanib jim bo'ldi, lekin bu dahshatli sukunatni mahbuslarning bola-chaqalari, ota-onalari, qarindosh aqrabolarining yig'ilari, alamli qiyiqirlari, fig'onlari buzib turardi. Ko'plari to'vushsiz yig'lar, ko'zlari shishgan, yuzlaridan tomchi-tomchi yosh dumalanur edi. Mehnat ahli va g'ariblarning ko'ngillari vayron, barchasi qayg'u-g'azab to'lqinida. Lekin tamom loqayd, beparvo tomoshabinlar ham oz emas. Ayrim sarkardalar, to'ralar, savdogarlar hatto xushnud gerdaygan.

— Jazosi dor bularning! Ablahlar, qo'zg'olon ko'taribdi-ya! Podsho hazratlarining o'zlari borib, yanchib tashladilar! — dedi yasovul.

Ustida yarqiroq shohi to'n, oyog'ida g'irchillama mahsi-kafsh, boshiga yangi taqi qo'ndirgan, xo'rozdek qip-qizil bir yigit yonidagi bironni turtdi.

— Qiz bilan yigitni qarang!

— Ha-ya, bular oshiq-ma'shuq emishlar, — deb kuldi unisi.

— Qiziq voqea, — deb so'zga aralashdi yana bir yigit. — Ikkisi hammahalla. Yigit madrasada o'qurdi, nihoyatda savodli, nutqi o'tkur. Qiz esa ofatijon. Tanbur, dutorni sayratishda mahorati benazir. Otasi ila birgalikda atlas to'qiydiki, dunyo ko'rmagan bu kabi chevarni! Savodi ham yaxshi, picha g'azal ham bitarmish.

— Parivash raqsni ham bilarmikan? — deb so'radi quloq solib turgan ma'murlardan biri va aksa urib yubordi. — I-ya, shamollabman shekilli...

— Raqsda ham monandi yo'q emish. Ha, voqeaga ke-laylik, — deb davom etdi haligi yigit. — Zangin va davlat-mandlardan bir kimsa qizga xushtor bo'lib, sovchi yubor-gan. Ota-ona maslahatlashganlar. «Badavlat odam, biroq bir to'yda ko'zim tushgan edi: qirqlarga yetgan, cho'pdek oriq, ko'zlari munchoqday, xunuk kishi. Qaydam, tilab olgan yolg'izgina farzandimiz uvol ketmasmikan?» — deb-di onasi. Keyin ota-ona rozi bo'lib, «davlatga, oltin-kumushga ko'milasen», — deb qizni ko'p avrashibdi-yu, qiz sira ko'nabdi. «O'zimni suyganim bor», — debdi. U zangin bekning podshohimizga xeshlik bir joyi bor she-killi, xullas, qizni buzuq, yomon yo'lga kirgan, deb, unga ko'p og'ir tuhmat qo'yib, chaqibdi. Podshoh g'azab-lanibdurlar va qizu yigitni dorga osmoqqa amr etibdurlar.

— Yo'q, yo'q, g'alat o'ylabdursiz! Qiz va yigitning xatti-harakati qo'zg'olonga munosabatlidir, — dedi tag'in bir kishi. — Zangin bek qizga talabgor bo'lgan, qizning iziga tushgan, ammo yetisha olmaganidan o'ch olish niyatida podshohga arz qilib, ularning qo'zg'olonchilarga do'stlik, hamfirklik sirini ochgan. Haqiqat bundoqdur, birodar.

Shu tob xaloyiq orasida shovqin ko'tarildi. A'lam hazrat-larining noibi podshoh buyrug'ini, mahbuslarning o'limga hukm etilganligi haqidagi farmonni keltirgan edi.

Noib — zarbof to'n, shohi salla, kalta qalin qora so-qolli, yag'rindor kishi, — farmondagi har bir so'zni



donalab, salmoq bilan o'qiy boshladi. Barcha sukutda, biror kishi churq etmas, ba'zilarining ko'zlari jiqqa yosh, ba'zilar o'pkalari to'lib, alamdanda xo'rsinib qo'yishar edi.

Bo'zargan, yig'idan to'liqqan Alisher dorga tikilar, qayta-qayta mahbuslarga ko'z yugurtirar edi. Madrasa ah-lidan bo'lsa kerak, bir yigit uning yelkasidan quchdi.

— Ukam, o'zingni bos, hali mundoq qabohatlarni ko'p ko'rursen. Zolimlar bisyoru bisyor, podshohlik — qonxo'rlik, deydilar.

*Peshai podshohon nest ba juz jabru sitam,
Adlu insof hama zeru zabar mebinam.*

Tushundingmi buning ma'nosini? Forsiyni bilurmi-sen? Turkiyda:

*Podshohlar qilmishi jabru sitamdan o'zgamas,
Adlu insofning alarda yo'qligin ko'rmakdamen,—*

degani. Mana, jujuq, mavlono Hofizning ham bundoq qabohatlardan qalbi yara erkan.

Alisher ko'z yoshlarini artib, o'pkasini bosishga tirishardi.

— Oz-moz anglyaydurmen, janob, ammo siz aytgan baytning ma'nosi men anglaganimdan-da chuqurroq bo'lsa kerak, deb o'ylaydurmen.

— Borakalloh, tiyrak va ziyrak ko'rinasen, — dedi ham-suhbati tiqilinchda hali u oyog'ini, hali bu oyog'ini o'ng-lab. — Falakning gardishi qursin! Bu g'arib dehqonlarn-ing hech ayblari yo'q!! Ha, sira aybi yo'q!!! Butun balo beklarda! Chorikorlar kesakni kemirurlar desam — yolg'oni yo'q. Qo'zg'olon ko'tarmay ne qilsun? Hiroflik yigit va qizning voqeasi — g'oyat faje. Bular olamda misli yo'q, pok, asl guldek nafis insonlar! Bular Hirotda boshlariga tushgan ofatdan qochib, qishloqda yurganlar. Yigit kambag'allarga yordam berib, ariza, shikoyatnomalar yozgan. Mana ko'ribsizki, endi ikkovlari ham dorga tortila-

di. Podshoh hazratlari farmonga imzo chekkanlar, a'lam hazratlari esa bu g'ariblarni ajal qo'liga topshirishga fatvo berganlar. Sho'rliklar, o'zlarining begunohliklarini kimga aytsinlar? Bor — yetti pushtini qo'llar, yo'q — o'zini ham qo'llay olmas, deganlar. Yo rabbim, haqiqat gavhardir-ki, bir kuni oshkor bo'lur!

Alisher hayratda, eshitganlarini o'zicha anglashga urinurdi, madrasa talabasi sukut qilgach, u sekin gapirdi:

— Taqdir, to'g'ri aytursiz, tushundim. Odamlarga razm solsam, ko'pchilik ularni qizg'anadur, yig'laydur. O'lim dahshati yomon-da! Qarang, mahkum etilganlarning ranglari o'chgan, go'yo ular soyaga o'xshaydurlar. Hirotlik qiz va yigitlarning alam-hasrati ichlarida. Goho ular o'zaro shivirlashib qo'yurlar. Ko'rurmisiz, alarning holiga ahli shahar yig'lashur!.. — Alisherning ko'z yoshlari tag'in quyila boshladi.

Maydonga nogahon mudhish sukut cho'kdi. Jallodlar dehqonlarning boshlariga ajal qopchiqlarini bir-bir kiydirib, dor boshiga keltirdilar va oldinma-ketin ularni dorga tortib yubordilar. Tikandek qattiq ko'zli, yuzlari toshdek yovuz jallodlar, go'yo bajarmish qabohatlaridan mamnun bo'lgan kabi, mag'rurona jim qotdilar. Dehqonlar esa o'lim panjasida bo'g'ila-bo'g'ila tipirchilab, qattiq azob chekib, asta-sekin jim bo'ldilar. Jallodlar yigit va qizning qo'llarini yanada qattiqroq bog'ladilar. «Alvido, azizim!» — dedi yigit g'urur ila. «Sen ila birga ketmoqdamen, buni baxt bilurmen. Guldek sofmiz!...» — deya javob berdi shivirlab qiz. Alamdan qorayib ketgan yigit dahshatli hayajondanmi yoki o'lim oldi talvasasidanmi kuch bilan kuldi: «Jonim, azizim, zulm dunyosidan qutulur-miz, garchi...» Shu chog' yigitning so'zlari uzildi...

Shu chog' maydondagi sukunatdan ortiqroq dahshat yo'q edi. Alisher bo'zdek oqargan, qattiq titroqda, o'qdek otilib olomon orasidan chiqib ketdi. Orqasiga qarashga yuragi dov bermas, to'xtamay chopar edi.



* * *

Havo salqinroq, ora-sira yomg'ir tomchilab turibdi. Taxtasi qo'ltig'ida. Alisher eshikdan kirib keldi.

— Qayerlarda yuribsen? — so'radi oshxonadan chiqib kelayotgan onasi tashvishlanib.

— Oyi, oyi! — tutulinqirab o'pkasini bosolmay, ko'zlari ola-kula holda dedi Alisher. — Chorsuga bormishdim... Maydonda xaloyiq g'uj... Dehqonlarni osishdi... O'zim ko'rdim...

Onasining g'azabi toshib, so'zlay ketdi:

— Aytmishdim-ku, zinhor-zinhor unday joylarga borma, deb, Alijon! To'g'ri yur, pok bo'l, jonim! Ko'nglingga bir jarohat tushmasligini, bir zarra chang qo'nmasligini Tangrimdan tilaymen.

Ona o'g'lini quchoqlab, yuzlarini mehr bilan siladi.

— Yuragim qinidan chiqib ketay dedi. Qochib ketdim. Oyjion, afv eting, endi bormaydurmen bu maydonga.

— Xafa bo'lma, yuvingin-da, taomga o'ltir.

Alisher taxtani tokchaga qo'yarkan, oshxonaga kelayotgan onasiga dedi:

— Taom yemaymen. Ko'nglim behuzur...

* * *

Kuz... To'kilgan yaproqlardan yerlarda gilam. Tiniq osmonda quyosh yarqirab tursa-da, kuzning o'tkir izg'irini yuz va qo'llarni yalab, achitadi.

Keng xonaqohda qat-qat bo'yralar ustiga qalin yangi namat, to'rda esa xiylagina tutilgan Eron gilami to'shalgan. Derazalarga yopishtirilgan moyli qog'ozlar osha kirgan quyosh nuri bu katta xonada hokimlik qilolmas, uy nimqorong'i edi. Bu shahzodalar va bekdodalarga xos maktab. Alisher shular qatorida derazaga yaqin tiz cho'kkan, maktabdoshlarining domulla bexabar sho'xliklariga, ivirshivirlariga quloq solmas, darsining zeru zabari uni bu-tunlay band qilgan edi. Yonida o'ltirgan shahzoda Husayn gohi turtib qo'yar, shunda Alisher bir cho'chib tushar va tag'in mutolaaga kirishib ketar edi.

Shogirdlarning o‘zaro shivirlashlari domullaga yetmas, onda-sonda shovqin ko‘tarilgundek bo‘lsa, domulla gunohkorga bir tayoq tushirar va sho‘xlik shu on tinar edi. Lekin dars shovqini ham yetib ortardi. Birov Qur‘onni, birov haftiyakni, birov alifbeni, birov arabiy diniy kitoblarni qiroat ila, birov forsiy g‘azallarni ohang bilan o‘qirdi. Bulardan qorishgan shovqin quyuq bir bulut kabi xonaqohga yopirilgan edi.

Boshiga qozondek salla qo‘ndirgan, qat-qat to‘nlarga o‘ralib olgan domulla vazminlik va salobat ila o‘ltirgancha shogirdlardan biriga saboq berardi. Ba‘zan bek yo shahzodalardan birortasi hurmat yuzasidan kirib kelar va ta‘zim ila so‘rashib, picha suhbatlashib chiqib ketar edi.

Shogird shahzodalar ruhlariga beshikdayoq singgan g‘ururni maktabda ham tark eta olmas, saboqlarining nuqtasiga yetar-yetmas, darhol shivir-shivirga o‘tishar edi. Bularning gapi — o‘q uzish, ot chopish, qilich solish, sovut-qalqon, kelajakda kim qayerga hokim... Xullas, bir qarichligidanoq taxt mojarosi...

Alisher Qur‘onning mag‘zini chaqishga kirishardi. Forsiyni yaxshi bilardi, lekin arab tilini o‘rganishga endi kirishgan. Turkiy esa ona tili; turkiy baytlarni zo‘r maroq ila o‘qir, kundan-kunga yoddan biladigan g‘azallari ko‘payib borur edi. Maqollar, masallar, ertaklarni obdon sevardi.

To‘satdan ko‘chada shovqin ko‘tarildi, eshikda bo‘zdek oqargan so‘fi paydo bo‘ldi. U qoqila-suqila domulla oldiga yetgach hamon, uning qulog‘iga engashib shivirladi. So‘zi so‘ziga qovushmas, qattiq sarosimada edi.

— Barcha saroy beklari, barcha kanizlar qora motam liboslariga burkanib olganmishlar... Ulug‘bek Mirzo kelar emishlar. Shohruh podsho vafot etmishlar... — degan so‘zlarni arang aytib tugatdi.

— Ey, shohi oliy Shohruh hazratlari xasta edilar, — dedi domulla va qaltiragan qo‘llarini ochib, Qur‘on o‘qidi.

Jim qotgan shahzoda Husayn va barcha shahzodalar, domullaga ergashib qo‘llarini yuzlariga surtgan hamon,



darhol duv ko'tarildilar. Bir onda xonaqoh bo'shab qoldi. Maktab saroyga yaqin esa-da, shahzodalar ot ustiga sakrab, saroy tomon chopdilar.

Alisher xomush, jim o'ltirardi. Unga o'xshash yana bir necha bekdodalar domulla «Ozod!» degandagina o'rinlaridan qo'zg'aldilar. Alisher Qur'onni jildiga solib, bo'yniga osdi va keng to'nlarining etaklariga o'ralashib, o'rnidan turolmay, talvasalayotgan domullasining qo'ltig'iga kirib yordamlashdi-da, chuqur ta'zim ado etgach, ko'chaga yugurdi.

* * *

Katta maydon gavjum. Barchaning qovog'i soliq. Bo'zchilar, kosiblar, kiyimi yirtiq, juldur bo'z yaktakli bechoralar ko'p edi. Xalq og'zida gap ko'p, shivir-shivir bir on tinmas edi:

— Podshoh hazratlari jabhada vafot etmishlar!..

— Boysunqur Mirzoning kichik farzandi, ya'ni nabirasi sulton Muhammad Mirzo bilan a'lo hazrat jangda g'alaba qozonib qaytar ekanlar, jabhada halok bo'lmishlar!

— Azonda qasrga keltirmishlar.

— Keksayib vafot etdilar. Temurdan ham ortiq yashadilar.

— Otalari o'ldi, lekin dafndan ilgari shahzodalar, sultonlar orasida taxt janjali ko'tarildi.

— Ulug'bek Mirzo lashkar tortib Samarqanddan ke-lurmishlar...

Ana shu kabi so'zlar eshitilur edi.

To'da-to'da olimlar, shoirlar, shoironamolar ham shu yerda. Mana, Jomiy, qovog'i solingan, ulug'vor turibdi. Boshida katta salla, mullayoqa olacha ko'ylak ustidan malla to'n kiygan, qo'llari orqada, og'ir sukutda u. «Shohruh o'ldi. Temurbek saltanati shu bilan tamom bo'lsa kerak. Shahzodalar, beklar yana g'avg'oni boshlaydilar, qonli janglar bir-biriga ulanib ketaveradi. Shohruh hazratlari qabrga kirmay, janjal quyuni ko'tarildi. Qani insof, qani

haqiqat?... Barcha inson tuproqqa kiradi! Bevafo dunyo!!! Puch dunyo!!!» — deya o'ylardi Jomiy.

Beklar, amaldorlar, qozilar, shayxlar orasida shivir-shivir ko'paygan. Har birining ko'nglida o'zicha taxtga mo'ljallagan shahzodasi bor. Shu kunlarda Gavharshod-begimning makri ham avjida edi. U nabirasi Boysunqurning o'g'li Alovuddavlani Ulug'bek Mirzodan ortiqroq sevar, bobosi o'rniga uni podshoh qilish niyatini ko'pdan pinhon saqlar edi. Bir necha yil muqaddam, Shohruh og'ir hasta bo'lgan paytda, Gavharshodbegim davlatning butun idorasini o'z qo'liga olgan, hatto Alovuddavla ismiga xutba o'qishni talab etgan edi. Shohruh o'zi taxtni o'g'li Muhammad Jo'kiga topshirishni o'ylar, ammo bu orzusi uning faqat ko'nglidagina, negaki, malikadan hayiqar edi. Malika butun hokimiyatni egallagan, hatto devon ishlariga ham Muhammad Jo'kini yaqin keltirishni istamasdi, faqat Alovuddavla va Abdullatif ishtirok etardilar. Muhammad Jo'ki Shohruhdan ikki yil muqaddam vafot etdi. Mana endi Shohruh vafot etganda, uning o'g'illaridan yolg'iz Ulug'bek hayot. Nabiralar esa behisob, har biri taxtga changal solishga tayyor.

Shohruh jon taslim etganda, jabhada Gavharshodbegim va Abdullatif bor edi. Malika Abdullatifni chalg'itish uchun uni bosh sardor tayin qilib, bosh tug' ostiga qo'ydi va undan yashirin holda Hirotga, Alovuddavlaga chopar yubordi. Buni payqab qolgan Abdullatif darhol bibisini hib qilishga buyruq berdi. Lekin yetib kelgan Alovuddavla bibisini ozod qilib, Abdullatifning o'zini hibsga oldi. Mana, Shohruhning jasadi Hirotga keltirildi.

Shohruh jasadi Hirotga keltirilgandan so'ng dafn marosimi temuriylar saltanatining an'anasiga muvofiq zo'r tantana ila o'tkazilib, Gavharshodbegim madrasasiga muvaqqat dafn etildi. Kichkina Alisher bu voqealarning guvohi edi, u saroydagi va shahardagi g'ovur-g'uvurlarni mushohada etar, otasining kayfiyatidagi o'zgarishlarni sezar, bobo va nabira taxt uchun bir-birlariga qilich so-



lishga tayyor ekanliklaridan uning pok ko'ngli larzaga kelardi. «Bu nechuk buzuqlik», — derdi kuyunib ichida.

— O'g'lim! — dedi otasi Alisherni vaziyatdan jinday ogohlantirmoq niyatida. — Temur sulolasi xotimaga yetdi. Shahzodalar o'zaro qirg'in boshladilar. Bu olov ichra bizga omonlik yo'q.

* * *

Qishning izg'irinli kuni qor uchqunlanib turardi. G'iyosiddin Bahodir naqshkor kichik mehmonxonada Mirsaid ila suhbatlashib o'ltirardilar. O'rtadagi yolqunlangan cho'g' to'la manqaldan atrofga yoyilgan issiqlik uy-dagilarga orom baxsh eturdi.

Telpagini qoshlariga qadar bostirgan, uzun guppi choponda, yong'oq o'ynab qaytgan Alisher ishqiy va sufiyona she'rlarga mohir bir turkigo'y shoirning g'azalini o'zicha shibirlab o'ltirurdi.

— Qani, o'qing, jivan! Balandroq o'qing! Biz ham eshitaylik, — deya so'radi tog'asi Mirsaid.

Alisher yalt etib tog'asiga qaradi.

— Shoirsiz, donishmandsiz, siz o'qisangiz yarashadur. Men g'alat o'qishdan qo'rqrurmen.

Moshkichiri soqolli, o'siq qoshli Mirsaidning yuzlariga tabassum yoyildi.

— Yurak hissiyot va zavqqa to'la. Ammo she'r aytmoq uchun ifrot, ilhom kerak, jivan. Goho ermak uchun qalam tortib qo'yamen. Mana, mening fahmimda, sen shoir bo'lursen, zehning o'tkur, idroking baland, — der ekan go'yo Alisherning qalbiga kirmoqchidek tikilib qarardi tog'asi. — Fors shoirlari yuksak tuyg'ular, teran fikrlar ila to'la ajib she'rlar yaratmishlar. Bizning turk shoirlari ham ularga ergashib, forsiy she'rlar ijod etishni odat qilib olmishlar. Turkiston o'lkamiz vodiylari, sahrolari keng, tog'lari buyuk, aholisi turk-o'zbekdur. O'zimizga xos odatlarimiz, an'analarimiz, qo'shiqlarimiz, dostonlarimiz, ertaklarimiz bor. Bular — cheksiz boy-

ligimiz. Ayniqsa, tilimiz go'zal, shirin va rangli! Jiyan, o'z yo'lingni topsang, bas.

— Ko'pchilikning ko'nglidagini topib gapirursiz, amir. Shu odatingizni suyardurmen, — dedi mamnuniyat ila G'iyosiddin Kichkina. — Lekin Alisher avvalo ijthod ila o'qisin, bilimdon bo'lsin. Ta'bi yaxshi, balki sheriyat bulog'ini topur...

Ko'chadan bolalarning shovqinini eshitib qolgan Alisher shartta irg'ib turib, ko'chaga yugurgisi keldi-yu, lekin mutolaasini tark etmadi.

G'iyosiddin Kichkina ila Mirsaid suhbatini davom etdi.

— Temurbek — amiri buzruk benazir bir shavkatli davlat yaratmishdir. Ammo sohibqironidan keyin bu davlatga munosib bir kimsa bo'lmadi. Ayniqsa, Shohruh Mirzodan so'ng nabiralari taxt talashib ko'targan g'avg'olar aro xalq, yurt tamoman unutilmish, — deya shoshmasdan so'zlardi Mirsaid. — Yolg'iz Ulug'bek Mirzo sohibqiron bobolari davlatiga munosib vorisdurlar. Ul zotni ilm dunyosida, ayniqsa, falakiyotda inkishof nuqtasiga yetmish bir olim, desak, xato bo'lmag'ay. Ammo, afsuski, vazirlari, beklari bul adolatpanoh xoqonning qadriga yetmaydurlar, barchasi johildur.

— Butun falokat shundadirki, bek, — dedi G'iyosiddin Kichkina dard ila. — Ulug'bek Mirzo falakni zabt etmish olim, donishmand hoqondur, ammo... — U gapidan to'xtab, mutolaaga band Alisherga ko'z tashlab qo'ydi.

— Ha, shahzodalar hazratning oyog'iga bolta urmasalar, deb qo'rqamen, — G'iyosiddin ayta olmagan fikrni shoir aytib qo'ya qoldi.

— Qalb, vijdon, aql degan narsa topmaysiz, bu shahzodalarning birortasida! Bular zamonani mushkullashtirib, loyqalatib ketyapti, chamamda.

Shoir ulus ahvolining fojeligini, xalqning kambag'alligi, qashshoqligi, g'aniylar va zanginlarning aysh-ishratga mukkadan ketganliklari, podshoh bibisi Gavharshod ila gumrohlikda, ko'rlikda faqat ulus tillosini yig'ishda mo-



hirligi, sipohilar esa xalq nonini og'zidan yulishni o'ylashi haqida uzoq gapirdi. Shoirning qiyofasi, tovushida ichki bir ezilish, ruhiy siniqlik ko'rinardi.

— Aytganlaringizning barchasi haqiqat, — dedi sekin tovushda G'iyosiddin Kichkina. — Ulusimiz buyuk, xalqimiz qobiliyatlidir. Biz faqat xalqqa suyanmog'imiz lozim. — Nogoh bir narsa esiga tushgandek shoshilib o'rnidan qo'zg'aldi. — Qani, marhamat, masjidi jome'ga yursinlar, jum'a namozini birga o'qiylik.

G'iyosiddin Bahodir, Mirsaid, shoir Qobuliy to'n va sallalarini kiyib, masjidi jome'ga yo'l oldilar.

Alisher dik etib o'rnidan turib, ularga salla-choponlarini tutdi...

* * *

Bahor. Hamma yoq nafis gullar, mayin ko'katlar ila yashnab ketgan. Serdaraxt, ko'kalamzor Hirot gullarga ko'milgan. Daryolarning to'lib-toshgan chog'i. Unda-bunda, xiyobonlarda shirin xayol, ilhom og'ushida she'r yozib o'ltirgan va she'riyat mutolaasidan zavq olayotganlar ham oz emas edi.

Ammo bu osoyishtalik uzoqqa bormadi. Shahzodalar o'rtasida dahshatli janglar, qonli urushlar borgan sari zo'rayib borardi. Abdullatif, Alovuddavla, Abulqosim Bobur va boshqa shahzodalar o'rtasida taxt mojarosi avjga oshmoqda. Hirot g'alayonda, fuqaro tashvishda. Shahardagi beklar, amaldorlar orasida Abulqosim Boburning yashirin tarafdorlari ko'p edi.

G'iyosiddin Kichkina kundagidan ilgari shoshilib uyga qaytdi.

— Ahvol yomon, — xotiniga tushuntira boshladi, — barcha ulug'lar, beklar, zanginlar shahardan pinhon chiqib keta boshladilar. Alisher qani? — so'radi u qarshisiga kelib o'ltirgan xotinidan. — Yo'l tadorikini ko'rmak lozimdur.

— Nima gap o'zi? — so'radi hayratdan qotgan Gulbegim.

— Podshoh jangda, Abulqosim Bobur bostirib kelmoqda, bir tomonda Abdullatif. Hirotdan bosh olib ketmasak, jon saqlamoq mushkuldir, uqdingmi?

— O‘lib bo‘ldim-a... Hali jang, hali saroyda g‘avg‘o... — dedi kyunib Gulbegim va darhol uy-joyini yig‘ishtirishga tushdi.

Yarim kecha. G‘iyosiddin Bahodir, xotini va Alisher, safar kiyimida, to‘la xurjunlar ortilgan otlarda yo‘lga tushdilar. G‘iyosiddin Kichkina avvalroq yo‘lga chiqqan aq-rabolaridan uzilib qolmaslik uchun ularga yetib olishga shoshar edi.

Chol va kampir oq yo‘l tilab qoldilar.

* * *

G‘iyosiddin Bahodir oilasini olib, bir necha yaqin qarindoshlari, urug‘-aymoqlari ila Iroq tomonga qochdi.

Iroqning issiq havosini bolalar pisand qilishmas edi. Alisher tong otgan hamon bir guruh tengqurlari ila darhol ko‘chaga otildi. Ular to‘xtagan dargoh yaqinidagi masjid atrofini aylanib, xonaqohga ham bosh suqdilar.

Xonaqohda mutolaa ila mashg‘ul, tanho o‘ltirgan katta sallali, keng oq yaktakli chol bolalarning chuvvos shovqinini eshitib, kitobdan bosh ko‘tardi.

— O‘g‘illarim, so‘zlangiz! Qaydin keldingiz? — deya so‘radi chol.

Alisher darhol o‘rtoqlariga qarab, barchasining jim qotganini va birortasining javobga og‘iz ochmaganini fahmlagach, cholga yaqin borib, nazokat ila ta‘zim qildi:

— Ko‘p aziyat chekib, Hirotdan keldik, taqsir! Qari shohimiz vafoti tufayli shahzodalar aro g‘avg‘o... — Bir oz sukutda qoldi Alisher, so‘ng tetik tovush bilan dedi: — Qirg‘in boshlanib ketdi.

— E-e-e... — soqolining uchini tishladi chol, bir zum sukut qildi. — Hm-m... «Shoh vafot qildi, shahzodalar bir-birining kallasini uchirmoqda», denglar! — deya istehzoli jilmaydi va ko‘zlarini qisib yana dedi: — Sho‘x o‘g‘lon,



barchangiz turkiy ekansiz. Balli, o'g'illarim!.. Maktabga borurmisen, o'g'lon? — so'radi u Alisherga murojaat etib.

— Borurmen. «Qur'oni sharif»ni o'qiydurmen, — javob berdi Alisher jiddiyat ila.

— Ne yergacha o'qibsen?

— «Mulk» surasigacha.

Chol Alisherni o'ziga yaqinroq chaqirib, yelkasiga qoqdi.

— Biz tilaganda, yonimizga sen kelib, bizga oshno bo'lding. Endi sen uchun fотиha o'qurmiz.

Chol duoga qo'llarini ocharkan, Ali cho'kka tushgandi va duodan so'ng oyoq ustiga qalqib:

— Qulluq, taqsir! — deya Alisher qizarib, ikki qo'li ko'ksida, ta'zimga egildi.

— O'g'lim, hovuzdan suv keltiring, — dedi chol, bo'sag'a oldidagi obdastani imo bilan ko'rsatib.

Alisher lahzada obdastani to'latib, joyiga qo'yarkan, chol bolaning tetikligi, ko'zlaridagi tuyg'unlik, ko'nglidagi samimiyat mavjidan zavqlangan, quvongan edi.

— Ofarin! Kelib turgin, o'g'lim, — dedi mehr va mayinlik ila.

Bolalar ko'chaga otildilar. Ular yana bir masjidni, uning boshidagi maktabni ham ko'rib chiqqach, bozorga kirib bordilar. Bozorda xalq qalin. Ari iniday bir-biriga yondosh kichik-kichik boqqollik do'konlaridan tortib, shi-piga qadar atlas-shohi qalashgan do'konlarning barchasida savdo-sotiq boshlanib ketgan. Ko'cha bo'yi, oyoq osti, hammasi sotuvchilar va xaridorlar ila band. Birov supurgisining ta'rifini aytib javrasi, boshqasi savatdagi issiq nonni tutib maqtaydi. Mana, bir zambil xurmoning oldida yamoq to'nli kishi vaysab turibdi:

— Qand xurmo! Lazzatli xurmo! Ta'rifidin ojizdurmen, olib qoling!..

Bolalar chug'urchuq kabi yopishdilar:

— Menga bering!

— Avval menga!

— Bir miriga torting, ota!

Ular bir-birlarini turtib, birlari ortidan birlari bo'yinlarini cho'zib, chaqa uzatardilar.

Alisher tabassum ila tanga uzatarkan, chol so'radi:

— Qayerdan kelgansiz, o'g'lim?

— Hirotdan, ota. Shahringiz fayzli, imoratlari ko'p, sersuv, pok shahar ekan. Lekin bir aybi borki, maktablari xarob, shogirdlar omi...

Xurmofurush chol kulib yubordi:

— Ey mullo, bizda kulli omi¹.

Alisher boshini ko'tarib, quyoshga qarab olgach, jiddiy ohangda yana so'z boshladi:

— Domullamiz aytganlarki, ilm go'yo gavharday bebaho, quyoshday muqaddas, omilik ko'z bog'ichidir.

Chol bir on angrayib qolgach, Alisherga boshdan-oyoq razm soldi:

— Dunyo shundoq, bo'tam, tirikchilik g'ami — yelkamizda og'ir yuk. G'aniylar,² katta-katta eshonzodalar o'qiydur maktabda. G'aniylarning oltini ko'p, yer-suvi ko'p, savdosi taraq. G'arib, qashshoqlarning hamyoni quruq, dardi bisyor. Bu gapni zehningizga tugib qo'ying, chirog'im!

Alisher qovog'i soliq, sukutda yerga qarab turardi.

— Yur, Ali, ezmalanma! — deya tortqiladi o'rtoqlaridan biri.

Alisher kulimsirab xurmofurush cholga bir qarab olgach, o'rtoqlariga ergasha yugurdi.

Shahar kezib yura-yura bolalar bir madrasa oldida to'xtadilar. Atrofidan aylangach, ichkariga bosh suqtdilar. Madrasa — g'ishtdan mustahkam ishlangan, yog'ochdan o'yma qilib yasalgan sharafa³ va peshtoqlarida naqsh aro bitilgan oyatlar... Bolalar boshlarini ko'tarib, bu nozik san'atni tomosha qildilar.

¹ *Kulli omi* — yoppasiga savodsiz.

² *G'aniy* — boy, badavlat.

³ *Sharafa* — karniz.



— Ajoyib san'at! Naqadar mohir qo'llar yasagan bularni!.. — dedi bolalardan biri.

— Devorlar, zinalar bari marmardan. «Arab ustalari bag'oyat mohir!» derdi bobom, — dedi qoracha bola.

— Yaxshi madrasa ekan! G'aniylar bino qilgan-da! — dedi tag'in biri.

— E-e, bularni yaratgan qo'llar elniki! — dedi ko'zini katta ochib, aqlli, hushyor bir bola.

Alisher sharafalarning nozikligi, naqshlarning nafisligi, oyatlarning xushxat bitilganiga hayratlanib, zavq va maroq ila tomosha qilardi.

Bolalar g'aniylarning katta darbozali, pishiq, mustahkam binolarini, kambag'allarning kichik, zah, zindon kabi qorong'i loy va somondan yasalgan uylarini ko'rib, keng va tor ko'chalarni aylana-aylana, horib qaytdilar.

Alisher otasiga xonaqohda bir chol darveshni ko'rganini va uning bilan suhbatini aytar ekan, G'iyosiddin, o'g'lining yelkasini quchib, tushuntirdi:

— Temurbek saroyida olimlar ichra bir gul edi mavlono Sharofiddin Ali Yazdiy, mashhur tarixchi, o'g'lim.

Alisher bu kimsaning ulug'ligini o'zi ham payqqagan ekan, otasiga indamay, Qur'on tilovatiga berildi.

* * *

Bir kun jamoat to'planib, endi Hirotga qaytish fursati kelganligi haqida suhbat qilishgach, ozuq-ovqat hozirlashga, safar taraddudiga kirishdilar. Bir haftadan so'ng esa otlarda, tuyalarda Iroqni tark etib, yo'lga tushdilar.

Alisher yuvosh, ko'rkam bir saman otda borardi. Bekatlar, qishloqlar, shaharlar, kichik-kichik shinam bog'lar, to'lib oqqan daryolar uchrardi. Alisher yo'llarda parr etib havoga ko'tarilgan kaklik, qirg'ovullarni, o'qdek otilib chopgan jayronlarni, yuksakda parvoz qilgan burgutlarni havas ila tomosha qilib borardi.

Yigitlar ba'zan o'q uzib, jayronni qulaturlar va xush manzillarda jamoat oromga to'xtaganda kabob qilurlar, moy

jaz-jaz o'tga tomganida taralgan xush bo'y butun havoni to'ldirar edi. Tunlari osmon odatdagidan keng, yulduzlar past ko'rinur, katta barkashdek oy esa go'yo karvon ila birga suzgandek tuyulur edi. Alisher eshitgan arab kuylarini, ertaklarini takror-takror ko'nglidan kechirib borur edi.

Mana, asta-sekin uni shirin mudroq bosdi; ohista chayqalib borarkan, jilov ham qo'ldan chiqdi; qattiq uyquga cho'mdi. U o'zining ot ustidan qanday va qachon tushganini sezmedi, yo'lda uxlaganicha yotar, karvon esa sur'atini buzmay, o'z yo'lida davom etar edi.

Hushyor ot taqqa to'xtaganicha turib qoldi. U bolaning boshida uzoq turdi-da, atrofda ohista aylana-aylana o't chimdiy boshladi. Alisher to'satdan seskanib boshini ko'tarar ekan, bepoyon sahroda yolg'iz o'ziyu saman otidan o'zgani ko'rmadi. Quyosh hanuz ufqdan bosh ko'tarmagan, bolaning vujudi salqin tong shabadasidan junjikkan edi. Sakrab, hayajonda o'rnidan turar ekan, ot ham kishnab, oldiga yetib keldi. Ahvolni shu ondayoq anglagan tuyg'un Alisher darhol otning jilovini tutdi, lekin egarga qanday qilib minsa ekan? Ot tuya emaski, uni cho'ktirsa. Atrofga alanglab, ko'z ilg'ar joyda bir harsang toshni ko'rdi-da, otni o'sha tomonga yetakladi. Minib olgach, choptirib ketdi.

Yosh chavandoz boshidagi ko'rkam qalpog'ini ba'zan qo'li bilan bostirib qo'yardi. Havo mayin, musaffo. Ufqda endi paydo bo'lgan quyosh dilga yoqimli edi. Uzoqda al-laqanday tutash chodirlar ko'ringanday bo'lar, bir qarasa-ki, hech narsa yo'q, faqat sarob...

Jamoat qo'ngan manzilga yetib kelganida, ho'ng-ho'ng yig'lab yurgan ota-onasi uni galma-gal qayta-qayta quchoqladilar.

— Necha yigitlarni ot choptirib jo'natdim, ko'zimiz yo'lda to'rt bo'ldi, hanuz birortasi qaytmadi.

— Bepoyon sahroda tentirab yurgandurlar. Chakki qilib-siz, mana, o'zim topib keldim-ku, — dedi Alisher va uxlab qolganida otdan yiqilganini va yerda qancha zamon uxlab yotganini ota-onasiga so'zlab berdi.

Yo'l azobini torta-torta jamoat oxir Hirotga yetib, hamma uy-uyiga tarqaldi.

— Yo'lingizga intizor, poylab yotibmiz, — dedi sevinib qarshilagan chol G'iyosiddin bilan ko'rishar ekan.

— Qani, gapiring, bobo, yana ne voqealar o'tdi Hiroti azimda? — deya G'iyosiddin Kichkina chol qarshisiga joylashib, tizzalarini uqaladi.

— Hirot, bir boqsangiz, cho'g'da, bir boqsangiz, suvda bo'ldi. Mana, ertaga o'zlari aylanib ko'rurlar. Kultepa, xaroba ko'paydi... Shahzoda degani borki, bir-biridan taxtni qizg'anib, qildi qirg'inni, qildi qirg'inni!.. Xalq muttasil talandi, berahmlarcha... — chol G'iyosiddin oilasi ila hijratda ekanida Hirotida bo'lib o'tgan voqealarni so'zlab berdi.

G'iyosiddin Kichkina sukutda tinglab, go'yo bu dahshatli voqealarni o'zi ko'rgandek his etar, barchasi uning ko'z o'ngidan bir-bir o'tar edi.

— Hali qarabsiz — taxtda Alovuddavla, hali Ulug'bek Mirzo kelib, Abdullatifni o'tqizib ketadi. Hammasi och bo'ridek chor tarafdin yopishadi. Toj-taxt g'alvasi xalqning tinkasini quritdi. Abulqosim Bobur yurakli, o'tkir odam, ehtimol zamonning loyqasi endi cho'ksa, G'iyosiddinbek.

G'iyosiddin Kichkina indamadi. Birdan o'rnidan qo'zg'olib, tahoratga kirishdi: masjidga, namozgarga shoshilar edi u.

Alisherning onasi kampir ila birgalashib, uy jihozlari-ni joy-joyiga o'rnatish, gilam, ko'rpachalarni yozish bilan ovora edilar.

Alisher ko'chaga otildi. Maydonchada bir to'da bo'z chopon, yirtiq kafsh sudragan yurt qiz va o'g'lonlari chillak o'ynar edilar. Alisher ham ehtiros ila o'yinga kirishib ketdi.

* * *

Alisher maktabdan qaytgach, jildni qoziqqa ilib, onasi oldiga qo'ygan sho'rvani nari-beri ichgan bo'ldi-yu, shoshilib tashqariga yugurdi.

Chol allaqanday mungli ohangni o'zicha xirgoyi qilib, yuganni yamamoqda edi.

— Xo'sh, qalaysiz, bobo? Yuganni tuzatyapsizmi? — so'radi Alisher.

— Ermak-da, ermak, Sherim, — deb har bigiz tortganda, nafasini yutib, qo'shiqni bir on kesar edi chol.

— Bobojon, hali-chi, maktabdan qaytar ekanmen, Abulqosim Bobur podshohga duch keldim. Otining ko'rki-savlatiga to'ymadim, go'yo duldul deysiz, tuyog'iga qadar tillo bilan bezatilgan. Podshohning sallasida chaqnagan gavhardin shu'lalar oltin halqalardek to'kilib borurdi. Atrofi to'la vazirlar, beklar...

— E-e-e, toychog'im-yey, podshohlarning biri kelib, biri ketaveradi. Sen mullo bo'l, ilmning konini topsang, baxt jig'asi doim boshingda bo'lg'ay!

Alisher cholga iltimos qildi:

— Bobo, siz Hirotdan siljimadingiz. Ne janglar bo'ldi, eshitgim kelur, so'zlab bersangiz?

— E, chirog'im, — dedi chol uzun so'lish olib, — bu dunyoda bir otaning bolalari bir-biriga yov. Shohruh yurt-ni tinchitgandek bo'lgan edi, vafot etgani hamon, yo rab-bim, bu qanday gap, dafndin ilgari jang boshlasalar-a! Temurbek zamonida dov yigit edim. Hindiston janglarida qilich tortgan sipohilarning biri edim. Hindlar fil ustida jang qilur ekanlar. Tog'day-tog'day fillar... Dahshat... Pirim-qul shahzoda polvon yigit edi, fillarga sherday sapchirdi. Temurbek jangni xo'p bilurdi... E, bolam, ko'p ko'rdik, umr bir toshqin daryodek oqdi-ketdi. Burgutdek par etib falakka parvoz qildigu tushdik misoli. Hodisalar, voqealar mo'l, ko'zimni yumsam, bulutdek karvon-karvon o'ngimdan o'tadi...

— So'zlang, bobo, — yalinib so'raydi hayajonda Alisher. — Janglardan so'zlangiz, janglardan!

— Xo'p, o'g'lim... Bir tomonda — Ulug'bek hoqon ila Abdullatif, bir tomonda — Alovuddavla bibisi Gavhar-shodbegim boshliq. Dahshatli janglar bo'lib, Ulug'bek



Mirzo g'olib keldi. Alovuddavla bibisini surgab qochdi. Ulug'bek Abdullatifni Hirotga hokim qilib, Gavharshod madrasasidan otasining jasadini olib, Samarqandga jo'nagan edi, ikki hafta o'tmasdan, Abulqosim Bobur kelib, Hirotni bosdi. Abdullatif yana chekindi. Ammo eshitishimga qaraganda, Ulug'bek bilan Abdullatif, ya'ni ota-bola o'rtasida ham nizo chiqmish. Shahzodalar orasida eng qabihlaridan biri Abdullatif bo'ldi. Shayxlar, shayx ul-islomlar Abdullatif tomonida emish. Chamamda, Ulug'bek Mirzoni dahriy dermishlar, astag'firillo!.. — Chol hiko-yasini so'zlab bitira olmay, uzun «uh» tortib, to'xtadi.

Qovoqlari soliq, taajjub va hayajonda o'ltirgan Alisher asta ko'chaga chiqdi. U endi bolalarga qo'shib, o'yinga kirisha olmadi. Ko'nglida bir olam fikr to'foni, ko'zlarida sirli hayajon yolqini, ba'zan xayolchan, bir zum o'ltirib qolardi:

Kelajakning buyuk shoiri balki shu on ko'nglida she'r to'qur edi...

1967- yil



Mirkarim OSIM

(1907—1984)



Mirkarim Osim 1907- yili Toshkentda ziyoli oilasida tug'ildi. 1918- yili «Shamsul irfon» nomli maktabda, 1921- yili Alisher Navoiy nomidagi respublika bilim yurtida Oybek va Homil Yoqubovlar bilan birga o'qidi. 1926—1930- yillar Moskva davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida, keyinchalik Samarqand o'qituvchilar tayyorlash kursida tahsil ko'radi, xalq ta'limi jabhasida faoliyat ko'rsatadi.

Tarix bilan tillashgan adib «Astrobod», «Alisher Navoiy va Darveshali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'bek va Navoiy», «O'tror», «To'maris», «Temur Malik», «Aleksandr va Spitamen», «Mohlaroyim va Xonposhsha», «Karvon qo'ng'irog'i», «Elchilar», «Zulmat ichra nur», «Jayhun ustida bulutlar», «Ibn Sino qissasi», «Aljabrning tug'ilishi», «Singan setor» kabi o'nlab qissa va hikoyalarda o'tmish ajdodlarimizning nurli siymonlarini, milliy ma'naviy qadriyatlarimiz ildizining teranligini badiiy gavalantirishga muvaffaq bo'lgan.

Tarixiy mavzuda ijod qilishi yozuvchi taqdirida mudhish iz qoldiradi. U o'tgan asrning 50-yillarida qatag'onga uchraydi. Lekin o'z g'oyalariга sodiq qolgan irodali adib umrining oxirigacha qalami ni qo'lidan qo'ymadi.

To'maris, Shiroq, Spitamen, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Mashrab kabi ulug' ajdodlarimiz siymosini tarixiy manbalar asosida yoritdi. Shu bois Mirkarim Osim asarlari maktab darsliklaridan tushmay keladi.

Shonli o'tmishimiz bilimdoni Mirkarim Osim tug'ilgan kunning 70 yilligida «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» unvoniga sazovor bo'lgan. Taniqli adib 1984-yili vafot etadi.



TO'MARIS

(Tarixiy hikoya)

I

E o'l bahor kelinchagi oyog'i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozini yoyib tashlagan. To'rg'aylar havoda pirillab ko'klamga madhiya o'qimoqda. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo'y hididan mast. Allaqanday uzun oyoqli qushlar o'tlar orasida dumlarini likillatib, katta-katta bosib yuradi, toshbaqalar burishib ketgan xunuk bo'yinlarini o'tlarga cho'zadi, qo'ng'izlar esa orqalari-ga qarab yurib, tezakdan yasagan qumaloqlarini allaqayoqqa yumalatadi. Qizg'ish-qo'ng'ir bir ilon o't orasidan o'rmalab kelib, atrofni tomosha qilayotgandek qaqqayib qolgan yumronqoziqqa tashlanadi, qushlarga o'xshab chirqillab turgan kaltakesaklar qo'rqib ketib oyoqlari bilan qumloq yerni ikki yonlariga chiqarib, tuproq ostiga yashirinadi. Ba'zan ovullar yaqinidan ko'kraklari oppoq sayg'oqlar gala-gala bo'lib chopib o'tadi, yer gumburlab ketadi.

Orol dengizining janubidagi suu bepoyon cho'llarning sohibi bo'lgan ko'chmanchi massagetlar¹ kelin kutmoqda. Ularning qarorgohi bayram tusini olgan. Har yer-har yerga gulxan qalangan, kiyik va qo'y go'shti pishayotgan mis qozonlar go'yo mehmonlarni sabrsizlik bilan kutayotgandek shaqir-shaqir qaynamoqda.

Qabila boshlig'i To'maris o'g'li Siparanzini shak² urug'idan Zarina degan bir qizga uylantirmoqda. Massagetlar kelinni olib keladigan mehmonlarni kutib olish taraddudida.

¹ *Massagetlar* — Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida miloddan avvalgi VIII—IV asrlarda yashagan qabilalar uyushmasi.

² *Shaklar (saklar, skiflar* — miloddan avvalgi birinchi ming yillik va milod boshlarida O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sharqiy Turkiston shimoli-sharqiy rayonlarida yashab chorvachilik, dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan qabilalar uyushmasi.

Yoshlar mehmonlarga joy hozirlamoqda, ayollar ovqat pishirmoqda, yangalar o'tov xizmatini o'taydigan uzun soyabon aravalarni bezatmoqda...

Charchab gulxan yonida o'tirgan yoshlar uzoqdan ot choptirib kelayotgan choparni ko'rib, o'rinlaridan sakrab turib ketdilar.

— Kelin... kelin kelayotir, — deb baqirdi u harsillab. — Qariyalar oldinda... darhol kutib olinglar.

Chopar sakrab egardan tushdi-yu, otini qoziqqa bog'lab, bir chekkadagi katta gulxan yaqinidagi chollar oldiga borib o'tirdi.

Butun qarorgoh oyoqqa qalqib, aziz mehmonlarni kutishga hozirlandi. Oradan ko'p o'tmay uzoqda uchi ingichka namat qalpoq kiygan otliqlar ko'rindi. Massaget yoshlari shaklarga peshvoz chiqib:

— Xush kelibsizlar, qo'noqlar, poyqadamlaringizga hasanot, — dedilar va otlarini jilovidan ushlab, egardan tushishlariga yordam berdilar.

Shaklar otdan tushib, massaget qariyalari bilan ko'rishganlaridan keyin atrofi sayabon aravalar bilan qurshalgan sayhon joyga, guldor namatlar ustiga chordana qurib o'tirdilar. Mezbonlar qo'y terisidan qilingan supralarda pishirilgan go'sht, meshlarda qimiz keltira boshladilar.

Kun botgandan keyin kelin va uning dugonalari tushgan uzun soyabon aravalar yetib keldi. Har yer-har yerga qalangan gulxanlarning olovi gurillab, osmonni yoritib yubordi, ashulalarning avji falakka ko'tarildi. Kelin bilan kelgan qizlar va yigitlarning yallasi, bolalarning qiy-chuvi xursandlikdan terisiga sig'may qolgan kishilarning shovqiniga qo'shilib ketdi. Osmon baravar ko'tarilgan gulxanlarning yorug'ida o'yin-kulgi, ziyofat boshlandi.

Vaqt alla-palla bo'lganda kuyoy bilan kelinni ular uchun belgilangan soyabon aravaga chiqarish oldidan kurashtirib ko'rishdi¹.

¹ Bo'lg'usi kelin-kuyovlarning kuch sinashishi o'zbeklar orasida yaqin kunlargacha saqlanib qolgan tortishmachoqning ibtidoiy shakli edi (muallif).

Bo'ychan, bug'doyrang, sochlari timqora, ko'zlari chaqnaq turgan Zarina o'zining sahroyi go'zalligi bilan boshqa ayollardan ajralib turardi. U gulxanlar yorug'ida davra qurib o'tirgan yigit-qizlarga bir qarab oldida, to'ra, obro'li kampirlar va chollar qurshovida savlat to'kib o'tirgan To'marisga ta'zim qildi, so'ngra qarshisida kurashga shaylanib turgan cho'zinchoq yuzli, ko'zlari katta-katta Siparangizga tikildi. Qiz sochlarini ro'molcha bilan mahkam tang'ib, belini kamar bilan bog'lab olgan edi. U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da, chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit ancha yergacha gandaraklab borib tizzalab qoldi. Kelin tomondan kelgan yigit-qizlar xursand bo'lib qiyqirib yubordilar.

Kuyov bilan kelin payt poylab, bir-birlarining atrofida anchagacha aylanib yurishdi. Zarina ephillik bilan Siparangizga chang solib uni chalib yubordi, yigit yonboshi bilan qattiq yiqildi-yu, lekin orqasi yerga tegmadi, darhol sakrab turib yana olisha ketdi. Bir-birlarini yiqita olmagandan keyin ular o'zlarini sovutish uchun aylanib yurishdi. Siparangiz tetiklangandan keyin to'satdan qizning o'ng qo'liga yopishdi-yu, bir siltab tortib, xipcha belidan mahkam qisganicha ko'kragiga ko'tarib oldi. Qiz chap tomonga tashlaydi, deb mo'ljallab turgan edi, yigit uning ko'nglidagi gapni anglaganday, tizzasi bilan qayirib, o'ng tomonga tashladi. Shu mahalgacha nafasleri ichlariga tushib ketgan kuyov tomon yigitlari qiyqirib yubordilar. Qizning yag'rini yerga tekkan edi, u qizarib-bo'zarib o'rnidan turgach, yangalar: «Yarash-yarash», — deb baqirib, kelin bilan kuyovni aravaga chiqarib qo'yidilar.

Ertasi kuni tongotar paytida havo aynib, qum bo'roni boshlandi. Hamma jonivorlar sahrodan kelgan qum uyurmalaridan o'zlarini saqlash uchun in-inlariga berkindi, cho'l huvillab qoldi. Qum to'zonidan osmon qorong'ilashdi, ko'chmanchilar aravalarining hammayog'ini berkitib oldilar. Bo'ron bir soat davom etdi, so'ngra qanday bexosdan boshlangan bo'lsa, shunday tez tindi. Soyabon aravalarining

oldi ochildi, odamlar namat ustiga yoyilgan qumlarni qoqib tushira boshladilar. To'rg'aylar hech narsa bo'lmagandek, yana chuldirab qo'shiqlarini aytishga kirishdi. Oftob yana jilmayib, cho'l kelinchagi ustidan yana oltin tangalar socha boshladi. Bahor naqqoshi yana qo'lga mo'yqalamini olib, tabiat qo'yniga zebo naqshlar sola boshladi.

O'g'li bilan keliniga qarab To'marisning sevinchi ichiga sig'mas edi. Biroq oyning o'n beshi yorug' bo'lsa, o'n beshi qorong'i, deb bekorga aytmaganlar. Baxt osmonida bir parcha bulut paydo bo'lib, cho'l malikasining yuragini g'ash qila boshladi. Mamlakat chegarasidan kelgan choparlarning huzuriga Eron shohining elchisi kelayotganidan darak bergan edilar.

Kayxisravning¹ elchisi o'z mulozimlari bilan O'kuzning² o'ng qirg'og'iga o'tib, ikki kun yo'l yurgandan keyin To'maris huzuriga yetib keldi. U otini sekin yurguzib, ustiga oq namat qoplangan katta soyabon arava oldida to'xtatdi. Shu payt egniga yarg'oq teridan kamzul kiygan, kamariga qilich va o'q-yoy osgan namat qalpoqli bir pahlavon yigit kelib, otning jilovidan ushladi va elchi egardan tushguncha bir qo'li bilan oltin uzangini ushlab turdi. Xuddi o'sha yigitga o'xshab qurollangan ikki ayol arava yoniga sholcha solib, ta'zim qilganlaricha qotib qoldilar. Yoshi qirqlarga borib qolgan, chiroylikkina bir ayol aravaning orqasidagi pardani ko'tardi-da, belidagi oltin kamarga taqilgan qilichini avaylab ushlagan holda palos ustiga sakrab tushdi. Bu ayol massagetlar malikasi To'maris edi. Yarqiroq mis bolta ushlagan ikki qiz uning ikki yoniga kelib turdi. Elchi To'marisni ko'rgach, ikki qo'lini yerga qo'yib, yer o'pdi-yu, o'rnidan turib ta'zim qildi:

¹ *Kayxisrav* (*Kir, Kurush*) — qadimgi Eron shohi (miloddan avvalgi 558–530), Ahomaniylar davlati asoschisi. Miloddan avvalgi 530-yili katta qo'shin bilan O'rta Osiyoga hujum qilgan va massagetlar ittifoqining hukmdori To'maris bilan bo'lgan jangda o'ldirilgan.

² *O'kuz* — Amudaryoning (Jayhun) qadimiy nomi.

— Shahanshoi Eron a'lohazratlari sen ulug' malikaga behad salom va sovg'alar yubordilar, — dedi u baland ovoz bilan. — Senga sog'liq, tuman boylik va uzoq umr tilab qoldilar.

U tumtaroqli so'zlar bilan To'marisni qutlug'lar ekan, mulozimlari tillado'z chopon va harir ko'ylaklar tugilgan zarbof bo'g'chani malika oyog'i ostiga qo'ydilar.

To'maris sovg'alar uchun minnatdorchiilik bildirib, Eron shohining sog'lig'ini so'radi va elchining yo'lda qanday kelganini surishtirdi, so'ngra sholcha ustiga tashlangan yo'lbars terisiga o'tirishni taklif qildi. Elchi va uning mulozimlari ham qator qilib solingan po'staklar ustiga o'tirdilar. Oradan ko'p o'tmay, mezbonlar ular oldiga charm supra yozib, pishirilgan qo'y go'shti, baliq, g'oz, o'rdak kabob keltirib qo'ydilar. Elchi bilan yonma-yon o'tirib, uni gapga solayotgan To'maris ovqatga manzirat qildi.

Elchi ovqat yeb o'tirar ekan, doimiy ovul va shaharlari bo'lmagan massagetlarning qo'y va yilqilar orasida juda ibtidoiy hayot kechirishiga, ayollarning erkaklardek qurollanganiga, malikaning oddiy odamlar qatorida o'tirishiga hayron qolar va uning turmushini sernaqsh koshonalarida, zeb-ziyat ichida yashovchi Eron shohining hayoti bilan solishtirardi: «Shuyam malika bo'ldi-yu, — deb o'ylardi u: — o'z fuqarolari bilan yonma-yon o'tirib ovqat yeydi, sochlari o'sib yelkasiga tushgan yilqichilar qo'l cho'zib, uning oldidan yog'liq go'shtni olib yeydilar, na ostida oltin taxti bor va boshida toji. Ayollarning erkaklar bilan yonma-yon o'tirib, bir-birlariga gap otib, go'sht chaynashlarini qarang. Bu xotinlarning erlari rashk nima ekanini bilmasalar kerak. Tavba, ayol kishi ham qurol taqadimi? Bularda na qul bor va na xizmatkor, hammalari topganlarini o'rtada baham ko'radilar. Yovvoyi xalq-da! Qul bo'lishdan boshqa narsaga yaramaydi bular!»

Kayxisrav elchisini yuborayotganda unga: «Agar To'marisni xotin qilib olsam, uning fuqarosi o'z-o'zidan menga qaram bo'lib qoladi, urushib o'tirishga hojat qol-

maydi. Sening vazifang mening shu rejamni ro'yobga chiqarishga yordam berishdan iboratdir, tushundingmi? — degan edi.

Elchi hozir o'z podshohining topshirig'ini bajarish uchun butun ayyorligini ishga solar, tilyog'lamalik qilib, To'marisni maqtab ko'klarga ko'tarar edi:

— Olamda shu mahalgacha hech bir zaifa shundog' ulug' mamlakatga hukmdor bo'lmagan, yer yuzi sendek adolatli malikani ko'rmagan, — derdi u kekirdagini cho'zib. — Oftob tangrisi senga ham husn beribdur, ham shon-shavkat. Agar sen o'z taqdiringni bizning shahanshoh taqdiri bilan bog'lasang, dunyoda hech bir podshoh bizga bas kelolmaydur. — Shu zayldagi tumtaroqli gaplardan keyin o'z maqsadini ochiq bayon etdi: — Men yolg'iz elchi emas, sovchi ham bo'lib keldim. Shahanshohi olam senga g'oyibona oshiq bo'lganlar.

To'maris ovqat yeyishdan to'xtab qoldi.

— Ne deding? Sovchi bo'lib?

U Eron shohining qanday niyatda ekanini endi tushunib olgan edi.

— Ha, sovchi bo'lib, — takrorladi elchi bosh egib. — Ering o'lganiga bir yildan oshdi, hali yoshsan, go'zalsan. Faqat shahanshohi olam Kayxisrav kabi ulug' hukmdorga munosib qalliqdursan.

— Nima, uning xotinlari o'lib, o'zi so'qqabosh bo'lib qoldimi?

— Yo'q, xotinlarining hammasi sog'-salomat. Ul kishiga kuyovga chiqsang, sen bosh xotin, barcha xotinlari sening cho'ring bo'ladilar.

To'maris qoshlarini chimirib, o'yga toldi. Agar u shohning sovg'alarini va taklifini qabul qilsa, xalqining boshiga qanday kunlar kelishini ko'z oldiga keltirib, dahshatga tushdi.

— Shahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo'lgandir, — dedi To'maris zaharxan-

da qilib. — Men emas, shu serbaraka yurtim unga kerak bo'lib qolgan. Siz, elchi janoblari, o'z tojdoringizga borib ayting: men uning taklifini qat'iyon rad etaman. Men unga qalqilq bo'lishni, o'z elimni unga qul qilib topshirishni istamayman.

— Shahanshohning takliflariga javob berishdan avval sarkardalar va ulug' oqsoqollarningning maslahatini olishing, o'ylashib ko'rishing kerak edi, — dedi elchi To'marisning o'ng-so'lida o'tirgan namat qalpoqda, yarg'oq teridan kamzul kiygan kishilarga istehzo aralash nazar tashlab.

— Bu to'g'rida o'ylab bosh qotirishning hojati yo'q, — dedi urug' oqsoqollaridan biri. — Yurtimizning ulug'i rost gapni aytdi. Hukmdoringga borib: «To'maris senga xotin, ulusi qul bo'lishni istamas emish», deb ayt. Agar shaharshoh bizga mehmon bo'lib kelsa, yaxshilab ziyofat qilamiz, oyog'iga qirq qo'chqor so'yamiz. Ammo qilich bilan kelsa, bari askarlarini qirib tashlab, ularning qonini o'ziga ichiramiz.

— Ulug' shahanshohi Eronning sha'nilariga yarashmaydigan gap bo'ldi, — dedi elchi bo'g'riqib ketib. U qattiqroq bir gap aytmog'chi edi-yu, ammo g'azab bilan tikilib turgan chehralarni ko'rib, tilini tishlab qoldi. — Ulug' tojkor meni yaxshi niyat bilan yuborgan edilar. Sizlar ulug' shahanshohning ezgu niyatlarini payqamadingiz. Buning oqibati siz uchun xayrli bo'lmas.

— Agar elchi bo'lmaganingizda, shul gapni aytgan og'zingizni qum bilan to'ldirar edim. Qayerda ekanligingizni unutmang, janob! Orqa-o'ngingizga qarab gapiring. Shahanshohi Eronning niyati bizga ma'lum bo'ldi, — dedi hamon jahldan tushmagan To'maris. — Boshimizdan zar sochganlaringda ham biz erkinlikni qullikka alishtirmaymiz.

Dasturxon atrofida o'tirganlar:

— Rost gap!

— Vatandosh ayollarimizning gapi bunday bo'ladi, — deb To'marisning so'zini ma'qulladilar.

Shu payt uzoqdan ot dupuri va yigit-qizlarning qiyqirig'i eshitilib qoldi. Elchi xavotirlanib, chang-to'zon ko'tarilgan tomonga qaradi.

— Qo'rqmang, o'g'lim Siparangiz o'z qaylig'i va do'stlari bilan shikordan qaytib kelayotir, — deb elchini tinchitdi To'maris. — Yaxshiki boyagi gaplaringizni o'g'lim eshitmadi, yo'qsa, teringizga somon tiqqan bo'lur edi! Qiziqqon, g'ayratli yigit u.

Bir lahzadan so'ng cho'l shamolidan yuzlari bir oz qoraygan, ko'zlari chaqnagan, qora sochli uch chiroyli qiz bilan uch barvasta yigit otlaridan sakrab tushdilar va To'marisning oldiga ikki oq quyruq kiyikni keltirib qo'ydilar. Qizlarning ham, yigitlarning ham bellarida o'q-yoy va sadoqlarida o'qlari bor edi.

Elchi o'rnidan turib, yuzlari cho'zinchoq, ko'zlari katta, novchadan kelgan Siparangizga ta'zim qildi va tumtaroqli so'zlar bilan o'zining kimligini e'lon qilib, uning sog'lig'ini so'radi. Siparangiz u bilan so'rashib bo'lgandan keyin, qaylig'i bilan elchining so'l tomoniga, yo'lbars terisi ustiga o'tirdi.

To'y kuni Siparangizdan yiqilgani uchun unga itoatgo'y bo'lib qolgan Zarina erining yonida odob saqlab, uning so'zlariga quloq solib o'tirar, undan oldin gap boshlashni o'ziga ep ko'rmas edi.

Siparangiz elchining yo'lda qanday kelganini so'radi, elchining batafsil hikoyasini tinglagandan keyin takallufsizlik bilan Eron shahanshohining boyligi, uning qancha mulozim ham qullari, necha xotini borligi va hokazolarni surishtira boshladi. Elchi xinaga bo'yalgan soqolini siypab kulimsirarkan, savollarga batafsil javob berib, shohning saroyidagi urf-odatlar bilan uni tanishtirdi. Yoshlar Eron shohining ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan zeb-ziynat ichida yashashi, ichkilik bazmlari to'g'risidagi hikoyasini zavq bilan tinglab o'tirdilar.

— Shahanshoh ziyofatiga taklif etilgan zardo'z choponli a'yon-amaldorlar, harir kiyim kiygan mehmonlar, begona yurt elchilari avval oltin taxt ustida o'tirgan shohi olamga ta'zim qilib, o'zlariga ko'rsatilgan yerga o'tiradurlar. Etaklarini bar urgan epchil bakovullar osh tortar ekan, bellariga qirqtadan qo'ng'iroq taqqan yosh soqiylar ularga oltin piyolalarda sharob tutadilar. Bir tarafda sozandalar...

Elchining gapiga diqqat bilan quloq solib o'tirgan bir yigit uning so'zini oxirigacha tinglab:

— Siz sharob degan so'zni ishlatdingiz, bu nima, bizga tushuntirib bering, — dedi.

— Sharob uzum suvidan tayyorlanadigan ajoyib ichimlik, o'zi xushta'm, bir kosa urib olsangiz, vaqtingiz chog' bo'lib, kulaverasiz.

— Ajoyib narsa ekan, — dedi boyagi yigit so'lakayini oqizib.

To'maris qovog'ini solib o'tirar, yoshlar elchining hikoyasini zavq bilan tinglayotganiga g'ashi kelardi. Siparangiz To'marisning avzoyiga qarab, o'zi yo'qligida onasining kayfini buzgan bir gap o'tganini payqadi.

Ertasiga u nima bo'lganini so'rab-surishtirib bilib oldi. U shohning taklifini onasi qat'iyan rad etganini eshitib, xursand bo'lgan esa-da, biroq elchiga nisbatan qattiq chora ko'rilmaganiga hayron qoldi.

— Elchining quloq-burnini kesib jo'natish kerak, — dedi u qat'iy qilib.

— Bunday qilish yaramaydi. Elchida ayb yo'q. U o'z qulog'iga quyib qo'yilgan gaplarni gapirdi, xolos. Yaxshisi, keltirgan sovg'a-salomini qo'liga berib jo'natamiz, shuning o'zi shohga tarsaki bo'lib tushadi, — dedi To'maris.

II

Marg'iyona¹ni, So'g'diya²ni ishg'ol qilgan Kayxisrav o'z qo'shini bilan O'kuzning chap qirg'og'iga kelib chodir qurgan edi. U To'maris huzuridan qaytib kelgan elchisining ma'ruzasini tinglab, makr-hiyla bilan massagetlarni asorat zanjiriga tushirish mumkin emasligini payqadi va qurol kuchi bilan ularni itoatga keltirishga ahd qildi.

Oradan ko'p o'tmay, To'marisning ayg'oqchilari, Kayxisravning katta qo'shini O'kuzdan o'tish taraddudida, eroniylar yog'och va qamishlardan sollar yasamoqdalar, deb darak topib keldilar. To'maris jang ko'rgan dono chollar, ayollarni chaqirib kengash o'tkazdi. Chollardan biri darhol o'q-yoy bilan qurollangan merganlarni daryo bo'yiga yuborib, ko'prik qurayotgan eroniylarni o'qqa tutishni, o'ng qirg'oqqa o'tishlariga imkon bermaslikni maslahat berdi. Siparanzig bu taklifga qarshi chiqdi:

EBunday qilsak, xorazmiylar, Yaksartning naryog'idagi shaklar nima deyдилar, bilasizmi? Massagetlar eroniylar bilan to'qnashishdan qo'rqib, ularni daryodan o'tqazmadilar, uzoqdan ularni o'qqa tutib, ko'priklarini, sollarini buzib tashladilar, deb ayyuhannos uradilar. Bundan so'ng biz nima degan odam bo'lamiz, qanday qilib bosh ko'tarib yurgaymiz. Yaxshisi, eroniylarga elchi yuborib, biz ko'prik qurib, daryoning bu betiga o'tishingizga to'sqinlik qilmaymiz, o'tib olganingizdan keyin siz bilan jang qilishga tayyormiz, deyishimiz kerak.

— Gapning o'g'il bolasi mana bundoq bo'ladi, — deb uning so'zini quvvatladi yoshroq bir yigit.

¹ *Marg'iyona* — hozirgi Turkmanistonning janubi-sharqi, Afg'oniston territoriyasida joylashgan qadimiy davlat (miloddan avvalgi birinchi ming yillikdan milodning I asrigacha).

² *So'g'diya (So'g'diyona)* — hozirgi O'zbekistonning g'arbiy qismida joylashgan qadimiy davlat (miloddan avvalgi birinchi ming yillikdan milodning VIII asrigacha).



To'maris ham jangovar massaget elining obro'sini saqlab qolish maqsadida o'g'lining gapini ma'qullab, choling taklifini rad etdi.

Shundan so'ng Amuning o'ng qirg'og'idagi bepoyon cho'listonda biridan biri dahshatli voqealar yuz bera boshladi. Jangovar yigitlarning tantiligi ularga juda qimmatga tushib ketdi.

Kayxisrav o'zining otliqlari va og'ir qurolli piyodalarni daryodan monesiz olib o'tgach, darhol massagetlar ustiga yurish boshladi, lekin bir hafta yursa ham ularni uchratolmadi. Ko'chmanchilarning eropiylarni bepoyon cho'llar ichiga olib kirib, ularni suvsiz, oziq-ovqatsiz qoldirib, tor-mor qilish niyatida ekanliklari ma'lum bo'lib qoldi. Yoz boshlanib, kunlar isib ketgan, maysalar qovjirab, sarg'ayib qolgan edi.

Kayxisrav kengash chaqirib, tajribali chollarning maslahatini eshitmoqchi bo'ldi.

— Baliq daryoda o'zini qanday sezsa, bu la'nati ko'chmanchilar ham shu suvsiz cho'llarda o'zlarini shunday sezadilar, — dedi kekxa jangchilardan biri. — Cho'l-biyobon ularning o'z bag'rida o'stirgan mehribon onasi, biz uchun esa o'gay onadan battar. Massagetlar qayerda bu loq, qayerda quduq bor, yaxshi biladilar...

— Xo'sh, ularni tor-mor qilmoq uchun qanday choralar ko'rishni tavsiya etasiz? — dedi ipak chodirning to'rida o'tirgan Kayxisrav noxushlanib. Uning egnida podsholik alomati bo'lgan to'q qizil kimxob chopon, qo'lida javohirlar bilan bezalgan aso, bir mulozim uzun yelpig'ich bilan tinmay yelpib turardi.

— Ularni tor-mor qilmoq uchun shunday bir nayrang ishlatmoq kerak. Qo'shinimizni uchga bo'lib, bir qismini orqada qoldirsak va ularni oziq-ovqat, sharob-nob bilan mo'l-ko'l ta'min etsak... Qolgan ikki qism bilan yurishni davom ettirsak.

Eron shohi ko'pni ko'rgan kekxa jangchining makr-hiy-ladan iborat bo'lgan rejasini zavq bilan tinglab o'tirdi. «Sod-

dadil massagetlar daryodan o'tishimizga monelik qilmay, mardlik ko'rsatdi-yu, bizlar hiyla ishlatib, nomardlik qilamizmi?» — degan fikr ko'nglining ko'chasiga ham kelmasdi. Iroq va Misrni, O'rta Osiyoning janubiy qismini qurol va oltin, makr-hiyla bilan bosib olib, buyuk Eron davlatini barpo etgan bu shuhratparast shoh maqsadiga erishish yo'lida har qanaqa nomardliklardan tap tortmasdi.

U askarning uchdan ikki qismini boshlab ilgarilab ketdi, orqaroqda qolgan jangchilari xuddi ziyofatga tayyorlanayotganday ipak chodirlar qurib, yer o'choqlar qaziy boshladilar.

O'z ayg'oqchilari orqali bundan xabar topgan To'maris asosiy qo'shından ajralib orqada qolgan dushman qismini tor-mor etish payiga tushdi. U askarlarining uchdan bir qismini o'g'li Siparangizga topshirib, buyurdi:

— Sen ularni to'zg'itib yuborgandan keyin hayallamay, darhol Kayxisravga orqa tomondan ot sol, biz manglayidan uramiz. Quyosh tangrisi bizni yorlaqasa, shahanshohi Eron askarlari qurshovda qolgan jayronlarday, qochgani joy topolmay qolg'aylar. Uqdingmi?

— Uqdim, — dedi o'g'li va uqqanini ko'rsatish uchun onasining aytgan gaplarini takrorladi.

— Bor, o'g'lim, Quyosh tangrisi madadkoring bo'lsin.

Massaget otliq askarlari orqada qoldirilgan eroniylar qarorgohiga bostirib kirganlarida ular endi ovqatlarini suzib, sharob to'la meshlarni dasturxon yoniga keltirib qo'ygan edilar. Qisqa jangdan so'ng eroniylar orqalariga qaramay qochdilar. Ularning bir qismi qilichdan o'tkazildi, bir qismi qo'lga tushirildi.

Asir tushgan bir eroniy so'roq vaqtida Siparangizga shunday dedi:

— Ulug' sarkarda ekansiz, bizni g'aflatda qoldirib, ustimizga balo-qazoday bostirib kelib qoldingiz. Biz endi bazmi jamshid boshlagan edik. U sharob to'la meshlarga va zarrin kosalarga, ovqat suzilgan tovoqlarga ishora qildi. Bular bizga emas, sizlarga nasib qilgan ekan.

— Ovqatlaringiz, sharoblaringiz o'zingizga buyursin, bizning ziyofat yemoqqa vaqtimiz yo'q, — dedi Siparangiz sharob suzilgan kosalarga qarab, ammo o'zining bir totib ko'rgisi kelib turardi.

— Yigitlar yo'l yurib, jang qilib charchadi, otlar ham toliqdi, ularga bir oz dam bermoq kerak, — dedi yosh sardorning yigitlaridan biri. — Tamaddi qilib, so'ng darhol otlanamiz.

— To'g'ri, ozroq dam olaylik, tamaddi qilaylik, deyishdi qorni ochgan yigitlar dasturxonlardagi noz-ne'matlarga qarab.

Siparangiz ikkilanib qoldi, keyin:

— Hoy, chol, — dedi asir croniyya qarab: — Boshing uchun rost so'yla, ovqat va sharoblarga zahar solingan emasmi?

— O'zimiz yemoqchi bo'lgan ovqatga nega zahar solaylik? Nima, o'zimizga o'zimiz dushmanmizmi? Barcha xudolarning xudosi Ahuramazdani¹ shafe keltirib qasamyod etamanki, biz bu noz-ne'matlarga zahri qotil solganimiz yo'q.

— So'zlaringning to'g'riligini isbotlash uchun bular-dan yeb-ichib ko'r-chi!

Asir sharob ichib, tovoqdagi go'shtdan yeb ko'rsatdi. Qo'lga tushirilgan boshqa eroniylarga ham sharob ichirib, ovqat yedirib, ularning zaharlanmaganiga qanoat hosil qil-gandan so'ng, yigitlar dasturxonlar yoniga o'tirdilar-da, sharoblarni no'sh etib, pishirib qo'yilgan go'shtlarni tushira ketdilar.

O'tkir sharob umrida ichkilik ichmagan yoshlarga darrov ta'sir qila qoldi. Ular xiringlashib, bir-birlari bilan askiya qila boshladilar. Qorovulga qo'yilgan ot-liqlar ham benasib qolmasinlar, deb ularga ovqat va may oborib berdilar. Bir oz ovqatlanib otlanmoqchi bo'lgan yigitlar og'izlariga ichkilik tegishi bilan xur-

¹ *Ahuramazda (Xurmuz)* — zardushtiylarning ezigulik xudosi.

sandchilikka berilib, qancha vaqt o'tganini bilmay qolgan edilar.

Kayxisravning muddaosi ham shu edi. Massagetlardan qochib qutulgan eron o'tliqlaridan ba'zilari Kayxisrav huzuriga yetib borib, qarorgohda ro'y bergan hodisalardan uni voqif qilgach, u otining boshini orqaga burdi, anqayib qolgan yumronqoziq ustiga tashlangan ilondek Siparangiz qo'shiniga birdan hujum qildi. Qorovul bo'lib turgan shirakayf askarlar eroniylarning yetib kelganlarini payqamay qoldilar. Qisqa jangdan so'ng dushman ularni qirib tashladi. Bazm qurib o'tirgan yigitlarning ba'zilari jang suronini eshitgach, o'rinlaridan turaman deb, gandaraklab yiqilib tushdi, otlariga yetib olganlar qilichlarini qinidan sug'urishga ulgurolmadilar. Ba'zi yoshlar jang ko'rgan askarlarning so'ziga kirmay, otlariga dam berish uchun ayilni bo'shatib qo'yishgan edi, shu sababdan otlariga minishlari bilan egar qiyshayib, otlarning qorniga kelib, o'zlari boshlari bilan yerga sanchilishdi. Xullas, dushmanning nayrangiga uchib, hushyorlikni qo'ldan bergan Siparangiz o'zining bir necha yigiti bilan asir tushib qoldi. Ularning oyoqlariga kishan solib, qo'llarini orqalariga bog'lab Kayxisravning ro'parasiga turg'izib qo'yishdi. Shoh istehzoli iljayib asirlarni ko'zdan kechirdi.

— Ha, qo'lga tushdingmi? — dedi u Siparangizga bosh irg'ab. — Holing shu-ku, men bilan jang-jadal qilmoqchimiding, ona suti og'zidan ketmagan tirmizak!

Tiriklayin qo'lga tushmaslik uchun dushman bilan toza olishib, u yer-bu yeri timalgan yosh sardorning masligi tarqab, hushyor tortib qolgan edi. U boshini viqor bilan ko'tarib, shahanshohga nafrat ko'zi bilan qaradi-da:

— Ha, sen bilan jang-jadal qilmoqchi edim, ammo bu baxt menga muyassar bo'lmadi, — dedi. — Sen ochiq yerda rasmana jang qilishdan qo'rqib, hiyla-makr bilan bizni qo'lga tushirding. Afsuski, yoshlik qilib, qilich dastasini ushlagan qo'limga manfur sharob kosasini oldim va tuzoqqa ilindim. Agar sen nomardlardek...



Shohni haqorat qilishga o'tgan Siparangizning tovushini o'chirish uchun askarboshilardan biri:

— Bas qil, ahmoq! — deb uning yuziga qo'lidagi piyoladan suv sepib yubordi. Yigit bexosdan seskanib ketgan edi, uning gaplari naryoq-beryog'idan o'tib ketgan Kayxisrav kulib yubordi, yonidagi a'yon va sarkardalar ham shohlariga taassub qilib, ko'zlaridan yosh chiqquncha xaxolab kulishdi.

— Kuling-a, kuling, — dedi Siparangiz ularga jirkanib qarab; — ko'p o'tmay yig'laysiz, qon-yig'laysiz. Hiyla va makrlaringiz endi ish bermaydi, arslon terisini yopingan tulkilar...

Haligi askarboshi uni gapirtirmaslik uchun yuziga suv sepib yubordi. Kayxisrav bu safar zo'rma-zo'raki iljayib qo'ydi, yoni-beridagilar xaxolab kulishga jur'at etmay, tirjayib qo'yishdi.

— Biz qahr-g'azab qilishni ham bilamiz, lufu karam qilishni ham, — dedi Eron shohi Siparangizga qarab. — Xususan, biz sen kabi bolalarga shafqatlimiz. Ehtimol, onangni sog'ingandirsan, istasang, seni qo'yib yuboramiz.

Siparangiz zaharga aylangan tupugini qult etib yutib o'yladi: «Qo'shinimizning uchdan birini men nobud qildim. Safdoshlarimning qirilib ketishiga men sababchi bo'ldim. Agar endi bo'shatib yuborsalar ham o'z elatimga qaytib ketmayman. Onamning oldiga qaysi yuz bilan boraman?»

— Qo'limni yechib qo'yinglar, — deb iltimos qildi u.

Kayxisrav bir mulozimiga ishora qilgan edi, u yugurib borib yigitning qo'lini yechdi-da, o'z joyiga borib turdi. Shu on Siparangiz qo'ynidan kichkinagina yaltiroq pichoq olib, o'zining ko'ksiga sanchdi-yu, mukka tushib jon taslim qildi.

Mardiyigit tikan, dedi Kayxisravi bir ozdan keyin. O'limni nomusdan afzal ko'rdi. O'limi aganda ehtimol, ulug' sarkarda bo'lar edi. Maylig bo'lar lishi bo'ldi,

endi mana bularni ham, — u asir yigitlarga ishora qildi, — o‘z sarkardasi ortidan narigi dunyoga jo‘natinglar.

III

Siparangiz va uning safdoshlari halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi xabar To‘marisning va barcha ayollarning yuraklarini o‘qdek teshib o‘tdi. Ruhiiy azobning zo‘rligidan ularning ko‘zlariga yosh ham kelmay qoldi. Birmuncha vaqtdan keyin soyabon aravalarning ichidan xotinlarning dod-faryodi eshitila boshladi. Xususan, Siparangizning qaylig‘i sochlarini yulib yig‘lab, hammaning yurak-bag‘rini ezib yubordi, ammo To‘maris qayg‘usining zo‘ridan yig‘lay olmasdi. U esi og‘ib qolgandek bir nuqtaga tikilganicha qotgan, lablari bir nima deb pichirlar edi.

Qayg‘u-hasratning davosi — dushmandan o‘ch olish edi. Dahshatli xabar kelgan kunning ertasiga To‘maris tajribali urug‘doshlarini to‘plab, kengash o‘tkazdi.

Davra qurib munkayib o‘tirgan keksalarga, kampirlarga, dushmandan o‘ch olish istagi bilan yongan yoshlarga bir-bir ko‘z yugurtirib, titroq ovoz bilan:

— Otalar, onalar, ukalar, ahvolimiz tang, falokat boyqushlari tepamizda uchib yuribdur, — dedi. — Yovuz dushman navqiron yigitlarimizni makr bilan qirib tashladi. Biz ularning o‘chini olmog‘imiz, bor kuchimizni to‘plab, yovni yurtimizdan haydab chiqarmog‘imiz kerak. Shu to‘g‘rida sizning maslahatingizni olmoqchimiz.

To‘rda o‘tirgan oppoq soqolli, kulcha yuzi qip-qizil, o‘tkir ko‘zli bir chol tomog‘ini qirib gap boshladi:

— Beparvo bo‘lganimiz, g‘aflat bosib bemaslahat ish qilganimiz uchun bizni Mihra¹ jazoladi. Agar biz yuborgan qo‘shinga Siparangiz emas, ko‘p janglarda suyagi qotgan, ehtiyotkor bir kishi boshchilik qilganda navqiron yigitlarimizdan ajralib qolmas edik. Siparangiz mard bo‘lsa-

¹ *Mihra (Mitra)* — Quyosh xudosi.



da, ammo ko'p jang ko'rmagan, tajribasiz yigit edi. Keyinchalik u zo'r sarkarda bo'lib yetishardi, afsuski, umri qisqa ekan.

— Rost aytasiz, — deb uning so'zini bo'ldi To'maris. — Men suyagi qotmagan o'g'limni bu qo'shinga bemaslahat bosh qilib yubordim va manmanlikning jazosini tortdim.

— Yigitlar orasida qizlar, ayollar bo'lganida bu falokat boshimizga kelmas edi, — dedi bir kampir tutaqib. — Mihr ayollarni kuch-quvvatga to'lgan vaqtida, fahmu farosat yordamida yaratgan. Siparangiz qo'shinida qizlar bo'lganida yigitlarning qo'lidan may kosasini urib tushirar edi...

— Bo'lar ish bo'ldi, otilgan o'qni qaytarib bo'lmas, — dedi boyagi chol uning gapini og'zidan olib. — Biz endi bundoq qilsak: barcha qariyalar va bolalarni mollar bilan orqaga yuborib, barcha er-xotin, yigit-qizlarni qurollantirak va dushmani cho'l ichiga aldab olib kirib, o'sha yerda qirib tashlasak...

Ko'pni ko'rgan chol qayergacha chekinish va dushman bilan qaysi joyda jang qilish kerakligini batafsil gapirib berdi. Kengashdagilar, uning rejasini ma'qullab, ba'zi tuzatishlar kiritdilar.

O'sha kuniyoq To'maris, urushga yaramaydiganlar panaroq joyga yuborilsin, deb buyruq berdi, keyin otlarining jilovidan ushlab saf tortib turgan erkak va ayollarning qurol-yarog'lari, ust-boshlari, oyoq kiyimlarini ko'zdan kechirdi. Ularning puxtaligiga qanoat hosil qilgandan keyin bir arg'umoqni qurbonlikka so'ydirib, Quyosh tangrisiga iltijo qilish uchun bir tepalik ustiga chiqdi, belidagi oltin kamariga osilgan qilichi va qalqonini yerga qo'yib, massagetlar nazdida xudolarning xudosi bo'lgan Mihraga sig'ina boshladi:

— Ey, butun mavjudotni — yeru ko'kni, suv va o'tni yaratgan Quyosh tangrisi! Sen ko'zingni ochsang — olam nurga to'ladi: ko'zingni yumsang — yer yuzini qorong'ilik lashkari bosadi. Odamlarga o't bergan ham sen, daryolarni toshirgan, ekinzor va o'tloqlarga suv bergan ham sen! Qo'y

va kiyiklarni ko'paytirgan, don-dungā baraka bergan ham sen! Ey, ulug' Quyosh tangrisi, bizni eroniylarga xor qilma, dilimizga g'ayrat, bilagimizga quvvat ato qil, yuragimizga o'ch olovini sol! Qilichimizni o'tkir qil, toki, yurtimizni oyoq osti qilgan makkor dushmanni tor-mor aylab, qullik balosidan xalos bo'laylik!

U najot so'rab Mihraga yolvorarkan, ko'zlaridan duvillab yosh oqib ketdi. Bir lahza yerga qarab turdi-da, o'zini tutib olgandan so'ng qilich-qalqonini taqib olib, pastga tushdi, o'ynoqlab turgan oq otiga minib, qurollangan xalqqa murojaat qildi. Yurtning boshiga tushgan falokat to'g'risida gapirib, so'zining oxirida shunday dedi:

— Opa-singillar, aka-ukalar, qayerga ketayotganingizni hammangiz bilasiz. Shu ketganimizcha yo hammamiz bitta qolguncha qirilib, o'z qonimiz bilan sha'nimizga tushgan dog'ni yuvib tashlaymiz yoki dushmanni qirib yuborib, g'alaba bilan qaytamiz. Ishonaman: oramizda Eron shohi oldida tiz cho'kadigan nomard yo'q. Biz, albatta, yengamiz! Shafqatsizlikni bizlardan ko'rsin Eron shohi!

— Bizni jangga boshla, onaxon! Dushmandan intiqom olib, dudini dimog'idan chiqaraylik!

Oftob nuri To'marisning yelkasiga tushib turar, go'yo Mihra nurli qo'llari bilan uni siypab, olqishlayotgandek bo'lar edi.

— El-yurt ayol kishining fotihasini oldi, g'alaba bizga yor bo'lg'ay, — dedi soqoli ko'ksiga tushgan bir chol.

Shu payt tip-tiniq osmonda bir burgut qanotlarini keng yoyib, ular ustida aylana boshladi. Qurolli yigit-qizlar boshlarini ko'tarib, uning parvozinu tomosha qildilar. Hamma ko'zlar chaqnab, yuzlar yorishib ketdi, chunki ularning e'tiqodida bu yaxshilik alomati edi...

To'maris tish-tirnog'igacha qurollangan va hali charchamagan Eron qo'shini bilan hozir jang qilsa, oqibati hunuk bo'lishini yaxshi bilardi. Eng oldin dushmanni cho'llarda sarson qilib, uning tinkasini quritish va qulay joy topib turib, jang qilish kerak edi.



Yengil g'alabadan havolangan Eron qo'shini To'marisning chekinayotganini eshitib, zudlik bilan uni ta'qib eta boshladi. Kayxisrav osongina zafar qozonib, o'lja olishga shoshilayotgan qo'shinini to'xtatib qolishdan ojiz edi. Massagetlar esa bir tepalik ostida o'zlari uchun qulay joy ishg'ol qilib, saf tortib turdilar. Birinchi safda o'q-yoy bilan qurollangan yengil aslahali merganlar, ular orqasida og'ir qurolli askarlar turar edi. Kayxisrav askarlari sekin-asta yaqinlashib kelaverdilar. Massaget merganlari to'satdan ularni o'qqa tutdilar, sadoqlar bo'shab qolgach, uzun dastali mis boltalar, kalta nayzalarni ishga soldilar. Qo'shinning ikki yoni va orqa tomonini himoya qilib turgan otliqlar suvlig'ini chaynab, tilla o'mildirqlarini oftobda yarqiratuib turgan sabrsiz arg'umoqlarning boshini qo'yib yubordilar. Saflar bir-biriga aralashib ketdi. Qilich va nayzalarning bir-biriga taraqlab tegishi, jangchilarning suroni, otlarning kishnashi, yara-dorlarning ingrashi birga qo'shilib, qiyomat-qoyim bo'lib ketdi. Odamlar g'uj bo'lib olib, bir-biriga nayza sanchar, bolta bilan boshiga tushirar, qilich bilan chopar edi. Jang shu zaylda kechgacha davom etdi. O'z yerlarini yovdan tozalash va o'ch olish ishtiyoqi bilan yongan massagetlar jonbozlik ko'rsatib yov bilan mardlarcha olishishdi, nihoyat zafar ularga yor bo'lib, dushmanni orqaga sura boshlashdi. Zarina boshchiligidagi otliq qo'shin dushmanning chap qanotini sindirib, orqaga o'tib oldi. Bir tepalik ustida jangni kuzatib turgan Kayxisrav qilich yalang'ochlab, o'z navkarlari bilan jangga shoshildi, biroq u birinchi to'qnashishdayoq halok bo'ldi. Kayxisravning o'lganini bilib, eroniylarning ruhi tushib, yuraklaridagi o't so'na boshladi. Dushmanning bir qismi chekinib, yaqin o'rtadagi to'qaylarga yashirinmoqchi bo'ldi. Biroq To'maris boshchiligidagi erkak va ayol suvoriylar ularning oldini to'sib chiqib, qilichdan o'tkaza boshladilar. Massagetlar eroniylar ustidan to'la g'alaba qozonib, bir talay asir olishdi.

— Kayxisravning... kallasini kesib olib kelinglar! — deb buyurdi hali ham nafasini rostlab ololmagan To‘maris. Uning yonida turib, dushman bilan olishgan kelini uchto‘rt ayol jangchi bilan shahanshoh askarlarining jasadiga to‘lgan maydonga ot surdi. Ko‘p o‘tmay, Zarina Kayxisravning jasadini topdi va uning kallasini kesib olib, To‘marisga keltirib berdi.

— Endi bir meshga qon to‘ldirib kelinglar!

Jangchilar darhol malikaning buyrug‘ini bajo keltirdilar.

To‘maris soch va soqoliga qon yopishib qotib qolgan, ko‘zlari yumuq, dahshatli kallani qo‘liga olib, unga qaradi-da:

— Ey Kayxisrav, umr bo‘yi jang qilib odam qoniga to‘ymading, mana endi to‘yguningcha ich! — deb uni mesh ichiga soldi-da, mesh og‘zini chilvir bilan mahkam bog‘lab qo‘ydi.



Handwritten signature



Hakim NAZIR

(1915)

O'zbek bolalar adabiyotining taniqli vakili, O'zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir 1915- yili Toshkentda mahsido'z kosib oilasida tug'ilgan.

30- yillar kosibchilik qilish bilan birga, Toshkent pedagogika institutining kechki bo'limida o'qidi.

Dastlab gazetalari tahririyatlarida adabiy xodim, bo'lim mudiri, keyinchalik o'qituvchilik qiladi.

Adibning ilk to'plami «Qishloqdagi jiyanlarim» 1948- yili dunyo yuzini ko'radi. Shundan keyin «Besh baho» (1955), «Cho'l havosi» (1958), «Yaxshi ism» (1962), «So'nmas chaqmoqlar» (1961), «Bir tup g'o'za» (1961), «Meni taniysizmi» (1963), «Bolajonlarim» (1964) nomli hikoyalar to'plamlari va «Chirama g'oz» nomli sahna asari e'lon qilinadi.

50- yillar Hakim Nazir uchun ijodiy mahoratni oshirish davri bo'lgan desak xato bo'lmaydi. «Yonar dunyo» (1966) qissasi adib ijodining yuksak pog'onaga ko'tarilganidan darak beradi. Dastlab ikki jild (1968—1970), so'ngra besh jildlik (1978—1980) tanlangan asarlarining chop etilishi nafaqat yozuvchi ijodida, balki o'zbek bolalar adabiyotida ham muhim yangilik bo'ldi.

«Qishloqdagi jiyanlarim», «So'nmas chaqmoqlar», «Yonar dunyo», «Kenjatoy», «Lochin qanotlilar» kitoblarining rus tilida bosib chiqilishi taniqli bolalar yozuvchisiga kattta shuhrat keltiradi.

Adibning «Tohir-Zuhra» (1985), «Dadamni topib beringlar» (1991), «Oq fotiha» (1993) qissalarida milliy-ma'naviy qadriyatlar ulug'lanadi.

Respublika Davlat mukofotining laureati, G.Andersen nomi-dagi xalqaro diplom sovrindori, O'zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazirning qator asarlari bir necha tillarga tarjima qilingan.

OQIBAT

Aziza xola ayvon to'ridagi o'rinda cho'zilib yotgandi. Tepasida qo'shnisi Lazokatxon paydo bo'ldi. O'ziga oro berib, yasanib yuradigan bu loabar, quvnoq ayolning kayfiyati bo'lakcharoq, fe'li ayniganroq edi. Ammo qo'shnisining lohas tortib yotganini ko'rarkan, birdan yuzida achinish paydo bo'ldi.

— Iya, iya, egachi! Men sizni chaqirtirgandim. Mehmonlarimni shirin suhbat bilan xursand qilib o'tirarsiz, deb. Chiqmadingiz. Nima bo'ldi sizga?

Aziza xola ori q gavdasini arang ko'tardi. Lazokatxon bilan ko'rishgach, bodi qo'zg'alganidan qimirlayolmay qolganini aytib, uzr so'radi. Lazokatxon egachisining bilagini ushlab ko'rgan edi, tomir urishi bejologini sezdi. Darrov o'z uyidan qon bosimi o'lchaydigan asbobini olib chiqdi. O'lchab ko'rgach, qon bosimi ham ko'tarilganini bildirdi. Azizaxonning nozikligini, sog'lig'idan bot-bot shikoyat qilib turishini bilgani uchun achinib ketdi:

— O'zingizni ortiqcha urintirgandirsiz-da. Endi ehtiyot bo'ling. Xudo shifo bersin. Sizga kim qarayotibdi o'zi? — deb u yoq-bu yoqqa alanglab oldi. Uy ichida hech kim ko'rinmagach, so'radi:

— Qani bolalar?

Aziza xola biroz o'ylanib turgandan so'ng:

— Ketishgandi... — deb qo'ydi.

— Qayoqqa? — dedi Lazokatxon sergak tortib.

— Haligi... Yangi joyga...

— Tushuntiribroq gapiring-chi. Qanaqa yangi joy?

Aziza xola qo'shnisining sinchkovligini, qiziqqan narsasini aniqlamaguncha qo'ymasligini bilardi. Shuning uchun borini aytishga majbur bo'ldi. Gap o'g'li bilan kelini ustida ketayotgandi. Kelinning otasi tuzukkina tadbirkorlardan ekan. Ishlari yurishib ketgandan keyin saxiyligi tutibdi. Qiziga yaqinidagi uydan bir kvartira oberibdi. Chindanam



Aziza xolaning ko'hna, tor pastqam hovlisida siqilibroq yashasharkan. Xonadonning otasi o'g'li bilan kelini turadigan bitta xonani ikki xonaga aylantirib berish harakatida ekan-ku, bu ish hadeganda bita qolmayotgan ekan. Shu sabab yangi kvartiraga ko'chishga chog'langan kelinning ra'yini qaytarib bo'lmagan. O'z-o'zidan o'g'li O'ktam ham rafiqasi ketidan ergashgan.

Bu yangilikni eshitarkan, Lazokatxon shahlo ko'zlari qinidan chiqayozib, jig'ibiyroni qaynab ketdi:

— Ana xolos. Nahotki shuni ko'ra bila turib yo'l qo'ysanglar-a! Xo'jayiningiz ham indamay qo'yib berdilarmi?

— Xo'jayin bularni ko'chganini bilmay qoldila. Komandirovkaga ketgandila.

— Komandirovkadan qachon qaytadila?

— Uzoqroq muddatga ketganla...

— Shundoq ekan, axir bolalaringizga: «Dadang kel-sinla, bir gap bo'lar.» Meni yolg'iz tashlab ketmangla» deb aytmabsiz-da?

— Aytuvdim. Tez-tez kelib turamiz, deb va'da berishdi. «Hozircha bog'chasiga bormasdan, yoningizda tursin» deb bolasini qoldirishdi.

Shu chog' oshxonadan ushoqqina bir qizcha choynak ko'tarib chiqib, bularning oldiga choy keltirib qo'ydi. «Hoy, jajji, dastyorchilik senga qoldimi, aynoniy!» deb Lazokatxon qizchani bag'riga bosib, peshanasidan o'pib qo'ydi.

— Bu jajjining yoningizda hamroh bo'lib turgani yaxshi. Lekin qozon-tovoqqa, uy-joyga qarash, kasalingizga malham qo'yish buning qo'lidan kelmaydi-ku! Farzandlar shuni o'ylashmagani qiziq. O'zingiz ham aytishga andisha qilgansiz-da, albatta. Fe'lingiz ma'lum. Ortiqcha tortinchoq, xokisorsiz. Ular sizning bo'shangligingizdan foydalanishgan. Ha, egachi, o'z onalik qadringizni bilmasangiz shunaqa bo'ladi. Keliningiz yuzsizlik qilgan bo'lsa, o'g'lingiz o'ylashi, onaizoriga rahm qilishi kerak edi!

Lazokatxon egachisining tomir tortishib qolgan oyog'ini silab-siywab qo'ydi. Albatta doktor chaqirib qaratish zarurligini aytdi. O'ktamni qanday topishni so'radi. Aziza xola unga deraza tokchasida turgan daftarchani ko'rsatdi. Lazokatxon daftarchani varaqlab, O'ktamning ishxonasiga tegishli bir-ikkita telefonni topdi-da, qog'ozga yozib olgach, chiqib ketdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay qo'shni qizi kirib keldi. Qosh-ko'zlari onasinikiga o'xshash popukdakkina, chaqqon harakatli bu tiyrak qiz ayvonga ko'tarilib qaragandi, xolasining ko'zi ilingan ekan. Ovoz chiqar-masdan yoniga bordi. Pashsha qo'nmasin deb yuziga doka yopdi-da, sekin pastga tushdi. Burchakda turgan supurgi-ni qo'liga olib, xazon, cho'p-xaslar ivirsitgan hovlini supurishga tushdi. Shundan so'ng hovliga asta-asta sha-karob qilib suv sepa boshlagandi, ayvondan Aziza xola-ning ovozi chiqdi.

— Voy, Dono qizim, nima qilib urinyapsan-a?

Dono yugura borib, ko'rishdi:

— Tuzukmisiz, xolajon? — dedi biyron tili bilan. Sizga yordam bergani chiquvdim. Ayting, ovqatingizni pishirib beray.

Aziza xola ovqatga ishtahasi yo'qligini aytdi. Dononi ovora qilgisi kelmadi. Dono bo'lsa qattiq turib oldi:

— Ayajonim tayinladila: «Xolanga xo'rdi mastava qilib bergin, qatiqlab ichsinla» deb.

Shuni aytdi-yu oshxonaga kirib ishga unnay ketdi. Jajji qiz uning yonida pildirab yurarkan, Dono: «Biznikidan qatiq opchiqasan», deb uning qo'liga shisha idish tutqizdi.

Bir payt Lazokatxonning o'zi chiqdi. Qizining qilayot-gan ishini kuzatib, ma'qulladi. Egachisidan esa ko'ngil be-zovtaligini yashirmadi:

— O'g'lingizni ishxonasiga ikki-uch marta qo'ng'iroq qildim. Topolmadim. Qayoqqayam ketgan, deyishdi. Ular-ga: «O'ktamli oyisi kasal, tezda yetib kelsin», deb tayin-ladim, daragi bo'lmadimi?

Lazokatxon tiq etsa eshikka qarab, ancha vaqt egachisi yonida o'tirdi. Qizi pishirib kelgan mastavadan qistab-qistab xolaga ichirdi. Qosh qorayganda o'rnidan qo'zg'aldi-da:

— O'g'lingiz qay vaqtda kelsayam jajjidan menga xabar bering. Albatta uni ko'rishim kerak, — deb tayinladi. Dononi esa kasalning yonida tunash uchun qoldirdi.

Ertasi u poliklinikaga qo'ng'iroq qilib, doktor chaqirdi. Peshinga yaqin doktor kelganini bilib, egachisini kiga chiqdi. Doktor kasalni ko'rib, davolar belgilab, dorilar yozib, endi jo'navotganida, hech narsa bilmagan-day silliqqina bo'lib O'ktam kirib keldi. Eshikda «Tez yordam», uyda doktor bilan Lazokatxonni uchratib, naq kapalagi uchgan yigit, izza bo'lganidan o'zini arang bosgan holda:

— Iya, oyijon, sizga nima bo'ldi? — deb onasi qoshiga quchoq ochib keldi. Onasi esa odatdagicha vazminlik bilan «sal tobi qochgani»ni bildirdi. Egachisining beg'am, beparvo o'g'liga qilgan bunday beozor muomalasini hazm qilolmagan Lazokatxon:

— Kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi. To'g'risini aytavermaysizmi, egachi! — deb zarda qildi. Keyin O'ktamga yuzlandi: — «Salgina tobi qochganmas. Oldindan silqovlanib yurardi onang. Endi rosmana kasal bo'пти. Bod. Hafaqon. Ha, bu kasallari oldindan bezovta qilib yurgani-ni bilmasmiding? Shu kasalmand onani yolg'iz tashlab ketishga qanday vijdonlarning qabul qildi-a? Borib turgan oqibatsizlik emasmi bu-a?!»

O'ktam kutilmagan bu og'ir dashnomlardan naq yer yorilmadiyu, yerga kirib ketmadi. Bu to'g'riso'z, shartaki qo'shniga xiyol bo'lsin ters javob berishi mumkinmasligini bilardi. Shu bilan barobar o'z aybiga ro'yi rost iqror bo'lishga ham tili bormasdi. O'zini arang bosib, qattiq lohas tortganini sezdirmaslikka tirishdi. Ikki qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda zo'raki tabassum bilan:

— Shunaqa bo'p qoldi, opoqijon. Aybga qo'shmaysiz. Yaqin joyga ko'chganmiz, tez-tez xabar olib turadigan

bo'lib. Aksiga shu kunlarda u yoqda ish ko'payib ketib, ushlanib qoldim...

— Ha, demakki, o'zingizdan ortmay qolibsiz-da. Bilaman, turmushda har xil farzandlar uchraydi. Bir xillari o'z shaxsiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishadi, o'z huzur-halovatlariga berilib ketishadi-yu, ota-ona oldidagi farzandlik burchlarini unutilib qo'yishadi. Nahotki, sen mo'min-musulmon farzandi bo'la turib o'shanaqa betayin, betavfiqlar qatoriga kirsang-a?!

— Mendan xatolik o'tgan bo'lsa kechiring, opoqijon! — deb egilib-bukildi O'ktam.

— Menga qara, otang qurib bergan bu uy torlik qilib qoldimi? Sizlarning bu yerdan ko'chib ketishlaringga otanang rozi bo'lishganmidi?

O'ktam mushkul savolga ro'para kelib, dovdiradi:

— Endi opoqijon... Uncha qarshilik qilishmovdi... — deb chaynaldi.

— Shunaqa degin? — dedi Lazokatxon gumonsiragan holda. Keyin siz nima deysiz deganday Aziza xolaga tikildi.

— Ha, endi... Shunaqa... Bo'lar ish bo'ldi... Qayerda bo'lishsayam omon bo'lishsin, — degancha Aziza xola dudmol javob qildi. Egachisining javobi Lazokatxonni qoniqtirmadi, albatta. Qoniqtirmadigina emas, bolalarini bunchalik o'z ixtiyorlariga qo'yib berishi, bolajonlik qilaman deb og'irlikni o'z zimmasiga olaverishi, serandishaligi o'tirishmadi Lazokatxonga. Uyidan xabar olish uchun chiqib ketayotib, O'ktamni bir chekkaga imladi-da, dedi:

— Savolimga to'g'ri javob bermading, bola. Dadang komandirovkadan qaytsinlar, gaplashaylik-chi, nima deyarkinlar?..

O'ktam buni jiddiy ogohlantirishday qabul qildi-yu, yuragini g'ulg'ula bosdi...

NAJOT

Masjid jilovxonasidan chiqqan mo'ysafidlarning bir guruhi ko'chaning narigi betiga o'tishayotganda, uch-to'rt nafar o'spirin ularning oldilaridan shovqinlashgancha kesib o'tdi. Mo'ysafidlar bir-birlariga qarab, norozi ohangda:

«Odobsizlar!» — deb qo'yishdi. Boshidagi oppoq to'rdoppisi, tovonigacha osilib tushgan keng arabiy oq ko'ylagi bilan hammadan ajralib turgan Hojimat ota hamrohlari-ning tanbehlarini eshitib:

— Birodarlar, bilasizlarmi, ayb bularga odobni o'rgatmagan ota-onalarida! — dedi.

— To'g'ri aytasiz, Hojim, — deb hamrohlari qo'shili-sharkan, Hojimat ota yana zamzama qildi:

— Ba'zilarchi: «Bolalar undog' bo'p ketyapti, mundog' bo'p ketyapti», deb nolishadi. Mening ularga dey-digan so'zim shu: «Hoy, azizlar, unutmanglar. Yosh novdani qayoqqa egsang o'shoqqa egilib ketaveradi. Axir, qush ham uyasida ko'rganini qiladi-da...»

Otaning ichidan qaynab chiqayotgan so'zi bo'lindi. Qarshisiga yugurgilab kelgan bir bola qo'lini ko'ksiga qo'yib salom berganidan keyin: «Direktor bervordilar. Uyingizga borib topolmadim», dedi-da, otaning qo'liga bir qog'oz tutqazdi. Ota taajjub ichida kiftini uchirib, to'xtab qoldi. Qog'ozning buklovini yozib xatga tikilarkan, payvasta qoshlari ostidagi yirik ko'zlari chaqchayib ketdi. Unga ang-rayib qolgan sheriklarining: «Ha, nima gap ekan?» degan savollariga, ota o'zini bosib: «Yaxshi gap. Maktabga chaqiribdi. Maslahatli ishi borakan...» deb qo'ydi. Ammo nimanidir sezib, yuragiga g'ulg'ula tushdi. O'zi yashaydigan jin ko'chaga burilmasdan, katta ko'cha bo'ylab maktab tomon ketdi...

Sirtqi ko'rinishi, kiyim-kechagi, o'zini tutishi od-diygina bo'lgan o'rta yoshli ayol otani alohida ta'zim bilan kutib oldi. Uni xonasining to'riga o'tqazib, o'zi poygak-roqdan o'rin oldi. Gapni uzoqdan boshladi: otaxonni be-

zovta qilgani, anchadan buyon ko'risholmagani, betob bo'lganda borib ko'rolmagani uchun kechirim so'radi. Hojimat ota tortinishni bilmaydigan, bulbuligo'yo bo'lib, davralarda hammani o'ziga qaratadigan, so'zamol odam edi. Hozir esa dami ichiga tushib, tili kalimaga kela qolmadi. Nima maqsadda chaqirilganimni bila qolsaydim, deb yuragi taka-puka edi.

Direktor ayol «hozir» dedi-da, o'rnidan turib eshikka chiqdi. Sal o'tmay sochlari hurpaygan, olabayroq ko'ylakli durkin bir o'smirni yetaklab kirdi. Kutilmaganda otaga to'qnash kelgan o'smirning olazarak ko'zlari pir-pir uchdi. Bu — Hojimat otaning nabirasi Nabi edi. Tasodifiy uchrashuv ularning nafaslarini ichlariga tushirdi.

Direktor Nabini bir chekkaga o'tqazib qo'ygandan keyin so'zga kirishdi:

— Siz, otaxon, ko'pni ko'rgan oqsoqolsiz. Maslahatingiz kerak bo'p qoldi. Ayrim o'quvchilarimiz ustida... — dedi-da, o'shanday o'quvchilarning suvratlarini chiza boshladi. — O'taketgan sho'x deysizmi, likkonboz, bebosh deysizmi. Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otib, bolalarning g'ashiga tegaveradi. Futbolmi, voleybolmi o'ynayotganlarning o'rtasiga tushib, o'yinni beliga tepishi, birov kitob o'qiyotgan bo'lsa, ko'rib beray deb kitobini, yo xat yozayotgan bo'lsa, ruchkasini tortib olib, ishdan qoldirishi hech gapmas. Qizlarga tegajoqligini ayting: birining soch o'rimini ikkinchisiga boylab ranjitish: ro'mol o'rab kelgan qizlarga «xolam oyi» deb, yasanibroq kelgan qizlarga «kelinposhsha» laqabini qo'yib jig'lariga tegishi, yig'latishi...

Goh iljayib, goh hayg'atlanib tinglayotgan Hojimat ota o'zini bosolmasdan:

— Axir bular o'quvchiga yarashmaydigan qiliqlar-ku, qizim! Bunaqangi bezorilarni tanobini tortib qo'yish kerak bo'lar! — deb qo'ydi. Direktorning so'zlariga qilog'i ding bo'lib, peshanasi tirishgan, ko'zlari piri-piragan Nabi yer ostidan buvasiga xo'mrayib qarab qo'ydi.



— Bordi-yu, — dedi direktor chigilni yechganday bo'lib, — o'shanday bezorilardan bittasi sizni nevarangiz bo'p chiqsa-chi, otaxon?

Nabi qattiq tebranib, o'monat o'tirgan kursisi g'ijirlab ketdi. Xuddi qocharga yo'l axtarganday yonveriga alanglab qoldi. Otaning esa ko'zlari ola-kula bo'lib, patak soqolli iyaklari qaltirab ketdi. Jillayam bunchalik dashnom eshitishni kutmagandi-da u. To'g'ri, u nevarasining erkatoiy, sho'x taka bo'lib o'sayotganini bilardi. Hatto bundan faxrlanib, «o'g'il bolaning udli-shudli chiqqani tuzuk» deb qo'yardi. Arzandaginam deb, uning rayiga qarayverishni, kap-katta bo'lguncha ham taltaytirib yelkasiga mingizib yurishlari, quyushqondan tashqari to'palonlarigayam yo'l qo'yib berishlari kampiri rahmatliga o'tirishmasdi. «Bolani suyultirib rasvo qilasiz-da, buvasil!» deb jerkiganida: «Qo'yaver, buvijonisi, katta bo'lib quyulib qoladi», deb qaytarguvchi edi. Bittagina o'g'li bor edi, u allaqanday chalkash ishlarga o'ralashib bedarak ketgan, shundan keyin yolg'izgina nevaraga ko'z tikib qolgan, bor umidini shunga bog'lagandi...

Direktorning so'zlarini eshitgach, ota o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Ayniqsa, direktor, Nabining o'qishdan sovigani, qandaydir «tijorat» degan narsalarga aylanishib, darsga kam kelishi, o'qituvchilarni mensimay qo'ygani, Nabini maktabda qoldirish yo qoldirmaslik o'qituvchilar kengashida ko'rilmog'chi ekanini aytarkar, otaning boshiga tog' ag'darilganday bo'ldi.

— Munchaligini bilmabman, o'quvchiga onasi qarayotgandir deb ishonibman, qizim! — dedi Hojimat ota yig'lamoqdan beri bo'lib. — Men gog' hud, goh behud o'z yog'imga qovrilib, bu battolning qilg'iliklaridan be-xabar, g'aflatda qolibman, buning uchun kechir meni, qizim!..

Direktorning ochiq so'zlari, otaning g'ijinganicha (umrida birinchi marta) «battol» deb g'azablangani Nabiga qattiq kor qilib ketdi-yu, birdan ho'ngrab yubordi.

— Hay, hay, o'g'lim, senga nima bo'ldi! Kap-katta bola yig'lashi uyat emasmi, o'zingni bos-e! — deb direktor uni tinchlantirishga harakat qildi va so'radi: — Qani, javob berchi, Nabijon, buvangga aytib berganlarim noto'g'rimi?

Lab-lunji osilib tushgan Nabi hamon xo'ngrab hiqillardi.

— Yaramas qiliqlaring uchun mualliming ham necha marta tanbeh bergandi-ku, to'g'ri emasmi?

— Ustozingni savollarini javobsiz qoldirma! — dedi ota o'zini arang bosib.

Nabidan sado chiqmagach, direktor muloyimgina qilib dedi:

— Mayli, bizga javob berishni istamasa, o'quvchilar kengashiga javob berar. Ular qanday hal qilishsa shu...

Direktorning so'zi tugamasdanoq Nabi:

— Yo'q, yo'q, direktor opa, majlisga qo'ymang! — yig'lab yubordi.

Qattiq o'sal tortgan Hojimat ota nihoyat iltijoga o'tdi:

— Xudo xayringizni bersin, qizim! Bu safarcha bolaning aybidan o'tsangiz. Mening uchun. Bitta-yu bitta suyanchig'im ko'chada qolmasin, o'rtoqlari qatorida to'g'ri yo'lini topib olsin. Shuni chorasini ko'rsangiz, o'tinaman sizdan...

Direktor qariyaning o'tinchini inobatga oldi. Uning o'qituvchilar bilan bamaslahat ko'rgan oxirgi chorasi shu bo'ldi: eng intizomli o'quvchi Rustamni Nabiga o'qishda yordam ko'rsataman deb ko'ndirishdi. Juda jiddiy, shartaki, serzarda bo'lgan Rustam kattalarning so'rovlarini rad etolmadi-yu, Nabiga o'zining shartini ko'ndalang qo'ydi:

— Agar shaytonligingni tashlasang, aytganlarimni to'la bajarsang, yordam berishim mumkin, xo'pmi?

Rustam bu shartini atayin sinf bolalari oldida aytdi. Kattalardan dakki yeb ancha popugi pasaygan Nabi esa «xo'p» deyishga majbur bo'ldi. (Tag'in chatoqlik qilsa sinfdoshlari uning bahridan o'tib yuborishlaridan qo'rqdi-da!)



Xullas, Rustam Nabini, bolalar tili bilan aytganda, «shatakka» oldi. Darsdan keyin maktabda qolib, goho Nabining qistovi bilan uning uyiga borib dars tayyorlashdi. Buni ko'rgan Hojimat ota naq o'zida yo'q quvonib: «Shunaqa qarashib turgin o'rtoqlaringga, baraka topkur, umring uzoq bo'lg'ur!» deb yalingancha Rustamning yelkasiga qoqdi. Kuniga kelib turishini iltimos qildi. Tez-tez bolalarning ishlaridan boxabar bo'lib turdi. Uning dardi-fikri, nima qilib bo'lsayam nevarasini to'g'ri yo'lga solib, maktab jamoasi oldida yuzi shuvutlikdan qutulib olish edi. Kecha asr namozi oldidan masjid jilovxonasida yor-birodarlari bilan uchrasharkan, ularning birinchi so'roqlari uni maktabga nima sababdan chaqirishgani bo'ldi. Hojimat ota xijolat tortib bo'lsa-da, nevarasining o'qishi, intizomi ustida suhbat bo'lganini (al-batta, yengilroq qilib) aytib berdi. Birodarlar bunga befarq qarashmadi, savolga tutib, Hojimat otaning ta'bini birmuncha xira qilishdi. Suhbatdoshlaridan biri Nabini yaxshigina bilarkan, u: «Yaqinda nevarangizni chorrahada shara-bara sotayotgan yoymachilar qatorida ko'rib ajablandim», desa boshqasi: «Men uni bemahalda sigaret tutatib yurgan o'smirlar ichida ko'rdim, bevaqt yurmanglar, bolalarim, uyingizdalar xavotir olishadi degandim, quloq solishmadi», dedi. Bu gaplardan Hojimat ota ezilib ketdi, nabirasini tezroq yaxshilar qatoriga kiritib, odamlarning har xil dashnomlaridan xalos bo'lishni o'yladi.

Aksiga olib desangiz, keyingi kunlar Rustam Nabiga qarashish uchun fursat topolmay qolsa bo'ladimi? Uning narigi tumanda turadigan buvasi kasal bo'lib qolgan, Rustamning oyisi o'sha yoqqa ketgan, Rustamning o'ziyam qatnab turibdi. Tabib bemorga shotut buyurgan ekan. Rustam bozorga borib, shotut topolmay kelibdi. Qayerdan topishga hayron. Nabi bu gapni eshitib, o'ylanib qoldi. Ko'z oldiga hovlisi chekkasidagi tut daraxtining shapaloq barglari orasida qip-qizarib turgan mevalar keldi. Ha, ularni kida shotut bor. Uzoq yili buvasi hovlidagi balx tutga payvand qilgan shotut bu yil nishona berdi. Ota kuniga ko'zlari

quvonchga to'lib bu mevaga tikilib qo'yadi. Nabiraning bir ko'ngli, shu mevani terib berib Rustamning hojatini chiqarish edi-ku, lekin buvasidan istihola qildi. Shu o'rtada Rustamdan yordam ololmay qolgani uchun o'qituvchi topshirig'ini bajarolmasdan gap eshitib oldi. Shundan keyin u ertasi azonlab buvasi machitga chiqib ketgan paytda tavakkal qilib shotutning pishganlarini terib oldi-yu, shisha idishga solib Rustamga yetkazdi.

Hojimat ota hassasini do'qillatgancha namozdan qaytib, har kungi odaticha shotutning tagiga kelib tikilib qaradi. Ko'ziga meva siyrak ko'rindi. Shamolda to'kildimikin deb daraxt tagini ko'zdan kechirdi. Tagi — top-toza. Hayron bo'lib: «Hoy, kim bor?» deb chaqirdi. Hech kim ovoz bermadi. Kelini-ku vaqtli ishga ketgan. Nabi-chi? Hali maktab vaqti bo'lgani yo'qku? «Birontasi terib ketdimikana?» deb gumonsiragancha qoldi ota. Faqat peshinga borib Nabi maktabdan qaytgach, gumoni yozildi. Nabi og'riqni oldini olish uchun, buvasining savolini kutmayoq ertalab beijozat qilgan ishiga iqror bo'ldi. Pinagini buzmasdan shotutni nima uchun va kim uchun terib berganini so'zlar kan, g'azabi qo'zib nabirasini o'zboshimchalikda ayblamoqchi bo'lib turgan ota shu on shaxtidan tushdi:

— Shunaqa degin-a? Agar o'rtog'ingni hojatini chiqargan bo'lsang, durust qilbsan, — deb xursand bo'ldi. Keyin Rustamning buvasi kimligi va nima kasal bo'lganini surishtira ketdi. Nabi bilganicha aytib bergandi:

— Nima deding? Buvasining nomi Sharif domla ekan dedingmi? E, to'xta... — deb Hojimat ota qattiq o'ylanib qoldi.

— Nima, taniysizmi, buva? — dedi Nabi qiziqib.

— E, tanish ham gapmi... Yo'q, yo'q, uni men... xudo kechirsin, olamdan o'tgan deb eshitgandim. Qayerda turarkan deding?

Nabi Sharif otaning turar manzilini tushuntirgandan keyin, «o'sha bo'lsa-ya?» deb Hojimat ota chuqur xayolga botdi...



Ko'z o'ngida yoshlik yillari gavdalandi.

Hojimat bir tashkilot xizmatchisi bo'lib, tuman faollaridan edi. Mahallalarda obodonchilik ishlari boshlanganda, buni o'z mahallasidan boshlamoqchi bo'ldi. Bu yerdagi kichik qabriston bilan machitni buzib, uning o'rniga klub, qizil choyxona qurishni rejalashtirdi. Bu gap mahalla ahli orasida ixtilofni keltirib chiqardi. Keksalar: «Ota-bobolarning arvohtarini chirqiratmaylik!» deyishdi. Aholi orasida durustgina mavqega ega bo'lgan mulla yigitlardan Sharif qori ham qariyalar tarafini oldi-yu, baloga qoldi. Yoshlari teng, bir ko'chada gurpaklashib katta bo'lgan ikki oshna adi-badi aytishib qolishdi. Hojimat Sharifning peshanasiga «ruhoniylar ta'siriga berilgan, mafkurasi buzuq» degan tamg'aning bosilishiga sabab bo'ldi. Oqibatda u bosmaxonadagi ishidan mahrum bo'ldi. Nima emish, «Mafkurasi buzuq odam gazet chiqaradigan dargohda ishlashi mumkin emasmish». (Yaxshiki Sharifning otasi tuzukkina ilmdor bo'lib, eski qo'lyozmalarni chiroyli qilib ko'chiruvchi xattotlardan edi, o'zi ishlaydigan institutga o'g'lini yoniga oldi).

Vaqt kelib, oshnolar yashaydigan ko'chaga katta yo'l tushdi-yu, o'zlari har yoqqa tarqalib ketishdi. Hojimat ruhoniylarning qarg'ishiga yo'liqdimi; omadi ketib, ishidan surildi. U shoxdan bu shoxga sakrovchi chittaksimon idoradan idoraga ko'chib, goh u, goh bu amaldorning soyasiga salom berib yurdi. Tuzukroq kasbi-kori yo'qki, biror ishning boshini tutsa. Xullas, uni oltmishga yetar-yetmas nafaqaxo'rlar qatoriga qo'shib qo'yishdi... Shundan bu yog'iga o'tgan kunlari unga biror bir ro'shnolik keltirgani yo'q. Aksincha, o'qtin-o'qtin yodiga o'tmish kunlari tushganida yurak-bag'ri o'rtanib ketadi. Mana hozir ham shunday sezdi o'zini. Tuyqusdan qalbi uni o'sha eski oshnosi tomonga tortdi. Uni ko'rolsa, u bilan til topishib so'zlasha olsa, shu bilan go'yo yuragidagi armonlari yengillashadiganday tuyuldi o'ziga...

— Nabi, qayoqdasan? — deb chaqirdi u, yaqinda yurgan nevarasini ko'zi ilg'amay.

— Ha, buvajon? — dedi oldiga kelib Nabi.

— Basharti, sen aytgan odam... O'sha bo'lsa-chi, uni ko'rishim... — u yog'ini aytolmay, dimog'iga g'udilladi.

Nabi buvasidagi hech ko'rilmagan hayajonli, ikkilanishga o'xshash holatni ajablanib kuzatdi.

— Nima, borib ko'rmoqchimisiz, buva? O'zingiz zo'rg'a yuribsiz, charchab qolasiz?

— Yo'q, borishim zarur ekan, bolam, — dedi ota nimalarnidir mulohazasiga borib. — Sening uchun ham, o'zim uchun ham...

Nabi, bu nima deganingiz. demoqchi bo'lib savol nazari bilan qattiq tikilgandi, buvasi qo'yaver deganday qo'l silkitib qo'ydi.

— Rustandan turarjoyini bilib olganman. Borsangiz o'zim boshlab boraman. Avval avtobusda, keyin tramvayda...

Ertasi dam olish kuni Hojimat ota qayerdandir bir idishda shovut topib keldi. Yana allaqanday dori-darmon oldi. Uzun ko'ylagi ichidan belini mahkam bog'lab, hasasini qo'lga tutib, Nabi bilan yo'lga chiqdi...

* * *

Hojimat ota nevarasi yetagida mo'jazgina bir hovliga qadam bosarkan, yo'lak boshidanoq farishtaday ko'rimli, sarishta kiyingan jikkak bir kampir tavoze bilan unga salom berib, ichkariga taklif etdi. Balandgina ayvon to'ridan karavotda soqol-mo'ylovlari yaxshilab tarashlangan bir qariya yelpig'ich bilan o'zini yelpitib yotardi. U o'z yoniga chiqib kelgan mehmonga bir tikilib oldi-yu, parvosizgina so'rashdi. Mehmon kampir yozgan ko'rpachaga bermalol chordona qurdi, ikki qo'lini ko'tarib uzoq fotiha qildi. Bemorning begonasirab boqqan tiyrak ko'zlariga alanglab turib hayajon ichida:

— Men seni tanidim, aziz oshnam. Sochlaring oqargani demasa, afti-boshing, qarashlaring o'sha-o'sha, eski qadrdonginam, Sharif qori! Meni tanidingmi?

Bemor sarak-sarak qildi. Mehmon esa ko'zlarini chaqchaytirib, zo'rakilik bilan ishshaygan holda o'z ismini aytdi. Shundan so'nggina bemor xasta ovozda loqaydlik bilan:

— Men o'sha-o'sha bo'lganim bilan sen butunlay boshqa odamga aylanib ketibsan, Hojimat, — dedi mehmonning boshidagi oppoq to'r do'ppi bilan ustidagi uzun ridosiga qarab, — hojilik martabasiga yetishgan bo'lsang qutlashim mumkin...

Hojimat ota xiyol o'ng'aysizlikka tushdi: hojilikka yetishmagan bo'lsayam Arabistonga sayohat qilib kelgani ni aytdi. Keyin oshnasining sog'lig'ini so'rashga o'tdi. Faqat o'z savollariga tuzuk-quruq javob ololmasdan noqulaylik sezaverdi. Oshnasining ro'yxush bermayotganidan uning ko'nglidagi eski ginalar yozilmaganligini payqadi. Bir zamon oshnasi oldida qilgan gunohlari yaqqol ko'z oldiga keldi. Eski yarasi tiralib, hasrat daftari ochilib ketdi: Necha o'n yillar boshidan kechirgan sarguzashtlarini usti-ustiga qalastirarkan, Sharif qorining yuragi siqila boshladi.

— Nimalar deyapsan? — dedi quduq ipiday cho'zilgan hasratiga chek qo'yimoqchi bo'lib. — Savlatingni ko'rgan odam «juda ishi yurishgan chol ekan» deb havasi keladi!

— Savlatga ishonma. Usti yaltiroq — ichi qaltiroq...

— Mening o'zim ham seni, boyvachcha o'g'il davlatida taralabedod qilib yurgandir, deb o'ylovdim.

— E, uyog'ini so'rama! — dedi Hojimat ota chuqur uh tortib va savdo-sotiq ishlarida qo'li baland kelib yurgan o'g'lining qandaydir «noka slarning tuzog'iga ilinib» noma'lum tarafga qo'yib bo'lgani, yolg'iz o'g'il dog'iga chidamay kasalmand ona ham olamdan o'tgani, o'ziyam yaqinda infarkt bo'lib, bir o'limdan qolganini aytarkan, xo'rli gi kelib o'kirvordi.

Sharif qori bir cho'chib tebrandi-yu, qaddini rostlagancha o'tirib oldi.

— Hoy, hoy, seni bezovta qildim, o'zingni urintirma! — deb Hojimat ota qo'lini qorining yelkasiga obo-

rib, uni yostig'iga yotqizib qo'ymoqchi bo'ldi. Oshnasi ko'nmedi. Qattiqroq harakat qilgani uchun boshi aylandi shekilli, birlas ko'zini yumib o'tirdi. So'ng Hoji otaga qarab:

— Seni tanimay qoldim-a, hey, boshqa odam bo'p qolibsana-ku. Nuqul «baland oxirdan yem yeb», davralarda serka bo'lib o'rgangan odamga bunaqangi hasrat-u nolish, xokisorlik sira yarashmasana-e. Odam ham shunchalik o'zgaradimi-a?! — deya hayrat ichida yurakdan achinish bildirdi. — Jabr bo'пти senga, ko'p ushkifo tortibsana. Lekinchi, erkak odamga ko'z yoshi qilish yarashmas ekan. O'zingni qo'lga ol. Aftidan ahli mo'minlar jamoasiga qo'shilibsana, shular qatorida yurib o'tkazgan ham bir daming qadriga yet. Donolarning: «Xasta bo'lsang ham o'lmay yurganingga shukr qil» deganlarini unutmagin, Hojim...

Eski do'stining muomalasidagi sovuqlik o'rmini samimiy, beg'araz ohang egallaganini ko'rarkan, Hojimat otaning ko'ngli xiyol yorishdi.

— Olohgaga shukrlar bo'lsinki, — dedi yurakdan chiqarib, — meni senga yetkazdi. Bolalar tufayli seni topdim. Ko'kragimdagini yashirmayman. Saharlari joynamoz ustida xudoga nola qilib: «E, parvardigor, gumrohlikdan qilgan gunohlarimni o'zing kechirgin!» deyman. Men ham xom sut emgan banda, ba'zi bir odamlarga bilib-bilmay ozor yetkazgan vaqtlarim bo'lgan, sengayam, oshnam... Ha, oldingda o'zimni gunohkori azim hisoblab... kechirim so'rab...

— Bo'пти, bo'пти, ko'p sannama, hojim. Nazarimda xuddi erta birisi kun bandalikni bajo keltiradigan odamsana-ku, rozi-rizolik tilamoqchi bo'lib kelgandaysana. Qo'y endi, o'tgan gapga salovot. Esimda, bosar-tusaringni bilmasdan, haddingdan oshgan vaqtlaring bo'lgan. Albatta, o'sha qilmishlaring o'z ixtiyoring bilan bo'lmagandir. Faqat aybing shuki, tepangda turganlarning buyruqlarini ko'rko'rona bajaravergansana, haq bilan nohaq neligini ajratishga aql-idroking etishmagan... Toshqin suvda har

yoqqa og'a-og'a, mana oxiri izinga tushib olibsan. Bu yog'iga adashma!

— Xo'p topib ayting, oshnam. O'sha noma'qulchiliklarning azobini tortib kelyapman. Birovga yorilolmayman. O'zimdanda o'tganini o'zim bilaman. Najot axtaraman. Oллоhdan boshqa sig'inadiganim yo'q.

— Bo'ldi, o'zingni bos, Hojim! Endilikda senga xudo insof berib, haq yo'lga qaytganing rost bo'lsa, bas! Omin...

Sharif qori ko'ngilsiz suhbatga nuqta qo'ymoqchi bo'lib, ikki qo'lini yuziga surtdi.

Hojimat ota o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'lib, birdan yonidagi xaltasiga ko'zi tushdi. Undagi shotutli idishni, qog'ozga o'rog'liq dorilarni olib oshnasining oldiga qo'ydi.

— Aftidan, senda xafaqon kasalligi borgan o'xshaydi. Bu narsalar — kasalingga davo. Xudo shifosini bersin. Nevaralar orqali xabarlashib turamiz. Sendan bir iltimos. Nevarangga aytgin, o'rtog'iga yordamini ayamasin, yo'lga solsin, umidim shundan, jon oshnam...

— Bo'пти, xotirjam bo'l...

Hojimat ota o'z yelkasidan bosib turgan yukdan qutulganay birmuncha yengil tortib o'rnidan qo'zg'aldi. Hasasini do'qillatib nabirasi ketidan eshikka yo'nalarkan, unixonadon bekasi boyagidan ortiqroq e'zoz bilan eshikkacha kuzatdi-da: «Kelib turing, taqsir!» deb qo'ydi.

Yoqubjon **SHUKUROV**

(1915)



O'zbek bolalar adabiyotining keksa avlod vakillaridan Yo. Shukurov 1915- yil Qirg'izistonning O'sh shahrida tavalud topadi.

Ota-onasidan yosh yetim qolgan bo'ljak adib bolaligidayoq cho'ponlik, etikdo'zlik, novvoylik bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Savodsizlikni tugatish kurslarida xat-savodini chiqarib, rabfakda tahsil ko'radi. 1940- yilda Toshkentdagi o'qituvchilar institutini tugallaydi.

1941- yildan O'zbekiston radioeshittirish komitetida va turli tahririyatlarda ishlaydi.

«Shonli yo'l» nomli birinchi kitobi 1949- yili nashr etiladi. Shundan so'ng «Ikki yo'l», «Quyosh bolalari», «Gullayotgan o'lkada», «Qasos» (trilogiya), «Qanotli bola» nomli hikoya, qissa, roman va sahna asarlaridan tashkil topgan kitoblari e'lon qilinadi.

«O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» unvoniga sazovor bo'lgan Yo. Shukurov ijodi o'zbek bolalar adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi.



KUTILMAGAN VOQEA

(Hikoya)

Hovlida plastilindan qo'y, echki, kuchuk yasab o'tirgan Hasan bilan Husan mashina ovozini eshitib, o'rinlaridan turishdi-da, chopqillagancha ko'chaga chiqib ketishdi. Tandirdan non uzayotgan buvisi: «Hoy, bolalar! Otang kelmagan bo'lsa uzoqqa bormanglar!» deb qichqirib qoldi. Uning ko'ngli tinchimadi shekilli, apil-tapil nonni uzib, olov taptida qizarib ketgan yuzidagi terini art-di-da, nevaralari orqasidan ko'chaga chiqdi. Kampir mashina oldida bolalar bilan o'pishayotgan o'g'lini ko'rdi. Bolalar otasini quchoqlab chuldirashar, bir-biriga gal bermay allanarsalarni hadeb so'rashar edi. Kampir quvonib ketdi.

— Eson-omon qaytdingmi, bolaginam? — dedi u o'g'lining yelkasiga qoqib. — Bolalaring seni juda sog'inib qolishdi. Uyqudan turishsa ham «otam keldimi», boqchadan qaytishsa ham «otam keldimi» deyaberishib, holi-jonimga qo'yishmaydi bu zag'chalarig.

— Hasan, ho' Husan, buyoqqa kelinglar! — dedi shofyor chipta savatga solingan kiyik bolasini mashinadan olib. — Mana, yaylovdan sizlarga sovg'a olib keldik.

Bolalar darrov otasining qo'lidan tushishdi-da, hayron bo'lishib, kiyikni tomosha qila boshlashdi. Shofyor bolalarni ergashtirib, kiyikni ichkariga olib kirdi va savatdan chiqardi. Hali ko'p narsaning farqiga yetmaydigan, xoldor, mayin junlari endigina qizaraboshlagan kiyik bola atrofiga alanglab qoldi. Birov yaqinlashsa xuddi quyonnigiga o'xshash kalta, momiq dumini pastga egib oladi. U qo'rqsa ham, lekin hech yoqqa qochmas edi. Faqat bolalar qo'l cho'zib ushlamoqchi bo'lsalar, seskanib dirk etar, sal uzoqlashar, goh bolalarga, goh yon-veridagi narsalarga qarab qo'yardi.

— Husan, qalay, kiyik bolasi senga yoqdimi? — deb so'radi shofyor.

— Yoqmadi. Oyoqlari uzun-uzun. Tag'in bir tishlab olsa! — dedi Husan qop-qora ko'zlarini chaqchaytirib.

— Kiyik ham tishlar ekanmi, yaqin borgin-chi.

Husan kiyikni ushlamoqchi bo'lib, cho'chib qo'l cho'za boshlagan edi, kiyik dirk etib, yoniga irg'idi. Husan qo'rqib orqasiga tisarildi.

— Ana! Ushlatmaydi-ku. Bir tepib yuborsa-ya!

— Unday bo'lsa, — dedi shofyor kiyikka atayin yaqinlashib, — men olib ketaman.

— Yo'q, olib ketmang, men yaxshi ko'raman, — dedi Hasan shofyorning yo'lini to'sib. — Ushlatmasa ham mayli, irg'ishlagani yaxshi-ku!

— Sen nimani yaxshi ko'rasan? — deb so'radi shofyor Husanga qarab. — Senga mushuk bolasi keltirib beraymi?

— Boring-e, men mushuk bolasini yomon ko'raman, — dedi Husan qovog'ini solib. — Menga kuchuk kerak.

— E, shunday degin. Xo'p, ertagayoq kuchuk keltirib beray senga.

Husan xursand bo'ldi. «Tishlamaydigan, yuvoshidan olib keling» deb tayinladi. Shofyor kulib yubordi. «Husan rosa qo'rqqoq ekan-ku», degandek ajablanib unga tikilib qoldi. Ammo shofyor Hasanning dadilligidan xursand bo'ldi.

— Bu, kiyik bolasi nima yeydi? — deb so'radi Hasan.

— Maysa, qiyoq, beda yeydi. Nonga ham o'rgat, lekin ko'p berma — kasal bo'lib qoladi, — dedi shofyor.

— Hasan yuguranicha uydan bir burda non olib chiqib, kiyikka tutdi. Kiyik yemay, qochib ketdi. Shunda Husan: «Ana, yomon ekanmi», deb Hasanning g'ashiga tega boshladi. Lekin Hasan ukasining gapiga parvo qilmay, boqqa qarab yugurdi. Ko'p o'tmay, bir tutam maysa ko'tarib keldi. Kiyik bo'lsa Hasan yaqinlashishi bilan orqasiga tisarildi.

— Ana, ha! — dedi Husan boshini chayqab. — Yomon ekanmi?

— Yomonmas, o'zi bizlardan sal qo'rqqyapti. Hali o'rganganini yo'q, keyin yeydi-a? — deb so'radi Hasan.

— Albatta. Keyin o'rganib qoladi.



Shofyor maysa bilan nonni kiyikka yaqin joyga qo'ydi-da, bolalarni chetga boshladi.

* * *

Shofyor ertasi kuni Husanga qop-qora, chiroyli kuchuk keltirib berdi.

Bolalar kiyikka «Yulduz» deb, kuchukka esa «Arslon» deb nom qo'yishdi.

Yulduz hovlida yurishga, bolalarning qo'lidan ovqat yeyishga kundan-kunga ko'nika boshladi. Hatto oradan bir necha kun o'tgach, Hasanning orqasidan ergashadigan ham bo'lib qoldi. Hasan juda quvondi. U, Husanning: «Aka, mening Arslonim aqlli, orqamdan ergashib yuradi, sening Yulduzing jinni, gapni ham uqmaydi», degan ta'nalaridan qutuldi.

Ilgari kiyik bilan kuchuk bir-birlaridan qo'rqar, bir-birlariga yaqin kelolmay chekchayib turishar edi. Sekin-sekin ular bir-birlariga o'rgana boshlashdi. Avval qo'rqmaydigan, keyinchalik birga o'ynab, bir idishda ovqat yeydigan ham bo'lishdi. Endi ular birga uxlashadi.

Shunisi qiziqki, kuchuk bilan kiyikning ba'zi odatlari bir-birlarinikiga o'xshab ketadi. Masalan, har ikkalasi ham yuvosh, ham qo'rqqoq. Ular hatto mushukdan ham qo'rqishadi. Hasan bilan Husan ularni bo'ynidan bog'lab ertadan-kechgacha yetaklab yursa ham, oyoqlaridan tortsa ham indashmaydi. Shuning uchun ham Malik tog'a: «Husanboy, kuchukka nomni xato qo'yibmiz-da, aslida Arslon demay, Sarson desak bo'lar ekan. Negaki, kuchuging na itga, na mushukka o'xshaydi. Loaqal kechasi bir marta hurib ham qo'ymaydi» deb kular edi. Shuning uchun kuchukni oilada Husandan bo'lak hech kim yoqtirmay qoldi.

Bir kuni kattalar o'zaro maslahatlashib, Arslonni Husanga bildirmay haydab yubormoqchi bo'lishdi. Agar Husan janjal qilgudek bo'lsa boshqa kuchuk topib berarmiz, deyishdi. Ertalab Hasan bilan Husan bog'chaga ketgandan

keyin Malik tog'a hovliga chiqib, Arslonni ko'chaga hayday boshladi. Lekin Arslon kiyikdan ajramay, u bilan u yoqdan-bu yoqqa qochib yurdi.

— Yaxshisi, — dedi Malik tog'a, — komandirovkaga borganda mashinaga solib ketaman-da, biron qishloqda qoldiraman...

Bu maslahat uydagilarga ma'qul bo'ldi. Oradan yana bir necha oy o'tib ketdi.

Malik tog'a mehnat otpuskasiga chiqdi. Uydagilar maslahatlashib, yaylovga borib, qimiz ichib, tog'larga chiqib ov qilib, dam olishmoqchi bo'lishdi. Lekin jo'naydigan kuni Hasan bilan Husan: «Yulduz bilan Arslonni olib ketamiz» deb turib olishsa bo'ladimi! Otasi bilan onasi shuncha aldasa ham bo'lmadi. Oxiri Malik tog'a: «Mayli, olib keta qolaylik. Arslonni o'sha yoqda adashtirib kelarmiz» degan xayolda rozi bo'ldi. Mashinaga kiyikni ham, itni ham olishdi.

Ertalab yo'lga tushgan mashina quyosh oqqanda yaylovga yetib bordi. Eh-he, yaylov qanday yaxshi!.. Ham-mayoq ko'm-ko'k. Tog' etagidagi o'tloqda qo'ra-qo'ra qo'y-echkilar, uyur-uyur yilqilar o'tlab yurishipti. Onasining ketidan qolmay ma'rashib yurgan barra qo'zichoqlar va bo'yinlarini gajak qilib bir-birlarini quvlab yurishgan toylarni ayting. Yaylov qanday gashtli! Bolalar ham, kattalar ham atrofdan ko'zlarini uzolmay qolishdi.

O'rtog'ining kelishidan xursand bo'lgan ferma mudiri tog' tagiga alohida o'tov qurib berdi.

Yaylov hayoti boshlandi. Yaylovning g'uborsiz, yengil havosi va chiroyli manzarasi hammaga yoqib qoldi. Hatto Yulduz bilan Arslonning yayraganini ayting. Ular ertadan kechgacha bir-birlaridan ajramay, yaylovni kezib yurishadi. Ikki hafta ichida Yulduz birmuncha semirib qoldi. Uning to'niga ham nur kirib, yaltiray boshladi.

Lekin Arslonda hech qanday o'zgarish sezilmas edi.

Malik tog'a uyga qaytishdan bir kun oldin shofyorni chetga imlab shunday dedi:



— Topib kelgan kuchugingni endi o'zing yo'qotmasang bo'lmaydi. U na mushuk va na kuchukka o'xshaydi. Katta bo'lib qolsa ham mushukdan qo'rqadi. Yaxshisi, bolalarga bildirmay yo'qotish kerak.

— Husanjon hammayoqni buzib yubormasmikan? — dedi shofyor hayron bo'lib.

— E, qo'yaver, juda bo'lmasa qo'rqmaydigan, aqlliroq boshqa kuchuk toparmiz.

— Undan bo'lsa sahar paytda narigi yaylovga o'tib, cho'ponlarga berib kelaman, — dedi shofyor.

Ana shunday maslahat bilan uyquga yotishdi.

Tun. Yarim kechaga yaqin tog' ortidan ko'tarilgan oy hammayoqni yoritib yubordi. Atrof jim-jit. Bugun bo'rilarning goh-gohida uzoqlardan eshitiladigan ovozi ham yo'q. O'tovda odamlar dong qotib uxlashmoqda, tashqarida esa Yulduz bilan Arslon yonma-yon yotishipti.

Bir mahal Yulduz to'satdan o'rnidan turdi-da, tog' tomonga tikilib qoldi. Buni payqagan Arslon boshini ko'tarib, har yoqqa alanglay boshladi. Yulduz bezovtalandi. Oradan ko'p o'tmay bir bo'ri yugurib keldi-da, kiyikka tashlanmoqchi bo'ldi. G'azablangan Arslon bo'rining yo'lga chiqib, jon-jahdi bilan xura boshladi. Bo'ri tishlarini irjaytirganicha turib qoldi. Lekin it ham, bo'ri ham bir-biriga yaqinlasholmas, olishishdan hayiqar edi.

To'polondan cho'chib uyg'onib ketgan Malik tog'a bilan shofyor o'qlog'liq miltiqlarini ko'tarib, vahima bilan yugurib chiqishdi. Bu paytda Arslon kiyikni quvlab yurgan bo'rining orqasidan chopib, o'tov atrofidan gir aylanar, ovozining boricha vovillar edi. Malik tog'a apiltapil bo'rini nishonga olib otdi. Bo'ri yaralanib quladi. Arslon o'zini uning ustiga tashladi. Shu orada shofyor chopib borib, bo'riga o'q uzdi. Jon talvasasida it bilan olishayotgan bo'ri sulayib qoldi. Arslon bo'ridan chetlab, Yulduzni qidira ketdi. U kiyikning o'tov oldida turganini ko'rib, yugurib keldi-da, g'inshib uni hidlay boshladi.

Bu voqeadan hayratga tushgan Malik tog'a bilan shofyor Arslonga tikiib qolishdi.


— Ana sizga «yuvosh», «qo'rqq» it! — dedi shofyor.

— Kutilmagan voqea! — dedi Malik tog'a xursand bo'lib. — Arslon bunday dahshatli olishishga do'stini himoya qilish uchun tashlangan, ha!

Malik tog'a Arslonning yoniga borib, uni birinchi marta muhabbat bilan erkalay boshladi...

ONA MEHRI

(Ertak)

 tgan zamonda, janub tomonda bir ona-bola yashar ekan, obi-yovg'on oshar ekan. Mehribon ona yolg'iz o'g'lim och tolmasin, yalang'och qolmasin, deb tinim bilmay yugurib-elar ekan, topganini bolasiga berar ekan. Og'ir kunlarda, uzun tunlarda oh-voh chekmay, o'g'lim botir bo'lsin deb, kuch-g'ayratga to'lsin deb orzu qilar ekan.

Qancha yillar o'tipti, yolg'iz o'g'il o'sib o'n yoshga yetipti.

— Arzandajon, yarim chelak suv keltirib berasanmi? — deпти bir kuni onasi.

— O'zingiz keltira qoling, men o'ynagani ketayapman, — deb javob beripti Arzanda.

— Ha, mayli, chirog'im, bolaginam, ardog'im! Hali yoshsan, o'ynab ol, kattaroq bo'lganingda qarasharsan, — deпти rahmdil ona.

Kunlar o'tipti. Bir kuni shunday payt yetipti, ona:

— Arzandajon, ozgina o'tin terib kelasanmi, bolam, ovqatim kechikib ketayapti! — deпти.

— Qo'linga tikon kirib ketsa nima bo'ladi? Kichkina-man-ku, ish buyurasiz menga! — deпти Arzanda.

Ona hayron bo'liпти, chuqur o'yg'a cho'mipti. «Bolam ishyoqmas noshud bo'lsa-ya!» deb g'am chekiпти.



— To'g'ri, hali kichkinasan, kattaroq bo'lganingda, kuchga to'lganingda qarasharsan, — deпти ona va diliga dalda beripti, o'tin tergani o'zi ketipti.

Yillar o'taveripti, vaqt ketaveripti. Arzanda bo'la bo'пти, iligi to'la bo'пти. Ammo mehribon ona kutgani bo'lmapti, ona ko'ngli to'lmapti. Arzanda beg'am va beparvo, anqov va yalqov yigit chiqipti. Sho'rlik ona ko'p tashvish tortipti. Avval nasihat qilipti, yalinipti. O'yinqaroq o'g'liga onaning gaplari ta'sir etmapti, nasihatning nafi yetmapti. Arzandaning bilgani o'yin, yurgani ko'cha bo'lipti.

Oylar o'taveripti, yillar ketaveripti, ona bechora mehnatda tolipti, kuchdan qolipti. Turmush og'ir, yemish qiyinlashib boraveripti.

— Hoy bolam, davlatim, savlatim o'zingsan! — deпти ona nihoyat o'g'liga yolvorib. — Men endi keksayib qoldim, ishlab toldim. O'yinga to'yding, endi mehnatga mehr qo'ygin! Meni ona desang oxirgi gapim shu. Yashashga o'rgan, bo'lmasa och qolasan!

Bu gaplarni eshitgan o'g'li: «Hali sen yegan nonimni ta'na qilayapsanmi, meni og'ir olayapsanmi» deb uydан kētib qolipti.

Ona bechora hayron bo'lib, g'amga to'lib qolaveripti. Kun botipti, tong otipti. Ona o'g'lining qaytishini kutib, ko'chaga ko'z tikib o'tiraveripti. O'g'li esa qaytib kelmapti. Ona qadrin bilmapti. Arzanda boshi oqqan tomonga ketaveripti. Yo'l yuripti, yo'l yursa ham mo'l yuripti. Oxiri qorni ochipti, xayoli qochipti. Charchab bir qishloqqa yetib kelipti. Yegani noni yo'q. Yurgani darmoni yo'q. Noiloj yo'l bo'yidagi bir daraxt tagiga borib o'tiripti, qilar ishin bilmay uzoq o'y suripti.

Kim bilan kimning ishi, har kimning o'z g'ami, o'z tashvishi. O'tgan o'tipti, ketgan ketipti. Arzandani ko'ruchi, holing ne deb so'ruchi kishi chiqmapti. Qorong'i tushipti, Arzandaning eti uvishipti. «Onam yomon bo'lmasa, mehnat qilgin demasa, men uydан ketmas edim, shu holga

yetmas edim» deb xafa ham bo'lipti. Yig'lay-yig'lay tolipti, so'ngra yerga bosh qo'yib, uxlab qolipti.

Ochlik azobi yomon-da. Arzanda tunda uyg'onipti, ilondek to'lg'onipti. Goh yotipti, goh turipti — nihoyat tong otdiripti. Yuz yuvishga erinib, bir choyxonaning oldiga yuviqsiz boripti va nonushta qilayotganlarni ko'riпти. Arzanda anqayib qolipti.

— Ho' bola, buyoqqa kel! — deпти samovarchi. Arzanda suyunib, yugurib yoniga boripti.

— Qorning ochmi?

— Och.

— Yuz-qo'lingni yuvib kel bo'lmasa.

Shu choq Arzanda chopganicha ariqqa boripti. Yuz-qo'lini yuvib, orqasiga qayta qolipti. Samovarchi Arzandaning oldiga non bilan choy qo'yipti.

Uyda onasini yalintirib ovqatlanadigan. Arzandaning ishtahasi ochilib ketipti: har burdani ikki yamlab bir yutipti. Hash-pash deguncha bitta non tomog'idan o'tipti-ketipti.

— Sen menga yordamchi bo'lasanmi? — deb so'rapti samovarchi.

— Bo'laman.

— O'tin yorishni bilasanmi?

— Bilaman.

— Yaxshi. Bo'lmasa mana, boltani ol, ana u o'tinlarni samovarbop qilib yor.

Qorni qappayganidan suyungan Arzanda bir paliyon chayir o'tinni tik qo'yipti-da, shoshib zarb bilan bolta uripti. O'tin bir yoqqa, bolta ikkinchi yoqqa uchib ketipti. Odamlar kulib yuboripti. Uyalganidan izza bo'lgan Arzanda ikkinchi gal boltani mahkam tutipti, mo'ljallab qattiq uripti. Qayishqoq o'tin boltani qimchib qolipti. Ish bilan pishmagan noshud Arzandaning kallasi shishipty. Boltani chiqarolmay terga tushipty. Uripty-uripty, bolaning darmoni quripti. Bir paliyon o'tin yorilmay, uning qo'li qavaripti, shiliniб, achishipty.



O'tinning quruq-ho'li bor. Har ishning o'z yo'li bor. Uni bilmagan Arzanda ko'ziga yosh olipti, kaftiga tikilib, turib qolipti.

— E, tozayam noshud bola ekansan. Senga rahmim kelgan edi, qo'y, boshqa tirikchiligidan qolma! — deпти oxiri samovarchi.

Arzanda boshini qashlab, ko'zini yoshlab yo'lga tushipti. Yana sarsonlik-sargardonlik, ko'chama-ko'cha yurish, ish qidirish boshlanipti... Kun botipti, tong otipti. Nihoyat Arzanda yangi ish topipti. Bir dehqonga o'roqchi bo'lipti. Ehe, ko'zga oson ko'ringan o'roq, qo'lga qiynoq bo'lipti. Bir bog' beda o'rmay beli, bilaklari tolipti. Xomsemiz Arzandaning hammayog'i og'rib qolipti. Lekin uyat o'limdan qattiq — tirishipti, tirmashipti. Baribir ishi unmapti, o'rishni bilmapti.

— E, bola bechora, — deпти rahmi kelgan dehqon. — Qo'y buni, boshqa ish topgin, o'z no'noqligingni yopgin.

Arzanda daladan ketipti, ko'chama-ko'cha kezipti, xo'rlanib ezilipti. Uning kiyimlari to'zipti, o'zi cho'pdek ozipti. Arzanda haddan oshiq toliqipti, oxiri ko'chada bir boyga yo'liqipti.

— Ishlaysanmi? — deb so'rapti boy.

— Ha, ishlayman.

— Dangasa emasmisan, oz ishlab, ko'p ber demasmisan?

— Yo'q.

— Isming nima?

— Arzanda.

— Meni boy ota deydilar. Tushundingmi? Qani, yur orqamdan.

Arzanda boyga ergashipti. Boy saroyida ish ko'p ekan, xizmatkorlarga tinim yo'q ekan. Arzandaning ahvoli ham shunday bo'lipti. «Arzanda, o'tin yor, Arzanda, terit qor, Arzanda, tappi yop, Arzanda, suvga chop» degan topshiriqlar, «Arzanda, otni ol, Arzanda, chilim sol, Ar-

zanda, qor kura, Arzanda, o'choqqa qara» degan buyruqlar tinkasini quritipti: u boy xizmatiga chidayolmapti.

Nihoyat Arzanda o'z xatosini anglapti, onasini eslab, uzun kunlar, qora tunlar oh tortib, achchiq-achchiq yig'lapti. Shu alpozda oradan ikki yil o'tipti. Arzandaning qorni nonga to'ymapti, boy bo'lsa ketishga aslo yo'l qo'ymapti.

Buning ustiga boyning: «Arzanda! Nega sigir bugun oz sut beripti? Nima uchun suti suyilib qolipti? Yaxshi qaramapsan, artib-surtib taramapsan!» deb jozalaganini ayting.

Bunday kezlarda Arzandaning yolvorishi yordam bermas ekan, boyning rahmi kelmas ekan. Boy qamchisi osmonda o'ynar ekan, bolani qiynar ekan. Arzanda og'riqqa chidamay dod solar ekan, so'ngra charchab uxlab qolar ekan.

«Arzandajonim, senga nima bo'ldi? Ranging ochilmay so'ldi» deb onasi so'rar ekan, orqalarin silar ekan. «Xafa bo'lma chirog'im, yolg'izginam, ardog'im», deb o'par ekan, bola ko'nglin topar ekan.

Arzanda uyg'onsa, ko'rganlari tush bo'larkan, xayoldagi qush bo'larkan. Lekin uning orqasidagi qamchi izlarida og'riq sezilmay qolarkan.

Arzanda o'rnidan turarkan, yana avvalgidek yugurarkan-elarkan. Charchab ochin-to'qin uxlab qolarkan. Tong otarkan. Yana ish-yugurish, xo'rlik, so'kish... Arzandaning toqati tamom bo'lipti, rangi somon bo'lipti. Oxiri pichoq suyakka yetipti, boy hovlisidan qochib ketipti.

Ammo yo'l bilmas yayov yigit tunda tentirapti, sovuqda qaltirapti. Zimistonda yo'l ko'rmay, yurar joylarni bilmay, daraxtlarga urinib, shox-tikonga surilib, yuz, oyog'in qon qilipti, o'z holini tang qilipti.

Nima qilsin bechora, qochmoqdan o'zga yo'q chora. Shuning uchun Arzanda jon alpozda qochipti, ariq demay, suv demay, o'ziga yo'l ochipti. O'tirmapti — yurip-



ti, charchash bilmay yuguripti. Onamni ko'ray deпти, diydoriga to'yayo deпти, holini so'ray deпти.

Arzanda endi ko'p narsani bilarkan, to'g'ri ishni qilarkan, u qo'rqqoq ekan, ona mehri bilan botir bo'пти. Ona mehri unga yurak bo'пти, orzu-tilak bo'пти. Arzanda tunda turipti, tutqinlikka qarshi yuripti, boy yumushidan ona ishini aziz biliпти. Shu sababli Arzanda oyoqyalang, boshyalang, tunda to'xtamasdan go'yo uchiпти, shamol kabi ko'chiпти. Uning tilagi — tezroq borib, onasini ko'rish, «mehribonim onajonim» deb holin so'rish. Shuning uchun Arzanda qo'rquv nima — bilmapti, charchashni-chi, nazarpisand qilmapti. Mana, qancha bog', dala, qancha-qancha anhor, qancha chorbog' orqada qolipti.

Nihoyat tong yorishiпти. Arzanda battar shoshiпти. Yuguripti — yeliпти, qishlog'iga kirib keliпти. O'z uyiga yaqin boripti, entikib nafas oliпти. Birdan uning o'pkasi to'liпти, xo'rliги keliпти, shoshib darvozani qoqa boshlapti.

«Onajon!» deb qichqiripti, tomog' yirtib chaqiripti. Eshik birdan ochilib, ona emas, xola g'amgin chiqipti, Arzandani quchoqlab dard bilan oh uriпти.

Afsus, endi ona uyda yo'q ekan, hayotdan uzoq ekan. Jonkuyar ona Arzandani axtarib, qancha uylarga kirib, ko'p qidiripti, ko'p yuripti. Hech qayoqdan topolmapti, kuch-madori qolmapti. Oxiri achinib, g'am chekib qon yig'lapti, keksa bag'rin tig'lapti.

Farzand dog'i, g'am yuki onani ado qilipti, achchiq-achchiq yig'lashlar ko'zidan judo qilipti. Ko'r ona uzoq yotipti, oh-vohlab yerga botipti.

Arzanda buni bilmas ekan, uyda ona yo'qligini xayoliga keltirmas ekan.

— Xolajon, onam qani? Ayting, tezroq ko'rayin, diydoriga to'yayin! — deпти Arzanda shoshib, hovliqib, to'libtoshib.

— Onang olamdan o'tdi, seni ko'rolmay ketdi... Bolamga deb yemay, ichmay yiqqanlarini qutichaga soldirdi,

so'ng senga atab, vasiyat bilan qoldirdi. Oz demay olarkansan, tiriklik qilarkansan. — Xola bu so'zlarni aytarkan, qaltirab yerga boqdi, qayg'uli ko'zlaridan duv-duv yoshlar oqdi.

Arzandaning qalbini bir nima ezib ketdi, chang solib, uzib ketdi. Xolasi davom etdi, ona vasiyatini bayon etdi: — Onang sho'rlik shunday dedi: «Bolam meni sevsan, ayting, mehnatni sevsin, mehnat qadrin yaxshi bilsin. Shundagina xor bo'lmaydi, hech kimsaga zor bo'lmaydi».

Birdan Arzanda boshini ko'tarip, qaltirap, o'rtanip, hayajonga tushib shunday deпти:

— Onajonim! Aytganlaringni qilaman! So'zlaringni muqaddas deb bilaman!..



good



Mahmud **MURODOV**

(1916—1996)

Kichkintoylar adabiyotining taniqli vakili Mahmud Murodov 1916- yili Toshkentda tug'ilgan.

«Maktabda o'qib yurganimda, — deb eslaydi adib, — «Olmazor» mahallasi choyxonasida gazetalar o'qib berardim. Marhum Bahrom Rahmonov bilan to'garak tuzib, «Mergancha» mahallasidagi klubda tomoshalar ko'rsatardim».

Bo'lajak adib dastlab Toshkentdagi 9-, 17-bolalar uylarida tarbiyachi bo'lib ishlaydi. Kichik-kichik hikoya va lavhalari bilan jurnallarda faol qatnashadi.

1955- yildan «Gulxan» jurnalida mas'ul kotib, 1958- yildan umrining oxirigacha «G'uncha» jurnalida mas'ul kotib lavozimida bolalar adabiyotining ravnaqiga xizmat qiladi.

M. Murodovning hikoya va ertaklari maktabgacha yoshdagi bolalarga bag'ishlangani bilan ajralib turadi. «Yaxshi amaki» (1965), «Eng maza joy» (1969), «Bog'cha bola» (1971), «Ko'prik» (1973), «Kim eng kuchli» (1976), «Sanoq» (1980), «Sirli don» (1987) kabi kitoblari shu jihatdan ibratlidir. Yozuvchining talay asarlari shaklining ixchamligi, syujetining qiziqarli voqealar asosiga qurilishi, tasvir uslubining badiiy soddaligi bilan diqqatni tortadi.

Mahmud Murodov 1996- yilda vafot etgan.

YAXSHI AMAKI

Sobit opasi Karomat bilan xolasinikiga bordi. Xolasiniki kolxoz bozorining yonginasida. U yerda yashil, ko'k rangga bo'yalgan chiroyli do'konlar ko'p. Sobitning dadasi oltinrang olma, qip-qizil pomidor, sersharbat shaftoli, asal qovunlarni shu yerdan sotib olib keladi. Bir gal dadasi Sobitni ham bozorga olib borgan.

Mana bugun ham Sobit bozorga chiqdi.

Xolasining: «Karomatoy, ko'k piyoz keltirgin», deganini eshitdi-yu, Sobit men ham boraman, deb xarxashaga tushdi.

— Qo'lingni ber, — dedi Karomat yo'lda ketishayotganda, — adashib qolasan.

— Adashsam nima bo'ladi? — so'radi Sobit.

— Nima bo'ladi? Militsioner olib ketadi.

Sobit xuddi hozir militsioner olib ketadiganday, opasining qo'lini mahkam ushlab oldi.

Dam olish kuni bo'lgani uchun bozor juda gavjum edi. Karomat do'kon yonidagi bir ustun oldiga kelganda: «Sen shu yerda tur, do'kon oldida oyog'ingni bosib olishmasin», — dedi-da, o'zi piyoz olib kelgani ketdi. Qaytib kelib qarasa, Sobit yo'q. Yig'lamoqdan beri bo'lib qidirishga tushdi.

Sobit uzoqdan ko'ringan ko'k, qizil, sariq sharlar oldiga qanday borib qolganini o'zi ham sezmedi. U avvaliga uyoq-buyoqqa javdirab qaradi. Ko'zi militsionerga tushib qolib: «Opa, Karomat opa!» — deb yig'lab yubordi.

— Nega yig'layapsan, yaxshi bola? — deb so'radi bir yo'lovchi xotin. Sobit yana «opalab» yig'layverdi.

— Opang qani?

— Opam adashib qoldi.

Bir kampir sumkasidan bitta pecheniy olib uzatdi. Sobit olishga oldi-yu, lekin yemadi, yig'layverdi.

— Uying qayerda, bolam? — so'radi kampir Sobitning boshini silab.



- Uyimiz uyimizda.
- Oting nima?
- Sobit.
- Kimning o'g'lisan?
- Dadamlani, oyimlani.
- Dadangni oti nima?
- Obid aka.

Shu payt militsioner kulib Sobitga yaqinlashdi. Sobit qo'rqqanidan yana «opalab» baqirdi.

— Iye, Sobitjon, — dedi militsioner xuddi tanishday, — yur, uyingga olib borib qo'yay.

Sobit qo'rqqanidan hiqillab yig'ladi.

— Yo'-o'q, opa!

— Voy, Sobitjon, men dadangning o'rtoq'iman-ku, yur.

Sobit ishonar-ishonmas qo'lini cho'zdi. Militsioner uni yetaklab katta oshxona yonidagi xonaga olib kirdi. Xonada yana ikki bola bor edi. Pastakkina stolda suratli kitoblar, bir tomonda o'yinchoq ayiqcha. Ko'k ko'ylakli opa Sobitni xuddi ukasiday kutib oldi. U bitta mashinani burab-burab qo'yib yuborgan edi, mashina yurib ketdi. Sobit hamma narsani unutib, mashina ketidan do'mbillab yugurdi.

Hozirgina chiqib ketgan militsioner uchta somsa ko'tarib kirdi-da, bolalarga ulashdi. Bittadan konfet ham berdi. Keyin telefonda gaplashdi. Qo'lidagi trubkaga: «Dejurniy? Sobit, Obid», — deb nimalarnidir gapirdi.

Bir mahal telefon jiringlab qoldi. Ko'k ko'ylakli opa trubkani oldi-da: «Allo — allo, salom! Ha, ha, shu yerda, keling», — dedi.

Oradan ko'p o'tmay, eshikdan Obid aka kirib keldi. Sobit yugurganicha borib adasini quchoqladi.

— Seni bu yerga kim olib keldi? — deb so'rai dadasi, o'g'lini bag'riga bosarkan.

Sobit jilmayib turgan militsionerni ko'rsatdi. Adasiga konfetini ham ko'z-ko'z qildi.

— Oho, amaking seni yaxshi ko'rar ekan-ku!




Obid aka militsionerga, ko'k ko'ylakli opaga rahmat aytib Sobitni olib ketdi.

Uyga kelishganda Karomat xayol surib eshik oldida turardi.

— Opavoy, — dedi Sobit, — militsioner amaki yaxshi ekan-ku!

Shu-shu Sobit militsionerlarni qachon ko'rsa: «Assalomalaykum, yaxshi amaki!» — deydigan bo'ldi.

BOG'CHA BOLA

yisi bog'chaga yetaklab borib, ishiga ketayotganda Shukurjon yig'lab qoldi. Kichik gruppada tarbiyachisi Mo'tabar opa uni zo'rg'a ovutdi. Shkaflarga terib qo'yilgan o'yinchoqlarni, oppoq choyshablar to'shalgan karavotlarni, arg'imchoq, innana va boshqa narsalarni ko'rsatdi.

Shukurjon avvaliga tortinib turdi, keyin qum o'ynayotgan bolani ko'rib, yugurganicha uning oldiga bordida, kurakcha bilan qum olib, o'yinchoq yuk mashinani to'ldira boshladi.

Shu payt Mo'tabar opa hamma bolalarni yuvinadigan xonaga olib kirdi. Qo'llarini yuvdirib, artirdi. Shukurjon durustroq yuvina olmagan edi, Mo'tabar opa yordamlashdi.

— Voy, anavi bolani, o'zi yuvinmas ekan, — dedi Karima boshqa bolalarga ko'rsatib.

Keyin yemakxonaga kirishdi. Pastgina stollar yonidagi kichik-kichik stulchalarga o'tirishdi.

Oshpaz xola juda ham mazali shirguruch pishirgan ekan.

Hamma bolalar qo'llariga qoshiqni olib, shirguruchni yeya boshlashdi.

— Sen nega yemay o'tiribsan? — deb so'radi Mo'tabar opa Shukurjondan.

— Ko'ylagimga tomib ketadi, — dedi Shukurjon labini cho'chchaytirib.

— Uyda nima qilarding?

— Uyda oyimla... — dedi Shukurjon.



Buni eshitib, hamma bolalar kulib yuborishdi. Karima hammadan ko'proq kuldi.

Mo'tabar opa Karimaga qaradi:

— Karima, kulma, yaxshi emas. Birinchi kuni kelganingda sen ham bilmasding, esingdami?

Mo'tabar opa Shukurjonga qoshiq ushlashni, ovqatni taqsimchadan qanday qilib olishni ko'rsatdi. Uning qo'llarini to'g'rilab turdi. Oxiri:

— Endi sen bog'cha bola bo'lding. Ovqatni o'zing yeya bilishing kerak. O'rtoqlaringni ko'rdingmi, sendan kulishyapti, — deb qo'ydi.

Oradan ikki-uch kun o'tdi.

Buvisi endi ovqatni suzib dasturxonga keltirib qo'yganda, Shukurjonning oyisi ishdan keldi. U darrov yuvinib-artinib, Shukurjonni o'pdi-da, unga ovqatini yedirib qo'ymoqchi bo'ldi.

— O'zim, — dedi Shukurjon qo'lini qoshiqqa cho'zib.

— Hammayog'ingga tomizasan, — dedi onasi.

— Yo'q!


Shukurjon ovqatni yeb bo'lganda ko'ylagida bitta ham dog' ko'rinmadi.

— O'zim aylanay sendan, — dedi onasi, — katta bola bo'lib qolibsanku!

Shukurjon mag'rur javob qildi:

— Endi men bog'cha bolaman.

DALA XUNUK BO'LIB QOLADI

 ndi maza. Tohirjon bilan Sobirjonning dadasi ham, oyisi ham haftada ikki kun dam olishadi. Ularni har qayerlarga olib borishadi.

O'tgan shanbada ular juda vaqtli uyg'onishdi.

— Qani, tezroq kiyininglar, dalaga borib dam olamiz, — dedi dadasi ularga.

Dadasining ishxonasidan avtobus jo'nar ekan, Sobirjon bilan Tohirjon va boshqa bolalar atrofni tomosha qilib

ketishdi. Uzoq yo'l yurgach, nihoyat avtobus to'xtadi. Odamlar anhor bo'yidan joy olishdi. Hammayoq ko'm-ko'k maysa, g'ir-g'ir shabada, bir yoqda hayqirib suv oqyapti. Ba'zan suv betiga oltin baliq sakrab chiqadi. Tohirjon bilan Sobirjonning oyisi tanlagan joydagi daraxtda qandaydir bur qush tinmay sayraydi. Sobirjon qidiradi-yu, topolmaydi.

— Bulbul sayrayapti. U juda kichkina bo'ladi, — dedi dadasi.

Bolalar yugurishdi, dumalab o'ynashdi. Hammayoq ularga shunday go'zal ko'rindiki, asti qo'yaverasiz.

Sobirjon oyisiga, Tohirjon dadasiga guldasta terib kelishdi. Dadasi «rahmat» dedi-yu, guldastani oyisiga uzatdi:

— Qalay, dala yaxshi ekanmi, yoqdimi? — so'radi oyisi Sobirjondan.

— Juda ham chiroyli ekan!

Kechqurun uyga qaytish oldida Tohirjon o't oralarida yotgan qog'oz parchalarini, shokolad zarlarini, tuxum po'choqlarini terib ola boshladi. Akasining ishidan Sobirjon hayron bo'ldi.

— Terib nima qilasiz? Hozir ketamiz-ku.

— Qiziq ekansan-ku, — dedi Tohirjon. — Terib olmasa, dala xunuk bo'lib qoladi. Bog'cha bolasi bo'la turib shuni ham bilmaysanmi?

Sobirjon ham akasiga yordamlasha ketdi.

SENING GALING

Totima bilan Zuhrani taniysizmi? Ikkovi ham juda yaxshi kiyinib, toza yuradi. Chunki oyisi Bashira xola ularni har kuni yuvib-taraydi, dadasi keltirgan guldor, chiroyli matolardan bejirim kiyimlar tikib beradi. Qo'ng'iroq sochlariga qip-qizil lenta bog'laydi.

Bu lentalar xuddi gulga qo'ngan kapalaklarni eslatadi. Lekin...

Nima bo'ldi-yu, tayg'anoqda Bashira xola zinadan yiqilib tushdi. Voy-voylab oyog'ini ushlaganicha o'tirib qoldi. Uni avaylab uyga olib kirishdi. «Tez yordam» mashinasini chaqirishgan edi, u Bashira xolani kasalxonaga olib ketdi. Ona ancha kundan keyin qaytib keldi, oyog'i gipslangan, doka bilan chirmab bog'langan edi. Uni karavotga yotqizib qo'yishdi. «Gipsni bir oydan keyin olib tashlaymiz», deyishibdi doktorlar.

Bechora Bashira xola o'rnidan zo'rg'a turadi, zo'rg'a o'tiradi, zo'rg'a yotadi. Yotgan joyida Fotima bilan Zuhra-ning sochlarini taraydi, lentasini bog'lab, bog'chaga qo'g'irchoqdek qilib yasantirib yuboradi.

Bir kuni Bashira xola Fotimaning paypog'ini sizilgan joyini to'qib berayotgan edi, g'altak ipi pastga tushib ketdi.

— Ipni olib beringlar, — dedi Bashira xola qizlariga.

Bu payt Fotima bilan Zuhra kubiklardan alohida-alohida uy qurib o'tirishgan edi.

— Sen olib ber, sening paypog'ing, — dedi Zuhra.

— Sen olib ber, sening galing, — dedi Fotima. — Hali «suv» deganlarida men quyib berganman.

— Yo'q, sening galing!

— Yo'q, sening!

Fotima bir urib Zuhra-ning uyini buzib yubordi.

— Sening galing!

Zuhra ham yig'lab turib, Fotimaning uyini bir tepdi.

— Bor, bor, sening galing!

Bular janjallashib bo'lguncha Bashira xola inqillab-sinqillab karavotdan tushdi-da, ipni olib ishini davom ettirdi.

KAPALAK

Bahromjonning tili biyron chiqqan bo'lsa ham, hali ko'p narsalarning otini bilmasdi. Bir kuni u yugurib uyga kirdida, Bahodir akasining qo'lidan tortqilay boshladi. Menga ham yopishdi. «Yuringlar, kattakon kapalak».

Hovliga chiqdik. Yo'lakda bir chumchuq bola yotardi. Inidan tushib ketibdi. Og'zini kappa-kappa ochadi. Olib qaragam, bir oyog'i singan. Bahodir ikkimiz vrachlik qildik. Qushchani singan oyog'iga qog'oz o'rab, ip bilan yaxshilab bog'lab qo'ydik. Go'yo taxtakachladik. Iniga qo'yaylik desak, bo'g'otning ichiga qo'l sig'maydi. O'z aqli bilan kirib ketmaydi. Tag'in mushukka yem bo'lmasin, deb botinka qutichasiga solib, uy tokchasiga qo'ydik.

Bahodir pashsha tutib berdi. Bahromjon non uvoq bilan mehmon qilib turdi. Qushcha kundan-kun o'sib, qutichadan chiqib, uy aylanadigan bo'lib qoldi. Ba'zan ona chumchuqning ovozi eshitib, chirqillab qo'yadi. Bahromjon esa kapalak gapiryapti, deb sevinchi ichiga sig'maydi.

— Kapalak emas, chumchuq, — deb qo'yadi akasi.

Bir kuni oyog'ini yechsak, yarasi bitibdi. Ikki-uch kundan keyin esa, pirillab uchadigan, o'zini derazaga uradigan, tinimsiz chirillaydigan bo'lib qoldi.

— Uchirib yuboramizmi chumchuqni? — deb so'radi Bahodir ukasidan.

Bahodirjon ko'nmadi:

— Kerakmas, kerakmas! Chumchuqni uchirmayman, — deb turib oldi.

Men, ular qanday to'xtamga kelishar ekan, deb indamay turdim.

Bahodir bir oz turgach, so'z boshladi:

— Bir bola bor ekan. Yiqilib tushib, oyog'i sinibdi. Uni kasalxonaga olib borishibdi, oyog'i tuzalgandan keyin ham doktorlar uni uyiga yuborishmabdi, shundan keyin bola ertayu kech yig'layveribdi.

Shu yerga kelganda Bahodir bir oz to'xtadi-da, keyin so'radi.

— Bilasanmi, nega yig'lagan?

— Uyiga yuborishmagani uchun yig'lagan. Adasini, oyisini sog'ingan, — javob qildi Bahromjon.

— Topding, — dedi Bahodir, — biz vrach bo'ldik. Chumchuqning oyog'ini tuzatdik. Endi u adasi bilan oyisini sog'inib yig'layapti. Ushlab o'tiraveramizmi?



Bahromjon bir oz ikkilanib turdi-da:

— Qo'yib yuboramiz, — dedi.

Chumchuq bola derazadan chiqib, gilos shoxiga qo'ndi, keyin pastga qarab bir-ikki chirqilladi-da, uchib ketdi.

— Chumchuq nima dedi? — so'radi Bahromjon.

— Bahromjon akamga rahmat! — deb aytdi.

Bahromjon irg'ishlab qichqirdi.

— Rahmat! Rahmat!

XIRA

Maymunjon tergani ukam Rasuljon bilan soy bo'yidagi chakalakzorga bordik. Ancha ichkarilikka kirganimizda bir ola hakkaning iniga duch keldik. To'rtta bolasi bor ekan. Usti parli. Kalla va panjalari gavdasiga nisbatan beso'naqay, katta. Ular ukamning ko'ziga juda g'alati ko'rindi shekilli:

— Aka, bittasini olsam maylimi? — deb so'radi.

— Nima qilasan?

— Boqaman.

— Qo'ysang-chi!

— Ola qolay!

— Boqolmaysan, o'ldirib qo'yasan.

— Yaxshilab boqaman, o'rgataman:

Ukam aytganidek hakka bolasi uyga o'rganib qoldi. Hak-kang-do'kkang qilib yurib ham ketdi. Ukam bo'lsa chigirtka deysizmi, pashsha deysizmi, topgan narsasini uning og'ziga tiqadi. Uch-to'rt marta go'sht kesib berganini ham ko'rib qoldim. Hakka bolaning ishtahasi shunday karnay bo'lib ketdiki, asti qo'yaverasiz. Uni sira to'ydirib bo'lmaydi. Hali mening yonimga, hali ukamning yoniga borib ko'zini lo'q qilib turgani-turgan. Chag'illab ovqat so'raydi.

Hakka bola keyingi paytlarda yana bir qiliq chiqardi. Oyim ovqat qila boshlasalar, hali uyoqdan-hali bu yoqdan kelib, to'g'ri kelgan narsani olib qochadigan bo'lib qoldi. Bir qarasangiz, kastyulkaning qopqog'ini ochib ketadi, bir qarasangiz, qoshiq olib qochadi.

Bir kuni qo'shnimiz Risolat xola devor orqasidan qichqirib qoldi:

— Rasuljon, hakkangni olib chiqib ket! Hammayoqning to's-to'polonini chiqarib yubordi.

Rasuljon yugurib chiqib, hakkani ko'tarib keldi. Uning tumshug'ida bir tishlam go'sht bor edi.

— Qozonga solayotgan yerlarida cho'qib olibdi. Oz bo'lmasa, o'zi ham tushib ketay debdi qozonga, — dedi Rasuljon kulib. Gappa dadam aralashdilar:

— Bu xirani boqishning nima keragi bor? Yaxshisi, uyasiga eltib qo'yinglar.

Biz shunday qildik.

BAROQ

Hakimjonga Salimjonning mushukchasi yoqib qoldi. O'zi moshrang, baroq, botinka ipi bormi, shamol uchirgan qog'ozu pat bormi, hammasi bilan o'ynashaveradi. Orqasini silasang, ko'zlarini yumib, xurрак otadi. Jim tursang, erkalanib, oyoqlaringga suykalanadi.

Bir kuni Hakimjon o'ynashib, Baroqning qornini qitqilayotgan edi, u Hakimjonning qo'lini sal tirnab yubordi. Hakimjon shunday urdiki, jonivor miyovlaganicha derazadan sakrab qochdi. Shu-shu, Baroq Hakimjonni ko'rsa qochadigan bo'lib qoldi. Na go'sht ko'rsatib chaqirganiga qaraydi, na shirin non berganiga keladi. Hakimjon uyda bo'lsa, Baroq xonaga kirmaydigan bo'ldi. Mo'ralaydi-yu, qochadi. Keyin butunlay g'oyib bo'ldi.

Dam olish kunlaridan birida, Hakimjon Salimjonlarnikiga chiqqan edi. Uni ko'rgan mushuk qochib, shkafning tagiga yashirindi.

— Iye, — dedi Salimjon, — mushugim sendan arazlaganga o'xshaydi. Xafa qildingmi?

Hakimjon nima deyishini bilolmadi.

Salimjon borib mushukka bir tishlam non uzatdi. Mushuk shkaf ostidan chiqqan edi, tutib oldi, orqasini siladi.



Hakimjon ham silamoqchi bo'lgan edi, Baroq avvaliga tippirchilab qochmoqchi bo'ldi. Keyin jim bo'ldi. Hakimjon Baroqning qulog'iga shivirladi:

— Baroqjon! Meni kechir! Seni bekorga qattiq urib qo'yibman. Endi sira-sira urmayman.

Baroq «kechirdim» degandek Hakimjonning qo'lini biryaladi-da, ko'zini suzib, xurрак otishga tushdi.

GULDOR

U kam Jambul ko'chadan yig'lab keldi.

— Nima bo'ldi? — so'radim undan.

— Urishvotti!

— Kim?

— Bolala, — dedi u. — Yuring, ko'chaga!

— Ko'chada nima qilamiz. Uyda o'tir! Kitob beraman.

— Yo'q, o'ldirib qo'yishadi?

— Nimani o'ldirib quyishadi?

Jambul javob o'rninga qo'limdan tortdi.

Ko'chaga chiqdik. U jarlikka sudradi. Bordim. Qarasam, Jambuldek yosh bolalar besh-olti qadam naridagi kichkina kuchuk bolani kesak-bo'ron qilish-yapti. Kuchuk ingillar, bolalar esa «meniki tegdi, meniki tegdi» deb chuvillashardi.

— O'ldirib qo'yishadi, — dedi yana Jambul.

Bolalarni to'xtatdim. Jambul yugurib borib kuchuk bolani oldi. Hali ko'zi ochilmagan ekan, peshonasida gulga o'xshagan qashqasi ham bor. Uyga olib keldi. Uch-to'rt kun deganda ko'zi ochildi.

Jambul besh-o'n kungacha sut berib boqdi. Kuchuk do'mboqqina bo'lib o'sa boshladi. Jambulning ovozi eshitib, uning oldiga yuguradi. Oyoqlari chalishib, o'mbaloq oshib tushadi. Ingichka ovoz bilan «av-av»lab Jambulning oyoqlariga suykaladi. Jambul ham uni erkalatadi. Bog'chadan ataylab olib kelgan shokolad, konfeti bilan mehmon qiladi. Buvisi bergan pirojniydan ham kuchugiga tashlaydi.

O'zicha kuchukchaga Guldor deb ot ham qo'yib oldi. Bu voqeaga ancha bo'ldi.

Hozir Guldor katta bo'lib qolgan. Ovozi ham yo'g'on. Hovlimizning sodiq qorovuli. Tiq etgandan xabardor. Ko'chadan biror kishi qo'ng'iroqning tugmasini bossa, Guldor hammadan oldin eshitib, vovillaydi. Oilamizdagi hamma-hammani taniydi. Ayniqsa Jambulni juda yaxshi ko'radi. Qani bir kishi Jambulga tegib ko'rsinchi!

Agar Jambul ko'chada yoki maktabda paytida «Jambul» deb qo'ysak, Guldor qulog'ini ding qiladi-da, ko'chaga qarab yuguradi.

O'tgan yozda Akbar amakim ko'chib ketdi. Jambul bir necha marta Guldorni ergashtirib, ularnikiga borib-kelib yurdi.

Bir kuni juda qiziq bo'ldi. Oyim Jambulni chaqirib: «Kostyumingni kiy, Akbar amakingnikiga borib kelamiz», — dedilar.

Guldor bir narsaga tushunganday qulog'ini ding qildi-da, ko'chaga yugurdi. Amakimnikiga borishsa, kelin oyim eshikda turganmishlar.

— Kelinglar, kelinglar! Anchadan beri eshikda kutib turibman sizlarni. Uyingizdan xabarchi keldi, — debdilar.

— Kim keldi? — so'rabdilar oyim.

Oyimning ovozlari eshitishi bilanoq Guldor hovlidan yugurib chiqibdi.

— Voy, jonivor-ey, xabarchi senmiding? — debdilar oyim.

Ko'rdingizmi? Bizning Guldor shunaqa.

QO'SHNILAR

Karima bilan Salima yon qo'shni, yaxshi o'rtoq. Kechqurunlari hammavaqt birga o'ynab yurishadi. Lekin har kuni bir marta g'ijillashib ham olishadi.



Karima bilan Salima goho oldinma-ketin, goho baravariga ko'chadagi yo'lkani supurgani chiqishadi. Salima o'z eshigi oldini supuradi-da, Karimalarning chegarasiga yetganda, supurindini bir joyga to'plab qo'yadi. Ana shundan keyin g'iji-g'iji boshlanadi.

— Nega axlatni biz tomonga supurib qo'yding? — deydi Salima. — Olib tashlasang nima qiladi?

— Nega endi sening supurindingni men olar ekanman, olib bo'pman, — deb javob qiladi Karima.

Yana bir zum o'tmay apoq-chapoq bo'lishadi-da, o'yinga alahsib ketishadi. Supurindi joyida qolaveradi.

Biz uch-to'rt aytdik, bo'lmadi. «Birovning ishini qilib menga zarur kelgani yo'q», — deydi ikkovi ham.

Bir kuni tong saharda turdim. Katta supurgini olib ko'chaga chiqdim. Karima bilan Salimalarning eshigi oldini supurib, axlatini olib tashladim. Suv sepdim. Keyin nima bo'larkin, deb derazamizdan kuzatib turdim.

Bir mahal Karima supurgisini ko'tarib chiqdi-da, yo'lkani ko'rib, hayron qolganday yelkasini qisdi. Kelib Salimalarning hovlisiga mo'raladi. Keyin jilmayganicha uyiga kirib ketdi.

Oradan ko'p o'tmay Salima ham chiqdi-da, supurgisini ushlaganicha angrayib qoldi. Ular nonushtadan keyin ko'chaga chiqishganda Karima Salimaga minnatdorchilik bildirmoqchi bo'lib turuvdi, Salima undan oldinroq gap boshladi:

— Rahmat, o'rtoqjon. Endi ertaga men supurib qo'yaman, xo'pmi?

— Voy, o'zingga rahmat! — dedi Karima. — Ertaga mening navbatim bo'ladi. Galma-galdan tozalayveramiz.

— Yashirmay qo'ya qoling. Ertaga mening galim, — dedi yana Salima.

Karima bu Salimaning ishi deb o'ylasa, Salima uning aksini xayol qilardi.

Qarasam, yana g'ijillashadigan. Ko'chaga chiqdim. Gapga aralashmasam bo'lmadi.


— Men xolis kishiman, aytganimni bajarsanglar aytaman, — dedim.

Qizlar rozi bo'lishdi.

— Meniki, senikilamay birgalashib tozalayveringlar. Ko'chada axlat qolmasin. Uyat bo'ladi, — dedim.

Shu-shu ish yurishib ketdi. Yo'lka ham toza, axlat ham qolmaydi, g'ijillashish ham yo'q. Ko'chani tozalashga sarflangan uch minutlik mehnatim bekor ketmadi. Qizlar hanuzgacha dastlab kim supurganini bilishmaydi. Men aytganim yo'q. Aytmoqchi ham emasman.

BO'LIB YEYISHDI

 iroat opa ishdan qaytganda qizchasi Odila eshik oldida o'ynab yurgan edi. U yugurib borib, onasini quchoqladi. Ona Odilaning peshanasidan o'pdi. Sumkasidan uch dona konfet ham olib berdi.

— Hammasi o'zingami? — deb so'radi Odila.

— Ha, o'zingga, — dedi Ziroat opa.

— Yo'q, o'zingamas. Bo'lib yeymiz.

Uyga kirganda Odila konfetlarni buvisiga berdi.

— Buvijon, bo'lib bering!

Buvisi:

— Mana bular senga, — dedi-da, ikkita konfetni Odilaga uzatdi. — Mana bu bittasi Sobir akangga.

— Yo'q, bunaqayamas, — dedi Odila.

— Bo'lmasa ikkitasini akangga bera qol, — dedi buvisi.

— Bunaqayamas, — dedi Odila yana kuyunib.

— Qanaqa qilib bo'lay, o'zing ko'rsata qol!

Odila hamma konfetni qo'liga olib, bittasini buvisiga, bittasini akasiga berdi. Birini o'zi olarkan:

— Ana shunaqa bo'ladi, — dedi-da konfetini og'ziga soldi.



Habib PO'LATOV

(1920—1989)

Habib Po'latov 1920- yilning 20- fevralida Toshkentning hozirgi Qatortol dahasida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Bo'lajak yozuvchi Toshkent pedbilim yurtini bitirib, 1940- yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining o'qituvchilar tayyorlash bir yillik kursiga kirib o'qiydi. Toshkent va Qashqadaryo viloyati maktablarida muallimlik qiladi. 1961- yilda G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyotiga muharrirlikka ishga kiradi. Umrining oxirigacha mazkur nashriyotda muharrir sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Habib Po'latov birinchi maqolasini 1939- yilda chop ettirgan bo'lsa ham, ijod ahli safiga kirib kelishi 1954- yildan boshlandi.

Yoshlar gazetasida ishlab yurgan kezlari taniqli bolalar shoiri Quddus Muhammadiy bilan yaqindan tanishib qoladi. Uning rag'batini bilan badiiy ijodga rag'bat uyg'onadi. H.Po'latov bolalar uchun quyidagi kitoblarni chop ettirgan:

«Taka bilan qo'chqor» (qissa) (1961), «Yo'qolgan klyuch» (1963), «Tekin tomosha» (hikoyalar) (1964), «Yangi mehmon» (qissa) (1965), «Kichik sehrGAR» (qissa) (1967), «Teshik qozon» (qissa) (1969), «Qo'rqinchli tush» (hikoya va ertaklar) (1970), «To'rt sarguzasht» (qissalar) (1973), «Маленький волшебник» (повесть и рассказ) (1976 rus tilida), «Sehrgarning sarguzashtlari» (1981), «O'g'limning o'rtoqlari» (qissa) (1982), «Удивительные приключения» (1983 rus tilida).

H.Po'latov 1989- yil 19- sentabrda vafot etgan.

ENG QIZIQ O'YIN

Salima darsini tayyorlab bo'ldi. Hatto chigal masalalarni ham hal qilib qo'ydi. Natijasi esa javobiga to'ppato'g'ri chiqdi. «Mana endi xohlaganimcha o'ynashim mumkin. Biroq juda ham qiziq o'yin topib o'ynash kerak», deb o'yladi u. Aslida bunday o'yinning qanaqa bo'lishini o'zi ham bilmas edi. U bu to'g'rida rosa o'yladi. Oxiri, yolg'iz o'ynalgan har qanaqangi o'yin ham zerikarli bo'lar ekan, degan xulosaga keldi. Salima ko'chaga chiqdi-da, o'z uyining yonginasidagi eshikni itardi, eshik ochildi.

— Hikoyat, ho Hikoyat! — dedi u eshikning tirqishidan mo'ralab.

Salima bir oz kutdi, hech kim javob bermadi. U eshikni avval sekinroq, keyin qattiq taqillatdi. Yana jimjit. Salima eshikni qattiqroq itargan edi, «shiqir» etib zanjiri tushdida, ochilib ketdi. Salima ichkariga kirdi. Hovlida hech kim ko'rinmadi. Faqat Hikoyatning singlisi Risolatning ho'ngrab yig'lagan ovozi eshitilar edi. Salima derazaga yaqin borib, uyning ichkarisiga qaradi. Kimyo xola xamir qilayotgan ekan. Risolat uning yonida ko'zidan duv-duv yoshini oqizib o'tirar edi.

Kimyo xola:

— Risolat, Risolat! Hozir, ona qizim, hozir, birpasgina sabr qilgin, — deb qo'ydi-da, boshini ham ko'tarmay xamirini mushtlayverdi.

Salima kecha Hikoyat yo'g'ida chiqib qolganida, Kimyo xola unga Risolatni «rosa» ko'tartirgan edi. Shu uning esiga tushdi-da, «ahmog'i bormi?» deb sekingina orqasiga qayta qoldi. Salima qaytib kelsa, ko'cha eshigining ostonasida Yo'lbars kattakon so'ngakni oldingi oyoqlari orasiga olib, ko'mtib yotgan ekan. U Salimani ko'rib «g'urr-r» deb qo'ydi.

— Yo'lbars, Yo'lbars! Voy tentak, men Salimaman-ku! Tanimayotibsanmi, qoch, men chiqib ketay!



Yo'lbars Salimaning so'zlariga parvo qilmay so'ngakni ko'mtib yota berdi. Salimaning xo'rliigi keldi. U Kimyo xola eshitib qolishidan qo'rqib ovozini chiqarmay yum-yum yig'ladi. Bir ozdan keyin ko'cha eshigining ostonasida bir dasta non ko'targan holda Hikoyat paydo bo'ldi. U Yo'lbarsni haydab yubordi-da, hovliga kirdi.

— Nega yig'layapsan?

Salima Hikoyatning savoliga javob bermay, yugurganicha hovlidan chiqib ketdi. Hikoyat bo'lsa:

— Ketmay tur, birga o'ynaymiz, — deganicha qolaverdi.

Salima uyga kirdi-da, karavotga mukkasidan tushib yotib yana piqillab yig'lashni davom ettirdi.

— Kap-katta qiz nega yig'laysan? — dedi unga onasi.

Salima onasiga yolg'on gapirib o'rganmagan edi. Shuning uchun ham bor gapning hammasini yig'i aralash unga to'ppa-to'g'ri aytib berdi.

— Odam qilmagan qiliqni qilibsanda, qizim, — dedi onasi unga. — Bir yoqda endigina yo'lga kirgan go'dak yig'lab o'tirsa-yu, sen uni ovutish o'rniga o'zingni ovutish uchun eng qiziq o'yin qidirsang, shu insofdanmi!

— Men... men o'zimni... ovutmoqchi bo'libmanmikiy?!

— O'yin o'ynash o'zini-o'zi ovutish bo'lmay nima? Axir o'zing ayt! Yig'lab turgan bolani ovutish uchun nima qilish kerak?

— Qo'lga konfet berish kerak, — dedi Salima ko'z yoshlarini artib.

Salimaning bu gapiga onasi kulib yubordi.

— Nega kulasiz?!

— Bu gaping ham to'g'ri, — dedi onasi o'zini zo'rg'a kulgidan to'xtatib. — Biroq, zerikkanidan yig'layotgan bolaning qo'lga konfet bersang olmaydi. Unda nima qilish kerak?

— Undami?.. Unda o'ynatish kerak.

— To'g'ri aytasan, o'ynatish kerak. Mana o'zingdan qiyos qilgin. San ham zerikkaningdan qiziqroq o'yin qidirgansan, to'g'rimi?

— To'g'ri.

— Qizim, endi sen katta bo'lib qolding. Avval o'zini o'zi ovuta olmaydiganlarni ovutishing kerak. Undan keyin o'zing o'ynasang boshqa gap. Risolatni birpas o'ynatib turganingda ham Kimyo xolangga yordam bo'lar edi, ham aqlli qizlarning ishini qilgan bo'lar eding. Mana bir ozdan keyin Hikoyat kelar ekan, birga o'ynar edinglar.

Salima o'zining yomon qiliq qilib qo'yanini darrov fahmladi. U, Hikoyat menga: «Ketmay tur, birga o'ynaymiz», deb qolgan edi-ya. «Chindanam oyim aytganlaridek qilganimda, hozir u bilan eng qiziq o'yin o'ynab o'tirgan bo'lardim, Kimyo xola mendan xursand bo'lar edi», deb o'yladi.

Shunday qilib Salima o'sha kuni eng qiziq o'yin topib o'ynay olmadi.

MOSH

Alisher buvisining uyidan Mosh degan mushukni olib keldi. Uyga o'rgansin, deb uni go'sht va sut bilan boqdi. Kechqurun o'zi ichadigan oshdan ozroq idishiga solib turdi. Yurish-turishini esa sinchiklab kuzatib bordi. Qisqasi, Alisher uni yeru ko'kka ishonmadi. Bir kuni u maktabga keta turib singlisiga:

— Moshdan xabardor bo'lib tur. Tag'in uyiga ketib qolmasin, — deb tayinladi.

— Voy, — dedi ajablanib Dilorom. — Buvimning uylari bu yerdan juda ham uzoq-ku, qanday qilib topib boradi?

— Odamlar mushukni adashmaydigan jonivor deyishadi. Hatto uning ko'zlarini bog'lab uzoq joyga olib borib tashlasang ham baribir uyini topib kela berar emish.

— Iya, juda ham qiziq ekan-ku. Aka, bir sinab ko'rmaymizmi?

— Men ham shuni o'ylab yuribman. Mosh avval uyimizga yaxshilab o'rganib olsin, undan keyin xolamlarning



uylariga olib borib tashlaymiz. Ungacha sen men yo'g'imda undan xabardor bo'lib tur.

Dilorom bunga rozi bo'ldi. Biroq nima ham bo'ldi-yu, shu kuni u akasini maktabdan qaytib kelganida Moshning yo'qolib qolgani to'g'risidagi ko'ngilsiz xabar bilan kutib oldi. Aka-singil birgalashib Moshni rosa qidirishdi. Karavotning tagiga emaklab bir necha marta kirib chiqdilar. Oshxona bilan hujraga kirib: «Mosh! Mosh!» deb chaqirishdi. Mosh hech qayerda yo'q. Alisher undan xabardor bo'lib turmagani uchun singlisidan qattiq ranjidi. Biroq Moshning yo'qolib qolganidan Diloromning ham xafaligini bilib unga indamadi. Hatto o'zining ranjiganini undan yashirish uchun bog'ga chiqib ketdi.

Alisher bog'da dadasining nimanidir diqqat bilan kuzatayotganini sezib qoldi. U sekingina dadasiga yaqinlashib bordi-da, u kuzatayotgan hodisani ko'rib hayron qoldi: Mosh ulardan o'n metrcha narida ilon bilan jang qilmoqda edi. Ilon xuddi qoqqan qoziqdek yarim metrcha tik turib olib, o'zini jon-jahdi bilan Moshga otar, Mosh esa epchillik bilan chap berib qolar edi. Ko'pincha u ilon yuqori ko'tarilishi bilanoq sapchib borib, oldingi oyoqlari bilan uning boshiga tushirar edi. Shu yo'sinda ular anchagina olishdilar. Oxiri ilon holdan toyib qocha boshladi. Mosh uning qochib qutulishiga yo'l qo'ymadi. U sudralib ketayotgan ilonning goh u yoniga, goh bu yoniga sapchib o'tib oldingi oyoqlari bilan uning boshiga tepkilay berdi, hatto bir-ikki marta tishlab ham oldi. Shunday qilib u ilonning boshini majaqladi-da, uning o'rta belidan tishlab hovliga kirib ketdi.

— Ular rosa yarim soat olishdilar, — dedi soatiga qarab Alisherning dadasi.

— Ada, naturalistlar mushuk bilan ilonning shunchalik olishishini bilarmikanlar?

— Bilmadim.

— Men kitoblardan bu to'g'rida hech narsa o'qimaganman.

— Men ham.

Ota-bola uyga kirdilar. Alisher bo'lgan voqeani singlisi-ga hikoya qilib berdi. Dilorom Moshning topilganidan juda ham xursand bo'ldi.

DIK-DIKJON

(Ertak)

Bir quyon bor edi. U onadan tug'ilgan kunlaridanoq quvnoq edi, g'am-g'ussa, xavf-xatar nima, bilmas edi. Bir kun onasi uni dikir-dikir o'ynab uzoqlab ketayotganini ko'rib qoldi. Shunda u:

— Dik-dikjon, hay, uzoqlab ketma. Baroq mushuk yeb qo'yadi, — dedi. (Shu kundan boshlab uning nomi Dik-dikjon bo'lib qoldi.)

Shunda Dik-dikjon onasiga:

— Onajon, sen mendan xavotir olma, men Baroqoydan qo'rqmayman. U bizga ozor beradigan bo'lsa, men uning ta'zirini berib qo'yaman, — dedi.

Bu gapni Baroqoyning poxol orasida yotgan bolalari eshitib qoldilar. Ular Baroqoy kelganida:

— Onajon, quyonlarga tega ko'rma. Ularning orasida bir dovyurak quyon paydo bo'libdi. «Kimki bizga ozor bersa, men uning ta'zirini berib qo'yaman», deyapti, — dedilar.

— Bundan xotirjam bo'linglar, — dedi gerdayib Baroqoy, — sizlar bir oz ulg'ayib olinglar. Undan keyin biz quyonlarning tashqariga chiqishlarini poylab turib ularning hammasini birdan tutib olamiz-da, og'zimizdan qonlarini oqizib quyon go'shti yeymiz. Ungacha ular ham o'zlarini semirtirib tursinlar.

Oradan bir qancha vaqt o'tib ketdi. Kutilgan kun ham yetib keldi. Quyonlar hovlida sayr qilib yurar edilar. Ularga Baroqoy o'z bolalari bilan qo'qqisdan hujum qilib qoldi.

— Bolalarim, qochinglar, — dedi ona quyon o'z bolalarini ogohlantirib. — Boroqoy kelyapti.



Quyonglar tumtaraqay bo'lib qocha boshladilar. Dikdikjon bo'lsa, shunday yonginasidagi shoxning ustiga yoyib qo'yilgan qora chodirchanning ostiga kirib yashirindi. Biroq u chodir tagida pisib yotavermay, bu hurkovich maxluqning ta'zirini berib qo'yishga qaror qildi. Avval u chodirchaga yaxshilab o'ralib oldi-da, tik Baroqoyga qarab yugurib ketdi. Baroqoy o'z umrida biron marta chodirga o'ralib olib dushmanga tashlangan quyonni uchratmagan edi. Shuning uchun ham u bu dahshatli hodisani ko'rib olazarak bo'lib qoldi. Mushuklar to's-to'polon bo'lib qocha boshladilar. Dikdikjon esa qochib ketayotgan quyonglarga qarab:

— Qochmanglar, ushlang u yirtqichlarni! — deb xitob qildi.

Quyonglar ham bu dadil buyruqni eshitib orqalariga qaytdilar. Mushuklar esa ulardan qochib tomga chiqib ketishdi.

— Axir bir kun qo'limga tusharsizlar, — dedi Dikdikjon mushuklarga qarab, — shunda hammangizni mana shu chodirchamga solib yonib turgan o'tga tashlayman.

Baroqoy Dikdikjonning bu gapini eshitib vahimaga tushib qoldi. U bolalariga:

— Battolning yaqiniga yo'lay ko'rmanglar. Haqiqatan ham dovyurak ekan, — deb nasihat qildi.

IKKI IRMOQ

(Ertak)

Baland tog' etagida paydo bo'lgan ikkita katta-kichik buloqdan yonma-yon ikki irmoq oqib chiqdi. Katta buloqning irmog'i kichik buloqnikiga qaraganda kuchliroq edi. Yana «tole»ni qarang! U oqib borayotgan yo'lda hech qanday to'siq uchramadi. Kichik irmoqning yo'li sermashaqqat ekan. Bir oz yurganidan keyin katta-kon xarsangtoshga duch kelib qoldi. Shunda ham noumid

bo'lmadi. Yeng shimarib ishga tushdi. Uning tirishqoqlik bilan o'ziga yo'l ax-tarayotganini ko'rgan katta irmoq:

— Ey bechora, shunchalik nimjonsan-u, yo'lga chiqib nima qilar eding, — dedi.

— Og'ayni, bunday gaplarni qo'y, — dedi kichik irmoq. — Undan ko'ra o'ng tomoningdan ozroq joyni o'pirib yubor. Menga ham yo'l ochilsin.

— Ho tirrancha, hali sen boshqalarning mehnati hisobiga yashashni ham bilasanmi? Bor, bor, toshingni ter! — dedi-da, katta irmoq o'pkasini qo'ltiqlab uzoqlarga yugurib ketdi. Bir-biridan yoqimli, bir-biridan chiroyli manzarador va mevali daraxtlar uning yo'lga peshvoz chiqib:

— Biz tomondan yur, — deb iltimos qildilar.

— Bilaman, sizlar hammangiz tekinxo'rlarsiz, yaqinligizga borsam, bas, ildizingiz bilan suvimni shimirib, tinkamni quritasiz, — dedi-da, katta irmoq yo'lni chap solib jo'nab qoldi. Oxiri cho'li biyobonda qumlikning to'shiga bosh qo'ydi-da, holdan ketdi.

Kichik irmoq kecha-kunduz tinmay mehnat qildi, nihoyat, harsangtoshning bir yonboshidan yemirib o'tib yana yo'lga tushdi. U yo'l-yo'lakay dov-daraxtlar bilan do'stlashdi. Ularning ildizlari irmoq suvining yer ostiga singib ketishiga yo'l qo'ymadilar. Yaproqlari esa quyosh nurini to'sib, bug'lanishdan saqladilar. Kichik irmoq ham o'z navbatida yashil do'stlarini qondirib sug'ordi. Shunda o'zining yo'lda boshidan o'tkazgan hamma mashaqqatlarini tamomila unutib, o'ziga-o'zi:

— Bunda yashash juda soz bo'lar ekan, — dedi.

Kichik irmoq quvona-quvona yo'l bosib, azim daryo bo'yiga qanday yetib kelganini ham sezmay qoldi. U daryoning hayqirib oqishini, tog'-toshlarni ham qo'porib tashlay oladigan qudratini ko'rib hayron qoldi. U shu zahotiy o'zini daryo bag'riga otgisi keldi-yu, biroq takabbur qo'shnisining gapi esiga tushib o'zini tiydi. U buyuk qudratga suqlanganicha qirg'oq bo'ylab oqa boshladi.



— Behuda tentirab yurma, — dedi unga daryo. — Birona ko'lmakka tushib qolsang, suvingni sasitadi. Bordi-yu, qumlik cho'lga chiqib qolsang, o'z qa'riga yutib halok qiladi. Kel, bizga qo'shil. Birlashib dushman bilan kurashamiz.

— Sen buyuk pahlavonsan, — dedi kichik irmoq. — Men qayda-yu, sen qayda. Dushman bilan kurashishda mening yordamimga muhtoj bo'lmasang kerak.

— Aftidan, sen bizni paydo bo'lishidanoq o'zi shunday qudratli bo'lgan, deb o'ylayotganga o'xshaysan. Yo'q, unday emas. Aslida biz ham senga o'xshagan kichik-kichik irmoqlar edik. Yo'l-yo'lakay birlashib yengilmas kuchga aylanganmiz.

Irmoq bu so'zni eshitib o'zini daryo bag'riga otdi. Uning suvi tezda daryo suvi bilan bir jon-bir tan bo'lib ketdi. Irmoq qo'shilganidan keyin daryo yanada kuchliroq bo'lib oldi. U oqib keta turib katta-katta xarsang toshlarni bir-biriga urib tolqon qildi. Hatto ulkan paroxodlarni pisand qilmay o'z yelkasida bemalol ko'tarib jo'nadi. Endi uning yo'lini to'sadigan har qanday kuch o'ylashib ko'radigan bo'lib qoldi.

Odamlar bu asov kuchni jilovladilar. Bundan u mutlaqo norozi emas. Chunki uning suvi to'g'on tagidagi generatorni yurgizib yanada qudratliroq kuch paydo qildi. Dasht-biyobonlarga oqib, birona ham giyoh unmagani taqir yerni bog'-bo'stonga aylantirdi. Shunda kichik irmoq o'ziga-o'zi:

— Ko'pchilik bilan birgalikda mehnat qilib yashash juda ham soz bo'lar ekan, — dedi.

* * *

Kunlardan bir kuni kechasi katta buloq qo'shnisi kichik buloqqa:

— Hoy egachi, hech narsadan xabaring bormi? Qara, atrofda ajoyib yangiliklar sodir bo'lmoqda. Ko'rsang bahridiling ochiladi. Ko'kda oy yo'q. Shunga qaramay hamma

yoq sutday yorug'. Yaqin o'rtada bog'-bo'ston paydo bo'lganga o'xshaydi. Shamol dimoqqa gullar isini olib kelmoqda, — dedi.

— Nega xabarim bo'lmasin, — dedi kichik buloq. — Axir unda siynamdan sut emib voyaga yetgan irmoqchamning ham hissasi bor.

— Qiziq. Bunda uning qanday hissasi bo'lishi mumkin?!

— Irmoqlar yo'lda uchragan to'siqlarni yakkama-yakka kurashib yengish qiyinligini anglab bir-birlari bilan birlashibdilar. Ularga mening irmoqcham ham qo'shibdi. Keyin ular shunday qudratli kuchga aylanibdilarki, ularni o'z holiga qo'yib bersang, katta-katta toshlarni ham daraxt yaprog'iday oqizib, tog'-toshlarni ag'daradigan bo'libdilar. Odamlar ularni jilovlab xayrli yo'lga boshlashibdi. Shunday qilib tabiatda sen ko'rib turgan yangiliklar sodir bo'lgan.

— Mening irmog'im hech kimga qo'shilmadi, — dedi afsuslanib katta buloq. — Axiri, befoyda yugurishdan tinkasi quriganida, bepoyon qumli cho'l uni osongina yutib yubordi.

— Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar, deb shuni aytadilar-da, — dedi kichik buloq.





Sunnatilla **ANORBOYEV**

(1922—2003)

S. Anorboyev 1922- yil 9- sentyabrda Turkiston shahridagi Qarnoq qishlog'ida tug'iladi. Ularning oilasi 1930- yil Namangan viloyati Uychi tumanidagi Qizilrovot sovxoziga ko'chib o'tadi. Bo'lajak yozuvchi shu yerdagi to'liqsiz o'rta maktabni tugatib, Namangan shahridagi pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi.

1942—1945- yillarda Ikkinchi jahon urushida qatnashadi. Harbiy xizmatdan qaytgach, Nizomiy nomidagi pedagogika institutida o'qiydi.

1949—1983- yillar mobaynida gazeta-jurnallarda, nashriyotlarda turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatadi.

S. Anorboyevning ilk asarlari 1949- yili e'lon qilinadi. Adib «Oqsoy», «Sayli» romanlari bilan bir qatorda bolalar uchun «To'rtko'zning sarguzashtlari», «Sulaymon ovchi va uning iti haqida», «Musicha bilan qaldirg'och qissasi», «Hamsuhbatlar», «Suzib borar arxarlar» kabi qissalar va hikoyalar yaratadi.

Yozuvchi 2003- yil 30- martda hayotdan ko'z yumgan.

KENJA BOTIRNING O'Q-YOYI

Dehqonobod tog'laridagi qo'ralardan birida Zuhra va Quvondiq ismli opa-uka yashaydi. «Bo'lsa bordir! Nima qilibdi?» dersiz. Hamma gap shunda-da! Ular boshqa opa-ukalarday ahil emas. Hech chiqishishmaydi. Ayniqsa, Quvondiq juda jangari. Aqalli maktabga tinch borib kelsa-chi! Yo'q. Qildan qiyiq topib, albatta janjal chiqaradi.

Ana, Quvondiq dadasining katta telpagini bostirib kiyib, qora choponning etagini osiltirgancha eshakning boshini o'ziga qaratmoqchi. Qizil g'ijim duxoba paltoli Zuhra bo'lsa o'ziga tortyapti. Quvondiq Zuhradan bir yarim yosh kichik bo'lgani bilan opasining sochidan tortib yig'latadi. Ha! Boshidagi qozonday qappayib turgan telpagiga qarab o'ziniki yo'qdir-da, deb o'ylarsiz? Bor, faqat tengqurlarining ko'ziga katta ko'rinish uchun dadasini-kini kiyib oladi.

Uning bir qo'li egarda, ikkinchi qo'li eshak no'xtasida.

— Oldiga men minaman! — deya tixirlik qiladi. Sapchib egarga engashganida Zuhra ko'kragidan itarib tushiradi.

— Sen kichkinasan!

— Nega endi?! Ikkinchi sinfda o'qisam ham kichkinamanmi? — Quvondiq opasiga qarab kekirdagini cho'zadi.

Agar qo'radan onalari chiqib qolmaganida kim biladi deysiz, bu janjal qachongacha cho'zilardi! Nihoyat egarda Zuhra, eshakning orqasiga Quvondiq mingashib maktabga jo'nashdi.

Ularning maktabi anavi qor bosgan ko'ndalang qir ortidagi soylikda. Ferma markazi ham, ko'pchilik qo'ralarning qishlovi ham, do'kon ham o'sha yerda. Dovon oshib kesib tushilsa uncha uzoq emas — to'rt-besh kilometr kelib-kelmaydi. Aylanib borilsa ancha yo'l. Yo'q. Zuhra bilan Quvondiq hech qachon bunday qilishmagan. Issig'i, qish sovug'ida ham ular qirni qoq belida o'tishga o'rganib qolishgan.



— Ix-x!

Quvondiq to dovonga ko'tarilgunlaricha puchuq burnini tortib, to'ng'illab bordi. Uzoqdan ko'tarma tandinring og'ziday huvillab turgan ungurga ko'zi tushdi-yu, xafachiligi xayolidan ko'tarildi. Hammayoq oppoq, faqat tikka tog' bag'ridagi ungurgina qop-qora. Kimdir unga yashiringan-u, ularni zimdan kuzatayotganday: har safar bu yerdan o'tayotganlarida Quvondiqning fikri-xayoli shu g'orda bo'ladi, vahima bosadi. Bu safar ham yuragi shig' etib ketdi. Beixtiyor ko'zini yumdi. Ammo shu zahoti o'zining bu qiligidan uyalib: «Nimadan qo'rqaman-a?» — deya pichirladi. Axir bahor paytida o'rtoqlari bilan lolaqizg'aldoq terganlarida g'orga kirmaganmidi? U yerdan dadasi hikoya qilib bergan o'sha, Dehqon otli kenja Botirning o'q-yoyini qidirishmaganmidi? Baribir g'or sirli va vahimali edi.

Ko'k eshakning orqa oyog'i toyib, munkib ketdi. Quvondiq chalqancha tushishiga oz qoldi.

— I-ix! — dedi Zuhra jahl bilan.

— Tayoqni buyoqqa ber! — Quvondiq opasining qo'lidan uzunligi tessa sopiday xalacho'pni yulib olib, eshakning sag'riga sayib-sayib yubordi. — I-ix! Qanday yurgizishni bilmaydi-ku, oldiga minadi!..

U sovuqdan qo'shaloq qulupnayday qizargan burnini bir tortib qo'yib, opasining yelkasiga o'qrayib qaradi. Yaxshi hamki Zuhraning maydalab o'rilgan sochlari guldor sholro'mol tagida berkitig'liq edi. Yo'q esa...

Ostlaridagi ko'k eshak inqillab-sinqillab qirdan oshdi. Ammo pastga qarab inganda bag'riga kaltak tegizmay etdi.

ytayotganlarida egarga Quvondiq mingan bo'yi ham bir qarich baland bo'lishiga ming orqasiga mingashdi. Quvondiq

ularida elakda elanganday maydalab tirning yarim beliga yetmaslaridan

Quvondiq yapaloq-yapaloq elpinib tushayotgan laylakqorga dadasining katta telpagi tagidan mo'ralab boqdi. U qosh-ko'zini chimirdi. Norozi bir qiyofada og'zini karnay qilib, chap qo'lining orqasini hovri bilan isitdi.

— I-ix! — dedi Zuhra xalacho'p bilan urib.

Ko'k eshak bo'lsa, bunga javoban, qadamini bir oz tezlatdi-yu, yana o'z maromiga tushib oldi, boshini osiltirganicha ketaverdi. Yo'q, soydan yiroqlashib, yo'l yuqorilay borgan sari uning yurishi ham og'irlasha bordi. Ko'k eshak yer iskagundek bo'ynini cho'zar, burun kataklarini kerar, oppoq bug' burqiratib hansirar, Quvondiq unga sayin «ix-ix»lar edi.

U qir boshiga hadiksirab qarab-qarab qo'yadi: ko'rinmaydi. Qor zo'rayib, qalin pardaday to'sib qo'ydi. Zuhra ham havoning avzoyidan tashvishlanib, «ena»sini esladi. Sal kechikkuday bo'lishsa, eshikka o'n marta chiqib keladi. U kishiga qo'shilib Qoplon ham qir boshidan ko'zini uzmaydi. Qoralarini ko'rishi hamon chopadi. Otasi bo'lsa... Yo'q, qor bo'rab turibdi-ku, qo'y yoyib bo'larmidi! Barini qo'raga qamab, g'aramdan pichan tashib berayotgandir. Hozir onasi sigir sog'adigan payt. Cho'lpon ukasi uyda yolg'iz o'zi yig'lab qolmadimikan?

Zuhraning ko'ziga og'zidagi so'rg'ichini so'rib-so'rib qo'yib shiringina uxlayotgan ukasi ko'rinib ketdi. U beixtiyor kulimsiradi.

Qor girdikapalak o'ynab kipriklariga qo'nar, lablariga tushib erib ketar, Zuhra esa jilmayar: go'yo Cho'lpon o'ziga tomon talpinayotganday edi.

— I-ixxx, harom o'lgur! — dabdurustdan o'shqirdi Quvondiq.

Zuhra cho'chib ketdi-yu, ukasining bu ishiga labini burdi, kichkina boshi bilan otasiga o'xshamoqchi! Otasi jahli chiqqanda mana shunday so'kinardi.

— Harom o'lsa jayov qolasan.

— Buni mingandan jayov yurganim yaxshi! — Quvondiq etigining tovonini bilan eshakning biqiniga niqtab g'azab qildi.



— Voy, showvoz! — Zuhra yana labini burdi. — Umr bo'yi ot mingan odamday gap qiladi-ya! Jayov yura qol.

— Yursam yura beraman! — Jizzakilik qildi Quvondiq. — Hozir eshakdan tushaman-da, seni tashlayman ketaman!

— Voy-ey, qo'rqib boroppan! — Zuhra battar jig'iga tegdi.

Lekin Quvondiq ketib qolmadi. Eshakdan ham tushmadi. O'n qadam naridagini ochiq ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Qor bo'ralab turibdi. Yolg'iz o'zi qayoqqa ham borardi. U faqat xalacho'p bilan ix-ixga zo'r berdi. Zuhra ham qo'qqisdan bir nima esiga tushib ketganday jim bo'lib qoldi. Yon-beriga alangladi. Orqaga o'girildi: uzoq-yaqinda hech narsa ko'rinmaydi. Yiroq-yiroqdan ham derazalari yarqirab turadigan maktablari butunlay ko'rinmaydi. Soy ham ko'rinmaydi, ferma ham... Hammayoq bo'm-bo'sh. Oqimtir tutun bosganday. Pastga qarab ertalab o'zlari yurib kelgan so'qmoqni ham topmadi: eshak qor kechib, o'ziga yangi yo'l ochib boryapti.

To'satdan oqimtir parda ichidan qora dog' yorib chiqdi. Ular emas, o'sha qora dog' yaqinlashayotganday. Mana, uni yonlab o'tishdi: bag'riga qor yuqmagani qora tosh ekan. Cho'ponlar uni qo'sh o'rkachli bo'lganiga «Tuyatosh» deyishadi.

— Yarim belidan o'tibmiz, — Zuhra yengil tortdi.

Tuyatoshdan keyin yo'l tikkaga o'rlaydi. Ko'k eshak bo'lsa qiyailibroq yurmoqda. Zuhra buni payqab qoldi:

— Boshini bur!

Quvondiq sovuqdan to'rlagan o'ng qo'lini qo'ltig'iga tiqqanicha chap qo'lidagi xalacho'p bilan eshakning bo'yniga bir-ikki tushirdi.

— Bo'riga jem bo'lgir! Qayoqqa?

«Suruvdan ayrilgan echkilarni otam shunday qarg'ar edi», deb xayolidan o'tkazdi Zuhra. Ammo bu safar ukasidan kulmadi.

Ko'k eshak tayoqning zo'ri bilan bir oz tikkaga qarab yurdi-da, keyin yana asta qiyalab ketdi. Buni Zuhra payqamadi: ro'paradan qor bo'ralab turibdi. Shuning uchun ukasining orqasiga biqinib olgan edi. Quvondiq ham sez-madi: sababi, telpagini peshonasigacha bostirib, goh o'ng qo'li, goh chap qo'lini qo'ltig'iga tiqar, ko'zini bazo'r yirib ochardi-da, oldinga qunishibgina nazar tashlardi. U sovuqda o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolgandi. Shu tobda Quvondiq Zuhra bilan o'rinlarini almashtirishga jon-jon deb rozi bo'lardi.

Qancha yuqorilaganlari sari izg'irinning zahri shunchalik achchiqlashardi. Qor qyun bo'lib, sovurilib ko'z ochirmas, chuqurroq nafas olgani qo'ymas edi. Dovonga yetay deganlarida bo'ron shu qadar kuchaydiki, sal bo'lmasa eshak-peshaklari bilan o'rab, uchirib ketay dedi.

Quvondiq eshakning bo'yniga yotib, mahkam quchoqlab oldi. Zuhra bo'lsa ukasini bosib tushdi. Bir qadam ham oldinga siljishning iloji yo'q. Ko'k eshak to'rt oyog'ini to'rt tomonga kerib, tumshug'ini qorga tiqqudek engashib turib olgan.

Zuhra eshakdan tushdi. Quvondiq ham o'zini yerga tashladi, ikkovi ham eshakning panasiga o'tib, bir-biriga qaradi. Opa-ukaning bu boqishlarida «endi nima qildik?» degan ma'no bor edi. Quvondiq javob kutmasdanoq bur-nini bir tortdi. Kekirdagiga nimadir tiqilganday bo'ldi. Opasi shu chog' qayoqqadir tepalab qarab, «voy» demaganida uning ho'ngrab yig'lab yuborishi turgan gap edi. Quvondiq Zuhra qaragan tomonga yalt etib qarab, dodlab yuborishiga sal qoldi! G'or! Eng chiroyli qizlarni bitta-bittalab yutadigan xuddi ertakdagi kattakon ajdahoning og'ziday qop-qora.

Quvondiq qo'rqib ketib bir qadam tisarildi.

Ko'k eshak kaltaklashsa ham bo'y bermay yo'lni g'orga qarab to'g'rilagan ekan. U hozir ham shu yoqqa qarab intilmog'da edi.

— Yur, — dedi Zuhra qo'lidan tortib.

Quvondiq bahor fasli g'orga kirganlarini esladi. «Ichida hech nima yo'q», deya o'zini ishontirmoqchi bo'ldi. Shunda ham hadiksirab, sirli qorong'ilikdan ko'zini uzmay Zuh-raning ketidan ergashdi.

Ungurga eshak ham sig'ib ketdi. U qo'rqmadi. O'zi kirib bordi.

Ichkarida qor yo'q, quruq, bemalol nafas olsa bo'ladi. Bu yerdan qoyadan-qoyaga urilib, goh o'kirib, goh chin-qirib to'polon qilayotgan bebosh bo'ronning aks sadosi-gina eshitiladi.

Zuhra g'or og'zida turganacha tashqariga tikildi, xayolan o'z qo'ralarini ko'rdi.

— Enam eshikka chig'ib kutib turgandir, — dedi.

Quvondiq uning so'zini bejavob qoldirdi. To'g'risi, eshit-madi. U «issiq joy»ga kimgach, oradan bir oz vaqt o'tar-o'tmas, vujudini qamragan vahimadan qutulish uchunoq ko'zi bilan tosh devordan kenja botir Dehqonning o'q-yoyini qidirishga tushib ketdi. Yo'q, o'q-yoyning rasmini emas, albatta o'zini topsa yaxshi bo'lardi. Lekin hozircha devorga o'yib solingan rasmni topsa ham katta gap. Uni Quvondiq, birinchi bor bahorda, havo ochiq paytda ko'rgan. Hozir g'or ichi g'ira-shira. Ko'rinmaydi. Dada-sining aytishiga qaraganda, chinakam o'q-yoy ham shu g'orda bo'lishi kerak. Uni kimki topsa, Kenja botirday dovyurak, qirag'ay mergan bo'lib qolishi aniq. Bu atroflarni ham u obod qilgan ekan. Shuning uchun ham odamlar Dehqonobod deb atashibdi.

U akalari bilan ariq qazib, suvsiz cho'lga suv chiqaribdi. Yer ochib urug' sepibdi. Ko'chat ekibdi. Hammayoq ekin-zor bog'-rog'ga aylanibdi. Shunda qayoqdandir son-sanoq-siz yov bostirib kelibdi. Ekinzorlarga mol yoyib payxon qilishibdi. Shig'il mevaga kirgan olma, o'riklarni qirqib yoqishibdi. Ularning qadami yetgan joy borki, chigirtka, galasi o'tgan kabi tap-taqir bo'lib qolibdi. Kenja botir Dehqon, katta botir, o'rtancha botir va jamiki dehqonobodliklar yovga qarshi bosh ko'tarishibdi. Ammo dushman

mo'r-malaxday ko'p ekan. Kenja botir akalaridan ayrilibdi. Boshqa sheriklari ham jangda halok bo'lishibdi. Dehqon botir otisha-otisha, chopisha-chopisha chekinib kelib shu g'orga bekinibdi. Yov o'rab olibdi. «Bizga bo'yin eg. O'z elatingga boshliq qilib qo'yamiz»; — debdi. Kenja botir ko'nmabdi. «Dushmanimga tiz cho'kib yashaganimdan tik turib o'lganim yaxshi», — debdi.

Quvondiq o'zini kenja botirga qiyos qildi. Hatto o'z qo'llarida uning o'q-yoyi zalvarini ham his etganday bo'ldi.

Zuhra ham uning yoniga kelib cho'nqaydi. Ko'k eshaklari ham tumshug'ini ular o'tirgan tomonga burib turib oldi.

Tashqaridan bo'ronning hushtagiga qo'shilib allaqanday uvillagan tovush ham eshitildi. Zuhraning yuragi uvishib, ukasining pinjiga tiqildi.

Boshqa vaqt bo'lganda Quvondiq Zuhrani «qo'rqoq-qo'rqoq», deb ermak qilgan yoki itarib tashlagan bo'lardi. Bu safar salmoqlab:

— Qo'rqma, — deb qo'ydi.

«Xuddi otamning o'zi», — dedi Zuhra ichida. Hozir uning o'rnida onasi bo'lganda ham Quvondiqning boshini silab: «Boshing toshdan bo'lsin. Otangning o'zisan-a!» deyishi turgan gap edi.

— Ehtimol o'zimizning Qoplonning ovozidir? U ham ba'zida uvlaydi-ku? — bu gapni Quvondiq opasidan ham ko'proq o'zini ishontirish uchun aytdi.

Zuhra indamadi. U kishini vahimaga soluvchi bu tovushning chindan ham Qoplonniki bo'lishini shu qadar istar ediki!

Quvondiq Zuhraning qaltirayotganini sezib o'rnidan turdi. O'zining ham oyog'idan sovuq o'tdi. U ko'k eshakni yonlab o'tib, g'or og'ziga bordi. «Otam qidirib kelmayotganmikan?» degan umidda tashqariga termilib boqdi: biroq ko'z ilg'agan yergacha ko'kimtir-qor: hamon bo'ron quturardi. G'or og'zi yarim belgacha qor bilan ko'milib qol-



gan. Bunday paytda hatto otda ham yurib bo'lmaydi. Quvondiq buni biladi. Ammo «otamning qorasi ko'rinmasmikan?» degan bir umid uning ko'ngliga mahkam yopishib qolgan edi. Quvondiq qor girdob o'rayotgan bo'shliqqa tikilganча anchagina turdi.

Negadir uning lablari o'zidan-o'zi titrab ketdi, hiqildog'i hiq etdi. Shu payt Zuhra chaqirib qoldi. Quvondiq ko'zlarini qattiq yumganida ikki tomchi yosh kipriklaridan uzilib, yuzlari bo'ylab yumalab ketdi. Quvondiq yengi bilan artib ortiga qaytdi. Zuhraning sovuq qotganini eslab eshakning ustidan sholcha yopindiqni oldi. U bilan Zuhraning va o'zining oyoqlarini o'radi.

— Tina qolsaydi... — deb qo'ydi Zuhra bir xo'rsinib.

Koshkiydi! Quvondiqning ikki ko'zi, ikki qulog'i ham tashqarida. Ammo qorbo'ron kuchaysa kuchayyaptiki, bosilmayapti. Bu uning qahrli, sovuq guvillashidan ma'lum. Unga sayin Zuhra titrab-qaqshab tiqiladi.

Qo'lidagi xalacho'pni qattiq qisimlab, «qo'rqma», dedi Quvondiq.

U yoniga ancha-muncha tosh ham to'plab qo'ydi...

— O'zing qo'rqmaysanmi? — deya shivirladi Zuhra.

— Yo'q! — Quvondiq vujudidagi titroqni bosishga harakat qilib xalacho'pni yanada qattiqroq siqdi. — Nimadan qo'rqay?

«Men borman», deganday ko'k eshak orqasi bilan g'or og'zini to'sib, shunday tepalarida turardi. Hatto uning isiq nafasi yuzlariga urilardi.

Opa-uka orqalarini tosh devorga berib, bir-biriga tiqilganча o'tirishardi. Shu zaylda ular qachon uyquga ketganlarini bilmay ham qolishdi.

Quvondiq tush ko'rdi. O'sha qizlarning sarasini tanlab yutadigan ajdaho! Olachipor, og'zini g'orday ochib, qor betida asta sudralib kelayotir. Zuhra sovuq qotganidanmi yoki qo'rqqanidan qaltirab pinjiga suqiladi. Quvondiq bo'lsa unga «qo'rqma» deya dalda beradi. O'zi ham dir-

dir titraydi. Qo'lida qayoqdandir paydo bo'lib qolgan Kenja botirning o'q-yoyini qulochkashlab rosa tortadi-yu, odamxo'r, ochofat maxluqning o'tli ko'zini mo'ljallab turib qo'yib yuboradi. O'qning zing etganigina eshitaladi. Uchib borib, ajdahoning naq halqumiga qadaladi!

Zuhra suyunib ketganidan uni hadeb o'par emish. Ko'pchilikning oldida xuddi yosh bolaga o'xshatib o'pa bersa uylar ekansan kishi.

— Qo'y! — deya Quvondiq tirsagi bilan yuzini to'sadi.

Zuhra esa unga sayin yopishib, yuz-ko'zidan o'padi...

Quvondiq ko'zini ochib yuborsa, tepasida o'zining Qoploni! Hadeb yuzlaridan yalayapti.

Quvondiq qo'lga qaradi. Yoniga qaradi. Yo'q. Shu qo'llari bilan hali yaqinda kenja botir Dehqonning o'q-yoyini ushlab turmaganmidi?

— Zuhra...

Undan so'ramoqchi bo'lib og'iz juftladi-ku, gapira olmadi: lablari uchib, tishi-tishiga tegmay kakir-kakir qiladi. Opasi esa g'ujanak bo'lib uxlab yotardi. Quvondiq yuragida armon bilan jilmaydi. Bu payt g'orga enkayganча dadasi kirib keldi. Quvondiq sapchib o'rnidan turdi:

— Ot-a-a! — deya baqirib yubordi.

Ota-bola quchoqlasha ketdi. Bu orada Zuhra uyg'onib qoldi. U ham o'zini dadasiga otdi.

Ikkovi sovuqdan tili kalimaga kelmasa-da, quvonchlari cheksiz edi. Dadalari ham ko'zlarida yosh demasangiz xursand ko'rinadi.

— Shukur-ey! Qotib qolmabsizlar, — deb ikkovini bag'riga bosadi, quchog'idan chiqargisi kelmaydi.

Nihoyat qo'zg'alishadi. Dadalari egarning ayilini tortib, yaxshilab berdi:

— Min, — dedi Zuhra.

— Oldinga sen nima qol, — dedi Quvondiq.

Bir kechada ukasining bunchalik o'zgarib qolganiga ajablangan Zuhra egarga mindi. Quvondiq esa mingashdi.



G'ordan chiqqanlarida quyosh charaqlab turgan edi. Qalin qor ko'zni qamashtirgudek yaltiraydi.

Oldinda Qoplon, o'rtada ikkovlari eshakda, orqada dadalari otliq, qo'raga qarab jo'nashdi.

QO'RQOQ

Bolalar Bahromga «qo'rqq, qo'rqq!» deb ozor berishardi. To'g'ri, u kechasi eshikka yolg'iz chiqishdan qo'rqardi. Agar qorong'i tushganda yotoqxonadan chiqmoqchi bo'lsa, birorta o'rtog'iga «yurgin», deb yalinar, ba'zan esa yon-beridagilarning o'rnidan turishini poylab, ko'zini mo'ltillab yotaverardi. Goho bolalar jo'rttaga uni mazax qilish uchun to'satdan: «Ana bo'ri!» — deb yotoqqa qarab yugurib qolishardi. Bahrom ham ularning ketidan ura qochardi.

Faqat karavoti yonma-yon turadigan Jumanazar boshqa bolalarday ko'p tegajog'liq qilavermas, «qo'rqq», deb kamsitmas ham edi. Lekin u Bahromga achinganday, rahmi kelganday qarardi. Uning shu ko'z qarashi Bahromga boshqa bolalarning mazax qilishidan ham og'irroq botardi.

Nima qilsin, ayb Bahromdami? Dadasi yo'qolgan otini qidirib kechasi tog'da yurganida uni och bo'rilar yeb ketgan. O'shandan keyin oyisi yurak oldirib, Bahromni kechasi eshikka yolg'iz chiqarmaydigan bo'lgan. O'tgan yili ferma qishlog'idagi boshlang'ich maktabni tamomlab, sovxoz markazidagi internatga o'qishga kelayotganida ham oyisi: «Kechalari jolg'iz jura ko'rma!» — deb qattiq tayinlagan. Mana, hozirgacha oyisining gapidan chiqmaydi.

Uchinchi fermadan kelib, birga yotib o'qiydigan bolalar bugun uni bekordan-bekorga xafa qilishdi: «qo'rqq» deb masxaralab tashlab ketishdi.

Uning bittayu bitta aybi: «Havo aynib turibdi. Erta azonlab jo'nay qolaylik», — degani bo'ldi, xolos. Chunki chindan ham kech kirib qolgandi.

Bolalar tirjayib kulishdi. Qoravoy bo'lsa, yoniga chirt etkazib tupurib: «Bundan ko'ra qorong'iga qolishdan qo'rqyapman deya qol, Bahrom!» — dedi. Boshqalari ham biri olib biri qo'ydi. Keyin velosipedlariga minishdi-yu, jo'nab qolishdi. Hatto qayrilib ham qarashmadi, noinsoflar!

Bahrom noiloj yotoqqa qaytib kirdi. Xona huvillab turibdi. Ertaga yakshanba — hamma uy-uyiga ketgan. Bahrom karavotiga ham yaqinlashmay, xonaning o'rtasida qaqqayib turib qoldi. Nazarida Qoravoyning achchiq piching qulog'ining tagida hamon jaranglayotganday tuyuldi.

To'satdan u:

— Bekorlarni aytibsan! Qo'rqmayman! — deb baqirib yubordi.

So'ngra velosipedini hovliga olib chiqdi. Oyog'i pedalgaga yetmay qiynalmasligi uchun egarini orqaga burab, kichkina ko'rpachani o'rab bog'layotganida ko'zi beixtiyor osmonga tushdi. Amu tomondan qop-qora bulut yopirilib kelardi. Kun botishga yaqinlashib qolibdi. Fermaga qachon yetib boradi? Yo shu yerda yotib, ertalab jo'nay qolsamikin?

Shu payt burunlarini jiyirib, tirjayib turgan bolalar ko'z oldiga keldi. Ular go'yo «qo'rqqoq, qo'rqqoq!» deb masxara qilayotganday tuyuldi-yu, velosipediga irg'ib minib, orqasiga qaramay g'izillagancha ketdi.

U shu yurgan cha Surxon o'zanidan o'tib, qirga ko'tarilganidagina to'xtadi.

Hov pastda to'g'on qurilishi ketyapti. Odamlar, skreperlar, buldozerlar g'imir-g'imir qiladi. Chang-to'zon. Shag'al-tosh, temir-beton tashiyotgan og'ir yuk mashinalari bu yerdan qo'ng'izga o'xshab ko'rinadi. O'ng tomonda tog' oraliq'idagi neft quduqlarining vishkalari kishiga shox-shabbalari kuyib ketgan daraxtlarni eslatadi. Uzoqda, daryoning u betidagi pasqamlikda sovxozning markaziy shaharchasi. U yer-bu yerda chiroqlar yiltillaydi. Bu chiroqlar tun yaqinlashayotganini Bahromning esiga



soldi. U so'nib borayotgan ufqqa xiyol tikilib turdi-da, keyin beixtiyor sharqqa burildi: kekxa Bobotog' cho'qqilarini chulg'ab, asta bosib kelayotgan qorong'ilik go'yo uning yuragiga ham kirib keldi-yu, vujudini titroq bosdi. Bironta yo'lovchi ko'rinsa-chi! Hatto odatda ko'kni to'ldirib, sho'x-sho'x chug'urlyadigan so'fito'rg'aylar, yo'l ustida qaqqilab, qir tinchligini buzadigan zag'izg'onlar ham ko'rinmaydi. Hammayoq jimjit. Past-baland qirlarni qoplagan barra giyohlar ham shitirlamay, xuddi osmondagi bulutlardan hadiksirab jimib qolganga o'xshaydi.

Bahrom adir ustidagi ilonizi so'qmoqdan chetga chiqmay, og'irligni dam u yonga, dam bu yonga solib, butun vujudi bilan oldinga talpinib bormoqda. Ikki ko'zi yangi tushgan velosiped izlarida. Bu izlar o'zidan bir soatcha oldinroq yo'lga chiqqan o'rtoqlariniki. U qorong'ilik bilan baravar yopirilib kelayotgan vahimani o'zidan quvlash uchun yerdagi velosiped izlarining kimlarniki ekani to'g'risida o'y sura ketdi.

To'satdan chaqmoq chaqib, momaqaldiroq qaldiradi. Bahrom osmon qars yorilib, bosib tushadiganday bo'ynini qisdi. Yakka-dukka tomchilayotgan yomg'ir sharros quyib yubordi. Yo'l lahzada loy bo'ldi. Yurish og'irlashdi. Sirg'anib ketib ag'anab tushsa bormi...

Bahrom pastga qaradi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi: payqamagan ekan, darrov sel kelibdi!

U velosipeddan tushib, yetaklab oldi.

Dara ichini shovqin-suron bosgan: hammayoqda sel sharillaydi. Dam-badam chaqmoq yalt-yult etadi. Ketidan go'yo birov tog'ni toqqa urayotganday qasir-qusur qiladi.

Bahrom seskanib, atrofga alang-jalang qaradi. Har safar momaqaldiroq gulduraganda, «ena»lab dod solishiga oz qoladi.

Sel sharsharasi, momaqaldiroq guldurashi orasida Bahromning qulog'iga qo'y ma'ragani chalinganday bo'ldi. Saldan keyin yana eshitildi. Bu safar qo'y ovozigga qo'zichoqning zorli ma'ragani ham ulanib ketdi.

Ana o'zi! Katta sovliq qorong'i tun ichidan sho'ng'ib chiqdi. U suv yoqalab yelib kelardi. «Jalada suruvdan ayrilib qolib ketgan-ku, jonivor!» — degan fikr ko'nglidan o'tdi Bahromning.

U qo'yni ko'rgan zahoti xuddi yo'ldosh topilganday qo'rquvni unutdi. Yashin yalt etganda, sel betida qalqib oqib borayotgan qo'zichoqqa ko'zi tushib qoldi. Sovliqning bunchalik telbalanib chopishiga endi tushundi.

Bahrom o'ylab-netmay velosipedini yerga yotqizib, kiyimlarini shartta yechdi-da, qo'zichoqqa intildi. Shu payt uzoqda kimdir baqirdi: — Qur-ey, qur-ey!

U suv kechib, qo'zichoqning ketidan borardi. Sel to'pig'iga, tizzasiga, soniga chiqdi. Qo'zichoqqa yetib qo'li cho'zganida esa, belidan oshib qolgandi. Hali oqim bo'ylab yurgani uchunmi, suvning kuchini sezmagani ekan. Endi oyog'ini yerga tirab selga qarshilik ko'rsatgan ham ediki, suv chalqancha ag'dardi-yu, oqizib ketdi.

Shitob bilan oqayotgan sel Bahromni har bir daqiqa sayin birorta xarsangga urib mayib qilishi mumkin. Ammo bu xavf Bahromning xayoliga ham kelmas, ikki ko'zi suv betida goh ko'rinib, goh ko'rinmay lopillaganicha oqib ketayotgan qo'zichoqda. U kuchining boricha o'shanga qarab intilardi. Yetishiga besh quloch... uch quloch..., bir quloch qoldi. Lekin Bahromning og'ziga loyqa suv kirib, yuqoridan yomg'ir savalab ko'z ochgani qo'ymaydi, quloch otishga holi qolmadi. O'pkasi qisilib, darmoni qurib borardi. Sovliq esa hamon qirg'oqda yelib-yugurib dod solmoqda. Qo'zichoq bo'lsa chirqirab «ba»lamoqda... Bahrom o'z ixtiyorini oqimga tashlab qo'yib, bir oz nafasini rostladi-da, yana olg'a intildi. Ha, mana, yaqinlashib qoldi. Yana bir zo'r bersa... xayriyat, ushladi!

Bahrom qo'zichoqni ko'tarib yelkasiga oldi-yu, qirg'oqqa qarab suzdi. Sayozroq joyga yetganida oyog'ini yerga tiramoqchi bo'lgandi, suv zo'rlik qilib surib ketdi. Yaxshiyam Bahrom bir qo'li bilan xursangtoshni ushlab qolgani, bo'lmasa...



U shu ahvolda qancha vaqt tosh ustida yotganini bil-maydi. Qirg'oqqa qanday chiqib qolgani ham esida yo'q. Faqat uyqudan uyg'onganday ko'zini ochsa, kimdir uni chakmonga o'rayotgan ekan.

— Balli, ota o'g'li! — dedi u kishi.

Bu maqtovdan Bahromning vujudiga issiq yugurgan-day tuyuldi.

Bahrom chakmonni egnidan tushirib yubormaslik uchun yaxshiroq yopinib, o'rnidan turdi. Biqini og'rib turibdi. Sel xarsangga urgan ekan-da. Lekin og'riq chidasa bo'ladigan darajada. Qo'lini biqiniga olib borganida bir narsa yopishdi. Shilinganga o'xshaydi.

— Sovuq qotyapsanmi? — deb so'radi chakmonga o'ragan kishi.

Bahrom uni endi tanidi. Jumanazarning dadasi-ku, uchinchi ferma, yettinchi otarning bosh cho'poni. Ollonazar amaki. U sevinib ketdi va junjikayotgan bo'lsa-da, bosh chayqab «yo'q» dedi. U qorong'ida olazarak bo'lib qo'zichoqni qidirdi. Nahotki oqib ketgan bo'lsa?!

Endi so'ramoqchi bo'lib turganida, Ollonazar amaki kuchli qo'llari bilan uni dast ko'tardi-yu, eshakka mindirib qo'ydi.

Shundagina u eshakning panasida turgan qo'yga ko'zi tushdi. Qo'zichoq bo'lsa onasining bag'riga suqilib, miriqib emmoqda edi.

Bahrom qo'zichoqning shiringina bo'lib, tumshug'i bilan onasining yelinini turtib-turtib, chapillatib emishiga qarab jilmaydi-da, beixtiyor oyisini esladi.

Ollonazar amaki «hayt» deb qo'zichoqning tinchligini buzdi. Sovliq oldinga qarab yurdi, qo'zichoq orqasidan yugurdi. Eshak ham yo'rg'alab ketdi. Yo'lda Bahromning kiyim-kechagini, velosipedini qidirib topishdi.

Ertangi kun sarguzashtsiz osoyishta o'tdi. Peshindan keyin Bahrom fermadan sovxoz markaziga ketayotgan avtomashinaga o'tirib internatga jo'nadi.

Yer qurib qolgan, velosipedda ketishi ham mumkin edi-ku, oyisi qo'ymadi. «Biqining tuzalsin», — dedi.

U kechki g'ira-shirada internatga yetib keldi. Hamxonalarining hammasi yotoqda ekan. Lekin qiziq bo'ldi. Odatda «o'rtoq», o'rniga «qo'rqqoq» so'zini qo'shib: «Bahrom qo'rqqoq keldi», deb qarshi oladigan bolalar bugun negadir:

— Ana, Bahrom keldi! — deb o'rinlaridan gurra turib uni o'rab olishdi.

Jumanazarning ko'z qarashlari ham boshqacha. U to'g'ri kelib Bahrom bilan mahkam qo'l siqishib salomlashdi. Shu-shu Bahromni hech kim na «qo'rqqoq» deb xafa qiladi, na «ana bo'ri» deb cho'chitadi. Bahrom o'rtoqlarining muomalalari bunchalik o'zgarib qolganiga o'zi ham hayron: qayoqdan ularga insof kirib qoldi ekan?





G'ani **JAHONGIROV**

(1925–1994)

G'ani Jahongirov 1925- yilda Qirg'izistonning tog'li hududida tug'ilgan.

1946- yil Toshkent Davlat universitetini tugatib, gazeta-jurnal tahririyatlarida ishlaydi. Keyin «Gulxan» jurnaliga o'tib adabiy xodimlikdan bosh muharrirlikkacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Radio eshittirish va televideniye Davlat qo'mitasida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutida mas'ul lavozimlarda ishlaydi.

Ijodi «Sirli don», «To'linoy» (J.Asomiddinov bilan) kabi sahna asarlari bilan boshlangan G'.Jahongirov keyinchalik «Oyga sayohat» (1962) «Delfinni mingan bola» (1972), «Bobomning yeri» (1972) kabi hikoyalar to'plamlarini nashr ettiradi. Xalq og'zaki ijodi yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida filologiya fanlari nomzodi bo'lib yetishadi. Yozuvchining o'zbek bolalar folklori (1976) asari hozirgacha bo'lajak folklorshunoslar uchun muhim qo'llanma vazifasini o'tab kelmoqda.

YAYLOV SHABADALARI

(Hikoya)

Tup suvi bo'yidagi «Qizil tuv» sovxozining bo'limi juda xushmanzara joyda: ikki tog' o'rtasidan daryo, uning o'ng qirg'og'idagi uncha katta bo'lmagan tepa ustida bolchelak — yog'ochdan qurilgan, tomi taxta bilan yopilgan rasmana uy, uyning oldi katta bog', bog' taxta devor bilan o'ralgan, pastroqda, daryo yoqalab qator namat o'tovlar, qirg'izlar uni bo'z uy deyishadi. Ularning birida ferma ishchilari tursa, boshqa birlarida sutning qaymog'ini ajratadigan «separatorlar» o'rnatilgan. Yana birlari sutni tekshiradigan laboratoriya. Bu yerga sanoch va alyumindan ishlangan maxsus idishlarda sut olib kelib topshiradilar.

Haligi yog'och uy Mixail amakiniki, u kishi katta bog'bon, olma, nashvati, olxo'rining bir necha xillarini o'stirgan, Asalari boqadi. Uni qirg'izlar «bolchelak» deb atashadi. Biz: otam, amakim, uning bolalari bilan birga shu uyda turamiz. Uy egasi yoz paytida shaharga ketgan, xotini Dunya xola, men tenggi o'g'li Volodya bilan qizi Natashalar qolishgan. Biz kuni bilan birga o'ynaymiz. O'yinimiz qiziq bo'ladi, ko'pincha qir ustiga chiqib kapalak tutamiz, tutganda ham uzun novda uchiga o'rnatilgan xaltacha bilan tutamiz. Uning ham sharti bor: agar tutgan kapalagimizning qanotlari butun bo'lsa, Mixail amaki bizga asal mo'mi beradi. Uni maza qilib shimamiz. Mixail amaki kapalaklarni asta oq, qalin qog'oz ustiga yotqizadi, ingichka ninalar bilan har joy-har joyidan sanchib qotiradi, keyin o'zi taxtadan yasagan uzun, yalpoq qutichalarga solib, Volodyaning aytishicha, shaharga olib ketadi.

Bizning Volodya bilan sarguzashtlarimiz ko'p. Ertadan kechgacha birga o'ynaymiz, birga ovqatlanamiz. Toqqa ham birga chiqamiz. Tog' shunday yonimizda, bog'ning chetidan boshlanadi. Uncha baland ham emas. Uning ustidan hammayoq — daryoning uzoqdan oqib kelishi, atrofimizda nechta tog' borligi, Qizilqiya dovoni, undan o'tib kelayot-



gan otliqlar, Oqtovning qishin-yozin qor ketmaydigan cho'qqilarigacha ko'rinadi. Biz tog' ustida o'ltirib, uzoqda suvdan o'tib kelayotgan otliqlarning qayoqqa ketishini aytib beramiz. Ular yo bizning ovulga yoki kun chiqar tomonga — Qarqaraga qarab o'tishayotgan bo'ladi. Bizning ovulga kelayotgan bo'lishsa, kim kelayotganini topamiz. Ular albatta bizga tanish kishilar bo'lib chiqadi. Bunda ko'pincha o'rtog'im Qichan to'g'ri topadi. U agar otasi-ning otini boshqa bir kishi minib kelayotgan bo'lsa ham aytib bera oladi. Men ham undan qolishmayman, ayniqsa otamni, qancha odami orasida kelayotgan bo'lsalar ham, tanib aytib bera olaman. Ba'zan rovoch teramiz, kim uzoqqa tosh otish o'ynaymiz. Bir kuni kutilmagan voqea bo'lib qoldi. Biz ko'proq o'ynab qolibmiz, kun isib ketibdi. Soya joyga o'tamiz deb shoxlari qip-qizil, past o'sadigan tovulg'i daraxtining tagiga o'ltirib qolibmiz. Birdaniga Volodya chinqirib qoldiku — u bilmay yovvoyi asalarilarning uyasiga o'tirgan ekan. Arilar menga ham tashlanib qolsa bo'ladimi. Yonimdagi Qichan choponiga o'ranib dumalab yotibdi, Barat dodlab qochib ketayotibdi... Men pastga dumalayverdim. Volodya ham shunday qilibdi, Qichan yotgan joyidan turmay qo'ya qolibdi. Oradan qancha vaqt o'tganini bilmayman, pastdan kattalar chopon, choyshab, ro'mol, paqirda suv ko'tarib kelib, arilarni haydab yuborishdi. Men bilan Volodyani hammadan ko'p ari talabdi. Hammayog'imiz shishib, bir necha kun uyda yotib oldik. Otam yaylovdan yetib keldilar. Avval qo'rqib, keyin xavfli emasligini bilgach kulib yubordilar.

— O'bbo' azamatlar-e, sizlarni ari talagani xo'p yaxshi bo'libdi-da. Endi polvon bo'lasizlar, hech kasal bo'lmaysizlar, yana bir siri shuki, sizlardan endi kaltak o'tmaydigan bo'libdi, — dedilar.

Menga ayniqsa kaltak o'tmaydi, deganlari yoqib tushdi. Volodya, endi kasal bo'lmas ekanmiz, deb sevindi. Qichan bilan Barat esa ari kam chaqqaniga achinishdi. Lekin otam ularni ham ishga solib qo'ydi: hozirdan bir-birlaringiz bi-

lan kurashib, o'zlarini pishitinglar, dedi. Ular otam ketishi bilanoq, ko'z oldimizda to'polonni boshlab yuborishdi. Bundan Volodyaning onasi xafa bo'ldi: nega uyni changityapsizlar, axir oldilaringda bir emas ikki kasal yotgan bo'lsa, uyalmadinglarmi, deb urishdi. Endi biz zerikib qoladigan bo'ldik, axir ular bizni xursand qilish uchun kurash tushayotgan edi-da.

Otam ovulda bo'lsalar menga maza: o'tovning oldidagi maysa o'tlar ustida, kechqurunlari mollar ma'rashib daladan qaytayotganda o'rtoqlarim bilan otamni o'rab o'ltirib olamiz. Otam bizga qiziq-qiziq hikoyalar so'zlab beradilar. Men yonlarida o'ltirib olaman, avval o'zim eshitgan hikoyalarni ham o'rtoqlarim eshitishsin, deb eslariga solib turaman.

— Ota, cho'pchak aytib bering, — deyman. Otam yelkasidagi chiybarxit choponini tortib, etagi bilan meni o'ragan bo'ladi, keyin jilmayib:

— Cho'pchakni bilmayman-ku, — deydi. Men qattiq turib olaman.

— Bilasiz-ku, aytib bering! — deyman. — Ayiqlardan aytib bering, — deyman. Bu gapim otamning esiga soladi. U o'zi ko'rganlaridan, eshitganlaridan hikoya qila boshlaydi.

— Ayiq to'g'risidagi hikoyalarni bilasizlarmi? — deb so'raydi bizdan. Biz «ha» yoki boshqa birimiz «yo'q» dey-miz. Shunda otam qiziqchilik qilib:

— «Ha» deganlaring «yo'q» deganlaringga aytib ber-inglar, deydi. Bolalar hayron qolishadi va baravar bil-maymiz, deya boshlashadi. Shunda otam hikoyasini boshlaydi.

U ayiqning aqlli, lekin sodda hayvonligini, asalni yax-shi ko'rishini, uzoqdan hidini bilib kelishini, asalarichi-lar miltiq otib ularni haydashini aytib beradi. Keyin Aldarko'sa to'g'risidagi hikoyalarni boshlaydi.

Hammadan yaxshi hikoyalarni otam bilan yo'lga chiqqa-nimizda eshitardim. Meni yo'lda zerikib qolmasin desalar kerak-da.



Ikkalamiz otda yonma-yon ketamiz. Otam atrofimizdagi tog'larning, suvlarning, kechuvlarning nomini aytib, shu yerlarda, qaysi bir yili, kim bilan qanday voqea bo'lganigacha eslaydilar.

— Bir kuni Turdivoy akang bilan mana shu yerlarda qir oshib ketayotgan edik, — hikoyasini boshladi otam. Turdivoy akam otamning ustozini, sovxozning tajribali keksa yilqichisi, o'tkir ovchi, qirg'iy boqadi, qarchig'ay boqqanlarga, burgut bilan ov qiladiganlarga ham maslahat beradigan kishi. Ovulda uni hamma «qariya», «oqsoqol» deb hurmat bilan tilga olishadi. — Birdan Turdivoy akang meni chaqirib qoldi:

— Qo'qiy, Akrali, bu yerda qashqir borgan o'xshaydi! — dedi. Men u yoq-bu yoqqa qaradim, ko'zimga hech narsa ko'rinmadi.

— Qani, qashqiring? — dedim.

— Anavuni ko'rmaysanmi, — dedi u uzangiga oyog'ini tirab, ot ustida tik turgan holda. Uning buklog'liq qamchisining uchi bir qarag'ayning tagini ko'rsatardi. — Jur boraylik!

Men otni qichayman, ot ikkilanadi, bo'rining hidini bilib turibdi, jonivor, deyman. Xullas otni majbur qilib, yo'ldan chiqib, daraxtlar oralab, haligi qarag'ay tagiga boramiz. Ko'rsak odam bo'yicha keladigan jo'ngina o'ra, ichi kengroq, o'rada to'rtta bo'ri semirib, har biri arslon bo'lib ketibdi, bizga qarab irillashadi. Ko'zlari yonadi, terisi yaltillaydi. Men qamchinimni egarga tirab turib qarayman, nega ular bu yerga tushib qolishgan deyman. Turdivoy menga izoh beradi:

— Bu Shodmon ovchining ishi, — deydi u. — U jim yurmaydi. Qayerda bo'lsa bir shumlikni boshlab yuradi. Bildingmi, u qashqir bolalaganda kelgan, poylab turib otana qashqirlar yo'q vaqtida, ko'zi yumuq qashqir bolalarini pichoq bilan orqa oyog'ining payini kesib, shu o'raga tashlab qo'ygan. Erkak qashqirni otgan, sho'rlik ona qash-

qir, yoz bo'yi bu bolalarni boqaman deb it kuni boshiga tushgan.

Payi qirqilgan degan so'zning ma'nosiga men endi tushundim. Demak, qashqirlar hech yoqqa yurolmasdan, bir joyning o'zida ovqat poylab yotishaverar ekan.

— Endi nima bo'ladi? — deyman Turdivoyga tajribasizlik bilan. U o'ylab o'tirmaydi:

— Nima bo'lardi. Qashqirlar yetilibdi. Ovchi kelib onasini otib tashlaydi-da, bolalarini ham otib, terisini shilib oladi. — Shunday deb, tezroq ketishga ishora qiladi: — Ko'p turib bo'lmaydi. Boshqaning sho'rini tomosha qilishning xosiyati yo'q, — deydi Turdivoy.

Ketdik. Pastroqqa, bir tepaning orqasiga ham o'tgan edik, Turdivoy menga «qara» ishorasini qildi. Otni to'xtatib qarab turdik. Ko'zim bir narsani tishlab kelayotgan ona bo'riga tushdi. Sho'rlik ozib ketgan, eski junlari ham tushmagan, qovurg'alari shunday sanalib turibdi. U qarag'aylar orasiga, boyagi biz ko'rib kelgan chuqurga qarab ketdi. Xayriyat bizni ko'rmadi. Turdivoy «chu» deb oyog'i bilan otini niqtaladi, ot boshini qo'yib, yonidan nosqovog'ini oldi, kaftini to'ldirib tilining tagiga tashladi. Ko'p joygacha gaplashmasdan ketdik.

Men hanuz o'sha qashqir bolalari haqida o'ylab, har bir qarag'ay tagiga qarab qo'yaman. Otam meni qo'rqdi dedimi, gapga solishga harakat qildi.

— Kuz kunlarining biri edi. Yilqilarimiz anchagina uzoqda, olis yaylovga ko'chirilgan. Kech kirib, mollarni qo'noq joyiga qaytarib kelolmadik. Tunab qolishga to'g'ri keldi. Otlarni tog'ning shunday bir kamgak joyiga taqadik-da, o'zimiz chiqib ketish yo'lini to'sgan bo'lib, poylab yotishga qaror qildik. Otimizning egar-to'qimini olib, o'zini uzun chilvir bilan boshimiz tagiga qo'yilgan egarning qoshiga bog'ladi. Tagimizga xurjunni to'shab, choponimizni yopinib yotdik. Tong o'tay degan paytmidiykin, mening otim «xo'rt» etib sakrab ketdi. Chilviri boshim tagidagi egarni tortib yuborganidan cho'chib uyg'ondim. Turdivoy ham uyg'ondi.



— Qo'qiy, ayu kelganga o'xshaydi! — qichqirib yubordi u. — Miltiqni olib jiber!

Men miltiqni berdim, u olasolib, boshimiz ustida paydo bo'lgan katta toshni poylab, ustma-ust ikki o'q chiqardi. Miltiq ovozi uzoq-uzoqlarda aks-sado berdi.

— Endi ayiq kelmaydi, — dedi Turdivoy, — tinch uxlayver. Uyqu qayoqdan kelsin, tong otguncha yulduz sanab chiqdim. Ertalabki vaqtida sekin so'radim.

— Toshi katta ekan, nega bizni urmadi?

— Ayiq avval jon boshiga bittadan tosh olib kelgandan keyin uradi. Baxtimiz bor ekan, uyg'onib qoldik, — dedi u. Oradan bir-ikki yil o'tdi. Bir kuni Turdivoy ikkalamiz torgina yaylov yo'lidan, jirg'alon bo'ylab, qo'shga non-tuz degandek olib kelayotibmiz. Kuni bilan yo'l yurib charchadik. Nihoyat daryo suvi yarim doira hosil qilgan joyda, o't ustiga tushib, otlarni o'tlatib, dam olmoqchi bo'ldik. Xurjundan non-to'qochlarni, pishirilgan go'sht, kichkina sanochda qimizimizni olib nonushta qila boshladik. Daryoning biz o'ltirgan o'ng yonidan o'rkach-o'rkach tog' boshlanadi. Chap tomoni esa bir vaqtlar suv oqqan, keyinchalik jar qulab, suv yo'li o'zgarib, endi yaxshigina sozloq hosil bo'lgan. Usti yam-yashil barra o't. Sozloq tik tushgan jarlikka borib taqaladi. Men toqqa oyog'imni qilib, yonboshlab, lunjimni to'ldirib ovqat yeyish bilan ovoraman. Chog'imda ochiqib qolibman. Turdivoy bo'lsa oyog'ini suv tarafga uzatib, narigi betga qarab yotgan ekan. Otlarimiz shunday yonimizda o'tlab turishibdi. Nima bo'ldi-yu, Turdivoy og'zidagi ovqatini chaynar-chaynamas bir narsaga tikilib qoldi.

— Ha, Turdivoy, nima qildi? — dedim. U birpas tikilib turdi-da:

— Qo'qiy, anavi yerda ayu borga o'xshaydi! — U menga jarning ustini ko'rsatdi. — Shoshmay tur, toshga ketdi.

Men ayiqni ko'rganim yo'q. Ehtimol toshga ketgandir. Ko'zim ayiqni izlab turib jarning pastiga tushdi. O'tlar qimirlab, bir narsalar g'imirlab yurishibdi.

— Turdivoy, pastda bir narsalar yuribdi, — dedim unga.

— Uningni ko'rdim, to'ng'izlar o'tlab yuribdi. Shoshma, hozir bir ish bo'lay deb turibdi. Ko'rdingmi, to'ng'izlar bolalarini o'tlatib yuribdi. Ho'v narigi kattasi ota to'ng'iz, manov berida turgani ona to'ng'iz, hov teparoqda turgani esa soqchisi. Bu to'ng'izlar juda quv bo'ladi. Hamma tomonni kuzatib turib, bolalarini o'tlatayotibdi.

Men zavq bilan ularni kuzatardim. Bir vaqt kutilmaganida qiy-chuv bo'lib qoldi. To'ng'iz bolalari to'dalashib goh u yoqqa, goh bu yoqqa qochishadi. Ota-ona do'ngroq joylardan atrofga alanglashadi. Mening ko'zim jar tepasidagi o'tlar orasida yurgan ayiqqa tushib qoldi. Xuddi yangilik topgandek:

— Turdivoy, ayiq! — deb yubordim.

— Bu o'shaning qilgani, — dedi Turdivoy.

Tepada turgan ayiq to'ng'izlarga tosh tashlabdi. U tushishi bilan birmi, ikkitami bolasini yiqitibdi. Ayiq yana tosh tashlash uchun qulay mo'ljal qidirib u yoqdan bu yoqqa yurgan vaqti ekan. Oradan uncha ko'p o'tgan yo'q. Ota qo'ng'iz shitob bilan jar yoqasidan tepaga ko'tarilib ketaverdi. Ayiq uni ko'rdimi-yo'qmi, qochmasdan bemalol turardi. Ota to'ng'iz juda katta tezlik bilan ayiq yonidan shuvillab o'tib ketdi. Shu vaqt ayiqning oldingi oyoqlari yuqoriga ko'tarildi, qandaydir qichqiriq ovozi ham eshitildi, keyin yiqilib tushdi. Ota to'ng'iz ayiqning holiga qarab ham qo'ymadi, boyagi chiqqan yo'liga burildi-da, yana tezlik bilan bolalari yoniga qaytdi. Ularni onasi to'plab turardi. Kurtillagancha hammasini ergashtirib, sozloqdan chiqib, suv yoqalab ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

— Akrali, ko'rdingmi buning qasos olganini? To'ng'izning ikki ostki jag' tishi uzun bo'ladi. O'sha ayiqning yonidan suykalab o'tganidayoq uning bir yerini yorib ketdi.



Nosir FOZILOV

(1929)

Taniqli bolalar yozuvchisi Nosir Fozilov 1929- yil 1- iyunda qadim Turkistonning Kariz qishlog'ida dehqon oilasida tug'iladi. Bo'lajak adib qishloq maktabini tugatgach, jamoa xo'jaligida ketmonchi, suvchi, tabelchi bo'lib xizmat qiladi. 1949—1955- yillari O'rta Osiyo Davlat universitetining (hozirgi Milliy universitet) filologiya fakultetida tahsil oladi. Shundan so'ng «Gulxan» jurnalida adabiy xodim, mas'ul kotib, «Sharq yulduzi» jurnalida nashr bo'limining mudiri, mas'ul kotib (1963—1972), G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida muharrir, nashr bo'limining mudiri vazifalarida ishlab, bolalar adabiyotining rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Adibning «Irmoq» nomli birinchi hikoyalar to'plami 1959-yili nashr qilinadi. «Oqim» qissasi bolalar adabiyotida samimiy tuyg'ular, xalqlar o'rtasida do'stlik va mehr-muhabbat kuychisi ijodining shakllanganidan darak beradi.

N.Fozilovning «Saron», «Qush qanoti», «Shum bolaning nabiralari», «Qorxat» kabi qissalari o'zbek bolalar adabiyotining ufqi kengayganidan dalolat beradi.

Uning «Bolaligim — poshsholigim», «Ustozlar davrasida», «Esilasang ko'nglim yorishur», «Saron» to'plamlariga kirgan asarlari bolalar adabiyotida o'ziga xos sahifani tashkil etadi.

O'zbek kitobxonlari taniqli qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz yozuvchilarining talay asarlarini N.Fozilov tarjimasida o'qib keladi.

«Tinchlik va ma'naviy hamjihatlik uchun» xalqaro mukofoti, «El-yurt hurmati» ordeni, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining Beyimbet Maylin mukofoti, respublika Davlat mukofoti sovrindori, Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi N.Fozilov yangi asarlar ustida g'ayrat bilan ishlamoqda.

MENING HUSNIM

Haydar ikkalamiz ikki eshakda shahardan qishloqqa qaytib kelyapmiz. Quyosh tikka ko'tarilib qolgan. Javzo. Ko'lankalarimiz issiqqa dosh berolmaganday borgan sari bag'rimizga tiqiladi... Eshaklar arava izi o'yib tashlagan chuqur yo'lda sap-sariq moy tuproqni bir maromda pop-pup bosib, yalqovgina qadam tashlaydi. Yo'l chetidagi shuvoq va yantoqlarning changdan rangi bilinmaydi, saratonda sarg'ayib zang bosgan simday qovjirab qolgan.

Ikkalamizda ham sas-sado yo'q. Ikkalamiz ham bir muhim narsa haqida bosh qotirib kelyapmiz: boya shahardan chiqaverishda temir yo'l chetidagi shlagbaum tushib, yo'l bekilib qoldi. Uzoqdan poyezdning horg'in qichqirig'i eshitildi. Poyezdning o'tib ketishini kutib turdik. Sal o'tmayoq u «oh-uh» qilib oldimizdan o'tib, stansiyaga kirib ketdi. Ko'z uzmay qarab turibmiz; qizil vagonlarda qo'li, oyog'i bog'langan, qo'ltiq tayoqqa tayangan yarador soldatlar... Ba'zilari turibdi, ba'zilari o'tiribdi. Oq doka bilan boshini bog'lab, ustidan chuchvara qalpog'ini bostirib kiyib olgan soldatning garmojkasi avjida... Vagonlar shaqir-shuqur o'tdi-ketdi. Shlagbaum ko'tarilganda payqab qoldim: Haydarning ko'zlarida yosh!

— Nega ko'zingga yosh olding?

— O'zing-chi? — deydi, ko'zlarini artarkan kulib.

Nega ko'zimizga yosh olmaylik? Mening dadam, Haydarning ikki akasi frontda-ku, axir!

Temir yo'ldan o'tib, shunday yo'l chetiga, ikkita yog'ochga o'rnatib qo'yilgan suratni ko'rib, ikkalamiz ham hayratda qoldik. Kattakon matoga bir oqsochli ayolning surati chizilibdi. U oldinga jiddiy boqib, qo'lini bigiz qilib turibdi. Qarashlarida katta bir sehr borday. U yoqqa o'tsang ham senga qaraydi, bu yoqqa o'tsang ham. Surat tagiga katta harflar bilan: «Sen frontga qanday hissa qo'shding?» deb yozib qo'yilgan. Haydar ikkalamiz eshakda suratning



bir u yog'iga, bir bu yog'iga o'tdik. Bari bir, haligi ayol bizlardan ko'zlarini olmay, qo'lini bigiz qilib turardi: «Sen frontga qanday hissa qo'shding?»

Shahardan chiqqanimizdan beri shuni o'ylab kel-yapmiz. Mana, yigirma besh chaqirim yo'lning yarmi-ni bosib o'tdik. Hali ham o'sha o'y! O'y bilan bo'lib, yo'l chetidagi chigirtkalarining orqa oyoqlarini siltab uchishlariga ham, so'fito'rg'aylarning havoda muallaq qanot silkib, saraton dastidan qilayotgan nolalariga ham e'tibor qilmaymiz.

Bir payt yonginamizdan shaharga bir yo'lovchi o'tib qoldi: shu saratonda ham chakmon kiyib, belini bog'lab olgan. Boshida qalpoq. Ustlariga bir qop-bir qop narsa yuklangan ikkita eshakni haydab ketyapti. Haydar bir-pas yo'lovchining orqasidan tikilib turdi-da, menga qarab jilmaydi:

— Ko'rdingmi?

— Nimani?! — dedim hayron bo'lib.

— Qishloqda nima ko'p, eshak ko'p, — dedi u kulib.

— Nima bo'пти?

— Yig'ib, anavinday qilib bug'doy tashisak-chi? — dedi u yo'lovchiga ishora qilib. — Zagatovka!..

— Men uning maqsadini darrov fahmladim.

— Qoyil! Biroq qishloqdagilar ko'nisharmikan?

— Ko'nishadi. Xoliq boboga aytamiz, o'zi gaplashadi vakil bilan.

— Bo'пти.

Qishloqqa yaqinlashganimizda yo'lni to'g'ri «Qolg'on ko'l»dagi xirmonga qarab soldik.

Hamma yoqni dimoqni qitiqlovchi yangi, xushbo'y bug'doy hidi tutib ketgan. O'roqning endi boshlangan mahali, ish qizg'in. Bug'doy o'rilib, sap-sariq ongiz bo'lib qolgan paykallarda maktab o'quvchilari boshqoq terib yuri-shar, narigi tomonda brichka aravalar ustiga boshlarini ro'mol bilan mahkam tang'ib olgan qiz-kelinchaklar pan-shaxada g'aram ortishar edi. Uzoqdan tanib kelyapmiz:

Xoliq bobo yalang oyoq xirmon sovuryapti. Ustida terdan rangi bilinmay ketgan yaxtak, belini shartta bog'lab, belbog'iga chuvda¹ qistirib olgan... Boshida qozoqi kigiz qalpoq, qayirmasida juvoldiz sanchig'liq. Chang, qipiq bosgan yuzidan bir-ikki tomchi ter pastga chizib tushibdi. G'ir etgan shamol bo'lmasa ham Xoliq bobo yog'och kurak bilan havoda bug'doy shopiradi...

Birdaniga to'rtta xirmon tushibdi bu joyga. Bittasiga Xoliq boboning kichkina nabirasi pol bosyapti. Katta nabirasi G'anish esa narigi xirmonda to'rt-beshta otni qator bog'lab, o'zi biriga minib olib haydab yuribdi. Bu chekkadagi xirmon hali yangi ko'rinadi. Ustma-ust aravada g'aram olib kelib tashlashyapti.

Salom berib, eshaklarimizdan tushdik.

— Katta yigit bo'linglar, — dedi Xoliq bobo bizlarga parvo qilmay. Bizlar indamay uning bug'doy sovurishiga qarab turardik. Qip-qizil bug'doy tepa bo'lib uyilib yotibdi. Top-toza! Xirmon etagida o'rab-chirmab qo'yilgan sochiq, uning yonida xurmacha, ichiga qoshiq solingan zarang... Nariroqda issiqdan xuddi rezinka koptok pallasiga o'xshab qovjirab qolgan handalak kosasining po'chog'i.

Ikkalamiz ham boya yo'lda o'ylagan o'yimizni tezroq Xoliq boboga aytsak, deymiz. Biroq u kuragini qo'ya qolmaydi. Biz bir-birimizga qaramaymiz. Nihoyat u birpas ishdan to'xtab, qalpog'i tagidagi ro'molchasi bilan yuzlarini artdi-da, kuragiga suyanib bizlarga qaradi:

— Qani, Haydar, mana bu bug'doyning orqasiga o't-chi.

Haydar uyib qo'yilgan bug'doy orqasiga o'tdi.

— Qaragin-chi, men ko'rinamanmi? — deb so'radi Xoliq bobo.

— Yo'q, ko'rinmaysiz, bobo!

— Ilohim ko'rinmay ketay, bo'tam, — dedi Xoliq bobo xursand bo'lib. Keyin bilsak, Xoliq bobo hosilni o'lchayotgan ekan.

¹ Jundan eshilgan ip, unda qoplarning og'zi tikiladi.

Shundan keyin bizlar Xoliq boboning xursandligidan foydalanib, maqsadimizni aytdik. U go'yo bir nimani eslaganday, «darvoqe» deb soqolini tutamlab, bir oz o'ylab tolib turdi-da:

— Polnomosh¹ bola, hay polnomosh bola! — deb qichqirdi.

Chekkaroqdagi yangi xirmon soyasida nimalarnidir yozib-chizib o'tirgan kishi bu yoqqa yalt etib qaradi. O'rnidan asta turib, boboning oldiga keldi. U o'rim-yig'im paytida rayondan qishlog'imizga birkitilgan vakil edi. Boshida oq kolomenka kepka, egnida oq ko'ylak, belini ingichka belbog' bilan bog'lab olgan, popugini yoniga osiltirib qo'yibdi. Galife shim, etik. Yaqinlashganda ko'rdim: xuddi burnining tagiga qo'ng'iz yopishirib olganday mo'ylov...

— Xo'sh, oqsoqol? — dedi u, Xoliq boboning yonginasiga kelib. Keyin «nima gap?» deganday, bizlarga bir-bir qarab qo'ydi.

— Bir gap chiqib qoldi... — Xoliq bobo bizlarning rejamizni o'zimizdan ham ziyod qilib aytib berdi. — Xo'sh, bunga nima deysiz?

Ko'rib turibmiz, bu fikr vakilga juda yoqdi: og'zining tanobi qochganda qo'ng'iz mo'ylovchasining yarmi o'rmalab burniga kirib ketganday bo'larkan. U go'yo: «Qaysi biringdan chiqdi bu aql?» — deganday ikkalamizga qarab qo'ydi.

— Hoziroq rais bilan gaplashish kerak. U kishi ham yo'q demaydi, bilaman, — dedi qo'llarini uqalab. — Yashavoringlar! Shu bugunoq bo'sh eshaklarni to'planglar. A'lo fikr! Yigirmata eshak yig'ilsa, o'rta hisobda ellik kilodan g'alla yuklansa... O'h-ho', bu deyarli bir tonna g'alla degan so'z. Har kuni!. Xo'sh, nechta bola kerak bo'ladi?

— Beshta eshakka bitta bola yetadi.

— Barakalla!

¹ *Upolnomochenniy* — (vakil) so'zining buzilgani.

Shu kuniyoq to'plangan eshaklarning soni yigirmadan oshib ketdi. Bolalardan Haydar, men, Roziq, A'zam, Xoliq boboning nabirasi G'anishlar boradigan bo'ldik.

Shu-shu bo'ldi-yu, «Eshak karvon» atalib ketdik. Eshitishimizga qaraganda, bu tashabbusni boshqa qishloqdagi-lar ham ma'qullashibdi. Uch-to'rt kundan so'ng zagot zerno eshigi oldida boshqa qishloqdardan kelgan «Eshak karvon»larni ham ko'rdik.

Og'zimiz qulog'imizda. Ilgarilari yo'l chekkasida turgan suratdagi ayol har o'tganimizda: «Sen frontga qanday hissa qo'shding?» deb ta'na qilsa, endi go'yo: «Frontga sen hissa qo'shyapsan!» deb bizlarni, faqat bizlarni ko'rsatib tur-ganday bo'lardi.

Kunduz kunlari jun qoplarga bug'doy solib, og'zini tikib, tayyorlab qo'yamiz-da, saharda — Cho'lpon yulduzi tug'ilgan mahalda qoplarni eshaklarga yuklab, yo'lga tushamiz. Bitta eshakning yukini sal yengil qilib, ustiga cho'qqayib minib olamiz-u, to'rtta-to'rtta eshakni yetaklaymiz... Ba'zan yo'lda Roziq degan bola uyqu-ni qochirish uchun g'alati qo'shiqlar, latifalar aytib beradi.

Shunday qilib, zagotzernoga yetib kelganimizni ham sezmay qolamiz. Har kuni shu ahvol: shaharga ertalab kelamiz. Bug'doyni topshirib, tush mahalda qishloqqa yetib boramiz. Yo'lda, Qorachiq soyiga kelganda chang bosgan ust-boshlarimizni qoqib-silkib, cho'milib, afti basharala-rimizni yuvib olamiz...

Bir kuni to'qqiz yuz qirq kilo, deb olib kelgan g'allamiz zagotzernoda to'qqiz yuz o'n sakkiz kilo chiqib qoldi. Qoplar u yoqda ham, bu yoqda ham taroziga ko'tarasiga qo'yiladi. Baqbaqasi osilib tushgan, xo'ppa semiz, basharasidan yog'hidi anqib turadigan tarozibondan shubhalana boshladik. Bari bir kam! Nima bo'ldi o'zi?!

G'allani topshirib bo'lib, jun qoplarimizni qo'ltiqlab ko'chaga chiqsak, oramizda Roziq yo'q. To'polonda uning bor-yo'qligini ham payqamabmiz. Ancha kutdik. Bir ma-



hal qo'ltig'ida o'rog'liq kanop qop, yonida bir novcha oriq bola, bozor tomondan tirjayib kelyapti. Negadir uning bu ishi yoqinqiramadi bizlarga.

— Ammamning o'g'li, — deb tanishtirdi Roziq yonidagi bolani. Manglayiga bir parcha soch qo'yib olgan bu bola bizlar bilan bir-bir qo'l berib ko'risharkan «Erik!» deb bosh silkirdi. Shaharlik uchar bolalardan ekanligi ko'rinib turardi. U bizlarni katta yo'lgacha kuzatib qo'yib, ketiga qaytdi...

Qorachiqqa kelib suv ichib, cho'milib, yana yo'lga tushdik. Bir oz yurmasimizdanoq Roziq qornini changallab voy-voylay boshladi.

— Nima bo'ldi? — so'raymiz atrofini o'rab.

U zo'rg'a:

— O'-rik... — deydi.

— O'rik?! E, o'rik yeb, sovuq suv ichsa ich og'riydi, deyishardi, — dedim men.

— O'rikni qayoqdan olib yeyqoluvding? — dedi Haydar, bir narsa sezganday.

— Ammamning o'g'li... — deydi-yu, qo'ltig'idagi o'rog'liq narsani batta bag'riga bosadi.

— Bu yoqqa ber, — dedi Haydar, o'rog'liq qopga qo'lini cho'zib. — Nima, yeb qo'yarmidik? O'zi nima ahvolda-yu, bag'riga bosadi tag'in?!

— Nima ekan o'zi?

Haydar kanop qopdagi o'rog'liq narsani ushlab ko'rib, Roziqning basharasiga tikildi.

— Etikmi? Qayoqdan olding?

— Ammamning o'g'li...

Haydar kanop qopni tortib olib, yerga ag'dardi: bir juft kirza etik gurs etib yerga tushdi. Qopning burchak-burchagidan ikki siqimcha bug'doy tuproq ustiga duv to'kildi...

Hamma narsa ayon bo'ldi. Roziq yo'l-yo'lakay «zahar-tanqib qolgan» bo'lib, orqada qolar ekan-u, kanop qopga bug'doy solib, «ammasining o'g'li»ga oshirar ekan. Keyin hammamizning qopimiz ko'tarasiga tortilganda, uning aybi

yopilib qolaverar ekan. Shu zahotiy oq uni karvonchilar safidan bo'shatdik. U aybiga iqror bo'lib, bu gap shu yerda qolishini yalinib so'radi. Ikkinchi bunday qilmayman, deb yolvorganidan so'ng boshqa indamadik.

Karvonimizdan haydalgandan so'ng Roziq xirmon atrofiga ishlay boshladi: suv olib keladi, chuvda eshadi, bug'doy qoplashadi... Bora-bora otga minib qo'riqchi ham bo'lib oldi. Bizlarni ko'rsa xo'mrayib, salom ham bergisi kelmaydi.

Shu kunlarda yosh bolalar ham bosh oq terar, uch marta xirmonga to'kib, bir marta o'z uylariga olib ketishga haqli edilar. Kecha Haydarning kichkina singlisi o'z ulushini uyiga olib ketayotgan ekan, Roziq otda orqasidan quvlab borib, qo'lidagi xaltasini tortib olibdi. Bechora qiz chirqiragancha qolaveribdi. Shu bilan u Haydardan anovi ishi uchun o'ch olibdi go'yo...

Shahardan qaytib kelayotib, u bilan bir ochiqchasiga gaplashib, ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'ldik. Nima, bizlar ko'pchilikmiz, u bitta. Ferma mudirining o'g'li bo'lsa o'ziga! Tinch yursin-da...

Tushida xirmonga yetib kelsak, xayriyat u bor ekan. Bir nimani sezganday, Xoliq boboga shoshilinch nima-dir dedi-yu, otga mina boshladi. Ikki marta sakrab zo'rg'a mindi. Men asta borib, otning jilovini ushladim. Haydar xotirjam uning yoniga borib:

— Qani, bu yoqqa tush! — dedi.

— Nimaga?

— Gap bor.

— Nima gaping bor, aytaver... — Roziqning rangi dokadek oqarib ketdi.

— Tush deyapman senga! — deb, uni Haydar yulqib yubordi. Roziq qulab tushay dedi sal bo'lmasa. Ot jilovini ushlab turib, bir g'alati narsaga ko'zim tushib qoldi: Roziq ot yolini quchib pastga engashganda o'ng oyog'idagi kirza etigi qo'njidan shuv etib bug'doy to'kildi. Jahlim chiqib ketdi! Ot jilovini chaqqon G'anishga tutqazdim-da, bir sakrab, uni otdan ag'dardim. Birpasda to'polon bo'ldi-qoldi.



Jahl ustida Haydar yiqilib yotgan Roziqni ikki marta tepdi. Qayoqdandir, qo'lida kuragi, Xoliq bobo yetib keldi.

— Hoy, bo'taloqlarim, nima bo'ldi sizlarga? Hoy, jin-garcha, bas!

Hamma chetga chiqdi. O'rtada so'ppayib Roziq qoldi. Shu payt vakil yigit ham yetib keldi:

— Nima gap o'zi?

— Etigini yechsin, nima gapligini bilasiz... Yech etikni!

— Senga aytayapmiz! — dedi Haydar. Shunda ham Roziq o'rtada bezrayib turaverdi. Xoliq bobo bilan vakil yigit hali ham hayron. Haydar shaxt bilan borib Roziqni itarib yubordi. U gandraklab borib o'tirib qoldi. Men osongina uning o'ng oyog'idagi etigini sug'irib olib yerga to'nkardim... Anchagina bug'doy to'kildi yerga.

— O'ynoqlagan toyloq o't bosmayin qo'ymaydi. O'ynoqlab, uyingga tez-tez borib kelishingdan qo'rquvdim. Bundan chiqdi, har uyingga borganingda shuncha bug'doy ketarkan-da! Qani, yech etikni, fermanın arzandasi, sal-lot etigingni harom qilma! — boboning soqollarigacha tit-rab ketdi. — Halolning qadami olti quloch-u, haromniki bir qarich... Yech!

Roziq chap oyog'ini ham asta etikdan sug'irib oldi: shuv etib bir kaft bug'doy to'kildi yerga.

— Har kuni necha marta borib kelarding uyingga?— so'radi vakil astagina.

— Shu edi xolos... — dedi Roziq yig'lamsirab.

— Rostingni ayt!

— Rost, mana Kabirdan so'rang, ishonmasanglar... — deb yonida turgan ukasiga qaradi.

— Tulki o'z dumini guvohlikka chaqirayapti, — dedi kimdir.

Birdan kulgi ko'tarildi.

— Bor endi, tuyog'ingni shiqillatib qol! — dedi Hay-dar. — Ikkinchi xirmonga yaqinlasha ko'rma!

Roziq asta o'rnidan turdi-da, xuddi o'g'ri mu-shukdek oramizdan sirg'alib chiqib, orqa-oldiga qara-

may jo'nab qoldi Xoliq bobo astoydil xafa bo'lib, vakilga qarab dedi:

— Mana, ko'rib qo'y, polnomosh bola, qo'li egri bolani! Tag'in bu ferma mudirining o'g'limish-a!

Roziq ancha joyga borib qolganda Haydar orqasidan qilchqirdi:

— Ammangning o'g'liga salom deb qo'y!..

* * *

Mana, shundan beri yigirma ikki marta bug'doy o'rildi. U vaqtlarda eshak ham juda zarur edi. Hozir esa eshak u yoqda tursin, hatto arava ham mashina zamonasiga tushgan yamoq bo'lib qoldi. Ba'zan o'ylab ketaman: «O'sha vaqtlarda kechani kecha, kunduzni kunduz demay qilgan mehnatlarimiz, birimiz otamizdan, birimiz og'amizdan ayrilib chekkan mashaqqatlarimiz evaziga emasmikan bu baxtli hayotimiz? Hozirgi e'tiborimizning, qadr-qiyimatimizning, hayotni sevib, qadriga yeta olishimizning muqaddimasi emasmikan o'sha tashvishli yillar?..

Ba'zan Roziqni eslab ketaman. U shundan beri menga bir-ikki marta xat yozgan bo'ldi. U yozgan xatlarida nuqul mening tinch-omonligimni «tabiatning eng nozik joylari»dan so'rab turadi... Ha, aytganday, yaqinda Roziqning o'zi mehmon bo'lib kelib ketdi. Haliyam o'sha-o'sha Roziq. O'sha yengiltakligi. Biroq biqqiday semirib ketibdi. Gap-so'zlariga qaraganda tashvishi, dardi yo'q. Qayerdayam, bir joyda ombor mudiri bo'lib ishlarkan. O'sha urush yillarida bo'lgan voqealarni eslab kulishdik. U, bu voqealarni «qiziq» deb kuldi. Men bo'lsam, uning o'sha bema'ni bolaligi ustidan kuldim.

— Ob-bo do'stim-ey... — deb kuldi u, semiz sonlarini silab. — Ja o'zgarib ketibsan-a. Yuzlaringga ham ajin tushib qoptil..

— Ha endi... — deb qo'ya qoldim men. Boshqa nima ham deyman? Deganim bilan tushunarmidi? Yo'q, inson yuzidagi har bir ajin uning mehnati-mashaqqati, dardi-qu-



vonchi evaziga tushgan muhr ekanini u qaydan bilsin? Inson baxti-saodati, hayot zarurati ishqida tushgan har bitta ajin kishiga husn baxsh etishini u qaydan bilsin?

Bu haqiqatni turmushning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan odamgina biladi!

TUG'ILGAN KUNIM

Bugun uydan ko'z yoshi qilib chidim. Hamma ko'ngil xiralik choy ustida bo'ldi: ertalab turib, yuvinib, kiyindim-da, hamma choyga o'tirganida men qovog'imni solib, papkamni yig'ishtira boshladi. Oyim:

— Mansurjon, o'g'lim, avval choyingni ichib ol, papkang qochmas, — dedilar.

Indamadim. Dadam o'tirayotib, oyimga imo qilib asta so'radilar.

— O'g'lingizga nima bo'lgan bugun, onasi?

— Bugun shanba, dadasi... — deb kuldilar oyim.

— E-ha, esim qursin, bugun Mansurvoy o'n ikkiga to'ladi-ya! — Dadam o'rnilaridan turib kelib meni quchoqlab o'pdilar. — Tabriklayman, o'g'lim... Qani, bundoq o'tir-chi, o'zi nima gap?

Men hamon indamasdim. Gappa tag'in oyim aralashdilar.

— O'g'lingizning esi-dardi velosiped. Tunov kuni bir g'ing'illaganda, tug'ilgan kuningda sovg'a qilaman, demabmidingiz?

— Bor-yo'g'i shumi, o'g'lim? Uncha qiyin gap emas ekan-ku. Shu bugunoq bajo qilamiz-da, — dedilar dadam. Keyin oyimga qarab so'zlarida davom etdilar. — Sharofat, ishdan so'ng magazinga kirib o'ting. Bugun qisqa kun-ku. Mening boshqa yerda ozroq ishim bor edi.

— Mayli, — dedilar oyim.

Jon-ponim chiqib ketdi. Indamay turolmadim.

— Voy-bo', ishdan keyin?!

— Ha, nima bo'пти? — dedilar dadam.

— Ishdan keyingacha magazinda velosiped turarmidi? — dedim yig'lamsirab.

— Turmay, g'ildirab chiqib ketarmidi magazindan?

Ko'rib turibman, dadamning sal jahllari chiqdi. Shunday bo'lsa ham to'ng'illadim:

— Opketib qolishadi...

— Ha, opketsa bittasini opketar, ikkitasini opketar. Nima, hammasini opketarmidi! Juda betoqat bo'pqopsanda, o'g'lim. Odam degan unday bo'lmaydi. Ich choyingni!..

— O'zi, kecha ikkitagina qoluvdi. — Ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi. Choy icholmadim. Hali maktabga ertaroq bo'lsa ham papkamni olib, zarda bilan uydan chiqib ketdim.

Katta ko'chaga chiqib olgunimcha dastro'molim bilan ko'zlarimni artdim. Ko'cha ancha sovuq bo'lgani bilan havo ko'ngil ochadigan darajada tiniq edi. Quyosh endi chiqqa boshlagan, ba'zi kech qolgan yalqov xo'rozlar erinibgina qichqirardi. Qishloq allaqachon uyg'ongan: ko'chada odamlar o'rmalab qolibdi. Kolxoz idorasi oldidagi simyog'ochga o'rnatilgan radiokarnayning tovushi aniq eshitilib turibdi.

Men maktabga har kuni mana shu katta yo'l bilan boraman: hu yo'lning chetida bir oyoq so'qmoq bor, ana ko'rinib turibdi. O'ng tomonidan bo'lsa katta kanal oqadi. Kanalning ikki tomonida qator mirza teraklar... Yozda bu kanal bizlardan bo'shamaydi: cho'milganimiz- cho'milgan. Yo'lning o'ng tomonidagi iloniziga o'xshab cho'zilib yotgan so'qmoqdan necha marta «kim o'zishga» o'ynab chopishganmiz. Moy tuproqni bosganing sayin bilq-bilq etib, oyoqlarim rohat qiladi. O, ayniqsa velosipedda uchsang bu so'qmoqdan! Shunday chiroyli izlar tushiradiki!.. Asti qo'yaverasiz... Endi men ham velosipedli bo'laman. Mana shunday qilib uchadi akang qarag'ay: po'sht-po'sht, yo'g'e, jiring-jiring!.. Qochinglar-qochinglar!..

Shunda Olim kelib menga yalinadi:

— Mansur, bir uchay, berib tur?

Men o'tgan yozda eski velosipedini bermaganini yuziga solaman. U yana yalina boshlaydi:



— Jon Mansur, hech bo'lmasa oldingga o'tqaz?

— Qoch nari, urib ketaman! — deyman men unga, — jiring-jiring...

Men xayolan qo'llarimni rul ushlagandek qilib, velosipedda uchib ketar ekanman, to'satdan bir odamga kelib urilib ketdim.

— Avariya, — dedim men ko'zlarimni chirt yumib. — Sindi velosiped!

— Nima deyapti bu tentak? — deganday bo'ldi birov. — Qanaqa avariya, qani velosiped?!

Ko'zlarimni ochib yuborsam, oldimda mo'ylovlarini silab Ahmad pochta turibdi. Qishlog'imizda hamma uni Ahmad pochta, deb ataydi.

— Salom! — dedim uyalganimdan.

— Mana bu boshqa gap. Vaalaykum assalom, — dedi u. — Qo'rqitib yubording-ku, tentak. To'xta, dadangga bir telegramma bor, chopib oborib ber. Hali maktabingga erta-ku. Men boshqa yoqqa borishim kerak. Juda ishlarim ko'p. Mana... — u orqasiga osib olgan pochta sumkasidan qidirib telegrammani olib berdi.

— Xo'p, — dedim. Telegrammani olib orqamga qarab g'izillab ketdim. Uyga kelsam, dadam bilan oyim endi choylarini ichib bo'lishib, ishlariga jo'nashmoqchi bo'lib turishgan ekan. Telegrammani baland ko'tarib kirib bordim.

— Telegramma!

— Kimdan ekan? — dedilar dadam paltolarini kiya-yotib. Yo'lda ochib o'qimabman ham. Oyim kelib, telegrammani shoshilinch ochib o'qiy boshladilar. Ko'rib turibman, oyim xursand bo'lib ketdilar.

— Akmaljondan! — dedilar oyim.

— Kimdan dedingiz? — so'radilar dadam oyimga yaqinlashib.

— Akmaljondan. Kelyaptimish, — dedilar oyim. Dadamning yuzlariga ham tabassum yugurdi.

— Shu bugun kelayotgani juda yaxshi bo'ldi-da, — dedilar dadam. — Sharofat, Mansurjonning yig'ilishiga jid-

diyroq tayyorlanishga to'g'ri keladi endi. Axir, Akmaljon kelyapti-ya!

— Dada, u kim!

— U amaking bo'ladi, yaxshi amaking, — dedilar dadam. Keyin soatlariga qarab, meni qistab qoldilar. — O'ho', bor, o'n besh minut qolibdi maktab mahalingga!

Men eshikdan chiqqa chopdim, to maktabga yetib bor-gunimcha bir marta ham to'xtamadim. Jiqqa terga tushib ketdim. Mendan boshqa hamma bolalar shu yerda ekan. Quloqchinimni olib eshikdan endi kirgan edimki, sinf-komimiz Qo'chqor xuddi uradigan odamday oldimdan chiqib:

— To'xta! — desa bo'ladimi!

— Nima deysan, qo'yvor-e! — dedim harsillab. U meni o'qituvchimiz o'tiradigan joyga olib keldi-da:

— Shu yerda tur! — dedi. Bolalar miq etmay joy-joy-larida o'tirishar edi. Bir mahal orqada o'tirgan Olim yonidagi bolaga nimadir shivirlab, piq etib kulib yubordi. Bolalar unga o'girilishib, shunday o'qrayib qarashdiki... Olim yerga qaraganicha jim bo'lib qoldi. «Bir gap bor, shekilli. Nima gap o'zi? Tezroq aytisha qolmaydimi-e!..» deb turib-man ichimda.

Bir mahal Qo'chqor xuddi konsertlarda chiqadigan dirijyorlardek, bolalarga qarab ikki qo'lini baland ko'targan edi, butun sinf gur etib oyoqqa turdi. Qo'chqor yana qo'li bilan ishora qildi. Bolalar baland ovoz bilan xor bo'lib:

— Man-sur do's-ti-miz-ni tu-g'il-gan ku-ni bi-lan tab-rik-lay-miz! — desa bo'ladimi! Nima qilarimni bilmay qoldim. Sevinganimdan ko'zlarimdan yosh chiqib ketay dedi.

Keyin Qo'chqor menga, «hammamizning nomi-mizdan», deb bir dasta sovg'a berdi, albom, turli bo'yoq qalamlar, qo'l fonari... naq yalt-yalt qiladi. Men shoshib qolib, bir tuzukroq gap ham aytolmadim.

— Rahmat, — dedim Qo'chqorga.

— Rahmat, — dedim sinfdosh do'stlarimga.



Bolalar sinfni boshlariga ko'targuday chapak chalishib, «ura»lab qichqirishdi. Men chapaklarga ko'milguday bo'lib, asta joyimga borib o'tirdim. O'tirdim-u, darsga qo'ng'iroq ham chalindi...

Darsning qanday qilib tez o'tganini bilmay qolibman. Naqadar xursandchilik bilan o'tdi bu besh soat. Hamma senga do'st, sen hammaga do'st! Shunday xushchaqchaq, mehribon do'stlaring orasida xafa bo'lishga o'rin bormi? Yo'q, albatta!

Uyga kelsam, oyim ham ishdan endigina kelib turgan ekanlar, meni ishga chaqirdilar:

— Mana bu stolni kengaytirib o'rtaga qo'yib yuboraylik. Kech bo'lib qoldi. Halizamon mehmonlar kelib qolishadi. Ke, ko'tarishvor. Bo'l-bo'l, magazinga kechikib qolamiz.

«Magazinga kechikib qolamiz», degan so'zni eshitib, menga jon kirdi. Tez papkamni stolga qo'yib yechindim-da, oyimga qarasha boshladim: stolni kengaytirib o'rtaga qo'ydik. Oyim stolga hali tutilmagan yangi ko'k gulli dasturxon yozdilar, keyin bufetdagi vazalarda turgan konfet, shokolad, pechenye, pirojniylarni stol ustiga terib qo'ya boshladilar. Yo'ldan tort ham olakelgan ekanlar oyim sho'rlik, sumkalaridan ehtiyot qilib olib, stolning o'rtasiga qo'ydilar-da, qalay, deganday menga qaradilar. Men tortga qarab tirjaydim, og'zimdan so'laklarim oqib ketdi. Tort shirin-u, biroq hozir men uchun velosiped shirinroq-da!

— Bo'ldi endi, yuring oyi! — dedim oyimni shoshirib.

— Hozir, o'g'lim, hozir! — Nazarimda oyim stolda yana nimalar yetishmaydi, yana nimalar qo'ysa stol usti ochiladi — shularni o'ylayotgan bo'lsalar kerak. Qo'llarining orqasi bilan stolning bo'sh qolgan joylarini urib, aylanib yurib, qandaydir bir ashulani xirgoyi qilar, orachora: «Ikkita shaman... la-la-la, tarala-la-lam... stolichniy... hi-hi, him, la-la... konyak...» deb qo'yardilar:

— Bo'ldi, o'g'lim, — dedilar oyim bir mahal, — sen anu sumkani ko'tarib ol. Yo'lda men g'iz etib oziq-ovqat

magaziniga kirib chiqaman. Ozroq ichkilik olmasam bo'lmaydi. Ungacha sen magazinga borib, velosipedning eng yaxshisini tanlab turasan. Xo'pmi?

— Xo'p!..

Nihoyat yo'lga tushdik. Ko'channing boshiga borganda oyim sumkalarini olib oziq-ovqat magaziniga burildilar-u, men velosipedi bor magazinga qarab chopdim. Shunday borib magazinga kirsam, ko'z oldimda yarqillab bitta velosiped turibdi. Kecha ko'rganimda ikkita edi. Bugun bitta! Yarq-yarq qiladi: g'ildiraklari, spislari, ruli nikellangan. O'zi och ko'k rangda, ana, nasosi. Nepilining qopqog'iga taqilgan zanjiri anavi sotuvchi kishining cho'ntagida osilib turgan zanjirday yarqiraydi. Sap-sariq...

Magazinda ikkita sotuvchi yuribdi: biri yoshgina ayol, ikkinchisi qirqlarga borib qolgan mo'ylovli, yo'g'ondan kelgan odam. U bilan gaplashishga qo'rqadi kishi. Shunday bo'lsa ham jur'at qilib so'radim:

— Amaki, velosipeddan tag'in bormi?

— Bori shu! — dedi do'rillab sotuvchi.

Muncha qo'pol. Men yana og'zimni ochgunimcha boshqa xaridorlar bilan ovora bo'lib ketdi. Bitta qopti! Yuraklarim dukillab ura boshladi. Qani endi oyim kelsalar-chi? Kutib turibman... kutib turibman, oyimdan dom-darak yo'q. Him, yaxshisini tanlab tur, emish, o'zi bitta qopti-ku!

Men kelgandan beri magazinga nechta odam kirib, nechta odam chiqib ketdi. Oyim hali yo'q... Bir mahal shlyapa kiyib olgan, qoramtir paltoli, o'rta bo'yli bir kishi kirdi magazinga. U birpas magazinni tomosha qilgan bo'ldi-da:

— Kechirasiz, aka, bolalarbop nimangiz bor? — deb so'radi sotuvchidan.

— Nima kerak edi sizga? — dedi mo'ylovli sotuvchi nihoyatda muloyimlik bilan iljayib. Og'zida ikkita tilla tishi bor ekan, iljayganda ko'rinib ketdi.

— Nima bo'lsa ham olib borganda xursand bo'ladigan bo'lsin, — dedi haligi shlyapali kishi.

— Ha, o'g'lingiz necha yoshda?

— O'n ikkida.

— Unday bo'lsa, mana palto bor, drapdan. Yaxshi kostyumimiz bor, bolgarlarniki. Tikilishi yaxshi, ammo fasoni ham chakki emas. Xo'sh, velosiped bor. Menimcha, hozirgi bolalar kiyimdan ham velosipedni yoqtirishadi, — deb kuldi sotuvchi.

— Shunday deng, — deb shlyapali kishi o'ylanib qoldi. Yuragim qinidan chiqib ketay dedi. Tashqariga qarab otildim. Oyim ko'rinmaydilar. Yana qaytib kirdim magazinga. Kirsam haligi shlyapali kishi sotuvchiga pul sanab berayotgan ekan. Nima bo'lganini bilmayman: prilavkaga iyagimni tiraganimcha qoldim. Prilavka ustiga ko'zlarimdan ikki tomchi yosh oqib ketdi...

Bir mahal kimdir orqamdan kelib yelkamga qo'lini qo'ydi. Bundoq qarasam, oyim. Ko'z yoshlarimga qarab darrov sezdilar shekilli:

— Tamom bo'ptimi? — dedilar tashvishlanib. Mendan javob ololmagach, sotuvchiga murojaat qildilar: — Assalomu alaykum, Shobarot aka.

— Iye, iye kelsinlar, kelsinlar, Sharofatxon.

— Bolalar velosipedidan bormi?

— Oxirgisini olib ketdi-ya! Iye, bu yigitcha sizning o'g'lingiz bo'larmidi? — dedi sotuvchi parvona bo'lib. — Shu gaping bor ekan, boya ayta qolmaysanmi, jiyani. E, attang, sen ilgari keluvding-a? Mayli, hechqisi yo'q, xafa bo'lma, jiyani. Erta-indin shaharga tushib yana olib chiqamiz. Shunda senga eng zo'ridan beraman o'zim, jiyani.

— Shu bugun kerak edi-da, — dedi oyim. — Ha, mayli, rahmat sizga. Yur, o'g'lim.

Sotuvchi go'yo bir narsa berib qoyil qilib qo'yganday.

— Arzimaydi, kelib tursinlar, — deb qo'lini ko'ksiga qo'ydi. Biram jahlim chiqdiki!

Uyga qaytdik. Oyimning qo'lida sumka. Undan uchto'rtta shishaning bo'yni chiqib turibdi. Shu shishalarni deb oyim kechikib keldilar. Shu shishalarni deb velosipeddan qoldim. Bo'yni uzilsin bu shishalarning!

O'yg'a kelguncha yo'l-yo'lakay men ham indamadim, oyim ham bir nima demadilar. Shu ko'yi hovliga kelib kirdik. Kelsak, dadam ham ishdan qaytib uyda yurgan ekanlar. Bizlarning avzoyimizni darrov payqadilar shekilli, tashvishlanib oyimdan so'radilar:

— Nima bo'ldi? Tugabdimi?

— Bittasi qolgan ekan, mana bu ordona qolgurni deb yetolmay qoldim, — deb qo'llaridagi sumkani ko'rsatdilar-da, uyga kirib ketdilar oyim. Biz ham oyimning orqalaridan uyga kirdik.

— Bundoq tushuntirib aytsangiz-chi, axir, qanday qilib? — dedilar dadam.

— Men oziq-ovqat magaziniga burilib, Mansurjonni yuborgan edim. Bu borganda bittasi bor ekan. Men bor-gunimcha ilib ketishibdi.

Dadam diqqatlari oshganidan uyda u yoqdan-bu yoqqa yurib, pariros cheka boshladilar. Bir mahal yozuv stoli ustida turgan kuldonga papirosning qoldig'ini tashladilar-da, jahl bilan ezdilar, so'ng o'girilib mendan so'radilar:

— Qanaqa odam oldi, taniysanmi?

— Tanimayman, shlyapali, katta kishi, — dedim to'ng'illab.

— Qani, yur bo'lmasa... — deb dadam meni qo'limdan yetakladilar.

— Ha, qayoqqa? — stol ustiga haligi olib kelgan shishalarni qo'yar ekanlar, hayron bo'lib so'radilar oyim.

— Magazinga! Haligi odamni topib iltimos qilib ko'ramiz. Balki, berar...

Dadam meni yetaklab hovliga chiqqanda ko'cha eshikdan yiqila-surila qo'shnimizning o'g'li Olim kirib keldi:

— Mansur, Mansur! Velosiped... — hovliqqanidan tili gapga zo'rg'a aylanar edi. Qanaqa velosiped, deb so'rab ulgurmasimizdan, eshikdan velosiped ko'targan kishi kirib keldi. Darrov tanidim: boya magazinda ko'rgan kishim! Qoramtir palto, shlyapa, o'rta bo'yli... Xuddi o'zi!..



— Akmal!.. — dedilar dadam quchoq ochib. — Do'stim!

— Sharif! — dedi haligi kishi ham quchog'ini ochib. Birpasda dadam bilan apoq-chapoq bo'lib quchoqlasha ketdi. Men hayron bo'lib qoldim. Goh ularga, goh ayvonning chetiga suyab qo'yilgan velosipedga qarayman. Qulog'imga ularning gapi kirmaydi. Ana, Olim velosipedning oldiga borib qoldi, ana qo'llari bilan ushlab ko'ra boshladi. Qo'y deyishimni ham, demasligimni ham bilmayman. To'g'rida, velosiped birovniki!

— Mansur, bu yoqqa kel. Akmal amaking bilan ko'rishmaysanmi, — dedilar dadam. Men:

— Salom, — deb asta qo'limni cho'zdim. U meni bag'riga bosdi:

— Ob-bo, Mansurvoy-ey, azamat yigit bo'pqopsan-ku, a? Qara-ya, do'stim, hash-pash deguncha sakkiz yil ham o'tib ketibdi-ya.

— Bu amaking bilan oying, hammamiz universitetda birga o'qiganmiz, o'g'lim. Sen to'rt yoshga to'lganda Xorazmga ishga ketgan edi, — deb kuldilar dadam. U ham kuldi. Keyin dadam oyimni chaqirdilar:

— Sharofat, hoy Sharofat, bu yoqqa bir qarang, kim keldi!

Oyim ham uydan chiqib apoq-chapoq bo'lib ketdilar. Birga o'qishgan ekan, axir. Keyin Akmaljon amakim meni yetaklab velosipedning oldiga olib bordilar.

— Mana Mansurjon, senga sovg'a. O'n ikki yoshing qutlug' bo'lsin!

— Mansurning tug'ilgan kunini qayoqdan bilasan? — dedilar dadam kulib.

— Esingdan chiqibdi-da, a? To'rt yoshga to'lgan kunini yotoqda nishonlamabmidik? O'shanda yon daftarimga yozib qo'ygan edim. Kuni kechagiday esimda.

— Obbo sen-ey, qani do'stim, ichkariga marhamat. O'sha davrlarni eslab, bir chaqchaqlashaylik, — dedilar dadam Akmal amakimlarning yelkalariga qo'llarini tashlab. Men dadamni sekin chetga imlab chaqirib so'radim:

— Azonda kelgan telegramma shu Akmal amakimdanmidi?

Dadam bosh silkib tasdiqladilar. Men yana shivirladim:

— Boya magazindan velosipedni sotib olgan odam — shu Akmal amakim edi.

Dadam ko'rsatkich barmoqlarini og'izlariga olib borib, «jim» dedilar. Oyim ham buni fahmladilar shekilli, dadam bilan ko'z urishtirib, sal bo'lmasa kulib yuborayozdilar...

Ular ichkariga kirib ketishdi. Endi velosiped meniki. Men quvonchimni ichimga sig'dirolmay tirjayaman. Olim bo'lsa hasaddan tirjayadi.

Yo'q, do'stim, men qizg'anchiq emasman. Qarab tur, yoz chiqib, kunlar isisin, birgalashib uchishamiz. Hali katta yo'l chekkasidagi egri-bugri moy tuproqli so'qmoqqa talay-talay izlar tushiramiz. Ha, ishonaver!..

Shunday qilib, ko'z yoshi bilan boshlangan mening bugungi kunim xursandchilik bilan tugadi...





Xudoyberdi **TO'XTABOYEV**

(1933)

O'zbek bolalar adabiyotining dovrug'ini nafaqat rus, ukrain, qozoq, ozarbayjon, gruzin, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman kitobxonlari, balki arab, ispan, ingliz, fransuz, nemis, bolgar, chex, yapon bolalari orasida ham ma'lum va mashhur qilgan Xudoyberdi To'xtaboyev 1933- yil 17- dekabrda Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanida dehqon oilasida tavallud topadi.

Qo'qon pedagogika bilim yurti va Toshkent Davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet)da (1950—1955) tahsil ko'radi. Ma'lum muddat o'qituvchilik qilgach, respublika gazeta va jurnallari tahririyatlarida turli lavozimlarda xizmat qiladi.

O'z ijodini feletonlar yozishdan boshlagan adibning «Shoshqaloq» nomli birinchi hikoyalar to'plami (1962) dan so'ng ketma-ket «Sir ochildi» (1964), «Sehrli qalpoqcha» (1964), «Sariq devni minib» (1973), «Besh bolali yigitcha» (1975) va boshqa kitoblari e'lon qilinadi.

Mazkur asarlari bilan o'zbek bolalar adabiyotida sarguzasht janri rivojiga katta hissa qo'shgan yozuvchi «Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jajji qissa», «Sehrgarlar jangi yoki shirin qovunlar mamlakatida», «Qasoskorning oltin boshi» nomli qissa va romanlari bilan sehrli qalam sohibi ekanligini namoyish etadi.

Feletonchilikdagi ijodiy tajribasi hayotdagi illatlarni o'z asarida uchqur xayollar egasi bo'lgan bolalar nigohi orqali fosh etishga yordam beradi.

Respublika Davlat mukofotining laureati, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev yangi asarlar ustida qizg'in ijodiy ish olib bormoqda.

OMONBOY BILAN DAVRONBOYNING SARGUZASHTLARI

(Qissa)

Birinchi bob

SHOFYOR AMAKINING SUV SO'RAB KELGANI VA SHU BAHONADA TANISHIB OLGANLARI

Davronboy oltiga kirgan. Omonboy yana bir oydan so'ng to'rtga to'ladi. Bu ikki aka-uka tog'lar etagidagi «Qo'rg'oncha» deb atalmish olis qishloqchada, dovdaraxtlarga ko'milgan bir hovlida yashashardi. Ilgari bu yerlar sal-pal zerikarli edi, o'ynash uchun o'rtoq topilmas edi. O'rtoq axtarib qishloqning ichkarirog'iga boraylik, deyishsa, Mahmud olako'zning kuchugidan qo'rqishar edi... Endi bo'lsa, unchalik zerikarli emas, sal-pal qiziqarliroq ham bo'lib qoldi. Nega desangiz, yaqinda qishloqni qoq ikkiga bo'lib, o'rtadan kattakon yo'l o'tdi. Uyda zerikib qolsang, shundoqqina ko'chaga chiqsang, tamom — g'izillab o'tayotgan mashinalarni tomosha qilib, maza qilib o'tira berasan.

Omonboy bilan Davronboy bugun ham shunday qilishmoqchi edi — to'g'rirog'i, kunbotar tomonga o'tayotgan mashina qancha-yu, kunchiqar tomonga o'tayotgan mashina qancha, shuni bir hisoblab ko'rishmoqchi edi. Ammo...

Oq tovuq bilan qora tovuq tuxum tug'ish uchun xuddi maslahatlashgandek bir vaqtda katakka kirib qolishsa bo'ladimi! Siz ehtimol, xo'sh, katakka kirgan bo'lsa nima bo'пти, o'zi tug'averadi-da, poylab o'tirish shartmi, deb o'ylarsiz? To'g'ri, shart emas, o'zi tug'sa ham bo'laveradi. Lekin masalaning bir muhim tomoni borki, buni hech qachon unutmazlik kerak. Gap shundaki, oq tovuq Omonboyniki, uning tuxumi sal kattaroq bo'ladi. Qora tovuq Davronboyniki, uning tuxumi odatda sal kichikroq bo'ladi. Davronboy buni hech tan olmaydi, hamisha tuxumning kattasini o'ziniki qilib oladi. Shuning uchun Omonboy



ko'chaga chiqib, g'izillab o'tayotgan mashinani sanashdan voz kechdi:

— Men tovug'im tug'ayotganda tuxumini poylab o'tiraman! — dedi u katakning ro'parasiga kelib.

— Men ham poylab o'tiraman, — uning yonginasiga o'tirdi Davronboy ham. — Bugun mening tovug'im sal kattaroq tug'ishi kerak.

— Hecham-da, sening tovug'ing hamisha kichkina tug'adi.

— Bugun katta tug'adi. Boshingga bir tushiraymi! — dedi akasi qo'lini musht qilib.

— Betingni timdalab olaman! — deb ukasi ham sekin o'rnidan tura boshladi.

Aka-uka jo'ja-xo'rozdek tikkama-tikka bo'lib olishib ketishdi.

Akasi qora tovuq bugun katta tuxum tug'ishi mumkinligini, ukasi o'sha qora tovuq hecham katta tuxum tug'a olmasligini isbotlamoqchi edi. Xuddi shu paytda to'satdan, ha-ha, to'satdan, ko'cha eshikni kimdir do'mbira qilib chala boshladi... Aka-uka bir-birlarining yoqasidan qo'lini olib, vahima ichida jim qolishdi.

— O'g'ri! — rangi o'chib shivirladi Omonboy.

— Shpion bo'lsa-ya, — dedi Davronboy ham qo'rquv ichida.

Eshik yana taqilladi. «Kim bor», — degan ovoz ham eshitildi ketidan.

Aka-uka bitta-bitta bosib, eshik yoniga borishdi. Tir-qishidan asta mo'ralab qarashgan edi, xayriyat, o'g'ri ham emas, shpion ham emas, chelak ushlagan novcha bir amaki ekan.

— Amaki, siz kimsiz? — deb so'radi o'zini bosib olgan Davronboy.

— Shofyorman, — degan ovoz qaytdi eshik orqasidan.

— Shofyor bo'lsangiz, nega mashinangizni haydamay, bizning eshik oldida turibsiz?

— Mashinam buzilib qoldi.

— Nega buzilib qoladi?
— Yuki og'irlik qilib baloni yorilib ketdi-da.
— Yukni ozroq bossangiz bo'lmasmidi?
— Menga qara, yaxshi bola, sen ham mening o'g'linga o'xshab savollarni yog'dirib tashlashga usta ekansan... Ozgina suv bergin.

— Suv o'zingizgami yoki mashinagami?
— Obbo... O'zimgayam, mashinamayam...

To'g'ri, Davronboy deganlari chindan ham sersavol bola edi. Savol bermayman, desa ham bergisi kelaverardi. Hozir ham shunaqa bo'ldi. Hech narsa haqida so'ramayman deb turuvdi, to'satdan: «Mashinangiz KRAZmi yoki samosvalmi?» — deganini o'zi ham bilmay qoldi.

— KRAZ, — degan javob qaytdi eshik orqasidan.
— KRAZ bo'lsa, unga suv bermayman.
— Nega endi bermas ekansan?

Bu amakining o'zi ham qiziq ekan-da, nega deb so'rab o'tiribdi-ya, axir hamma narsa ravshan-ku! Bo'ldi-bo'ldi bo'lganda, yuk tashuvchi mashinalar Omonvoyga, yengil mashinalar Davronboyga taqsimlangan. Yo'l yoqasiga chiqib, kimning mashinasi ko'p o'tishga o'ynashganda Omonboy yuk mashinalarini, Davronboy yengil mashinalarni sanashga haqli.

Davronboy bu gaplarni tushuntirib beruvdi, novcha amaki shu oddiygina haqiqatni haligacha bilmaganiga afsuslanib:

— Shunaqami? — dedi qoshlarini kerib.
— Shunaqa! — deb qo'ydi Davronboy ham ta'kidlab.

Novcha amaki eshikni ochib yuborishini so'rab, endi Omonboyga murojaat qila boshladi. Omonboy o'ziga qarashli mashinaga va uning novcha shofyoriga suv darkor bo'lib qolganiga negadir xursand bo'lib ketdi.

Davronboy bo'lsa juda hushyor va ehtiyotkor bo'lganligi uchun yuk mashinasi to'xtagan-to'xtamaganligini tekshirib ko'rish maqsadida, narvonga tirmashib tomga chiqqa boshladi. Narvonning oxirgi pog'onasiga chiqar-chiqmas:



— Voybo'y, mashinaning kattaligini qaranglar! — deb qichqirib yubordi.

Bu orada har qanday ishni ham juda tez bajarishga o'rgangan Omonboy allaqachon eshikning tambasini tushirib bo'lgan edi. Qo'liga pachaqlangan bir chelak ushlab olgan, dadalariga o'xshash novcha, yelkari keng, yalpoq yuzli, koziryogi ikki qarich keladigan chipor shapkasini sal qiyshaytirib olgan shofyor amaki Omonboy eshikni ochishi bilan:

— Barakalla, azamat, sen juda esli bola ekansan, — deb moy hidi kelib turgan kattakon kafti bilan Omonboyning boshini silab qo'ydi. Omonboy haqiqatan ham azamat va haqiqatan esli bola edi. Shuning uchun ham shosha-pisha:

— Amaki, men-chi, kechasi yotayotganimda kindigimga yog' surtib yotaman! — deb axborot berdi yana.

— Mana buni chinakam qahramonlik desa bo'ladi! — novcha amaki bu gal Omonboyning yelkasiga qoqib qo'ydi, — Suvni qayerdan ichasizlar?

— Bog'da hovuz bor, — negadir hovliqib dedi Omonboy, — orqamdan yuravering... Undan keyin-chi, amaki, men ovqat yeyishdan oldin q o'limni yuvib kelaman.

— Voybo'y, sen chindan ham ajoyib bola chiqib qolding-ku!

— Undan keyin-chi, amaki, men ovqat yeganimda labimni chapillatmayman.

— Ofarin!

— Davron-chi, amaki, juda yomon bola. Har kuni mening katta tuxumimni olib qo'yadi.

— Shoshmay tursin, uni bir boplaymiz hali.

— Uni mashinaga chiqarmaymiz, bo'ptimi?

— Bo'pti.

— Amaki, meni mashinaning kabinasiga o'tqizib qo'yasiz, xo'pmi?

— Xo'p.

— Signalini chalib ko'rsam maylimi?

— Mayli.

Amaki bilan Omonboy mana shunga o'xshash ba'zi bir muhim narsalar haqida o'zaro bitimga kelishib, bog' etagidagi kattakon hovuzdan chelakni to'ldirib suv olib chiqqunlaricha, hamma narsaga birinchi bo'lib ulguradigan oyog'i chaqqon Davronboy allaqachon mashinaning oldiga yetib borgan edi. Bunday qarasa, mashina haddan tashqari katta, ketida prisepi ham bor, ustiga katta odamlarning ham qulochi yetmaydigan trubadan ikkitasini yuklab qo'yishgan ekan. Prisepdagi balonning dami chiqib ketib, ulkan trubalar bir tomonga sal og'ib, hatto yiqilay-yiqilay deb turgan ekan. Davronboy ko'p mashinalarning ustiga chiqqan, bir xillarining signallarini ham chalib ko'rgan edi-yu, lekin bunaqangi bahaybat mashinaga hech chiqmagan edi. Bir chiqib maza qilmoqchi bo'luvdi, hech ilojini topolmadi. Shuning uchun ham mashinaning atrofida gir aylanib yuraverdi. Bu orada Omonboy bilan novcha amaki ham kelib qolishdi. Novcha amaki dami chiqib ketgan balonga qarab uzoq tikilib qoldi, bosh chayqadi, keyin chelakdagi suvni bo'yi barobar ko'tarib yana simirib icha boshladi.

— Amaki, bu trubalarni qayoqqa olib boryapsiz? — deb so'radi Davronboy.

— Juda uzoqqa, — o'yg'a tolib dedi novcha amaki.

— Ko'prikning ustiga qo'yasizlarmi?

Mana shu savoldan keyin bir tomonda Davronboy bilan Omonboy, bir tomonda uh tortib, ketma-ket sigaret tutatayotgan novcha amaki o'rtalarida ajoyib bir suhbat boshlanib ketdi... Ma'lum bo'lishicha, bu bahaybat trubalarni ko'prikning tagiga yotqizish uchun emas, balki bir-biriga ulab yer ostiga ko'mib, gaz olib kelish uchun ishlatishar ekan. Gaz degan narsa bami-soli lampa moyiga o'xshab lovillab yonar ekan. Uning olovi shunaqangi o'tkir bo'lar ekanki, ko'z ochib yumguncha qozondagi sho'rvani biqirlatib qaynatib yuborar ekan, pechkalarni ham, tandirlarni ham qizdirib yuboraverar ekan.



Shundan keyin do'stona va samimiy suhbat davomida yana shu narsa ham ma'lum bo'ldiki, bu qishloqning bolalari o'taketgan sho'x bolalar ekan. Ayniqsa hu, ro'paradagi mo'risidan buralib-buralib tutun chiqib turgan hovlida yashaydigan Mahmud olako'z degan bola hammasidan ham qiyig'i ekan. O'tgan yili Omonboy bilan Davronboylarning shaftolisini, ayni pishganida, bitta qo'ymay tagiga to'kib ketibdi, katakdagi tuxumlardan ham hech kimga bildirmay, tez-tez olib turarkan. Xullas, mana shu boladan juda ehtiyot bo'lish kerak ekan...

Ikkinchi bob

AKA-UKALARGA G'OYAT MAS'ULIYATLI TOPSHIRIQ BERILGANLIGI

Bu bobning voqealari, ochig'ini aytsam, mashinaning signalini chalishdan boshlanib ketdi. Omonboy sekin-sekin chalib, har chalganida signalning yoqimli ovozidan zavqlanib, maza qilganidan boshlarini silkitib kulayotgan edi, uning yonida o'tirgan Davronboy to'satdan shunaqangi qattiq chalib yubordiki, mashinaning soyasida o'tirib, ketma-ket sigareta chekib, o'y surayotgan shofyor amaki ikki qo'li bilan qulog'ini berkitib:

— Hoy, bolakaylar, qulog'imni teshib qo'ydinglaringku! — dedi.

— Ajab bo'ldi! — dedi Omon akasiga tanbeh berib.

Davronboy ham ukasiga o'xshab mashinaning kabinasida mazza qilayotgandi: oyog'ini likillatib o'tirish, uzoq-uzoqlarga ko'z tashlash, kattakon rulni uyoq-buyoqqa burib ko'rish, signal chalish — xullas, hammasi gashtli edi-da. Davronboy ana shulardan bir yo'la mahrum bo'lishdan qo'rqib:

— Amaki, tuxum pishirib bersam yeysizmi? — deb so'radi shosha-pisha.

Shofyor amaki kechadan buyon tuz totmagan, qorni haddan tashqari och edi.

— Tuxumni qayerdan topasizlar? — deb so'radi.

— Omborxonada ikki chelak tuxum bor! — akasining o'rniga javob qaytardi Omonboy.

Shofyor amaki, qani ketdik bo'lmasa, degan edi, aka-ukalar: «Mana hozir, mana hozir», — deyishib, mashinaning signalini ustma-ust bosishaverdi. Oxiri shofyor amakining toqati-toq bo'lib ketdi.

— Qo'yinglar-e, meni aldagan ekansizlar-u!

— Hecham-da, shoshilib dedi Davronboy, — tuxum achib yotibdi... Oyim kecha dadamga: «Shu zormandalarni tezroq bir yoqli qilmasangiz, ariqqa ag'darib tashlayman», — degan, bildingizmi!.. Faqat bizda gugurt yo'q, oyim berkitib ketgan. Omonboy bir marta og'ilxonaga o't qo'yib yuborgandi. O'shandan keyin har kuni berkitib ketadi.

Shofyor amakida gugurt bor ekan.

Uchovlari uyga qarab yugurishdi.

Shofyor amaki, hali aytganimizdek, haddan tashqari och edi. Tuxumlarni tezroq pishirib, tezroq yeb olish uchun shoshayotgandi. Aka-ukalar bo'lsa, shunaqangi ajoyib va g'aroyib mashinaning shofyoriga xizmat qilish imkoniyati tug'ilgani va undan ham muhimi, tuxum bor deb yolg'on gapirmayotganliklarini isbotlash uchun shoshishayotgan edi.

Ishning uyog'i juda tez yurishib ketdi. Davronboy omborxonadan bir chelak tuxumni inqillab ko'tarib chiqdi. Omonboy bir quchoq o'tin olib keldi. Novcha amaki o't qalab, qozonga suv soldi, tuxum tashladi.

— Amaki, sizning ham o'g'illaringiz bormi? — so'rab qoldi Davronboy.

— Ikkita o'g'lim, uchta qizim bor, — sal-pal o'yga tolib dedi novcha amaki. — Qizlarim katta bo'p qolgan, o'g'illarim bo'lsa sizlar tengi.

— Mashinaga tushirib, kataysa qildirsangiz bo'lmaydimi?

— Bo'ladi.

— Nega bo'lmasa hozir tushirmadingiz?



- Ular juda olisda-da.
 - Amaki, bizni o'sha yoqlarga olib borib keling, jon amaki!
 - Qayoqlarga deysan?
 - O'sha gaz bor joylarga-da.
 - Uyoqlarda nima qilasan?
 - Gaz olib kelardik-da... Chelakni to'ldirib olib kelardik.
 - Gazni chelakka quyib bo'lmaydi-ku?
 - O'zingiz lampa moyiga o'xshab suyuq bo'ladi dedingiz-ku?
 - Suyuq bo'ladi-yu, lekin bari bir chelakka quyib bo'lmaydi-da.
 - Bo'lmasa shishada olib kelamiz, xo'pmi?
- Omonboyning ham shu paytda juda-juda gaplashgisi kelib ketdi. Shuning uchun ham shosha-pisha qo'li bilan akasining og'zini berkitib:
- O'sha yoqda bo'rilar ham ko'pmi? — deb so'radi shofyor amakidan.
 - Uchrab turadi, — o'yga tolib dedi amaki.
 - Siz qo'rqmaysizmi?
 - Qo'rqmayman.
 - Qorningiz ochib qolsa nima yeysiz?
 - Ba'zan chidashga to'g'ri keladi.
 - Suvsab qolsangiz-chi?
 - Uniyam bir ilojini topamiz.
- Shofyor amaki shu paytda qozon ostiga o't qalab, goh Davronboy bilan, goh Omonboy bilan qiziq-qiziq narsalar haqida gaplashib o'tirgan bo'lsa-da, xayoli boshqa yoqlarda edi. O'g'illarini, qizlarini juda-juda ham sog'ingan edi u. Bunday xomcho't qilib ko'rsa, ularni ko'rmaganiga bir oycha bo'lib qopti-ya!.. O'g'illari hozir qayerlarda yurishgan ekan? Yoki ko'chaning boshiga chiqib, dadamiz kelib qolarmikan, deb yo'l poylab o'tirganmikan... Bu yoqda bo'lsa balon yorilib, ishning pachavasi chiqib o'tiribdi...

Omonboyning nazarida shofyor amaki ertaklardagi pahlavonlardek bo'lib ko'rina boshladi. Bu bo'rilardan qo'rqmaydigan, suvsizligu ochlikka chidab ketaveradigan amaki chindan ham ertaklardagi qahramonlarning o'zginasi edi. Omonboyning bu amakiga yaxshilik qilgisi, nima bilandir xursand qilib, barakalla, o'g'lim, degan ovozini eshitgisi kelib qoldi. Amakining orqasidan asta-sekin kelib yelkasi osha qo'llarini ko'ksiga tashlab qulog'iga:

— Og'ilxonada echkimiz bor, ko'rsataymi? — deb so'radi.

— Yo'q, keyin, — deb qo'ydi amaki.

— Televizorimiz yap-yangi, qo'yib beraymi. O'yinchi qizlar chiqadi.

— O'yinchi, qizlarmi... Ularniyam keyin ko'rarmiz.

Amakining bunaqangi beparvoligi, Omonboy yaxshi ko'rgan narsalarning hammasiga befarq qarashi uning alamini oshirib, jahlini chiqarib yubordi:

— Endi sizga hecham she'r o'qib bermayman! — dedi to'satdan.

Omonboyning yig'lamsirab turishi shofyor amakining xayollarini qochirib, o'zini hushyor qilib qo'ydi:

— Voybo'y, hali sen she'r o'qishni ham bilasanmi?

— dedi u qiziqqanidan o'rnidan turib.

— Nima desam, yo'q-yo'q-yo'q, deydilar...

— Omonboy, men rostdan ham she'rni yaxshi ko'raman, qani, bittasini o'qib yubor-chi!

— Aldayapsiz!

— Aldasam... har narsa bo'lay, qani-qani!

Omonboy shu zahotiyuq alamini unutib, o'zidan-o'zi zavqlanib, ikki qo'lini yoniga tushirdi-da:

— *Davronboy xo'ja,*

Bulturji jo'ja.

Bola ochadi,

Tashlab qochadi!

— deb kimdandir eshitgan she'rini ifodali o'qib berdi.



Shofyor amakiga she'r yaxshigina ta'sir qildi shekilli, qah-qah otib kulib yubordi. Shunaqangi qattiq kuldiki: hovlida donlab yurgan tovuqlar cho'chib, har tomonga qochib qolishdi.

— Obbo, Omon mirzo-yey, — dedi amaki oxiri. — Beri kel, bir achomlashaylik, barakalla! Menga o'g'il bo'lasanmi?

— Voy, sizga o'g'il bo'lsam, o'zimning dadam yetimcha bo'p qoladi-ku! — qoshlarini kerib, taajjubdan ko'zlarini katta-katta ochib dedi Omonboy.

Shofyor amaki yana kulib yubordi. Kulisha-kulisha, o'rtaga tuzluqni qo'yib olib, to'yunlaricha tuxum yeyishdi, ketidan qora qumg'onda choy qaynatib ichishdi, eng oxirida og'ilxonadan bitta yo'g'on yog'och olib chiqib, qiyshayib borayotgan trubalarning o'ng tomoniga tirab ham qo'yishdi.

— Ish degan mana bunday bo'lipti, — dedi shofyor amaki mamnun bo'lib, — Davronboy, sen esli bolasan, shundaymi?

— Men ham esliman, — akasidan oldin javob qaytardi Omonboy.

— Ikkovlaringga bitta muhim topshiriq bor, juda ham muhim... Men hozir yo'lovchi mashinalardan biriga o'tirib, bir joyga borib kelaman. Men borib kelguncha mashinani poylab o'tira olasizlarmi?

— Poylab o'tira olamiz! — baravariga javob qaytarishdi aka-ukalar.

— Hech kim kabinaga yaqin bormasin, xo'pmi?

— Xo'p.

— Demak, sizlarga ishonsam bo'ladi-a?

— Bo'ladi, — dedi Davronboy hamma javobgarlikni o'z zimmasiga olib, — faqat qaytayotganingizda bizga bir chelak gaz olib kelib berasiz, bo'ptimi?

— Menga ikki chelak olib kelasiz! — deb topshiriq berib yubordi Omonboy ham.

Shofyor amaki yo'lovchi mashinaga o'tirayotganda yana bir marta: «Sizlarga qattiq ishondim, begona odamlarni mashinaga yo'latmanglar», deya iltimos qilib ketdi.

Davronboy bilan Omonboy bir so'zli, va'dasining ustidan chiqa oladigan azamat bolalar edi, shuning uchun ham ulkan mashina va uning ustidagi mashinadan ham ulkan trubalarga begona bolalarni yaqin yo'latmaslik choralarini ko'ra boshlashdi. Aka-ukada qurol-yarog'lar juda mo'l edi: plastmassadan yasalgan ikki xanjar, og'ziga olchanning danagini solib otsa, har qanday yovni qirib tashlay oladigan ikkita miltiq va yana o'sha plastmassadan yasalgan bo'lsa ham chinakam tankalardan hech qolishmaydigan «T—34» markali ikkita tanklari bor edi. Dadalarining uvadasi chiqib ketgan eski to'nini mashinaning soyasi tushib turgan tomonga to'shab, qurol-yarog'larini shay qilib, poyloqchilik qilishga kirishishdi.

— Mahmud olako'z kelib mashinaga tegsa, o'ldira-man, — deb qo'ydi Davronboy.

— Men-chi, aka, miltig'im bilan otib tashlayman, xo'pmi? — dedi Omonboy ham dadillanib. — Aka, shu mashina meniki, a?

— Yo'q, ikkovimizniki.

— Hecham-da, yuk mashinalar meniki edi-ku?

— Endi ikkovimizniki bo'ldi.

— Bekor aytibsan! — achchig'i chiqib ketdi Omonboyning.

— Boshingga bir tushiraymi! — dik etib o'rnidan turdi Davronboy.

— Betingni timdalab olaman! — barmoqlarini burgut panjasidek yozib, akasining ustiga bostirib kela boshladi Omonboy.



Uchinchi bob

BU BOBNING MAZMUNINI O'QIGANDAN KEYIN BILIB OLASIZ



oylari ishdan qaytganda Davronboy bilan Omonboylar ko'chada poyloqchilikda turishgandi.

— Voy, o'lmasam! — dedi oyilari boshidagi salkam bir qop o'tni yerga qo'ya turib, — bog'chaga bormadilaringmi?

— Endi hecham bog'chaga bormaymiz, — shoshilib dedi Davronboy, — biz endi poyloqchilik qilamiz.

— Oyi, men akam bilan urishmadim, — deb axborot berib yubordi Omonboy.

Bir tomonda daladan horib-charchab qaytgan oyilari, bir tomonda poyloqchilik qilamiz deb oftobning damida terga pishib ketgan va puxtagina qurollanib olgan yosh soqchilar — Davronboy bilan Omonboylar tikka-tikka turib, rosa savol-javob qilishdi. Oyilari nima bo'lganda ham bog'chadan qolmaslik kerak edi, aftilaringga qarab bo'lmaydigan bo'lib ketibdi, o'sha yerda ozodagina yurgan bo'lardilaring, degan gaplarni aytdi. Yosh soqchilar bo'lsa, aftimiz bilan ishingiz bo'lmasin, mashinani tashlab ketishga haqqimiz yo'q edi, degan gaplarni aytishdi. Aka-uka bir bo'lganlari uchun, oyilari yengilib, uncha xafa ham bo'lmay, uncha xursand ham bo'lmay, haligi salkam bir qop o'tni ko'tarib, ichkariga kirib ketdi.

Xuddi shu paytda kunbo'yi kutilgan eng dahshatli xavf — Mahmud olako'z paydo bo'lib qoldi. U eshagini yalang'och minib, bo'lar-bo'lmasga irillayveradigan, tumshug'igacha jun bosib ketgan kuchukchasini ortidan ergashtirib, qo'lida tuguncha, jadal yurib kelar edi, mashinaga yaqinlashgach, eshagini to'xtatib, hayrat ichida uzoq tikilib qoldi:

— Voybo'y, kattaligini qaranglar! — dedi nihoyat ko'zi chaqnaq, — kimning mashinasi bu?

— Bizniki! — ataylab qovog'ini solib dedi Davronboy.
— Shofyor amaki bizni qorovul qilib ketgan, —
qo'shimcha qildi Omonboy, — qaytayotganda bizga chelakda
gaz olib keladi...

— Borib-borib senlarni qorovul qildimi, a?

— Qildi, alam qilsin!

— Bir tepsam yetti dumalab ketasan-ku!

Mahmud Davronboydan bor-yo'g'i bir yosh katta,
xolos. Aka-ukalarni yolg'iz uchratdi deguncha, albatta
yig'latib qochadi. Lekin hozir Davronboy bilan Omonboy
undan zig'ircha ham qo'rqishmadi, nega desangiz, qo'llarida
qurollari bor! Mahmud ham mana shu xanjaru miltiqlar-
dan sal-pal qo'rqdi shekilli:

— Opamnikiga pomidor olib ketayapman, bo'lmasa
ta'zirlaringni berib qo'yardim-a! — deb asta jo'nab keta
boshladi. Bexavotirroq joyga borib olgach, eshagining boshi-
ni tortib: «Hali kelib, mashinalaringni ustiga chiqib, tru-
balarini daranglatib chalib mazza qilib o'ynayman», deb
qo'ydi.

Asta-sekin kech kirib, qorong'i tusha boshladi. Bu orada
oyilari, ovqat pishdi, ichib olinglar, deb ikki marta cha-
qirib ketdi. Keyingisida televizor qo'yib beraman, «Olamga
sayohat» bo'lyapti, har xil hayvonlar chiqyapti, deb yol-
vorib ham ko'rdi. Aka-ukalar ko'nishmadi. Biz kirib ket-
sak, begona bolalar trubalarni dumalatib ketishadi, deb
turib olishdi. Uchinchi gal oyilari to'ppa-to'g'ri keldi-da,
hech narsa demay, Davronboyni chap qo'ltig'iga, Omon-
boyni o'ng qo'ltig'iga qisib, chumchuq boladek chirqil-
latib uyga olib kirib ketdi. Yerga qo'yib ikkovining ham
orqasiga — yumshoq joylariga bir tarsakidan tushirib:

— Qaysar bo'lmay ketgurlar! — deb urishdi.

Davronboyga negadir juda alam qilib ketdi, ho'ngrab
yig'lab yubordi:

— Endi ovqatingizni ham ichmayman! — javrab alamini
chiqara boshladi, — uyingizni poylamayman, echkingizga
ham qaramayman!



Oyilari chiday olmadi shekilli, ikki o'g'lini tizzasiga olib ter hidi kelib turgan kir peshonalaridan o'pib: «Do'mboqlarim, bilmay qoldim, kechiringlar», deb uzr so'radi.

Aka-uka hiqillashib o'tirib, chuchvara yeyishdi, so'ng indamasdan borib, o'rinlariga yotishdi-yu, boshlariga choyshab tortib olishdi.

— Ukajon, o'zimizni uxlaganga solib yotamiz, xo'p-mi? — sekin shivirladi Davronboy.

— Nega unday qilamiz, akajon? — undan ham pastroq ovozda so'radi Omonboy.

— Biz uxlasak, oyim dadamga ovqat olib boradilar.

— Uxlamasak-chi?

— Obormaydilar... Unda biz mashina poylashga chiqolmaymiz, xo'p degin, jon uka!

— Keyin ertak aytib berasanmi?

— Aytib beraman.

— Tuxumniyam kattasini berasanmi?

— Beraman.

— Xo'p.

Oyilari shoshilib boshini yuva boshladi, keyin katta-kon toshoyna yoniga kelib, sochini uzoq taradi, atir sepdi, quloqlariga sadarayhon shoxchalaridan qistirib oldi. Eng oxirida tashqariga chiqib, kastryulga to'ldirib chuchvara soldi, oyoq uchida bitta-bitta yurib kelib, yolg'ondakam pishillab yotgan Davronboy bilan Omonboyning peshanasidan ohista-ohista o'pib, yana oyoq uchida yurib chiqib ketdi.

Ko'cha eshik g'ichillatib yopilishi bilan aka-ukalar sapchib o'rinlaridan turib, o'choq boshidagi xanjaru mil-tiqlarini olib, chinakam soqchilardек qaytadan qurollana boshlashdi.

— Aka, biz hech kimdan qo'rqmaymiz-a? — so'radi Omonboy poyloqchilik qiladigan o'rinlariga borgach.

— Qo'rqmaymiz! — deb qo'ydi Davronboy.

— Aka, ajnaning bir quloch dumi bo'ladimi?

— Bilmasam.

— Aka, alvastilar kunduzi qayerda yotishadi?

— Bilmasam, — qo'rqqanidan ukasidan battarroq qaltirab dedi qorovulboshi Davronboy, — ukajon, ke, trubaning ichiga kirib olamiz.

— Voy, men chiqolmayman-ku!

Trubalarning biri qiyshayib, yerga tegay-tegay deb turgan bo'lsa-da, bari bir, unga ikkovlarining ham bo'yi yetmas edi. Og'ilxonadan eski yashik olib chiqib, oyoq ostilariga qo'yib, oldin Davronboy, ketidan Omonboy ko'tarilib olishdi. Hech kimga ko'rsatmasdan chiqib olganlari uchun o'zlarida yo'q xursand edilar. O'rtarog'iga borib, taglariga dadalarining uvadasi chiqib ketgan eski to'nini to'shab, joylashibroq o'tirishdi. Endi hech narsa qo'rqinchli emas! O'sha dumi uzun alvasti-yu, hamisha tumshug'ini jun bosgan kuchugini ergashtirib yuradigan Mahmud olako'zlar ham kelaversin, paq-paq otib tashlashadi, tamomvassalom! Oyilariyam topolmaydi, endi shapaloq bilan urib ham bo'пти.

— Men maza qilyapman, — cho'zib esnab qo'ydi kichik qorovul.

— Menam, — hatto esnashga ham holi kelmay qoldi katta qorovulning.

— Akajon, men uxlab qolyapman.

— Menam...

Umuman, qorovullarning gapida jon bor edi, negaki, «Qo'rg'oncha» qishlog'ining kichik grajdanlari oromli uyquga ketadigan vaqt allaqachon yetgan edi.

To'rtinchi bob

TRUBA ICHIDA QO'RQINCHLI SAYOHAT

Sofyor amaki rayon markazidagi avtobazadan ko'tarma kran topib kelganda vaqt yetti xufton bo'lgan edi. Amaki ko'tarma kran yordamida yorilgan balonlarni ko'z yumib ochguncha almashtirib oldi-yu, kunduzi olib chiqqan yog'ichni tashlab, shu bahonada



Davronboyu Omonboylar bilan xayrlashib chiqish uchun ularning uylariga kirdi. Hovli o'rtasidagi daraxtga bog'lab qo'yilgan yakkayu yolg'iz ena echkidan boshqa narsa ko'zga tashlanmadi. Shofyor amaki yosh do'stlarining nomini aytib bir-ikki chaqirib ham ko'rdi. «Uxlab qolishganga o'xshaydi, — yana bir o'tganimda alohida to'xtab, rahmat aytib ketarman», — deb ko'nglidan o'tkazdi-da, shoshilib chiqib, mashinani o't oldirdi. U olis yo'llarga yurganda g'ing'illab so'zsiz kuylab borar, mashinaning tezligi oshgan sari kuy ham o'z-o'zidan avjga chiqib borar edi. Bugun ham shunday bo'ldi.

Davronboy bilan Omonboylar esa hech narsadan xabarsiz, dunyoning hamma tashvishlarini: dadalarining oldidan qaytib kelib, o'g'illarini o'rnidan topolmay, sochini yulib, bo'zlab yurgan oyijonlarini ham, Mahmud olako'zu katakdagi tovuqlar, hovlidagi echkilargacha hamma-hammasini unutilib, pishillab uxlab borishardi.

Davronboyning uyqusi oyog'idan sudrab, boshidan suv quysangiz ham, to uyquga to'ymaguncha, bari bir uyg'onmaydi.

Omonboyning bo'lsa, uyqusi sal sergakroq bo'lardi. Hozir ham birinchi bo'lib Omonboy uyg'onib ketdi. Uyg'ondiyu truba ichidagi zimiston qorong'ilikdan, har xil vahimali ovozlardan qo'rqib:

— Oyijon! — deya qichqirib yubordi.

Oyijoni uzoq-uzoqlarda qolib ketgandi, shuning uchun ham hech qanday javob qaytmadi. Akasi shundoqqina yonginasida yotganini ko'rib:

— Akajon, men qo'rqib ketyapman, — deya uni turtkilay boshladi.

Akasi ham javob qaytarmadi. Omonboy qorong'ida paypaslanib, bir amallab Davronboyning quloqlarini topib, bor kuchi bilan cho'zg'ilay boshladi. Davronboy xuddi shu paytda tush ko'rib yotgandi, tushida Mahmudning tumshug'igacha jun bosib ketgan kuchugi uni zirillatib quvib yurgandi. Bir tomondan qo'rquv, bir tomondan qulog'i-

ning og'rishi, ikkovi bir bo'lib Davronboyni uyg'otib yubordi. Uyqusirab:

— Tentak, nega qulog'imdan tortasan! — deb ukasi-ning chakkasiga bir tushirdi. Tushirdi-yu, to'satdan, trubaga yotganlari, bu trubaga ukasini o'zi aldab olib kelgani esiga tushib: «Kechir, bilmay qoldim», — deb yig'lab turgan Omonboyni bag'riga bosib oldi.

— Yo'qol! — itarib tashladi ukasi, — o'zim qo'rqib ketyapman-u, tag'in uradi-ya!

— Ukajon, ke, senam meni bir urib ola qol. Mana, lunjimni shishirib turaman, yumshoqqina, maza qilasan!

— Kerakmas!

— Jon uka, yig'lamagin.

— Yig'lamay desam ham yig'lagim kelyapti... Uyimizga kirib ketaman.

— Voy tentak, mashina yurib ketyapti-ku!

— Oyijon!!!

— Yig'lama, men ham yig'lab yuboraman, — shunday deb Davronboy ukasini bag'riga bosib, o'ziga tortdi. Boshini, yuzlarini do'mboq qo'lchalari bilan yumshoq-yumshoq silab yupata boshladi.

Mashina guvillab ketib boryapti.

Trubaning ichidan har xil vahimali ovozlari eshitildi. Bir yo'la yuztami, mingtami alvasti kirib olgandek, juda vahimali, juda qo'rqinchli bo'lib qoldi. Trubaning ochiq tomonidan shamol hushtak chalyapti, har zamonda bir-birini qovlab o'tgan mashinalarning chiroqlari pov etib yonib, trubani yarmigacha yoritadi, yana hammayoq zimiston bo'lib qoladi.

— Uka, biz botirmiz-a, hech narsadan qo'rqmaymiz-a? — Omonboyga dalda bera boshladi akasi.

— Bari bir men qo'rqaveraman, — vahima ichida shivirladi ukasi, — oyimni sog'inib ketyapman... Mashinani to'xtat, tushaman...

Mashinani to'xtatish zarurligini Davronboy ham tushunib turibdi-ya, lekin qanday to'xtatishni bilmay boshi



garang. Chaqirgani bilan bari bir shofyor amaki eshitmaydiku... Bordi-yu, trubaning narigi boshiga, kabinaga tirilib ketayotgan tomonga borib, bor kuchlari bilan taqillatishcha-chi?

— Uka; — sekin shivirladi Davronboy, — yur, emaklab borib amakini chaqiramiz.

— Bari bir eshitmaydi.

— Eshitadi, yur, jon uka, polvon ukam...

Aka-uka ketma-ket emaklashib, trubaning kabinaga qadalgan tomoniga qarab ketishdi. Trubaning bu tomoni haddan tashqari qorong'i bo'lgani uchun yana ham vahimaliroq tuyula boshladi. Omonboy hecham yurmayman, deb yotib olgan edi, shu paytda, negadir ukasiga mehribon bo'lib qolgan Davronboy: «Ke, meni ot qilib, minib, bo'ynimdan mahkam quchoqlab ol», — deb uni mindirib oldi. Keyin ko'zlarini chirt yumib, kabina tomonga «to'rt oyoqlab» yurib ketdi. Kabinaga yetishgach, aka-uka baravariga:

— Amaki!!! — deb qichqira boshlashdi.

Javob qaytmadi.

— Amaki!!!

Yana javob qaytmadi.

Bordi-yu, kabinada amaki yo'q bo'lsa-chi? Bittayarimtasi mashinani yurgizib yuborgan bo'lsa-chi? Ulkan mashina noma'lum tomonga olib qochib ketayotgan bo'lsa-ya!

— Akajon, meni mahkamroq quchoqlang, — negadir sizlab gapira boshladi Omonboy, — aka, trubaning ichida bo'rilar bo'lmaydi-a?

— Bu yerda bo'rilar bo'lmaydi.

— Bo'rilar kelsa, otib tashlaymiz, xo'pmi?

— Xo'p.

— Tankimiz bilan bostirib ketamiz, xo'pmi?

— Xo'p.

— Aka, keling, amakini yana chaqiraylik...

Tomoqlari qirilib, bo'yin tomirlari tortilib qolguncha chaqirishdi, bari bir amakidan javob bo'lmadi. Umidsizlik, vahima yana ham kuchayib ketdi. Ikkovlari bir-birining pinjiga kirib, bir-birlarini achomlab, sovqotgan badanlarini bir-birlarining harorati bilan ilitib borishardi.

— Amakiga endi hecham tuxum bermaymiz, — dedi xo'rligi oshib Omonboy.

— Chelagida suv ham bermaymiz, — qo'shib qo'ydi Davronboy.

Shunday qilib, novcha amakini bir yo'la hamma narsadan mahrum qilishga qaror qilishdi. Omonboy akasini ot qilib minib bo'ynidan achomladi. Davronboy «to'rt oyoqlab» borib, dadalarining eski to'nini trubaning o'rtarog'iga surib keldi. Ikkovlari o'ralib olishdi. Sovuqdanmi, qo'rquvdanmi, tishlari taraklardi. Serpaxta to'nga o'ralgach, badanlariga harorat yugurib, aka-ukani birdan uyqu elita boshladi.

— Aka, biz hech narsadan qo'rqayotganimiz yo'q-a? — uyqusirab so'radi Omonboy.

— Biz hecham qo'rqmaymiz, — javob qaytardi Davronboy.

— Biz katta bo'lib qolganmiz-a?

— Bo'lmasam-chi!

— Aka, menga tuxumning kattasini berasiz, xo'pmi?

— Senga-chi, uka, rasm qalamimni, shildiroqlarimni, cho'yan soqqamni beraman, xo'pmi, ukajon?

Ukajoni javob qaytarmadi, nega desangiz, allaqachon uning ko'zlari yumilib bo'lgan edi. Davronboy ham keltirib bir esnadi-yu, boshini bir tomonga qiyshaytirib, asta uyquga keta boshladi.

Ulkan mashina bo'lsa bepoyon cho'l bag'rida chiroqlarining o'tkir nurlari bilan qorong'i tun bag'rini xanjardek tilib, o'kirib, pishqirib, yeldek uchib borar, aka-ukalarni olis-olis o'lkalarga qarab olib qochar edi...



Beshinchi bob

MEHMONLARGA QUIYUQ ZIYOFAT BERILGANI

Sunday qilib, ulkan mashina devlardek o'kirib qushdek uchib, qanchadan-qancha obod qishloqlarni, sersuv soyu anhorlarni, yam-yashil qiru pastbaland adirlarni ortda qoldirib boraverdi. Bu orada yosh soqchilar vahima ichida ikki-uch bor uyg'onishib, goho yig'lashib, goho oz-ozdan qiqirlashib, yana bir-birlarini achomlashib uyquga ketishdi.

Bir mahal Omonboy mundaq ko'zini ochsa... mashina to'xtab turganga o'xshaydi-yu, trubaning ochiq tomonidan yorug' tushib, hammayoqni yoritib turibdi.

— Aka, turing, yorug' bo'lib qolibdi, endi qo'rqmaymiz, — dedi Omonboy.

Davronboy juda sekin uyg'ondi. Uyg'ongandan keyin ham uyqusirab: «Bugun bog'chaga bormayman», deb ancha mahal g'ingshib o'tirdi. Keyin to'satdan hushyor tortib:

— Uka, mashina to'xtadimi? — deb so'radi.

— To'xtagani qachon edi-yu... — xafa bo'lib dedi ukasi.

Xanjarlarni taqib, avtomatlarini qo'lga olib, pastga tushmoqchi bo'luvdi, eha, truba bugun juda baland bo'lib qolibdi, osilib tushishning hech iloji yo'q, faqat sakrab tushsa bo'ladi. Davronboy tepadan pastga sakrashning ustasi edi: tomdan, devordan, taxmondagi ko'rpalarning ustidan pastga sakrashni yaxshi ko'rardi. Sakragandan keyin yo oyisidan, yoki dadasidan, albatta, gap eshitib turardi. Bu yerda esa hech kim yo'q, bemalol sakrasa bo'laveradi... Dadasining eski to'nini yerga tashlab, ustiga o'zini otdi. U yer-bu yerim sinib qolmadimi ekan deb, bir oz o'ziga quloq solib ko'rdi, og'riq yo'q, demak hammasi joyida. Ukasini ham bir amallab tushirib oldi-da, keyin nima qilishini bilmay o'ylanib qoldi...

Atrofda truba yuklangan mashinalar, poyezdning vagoniga o'xshash g'ildirakli uylar, tumshug'i uzun avtokran-

lar, buldozerlar, uyum-uyum yog'och taxtalar, har xil o'yinchoqlar yasasa bo'laveradigan temir parchalari, yangi konserva bankalari... e, boringki shunga o'xshash narsalarning hech hisobi yo'q ekan. Aka-ukalar qaysi birini avval tomosha qilishni bilolmay, ancha mahal garang bo'lib turishgach, nihoyat shofyor amakini uyg'otishga qaror qilishdi.

Shofyor amaki qattiq uxlab qolganga o'xshaydi, hech javob qaytarmadi. Davronboy bir amallab yuqori ko'tarilib kabinaning eshigini ochgan edi, ish chatoq — hech kim yo'q!

— Omon! — deb baqirib yubordi Davronboy, — bizni mashina olib qochib kelganga o'xshaydi, mana chiqib ko'rgin, shofyor amaki yo'q, qishloqda qolib ketganga o'xshaydi... Mana, ishonmasang, o'zing chiqib ko'rgin. Ke, qo'lingdan tortib yuboray!

— Yo'q, o'zing tusha qol, — ko'nmay turib oldi ukasi, — mashina tag'in yurib ketib qolmasin.

— Nariroq tur bo'lmasa, men yerga sakrayman...

Aka-uka nima qilishini, qayoqqa borishini bilmas edi.

Asta-sekin quyosh ham chiqa boshladi, qiziq, bu yerlarning quyoshi qizarib, lovillab chiqarkan...

Posyolkadagi uylarning eshigidan uyqusiragan, esnagan, kerishgan odamlar biri-ketin chiqib, o'zlari chiqqan uylarning orqa tomoniga o'tib keta boshlashdi.. Bitta amaki, beligacha yalang'och, qo'lida sochiq, cho'zib-cho'zib esnab, Davronboylar tomonga qarab kela boshladi. Yaqinlariga kelgach, yurishdan to'xtab, aka-ukalarning xanjaru, avtomatlarini, qo'llaridagi tanklarini, Davronboyning qo'ltig'idagi uvadasi chiqib ketgan eski to'nni birma-bir ko'zdan kechirib chiqdi:

— Bolakaylar, sizlar qayoqdan paydo bo'lib qoldilaring?

— Bizni mashina olib qochib keldi, — shoshilib dedi Davronboy.

— Qanaqa qilib olib qochib keladi? — hayron bo'ldi beligacha yalang'och amaki.



— Biz trubaning ichida uxlab qoluvdik, — to'satdan yig'lab yubordi Omonboy, — men oyijonimni juda sog'inib ketayapman. Amaki, bizni uyimizga olib borib qo'ying...

Davronboy hamma voqeani amakiga bir boshdan gapirib berdi. Oxirida mashinani Mahmud olako'z yurgizib yuborgan bo'lsa kerak, degan taxmini ham aytdi. Amaki: «Poyloqchilikda turib juda yaxshi ish qilibsizlar, lekin bunaqangi paytda uxlamaslik kerak edi, mashina o'zi yurib kelgani yo'q, uni novcha amakilaring haydab kelgan, o'zi hozir dong qotib uxlab yotibdi», — degan gaplarni aytdi.

Ko'z ochib yumguncha hamma narsadan qo'rqib, hadiksirab turgan Davronboy bilan Omonboyning atroflarini novcha, pakana, oriq, semiz odamlar qurshab olishdi. Truba ichida to'rt yuz chaqirim yo'l bosib kelganlarini eshitib, bir xillari qo'rqib ketishdi, bolalarga achinishdi, bir xillari esa yosh soqchilarning burinlarini qisib, peshanasini silab qo'yishdi...

Xullas, unday bo'lgandayam, bunday bo'lgandayam. yer bag'rini yorib, truba ko'mib, uzoq ellarga gaz olib borayotgan bu amakilarning biri Omonboy bilan Davronboyga juda-juda o'xshab ketadigan o'g'lini, biri ukasini, yana bittasi jiyanini sog'inishib yurishgan edi-da, ehtimol shuning uchundir, aka-ukalarni galma-galdan ko'tarishib, yuzu ko'zlaridan o'pishib, xuddi kosmosni zabt etib qaytgan qahramonlarni kutgandek e'zozlab kutib olishdi.

Bu orada kimdir dong qotib uxlab yotgan novcha amakini ham uyg'otib chiqdi. Novcha amaki uyqusirab, katta mushti bilan ko'zlarini ishqalab, odamlarning orasini yorib o'tdi. Omonboy bilan Davronboyning birini o'ng qo'lga, boshqasini chap qo'lga ko'tarib:

— Obbo, azamatlar-ey, obbo, pahlavon soqchilarim-ey! — deb ularni erkalata boshladi.

Shundan keyin o'zi nonushta vaqti bo'lib qolganmide yoki soqchilar sharafiga ziyofat berib yubormoqchi bo'lishdimi, ishqilib, sahroyu biyobonning qoq o'rtasidagi

ko'rimsizgina bir oshxonada hech ta'riflab bo'lmaydigan darajada quyuq ziyofat bo'lib o'tdi: qaynatib pishirilgan tuxumlar, qovurilgan kolbasalar, ustiga shakar sepilgan yog'li kulchalar, bo'g'irsog'u dimlab pishirilgan makaronlar... Eh, shunday zo'r bo'ldiki, shunday zo'r bo'ldiki, asti qo'yaverasiz.

Nonushta davomida Omonboy bilan Davronboyga shu yerda biz bilan butunlay qolinglar, birgalashib ishlab yuraveramiz, degan mazmunda ham gap qilib ko'rishdi. Akukalar bunga ko'nishmadi: «Birinchidan, agar biz bu yerda qolsak, oyimiz xafa bo'ladi, ikkinchidan, tovuqlarning tuxumi kattasi kichigiga almashib ketadi, uchinchidan, Mahmud olako'z shaftolimizni bitta qo'ymay tagiga to'kib ketadi» — deb javob qaytarishdi.

— Bizga bir chelak gaz bersangiz bo'ldi, — dedi uzilkesil qilib Davronboy.

— Obbo, ukaginam-ey, rosmana gazni hali o'zimiz ham ko'rganimiz yo'q, — deb javob qaytardi gazchi amakilardan biri.

— Mayli, ko'rmasangiz ham beraverasizlar, — deb akasining gapini quvvatladi stolda o'tirib, oyoqlarini likilatib kolbasa chaynayotgan Omonboy.

Omonboyning mana shu gapidan so'ng gazchi amakilari, bordi-yu, bitta gaz o'choq bilan gaz to'ldirilgan bitta balonni ularga sovg'a qilsak-chi, axir atrofda qo'nib o'tadigan joyimiz yo'q, uyoq-buyoqqa o'tganda shofyorlarimiz choy-poy ichib turadi-ku, deb maslahat qila boshlashgan edi. Ertalab yarim yalang'och chiqqan, hozir esa egniga yengi kalta oq ko'ylak, boshiga oq shapka kiyib olgan amaki: «Bolalarki to'rt yuz chaqirim yo'ldan bizning trubalarimizni poylab, ehtiyotlab olib kelishibdi, demak biz ham ularning iltimosini bajarishimiz kerak. Bitta gaz o'choq bilan uch balon gaz olib mashinaga tezdan yuklanglar», — deb buyruq berib yubordi.

Shofyor amaki yo'l tayyorgarligini ko'rib olguncha Omonboy bilan Davronboy truba yotqizuvchilar posyolka-



sini maza qilib aylanib chiqishdi: bu yerda bolalar yo'q ekan-u, nuqul katta odamlar yashar ekan. Yo'g'on, ingichka trubalar, temir yo'lakchalar, hech tushunib bo'lmaydigan g'alati-g'alati mashinalar... Eh-he, bularni Mahmud olako'z ko'rganda bormi! Bitta semiz amaki qo'lidagi qizil bayroqni silkitib turibdi, boshqa amaki mashinasining tumshug'iga yo'g'on trubani qistirib, osmonu falakka ko'tarib ketyapti. Ho' naridan o'ntacha amaki trubalarga yiltiroq moy surishyapti, undan ham narida yana o'ntacha amaki moylangan trubalarga qora qog'oz o'rashyapti.

— Qani, soqchi o'g'illarim, mashinaga marhamat! — deb qoldi shofyor amaki, — endi tezroq jo'naylik, bechora onalaring qidirib yurgandir...

Amakilarning hammasi qo'l silkib, xayrlashib qolishdi, yana tag'in kelinglar, lekin trubaning ichida emas, kabinaga o'tirib kelinglar, degan gaplarni ham aytishdi.

— Sizga-chi, amaki, tuxum olib kelaman, — deb va'da berdi Davronboy oq shlyapali amakiga.

— Men-chi, amaki, uzum olib kelaman, — deb baqirdi Omonboy ham.

Oltinchi bob

GAZ QOZONDA SHO'RVA PISHGANI

Davronboy bilan Omonboy uylariga qorong'i tushay-tushay degan paytda kirib borishdi. Novcha amaki yo'lda jindek uxlab oldi, bo'lmasa bundan ham oldinroq yetib kelishgan bo'lardi.

Ulkan mashina ko'cha eshiklari oldida to'xtashi bilan aka-ukalar cho'zib-cho'zib uch marta signal berishdi. Keyin Davronboy: «Amaki, oyim meni ursalar ajratib olasiz, xo'pmi?» — deb shivirladi. «Seni urdirgani qo'ymayman», — deb shivirlab qo'ydi novcha amaki ham. Omonboy ham bir narsa deb shivirlamoqchi bo'luvdi, ulgurolmadi. Nega desangiz, xuddi shu paytda mashinaga qarab yugurib kelayotgan oyijoniga ko'zi tushib qoldi:

— Oyijon!!!

— Toylog'im! — deyishib ona-bola bir-birlarini achomlashib ketishdi.

— Voy, o'lmasam, Davron qani? — deb so'radi oxirida oyilari.

— Tushsam urasiz, — hiqillab turib dedi Davronboy.

— Voy, onaginang o'rgilsin, urmayman.

— Bugun urmasangiz bari bir, ertaga urasiz.

— Urmayman, endi hech ham urmayman.

Davronboy ishning buyog'ini ham puxtalab olgandan keyin kabinadan turib to'ppa-to'g'ri oyijonining bag'riga o'tildi.

Bir-birlarini o'pishib, yalashib, ko'zyoshlarini to'kishib hovlilariga kirguncha atroflarini xotinlaru bolalar qurshab olishdi. Qishloqdagi jamiki katta kishilar to'satdan yo'q bo'lib qolgan Davronboy bilan Omonboyning birinchi bo'lib men topib kelaman, deyishib, har tomonga jo'nab ketishgan edi. Shuning uchun ham qishloq chekkasidagi daraxtlarga ko'milgan bu hovlida faqat xotinlaru bolalar to'planishgandi. Bir xillari oyilarini ko'ngillarini ko'tarib, boshqa birlari har xil vahimali gaplarni aytib, oyilarining ko'ngliga g'ulg'ula solib o'tirishgan edi.

Ko'z yumib-ochguncha hovlilari bamisoli to'yxonaga o'xshab ketdi desam ishonavering. Poyloqchilikda turib, nom chiqarib qaytgan Davronboy bilan Omonboyning Mahmud, Salim, Shavkat, Qurbon degan o'rtoqlari bor edi. Ularni ko'rib ketgani o'shalar ham kelishibdi. Akaukalarni o'rtaga olib har xil savollarni shunaqangi yog'dirib tashlashdiki, asti qo'yaverasiz.

— Biz gaz olib kelgani boruvdik, bildilaringmi! — deb gapni qisqa qilib qo'yimoqchi bo'ldi. Davronboy.

— Hecham-da, — deb gapni yana chuvalashtirmoqchi bo'ldi Mahmud olako'z, — gaz senga kuchukmidi, yur, desang orqangdan ergashib kelaveradigan.

Shundan keyin bolalar qiy-chuv to'polon qilishib, novcha amakining yordamida tashqariga gaz o'choq bilan



gaz to'ldirilgan balonlarni olib kirishib, hovlining qoq o'rtasiga o'rnatishdi. Shofyor amaki gaz o'choqning plitagini yoqib yuborgan edi, bolalarni-ku qo'yavering-a, xotinlardan tortib, to soy mahalladan kelgan kampir buvilarigacha hamma-hammalari hang-mang bo'lib qolishdi. Bir xillar temir balonning ichida ming metrcha keladigan piligi bor, o'sha buralib-buralib yonyapti, dedi. Yana bir xillar mana shu temir balonning tagidan yerga ingichka truba ketganga o'xshaydi, gaz o'shandan oqib kelayotgan bo'lsa kerak, degan taxminlarni ham aytishdi. Kampir buvilar bo'lsa: «Yo tovba, bu Omonboy bilan Davronboy balo ekan-ku, shu olovni o'shalar olib keldimi-a?» — deb, yoqalarini ushlab, orqalariga tisarilgandan-tisarilaverishdi.

Mana shunaqangi gaplar ko'payayotgan paytda amaki gaz o'choqda sho'rva pishirayotgan, chinakam oshpazlarga o'xshab, har zamonda shopirib-shopirib ham qo'yayotgan edi.

— Amaki, mana shu gazni biz olib keldik-a? — sheriklarim eshitsin, deb ataylab baland ovozda so'radi Davronboy.

— To'g'ri, — undan ham balandroq ovozda javob qaytardi shofyor amaki, — bu gazni Omonboy bilan Davronboylar olib kelishdi. Trubalarni poylab o'z joyiga eson-omon yetkazib olishimizda yordamlashganliklari uchun boshlig'imiz mukofot qilib berdi ularni...

O'sha kecha «Qo'rg'oncha» qishlog'ining katta-kichik aholisi deyarli uxlamadi hisob, ular Davronboy bilan Omonboy olib kelgan gazning yonishini tomosha qilib chiqishdi.



Oqiljon HUSANOV

(1932—2001)



Oqiljon Husanov 1932- yilda Jizzax tumanining Ravotlik qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatib, Samarqand Davlat dorilfununida tahsil ko'radi. O'qishni tugatib avval gazetalarda ishlaydi. Keyinchalik «Mushtum», «Sharq yulduzi», «Guliston» jurnallarida adabiy xodim, bo'lim mudiri, mas'ul kotib, bosh muharrir o'rinbosari kabi turli vazifalarda xizmat qiladi.

Talabalik yillarida badiiy ijod bilan shug'ullangan adibning «Qo'shiqchining taqdiri» (1963), «Samarqand bulbuli», «Mehri daryolar», (1971), «Bo'lmaganga bo'lishma», (1973), «Qashqar go'zali», (1976), «Tog'da o'sgan bola», (1975), «Tog'da o'sgan bola yoxud jiyanning yangi sarguzashtlari» (1980), «Sirli odam» (1980), «Bulbulning go'shti» (1977), «Taqilmagan uzuk», (1983), «Baxt qayerda» (1987), «Qishloqqa sayohat» (1988), «Ucholsa ham ucholmagan turna» (1980), «Ustaning muhabbati» (1991) kabi roman, qissa va hikoyalardan tashkil topgan kitoblari ketma-ket chop etiladi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1982) Oqiljon Husanov ijodida poraxo'r, yulg'ich va tanbal kishilarning hajviy obrazlari bilan birga, beg'ubor bolalik kechinmalari yorqin bo'yoqlarda chiziladi.

Oqiljon Husanov 2001- yilda vafot etgan.

QOR ODAMNING SOVG'ASI

Hamma bolalarning eslarida bor: bundan uch yil avval qish juda qattiq keldi. Ariqlarda suvlar muzladi, yerlar tosh-metinga aylandi. Hadeb qor yog'averganidan kamqatnov yo'llarda yurish qiyinlashib qoldi.

O'sha kunlari bizning uyimizdagi ikkala qora pechkaga ham o't yoqilardi. Lekin shunda ham uyimiz yaxshi isimasdi. Dadam o'tinxonaning burchagida yotgan sandalni olib chiqdilar. Uyimizning bir xonasiga sandal qurdik. Ertalab ham, kechqurun ham sandal atrofida maza qilib o'tiradigan bo'ldik.

Men ko'pincha issiqqina sandal yonida uxlab qolardim. Erta bilan oyim uyg'otganlarida erinibgina o'rnimdan turardim. «Akamga o'xshab ikkinchi smenada o'qiganimda yotaversam bo'lardi», deb o'ylardim bir oz xafa bo'lib. Yuzimni yuvib kelib, ozgina choy ichardim-da, qor kechib maktabga jo'nardim.

Bir kuni dadam nonushta paytida akamga:

— O'tkirvoy! — dedilar. — Bugun yakshanba — dam olish kuni. Maktabga bormaysan. Eshakni aravaga qo'shgingda, bironta o'rtog'ingni yoningga olib, to'laga borib kelgin. Avval aravaga makkapoyasini ortinglar. Ustiga ketganicha yantoq bosinglar — qo'y bilan sigirga yemish bo'ladi. Bugun havo sal iliqroq bo'ladi chamasi, osmonda qora bulut bor.

Akam «xo'p» dedilar. Dadam bir ozdan keyin:

— Sherik topolmasang, yakka o'zing borma. Ukang Kamolni yoningga olvolarsan, — dedilar. Men sevinib ketib, dalaga ketayotganimizni aytish uchun Alisherlarnikiga chiqdim. «Akang xo'p desalar, men ham borardim», dedi u. Akamdan so'ragan edim, aftimga qarab turdi-da:

— Agar injiqlik qilmaydigan bo'lsa, mayli, men boshqa hech kimni chaqirmay qo'ya qolaman, — dedi...

Shunday qilib, Alisher ikkimiz aravaning oldiga o'tirib oldik. Akam eshakka mindi. Uchovimizning ham boshimiz-

da quloqchin, oyog'imizda ichi jun botinka, ustimizda palto... Aravamiz qor kechib borardi. Qor qalinligidan hammayoq oppoq. Ko'zlarimiz qamashadi.

Bir mahal qishloqdan chiqishdagi yakkam-dukkam uylar ham tamom bo'ldi. Oppoq qorga burkanib yotgan dala boshlandi. Havo rostdan ham har kungidan sal issiqroq edi. Shunday bo'lsa ham to'laga yetib borgunimizcha oyoqlarimiz ancha sovqotdi.

Akam to'la yoniga yetganimizda aravani to'xtatib, eshak ustidan pastga irg'idi. Biz ham birin-ketin yerga tushdik. Uchovimiz to'la eshigini ochib, ichkariga mo'raladik. Qishloqdagi uyimizning eng katta xonasidek keladigan to'laning ichi o'tin-cho'pga, yem-xashakka to'la edi.

— Bu ham sizlarning uylaringmi? — deb so'radi Alisher. Men unga:

— Yo'q, jo'ra, bu — to'la, — dedim. — Har yili yozda qovun-tarvuz ekib, shu yerga ko'chib kelamiz-da. Dadam, har yili chayla qurib yurgandan ko'ra, bir marta to'la qurib qo'ya qolay, mustahkam bo'ladi, deganlar.

— Qiziq ekan, — dedi Alisher to'laning ichi-tashiga ko'z tashlab.

Akam makkapoyalarni o'roq bilan qo'zg'atayotganida to'laning ichi changib ketdi.

— Tashqariga chiqib turinglar, — dedi akam bizga qarab. — Eshakdan ham xabardor bo'linglar, aravani olib ketib qolmasin.

To'laning orqasiga o'tdik. Eshagimiz tumshug'i bilan qorni turtib uvat ustida qolib ketgan xashakni yeyar edi. Arava ustiga chiqib atrofga qaradik. Hammayoqda paxtadek oppoq qordan bo'lak hech nima ko'rinmaydi.

— Alisher, qor odam yasamaymizmi? — dedim men.

— Bo'пти. Yur! Qayerdan yasaymiz? — dedi Alisher.

— Huv, ana u yerdan.

Ikkovimiz aravadan tushib, ariqning narigi tomoniga sakrab o'tdik-da, ishga kirishdik. Qor odamni beligacha



yasadik. Biroq yuqorisini ko'tarishda ancha qiynaldik. Qorimiz ilashmay to'kilib ketaverdi.

— Ichiga birona cho'p tiqmasak bo'lmaydi, — taklif qildi Alisher.

Boya yo'lda kelayotganimizda arava ustida kosov ko'rib, «Tandir kosov arava ustida qolgan ekan-da», deb o'ylovdim. Shu esimga tushdi-yu yugurib borib, aravadan o'sha kosovni olib keldim. Kosovni yerga qoqish uchun to'laning ichidan guvala topib chiqdim. Kosovning kuygan tarafini yuqoriga qilib yerga qoqa boshladik. Yer ajriqzor bo'lsa ham qattiq ekan. Kosovning uchi yerga ozgina kirar-kirmas guvala ikkiga bo'lindi. Yaxshi bo'ldi, dedik-da, guvalani kosovning ikki tomoniga tirab qo'ydik. So'ngra qaytadan qor yig'ishga tushdik...

Qor odamimiz binoyidek chiqdi. Qurib qolgan ajriq barglaridan qosh-ko'z, og'iz-mo'ylov yasadik.

— Xuddi qorovul amakiga o'xshaydi, — deb kuldi Alisher.

— Faqat miltig'i yo'q, — dedim men. — Og'zini kattaroq qilib yuboribmiz. Iljayganga o'xshab qolibdi. Mayli, iljaysa yomonmi? Ko'rgan odam hazilkash ekan, deydi-da...

Akam bizni chaqirib qoldi. Aylanib to'la oldiga borsak, bir o'zi makkapoyani aravaga ortib bo'libdi. O'zi arava ustida turibdi-yu, pastda o'n-o'n besh dasta yantoq.

— Ana shu yantoqni panshaxa bilan olib beringlar, — buyurdi akam. Alisher ikkovimiz navbatma-navbat akamga yantoq uzatib turdik. Keyin arava ustidagi yukni arqon tortib bog'lashdik.

— Endi uchovimiz ham piyoda yuramiz, — dedi akam hamma ishimiz bitganidan so'ng. — Men eshakni yetaklayman. Sizlar arava orqasidan yukning turishini qarab borasizlar. Agar yuk biror tomonga og'adigan bo'lsa, menga aytasizlar.

Biz «xo'p» dedik. Akam eshakni yetakladi. To'laning orqasidan o'tayotganimizda arava to'xtadi. Biz hayron bo'ldik.

— Anovi qor odamni sizlar yasadilaringmi? — deb so‘radi akam biz tomonga qarab. Biz «ha» degandek boshimizni qimirlatdik.

— Obbo azamatlar-ey, rosa boplabsizlar-ku...

Biz yo‘l-yo‘lakay qor odamni qanday yasaganimizni akamga aytib berdik.

* * *

Akam o‘sha yili bahorda armiyaga ketdi. Lekin ikki yil-gacha qishloq ichidagi brigadada ishladilar. Ikki yilgacha yoz oylarida to‘laga ko‘chib chiqmadik. Akamdan tez-tez xat kelib turdi. Akamning har bitta xatiga men ikkitadan javob yozdim. Ba‘zan oyimning nomlaridan ham xat yozardim. Chunki akamni juda ham sog‘indim-da. Bir marta oyim bilan dadamga sog‘inganimni aytgan edim, ular yig‘lashdi. Akangni biz ham sog‘inganmiz, deyishdi.

Akam harbiy xizmatdan ham qaytdi. Shuning uchunmi, bu yil dadam daladagi brigadaga o‘tdilar. Biz yana to‘lamizga ko‘chib chiqdik. Qovun-tarvuzlarimiz yaxshi bo‘ldi. Handalaklar pishib, katta qovunlar to‘rlagan paytda dalalar shunaqayam chiroyli bo‘ldiki... O‘sha kunlari akamning tug‘ilgan kunlarini o‘tkazdik. Odam ko‘p keldi. Har xil ovqatlar pishirildi. Xotinlar to‘lada o‘tirishdi. Kishilar uchun ariq bo‘yidagi tol tagiga joy qilindi.

Bir mahal akam dadamga qarab:

— Bu tol ilgari yo‘q edi-ku, qachon ekkansiz, dada? — deb so‘radi.

— Men ham hayronman, — dedilar dadam. — Ilgari yo‘q edi. Keyingi ikki-uch yil ichida paydo bo‘lib qoldi.

Akam shu payt o‘rnidan turib tol poyasining yuqori tomoniga tikildi. Menga qarab bir kulib qo‘ydi-da, dadamga gapirdi:

— Buni Kamoljon bilan Alisher ekan, — dedi akam. Men, qachon tol ekan ekanman, deb hayron bo‘ldim. Akam yana menga qaradi-da:



— Uzoq yili qishda arava bilan kelganimizda qor odam yasagan edinglar-ku, — dedi. — O'shaning ichiga kosov tiqib qo'rganmidilaring?

Men yana hayron bo'lib:

— Ha, tiqib qo'rgan edik, — dedim.

— Mana shu tol o'sha kosovdan unib chiqqan-da, — dedi akam. — Buni qor odamning bizlarga qoldirgan sovg'asi desak ham bo'ladi... Mana ko'ringlar, poya tepasida hali ham kuyindi o'rni bor.

O'tirganlarning ba'zilari o'rinlaridan turib, tolga tiki-lishdi. Rostdan ham tol poyasining uchi novdalar orasidan qorayib ko'rinardi. Mehmonlarning eng keksasi — Olimjon bobo tol soyasining fazilatini, uning beminnat o'sib ketaverishini aytib berdi.

Ertasiga men qishloqqa borib, Alisherni dalaga er-gashtirib keldim. Unga qor odam qoldirgan sovg'ani ko'rsatdim. Qor odam «ekkan» tol soyasida rosa handa-lakxo'rlik qildik.

ANTON AMAKI

Men bu voqeani urushdan keyingi yillarda — bola-lagimda eshitgan edim...

Anton amaki biznikiga tez-tez kelib turar edi, To'ladan kelgan, yuzlari qip-qizil, uzun mo'ylovli bu kishi Musa akam bilan uzoq-uzoq suhbatlashib o'tirar edi. Ikkalalarining suhbatlari ba'zan juda cho'zilib ketar-di. Suhbatdan keyin Musa akam Anton amakini o'z ma-shinasiga o'tirg'izib, uyiga oborib qo'yardi. Chunki An-ton amakining chap oyog'i butunlay yo'q edi, u qo'ltiq-tayoqsiz yurolmasdi.

Anton amaki Musa akam ishlaydigan avtobazada bux-galter edi. Akamning gapiga qaraganda, avval u ham shofyor bo'lgan ekan. Oyog'i yaralanib kesilganidan so'ng mashina haydayolmaydigan bo'lib qolibdi, azbaroyi mashinani yax-shi ko'rganidan avtobazaga ishga kiribdi.

Men ko'pincha Anton amaki bilan Musa amakiga choy damlab kelardim, xuddi kechagiday esimda, Musa akam Anton amakidan so'rab qoldi:

— Har gal so'ray deyman-u yodimdan ko'tariladi, siz qaysi frontda bo'lgansiz, Anton amaki?

Anton amaki Musa akamga ma'nodor tikilib o'zicha kulib qo'ydi-da:

— Qaysi frontda bo'lganligim esimda yo'q, — deb javob berdi.

— Nahotki?.. Mana men Kengsberg yonida qo'limdan o'q yeganman. Bir vaqt ko'zimni ochib qarasam, Lenigraddagi gospitalda yotibman. Tuzalib chiqqanimdan so'ng shofyorlikka o'qitishdi...

Anton amaki chuqur nafas oldi-da, so'ngra yuragini bo'shatgandek uh tortdi.

— Men Ulug' Vatan urushida qatnashganim yo'q...

— Iya, nega? Unday bo'lsa Hasanko'li yonida yaralanganmisiz?

— Yo'q, u tomong ham borganim yo'q. Xuddi shu yerning o'zida dushman bilan olishganman. Senga haligacha aytib bermagan ekanman-da, Musabek...

— Hayronman, siz bilan shunchalik qalin do'st bo'la turib, haligacha bu haqda eshitmagan ekanman...

Musa akam, qani eshitaylik bo'lmasa, degandek Anton amakiga tikildi. Anton amaki esa shoshilmasdan kitingning cho'ntagidan portsigarini chiqardi-da, sigareta olib tutatdi. Portsigari va gugurtini yana cho'ntagiga joylayotib gap boshladi:

— Sirdaryo stansiyasidan «Paxtaorol» sovxoziga borgan bo'lsang kerak... Ha, barakalla. U paytlarda hozirgidaqa asfalt yo'l yo'q edi. Avvalgi yo'l ham deyarli hozirgisining o'rnida edi-yu, ammo nihoyatda o'nqir-cho'nqir edi. Kuzovda o'tirish uyoqda tursin, kabinada ham o'pkang og'zingga tiqilib kelar, boshing aylanib, ko'zing tinar edi. Unaqa yo'llar mashinaning ham sho'ri-da. Shuning uchun mashinani juda sekin haydardik... Qirq birinchi yil aprel



oyining oxirlarida bir kuni saharda ish bilan «Paxtaorol» sovxozidan Sirdaryoga keldim-da, u yerdan mashinaga yuk ortdim. Tushga yaqin yana mashinada sovxozga qaytdim. Sirdaryodan shundoq chiqib, ozgina yurilganidan so'ng, o'zing bilasan, O'rinboy arig'i keladi. Ariqdan o'tganingdan keyin «Haqiqat» kolxozining yerlari boshlanadi. O'sha kolxoz chegarasidan o'tayotganimda mashinani to'xtatdim. Mashinanig uyoq-buyog'ini ko'rib bo'lib, unga suv soldim. Bakni endi yopayotgan edim, o'ng tomondagi tutzor ichida bir kishi ko'rindi. U men tomonga kelar edi. Egnida ancha kirlangan qora fufayka, boshida yashil kepka. Yelkasiga ekspeditorlar tutadigan yangi sumka osib olgan. U menga yaqin keldi-da, salomlashib so'radi:

— Qayerga ketyapsiz?

— Sovxozga, — deb javob berdim beparvo ohangda.

Gapning to'g'risi, men u odam haqida hech bir yomon fikr o'ylamadim, bironta yo'lovchidir-da, deb qo'ya qoldim.

— Meni olib keting, — deb iltimos qildi u.

— Marhamat, o'tiring.

U tezda kabinaga chiqib o'tirdi. Men ham ishimni bitirib, mashinani yurgizdim. Mashinam odatdagidek sekin borardi. Yonimdagi kimsa bu taraflarni endi ko'rayotgan ekan shekilli:

— Yo'l uncha uzoq emasmi? — deb so'radi.

— Juda yaqin, ko'z ochib-yumguncha yetamiz, — dedim men.

— «Paxtaorol»dan uyoqda yana qanaqa joylar bor?

— Uyoqdami? Kirov, Yangi hayot, Yettisoy rayonlari bor. Ishqilib, bepoyon cho'l chekinib borayapti, asta-sekin yangi yerlar ishga tushayapti.

Yonimdagi kimsa qandaydir manqalanibroq so'zlardi. «Muhim bir ish bilan sovxozga kelayotgan bo'lsa kerak, — deb o'yladim. — lekin kamtarlik qilib o'zi biladigan narsalarni ham mendan so'rab olyapti shekilli. Bal-ki bironta ministrlikdandir...»

Lekin uning keyingi gapi meni bir oz shubhaga solib qo'ydi.

— Siz toza qonli rusmisiz?

— Toza qonlimi yoki notoza qonlimi, hali tekshirtirib ko'rganim yo'q. Har qalay, pasportimga — «rus» deb yozilgan. O'zim voronejlikman... Nima qildi?

— Har holda yevropaliksiz-da...

Yo'lovchining gap ohangi bir oz yumshadi. Mendan tag'in ba'zi narsalarni so'rab olmoqchi bo'ldimi yoki boshqa maqsad bilan shunday qildimi — bilolmadim. So'nggi gapiga javob bermadim. Yo'lovchining ko'zi yo'lning ikki tomonidagi qiyozzorlarga nayzadek qadalib borar edi.

— Qiyozorning adog'i yo'qqa o'xshaydi-ku, — dedi o'zi bilan o'zi gaplashayotgandek. — Bu joylarni obod qilish o'zbeklarning ham, qozoqlarning ham qo'lidan kelmasa kerak... Biz yevropaliklarning yo'rig'imiz boshqa...

Yo'lovchining yaxshi niyatli odam emasligi endi aniq bo'lib qoldi. Badanim jimirlab, qonim qaynab ketdi. Lekin, o'zimni bosdim. Behudaga o'lib ketishdan nima foyda?.. U mening indamay o'tirganimni ma'qullash alomatiga yo'ydi shekilli, yuzimga boqli. Ilojim boricha, o'zimni beparvo ko'rsatishga urindim.

— Bu joylar o'zbeklar bilan qozoqlarga xayf... Bu yerlarda yevropaliklar yashashi kerak. Vaqti-soati bilan shunday bo'ladi ham...

Yonimdagi kimsa bu gaplarni mening yuzimga tikilganicha sekinlik bilan aytdi. Chamamda u mening fikrimni bilib olmoqchi edi. Men o'zimni anqovlikka soldim-da, gapni boshqa tomonga burib yubormoqchi bo'ldim. «Paxtaorol» sovxozida o'ttiz bir xil millat bor, — dedim unga. — Hammasi bir-biri bilan aka-ukadek...»

Shu so'zlarni aytyapman-u, yuragim gup-gup uradi. «Endi nima qilishim kerak?» — degan savol miyamda g'uvillaydi. Rost-da, yoningda dushman, dushmangina emas, josus, allaqaysi davlatdan kelgan qo'poruvchi ketayapti. Sen uning dushmanligini, josusligini bilib qolding.

Nima qilishing kerak? Aksiga olgandek qarshimizda bironta ham mashina ko'rinmaydi. Orqa tomonda mashina kelayotibdimi, yo'qmi — bilib bo'lmaydi. Vaqt tush bo'lib qolgan, quyosh qizdirardi. Havo har qalay, dim.

Nima qilish kerak? Mashinani sekin haydaganimcha shu haqda o'ylab borardim. Josuslar haqida juda ko'p kitoblar o'qiganman. Hikoyalar eshitganman. Ular bosgan qadaminging izini darhol yo'qotishadi, qilmishimning isi chiqmasin, deb shunga yarasha chora ko'rishadi. Shuning uchun yonimdagi kimsa haqida ham: «To'ppa-to'g'ri Paxtaorolga boradi-yu mashina to'xtaganidan so'ng indamay tushib ketaveradi», deb o'ylab bo'lmas edi. Manzilga yetay-yetay deganda menga besh-o'n gramm qo'rg'oshin «hadya» qilib, o'zi qiyoqzorga g'oyib bo'lishi mumkin... Dushmaningga ziyon yetkazib yoki uni o'ldirib so'ngra o'lsang, uncha alam qilmaydi. Ammo bekordan-bekorga qurbon bo'lib ketaverish kishiga alam qiladi. Demak, men undan oldin biron chora ko'rishim kerak. Bu orada yonimdagi kimsa:

— Mashinani tezroq yurgazishning iloji yo'qmi? — deb so'radi.

— Yo'lning qanaqaligini ko'rmayapsizmi? — deb javob berdim unga.

— Qo'ng'iroq arig'iga yaqin qoldikmi?

— Hali ancha bor...

«Demak, bu ablah, xaritadan bo'lsa ham bu tomonlarni bilan ekan-da», deyman o'zimga-o'zim.

Men mashinani sekin yurg'izganimcha o'ylab borardim... Oxirida bir qarorga keldim. Nima bo'lsa bo'lsin dedim-da, o'ng oyog'im bilan ko'proq gaz berib, chap oyog'im bilan tormozni bosdim. O'sha zahoti motor o'chdi, mashina bir qalqib to'xtadi. Imkoni boricha, sir boy bermaslikka urinib:

— Obbo la'nati-ey! — dedim.

— Ha, nima bo'ldi? — deb so'radi yonimda o'tirgan josus yuzimga tikilganicha.

— Tramblyorning zazoriga bir balo bo‘ldi shekilli, — dedim pastga tushayotib. — Yo kichrayib qoldi, yo kuyib ketdi...

Men mashinadan tusha solib kapotni ochdim-u, go‘yo «buzilgan» qismini ko‘rgan bo‘ldim. Bir mahal yo‘lovchi ham pastga tushdi. Aftidan u mashina qismlarini tushunar, shu sababli gapimning rostmi-yolg‘onligini bilmoqchi edi.

— O‘n tiyinlik tangangiz bormi? — deb so‘radim.

U o‘ng qo‘lini fufaykasining cho‘ntagiga tiqqani holda o‘ng tomoni bilan menga anqaydi... Men vaqtni boy bermasligim lozim edi. Shuning uchun yashin tezligida harakat qilib, uning o‘ng qo‘liga yopishdim-da, qayira boshladim. Qurol-yarog‘i o‘ng tomonda bo‘lsa kerak, o‘ng qo‘li ishdan chiqsa, chap qo‘li bilan hech narsa qilolmaydi, deb o‘yladim shekilli, butun aqlu hushim shu tomonda edi. Qo‘lini buray boshlaganimdan u darrov bukchayib qoldi. Biroq shu tobda chap qo‘li bilan cho‘ntagidan bir narsa chiqarayotganini sezib qoldim. Uning o‘sha qo‘li balandga ko‘tarilao‘tgan edi. Ko‘kragimni nishonga olayotganligi aniq edi. O‘zimning chap qo‘limni darhol bo‘shatib, uning qo‘lini pastga egishga urindim. U ablah ham juda baquvvat ekan. Ikkovimiz it bilan bo‘ridek olishdik. Uning qo‘lini ancha pastga egdim. U esa alamzada bo‘lgan qashqirdek chap bilagimning yelkamdan pastrog‘ini qat-tiq tishladi. Og‘riq zo‘ridan qo‘lim bo‘shaahganday bo‘ldiyu, nima qilarimni bilmay uning bo‘ynidan tishladim. O‘q ovozi eshitildi. Yirtqichning chap qo‘li tepkini bosgan edi. Chap sonim birdan isib ketdi-da, oyog‘im darmonsizlanib qolgandek bo‘ldi. Sekundni boy berish o‘lim bilan barobar edi. Zo‘r berib to‘pponchani uning qo‘lidan tushirib yuborishga harakat qildim. Bir amallab bosh barmog‘ini to‘pponchadan ajratgan edim, ko‘rsatkich barmog‘i bilan yana tepkini bosdi. O‘q yerga tegib, qiyoqzorga sapchib ketdi. To‘pponcha yerga tushdi...

Men tobora darmonsizlana boshladim. Shunday bo‘lsayam bo‘sh kelmaslikka tirishib, josusning bo‘ynidan



yanada qattiqroq tishladim-da, ustiga o'zimni tashladim. U yiqildi, ustiga men ham yiqildim. Ustida yotibman-u ko'zim tinib boryapti... Sirdaryo tomondan mashina kelmaganida, bilmadim, voqea nima bilan tugar edi. Xayriyat, aloqa bo'limining mashinasi yonginamizda to'xtadi. Shofyor bilan militsioner voqeani sezishib, darhol pastga tushishdida, «mehmon»ning qo'lini bog'lashdi. Meni ham, uni ham mashinaga ortishdi. Meni kasalxonaga olib borishdi, uni... kerakli joyga...

Anton amaki uzoq nafas olib, hordig'ini yozgandek uh torti-da, choy ho'pladi.

— Har qalay, harakatim zoye ketmadi. Keyinroq menga josusning yana uchta sherigi ushlanganligini aytishdi... Shunaqa gaplar, ukam Musabek, frontda bo'lmaganmiz-u, ammo vatan oldidagi burchni shu yerda ado etganmiz.


Anton amakining hikoyasidan og'zim ochilib qolgan edi. u menga qarab, yelkamga qoqib qo'ydi-da:

— Shaxmatni keltir, o'g'lim, akang bilan bir tashlashaylik, — dedi.



Farhod MUSAJON

(1933)



Taniqli bolalar yozuvchisi Farhod Musajon 1933- yil 19-dekabrda Toshkentning O'qchi mahallasida tugilgan.


1956- yil Toshkent Davlat dorilfununining sharq fakultetini tugatib, respublika radiosida, keyinchalik televideniya, «O'zbekiston madaniyati» («O'zbekiston adabiyoti va san'ati»), «G'uncha», «Sharq yulduzi» kabi gazeta-jurnallar tahririyatlarida, «O'zbekfilm» kinostudiyasida faoliyat ko'rsatadi. Qissalar, hikoyalardan tashkil topgan 30 dan ortiq kitobi e'lon qilingan.

Bolalar uchun «Bo'sh kelma, Aliqulov», «Oftobni quvalab», «Buloq suvi» qissalari va ko'plab hikoyalar to'plami nashrdan chiqqan. Farhod Musajon — ko'p qirrali ijodkor. Asarlarining yarmidan ko'pi hajviy ruhdagi qissalar va hikoyalardan iborat. Uning «Dushanba, nonushtadan so'ng» (1974), «Bog' ko'chamni qo'msayman» (1977), «Qilich va shamshir», (1984), «Ko'rgulik», (1989) kabi qissalari va o'nlab kinossenariylari shular jumlasidandur.

Farhod Musajon nima haqda yozmasin, asarini qaysi yoshdagi kitobxonga mo'ljallamasin, o'z mavzusiga hayotni yanada go'zalroq, yorqinroq ko'rish nuqtai nazaridan turib yondashadi. Kitobxonni ham shunga da'vat etadi. Adibning bolalar uchun yaratgan «Hamlet» (1984), «Bog' ko'cha» (1987), «Tekin tomosha» (1989) hikoyalar to'plamlari shu jihatdan ibratlidir.

Farhod Musajon asarlari rus, ukrain, qozoq va qoraqalpoq kitobxonlari uchun ham birdek qadrlidir.

«SHAKAR» QIZCHA

 or yoqqan kuni Mashhura kichkina ukasini chenaga o'tqazib ko'chaga olib chiqdi. Chenasini sudrab to'rt qavatli uyining atrofini bir-ikki aylandi.

Uyning orqasida uch-to'rtta bola Qorbobo yasayotgan ekan. Mashhurani ko'rib Qo'chqor mazax aralash qichqirdi:

— Iye, kelsinlar shakar qiz, murabbo qiz!

Mashhura hazilni tushunmadi, Qo'chqor meni maqtayapti, deb suyundi.

— Voy-bo', judayam chiroyli Qorbobo yasabsizlar-ku, — dedi.

Shu payt bolalarning yonidan nabirasi Shoistani yetaklab Xosiyat xola o'tib qoldi. Shoistaning qo'lida g'ilofga joylangan skripka. Kampir har yakshanba nabirasini muzika to'garagiga olib borardi.

Xosiyat xolaga hammadan oldin Mashhura salom berdi.

— Barakalla, dono qizim. Umring uzoq bo'lsin, — kampir shunday deb yo'lida davom etdi.

U nabirasi bilan muyulishga yetganda mahallada sho'xligi va o'yinqaroqligi bilan nom chiqargan Qo'chqor bir siqim qor olib dumaloqladi-da, qulochkashlab ularning orqasidan otdi. Qor Shoistaning qo'lidagi g'ilofga tegdi.

Mashhuradan boshqa hamma bolalar o'zlarini daraxt panasiga oldilar.

— Ha, shumtakalar! — beg'araz po'pisa qildi kampir, — g'ijjakni sindirib qo'ysalaring nima bo'lardi? Shoshmay turlaring hali, qaytayotganimda qor otganni topib boplab adovini berib qo'yaman.

Kampir nabirasi bilan muyulishga burilib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bolalar o'z pistirmalaridan chiqib yana o'yinga berilib ketdilar.

Mashhura jilmayib, allaqanday iftixor bilan Qo'chqorga qaradi.

— Sen juda zo‘r mergan ekansan-ku, Qo‘chqor. Qo‘chqor yerdan turib g‘ilofni poylading-a! Qoyilman sen o‘z og‘zini to‘ldirib gapirdi Mashhura.

— Maqtoving o‘zingga siylov! Senga o‘xshab maqtovgan uchadiganlardan emasman, — dedi Qo‘chqor.

Hamma bolalar «gurr» etib kulib yuborishdi. Bolalar xafa bo‘ldi, deb o‘ylashmasin uchun Mashhura ham ularga qo‘shilishib kuldi.

Yana hamma o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib o‘yinga berilib ketdi.

Mashhura chenasini sudrab uyiga yo‘l oldi.

Peshinga yaqin u yana ko‘chaga chiqdi. Pista chaqib hovlida uyoqdan-buyoqqa aylanib yurdi, aftidan u kimnidir kutardi.

Nihoyat, ko‘chaninig boshida Xosiyat xola ko‘rindi nabirasi bilan. Mashhura ularning qarshisiga peshvoz chiqdi. Jilmayib kampirning pinjiga suqildi.

— Buvijon, boya xafa bo‘lmadingizmi? — uning ovozi shirali va xushomadgo‘yona chiqdi, — nima qilay, qor otma deb to‘xtatib qolay desam kuchim yetmadi. Bilasiz-ku, Qo‘chqor mahallada eng to‘polonchi bola, hech kimga so‘zini bermaydi.

— Voy, mayli, qo‘yaver, — dedi Xosiyat xola, — bolaligimizda biz ham shunaqa sho‘x bo‘lganmiz.

— Men sira birovga qor otmayman, — dedi Mashhura.

— Men esam qorbo‘ron o‘ynashni yaxshi ko‘raman, — gapga aralashdi Shoista.

— Bolaning sho‘xi yaxshi, ichidagi tashida bo‘ladi. Ipak oyim pismiqlardan asrasin, niyati pokmi, buzuqmi ajratolmaydi odam, — dedi Xosiyat xola.

Mashhura nima deyishini bilmay lol bo‘lib qoldi. Chunki Mashhura kutganidek Xosiyat xola unga rahmat aytmadi, «shakar qizcha» deb maqtamadi, qaytanga g‘alati gap qildi.

— Yura qol, do‘mbog‘im, — Xosiyat xola nabirasini yetaklaganicha yo‘lida davom etdi.

Mashhura anchagacha o'ziga kelolmay ularning ortidan qarab qoldi, u Xosiyat xola nima demoqchi bo'lganini tushunolmay qiynalar edi. Birdan miyasiga kelgan xunuk fikrdan seskanib ketdi. Nahotki, Xosiyat xola «o'zingni yaxshi ko'rsatib maqto'v eshitish uchun chaqimchilik qil-yapsan» demoqchi bo'lgan?!

YOMG'IR

Yomg'ir yog'ayotganda odam qattiq uxlaydi, deganlari rost ekanmi, Halima opa bugun o'g'li Erkinjonni uyg'otaverib charchab ketdi. Oxiri Erkinjon onasining qistovi kor qilib zo'rg'a ko'zini ochdi. O'shshayib o'rnidan turdi. Norozi bir kayfiyatda to'ng'illab, hali to'la-to'kis uyg'onmay, karaxtligicha, gandraklab vannaga yo'l oldi. Nomiga chala-chulpa yuvingan bo'ldi. Qaytib uyga kirdi-da, yana karavotiga o'tirdi. Ko'zini lo'q qilib derazaga tikildi. Tashqarida yomg'ir shig'alab quyar, osmonni esa qop-qora bulut qoplab olgan edi.

Halima opa derazaning fortochkasini ochdi, xonaga zax va nam havo urdi. Erkinjon junjikib o'zini ko'rpaning tagiga oldi.

— Kiyinmaysanmi tezroq Erkinjon, choying sovib qoladi, — dedi Halima opa.

Erkinjon indamadi. Shu havoda yomg'irda ivib maktabga borishga sira oyog'i tortmadi. Qani endi issiqqina uyda maza qilib derazadan ko'chani tomosha qilib o'tirsa!

— Ha, nima bo'ldi senga, kasal bo'lib qolmadingmi? — Halima opa o'g'li indamaganiga hayron bo'ldi, peshanasini ushlab ko'rdi. — O'zgina issig'ing bor shekilli?

Erkinjon yana indamadi. Onasining gaplaridan keyin o'ziga-o'zi kasaldek tuyulib ketdi.

— Boshim og'riyapti, — deb ko'zini yumib oldi.

Nega shunday dedi, o'zi ham bilmaydi. Qo'rqib ketgan Halima opa darrov uning atrofida girdikapalak bo'lib qoldi. Ko'rparasini, yostig'ini to'g'rilab, yaxshilab yotqizib qo'ydi.

Karavotining oldiga stul surib, nonushtani o'shaning ustiga opkeb qo'ydi. Lekin Erkinjon nonushtaga o'girilib ham qaramadi. Hozir u bitta ortiqcha harakat qilishga, qimirlashga erinardi.

Halima opaning ishga ketadigan vaqti bo'ldi.

— Qimirlamay yotgin, men doktor chaqirib ketaman, — dedi u.

Erkinjon cho'chib tushdi.

— Kerak emas, tuzalib qolarman.

Halima opa ketgandan keyin Erkinjon birpas qimirlamay yotdi. Keyin yotaverish joniga tegdi, sekin turib priyomnikni qo'ydi. Sho'x kuy berilayotgan ekan, eshitib o'tirib nonushta qildi. Nonushta qilib bo'lganida «tvist» boshlandi. Erkinjon jinnilik qilib o'yinga tushib ketdi. U o'z qilig'idan o'zi kulardi. Kayfi chog' edi. Ammo vaqt o'tishi bilan Erkinjon asta-sekin zerika boshladi. Sudralib balkonga chiqdi, atrofni birpas tomosha qildi. Keyin yana uyga qaytib kirdi. U nima qilishini, o'zini qayoqqa urishini bilmasdi.

Peshin bo'ldi. Derazadan ko'chaga mo'ralab o'tirgan Erkinjon maktabdan qaytayotgan o'rtoqlarini ko'rdi. Nima uchundir yuragi orziqib, xo'rsinib qo'ydi. Bora-bora xursandligi yo'qolib, o'rnini xomushlik, g'ashlik egalladi.

Shu payt eshik taqillab qoldi. Erkinjon borib ochdi. Qarshisida sochlariga oq oralagan, qotmadan kelgan kishi turardi.

— Men doktorman, kasal Erkinjon Madrahimov shu yerda turadimi? — deb so'radi u.

— Ha, shu yerda, — Erkinjonning ovozi zo'rg'a eshitildi.

— Bo'lmasa, yigitcha, ruxsat etasiz, bir tekshirib ko'ramiz, qayeringiz og'riyotganiykin. Durustmi? — Doktor juda shoshilardi.

Erkinjonning nafasi ichiga tushib ketdi. Doktor uni karavotga o'tqazib isitmasini o'lchadi, og'zini ochib tomog'ini ko'rdi, rezinka naychasining uchini ko'kragiga qo'yib nafas olishini eshitdi.



— Qayering og'riyapti? — deb so'radi Erkinning ko'ziga tikilib.

Doktor go'yo ichingdagi bor gapni bilib turgan sehrgarga o'xshardi. Erkinjon indolmadi.

— Ha, mayli, — dedi doktor muloyimlik bilan, — mana shu dorini ichsang, tuzalib ketasan.

Doktor dori qog'ozni yozib to'ldirdi-da, Erkinjonning yostig'i tagiga qo'ydi.

— Oying kelganlarida bergin. Dorini, albatta, topsinlar, — dedi doktor, — kasaling xavfli, oldini olmasa oqibati yomon bo'ladi.

Dovdirroq doktor qanday shoshib kelgan bo'lsa, shunday shoshib chiqib ketdi.

Erkinjon sal yengil tortdi, peshanasidan chiqib ketgan terni artdi. Ammo g'ashligi tarqalmadi, zerika-zerika bir amallab kunni kech qildi.

Halima opa ishdan sal barvaqt qaytdi. U eshikdan kira solib o'g'lidan hol-ahvol so'radi.

— Tuzuk bo'lib qoldim, ertaga maktabimga boraman, — dedi Erkinjon, doktor tashlab ketgan dori qog'ozini olib onasiga berdi, — ammo doktor xovliqmaroq ekan, kasaling og'ir, oldini olmasang, ishing chatoq, deb vahima qilib ketdi.

Halima opa qog'ozni olib o'qidi, birdan rangi o'zgardi, qo'llari bilan ikkala chakkasini qisib o'tirib qoldi.

— Nima bo'ldi, oyijon? — Erkinjon qo'rqib ketdi.

Halima opa indamasdan qog'ozni Erkinjonga uzatdi:

— O'qi!

Erkinjon qog'ozni oldi, hijjalab o'qidi: «Ehtiyot bo'ling, o'g'lingizda mug'ombirlik va yalqovlik kasalining alomatlari paydo bo'lyapti».

Erkinjon ikki bukilganicha o'tirib qoldi. U qancha harakat qilmasin qog'ozdan ko'zini uzib onasiga qarolmasdi.

Tashqarida esa hamon yomg'ir sharros quyay, yirik tomchilar deraza oynasiga urilib, xuddi ko'z yoshidek pastga duv-duv oqardi.

TUGALLANMAGAN SUHBAT

Him bilan Eldor qizg'in suhbat qurib maktabdan qaytishardi. Ikkalovining ham dimog'i chog', binobarin, suhbatga moyil edilar. Sababi, bugun darsdan keyin mashhur yozuvchi Musa Latipovning yangi qissasining muhokamasi o'tkazilgan edi.

Asarda Ulug' Vatan urushi yillari O'zbekistonda boshpana topgan minglab yetim bolalarning qismati hikoya qilinadi. Ayniqsa Vadik degan rus bolasining qismati serhayajon va qiziqarli tasvirlanadi. Vadikni bitta o'zbek oilasi asrab oladi. Vadik o'z qo'shnisi To'ychi bilan aka-uka tutinadi. Biroq ularning tanishishi alomat bo'lgan. Bir kun To'ychi hovlida yurganida qo'shni bog'da kimningdir yong'oq daraxtiga kesak otganini ko'radi. Devorga osilib qarasa, bitta o'ris bola xazonlarni tepkilab yong'oq qidirib yuribdi. To'ychi devordan oshib boqqa tushadi.

— Nima qilib yuribsan bu yerda? — deb notanish rus bolaga tashlanadi.

— O'zing nima qilib yuribsan bu yerda? — bo'sh kelmaydi Vadik ham.

Shundan keyin bir-birini tasira-tusur solib ketishadi. Rosa mushtlashishadi: oxiri ikkovi ham holdan toyib harsillab qolishadi.

— Birovning hovlisiga tushib yong'oq o'g'irlashni ko'rsatib qo'yaman senga! — deydi To'ychi.

— O'zingga ko'rsatib qo'yaman birovning hovlisiga tushib yong'oq o'g'irlashni, — dedi Vadik.

— Nima, meni o'g'ri deb o'ylayapsanmi, men qo'shni hovlida turaman.

— A men shu hovlida turaman. O'zimizning yong'oqni o'zim o'g'irlamasman?! — deydi Vadik.

Shundan keyin ikkalovi kulib yuborishadi. Ularning do'stligi shunday boshlangan edi. Bu havas qilsa, ibrat olsa arziydigan do'stlik edi. Vadik bilan To'ychi juda ko'p qiyinchiliklarni birgalikda yengishdi, og'ir sinovlardan



sharaf bilan o'tishdi, hech qachon sadoqatlariga dog'tushirishmadi.

— Do'stlar shunaqa bir-biri uchun har narsaga tayyor bo'lsa-da, — dedi Azim.

Azim bilan Eldorning suhbatı qizigandan qizib borardi.

— Ular og'ir sharoitda yashagan. Do'stlik esa qiyinchilikda toblanadi-da. Hozir-chi... — Eldor qo'l siltadi, — hozir odamni sinaydigan, irodasini mustahkamlaydigan hech qanday qiyinchilik, ha, hech qanday sharoit yo'q. To'g'rimasmi?

— Qaydam...

— Axir qahramonlik ko'rsatish uchun imkoniyat kerak. Mana, misol uchun urush davrida qanchadan-qancha odamlar qahramon bo'lib ketishgan. Ulardan qahramon chiqishini tinchlik paytida kim bilgan? Sen bilan menga o'xshab yuraverishgan hech kimga tanilmay; — qizishib ketdi Eldor. — Shuning uchun, yana qaytaraman, odam nimaga qodirligini ko'rsatish uchun imkoniyat kerak.

— Balki, — miyig'ida kulimsirab qo'ydi Azim.

— Nega bo'lmasa tirjaysan?

Endi Azim ochiq jilmaydi.

— Hech narsadan hech narsa yo'q, o'zingdan-o'zing jig'ibiyroning chiqib ketayotganiga kulgim qistayaptida.

— Agar men urush yillarida, o'sha og'ir va mashaqqatli davrda yashagan bo'lganimda, — yana sal hovliqib tilbiyronlik qildi Eldor, — albatta biror jasorat ko'rsatib og'izga tushgan bo'lardim.

Azim bu gal o'rtog'iga havas bilan qarab qo'ydi. Ajoyib bola-da Eldor, gapga chechan, hatto kattalar ham bunchalik chiroyli jumla tuzolmaydi, xuddi kitoblarda yozilgandek gapiradi. Bekorga a'loga o'qimaydi. A'lochi bo'lishiga qaramasdan Azim bilan og'aynigarchilik qiladi. Eldordek og'aynisi borligidan Azim ichida g'ururlanib qo'ydi.

Ular sershovqin katta yo'lni tark etib kamqatnov xiyobonga burildilar. Bu xiyobon oldinlari juda gavjum edi.

Lekin hozir metro qurilishi borayotgani uchun ikki yog'idan yo'l yopilgan, shuning uchun xilvat va kimsasiz edi. Faqat o'xtin-o'xtin yo'lovchilar o'tib qolardi.

Ikkala o'rtoq hech narsadan xabari yo'q, hamon gap sotib borishardi. Suhbatga berilib ketib katta arg'uvon daraxti tagidagi skameykada o'tirgan uchta o'spirinni ko'rishmadi. Faqat o'rtalarida besh-olti qadam masofa qolganidagina bolalarning ularga ko'zi tushdi.

O'spirinlarning ko'rinishi shubhali edi. Ikkala o'rtoq ularning oldidan tinchgina o'tib olish uchun qadamlarini tezlashtirdilar.

— O'v, olqindilar, to'xtalaring! — o'zi qop-qora va qotma, sochi alvasti bo'lib yelkasigacha o'sib tushgan o'spirin o'rnidan turib ularning yo'lini to'sdi.

Bulardan yaxshilik chiqmasligini bolalar tushundilar. Eldor epchillik qilib qochib qoldi, ammo Azim qo'lga tushdi.

Qotma o'spirin Azimning yoqasidan ushlab skameyka yoniga sudradi.

— Qo'yvoring, o'zim yuraman, — dedi Azim.

— Ho, olqindi, durust-ku, — dedi qotma.

Sheriklari mazax aralash kulishdi.

Qotma Azimning papkasini tortib olib yerga tashladi, ustiga o'tirdi.

— Xo'sh, mullavachcha, o'qishlar qalay? A'lochi bo'lsang hay-hay, ammo yomonchi bo'lsang ishing chatoq. Biz yomonchilar bilan gaplashmaymiz.

Yana hammalari xiringlab kulishdi. Azim indamasdan yerga qaraganicha o'qrayib turaverdi.

— Ha, o'qimagan! — o'rtog'iga tanbeh berdi tilla tishlik boshqa o'spirin. U nuqul tirjayardi. O'zini erkin va hukmdor tutishidan jo'ravoshligi bilinib turardi. — Agar senda zig'irttak savod bo'lsa o'zing bilib olarding, bolaning qanday o'qishini.

— Qanday qilib? — ajablandi qotma.

— Axir peshonasiga yozig'liq-ku, a'lochi ekanligi!

O'spirinlar bu gal qiyqirib kulishdi.

— Qani, qani, o'qib ko'raylik-chi, — qotma o'rnidan turib Azimga yaqinlashdi, peshonasidagi soch tolalarini surib qo'yib qattiq chertdi. — Iye, jaranglamadi-ku!

— Bu bola a'lochi deb qulog'ingga tanbur chertyapmanmi? U ichi bo'sh kalla jaranglaydi, ichi vij-vij aql bo'lsa shunaqa tovush chiqmaydi, — dedi Jo'ravoshi.

O'spirinlar yana xirillab kulishdi.

— Qo'yvoringlar meni, — alamini ichiga yutib to'ng'illadi Azim.

— Mana olqindi, a'lochiliging isbot etildi. Endi nechan-chi sinfda o'qishligingni ham aytmasang qo'yvoramiz, — dedi qotma.

— Oltinchida.

— Adang qayerda ishlaydi?

— Adam bilan nima ishingiz bor? — o'qraydi Azim.

— Mahmadanagarchilik qilmasdan yaxshilikcha javob ber, — mushtini Azimning tumshug'iga tirab gapirdi qotma.

Azim battar qovog'ini solib oldi.

— E, bu bilan men kasalxonadan chiqqanidan keyin gaplashaman.

— Qanday kasalxonadan? — o'zini go'llikka soldi jo'ravoshi.

— Hozir bir urib jag'ini pachoq qilaman. Keyin kasalxonaga yotib uch oy davolanadi. Ana o'shanda savollarga javob berishni o'rganib tuzalib chiqadi.

Xunuk kulgi ko'tarildi.

— Yo'q, ish ungacha borib yetmas, — ishshaydi jo'ravoshi, — uch oy kasalxonada yotsa o'qishdan qolib ketib a'lochilikdan tushib qoladi-ku. To'g'rimi oshna?

Azim qachongacha kalaka qilishar ekan, deb chidab turaverdi. Boshqa iloji ham yo'q edi-da.

— Bilasanmi, nega adangni surishtiryapti bu akang? — dedi jo'ravoshi, — senga ochig'ini aytamiz. Maqsad seni o'zimizning shaykaga qabul qilish. Biz bilan bo'lsang ham-

ma bolalar seni oldingda zir titraydi. Ammo biz hammani ham olavermaymiz. Tagi pastlarni bizga nima keragi bor?! Deylik, o'g'liga yarimta araqqa pul berishga qurbi yetmaydigan ota otami? Yo'q, unaqa xasis odamni ota hisoblab bo'lmaydi. Xo'sh, akasi, endi ayt-chi, adang nima ish qiladilar?

Ancha mug'ombir, usta edi Jo'ravoshi. Ammo Azim uning maqsadini tushundi. Bular seni shaykamizga oldik deb aldashadi. Shu bahona har kuni pulidan sitib yurishadi. Shuning uchun boymikin, deb adasini surishtiryapti. Azim ham hiyla ishlatdi.

— Adamni sizlar tanisangiz kerak, mana shu uyda turamiz, — u ko'cha betidagi to'qqiz qavatli uyga ishora qildi, — o'zlari militsionerlar, shu mahallaning inspektori.

— Nima, militsioner? — Jo'ravoshining labidagi tirjayish birdan so'ndi, basharasini bujmaytirib so'radi. — Qaytar, nima deding?

— Militsionerlar, — bamaylixotir javob berdi Azim, o'spirinlarning yelkalari osha ko'channing narigi boshiga qaradi. — Huv ana, o'zlari ham kelyaptilar.

Sarosimada qolgan o'spirinlar duv etib orqalariga o'girildilar. Azim fursatdan foydalanib yerda yotgan papkasini oldi-yu, tiraqaylab qochib qoldi. Ammo u uzoqqa ketmadi, yigirma qadamcha joyga borib to'xtadi. Masxara aralash tirjayib o'spirinlarga qaradi.

Qotma alamzada ohangda qichqirdi:

— Qo'lga tushasan-ku, ko'ppak, tuproq yalattiraman!

— Qo'lga tushmayman! — battar irshayib javob berdi Azim.

Qotma xuddi quvmoqchi bo'lgandek. Azim tomon uchto'rt qadam qo'yib dag'dag'a ko'tardi.

— Yo'qol ko'zimdan, xuddi hozir tutvolib go'shtingni qiyma-qiyma qilaman!

— Tutolmaysiz, — pinagini buzmasdan javob berdi Azim, — shu yoshingizdan boshlab ichasiz, chekasizu



yugura olarmidingiz?! To'rt qadam qo'ymasdan harsillab qolasiz!

— Nima? Hozir senga ko'rsatib qo'yaman harsillashni, — qotma engashib yerdan tosh axtardi, topdi, qulochkashlab Azimga otdi.

Azim bu gal ham pinagini buzmadi, tosh undan ancha olisdan o'tib ketdi: Azim endi sharaqlab kuldi.

Qotma ortiq chidolmadi, quvib yetish uchun botinkasini yecha boshladi.

Shundan keyin Azim yo'lga tushdi. Nariroqqa borib har ehtimolga qarshi orqasiga qarab qo'ydi. Yo'q, quvib yetishga ko'zi yetmagan qotma sheriklarining yoniga tiz cho'kibdi.

Azim xiyobonning boshiga yetganda oldidan Eldor chiqdi.

— Osonlikcha qutulib oldingmi? Men bilaman bu bezorilarni, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olishadi, — dedi Eldor.

Azim indamadi, o'rtog'ini ko'rmagandek, gaplarini eshitmagandek yo'lida davom etdi.

Birdan Eldor qilgan gunohini tushundi. Ha, u shoshilinchda o'ylab ko'rmasdan o'rtog'ini tashlab qochib ketganini endi tushundi. Do'stlik, sadoqat haqidagi boyagi suhbatlarini esladi. Qilgan aybi uchun o'zini jazolashga tayyor edi u hozir. Ammo buni o'rtog'iga qanday aytadi.

Ular Azimlarning uyiga yetdilar. Gapisirish kerak, hozir gapirmasa Azim kirib ketadi uyiga.

— Azim, men shoshib qolibman... — gap boshladi Eldor. Ammo u kechirim so'rab ulgurmadi.

Azim indamasdan to'rt qavatli uyning podyezdigaga kirib ketdi.



Sobit **G'OFUROV**

(1933—1993)



Sobit G'ofurov 1933- yil 10- mayda Toshkent shahrida ish-chi oilasida dunyoga keladi. U 7 yoshligida otasidan, 9 yoshligida onasidan yetim bo'lib, singlisi va ukasi bilan qarindoshlari qaramog'ida qoladi.

Maktabni a'lo baholarga tugatgandan so'ng, 1953—1959- yillarda O'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil ko'radi.

O'qishni bitirib, Toshkent televideniye studiyasiga ishga kiradi.

Sobit G'ofurov talabalik davridanoq kichik hikoyalar, maqolalar bilan respublika matbuotida qatnashadi. 1960- yildan «G'uncha» jurnaliga adabiy xodim bo'lib ishga o'tadi va umrining oxirigacha shu jurnalda faoliyat ko'rsatadi.

Yozuvchining «Insho», «Jonli sovg'a», «Topag'on bola», «Ishonch» (rus tilida), «Qorbobo Toshkentda», «Posbonlar» (rus tilida), «Atay topishmoq», «Topishmoqlar» kabi kitoblari nashr qilingan.

S.G'ofurov 1993- yil 15- fevralda og'ir xastalikdan so'ng vafot etadi.



A'ZAM TUT



ondayliq qishlog'iga ko'chib kelganimizga ikki yildan oshdi. Qishloq menga juda yoqib qoldi. Atrofi tog'. Tog'lar ko'm-ko'k, jonli gilam bilan to'shalganday. Musaffo havosi, oynadek tip-tiniq, muzdek suvlari kishi bahrini ochadi. Qishloq shamoli esa, yoqimtoy. U sochlar-ingni, yuzlaringni silaydi. Ko'zlaringdan o'pib-o'pib oladi.

Qishlog'imiz ana shunaqa: mevalarga boy, bag'ri keng, saxiy. Baland-baland cho'qqilar chakkalariga gunafsha, chuchmoma, lola taqib olib, qo'l qovushtirib turganday, go'yo, «keling o'rtoq, gul kerakmidi?» deyayotganday bo'ladi.

Uyimiz xuddi A'zam tutning yonginasida. Ko'chib kelgan kunlarimiz ko'pincha ko'chaga chiqib o'tgan-ketganni tomosha qilardim. Keyin tutning tagiga borib rosa to'yib-to'yib yer edim. Juda shirin tut, o'zi ham katta-katta bo'lib pishadi. Faqat men emas, o'tgan-ketgan yo'lovchilar ham shu tutdan bahramand bo'lishadi. Tutning mevasi qolmasa ham, odamlar uning soyasida dam olishadi, keyin ketayotganlarida:

— Shu tutni ekkanga ming rahmat, — deyishardi.

Men kimga rahmat aytishayotganini bilaman. A'zam otaga. Otani bu gapdan xabardor qilib qo'ymaymanmi, deb qidira boshladim. Qishloqdagi qo'ni-qo'shnilardan:

— A'zam ota kim, u kishi qayerda turadi? — deb so'rasam, ular boshlarini qimirlatib qo'yishadi. Bu gapni Nosir bobomga aytsam, u miyig'ida kulib qo'ydi-da:

— Ey, o'g'lim Ravshanbek, A'zam ota allaqachon o'lib ketgan. U bir boyning cho'poni bo'lgan. Juda kambag'al, qashshoq yashagan edi. Dadamlarning aytishicha, buvam ham, buvamning buvasi ham charchashganda shu A'zam tut ostida dam olishgan ekan, — dedi.

— A'zam ota allaqachon o'lib ketgan bo'lsa, nega uni odamlar doim eslashadi? — deb so'radim.



— Kimki, odamlarga yaxshilik qilsa, o'sha kishining nomi sira o'chmaydi, — dedi Nosir bobom.

Hozir bu tut yo'lovchilar uchun mo'ljal belgisi bo'lib qolgan. Bo'stonliq rayonidagi Xondayliq qishlog'iga mashinadami, yayovmi boradigan bo'lsangiz «A'zam tut» degan joyda tushing. Shunda to'ppa-to'g'ri bizlarnikiga kelasiz. Marhamat qilib «A'zam tut»dan yeb keting, mazasi og'zingizda qoladi. Bir umr yodingizda saqlaysiz bu tutni.

JIYRON

Ayga vazifa. Har kim o'zi yaxshi ko'rgan hayvon rasmini solib keladi. Yanagi rasm darsida ko'rib, baho qo'yaman, — dedi o'qituvchi.

— Opa, men velosiped rasmini chizib kelsam maylimi? — deb so'radi Shukur.

Orqada o'tirgan Avaz bilan Nigora piq-piq kulishdi.

— Nega kulasanlar? So'rasam yomonmi? — dedi Shukur hayron bo'lib.

— Nima, velosiped hayvonmi?! Senga hayvon rasmini chizinglar, deydilar, — dedi Nigora va tilini chiqarib «A-a-a» — deb qo'ydi. Bunga yana hamma bolalar kulishdi. Shukur bo'lsa portfelini olib indamay o'qituvchi ketidan jo'nab qoldi.

Dam olish kuni ham o'tib, yana rasm darsi bo'ldi. Munira opa bolalarning rasm daftarini bir chekkadan ko'rib, baho qo'ya boshladi. Navbat men o'tirgan partaga keldi. Daftarimda chiroyli jiyron toy rasmi chizilgandi. Munira opa rasm daftarimga qarab «yaxshi» dedi. Keyin qo'lidagi qizil qalam bilan katta qilib «5» yozdi-da, tagiga chizib qo'ydi.

Men suyunganimdan terimga sig'may ketdim. Sekin orqaga ham qarab qo'ydim. Nigora «nechchi» degan bo'lib qoshini uchirdi. Men boshimni qashimoqchi bo'lib Nigoraga besh panjamni ko'rsatdim.



— Rostdanmi? — dedi Nigora. Men yonimda o'qituvchi turganligi uchun javob qaytara olmadim.

O'sha kuni rasm darsida Nigora «to'rt», Avaz «uch» oldi. Ikkita quyvon rasmini solib kelgani uchun Shukur ham «to'rt» baho oldi. Erkinvoy bo'lsa «rasm daftarim uyda qolibdi» degani uchun «ikki» oldi.

Bitta men «5» olibman. Buni keyin Munira opa aytdi. U mendan rasm daftarini olib, hamma bolalarga ko'rsatdi.

— Sobir jiyron toy rasmini juda yaxshi chizibdi. Mana, qaranglar, bo'yoqlari ham o'rnida ishlatilgan, — deganlarida jim turolmay «men chavandoz bo'laman», deb qo'ydim.

— Obbo maqtanchoq-ey, echkini ko'rsang qochasan-u, tag'in chavandoz bo'lasanmi? — dedi Avaz menga qarab.

— Jim, bolalar! — deb qo'ydi Munira opa. Biz jim bo'ldik.

— Hammangiz ham harakat qilsangiz, albatta, maqsadga yetasiz. Faqat xohish va istak kerak. Sobir chavandoz bo'lmoqchi ekan, harakat qilsa bo'ladi. Nigora doktor bo'lmoqchi. Agar u chindan istasa, albatta bo'ladi, — dedi.

Bu gaplar menga yoqib ketdi. O'zim ham bir qop semirdimov. Yuragim iliq tuyg'ularga to'lib ketdi.

Dars tugagach, hamma o'rtoqlarim meni besh bilan tabriklashdi. Ba'zilar qanday qilib chizding, o'zing chizdingmi, juda boplabsan-ku, Sobirjon, deyishdi.

«Jiyronning peshonasidagi chiroyli qashqasini qaranglar», «Xuddi chopib ketayotganga o'xshaydi!», «Oyoqlari taqalangan!», «Yaxshi!» deyishardi o'rtoqlarim.

— Sobir, qanday qilib xuddi o'ziga o'xshatding, bizga ham aytib ber? — dedi Shukur yalingan bo'lib.

— Xohish va istak kerak. Sizlarda xohish yo'q. Bor bo'lsa ham kam. Bildingizmi? Daftarini bu yoqqa ol, surkatasan, — dedim.

Bolalarning jahli chiqib ketdi. Shukur rasm daftarimni partaga qo'yarkan, menga yomon ho'mrayib qo'ydi.

— «Besh» oldim, deb shuncha kekkayasan, aytmasang aytma, Sobir maqtanchoq! Sensiz o'zimiz ham bilib olamiz! — dedi Avaz.

«Maqtanchoq» degani uchun bir musht tushirgim keldi. O'sha-da hammaga laqab qo'yib yuradigan!

Tag'in Sobirjon o'tim «Sobir maqtanchoq» bo'lib ket-sa-ya?! O'zingiz o'ylab qarang, «maqtanchoq» so'zini shu bugunning o'zida uch marta eshitdim. Alam qilmaydimi?

Shularni o'ylab-o'ylab kechqurun yaxshi ovqatlan-may uxlagani yotdim. Keyin o'rnimdan turib, rasm daf-tarimni olib, yana jiyron toyimni tomosha qildim. Jiyron rasmiga va o'qituvchimiz qo'yan bahoga qarab-qarab ux-lab qolibman.

O'sha kuni tushimda, rasm daftarimdagi jiyronga jon kirib, daftardan tushgan emish. Men juda suyunib ketib-man-da, singlimning arqonchasi bilan jiyronni bo'ynidan bog'lab olibman. Jiyron tipirchilar, gijinglab kishnar, burnidan qaynab turgan samovar bug'idek issiq nafas chiqardi.

Jiyronga minmoqchi bo'ldim. Yoniga kelsam, tishla-moqchi bo'ladi. Yana bir tirmashgan edim, bo'yim yet-madi. Uni yetaklab hovuz bo'yiga olib bordim-da, yog'och karavotda turib, qashqaga sakrab minib oldim. U shataloq otganday depsindi.

— Qashqa, chu! — degan edim, osmonga irg'ib us-tidan meni qulatmoqchi bo'ldi. Shunday bo'lsa ham ar-qonni qo'yib yubormadim.

— Qashqa, chu! — dedim yana. Ot yurmadi. Nima qi-lish kerak? Shunda buvamdan eshitganlarim esimga tushdi. «Jonivor tilga tushunadi, faqat unga odamdek mehr qo'yish kerak», — degan edilar.

Men buvam aytganlaridek silab-siypab qashqaga:

— Qashqajon nega unday qilasan?— deb, bo'ynidan quchdim. — Qishloqni bir aylanib kelaylik, keyin beda, suv, yem beraman...

Qashqa bir kishnadi-da, tilga kirib:

— Sen bergan ovqatni yemayman, — dedi.

— Nega? — deb so'radim qashqadan, hayron bo'lib.

— Ustimga seni mindirib bir qadam ham yurmayman; — dedi yana. — Hozir, tush, bo'lmasa intiqib tashlayman!

— Nega endi, seni xafa qilganim yo'q-ku?!

— Men sening jiyroning emasman. Meni adang chizgan, — deb jiyron yana rasm daftarimda bo'lib qoldi. Men muzdek bo'lib ketdim. Jiyron bo'lsa oldingi oyoqlari bilan Munira opa qo'ygan «besh» bahoni depsab, daftardan o'chira boshladi. U taqasi bilan «besh» bahoni o'chirib bo'lgach:

— Besh bahoni qo'yib olsang yoki yonimga yaqinlashsang, endi ayamay tepaman; — dedi-da, jonsiz bo'lib qoldi.

Men ot tepgandek yig'lab yubordim.

Ko'zimni ochganimda:

— Sobirjon, ho Sobirjon, nega yig'layapsan? Yomon tush ko'rdingmi? — dedi oyim.

O'rnimdan turib qarasam, quyosh chiqib, hamma-yoq yorishib ketibdi. O'pkam to'lgan, yuragim tipirchilar, allaqayerim achishayotgandek tuyulardi. Nonushtaga oyim qo'yarda-qo'ymay bir piyola oq choy qilib berdilar. Bir burda non bilan o'sha choyni ichib, maktabga jo'nadim.

Kechga qolibman. Sinf eshigini ochib:

— Mumkinmi? — degan edim, hamma o'rtoqlarim menga bir qarashdi-yu, yana kitoblarini o'qiyverishdi. Ular qo'llarini bigiz qilib: «Ana, Sobir maqtanchoq keldi», deb ko'rsatishayogandek tuyuldi menga.

O'qituvchimiz:

— Nega kechga qolding? — deb so'ragan edi, men yig'lab yubordim.

— Nega yig'laysan? — deb hayron bo'lib so'radi Munira opa.

— Opa, men maqtanchoq emasman, meni kechiring. Hm... Kecha men sizni aldadim.

— Nega meni aldaysan, qachon, nima gap o'zi? — dedi Munira opa yana.


— Kechagi jiyron toy rasmini o'zim emas, adam solib bergan edilar. Menga qo'ygan «besh»ni o'chirib qo'ying. Innaykeyin, Avazga ayting, meni «Sobir maqtanchoq» demasin.

Hamma bolalar hayron bo'lib menga qarab turishardi.

— Ha... endi tushundim. «Besh» oldim deb o'rtoqlaringga maqtanibmiding? Shuni bilib qo'y, Sobirjon: sen kechagi ishing bilan meni emas, o'rtoqlaringni emas, o'zingni aldadning. Bizni esa, hurmat qilmading. Men «besh»ni o'chirib qo'yanam. Keyin seni hech kim maqtanchoq demaydi.

Men boshimni liqillatdim. O'rtoqlarim menga qarab jilmayib qo'yishdi.

TESHIK KULCHA

 rta bahor kunlaridan biri edi. Gulzorning o'ng yonidagi maydonchaga bolalar kelib futbol o'ynay boshlashdi. Ulardan biri ikki yoniga portfellarni qo'yib, darvoza yasadida, o'zi darvozabon bo'ldi.

O'yin darrov qizib ketdi. Yarmi qizil, yarmi ko'kka bo'yalgan koptok dumalayverib rangini yo'qotdi. Hozircha hisob bir-u — nol edi.

Mana, burchakdan qattiq tepilgan koptok shiddat bilan bizga tanish darvozabon tomonga kelmoqda. Darvozabon koptokka mushukday sapchigan edi, ushlay olmadi. Koptok darvozadan o'tib ketdi. U yumalab ko'cha chetidagi ariqqa borib tushdi. Darvozabon koptok tomon yugurdi. Bu yoqda bo'lsa hisob bir-u — bir bo'lganidan g'olib bolalar sevinishardilar.

Darvozabon bola koptokni loy ariqdan olib turgan ham ediki, xuddi shu ariqqa bir kishi tushib ketayozdi.

— To'xtang, amaki, men... — bola kishiga qaragan edi, uning qo'lida tayoq, ko'zlari ko'r ekanligini bildi. Ko'r



kishining kiyim-boshlari anchagina durust edi. Faqat xrom etigi loy.

«Bechora qiynalib yurolmay loyga tushib ketibdi-ya» — deb ko'nglidan o'tkazdi bola.

— Men o'tqazib qo'yaman. Qayerga bormoqchisiz?

— Ey, rahmat uka. Hm... men ko'chaning narigi betidagi pivoxonaga o'tmoqchiman.

— A... Ha... — bola ko'r kishini yetaklamoqchi bo'lib uzatgan qo'lini tok urganday tortib oldi. Keyin bir zum xayolga cho'mdi.

— Ha, nega indamay qolding, bolakay qayerdasan? — deb so'radi ko'r kishi.

— Men sizni o'tqazib qo'ymayman. Kerak bo'lsa, o'zingiz topib bora qoling.

Xuddi shu payt ko'r kishining boladan ranjiyotganini qo'lida bir shoda teshik kulcha ushlab olgan o'rta yashar bir xotin eshitib qoldi. Ayol bolaning qulog'idan shartta ushlab:

— Qaysi maktabda o'qiysan, shumtaka! Betartib! — deb urisha boshladi.

Bola quloq cho'zmadan zo'rg'a qutilib qochib qoldi.

Ko'chaning narigi betiga ko'r kishini haligi ayol o'tqazib qo'ydi.

Keyin o'sha ayol qulog'ini ushlab ketayotgan bolani qarg'ay-qarg'ay ketdi.

— Qobiljon, kel, o'rtoq, darvozungga tur, o'yinni davom ettiramiz, — dedi bir bola. — Bugun ham bir yutaylik.

— Yo'q, Nabi, o'ynagim kelmayapti, — dedi Qobiljon ma'yuslik bilan.

— O'sha yomon xotinning gapigami?

— Yo'q...

— Bo'lmasa unday dema, darvozani hech kim senchalik yaxshi qo'riqlay olmaydi.

— O'yin endi qiziyotganda, o'yinbuzuqilik qilma, — deyishdi boshqa bolalar ham.

Qobiljon o'rtoqlarining gapini qaytarolmay ko'nishga majbur bo'ldi. Lekin o'yin qizimadi. Darvozabon Qobiljon yana to'rtta to'pni darvozaga qo'yib yubordi. Keyin u «o'yinbuzuqilik» qilib o'ynamayman deb turib oldi. Qobiljon kostyumini kiyib, portfelini olib jo'nab qoldi.

Qobiljon uyi tomon sekin borarkan, yomg'ir tomchilay boshladi. Uyg'a to'rt eshik qolganda ro'paradagi ko'k eshikdan bir kampir qo'lida soyabon, boshiga dasturxon yopinib chiqib qoldi. Qobiljon kampirni darrov tanidi. Bu — qo'shnisi Zarofat buvi.

— Assalom alaykum, — dedi u.

— A?.. Ha... vaalaykum... vaalaykum bolam.

— Qayoqqa ketyapsiz, buvi?

— Aziza opangning ishdan keladigan mahali bo'lib qoldi.

Baraka topkur, yengilgina kiyinib ketgandi. Yomg'irni ko'rmasanmi, ostanovkada kelolmay turgandir. Shunga mana bu soyabonni olib chiqib ketyapman, — dedi.

— Menga bera qoling, men olib borib beraman.

— Yo'q, bolam, o'zim. Sen uyingga bor, oying urishadi.

— Urishmaydilar. Bering menga, — dedi yana.

Zarofat buvi soyabonni berar ekan, Qobiljonning portfelini olib qoldi. Buvining: dasturxonni yopinib ol, bolam, deb shuncha yalinishiga ham qaramay, chopqillaganicha ketdi.

Qobiljon ostanovkadan kampirning qizi Azizani darrov topdi. Bir soyabon ostida Aziza bilan Qobiljon qaytishdi. Ular to'ppa-to'g'ri kelib Zarofat buvi yo'lagida to'xtashdi. Yomg'ir hamon yog'ardi.

— Aziza opa, portfelim buvimlarda qolgan edi, olib chiqib bering, — dedi Qobiljon.

— Uyg'a kir, yomg'ir tinsin, borarsan!

— Rahmat, oyim qayerda qoldi, deb xavotirlanib o'tirgandirlar, bora qolay...

— Oyi! Ho oyi!!! — deb oyisini chaqirdi Aziza.

— Labbay, — deya Zarofat buvi ko'rindi. Buv'i qizi



bilan Qobiljonni ko'rib suyunib ketdi. Ularni imlab chaqirdi.

Qobiljon portfelini olish uchun borgan edi, ko'zi uyda o'tirgan mehmonga tushdi. Qadamini sekinlashtirib yerga qaradi, keyin o'ng qulog'ini ushladi. Ha, mehmon Qobilni qarag'agan o'sha xotin edi.

Zarofat buvi bo'lsa, mehmonga, qizi Azizaxoniga qarab Qobiljonni duo qildi.

— Baraka topkur qo'shnimizning bolasi bo'lsa ham, o'z o'g'limizday, menga qo'l-oyoq. Umring uzoq bo'lsin, ota-onang rohatini ko'rsin! Meni siylab o'tinimni yorib beradi, suv, non, sovun olib kelib bergan do'kondan. — Xullas, buvi Qobilni rosa maqtadi.

Lekin bu so'zlarni Qobiljon anglamadi. U Zarofat buvi olib chiqib bergan portfelini va bitta konfetni oldi-yu, teshik kulchani olmadi. U mehmon xotining yana bir qarab «rahmat» deb chiqib ketdi.

gobol

Yayra
SA'DULLAYEVA

(1934)



Yayra Sa'dullayeva Ubaydullayevna 1934- yil 18- sentabrda Toshkentning Sebzor dahasida tavallud topadi. 1953- yil Ulug'bek nomli o'rta maktabni kumush medal bilan tugallab, Toshkent Davlat universiteti (O'z Mu)ning filologiya fakultetiga o'qishga kiradi.

Universitetni imtiyozli diplom bilan tugatgan bo'lajak adiba mehnat faoliyatini gazetalar tahririyatida adabiy xodimlikdan boshlaydi. Keyinchalik 1964- yildan «Gulxan» jurnalida, 1971- yildan «G'uncha» jurnalida bosh muharrirlik lavozimlarida xizmat qiladi.

Ya.Sa'dullayevaning qissa, hikoya va badiiy lavhalardan tashkil topgan quyidagi kitoblari chop etilgan: «Hayotning bir varag'i» (1967), «Ko'zlari xumor» (1968), «Ona ko'ngli» (1972), «Kelinchak» (1975), «Ayol qadri» (1976), «Tom boshida tog'ora» (1975); «Yaltiroq halqacha» (1975), «Qog'oz qush» (1979), «Baxtli bo'ling» (1980), «Золотое кольцо» (1982, rus tilida), «Oltin baxtim» (1984), «Bekinmashoq» (1987), «Chip-chipjon» (2004), «Katta hovli» (2005); «Ko'cha to'la bolalar» (2005).

Adiba hozir ham bolalar uchun yangi asarlar ustida ishlamoqda.



KO'CHA TO'LA BOLALAR

Simit-jimit bolalar juda qiziq bo'lisharkan. Birlari yig'lasa, birlari kulisharkan. Birlari saxiy bo'lsa, birlari sal boshqacharoq bo'lisharkan. Xullas, unday ekan, bunday ekan — kichkintoylar turli-tuman ekan. Sizga aytsam, huv, anavi tor ko'chaning menga tanish bolalari boshqalardan sal ajralib turisharkan. Negaligini bilgingiz kelayaptimi? Marhamat, lekin ularning hammasi haqida aytaversam, sizning qulog'ingiz charchaydi-yu, mening og'zim.

Mayli, gapni boshladimmi, oxiriga yetkaza qolay. Faqat ayrimlari haqida bilganlarimni aytib beraqolay.

MIRZAVOY

Sochlari jingalak-jingalak Mirzavoy huv, anavi tut daraxti hammayog'ini tutib ketgan hovlida yashaydi. U hozircha ser urug' avlodning eng kenjasi. Yuzga borib qolgan buvisi bor, to'g'rirog'i, buvisining onasi. Demak katta buvisi. Uylarining farishtasi, saranjom-sarishtasi. Katta buvisini ko'rgani qarindoshlar kelaveradi-kelaveradi. Uydagilar mehmon kutishga o'rganib ketishgan. Katta qozonlari doim qaynab turadi. Kunora somsa. Tandirda nonlar yopiladi. Buni opasi uddalaydi. (U tuqqan onasini opa, deydi). Ertalab turadiyu nonushta tayyorlab bo'lgach, qozonga unnaydi. Bitta-yarimta kelsa, birpasda sabziyam to'g'rab, osh damlab yuboradi. Gohida «katta oyim yumshoqqina yeydilar» deb shilpildoq pishiradi. Shilpildoqni Mirzavoy ham yaxshi ko'radi. Og'ziga solishi bilan liq etadi-yu yutib yuboradi. Yana-chi, u mehmon kelishini yaxshi ko'radi. Chunki mazza qilganda u mazza qiladi-da. Kelgan mehmon borki, ungayam nimadir olib keladi. Yangicha saqichmi, zar qog'ozli popukmi, qurutmi... Mehmonlar ketgach, katta buvisi uni sekin imlab chaqiradi. Mirzavoy ham biroz kutib qoladigandek uning oldiga kiradi. Bo'ynidan quchoqlaydi. Katta buvisi ham erkalab, pes-

honasidan o'padi-da, yoniga o'tirg'izadi. Nimchasining yon cho'ntagidan mayizmi, yeryong'oqmi olib beradi.

Qo'llari kichik emasmi, darrov to'laqoladi. Katta buvisining bunga ko'ngli to'lmay, berganlarini o'zi bitta-bit-ta yediradi. Bunga ham qoniqmay oldidagi qaymoqqa to'rt tishlam non tashlab, uning og'ziga soladi. Onasiga: «Bolaning qornini ochirib qo'yanlar, axir, u o'g'il bola» degani-degan. Yana u: «Hali shunaqangi Alpomish bo'lsinki, hammaning havasi kelsin», — deydi. Shunaqada Mirzavoy qaddilarini rostlab oladi va sekin: «Dadam katta koptok olib bermadilar», — deydi. Katta buvisi: «Qo'yaver, o'zim pensamdan olib beraman», deydi-yu so'zining us-tidan chiqadi. Shunaqa deyaverib, Mirzavoy uch-to'rtta koptokli ham bo'lib qolgan.

Peshinga yaqin katta amakisi bir dunyo narsa ko'tarib kirib kelganda, Mirzavoy katta buvisining oldidan chiqib kelayotgan edi.

— Assalomu alaykum, — Mirzavoy amakisiga ikki bukilib salom berdi. Amakisi alik ola turib: «Ja, bugun salom berishlari boshqacha, toychoq», — dedi kulib va qo'lidagi narsani keliniga uzata turib yon cho'ntagiga qo'lini soldi. «Iye», — dedi-yu, yana ko'zlarigacha kulib, u cho'ntagini titdi, bu cho'ntagini titib ko'rdi. Ajablantdi-ajablantdi. Mirzavoy o'sha turganlaricha turibdilar desangiz. Keyin amakisi peshonasiga shapatilab qo'ydi-da, «Buni qarang, kelin, Mirzavoyga u-bu narsa olish esdan chiqibdi-yu...», — deb yutinib qo'ydi. Mirzavoy ham pinagini buzmay, amakisidan ko'zini uzmay turaverdi. Shunda amakisi: «Zo'rsizda, Mirzavoy, sizga quruq kelib bo'larkanmi», — dedi kulib.

— Qani, kelin, xaltaning og'zini oching-chi, o'zlariga keragini olsinlar.

Mirzavoy yelim xaltaga qaradi-yu, suyunganidan qiy-qirib yubordi. Oq yelimchada bir dunyo xo'rozqand bor edi.

— Olavering, bermalol, hammasi sizga.



Jiyancha qo'lini xo'rozqandga uzata turib, amakisiga shiringina qarab qo'ydi.

— Kulishingiz zō'r-da, mulla Mirzavoy, shunaqangi shirin bo'lsangiz, kelasi safar yana olib kelamiz-da.

Jiyan — amaki boshlashib, buvisining oldilariga, so'ng ularni olib katta buvisining yonlariga kirishdi. Dasturxon birpasda to'lib ketdi. Mirzavoy qo'lidagi xo'rozqandlarini katta buvisi oldiga qo'ydi. Katta buvisi uni doim mehmon qiladi, hech narsani ayamaydi. Mirzavoy ham bir shunday qilsin.

«SHIRINOY»

Menga qarang, o'ng qo'ldagi katta ko'k darvozani ko'ryapsizmi? U yerda bilasizmi, kim yashaydi?

Ko'chaga Shirin qiz deb nomi ketgan Shirinoy yashaydi. Shirinoy hamma yaxshi qizlarga o'xshab vaqtida uxlaydi, vaqtida o'ynaydi. Vaqtida-chi, kichkina bo'lsa ham, onasiga yordam beradi. Onasi uy yig'ishtirsa, changlarini artadi. Kir yuvsa, u kichkina tog'orachasini olib, ko'y-lakchasini yuvadi. Maqtasa, maqtagudek ishlar qiladi-yu, lekin kecha kutilmaganda bir ish bo'ldi, bir ish bo'ldi.

— Shirinoy, kelaqol, qizim. Manavini Rixsi xolangga olib chiqib ber.

Shirinoy qo'g'irchohini karovatchasi ustiga yotqizib, oshxonaga onasi oldiga bordi.

— Pishdimi, oyijon?

— Sen buni berib chiqqin, o'zimiz ham yeb olamiz, — dedi onasi somsa solingan tarelkani qizi qo'liga tutqazayotib.

— Ehtiyot bo'lgin, issiq-a...


Shirinoy tarelkani ko'tarib yo'lakka chiqdi-yu to'xtab qoldi. Xushbo'y hid uning ishtahasini judayam ochib yubordi. Shunaqangi yegisi keldiki, tavba, hech qachon bunaqa bo'lmagan edi. Somsani hidlayin deb bittasining uchidan tishlab oldi. Ancha issiq ekan, puflab-puflab qoldi.

Keyin yutindi. nafsı ozgina bahra olgandek bo'ldi. Ichidagi allanima: «Yana tishla, tishla...», — derdi. «Yo'g'-e, derdi yana boshqasi, uyat bo'ladi», «Tishlayver, endi hammasi bir xil bo'lsin, shunda tishlaganing bilinmaydi». Shirinoy qarasa, tishlangan somsa boshqalardan ajralib qolibdi. Bir xil qilish uchun uchburchak qilib tugilgan somsalarning uchlarini tishlab chiqdi. Mana endi: «Shunaqa pishirishgan ekan-da», — deb o'ylashadi. Shirinoy xotirjam bo'ldi-yu ildam yurib ketdi. Rixsi xolaning har doim ochiq turadigan eshigi negadir yopiq edi. Taqillatib ko'rdi, hech kim ochmadi. Turdi-turdi, hech kim ochmadi.

Endi nima qildi? Boshqa qo'shnisiga bersinmi? Onasidan ruxsatsiz bu ishni qilolmaydi. Hovliga qaytib kirayotib, yo'lakda to'xtab qoldi. Uning kelayotganini sezgan onasi: «Hayallab qolding, kelaqol» — dedi shoshirib.

Shirinoy iymanibgina oshxonaga kirdi, tarelkani ohista stol ustiga qo'ydi. Shunda nima bo'ldi deng?... Hech nima bo'lmadi. Faqat onasi tarelkadagi somsalarga ko'zi tushdi-yu, barmoqlarini lablari ustiga qo'yganicha, anqayib qoldi. Keyin kulib yubordi. O'ziyam bolaligida xuddi shunday ish qilganini eslab, miriqib kuldi... O'shanda Rixsi xola yo'q ekan. U Barnoposhsha degan qo'shni xolaning o'z qo'liga berganini, sal bo'lmasa, gap chuvalashib ketay deganini miriqib aytib berdi. Aytib berdi-yu, lekin Shirinoyni koyimadi. Nega ekan-a?

NODIRBEK

 ap tomonga ichkarilab, sal yuring-chi, ostonasiga taqa qoqilgan hovlini ko'rasiz. Ha, yashang. Topdingiz. Bu Nodirbeklarning uyi. Nodirbek mittigina, tiqmachoqqina bola. Ko'zlari xuddi zoldirga o'xshagan dum-dumaloq, kip-riklari qoshlariga yetgudek quyuq. Onasining o'zi goho sening husningni qizlarimgayam bersa-chi, deb hazillashib qo'yadi. Nodirbek onasiga yaraqlab qaraydi. Munaqada onasi tugul opalariyam su-



qlanib qarashadi. Yuzidagi kulgichi uni shirin qilib yuboradi. Bordi-yu yig'lasa-chi? Rosti, u bo'lar-bo'lmasga yig'layvermaydi. Onasidan qo'rqmas bola haqidagi ertakni eshitganidan beri, arazlashni deyarli esidan chiqargan. Kichik opasi uning jig'iga tegsayam, indamaydi. Lekin hadidan oshib ketsa... Eh, bundayam u bilan mushtlasa olmaydi. Chunki o'g'il bola qiz bolaga qo'l tegizsa bo'lmaydi-da. Onasi shunday degan.

Nodirbek bugun bog'chadan kelgach, o'rtoqlari bilan koptok tepar o'ynadi. Havo ancha salqin bo'lsa ham, terlab-pishib ketdi. Darrov yuvinib, hamma qatori xontaxta atrofiga o'tirdi. Onasi keltirgan shavlani mazza qilib edi. Birpas opalari bilan televizor ko'rdi. Uxlagisi keldi-yu, baribir onasi aytadigan ertakni qo'msab ketdi. Onasi ham yo'q degisi kelmadi. «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir shamol bo'lgan ekan. U mayin esarkan, ko'chada o'ynab yurgan bolalarning yuzlarini o'parkan...» Nodirbek ertakni eshitib yotib, uxlab qoldi. Yarim kechada allanimalarning qasir-qusuridan, allaqanday uvillayotgan tovushdan cho'chib uyg'ondi. Boshini ko'tarishga qo'rqib, ko'rpasiga yashirib oldi. Keyin yurak yutib, ko'rpa orasidan sekin deraza tomon mo'raladi. Hovlidagi daraxtlar shiddat bilan u yoqdan bu yoqqa borib kelishardi. Yaqindagina olib kelishgan Yo'lbars degan kuchuklari bezovta vovullardi. Nodirbek kuchukning vahimasidan battar cho'chidi. Qo'rqib, yig'lagisi kelib ketdi. Karavotidan tushib, onasining yoniga o'tib oldi.

— Oyijon, qo'rqib ketayapman.

Onasi uni bag'iriga olib, ustiga ko'rpa tortdi.

— O'g'il bola shamoldan ham qo'rqadimi? — dedi uyqu aralash onasi.

— Shamolni boya yaxshi degan edingiz-ku, — dedi Nodirbek ham pichirlab.

— Shamolni kimdir xafa qilganga o'xshaydi. Jahli chiqib ketibdi-da.

— Men shamolni sirayam xafa qilmayman, — xo'pmi?

— Xo'p, xo'p, uxla endi, asal bolasan-ku o'zing.

Nodirbek birpasda shirin uyquga ketdi. Tushida u shamol bilan gaplashayotgan emish. Bahor emish-da... Dadasi unga o'zidan ham katta varrak yasab bergan emish. Shamol Nodirbek bilan o'ynab-o'ynab, uning varragini osmoni falakka uchirayotgan emish...

DURDONA

Ro'cha boshidagi tunuka tomli uy Durdonalarniki. Hovlilari ham yaqinda ta'mirlangan. Ustalar ketishdi-yu, qo'shnilar qizaloqning ovozini eshitadigan bo'lib qolishdi. U keyingi vaqtda yig'laydigan odat chiqarib olgan. Koptogi uzoqqa dumalab ketsa ham yig'laydi. Og'zidagi popugi tez erib ketsa ham yig'laydi. Bo'lar-bo'lmasga yig'layveradi-yig'layveradi. Siqilgandan onasi siqiladi. Nega desangiz, Durdona uning to'ng'ich farzandi, hali to'rtga to'lmagani bo'lsa-da, ukasi bor. Opasining ovozini eshitib, u ham qo'shiladi... Musobaqa o'ynayapsizlarmi, qo'ysalaring-chi, desa bormi, biri olib, biri qo'yadi. Oxiri onasining yuragi og'riydigan bo'lib qoldi.

Mana, hozirgina arzimagan narsaga yig'i-sig'i boshlangan edi, onasining rangigacha oqarib, karavotga o'tirib qoldi. Sardorbek bir narsa sezgandek yig'idan taqqa to'xtab, onasining oldiga atak-chechak yurib bordi. Jovdirab: «Oy...yi», dedi va uning bag'riga boshini qo'ydi. Onasining tinib ketgan ko'zlari ravshanlashgandek bo'ldi. O'g'lini ohista qo'lga olib, bag'riga bosdi. Ularga hayron qarab turgan Durdona birdan yig'isini boshlab yubordi. Bu galgi sababi: «Ukamni nega ko'tardingizu, meni ko'tarmayapsiz», — degani ekan. Onasi uni ham bag'riga oldi. «Ko'p yig'layverma, bo'lmasa hamma seni chiroyli oting qolib, yig'loqi deb chaqiradi». Endigina yig'idan to'xtagan Durdona lablari burilib ketdi.

— Bo'lmasa, nima deb chaqirishsin, — dedi onasi chuqur nafas olib, — yig'lash ustasi, deyishsa, maylimi?




— U nima degani? — dedi sal jonlanib Durdona.

— Umi, Durdona zo'r yig'laydigan qiz, agar yig'lashdan musobaqa o'tkazishsa, «Oltin medal» oladi, degani.

— Bo'yniga taqishadimi o'shani? — shoshib qoldi bu yog'iga Durdona va dadasining kecha katta boks musobaqasida yutib olib kelgan nishonini esladi.

Onasi kulib qo'ydi. Buni tasdiq alomati deb tushungan Durdona xursand bo'lib ketdi va: «Mayli, deya qolishsin», — dedi.

DAVRONBEK

 shigi oldida taxta o'rindig'i bor hovlida Davronbeklar yashashadi.

Davronbek har kuni katta bobosi bilan bab-baravar turib oladi. Katta bobosi — adasining buvajonisi. Davronbek u bilan birga yuz-qo'lini yuvadi, yaxshilab ar-tinadi. Namoz o'qiyotganida esa, o'tirsa o'tiradi, tursa turadi. Ayniqsa bobosi fotiha o'qiyotganida, mittigina qo'llarini ochadi. Uni duo qilganida yayrab ketadi. «Davronbek katta yigit bo'lsin, yurtga yaraydigan polvon bo'lsin». Fotiha-sining oxirida bobosi Ollohdan yurtga tinchlik so'raydi. Shunaqada Davronbek katta bobosidan so'rab qoladi: «Tinchlik nima?» Bobosi yuziga fotiha tortib bo'lgach, miri-qib javob beradi. «Sen bilan biz kechasi maza qilib uxlay-miz, hech kim bezovta qilmaydi, yana adang, opang be-malol ishga borib keladi, men qachon kelisharkin, deb xavotirlanmayman».

— Hm..., — deb qo'yadi Davronbek tushungandek bo'lib.

— Yana-chi, o'rtoqlaring bilan bemalol, hech nar-sadan qo'rqmay o'ynayverasan.

Ular sekin hovliga chiqishadi. Katta bobosi, ayniqsa ray-honlarni silkitib yuborganda, uning yoqimli hidi dimoqqa uradi. Chuqur-chuqur nafas olib, huzur qilishadi. Davron-bek ko'cha eshik oldidagi o'rindiqda mashina o'yinchog'ini

o'ynab o'tirishni yaxshi ko'radi. O'tgan-ketganlarni tomosha qiladi. O'rindiqqa shundoq olma daraxtining soyasi tushib turadi. Davronbek kattalarga salom berishni yaxshi ko'radi.

U hozir ham o'sha yerda mashinasini o'ynab o'tirgandi, ko'cha boshida katta bobosiga o'xshagan qariya ko'rinib qoldi. U hassasiga suyanib, bir-bir yurib kelardi Davronbek shoshib qolmaslik uchun o'rnidan turdi. Kichkinagina ariqchalari ustidagi ko'prikchadan o'tib, yo'lovchi tomon peshvoz chiqdi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib: «Achchalomualaykum», — dedi shiringina qilib.

— E... e... Vaalaykum assalom.

Ota Davronbekka bir-bir nazar tashlab oldi-da, «Barakalla», — deb qo'shib qo'ydi. Davronbekka bu so'z, ayniqsa, yoqib qoldi.

— Kimning nabirasisiz, bo'tam? — Ota hassasiga ikki qo'lini qo'yib, biroz oyoqlariga dam bergan bo'ldi.

— Julpiqoy boboning.

— Iye, i-e, Zulfiqor boboni deng. Ko'p yaxshi bola ekansiz. Bobongizga salom ayting.

Davronbek otaning uzoqroqqa ketishini ham kutmay, uyga chopqillab kirib ketdi.

— Katta buvajon, bitta amaki sizga achchalom ettila...

— Yashang, bo'tam, uyga kiring demadingizmi?

— Yo'q, — Davronbek shunday dedi-yu, yana yugur-ganicha ko'chaga chiqib ketdi. U yoqqa qaradi, bu yoqqa qaradi, hech kim ko'rinmadi. Ota allaqachon ketib qolgan edi. Davronbek yana o'rindiqda mashinasini o'ynay boshladi. Unga shunaqangi berilib ketgan ekanki, qo'shni bobo yaqinlashib qolganini ham sezmay qoldi.

— Zerikmayapsizmi, Davronbek, — dedi bobo uni sizlab (negadir hamma uni sizlaydi-ya).

Bu gal Davronbek ancha shoshib qoldi. O'rnidan tura solib, qarz salomini berdi.

— Vaalaykum assalom. Mashinangiz muncha chiroy-li, — havasi kelgandek bo'ldi boboning.



— O'yniysizmi, mang, — shunday deya Davronbek mashinasini boboga uzatdi.

Bobo mashinani qo'liga olib, tomosha qilgandek bo'ldi.

— Ichida haydovchisi ham bor ekan, — havasi keldi keksaning, — mening ham dadam bo'lganlarida, olib be-rardilar, — qo'shib qo'ydi biroz o'ksigandek bo'lib yana.

— Olaqoying.

— Yashang, Davronbek, rahmat. Bobongizga salom ayt-ing.

Ana shunda katta bobosining boyagina aytgan gapi esiga tushdi-yu, qo'shni boboning qo'lidan mahkam ushlab oldi. «Yuling, yuling», — dedi qo'ymay. «Boshqa safar kirar-man», — deganiga qaramay, ichkariga boshladi. Qo'shni bobo bolaning ra'yini qaytarmaslik uchun unga ergashdi.

Ayvondan chiqayotgan katta bobosi ularni ko'rib, hay-ron bo'ldi.

— E... keling, Tal'atvoy, nuchuk-nuchuk.

— O'g'lingiz qo'yarda-qo'ymay olib kiryapti. Biror yumush bormi? — bir oz ajablanib dedi Tal'at bobo ham.

Katta bobo evarasining ishidan mamnun pastga tushdi. Ikki keksa qo'l olib, quyuq so'rashishdi.

Bu orada Davronbek mehmonxona eshigini ochib, ularni kutib turardi.

ANTIQAXON

Bu ko'chaning yana bir jaji qizalog'ini butun ma-halla Antiqaxon deydi. Asli ismi-ku Guli. Hadeb kutilmaganda, antiqa-antiqa savollar beraver-ganidan buvijoni unga shunaqa ot qo'yib yuborgan. Bu-visining aytishicha, hech qaysi nabirasi Antiqaxondek ser-gap, Antiqaxondek sersavol emasmish. Hatto birontasi uning atrofida shu nabirasidek gir-dikapalak bo'lavermasmish. To'g'risiyam, shu — kichkina qizaloq buvisi o'rnidan tur-sa, darrov qo'lidan ushlaydi. Undan oldin borib, kovushini to'g'rilab qo'yadi. Yana bir ajoyibligi, buvisi qaysi ovqatni

yaxshi ko'rsa, u ham shuni yegisi keladi. Savollariga kelsak... savollari bir zumda qalashib ketadi:

— Buvijon, quyosh nega isitvoradi?

— Issiqligi ko'p-da...

— Buvijon, osmondan bir hovuch yulduz olib bersangiz bo'ladimi?

— Daraxtning bargi nega ko'm-ko'k?

— Qo'shiqni nega cho'zib aytishadi?

Xullas, ikkalalari savol-javobdan bo'shamaydi. Hozir ham shunday bo'lay degandi, qo'shni qizaloqning yig'i tovushi ularning fikrini bo'ldi. Axir, devorlari pastgina. Yupqagina sinch devor-da. Tiq etsa, eshitiladi. Antiqaxon hayron. Nega o'rtog'i hadeb yig'layveradi. Ana, opasi: «Bo'ldi, yig'lama», — deyapti. «Yaxshi qiz bo'lsang, hay-hay ko'ylak tikib beraman», — deyapti. Voy, o'rtog'ini qarang. «Kerakmas, kerakmas, shkalad yeyman», — deydi.

— Hadeb yesang, tishing og'riydi, — deyapti oyisi.

Bu gaplarni eshitgan Antiqaxon buvisiga bir qarab oldida, negadir tishlarini ushlab-ushlab ko'rdi. Yo'q, uning tishi og'rimayapti. Ana shunda buvisiga yana bir savol bergisi keldi-qo'ydi.

— Tish qanaqa qilib o'sib chiqadi?

— O'sib ketavursa-ketavursa nima qiladi?

Buvisi unga bir amallab javob berayotgan edi, qo'shni qizning yig'isi avjga chiqib ketdi.

— Buvijon, nega yig'laganda yosh chiqadi?

— Yosh chiqqisi keladi-da.

— Osmon ham yig'laydi-a?

— Ha.

— Yig'lasa, charchab qolmaydiimi?

— Yengil tortadi, bolam.

— Qancha yengil tortadi?

— Quvvati yetganча.

Antiqaxon quloq-solsa, o'rtog'ining yig'isi hali tinmayapti. Onasi uni ovuta-ovuta charchagan chog'i: «Bo'ldi,

yuragimni qisib yubording», — dedi yig'lagudek bo'lib, shunda Antiqaxonning esiga bir narsa tushib qoldi. Agar qo'shni xolaning yuragi ikkita bo'lganda, bittasi qisilib qolsa, bittasi dam olib turardi. Mana, hozir buvisidan so'raydi.

— Buvijon, nega odamning yuragi bitta bo'ladi?

Buvisi bu gal sal garangsib qoldi.

— Qizalog'im-ey, savol qoping namuncha ochilmasa, — dedi buvisining o'rniga onasi.

— Buvijon, savolning qopi ham bo'ladimi? Uni do'konda sotadimi?

Kampir endi miyig'ida kulib qo'ydi va nabirasi qolib, keliniga dedi:

— Xudo xohlasa, shu bolam bir joydan chiqadi.

— Qaysi joydan, buvijon? — darrov uning so'zini ilib oldi qizalog'i.

Buvisi bu gal javob o'rniga: «Boraqol, opangga qarashib yubor», — deb onasi tomon imladi. Antiqaxon uning gapini ikki qilolmay, onasi tomon ketdi.

Xullas, ana shunaqa gaplar. Mabodo so'zimga ishonmasangiz, ularnikiga bir kirib ko'ring. Faqat hushyor bo'ling hushyor bo'ling! Yana Antiqaxonning savollariga javob topa olmay, dovdirab yurmang.

NUSRATMI, RIXSIVOY

Hozir men darvozasi doim ochiq turadigan mana bu xonadonga mo'ralayman. Bu yerda ikki aka-uka yashaydi. Qaysi biridan o'mak olish o'zingizga havola.

Nusratjon onasini sirayam xunob qilmaydi. Biror yoqqa bormoqchi bo'sa, men ham boraman deb er-gashmaydi. Akasi esa boshqacha. Onasini ostona hatlab eshikka chiqargisi kelmaydi. Ona qo'liga tugun yoki xalta oldi, tamom, men ham birga boraman, deb turib oladi. Onasi uyga kirsam, uyga kiradi, oshxonaga kirsam, oshxonaga. Ona, seni olib borolmayman, deb tu-

shuntirib charchab ketadi. Oxiri o'g'lining tixirlik qila-verishi joniga tegib, olib ketadi. Koshki Rixsivoy yo'lda tinch yursa... Hali muzqaymoq yegisi kelib qoladi, hali o'yingohda uchgisi kelib qoladi. Onaning bezovtaligi oshadi. Bafurja borib keladigan joyga besaranjomlik bilan boradi. «Asalim, qo'y, unday qilma», — desayam o'g'il bilganidan qolmaydi. Uyga borgin, qulog'ingni cho'zaman, degandagina sal tiyiladi. Asli ona uning qulog'ini hech qachon cho'zmagan. Uch-to'rt yoshligida Rixsivoyning o'ng qulog'i shamollab, shunaqangi og'riganki, necha kungacha uxlolmagan. Hozir qulog'iga birov bexosdan tegib ketsa ham, zirqirab og'rib ketganga o'xshayveradi. Onasi juda bo'lmay ketsagina, «Qulog'ingni cho'zaman», — deydi. Shunda o'sha og'riq esiga tushadi-yu, qulog'ini ayab ketadi.

Bu gal ham onasining yurishi chiqib qoldi. U-bu pishirib bormasa, uyat bo'ladi. Darrov xamir ham qorib yubordi. Uni tindirib qo'yib, sovutgichdan go'sht oldi.

— Rixsivoy, tog'orachada piyoz olib chiqqin, — dedi ona katta o'g'liga.

Rixsivoy, onasining lozimandasi borligini sezib, — sergaklandi. «Xo'p», deyish o'rniga, «Men ham boraman», — dedi tantiqlanib.

Ona unga bir qarab qo'ydi-yu, indamadi. Rixsivoy ham g'iq etmay turaverdi.

— Men ham boray, birga boraqolay, — dedi onasini yumshatish uchun sal yalinib.

— Yana boshlamagin. Piyoz olib chiqqin.

Rixsivoy turgan joyida turaverdi. Ona bo'g'ilib ketdi. Ayvonda rasm chizib o'tirgan Nusratjonga bo'layotgan voqea shunday ko'rinib turardi. Uning onasiga rahmi keldi. Akasi hadeb shunaqa qilaversa, onasi kasal bo'lib qoladi. Unda nima qilishadi. Nusratjon shahd bilan o'rnidan turdi-da, akasining oldiga bordi.

— Bormaysiz, oyim sizni hech qayoqqa olib bormaydilar. Bildingizmi?



Ona, akaga ham shunaqa gapiradimi, degandek unga g'alati qarab qo'ydi.

— O', Jimitvoy, sen nega oyimning o'rinlariga javob qaytarasan?

— Endi-chi, akavoy, oyimni xafa qilsangiz...

Nusratjon gapni kattalarday shahdam boshladi-yu, oxirida so'z topolmay qoldi.

— Hay-hay, aka-uka bir-biriga qattiq gapirsa, uyat bo'ladi-ya. Eshitgan quloq nima deydi.

Rixsivoy ukasidan bunday gapni sirayam kutmagan edi. Shu bois, juda g'alati bo'lib ketdi. Nusratjon indamay tog'orachani oldi-da, piyoz olib chiqdi. Ayvonchada chordona qurib o'tirib oldi. Oldiga onasiga o'xshab dasturxoncha yozdi, kichkina pichoqni olib, piyoz artishga kirishdi. To'g'risi, hali u piyoz artishni bilmaydi, lekin o'rganib olishi turgan gap.

NILUFAR

Ro'rib turganingiz — o'zi pastakkina qurilgan, ko'cha eshigi ham uncha ko'zga tashlanmaydigan bu xonadon doim jim-jit. Bo'lar-bo'lmasga shovqin-suron chiqavermaydi. Oila kenjasi Nilufarning ovozi-ku tashqariga chiqmaydi. Nega desangiz, o'zi bilan o'zi ovora bo'ladi.

U rasmi kitoblarni tomosha qilishni yaxshi ko'radi. Tomosha qilgan sayin yangi-yangi narsalarni bilib oladi. Ranglarning xillarini-ku bilgandan biladi — qizil, ko'k, sariq... Hattoki, ko'kka sariq qo'shilsa, yashil rang paydo bo'lishini kechagina o'rganib oldi. Yana kecha-chi... Dadasi olib kelgan yangi kitobchani varaqlab, anqayib qoldi. Daraxt xuddi jonliga o'xshaydi, yonidagi ayiqcha esa do'mboq, ko'zlari dum-dumaloq, unga qarab turibdi. Mo'ltirabmo'ltirab nimalarnidir so'rayapti.

— Qorning ochmi? — deb yubordi Nilufar unga. Ayiqcha tamshanayotganga o'xshadi. «Hozir, hozir», — deya kitobchani xontaxta ustiga qo'ydi-da, ayvonchadagi

shkaf tabaqasini ochdi va bir zum to'xtab qoldi. «Ayiqcha o'zi nimani yaxshi ko'radi? Pechenyemi? Yo'q, uni emas. Murabbonimi? Yo'q. Popuknimikin? Yo'q... «U shkafdagi meva-chevalarga birma-bir ko'z yugurtirdi. Asalni ko'rdiyu ayiqchani nimani yaxshi ko'rishi esiga tushib, qunab ketdi. Piyoladagi asalni olib, rasmdagi ayiqchani og'ziga tekkazdi.

— Yeyaqol, judayam shirin.

Ayiqcha negadir og'zini ochmadi. Nilufar qiz uni erkalab-erkalab yalatmoqchi bo'ldi.

— Og'zingni ochaqol, qorning ochib ketdi-yu...

Ayiqcha mo'ltirab qarab turganicha turaverdi. Nilufar qiz ayiqchani erkalay-erkalay onasi kelganini bilmay qoldi.

— Nima qilyapsan, qizim?

— Ayiqcham asal yemayapti-ku, — dedi kuyunib, — kasal bo'lib qolmaganmikin?

Onasi biroz qarab turdi-da:

— Rostakam ayiqcha bo'lsa, yerdi. Bu rasm-ku, qizim, — dedi.

— Rasmdagi yemaydimi?

— Yo'q.

Nilufar qiz achinib ketdi.

— Oyijon, rostakam ayiqcha olib berasiz-a?

— Ayiqchani uyda saqlab bo'lmaydi-da. Uni hayvonot bog'iga borib, tomosha qilamiz.

— Asal beramizmi?

— Hayvonot bog'idagi hayvonlarga yaqinlashib bo'lmaydi. Zarar yetkazadi.

— Sirkdagilar-chi?

— Ular o'rgatilgan bo'ladi. Lekin ehtiyot bo'lmasa, qiyin.

Negadir Nilufarning ayiq o'rgatuvchilarga havasi kelib ketdi. Ko'nglidan bir narsa o'tdi-yu... Mayli, keling, ko'nglidagi gapi hozircha sir bo'la qolsin.

LOBARXON

Naqshinkor eshikli hovlida «qizlarning podshosi» — Lobarxon turadi. Uning yig'laganini yo injiqlik qilganini hech kim eshitmagani uchun, ehtimol shunday deyishgandir. Chindan ham Lobarxon...

...Qanday yaxshi edi-ya, qizaloq nozik barmoqlarini tekkizsa, bas, pianinoning jilvali ovozi to'liqinlanib-to'liqinlanib ketardi. Xayolida atrofidagi sayroqi qushlar faqat ularning hovlisidagi daraxtlarga qo'nishardi-yu, birga qo'shiq aytishardi. Ba'zan o'zi ham ularga qo'shilgisi, qo'shiq aytgisi kelardi. Rosti, hali uning qo'llari pianino chalishga uncha kelishmaydi. Hali juda kichkina bo'lgani uchun notalarni bilmaydi. Lekin baribir chalaveradi-chalaveradi. Ayni vaqtda, pianinoni rosa ayaydi. Bu xislat onasidan o'tgan. Onasi uchun bu pianino juda qadrli. Bir vaqtlar pul yig'a-yig'a zo'rg'a olishgan. O'shanda buvisi: «Ehtiyotlasa, necha avlodga xizmat qiladi», — degan ekanlar. Buni eshitganmi, pianinoni hatto ikki yoshli ukasidan ehtiyotlaydi. Onasi yumshoq oq surp bergan, tez-tez artib tursang, yaraqlab turadi. Uning ham husni bor, degan. Husni bor deganiga hali beshga to'lmagan Lobarxonning unchayam aqli yeta qolmadi. Onasidan so'ramoqchi bo'ldiyu, yo'q, o'zim topaman, dedi o'ziga-o'zi. Qop-qora bo'lsayam, yalt-yalt qiladi. Onasi shuni aytgan bo'lsa kerak. Lobarxon har safar chalish oldidan ham, keyin ham pianinoni artadi. Unda qo'l izlari qolishini istamaydi. Qiziq, onasi kuni kechagina pianinoning joni bor, degan edi yana. Endi bu nima degani bo'ldi-ya? Mana, qushlarda jon bor, uchishadi, ovqat yeyishadi. Uydagi Chiporida jon bor, vovullaydi, o'ynaydi. Pianinoning joni qayerdaykin?

Lobarxon bu gal ham pianinoning sirtini artib chiqdi. So'ng qopqog'ini ochdi. Klavishlarni birma-bir tozalaytib; birdan sergak tortdi.

Qo'lidagi artgichni deraza zihiga qo'ydi-da, qo'lini qoqib yuborib, shoshganicha kursini oldiga surdi. Qo'llari



o'rgangan ohangni chalish istagida o'ynab ketdi. Afsuski, klavishlarning hammasi ham unga bo'ysunavermaydi. «Qayering og'riyapti, nega og'riydi?». Endi onasining gaplariga aqli yetgandek bo'lyapti. U pianinosiga achinib ketdi. «Kasal bo'lib qoldingmi? Do'xtir chaqiraymi? — dedi u ertalab. Oyim kelsinlar...» Lobarxon o'rgangan kuyini chalishga bir-ikki harakat qilsa ham bo'ladi. Mendan xafasan-a? Pianino birdan jonlanib, yelkalarini qisib-qisib qo'ygandek bo'ldi. «Bildim, xafasan». Bu gal qardoni o'ksik aralash ingragandek tuyuldi. «Topdim, seni Shahob kasal qilib qo'rgan».

Shahob — kechagi kelgan mehmon bola. U Lobardan sal kichikroq... uzoq qarindoshlarini onasi sevinib kutib oldi. Darrov ko'rpacha soldi. Orqalariga yostiq qo'ydi. Fotiha o'qib bo'lishgach, mehmon xola Lobarxonga bir nazar tashlab oldi-da:

— Qizing ham katta bo'lib qolibdi, — dedi. — Yo'lim tushib qoluvdi, kirib o'tay dedim, — yaxshilab o'ynashayotib qo'shib qo'ydi mehmon xola.

— Yaxshi qilibsiz, o'zimyam bir-ikki, yildan beri ko'rishmadik shekilli.

— Vaqt ham haligidek, bozor-o'char deganidek, erta bo'ladi, kech bo'ladi.

— O'g'ilchanning ismlari nimaydi? — mehmon bolaning boshlarini silay turib, so'radi mezbon.

— Mirshahobiddin, Shahob deymiz.

— Chiroyli ism qo'rgan ekansizlar.

Ona-bola mehmonlar oldiga dasturxon yozishdi.

— Ol, bolajonim, pechenyedan yegin, juda shirin, — deya o'zi pishirgan pechenyeni uning oldiga surdi Lobarxonning onasi. Mirshohobiddin qorni ochib ketgan ekanmi, birpasda bir talinka pechenyeni yedi-qo'ydi. Keyin o'rtadagi konfetlarga qo'l uzatdi. Bir olib yedi, onasi indamadi, ikki olib yedi, onasi yana indamadi. Mezbon tayyor ovqatni suzib kela qolay, deb o'rnidan turayotganda Shahob qo'lga tushgan tarsakidan cho'chib tushdi.



— Ming marta aytaman, bir joyga borganda, qo'lingni uzataverma, deb.

— Yegim kelyapti.

— Nafsingga eski chopon tiqilsin.

Bu gapdan mezbon xijolat tortib ketdi.

— Yeyaversin, qo'yavering, — dedi o'rnidan turayotib va bolaning oldiga zar qog'ozi yaltiragan obaki dandon olib qo'ydi.

— Kunda yegan och bo'lar, oyda yegan to'q bo'lar.

Bu orada Lobar ular oldidan chiqib ketgan, o'z xonasiga kirib pianinosini chalayotgan edi. Onasi ovqatni suzishga ketganda, mehmon xola o'g'liga tashqarini imladi.

— Boraqol, tog'ang allam-balo chalayapti. Chiqib, tomosha qil.

Shahob qushday uchib hovliga chiqdi. Pianino ovozi kelgan uyga kirmoqchi edi, oldidan Lobarxon chiqib qoldi.

Eshikdan chaqirgan o'rtog'i tomon ketayotib, yuragi bir narsani sezgandek unga bir qarab qo'ydi. Shahob ikki dugonaning ko'rishishiga qiziqsinib qarab turdi-da, pisibgina pianinoli uyga kirib ketdi. Zum o'tmay, pianining dang'ir-dung'ir ovozi xonani tutib ketdi. Go'yo klavishlar ustidan ayiq yurayotganga o'xshardi. Lobarga pianinosi dod solib yuborgandek tuyuldi. O'rtog'ini ham qoldirib, yugurib ichkari kirdi. Kirdi-yu, eshik oldida bir zum qotib qoldi. Shahob pianino ustiga chiqib o'tirib olgandi. Oyoqlari esa klavishlarni loy tepayotgandek tepardi. Lobarning esi chiqib ketdi. Otilganicha Shahobni mahkam quchoqlab oldi. Uni tushirishga qanchalik urinmasin — eplolmadi. Chunki Shahob jon-jahdi bilan pianoni tillari ustiga yotib olmoqchi bo'lar, pianinodan dam chinqiruvchi, dam bo'g'iq ovozlar hayqirib chiqardi. Onasi eshikda ko'ringanda, «jang» avjiga chiqqan edi. U hay-haylaganicha, Shahobni ko'tarib, tashqariga olib chiqib ketdi...

Mana, hozir esa Lobarxon yig'lamoqdan beri bo'lib o'tiribdi. Hademay onasi kelib qoladi. Pianino do'xtirini chaqiraylik, deydi. Voy, hovlida onasining ovozi kelayaptimi? Kingadir keling, deyaptimi? Ha, ha, deyapti. Lobarxon derazadan hovliga qaradi. Chemodanchasini ko'tarib, usta amaki kelardi. Rostdan aytgan ekanmanmi, bu ko'channing bollari xo'p ajoyib, shirin-shakar ekanlarmi? Harqalay, men shunday deb o'ylayman.

Siz nima deysiz?





Latif
MAHMUDOV

(1935)

Bolalar adabiyotining taniqli vakili, yozuvchi va dramaturg L.Mahmudov 1935- yil Toshkentda tug'iladi.

Uning uzoq yillar davomida O'zbekiston radiosining bolalar va o'smirlar bo'limida, bolalar va yoshlar nashriyatidagi faoliyati qizg'in ijodiy muhitda kechadi.

Adib «Qopga yashiringan odam», «Sirli xat», «Ikki o'rtoq», «Qizg'anchiq», «Ikki yalqovning sarguzashtlari», «Quvnoq bolalar», «Eski dutorning sirlari», «Ali-Vali», «Burgut o'g'irlagan bola», «Qorbobo bilan uchrashuv» kabi hikoya, qissa, roman va pyesalari bilan bolalar adabiyoti xazinasini boyitgan so'z san'atkorlaridandir.

L.Mahmudovning asarlari rus, qozoq, yapon, qirg'iz, ukrain, moldavan, turkman va qoraqalpoq tillariga tarjima qilingan.

O'RIK

Mirqobil yaqin orada bunaqa zerikkan, yolg'iz qolib bunaqa diqqinapas bo'lgan emas. Negaki, qadrdon oshnasi doimo orqasidan soyadek ergashib yurguvchi edi. Buni qarangi, kuni kecha o'sha oshnasi dadasi bilan Bo'stonliqqa ketgan edi, haligacha daragi yo'q. Mirqobilni ham taklif qilishgan edi. Dadamning o'rtog'i ham ketyapti, qizi lagerda ekan, tayyor mashina, yur, sen ham o'ynab kelasan, deb Asqar hovliqib chiqdi. Ammo Mirqobil begona odamning oldida iymandimi, yo hafsalasi kelmadimi, ko'nmadi. Attang, chakki qilgan ekan. Mirqobil ko'chaga chiqdi, uyga kirdi, o'zini qo'ygani joy topolmay qoldi. Oyisi: «Bekor laqillab yurmay u-bu ish qil-sang-chi», degan edi, koptokni qo'ltig'iga urib narigi mahallaga bordi. U yerda o'ziga o'xshab zerikib o'tirgan uch-to'rt bolani to'plab o'yinni boshlagan edi, bittasi rasvo qildi. U to'p o'lgur darvozaga emas, birovning ko'chaga qaragan derazasiga qarab uchishi bilan Mirqobil koptokdan ham voz kechib «issig'ida» qochib qoldi. Uyda toza xunobi chiqib o'tirgan edi, ko'cha eshik «g'iyq» etib ochildi.

— Mirqobil!

— Bormisan! — qiyqirib yubordi Mirqobil o'rtog'ini ko'rib. — Qayoqlarda qolib ketding. Asqar?

Asqar, e, qo'yaver, degandek qo'l siltab, Mirqobilning yoniga cho'kkaladi, chuqur «uf» tortdi, keyin oshnasiga qarab:

— Maza qilding! — dedi.

— Men-a?

— Ha.

— Ol-la! — deb yubordi Mirqobil va esi joyidami deganday oshnasining yelkasidan ushlab ko'zlariga qaradi. Asqarning ko'zlari juda-juda ma'yus, xuddi yig'layverib nursizlanib qolgan odamning ko'zlariga o'xshar edi.

— Ha, nima gap?

— E, so'rama, — dedi Asqar — toqqa ketayotganimda yomon bo'lmadi. Atrofdagi bodring, qovun polizlar. Ozroq yurgach qir-adirlar boshlanib, olis-olislardagi podalarni ko'rib ko'zlarim javdirab qoldi. Qani endi Mirqobil bilan biz ham uch oy shaharda yurmay, mana shunaqa qir-adirlarda maiza qilib dam olsak, deb o'yladim. Ikkalamiz bir podachilik qilib, oyog'ini zo'rg'a sudrab yurgan ilatozilatoz qo'ylarni ham uch oyda pufakdek semirtirib, bo'rdoqiga aylantirib yuborardik-a! — dedi Asqar. — Men tulpor otga minib yaxshi-yaxshi sero't yaylovlarni topib kelib senga aytardim. Sen qo'y-qo'zilarni o'sha yaylovlarga haydab ketib, kechgacha to'ydirib kelarding!

Mirqobilning ensasi qotdi.

— Nima-nima? Sen tulpor otga minib yaxshi o'tloqlarni topib kelasan-u, men poda boqamanmi? Qani, ayt-chi, umringda hech ot minganmisan?

— O'zing-chi, o'zing?!

Ikki oshna tulpor otni kim minadi-yu, podani kim boqadi, deb toza talashib bir oz hovurlaridan tushib, o'ylab qarashsa, ikkovlari umrlarida ot tugul eshak ham minishmagan ekan. Eshak magazinda turgan velosiped emas-ki, dadalariga oldirib maktabga minib borishsa. Qolaversa, tog'da yashaydigan na biron qarindoshlari bor, na cho'ponlardan biron oshna-og'aynilari-yu, na tanish-bilishlari bor!

— E, attang, — dedi Mirqobil.

— Men ham shunga toza afsuslanaman-da, — Asqarga bir oz jon kirib, oralariga tushay degan o'ng'aysizlik sovuvi ko'pigidek darrov yo'qoldi-yu, boyagi gapning davomiga o'ta qoldi, — endi eshit: lagerga yetib kelding-u, azob-uqubatlarim boshlandi.

— Nima-nima?

— Azob-uqubatlarim, deya pman!

— Bu nima deganing?

— Bumi? — dedi Asqar kuyib-pishib. — Qani deyman, shu topda yonginamda sen bo'lsang-u, ikkalamiz

bab-baravar tortsak, odamga bir oz yengilroq bo'larmikin, deyman!

— Nima deding? — dedi Mirqobil rangi o'chib. — Yana bitta qaytar!

— E, qo'lingni ol, — dedi Asqar cho'chib Mirqobilning changalidan arang qo'lini bo'shatarkan, — nega bo'g'asan?

— Ha? — dedi Mirqobil, — bo'lmasa boshingni silaymi? Xo'sh, qilgilikni sen qil-u, azob-uqubatni baravar tortaylikmi?

— E, tentak, muncha hovliqasan, avval gapni eshit-sang-chi! Men azob-uqubat deb dadamning achchiq-achchiq pichinglarini aytyapman, chunki uning gaplari bitta menga emas, senga ham tegishli!

— Menga-ya?!

— Ha, — dedi Asqar, — chunki dadamning gapiga qaraganda, g'irt dangasa emishmiz! Lagerdagi bolalar-ning kolxoz dalasiga chiqib bodring, pomidor terishgani eshitgandan keyin dadam ham gapning birida «ana» deb menga ma'nodor qarab qo'ydi. Buning ustiga, borgan kunimiz o'rtoqlarining qizi bolalar bilan sovxoz o'rigini qoqib bergani ketgan ekan. Buni eshitib dadam «ko'rdingmi» dedi, yana: «Senga anavi o'rtog'ing bilan ko'chada koptok tepish bo'lsa bas!» deb qo'shib qo'ydi. Xullas, borganim sira tatimadi.

Mirqobilning qovog'idan qor yog'ib ketdi. Tavba, dadasi juda g'alati odam ekan. Xo'sh, bodring terish, pomidor uzish ham ish bo'ptimi? O'rik qoqish nima degan gap, ustiga chiqib bir silkitsa bas, duv to'kiladi-qo'yadi. Attang, Asqarlarning hovlisida bir tuppina o'rik yo'q-da. Shu topda Mirqobil o'rik qoqish mana bunaqa bo'ladi derdi-yu, hech kimdan so'ramay shartta tepasiga chiqib, bor kuchi bilan bir silkitardi, hovli bilan bitta o'rik bo'lardi!

— Menga qara! — dedi Mirqobil, — anovi ko'chaning boshidagi Jannat xola senga kim bo'ladi?

— Ammam, — dedi Asqar va orada o'tgan shuncha mash-mashalarga Jannat xolaning nima aloqasi bor ekan, deb hayron bo'ldi.

— Unday bo'lsa, tur!

Mirqobil ortiqcha gapirmay Jannat xolanikiga jo'nadi. Asqar hech baloga tushunmay, unga ergashdi. Faqat Jannat xolaning uyiga yaqin qolishganidagina tarvaqaylagan shoxlari ko'chaga egilib turgan o'rikka ko'zi tushar-tushmas Mirqobilning niyatini fahmladi. Darrov eshikni ochib ichkari kirdi. Bog'ning etagida Jannat xola oyog'ini oftobga toblab o'tirgan ekan. Kampirlar bor hovli ham fayzli, ham pokiza bo'ladi. Albatta ariq bo'yida besh-olti tup sadarayhon gurkirab hammayoqqa muattar is taratib turishi aniq. Bu yerda ham xuddi shunday edi. Jannat xola o'rikning ostiga sholcha tashlab, ko'rpacha yozdi, darrov choy qo'yib, rayhon solingan yarim kosa-yarim kosa mastava suzib keldi.

— Menga qara, — dedi Mirqobil ovqatdan keyin, — amming qari odam, buning ustiga yolg'iz, hech kimi yo'g'-a?

— Ha! — dedi Asqar va keksa ammasining yolg'izligiga negadir achinib ham qo'ydi. U ming aylanib, ming o'rgiladigan ammasinikiga bot-bot kelib, og'irini yengil qilishni diliga tugib qo'yardi-yu, yana o'yinqaroqlik bilan hammasini unutilib yuborardi.

— Bundoq qilsak, — dedi Mirqobil, — qari odamga yordam berish, dadam aytmoqchi, ham qarz, ham farz. Shuning uchun bugun o'rikni qoqib bersak.

— Qoyil bo'lardi-ya! — dedi Asqar va tepaga qaradi, — o'rik ham toza meva qipti, shoxlari egilib sinay-sinay deb turibdi.

— Mana ko'rasan, — dedi Mirqobil, — dadang kulganda, o'rigimni qoqib berishdi deb, sen bilan meni toza maqtaydi, keyin dadang, o'sha, lagerda gapirgan gapiga ming-ming pushaymon bo'ladi.

— E, qoyil-e! — dedi Asqar va yengi bilan shimining pochasini qayirib, o'rikka chiqishga shaylandi. Mirqobil uni



arang to'xtatdi va Jannat xola bir tovoq o'rikni chayib kelganda:

— Xola, — dedi.

— Ha, bolam?

— O'rik xo'p yaxshi narsa-da! Mirqobil bir dona o'rikni og'ziga soldi, ko'zlarini yumib boshini chayqadi. — Baybay, odam xuddi novvot shimganga o'xshaydi-ya!

Bu maqtov Jannat xolaga moydek yoqib ketib:

— Hali shira kirgani yo'q, — dedi. — Hali yana bir hafta tursin, mazasini ana unda ko'r!

— E, e, xola, — dedi shoshib Mirqobil, — bir hafta turg'izib nima qilasiz, hozir chug'urchuqlar toza ochopat bo'lib ketgan, bir haftagacha o'rikni qo'yadimi?

Jannat xola ham o'rikning osilib turgan kattakon shoxidan ko'z olmay:

— Ha-ya, bolam, chug'urchuq o'lgur bunaqa narsaga o'ch bo'ladi, — dedi va har kuni yarim paqircha o'rik bekorga nes-nobud bo'layotganidan shikoyat qila ketdi.

— Sen, — dedi birdan Asqardan o'pkalab, — kelib ukalaringga olib ketsang bo'lmaydimi?

Vaqtни boy bermay Mirqobil darrov maqsadga o'ta qoldi.

— E, ho'lini nima qiladi?

— Ha?

— E, qiziq ekansiz! — dedi Mirqobil. — Bersangiz quritib turshagidan bering, qishi bilan maktabda maza qilib turshak shimib yuradi.

Bu gap xolaga ma'qul bo'ldimi, yo «ochopat» chug'urchuqlarning hujumidan tashvishga tushdimi, har qalay, o'rikni qoqishga rozi bo'lgandek, «avval bilaychi,» Bahrixon uydamikin, uyda bo'lsa, boqishib yuboradi, dunyo jahon o'rikni bir o'zim qandoq bo'yraga yoyaman», deya o'rnidan turib qo'shninikiga chiqib ketdi.

Mirqobil xursand edi.

— Qalay?

— Qoyil! — dedi Asqar. — Men chiqib silkitaveraman.

— Mayli.



— Sen paqirga yig'averasan.

— Iye-ye, yig'amiz hammi?

— Bo'lmasa-chi!

Xullas, ikki oshna shippaklarini yechishdi-yu, hafsala bilan shimlarining pochalarini qayirib, chiqishdan avval yana o'rikka yaxshilab bir razm solishdi. Bay-bay-bay, kichkinagina bir shoxning o'zida besh-olti yuz dona o'rik bor-a!

— Demak, — dedi Mirqobil, — mana shu kichkina shoxdagi o'rik yerga tushsa, faqat shuning o'zini yig'ib olish uchun besh-olti yuz marta yerga engashish kerak bo'larkan!

— Yo'g'-e!

— Ha.

Asqarni hazilakam vahima bosmadi.

— Bunaqa shoxdan o'rikda kamida ikki yuz ellikta bor-dir, demak...

Ikki oshna hushlari uchib bundoq qarashsa, o'rikni silkitib yerdan terib olish ham jilla oson ish emas ekan. Jannat xolaga beradigan yordamni o'riklar pishib, tamom bo'lgandan so'ng boshlashni dillariga qat'iy tugib qo'yishdi-yu, shippaklarini qo'ltiqlariga qistirib issig'ida juftakni urib qolishdi. Jannat xola qaytib chiqib, bolalarning nega ketib qolganiga aqli yetmay kechgacha toza boshi qotdi!

UMIDANING NAYRANGI



sha, ko'chaning boshidan nokli hovli Mirqobil-larniki. Azim tup nok butun hovlini egallab ol-ganiga hovliga tangadek oftob tushmaydi, nok-ning ostidagi katta ariqning bo'yiga o'tgan yili Mirqobil-ning bobosi so'ri qurgan, so'rida o'tirgan odamga suvning salqini urib turganigami, saratonda ham kishi issiqni sez-maydi. Shunaqa, gashtli joy! Ikkalamiz ham ko'chada ter-lab-pishib o'ynab kelib, so'rida dam olamiz. Chalqancha

cho'zilasiz-u, nokning tarvaqaylagan shoxlaridan ko'z uzmay yotamiz. Nok esa g'uj-g'uj, shunaqa ko'p hosil qilganki, kamida uch-to'rt arava chiqar, deyman o'zimcha chamalab. Mirqobil bo'lsa parvosizgina:

— E, yarmidan ko'pi to'kilib sob bo'ldi, — deydi.

— Esiz! — deyman achinib, — sotilsa-ku...

— Bir qop pul bo'lardi-ya! — deydi Mirqobil. — Ammo buvam, bilasan-ku!

Bobosi bir so'zli, o'jar odam. Bilaman, shunga qaramay mahallada uni hamma yaxshi ko'radi, nega, hech sababini tushunmayman. Ammo meni yoqtirmaydi, nega deysizmi, o'zim ham bilmayman. O'tgan yili nokning yarmini terdirib, ko'chaning boshidagi bolalar bog'chasiga olib borib topshirdi. Iya, nega bunday qilyapsiz, desam, soqolini tutamlab xuddi meni endi ko'rayotgandek boshimdan-oyog'imgacha bir qarab oldi:

— Shu nokni ekkanda yarmi ko'chaniki, deb niyat qilganman.

Shu-shu bobosi meni uncha xush ko'rmay yuradi. Nega bunaqa qiladi deb Mirqobildan so'rasam, Mirqobil qizarib-bo'zarib:

— O'sha gaping yoqmagan ekan, — dedi bir kuni, indamadim. Rost, birovning noki bilan nima ishim bor edi. Jim yuravermaymanmi-a. Shu yil lagerda Mirqobil ikkalamiz birga dam oldigu, o'ylab qarajak, unga ham, menga ham bitta yaxshigina fotoapparat kerak ekan. Dadamga aytsam, avval maktabda to'garakka qatnashib o'rgan, dedi. Mirqobil ham shunga o'xshash javob olgan ekan-u, dardini ichiga yutib yurgan ekan. Kallamga ajoyib bir fikr keldi-yu, lagerdan qaytib kelgan kunimiz Mirqobilga aytdim. Avvaliga Mirqobil hayrat bilan menga tikildi, so'ng yelkamdandan mahkam quchoqlab oldi.

— Qoyil! — dedi birdan. — Nega shu narsa mening kallamga kelmagan ekan-a!

— Hayronman, — dedim, — ammo buni zinhor buvang bilmasligi kerak, — tushundingmi?



— Bo'lmasa-chi! — dedi Mirqobil, — buvam yo'g'ida qilamiz.

— Ha, bu bo'lak gap, — dedim men ham ko'nglim joyiga tushib. Tunov kuni kechqurun qattiq shamol bo'ldi. Mirqobillarnikiga borsam, nok toza to'kilibdi, yer ham nok, ko'k ham nok. Buvasi yo'q. Dalaga, katta o'g'lining oldiga ketgan ekan. Ikkalamiz ayni mavridi dedigu, noklarni saralab ikkita paqirga yig'dik. Endi ko'chaga chiqib ketayotgan edik, uydan Mirqobilning singlisi Umida chiqib qoldi.

— Qayoqqa?

Mirqobil dovdiradi.

— Ishing nima?

— Iya, — dedi Umida, — men bilan bormaysanmi?

— Qayoqqa?

— Ana xolos! — dedi Umida, — kechagi gap-chi?

— E-e, kerak bo'lsa o'zing bor, — dedi Mirqobil va shipillab ko'chaga yurdi, men ham unga ergashdim, ancha yo'lga borganimizda chelakni yerga qo'yib, dam olgani o'tirdik. Mirqobilning qovog'idan qor yog'ardi, o'qtin-o'qtin uyi tomonga qarab:

— Tavba! — deb qo'ydi.

— Ha?

— Ko'r-maysanmi, kecha vojatliy «akang ham kelsin, qarashib yuboradi», deb aytirib yuborgan ekan. Bugun hamma bolalar maktabga borib, maktab hovlisini tozalarmish, chala-pulcha qolgan remont ishlariga qarasharmish, tavba, qiladigan boshqa ishim yo'q ekanmi!

— Shuni ayt! — dedim-u, xuddi nazarimda shu yaqin-atrofdan Umida chiqib kelayotgandek hovliqib o'rnimdan turib ketdim, — tur, oshna, bozor o'tib ketmasin.

— Ha-ya, — dedi Mirqobil va shosha-pisha o'rnidan turdi.

Ikkalamiz aylanma ko'chalar bilan bozorga boryapmiz. Bozor uncha olis emas, Mirqobillarning ko'chasidan to'ppa-to'g'ri kesib o'tsa ham bo'ladi, ammo bitta-yarimta



ko'rib qolmasin deb ataylab bog'chani oldidan aylandik. Mirqobilning, yo mening biror tanish-bilishimiz ko'rib qolsa, «bog'cha bolalariga nok olib kelyapmiz», deymiz-qo'yamiz. Bozorga yetib olsak bas, odam ko'p, g'ala-g'ovur, yuz-ikki yuz odamning ichida kim ko'rib o'tiribdi deysiz! Birpasda pullaymiz-u, bu galgisiga Mirqobilga fotoapparat olamiz. Kelasi safar...

— To'xta!

— Ha?

— Qara!

Ko'chani narigi betida, shoxlari egilib tushgan majnuntolning ostida kichkina qizcha cho'qqayib olib, kichkina qo'llari bilan yuzini to'sib sekin-sekin yig'lardi. Rahmimiz keldi. Qo'lga bitta nok berib, jo'nab qola qolaylik, degan edim. Mirqobilning ko'zlari olayib ketdi!

— Tentak, — dedi u birdan, — Odamgarchilik bormi senda, bilaylik, nega yig'layapti?

— Hoy! — dedi Mirqobil va cho'kkalab qizga engashdi. — Hoy, opoq qiz, qani boshingni ko'tar-chi?

— «Opoq qiz» boshini ko'tardi, voy tavba, nam bo'lmasa ham ko'zlari qizargan-a, yo yig'layverib-yig'layverib bechoraning ko'z yoshlari ham qurib ketgan-mikin, kim biladi, har qalay entikishidan shunaqaga o'xshab ko'rindi-yu, rahmim kelib:

— Ha, nima bo'ldi? — dedim.

Qizcha ko'zlarini pirpiratib:

— Adashib... qoldim, — dedi.

Qizchani uzoq-yuluq gaplaridan bilsak, morojniya chiqqan ekan. Orqaga qaytayotganda adashib qolibdi, u ko'chaga kiribdi, bu ko'chaga kiribdi, sira o'zining ko'chasiga o'xshamabdi, nihoyat holdan toyib, endi nima qilaman deb yuragi yorilib o'tirganda baxtiga, biz yo'liqibmiz.

— Obbo! — dedim, — xayoling qayoqda edi, tentak!

— Morojniya, — dedi qizcha qo'rqa-pisa, biz esa o'zimizni tutolmay xaxollab kulib yubordik. Qizcha ko'zlari olayib shubhali nazar tashlab qo'ydi-yu, yana qo'llari bi-



lan yuzini to'sib yig'lashga tushgan edi, arang to'xtatdik. O'ngdan kelganmi, chapdan kelganmi, surishtira boshladik. Biroq qizcha qay tomondan kelganini mutlaqo bilmasdi. Qo'liga bitta nok tutqazib, bir chekkaga o'tirdigu, maslahatlasha boshladik. Mirqobil og'zi qulog'iga yetib, qulog'imga pichirladi, birdan hiring-hiring kula boshladi. Men ham o'zimni tutolmay qoldim. Darhaqiqat, bu qiz shu topda biz uchun juda-juda zarur edi. O'ylab qarasam, Mirqobil haq, kim ko'p, tanish-bilish ko'p, bitta-yarimta ko'rib qolsa-ya? Yaxshisi, ko'raylik, bilaylik, ma'qul bo'lsa qizchani aldab-suldab o'zimiz bilan bozorga olib boraylik, ikki chelak nokning tepasiga turg'izib qo'yib, sottiraylik, keyin...

— Keyin nima bo'lardi! — dedi Mirqobil shoshapisha, — uyini topib borib beramiz.

— Qoyil! — dedi xursand bo'lib.

Xo'sh, bu qizchanning uyini topib, keyin bozorga olib boraylikmi, yo nokimizni sottirib, so'ng uyini qidiraylikmi? Keyingisi ma'quldek tuyulgan edi, qizcha nokni yeb bo'lib, birdan uvvos solib yig'lay boshladi. Yaxshi gapirdik, yomon gapirdik, esiz, yana bir dona sap-sariq nok berdik, qani ko'nsa!

— Avval uyini topaylik, — dedi Mirqobil, — hech bo'lmasa ko'chasini ko'rib ko'ngli tinchisin, nima deding?

— Mayli.

Xullas, surishtira-surishtira bir narsani aniqlagandek bo'ldik. Qizcha chapdagi katta ko'chadan kelgan, nega desangiz, o'sha tomonda morojniyxona bor, bir emas, ikkita, darhaqiqat, picha yurgan edik, qizchanning chiroyi ochilib, ko'zlari javdiray boshladi. Buni sezib, Mirqobil meni turtib qo'ydi, ammo ikkita paqirni ko'tarib yuraverrish juda toliqtirib yuborgan edi.

— Menga qara, — dedim, — men shu yerda turay.

— Nega?

— Qo'lim uzilib ketdi, sen ko'chasini ko'rsatib kela qol.

— Nima deyapsan, — dedi u.
qirni qo'limdan olib, — qayerga borsan.
Xo'sh, opoq qiz, kelay dedikmi!

Oldimizda pildirab borayotgan «opoq»
boshmaldog'ini og'ziga solib, birpas u ko'chani
bu ko'chaga ag'rayib turdi-da, birdan xo'rsinib
chayqadi. Uning avzoyini ko'rib qo'limdagi paqirni tushirib
yuboray dedim.

— Ha?!

Mirqobil hazilakam baqirmagan edi, qizcha qo'rqib,
jonsarak bo'lib qoldi, aft-basharasi yana o'zgarishi bilan
darrov chelakdan bitta nok olib qizchaga tutdim, shosha-
pisha boshini silab qo'ydim.

— Ko'changga kelay dedikmi?

Qizcha bosh chayqadi.

— Esla, — dedi Mirqobil past tushib, — esla, opoq
qiz, ko'changda nima bor edi, birorta yong'oqmi, olmami,
shaftolimi, xo'sh?

Qizcha birdan quvonib:

— Yong'oq! — dedi.

— Ha, barakalla, — dedi Mirqobil, — endi, oshna
yong'oqli ko'chani qidiramiz, ko'chani topamiz-u, mana
bunga ko'rsatib, darrov orqaga qaytamiz, xo'pmi opoq
qiz?

Qizcha gapning ma'nosiga tushundimi, yo'qmi, har
qalay shosha-pisha bosh irg'itdi-da:

— Mayli, — dedi.

Men esa qizcha uyini ko'rishi bilan aynab qolishidan
cho'chib, darrov:

— Biz bilan borsang to'rtta morojniy olib beramiz, —
dedim. Bu gapim Mirqobilga yoqmadi, ensasi qotib, aftini
burishtirgan edi, qulog'iga sekin pichirladim.

— Qo'yaver, ikkitasi o'zimizga.

Muyulishda to'xtab dam oldik. Toza cho'llagan edik.
Suv ichaylik desak, yaqin orada hech narsa yo'q. Nok
bilan chanqovni bosish qiyin. Qizcha ham toza cho'llagan

...cho'kkalab olib biz bilan toza nokxo'rlik qildi. Hash-pash deguncha chelakning ustidagi sap-sariq noklarning ancha-munchasini yeb qo'yibmiz. Nihoyat, o'rnimizdan turib, tezroq qizchanning uyini topmasak bo'lmaydi dedig-u, chapdagi ko'chaga burilgan edik, qizcha to'xtab qoldi.

— Ha?

— Uyoqda emas!

— Ha, qayoqda bo'lmasa! — dedi Mirqobil.

— Ko'chani boshida katta yong'oq bor edi; — dedi va shosha-pisha orqasiga qayilib, keta boshladi, Mirqobil qizchanning ketidan yugurdi, qo'lidan ushlab oldi.

— To'xta!

— Nima?

— Ko'changni topmaguncha mendan ajramaysan, — dedi Mirqobil. Qizcha jim bo'lib qoldi.

— Mahkam ushla, — dedim Mirqobilning qulog'iga pichirlab va ikkinchi chelakni ham ko'tarib oldim: qizcha olisdan ko'chasini tanisa; biz hay-haylaguncha, qochib qolsa bozorda bu noklarni kim sotadi?

— Voy! — deb yubordi qizcha birdan qichqirib.

— Ha!

— Ana! — dedi olisni ko'rsatib, — ana yong'oq!

Darhaqiqat, olisda yong'oq ko'rindi. Men ham, Mirqobil ham bir oz yugurdig-u, to'xtab oldik, nega desangiz, shundoq yong'oqning narigi yoni maktab. Hamma bolalar o'sha yerda bo'lsa, ko'rib qolishsa nima qilamiz!

— Demak, — dedi Mirqobil, — qizcha maktabga yaqin turarkan. Borsak...

— Menga qara, — dedim, — ke, shu qizchanning bahridan o'ta qolaylik, bozorga boramiz-u, narxni arzon-garov so'rasak, ariday g'uv etib birpasda talab ketishadi!

— Be, endimi?

Gaplarimda mantiq bo'lsa ham Mirqobil o'jarligini qo'ymadi, shuncha aytganlarim, yalinib-yolvorganlarim bekor ketdi. Mirqobil chelakni ko'tarib, qizchanning ketidan

jo'nadi, men ham yuragimni hovuchlab ergashdim, uchalamiz jimgina maktab tomon keta boshladik:

— Ehtiyot bo'l, — dedim Mirqobilga, — ko'chani og'ziga yetishimiz bilan «shu» desa bas, qo'ldan mahkam ushlab orqaga qaytar.

— Xo'p, — dedim-u, ammo endi maktabga burilgan edikki, qizcha ovozining boricha:— Umida opa! — deb qichqirib yubordi. Hushimizni yig'ib olguncha maktab darvozasidan Umida bilan bir gala qiz yugurib chiqdi-yu, bizni o'rab olishdi. Mirqobil ko'zlarini katta-katta ochib menga qaradi, men Mirqobilga, mug'ambir Umida esa:

— Hoy qizlar, — dedi birdan, — nega qarab turibsizlar, chelakni olinglar, aytmadimmi boya, Mirqobil akam o'rtog'i bilan ikki chelak nok olib keladi, maza qilib yeymiz, deb!

Men hangu mang bo'lib qoldim. Mirqobil mendan besh battar ahvolda edi. Ikkalamiz ham qo'limizdagi chelaklarni topshirganimizdagina Umidaning ayyorligini tushundik; Umida past sinf o'quvchilaridan bittasini avrab boya bozorga ketayotganimizda ataylab o'sha ko'chaga turg'azib qo'ygan, qizcha esa bizni xuddi burnimizdan ip bog'lab tortgandek aldab-suldeb maktabga olib kelgan.

— Qoyilman! — dedi sekin Mirqobil.

Bu gapni kimga aytdi: o'zimizgami, yo Umidagami?!

SIZ ISHONASIZMI!

Buni qarang, uch oy ichida Mirqobil bilan Asqarning o'rtoqlari biram bilag'on, biram gapga chechan bo'lib ketishibdiki, sinf rahbari hayajondan kaftlarini ishqab, «barakalla, yoz bo'yi bo'yingiz ham cho'zilibdi, aqlingiz ham o'sibdi», degan sari munozara qizib, sinf «ahvolini yaxshilash»ga qaratilgan bir talay takliflar qalashtirib tashlandi. Shunaqada odam og'ziga tolqon solganday qovushmay o'tirsa, partaning tagiga kirib ketgudek bo'lar ekan!



— Nega «miq» etmaysan? — dedi Asqar sekin.

Mirqobil o'zini qo'yarga joy topolmay o'tirgan edi:

— O'zing-chi! — dedi pichirlab, — o'zing!

Asqarning rangi o'chib, yon-atrofga qarab oldi. Mirqobilning gapini hech kim eshitmaganiga ishonch hosil qilgach, ko'ngli bir oz joyiga tushdi. Muncha baqiradi-ya, tavba. Asqarning qulog'i kar emas-ku! O'qituvchi jonajon ikki o'rtoqning ahvolini bilibmi, yo oralaridan jindakkina gap qochganini sezibmi, ularga g'alati bir qarab qo'rgan edi, Mirqobil muhim bir narsa ustida jiddiy bosh qotirayotgan odamdek qoshlarini chimirib oldi, ko'zlarini pirpiratdi, kafti bilan zo'r berib tirishgan peshanasini ishqalay boshladi. Asqar ko'zlarini qayerga yashirishni bilmay derazadan hovliga qaradi.

Kuz shamoli hammayoqni payhon qilgan edi; daraxtlarning uch-uchida qolgan yakkam-dukkan barglarni shitirlatib uzar, yo'lka, hovli yuzidagi xazonlarni to'zg'itar, cho'ltoq supurgiga o'xshash sho'ppayib qolgan tutning shoxi tunuka tomning chetiga urilib qarsillardi. Darsga ertaroq kelib qolgan ikki-uch qizaloq hovlida o'ynab yurgan edi, shamolning vahimasidan cho'chib, o'zlarini panaga olishdi-yu, yana hovli bo'shab qoldi. Etakdagi yong'oqqa bitta-yarimta tosh otdimi, bir gala qarg'a «qag'illab» derazaning tepasidan uchib o'tdi. Ko'p o'tmay supurgi, qop ko'tarib Zumrad xola ko'rindi. Esiz, hali erta bilan chinni-chiroq qilib qo'rgan edi, hozir hovlining ahvolini ko'rib birpas xomush qarab turdi-da, yana g'ayratiga chidolmay xazon to'plashga tushdi. Bitta barg tushsa, bitta teradi, nima zarur-a, tovba, undan ko'ra issiqqina xonasiga kirib yonboshlab yotsa bo'lmasmikin, uch yil avval pensiyaga chiqib ketgan edi; odam bekorga o'tirsa, qariligi bilinib qolarkan deb yana qaytib keldi-yu, jon-jahdi bilan ishga yopishib ketdi. Sinflarni qayta-qayta tozalaydi, erinmasdan oynalarni yaraqlatib qog'oz bilan ishqalaydi, yana buning ustiga vazifasiga kirmasa ham doskallarni artib qo'yadi. Zumrad xola maktabga qaytib keldi-yu, ikki oshna sinf navbatchiligida bo'r, latta tayyorlab qo'yishdek

sertashvish ishdan qutulishdi. Asqar zimdan uni kuzatar-kan, xayoliga kelgan g'alati fikrdan:

— Qoyil! — deb yubordi-yu, o'zining ovoizidan o'zi cho'chib, olazarak bo'lib hammayoqqa qarab oldi. O'qituvchi Asqarning ko'zlari g'alati javdiray boshlaganini payqab:

— Qani, qani? — dedi ikki o'rtoqqa o'girilib, — Asqar, bir narsa demoqchimisan?

— Bo'lmasa-chi? — dedi Asqar dangal. Sherigining kutilmagan bu vajohati Mirqobilni hazilakam cho'chitib yubormadi: voy tentak, mana hozir bir baloni boshlab, Mirqobilni ham rasvo qiladi, e attang, boya sapchib tur-ganda, o'pkangni bos, deb oyog'i bilan turtib qo'ysa bo'larkan. Ammo endi kechikkan edi. Asqar gerdayib (hozir-gina partaning tagiga kirib ketay deb o'tirgan bolaya) ham-maga bir-bir qarab oldi-yu, ohista tomoq qirib:

— Bo'lmasa-chil! — dedi yana tutilib. — Biz ham Mirqo-bil ikkalamiz yoz bo'yi bekor yurganimiz yo'q. Muhim-muhim narsalar ustida bosh qotirib yurdik.

O'qituvchi shoshib ko'zoynagini oldi, ro'molcha bilan naridan beri artib, yana burnining ustiga qo'ndirar ekan:

— Xo'sh, xo'sh? — dedi Asqardan ko'z uzmay.

Oldingi qatordagi partadagilar ikki o'rtoq tomon o'girilishdi, darhaqiqat, hech narsaga aralashmay doimo sho'ppayib yuradigan bu ikki oshnani «yozi bilan muhim-muhim narsalar ustida bosh qotirgani» hammani ajab-lantirgan edi. Mirqobil bo'lsa-ku, xuddi bir bo'lak yaxni yutib yuborgandek ko'zlari olchanning danagidek yum-yumaloq bo'lib ketgan edi: e attang, yozda Asqarning tili-ni ari chaqib olgan edi, ko'z ochib-yumguncha tili og'ziga sig'may osilib qolgandi, o'shanda bechora Mirqobil kech-gacha oldida o'tirib, Asqarning sapcha qovoqdek shishib ketgan tilini namokopga chayqagan edi, chakki qilgan ekan. Mirqobilning tovonigacha zirqiratib yuborgan mana shu burro tili o'shanda yo osilib tushsa, yo tanglayiga yopishib qolsa bo'lmasmidi!



— Men sizga aytsam, — dedi Asqar, — ya'ni demoqchimanki, mo'nkillab qolgan shu uborshisa Zumrad xolani otaliqqa olsagu, ertadan boshlab sinf tozaligiga o'zimiz qarasaq.

Shov-shuv qilib turgan sinf birdan suv quygandek jimib qoldi-yu, Asqar nojo'ya gap aytib qo'ydimmikin, deb dovdirab qoldi. Ammo bu jimlikning tagida katta ma'no bor ekan: ikki o'rtoq bir ozdan so'ng, hamma es-hushini o'nglab olgandan keyin bilishsa, eh, sinfdagilar bunaqa antiqa taklifdan hayratda qolishgan ekan. Shundagina Mirqobil boyagi nojo'ya fikridan ming-ming pushaymon yeb, partaning tagidan oshnasining paxtadek yumshoq qo'llarini siqib qo'ydi. Yana birdan shov-shuv ko'tarilib, ikki o'rtoqni hamma, shu jumladan, o'qituvchi ham tabriklay boshladi-yu, kimdir «shu ishni ikki oshnaning o'zi boshlab bersa», degan edi, Asqar buyoqda qolib, Mirqobil hovliqib turib ketdi.

— Bo'pti!

Qo'ng'iroq chalinib, hamma tarqab, oxiri sinfdan ikki ajralmas oshna kayflari chog' bo'lib chiqishdi-yu, shamol to'xtab, kuz osmonidan oftob charaqlab turganini ko'rib, dillari yana ravshan tortib ketdi.

— Oh, — deb yubordi Asqar birdan to'xtab, — anavini qara!

Mirqobil ham do'stining zavq-shavqidan ta'sirlanib, tutning qoq uchidagi bir dona oltin bargdan ko'z uzolmay qoldi. Buni qarang, shamol ming hamla qilsa ham, oftob nurida ko'z qamashtirib turgan o'sha bir dona bargni uzolmayapti. Qoyil-e! O'zi-chi, kuzning ham fayzi, ko'rki bo'lakcha bo'ladi. Yo'lka, hovli yuzida sochilib yotgan tillarang barglarni shitir-shitir bosib yursang, ammo Zumrad xola hammayoqni yog' tushsa yalagudek qilib qo'ygan ekan.

— Yig'ishtirib nima qilarkin-a, — dedi Asqar afsuslanib, — qara, erinmay xazonni ham uyubdi.

— Esiz, — dedi Mirqobil, — hammasini axlatga tashlaydi. Ke, olib chiqib tashlaguncha picha xazonga yonboshlab, boyagi shirin-shirin gaplardan gaplashaylik.

— Mayli, — dedi Asqar va papkani boshiga qo'yib, xazonga uzala yotib oldi-yu, ko'zlarini yumdi: — Mana ko'rasan, ertaga bechora kampir suyunganidan yuragi yorilgudek bo'ladi. O'zi ham hazilakam narsani bo'ynimizga olganimiz yo'q: pol yuvish-a!

— Ha-ya, — dedi Mirqobil, — ammo oynani qizlarga bera qolaylik, oson ish!

— Mayli, — dedi Asqar, — sen aytganday bo'la qolsin, pol yuvish shunchaki ko'rinsa ham hazilakam ish emas-a!

— Bo'lmasa-chi! — dedi Mirqobil va bir marta rosa ikki kun belini ko'tarolmay yurganini esladi. Uzoq yili oyisining tobi qochib, ucht-to'rt kun kasalxonada yotib qolgan edi. Shu bahona bo'ldimi, yo dangasaligi tutdimi, Mirqobil ora-chora maktabga bormaydigan qiliq chiqardi, o'qishining mazasi ketdi, ke, hadeb kundaligimni bemaza bahoga to'ldiraveramanmi, birato'la maktabga oyim chiqqanda boraman, deb o'qishga bormay qo'ydi. Buni eshitib, sinfidagi qizlar «borib yordam beraylik, o'qishdan qolib ketmasin» deb singlisidan aytdirib yuborishgan edi, Mirqobil bundoq qarasa, hammayoq iflos, kir-chir, yuvilmagan kosalaru choynak-piyolalar qalashib yotibdi. Bu ham mayli, oshxonaga olib chiqib, ustiga gazeta yopib qo'ysa, tagida nima borligini kim biladi deysiz. Ammo uyning ahvolini hech qanaqa gazeta bilan yashirib bo'lmasdi. Mirqobil botinka bilan uyga kiravergan ekan, polning usti bir enlik loy bo'lib ketibdi. Singlisini ishga solmoqchi bo'lib toza yalindi, qani ko'nsa, xo'p deyish uyoqda tursin, «o'zingiz qilgansiz, o'zingiz tozalang», deb aslo ko'nmadi. Shunda Mirqobil, ke, sen bilan adi-badi aytishib o'tiramanmi, deb yeng shimardi-yu, vodoprovoddan bir chelak suvni olib kelib, polni yuvishga tushib ketdi. Bu yoqdan yuvsa, birpasdan keyin yana boyagidek-boyagidek



bo'laverdi. Shu kuni chalakam-chatti qilib hammayoqni artib chiqdi-yu, kechga borib belini ko'tarolmay qoldi. Pol yuvgandan ko'ra, o'qishga borgan ming marta ma'qul ekan, degan xulosaga kelibmi yo qizlar kelib qolishsa sharmanda bo'lishdan cho'chibmi, ertasigayoq papkasini qo'ltiqlab maktabga jo'nab qoldi. Yaxshi ham borgan ekan, qizlar darsdan keyin uyiga kelishmoqchi bo'lib turishgan ekan.

— Ha, — dedi Asqar, — jim bo'lib qolding?

— Ertaga bo'ladigan ishni o'ylayapman, — dedi Mirqobil sekin «uf» tortib, — pol yuvish-a!

— E-e, vahima qilaverma, — dedi Asqar, — pol yuvish ham ishmi, lattani olasan-u, hammayoqni birpasda shi-pillatib yuvib tashlaysan!

— Nima? — dedi hushi uchib Mirqobil, — men-a?!

— Ha — sen!

— Men pol yuvamanmi?!

— Ha, pol yuvasan.

— O'zing-chi?

— Men suv tashib turaman.

— Bekor aytibsan, — dedi Mirqobil qalt-qalt tit-rab, — men suv tashiyman, sen pol yuvasan!

— Ana xolos! — deb yubordi Asqar, — ham seni qutqaray, ham pol yuvaymi, yo'q, oshna, bekor aytibsan!

— Meni-ya?

— Ha, — dedi Asqar bo'sh kelmay, — boya kim partaning tagiga kirib ketgudek bo'lib o'tirgan edi. Men ahmoq boshimni shuncha qotirib topgan narsani ikkalamizning ismimizdan taklif qilib yuribman-a!

— E, taklifingni pishirib ye! — deb Mirqobil jahl bilan sapchib o'rnidan turgan edi, hammayog'iga yopishgan xazon shundoq Asqarning ustiga duv to'kildi. Asqar alamiga chidayolmay bir hovuch xazonni changallab, Mirqobilning yuziga sochib yubordi. Xullas, ne mashaqqat bilan bir yerga uyulgan xazon shamol qo'zg'ab to'zg'igandek har tomonga sochila boshladi. Kim biladi deysiz, Zumrad xola qop ko'tarib kelib qolmaganida, yana hammayoq payxonu palak

bo'larmidi. Ikki oshna es-hushini yig'ib olgunicha Zumrad xola xazonni qayta bir yerga to'plab, indamay qoplay boshladi. Asqar go'yo hech narsa bo'lmagandek papkasini silkitib, ketish taraddudiga tushdi. Mirqobil esa o'rtog'idan ko'z uzmay hamon baqrayardi: voy ayyor-e, hammaga yaxshi ko'rinib, polni Mirqobilga yuvdirmoqchi-ya? Suv tashish ham ish ekanmi. Mirqobil ham bir jiddiy bosh qotirsa, kallasiga shunaqa narsalar keladiki, Asqarning boyagi gap gap ekanmi!

— Obbo! — dedi Asqar sherigining tumshayib olganini ko'rib. Jahli chiqsa Mirqobilning o'jarligi tutib, ikki oyog'ini bir etikka tiqib oladigan bola. Na do'q-po'pisa bilan, na yalinish-yolvorish bilan bir narsaga ko'ndirib bo'ladi uni. Bor-e, deb ketib qolsa-ya, tamom, ertaga o'lsa ham kelmaydi, hamma ish Asqarning o'ziga qoladi.

— Obbo, — dedi Asqar bir oz yon bergan bo'lib, — bo'пти, yarim polni sen yuvasan, yarmini men, chelakni ham bir yog'idan sen ko'tarasan, bir yog'idan men, bo'ldimi?

— Ha, bu boshqa gap, — dedi Mirqobil shashtidan qaytib.

Orada ro'y bergan ko'ngilsizlik ham unutilib, ikki oshnaning kayfiyatlari yana o'zgardi, yuzlariga kulgi qalqib, boya sinfdagilarni hayratda qoldirganliklarini qayta-qayta mamnunlik bilan eslab, bugungi kun bekor o'tmaganligidan ko'p xursand bo'lishib, bunday qarashsa, Zumrad xola allaqachon xazonlarni tashib, qolgan-qutganini qoplayotgan ekan.

— E, attang, — dedi Asqar.

— Ha?

— Xazonni bo'ri yerkanmi, sabr qilsa ertaga sinfni yarqiratib chiqib, balki o'zimiz tashib qo'yarmidik.

— Rost aytasan-a, — dedi Mirqobil achinib, — kam-pir bo'lgani bilan g'ayratiga chidolmaydi. Ertaga biz kelguncha sinfni chinnidek qilib qo'ysa-ya, boyagi

bo'lgan gaplarni hozir aytib, bechorani bir suyuntirib qo'yaylik.

— Aslo! Nima qipti, — dedi Asqar, — ertaga tozalab qo'ysa, biz indiniga boshlaymiz, gap pol artishda emas, gap bizda shunday olijanob fikr tug'ilganida, tushundingmi?

— Tushundim, — dedi Mirqobil, shunday bo'lsa ham Zumrad xolaga bir narsa degisi kelib: — Hormang, xola! — degan edi, kampir bunaqa boodob, bunaqa xushfe'l bola kim bo'ldiykin, aft-angorini bir ko'ray, dedimi yo Mirqobilning gapi qopingizni ko'tarishib yuboray degan ma'noda eshitildimi, qayrilib qarayman degan edi, munkib ketdi. Orqasidan qop tushib ketdi. Qopga o'tirib qolib, qarichilik shu-da, degandek g'alati jilmayib:

— Salomat bo'l, bolam, — degan edi, Asqar o'takasi yorilib oyog'ini qo'lga olib ko'chaga qochib chiqib ketdi. Mirqobil shosha-pisha:

— Ertaga xursand bo'lasiz, xola, ertaga! — degancha o'rtog'ining ketidan yugurdi-yu, arang yarim yo'lda yetib oldi. Ikki oshna yana boyagi sinfdagi voqealarni o'ylab ketishdi. Kampirning g'alati jilmayishini o'zlaricha oldindan sezilgan xursandlik alomatiga yo'yib, ertaga yaraq-yaraq qilib turgan sinfga kirgan bolalarning hayratdan tillari gapga kelmay qolishini ko'z oldilariga keltirib, apoq-chapoq uyga qaytishdi.

Shu topda birov supurib-sidirgan xazonlaringiz yana o'z-o'zidan daraxtlarning shoxlariga ilinib qopti desa, balki Zumrad xola ishongan bo'lardi-yu, ammo anavi ikki bolaning ertaga sinfni tozalab qo'yimoqchi bo'lganiga ham aqli bovar qilmasdi, siz-chi, siz ishonasizmi?



Ergash RAIMOV

(1937)



Ergash Raimov 1937- yili qadimiy savdo markazlaridan bo'lgan Chinoz shahrida kosib oilasida tug'iladi.

Bo'lajak adib 1957- yili Chinoz tumanidagi 1- son o'rta maktabni oltin medal bilan tugatgach, 1957—1962- yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetida tahsil ko'radi. Keyin O'zbekiston televideniyesiga ishga taklif qilinadi va to nafaqaga chiqqunigacha shu yerda faoliyat ko'rsatadi.

«Suvchi qiz» nomli birinchi she'ri 1955- yili Chinoz tumanidagi «Chinoz hayoti» gazetasida, ilk she'riy to'plami «Anhorcha» 1963- yil chop etiladi. Shundan keyin «Oqilboy», «Bulut va bola», «Bir dona yaproq», «Jilg'alar kuylaydi», «Gullarim-bulbullarim» nomli she'riy kitoblari, «Mehribonlarim», «Ajab qishloq», «Eh, biz Kattalar», «Ko'z ilg'amas shu'lalar» nomli qissalari, «Doktor Hakimning g'aroyib ixtirosi», «Oltin to'y», «Kaftingda tut», «Dardisar» kabi pyesalari bosilib chiqadi.

Ikkinchi darajali «Sog'lom avlod» (2002) ordeni bilan taqdirlangan E. Raimov shu kunlarda yangi asarlar ustida ishlamoqda.

PORTLASH

(Hikoya)

Bu voqea bultur ayni o'qish boshlangan kuni birinchi sentyabrda ro'y bergandi. O'sha kuni, bilsangiz, uyimizda ham, maktabimizda ham qiyomat bo'ldi. Meni hech kim tanimay qoldi: o'qituvchilarim ham, bolalar ham, hatto ota-onam ham. Hamma menga anqayardi, g'alati qarardi. «Bu bola sog'mi yo jinni-pinni bo'lib qoldimi?» degan xavotirda edilar.

O'sha kuni ertalab barvaqt turdim. Kechasi bilan mijja qoqmay chiqqan bo'lsam ham allaqanday ko'tarinki ruhda edim. Hamma narsa ko'zimga tiniq, beg'uborday ko'rinardi. O'zimning qarorimdan o'zim xursand edim.

Dadamlar bilan choy ichib o'tirardik, oyimlar bo'lsa to'rinchi sinfda o'qiydigan singlim Ziroatni kiyintirardilar. Birdan darvoza tomondan «Volga»ning tanish signali eshitildi. Yuragim shig' etib ketdi-yu; «e, bor-e», deb qo'l siltadim.

— Bo'la qolinglar, — dedilar dadam piyoladagi choyni puflab-puflab icharkanlar. — Dilovar ham kep qoldi.

Dilovar aka dadamlarning shofyori. Ozg'ingina, qovunga o'xshagan cho'zinchoq boshida bironta ham soch qolmagan bu kishi, oyimlarning aytishlariga qaraganda, bizga yigirma yildan beri qulday xizmat qilarkan. Dadamni, oyimini ishga oborib olib keladi, bozor-o'charimizni qiladi, xullas, bechora tinim bilmaydi. Har kuni uyimizga kamida yetti-sakkiz marta kelib ketadi. Hatto bir banka qatig uchun «Ko'kcha»ga ham borib kelaveradi. Men tug'ilganimda tug'ruqxonadan olib kelgan ham shu Dilovar amaki ekan. Hozir biz aka-singilni «Volga»da maktabga oborib obkeladi. Menga bolalar birinchi sinfga borgan kunimdan oq «ministr» deb laqab qo'yib olishgan.

— Tura qolinglar, — dedilar dadam soatga qarab, — kech qolasizlar.

— Men piyoda ketaman, — dedim portfelimni qo‘ltiqlarkanman. Keyin qovog‘imni solib Ziroatga o‘shqirdim. — Mashina poylamay, sen ham piyoda yur.

— Ha? — dedilar oyim ajablanib. — Bir narsadan tegib qoldimi? Juda qo‘pol bo‘p ketyapsan, Botir.

— Qo‘pol bo‘lsam ajab bo‘pti.

Shunday dedimu eshikdan chiqib ketdim. Oyim ham, dadam ham bir-birlariga imlashib, lablarini burishib, yelka qisgancha qolaverishdi.

Ko‘cha to‘la bola edi. Hammalari yasan-tusan qilib olishgan. Endigina birinchi sinfga borayotgan bolalarni, qizchalarni oyilari, buvilari qo‘llaridan yetaklab ketishyapti, bolakaylarning qo‘llarida esa guldasta. O‘zlari ham xuddi bir dasta gulga o‘xshashardi.

Maktab hovlisiga endigina kirgan edik hamki, vojatiyimiz Dilbar opaning ovozlari eshitildi:

— Saflaning, bolalar, saflaning!

— Hamma o‘z sinfi bilan tursin.

— Birinchi sinflar, bu yoqqa.

Qiy-chuv, shovqin-suron. Hamma sinf-sinfi bilan saf tortdi. Men o‘zimni sakkizinchi sinfim u yoqda qolib, yettinchi sinf bolalari qatoridan joy oldim. Sinfdoshlarim «adashib» qolganimni ko‘rib qiqir-qiqir kula boshlashdi. Meni sinf rahbarimiz Tohira opaga ko‘rsatishdi. Tohira opa barmog‘ini bigiz qilib tahdid qildi. «Bu yoqqa o‘t» deganday imlab chaqirdi. Men uning harakatlarini ko‘rsam ham ko‘rmaslikka olib, indamay turaverdim.

Tantana boshlandi. Direktorimiz Hoshimjon aka hammamizni yangi o‘quv yili bilan tabrikladi. «Yangi mehmonlar»ni maktabga ilk qadam qo‘yganlari bilan qutladi. Qayoqdandir kelgan mehmonlardan bir kishi, otionalardan ikki kishi so‘zga chiqdi.

Keyin yuzlari dum-dumaloq qizcha birinchi qo‘ng‘iroqni chaldi. Hamma gurr etib o‘zini eshikka urdi. Men papkamni qo‘ltiqlab to‘g‘ri 7 «A» sinfiga kirib bordim. O‘rta qatordagi



ikkinchi partaga o'tirdim. O'tirishim bilan bir sinf bola «vaha-ha»lab yuborishdi: adashib kirib qoldi deb o'ylashdi-da!

— Botir aka, bu 7 «A»-ku! — deyishdi ular. — Adashib qoldingizmi?

— Adashganim yo'q! — dedim kulgilariga ham, gap-lariga ham parvo qilmay, — men shu sinfda o'qiyman.

— Sinfda qolganmisiz? — uch-to'rt bola baravariga so'rashdi.

— Ha.

Sinfga tarix o'qituvchimiz Akbar aka kirib keldi. Meni o'rab turgan bolalar patir-putir qilib joylariga o'tirishdi.

— Salom! — dedi Akbar aka xushchaqchaqlik bilan.

— Salom! — bir sinf bola baravariga javob berdik.

— O'tiringlar! — Akbar aka qo'lidagi kitob-daftarini stolga qo'yarkan bolalarga qaradi. — Shunday qilib, kani-kul ham birpasda o'tib ketdi, denglar-a! Mana bugun-dan boshlab kelgan joyidan davom ettiraveramiz yana. Xo'sh, bir yo'qlama qilib qo'ysak yomon bo'lmas, nima deysizlar?

— Yaxshi bo'ladi, — bolalar kulishib javob berishdi.

Akbar aka o'n ikki varaqli daftarini ochib yo'qlama qilarkan, birdan ko'zi menga tushib qoldi.

— Iye! Ha, Mirrajabov? — dedi iljayib, — sen nima qilib o'tiribsan bu yerda?

— O'tiribman, — dedim nima deyishimni bilmay.

— Adashib kirib qoldingmi? — kulib so'radi Akbar aka.

— Yo'q! — dedim o'rnimdan turib. — Men sinfda qolganman.

— A?

— Sinfda qolganman!

— Menga qara, Mirrajabov, — Akbar aka tez yurib oldimga keldi. — Senga bunaqa qiliq yarashmaydi. Tuppa-tuzuk avtoritetniy odamning o'g'lisan-a, bor, sinfingga kir!

— Sinfda qolganman deyapman-ku! — dedim mening ham o'jarligim tutib. — Siz o'ylaganday maynavozchilik qilayotganim yo'q. Rost aytayapman.

— Kim qoldirdi seni sinfda?!

— Hech kim. O'zimni o'zim qoldirdim.

Akbar aka hech narsaga tushunmadim deganday yelkasini qisdi. Keyin tushuntira ketdi.

— Hozir, akasi, maktablarda sinfda qoldim, kuzga qoldim degan gaplar yo'q bo'lib ketgan. Agar o'quvchi yomon o'qisa, unga qanday bo'lmasin yordam berish, fanni o'zlashtirishda har tomonlama ko'maklashish biz — o'qituvchilarning asosiy vazifamiz. Seni bo'lsa, Mirrajabov, bilaman, baholaringdan ham xabarim bor. Hammasi a'lo va yaxshi edi-ku!

— A'lo va yaxshi emas! Hammasi «ikki» va «uch» edi.

— Nahotki?! Tabelingni o'z ko'zim bilan ko'rganman.

— Tabel — qog'oz! Tabela a'lo va yaxshi bo'lgani bilan kalamdagi bilim «ikki» va «uch»ga ham arzimaydi.

— Senga bir gap bo'lganmi, Mirrajabov? — Akbar aka kulib peshonamni ushladi, — issig'ing yo'qmi, kasal-pasalmasmisan ishqilib?

— Soppa-sog'man, — dedim uning gapidan ensam qotib.

— Mayli, o'tir. Keyin gaplashamiz.

Akbar aka doskaning oldiga bordi. Doskaga chiroyli qilib «Tinchlik darsi» deb yozib qo'ydi. «Tinchlik darsi» tamom bo'lishi bilan o'qituvchilar xonasida notinchlik boshlandi.

«Sinfda qolganman» degan gapimni eshitib o'qituvchilar avval rosa kulishdi. Keyin biri olib, biri qo'yib kesata boshlashdi.

— Mirrajabov, maktabda bir nom qoldiray deb-san-da-a?!

— Gerostrat tarixda nom qoldirmoqchi bo'lib, ibodatxonaga o't qo'ygan ekan.

— Menga qara, akasi, maktabga haliyam «Volga»da kel-yapsanmi, yo piyodami?

— Ishingiz bo'lmasin nimada kelishim bilan! — tir-jayib turgan biologiya o'qituvchimiz Tolib akaga chaq-chayib qaradim. — Ba'zilar bilsayam «uch» qo'yasiz,

ba'zilar bilmasayam «besh» qo'yasiz. Yana odamni mayna qilasiz.

— Iye! Buni gapini qarang! — Tolib aka bunaqa gapni kutmagan ekanmi, birdan o'zini yo'qotib qo'ydi, atrofdagilarga g'alati tirjaydi. — Ja tili chiqib qolibdi-ku buni! Kim o'rgatdi senga o'qituvchiga gap qaytarishni?

Tolib akaga aytgan gapimdan boshqa o'qituvchilar ham cho'chib tushishdi. Bu yuzsiz bola hozir bizni ham sharmanda qiladi, deb o'ylashdimi, darrov og'riqning oldini olib nasihatga o'tib ketishdi.

— Mirrajabov, uyat bo'ladi, o'qituvchi bilan olishma.

— Seni hammamiz eng odobli, qobiliyatli bola deb bilamiz-a?

— Bunaqa bo'lmag'ur gapni gapirma, sinfda qolganing yo'q. Bor, sinfingga kirib o'qiyver.

— Qolganman! — dedim gapimda turib. — Algebradan, geometriyadan «ikki»ga ham bilmayman. Kanikulda o'zimni sinadim. Kitobdagi masala va misollardan birontasini ham ishlolmadim. Tohira Sobirovna, kimyodan siz ham menga noto'g'ri baho qo'ygansiz! Kimyodan nolman!

— Qanaqasiga! — o'zining nomini eshitib Tohira opa-ning esi og'ib qolayozdi. — Botir, nimalar deyapsan o'zi? Esing joyidami?!

— Esim joyida! — Birdan o'pkam to'lib ketdi. — Nega Dilshodni maktabdan haydatdingiz? Laboratoriyaga u emas, men o't qo'yganman. Gunohkor ekanimni bilib tursangiz ham: «Yo'q, sen emas, u» deb turib oldingiz. Nega Dilshodni gunohkor sanab, meni himoya qilganingizni yaxshi bilaman.

— Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi. Sen kimning yonini olyapsan o'zi? — Tohira opa jahl bilan oldimga keldi.

— Dilshod qozon emas! — baqirib yubordim. — Oqni qora, qorani oq degani siz uyal-ing! — Tilimning uchida turgan gapni aytaymi, aytmaymi, deb turdim-da, birdan portladim. — Siz bolalarga ola qaraysiz. Oyim berib turadigan uncha-muncha sovg'a uchun, dadamning amali uchun

doim hech narsani bilmasam ham «to'rt», «besh» qo'yib yurasiz. Siz... siz... xushomadgo'ysiz! Poraxo'rsiz!! Dilshod to'g'ri aytgan ekan! Vijdoningiz yo'q ekan!

— Voy! Voy tavba! Voy basharang qursin sani! — To-hira opa gandraklab borib, birdan divanga o'zini tashladi.

Tarix o'qituvchimiz Akbar aka hushtak chalib yubordi. Birdan hamma Tohira opa bilan ovora bo'lib ketdi. Biri gra-finga yugurgan, biri yuziga suv sepgan, biri og'ziga stakan tutgan, biri yelpigan, biri «Tez yordam»ga qo'ng'iroq qil-gan. Men bo'lsam serrayib o'rtada turibman. Bo'layotgan to'polonni eshitganmi xonaga hovliqib direktorimiz Hoshimjon aka kirib keldi.

— Nima gap? — dedi u divanda rangi bo'zday oqarib yotgan Tohira opaning oldiga borib.

— Gap ko'p, — dedi hayratdan anqayib turgan Ak-bar aka. — Mirrajabov sinfda qolganman, deb to'polon qilyapti.

— Nega qoladi? Kim aytibdi unga? Bir narsani surish-tirmay, tagiga yetmay to'polon qilgani uyalmaysanmi? — Hoshimjon aka o'dag'aylab mening oldimga keldi. — Mak-tabda bitta ham o'quvchi sinfda qolmagan! Qattan olding bu bema'ni gapni? Kim aytdi senga?

— O'zim.

— Nima deding?

— Sen sinfda qolgansan dedim.

— Kimga?

— O'zimga-o'zim aytdim! — dedim sal ovozimni ko'tarib.

Hoshimjon aka tushunmadim deganday yelkasini uchirdi.

— Nega aytasan?

— 7-sinfda yaxshi o'qimaganim uchun, algebra va geometriyadan bilmaganim uchun... shunga qaror qildim.

— Qaror qildim? Sen kimsan o'zi qaror qiladigan?!

— O'quvchiman, — dedim yerga qaragancha.



— Bu nimalar deyapti? — Hoshimjon aka bir chekka-da xayolga cho'mib turgan Akbar akadan so'radi. — Nimalar deb valdirayapti bu?!

— Haqiqatni aytyapti, — Akbar aka iljayib bosh chayqab qo'ydi. — Ishimizdagi kamchiliklarni yuzimizga solyapti.

— Qanaqa kamchilikni? — Hoshimjon aka o'ziga gard yuqtirmaydigan odam bo'lgani uchunmi, go'yo hech nar-saga tushunmagandek talmovsirab so'radi.

— O'zingizni go'llikka solasiz-a, Hoshimjon aka, — Akbar aka bir xo'rsinib qo'ydi. — Ja siz o'ylagancha sip-silliq emasmiz. Illatimiz anchagina, hali ko'p pand yey-miz. Mana shu mushtday bola xashagimizni ochib tashladi.

— Siz tirnoq ostidan kir qidirmang! — Hoshimjon aka Akbar akaga bir o'qraydi-da, mening oldimga keldi.

— Sen aynibsan, bola! — dedi barmog'i bilan yelkam-ga to'rtib. — Ota-onang qanday avtoritetniy odamlar-a! Uyat senga!

* * *

To'g'ri, direktorimiz Hoshimjon aka aytgandek, bul-tur qishdan beri men «aynib» qolgandim.

Aynishimga boya aytganimdek Tohirra opaning nohaqligi sababchi bo'lgandi. Bechora Dilshod... O'sha kuni holvani hokim yedi-yu, kaltakni yetim yedi. Nega deysizmi? Keling, boshidan aytib bera qolay.

Biz Dilshod bilan birinchi sinfdan beri bir partada o'tirardik. U yaxshi o'qirdi. Algebra, fizika masalalanini ko'zini yumib ishlab tashlayverardi. Ammo sho'xlikda, to'polonchilikda ham birinchilikni olardi. Hamma uni re-zinka koptok derdi. Hech to'g'ri yurolmasdi, yurgan yo'lida sakrab, allaqanday qiliqlar qilib yurardi. Dilshodni ko'pchilik o'qituvchilar yomon ko'rishardi. Ayniqsa Tohirra opa undan oq bezoru ko'k bezor edi. Darsini ming bilgani bilan boshini «uch»dan chiqarmadi. Dilshod maktabda ot-ning qashqasi edi. Deraza sinsa ham unga to'nkashardi. Biror

narsa yo'qolsa ham u — aybdor. Ota-onasini maktabga har o'n-o'n besh kunda chaqirib, dakki berib turishardi. Dilshod bilan oramizdan qil o'tmasdi. Bir-birimizni sal ko'rmasak turolmasdik. Uni yaxshi ko'rib qolganimning sababi bor edi. Bir kuni maktabdan kelayotib daraxtga osilib turnik o'ynadik. Birdan daraxtning shoxi sinib ketib, yerga o'mpa bo'lib tushdim. Dilshod atrofimda koptokday sakrab oldin rosa kuldi, keyin o'rnimdan turolmayotganimni ko'rib qo'rqib ketdi. Men oyog'imni bosolmasdim. «Shoshma» deb u oyog'imni anchagacha silab o'tirdi.

— Chiqqan bo'lsa kerak, — dedi Dilshod o'zicha xulosa chiqarib. Keyin yelkasini tutdi.

— Opich!

— E, qo'ysangchi, — dedim uyalib.

— Opichaver, dingillatib ketaman, — dedi ishshayib.

Noiloj ko'ndim. U meni opichib trolleybus bekatiga olib keldi. Skameykaga o'tqazdi-da, ko'channing o'rtasiga turvolib, mashinalarga qo'l ko'tara boshladi.

— Nima qilyapsan? — dedim qilg'idan ensam qotib.

— Ishing bo'lmasin.

U bitta «Moskvich»ni to'xtatib, shofyoriga yalina boshladi.

— Amakijon, o'rtog'imni oyog'i chiqib ketdi. Chorsudagi tabibnikiga oborib qo'ying. Iltimos, daraxtdan yiqilib tushdi.

Shofyor bo'pti, dedi shekilli, Dilshod yugurib mening oldimga keldi.

— Yur, Moshtabibnikiga boramiz.

Bir amallab mashinaga o'tirdim.

Moshtabibning uyi shunday Chorsudagi tepalikda ekan. Dilshod o'ttiz tiyin tangasi bor ekan, shofyorga tiqishtirdi.

— Kerakmas, — dedi shofyor kulib, — cho'ntagingga solib qo'y.

— Rahmat! — Dilshod ikki qo'lini ko'ksiga qo'ydi. — Yaxshiligingizga xizmat qilaylik, amakijon!



Shofyor bir iljayib qo'ydi-da, mashinasini haydab ketdi. Moshtabibning o'lib ketganiga ancha bo'lgan ekan. Chiqqan oyog'imni uning kuyovi joyiga «shiq» etib solib qo'ydi.

— Qani, bos-chi, — dedi kulib.

Oyog'imni bosib bir-ikki qadam yurdim. Mo'jizani qarang! Endi oyog'im og'rimasdi.

— Rahmat, amaki, — dedi Dilshod korchalonlik bilan, yana haligi shofyor olmagan o'ttiz tiyinni tabibga tiqishtirdi. — Oz bo'lsa ham shuni olib qo'ying, maktabdan qaytayotgandik, shunaqa bo'lib qoldi.

— Yo'q, yo'q, men roziman, — dedi tabib uning qo'lini qaytarib, — Ming bor roziman, chopqillab o'ynab yuraveringlar.

— Qulluq, — Dilshod xuddi katta odamday unga ta'zim qildi. — Yaxshi kunlaringizda xizmat qilaylik, o'g'illaringiz bizga o'xshab yursin.

Uning bu g'alati gapidan tabib kulib qo'ydi.

Yo'lda ketyapmizu, uning uddaburroligiga, odamlar bilan qilgan muomalasiga qoyil qolib kelardim. Shundan beri unga bo'lgan mehrim ortib ketgandi. Ammo Dilshod bilan birga yurganim, birga o'tirganim sinf rahbarimiz To'hira opaga yoqmasdi. Meni uch-to'rt marta chaqirib nasihat ham qildi. U bemaza bolamish, yomonga yaqinlashsam balosi yuqarmish, qozonga yaqin yursam qora yuqarmish. Men boobro', yaxshi odamlarning bolasimishman. O'rtoqlarim ham shunga yarasha bo'lishi kerakmish. Shuning uchun o'zimni undan nari olib yurishim lozimmish.

Har gal uning nasixatiga quloq solib o'tiraman-da, sizniki ma'qul deganday, «bo'pti» deb qo'yaman.

Lekin o'zimning bilganimdan qolmayman.

Boya aytganim — nohaqlik bultur qishda kimyo darsida ro'y bergandi. Shu kuni laboratoriyada toshko'mirni koks-lash tajribasini o'tkazayotgan edik. Dilshod ikkimiz oxirgi partada edik. To'hira opa stolga allaqanday suyuqliklarni bir-biriga aralastirib olovda qizdirayotgan edi. Dilshod labora-

toriya ishi bilan ovora. Birdan miyamga qiziq bir fikr keldi. Parta ustida turgan gazetani g'ijim-g'ijim qildim-da, gu-gurt chaqib yondirdim. Yonib turgan gazetani Dilshodning oyog'i ostiga tashladim. Dilshod bir kulib qo'ydi-da, olovni men tomonga tepvordi. Men uni orqa tomonga, shkaflar turgan joyga oyog'im bilan surib yubordim. O'zm hech narsa bilmaganday, lip etib Tohira opa oldida uy-malashib turgan bolalar oldiga bordim. Dilshod qo'lida probirka bilan partalar orasidan chiqib, endi ikki qadam yurgandi, to'satdan shkaflar turgan joyda allanarsa «bumm» etib portladi. Lop etib shiftga alanga ko'tarildi. Qizlar chinqirib, qiychuv qilib yuborishdi. Bolalar birdan o'zlarini alangaga urishdi. Biri paqirda suv olib kelib sepgan, biri kurtkasi bilan, biri kostyumi bilan olovni urib o'chirardi.

«Yong'in» bir pasda o'chirildi. Tohira opaning rangi devordek oqarib ketgandi. Tohira opa bir zum talmovsirab Dilshodning oldiga keldi.

— Sen yoqdingmi olovni?! — dedi labi gezarib. Dilshod yelkasini qisdi. Tohira opa jahl bilan unga bir tarsaki urdi. Keyin og'zidan ko'pik sachratib baqirib ketdi. — Yaramas, maktab yonib ketsa nima bo'lardi?

Rostimni aytsam, men hushsizday bo'lib qolgandim. Birdan o'zimga keldim.

— Urmang uni! — deb chinqirdim Tohira opaga. — Olovni men yoqqandim. Surishtirmay nega urasiz uni?!...

— Yonini olma! — Tohira opa menga o'shqirdi. — Sendaqa himoyachidan o'rgildim. Koshki bilmasam buning qiliqlarini!

Dilshod o'rnidan turib orqasini qoqa-qoqa Tohira opaning oldiga keldi.

— Rahmat sizga. Tohira Sobirovna! — dedi ovozi qaltirab. Uning ikki ko'zi jiqqa yosh edi.

— Rahmatingni pishirib ye! — uning yupqa lablaridan zahar tomardi. — Shu ishing bilan... Birinchidan, maktabdan haydataman, ikkinchidan, militsiyaga topshiraman! Uchinchidan, laboratoriyani remont qilib berasan! To'rtin-



chidan, asbob-uskunalarni, shkafni to'laysan! — Tohira opa uning yelkasidan turtib yubordi. — Bor, ota-onangni aytib kel!

— Borma, Dilshod! — dedim chiyillab. Keyin Tohira opaga baqirdim. — Nega unga tuhmat qilasiz? Olovni men yoqdim deyapman-ku!

— Hm... Do'stingga sadoqatingni ko'rsatyapsanmi? — menga qarab g'alati tirjaydi Tohira opa. — Mana shu bolaga qo'shilib sen ham rasvo bo'yapsan. Bir kunmas bir kun ota-onangga ham qattiq gap tekkizasan!

— Rostdan sen yoqqanmisan? — sinfkomimiz Jamila oldinga keldi. U chaqchaygan ko'zlarini ko'zimga qadadi. — To'g'risini ayt. Rostdan sen yoqdingmi?!

— Men yoqdim! Bolalar, ishoninglar, men yoqdim. Gazetani yondirib, shkaf tomonga tepib yubordim.

Jamila yalt etib Tohira opaga qaradi.

— Nega ishonmaysiz? — dedi u dona-dona qilib. — Botir men yoqdim deyapti-ku. Aybini bo'yniga olyapti-ku!

— Uning aybi yo'q, u yoqmagan. O'rtog'ini himoya qilyapti. Shu bilan uni jazodan qutqarib qolmoqchi! Senlar shoxida yursalaring, men bargida yuraman. Bu banditni himoya qilmay qo'ya qolinglar. Bugun maktabga o't qo'yibdi, bir kun kelib dunyoga o't qo'yadi.

Birdan uning ko'zi nafrat bilan tikilib turgan Dilshodga tushib qoldi.

— Haliyam shetta turibsanmi qoqqan qoziqday bo'lib! Bor, ota-onangni aytib kel! Tomosha qilib ketsin qilmishingni!

Bir kuni tanaffus paytida e'lonlar taxtasi oldida bolalar uymalashib qolishdi. Dilshod ikkalamiz nima ekan, deb bolalar orasiga tiqildik. To'qqizinchi sinfda o'qiydigan novcha qiz bor ovozi bilan o'qirdi:

Yigirma to'qqizinchi mart.

«...bezoriligi uchun, maktab mulkiga zarar yetkazganligi, pedagoglarni haqorat qilgani uchun 7 «A» sinf o'quvchisi Dilshod Akramov maktabdan haydalsin...»

Dilshod yalt etib menga qaradi. Uning yuzi bir zumda qip-qizil bo'lib ketgandi. Men turgan joyimda karaxt bo'lib qolgandim. Bir mahal qaragam yonimda turgan Dilshod yo'q. Yugurib sinfga kirdim. Portfelimni oldimu uyga jo'nadim.

Ertasiga tushga yaqin birdan maktabimiz to's-to'polon bo'lib qoldi. Direktor u yoqqa chopgan, Tohira opa bu yoqqa chopgan, zavuchimiz Zikrillo aka zir yugurgan. Farroshlar hammayoqni artgan, supirgan.

Bir mahal qaragam, direktor, zavuch, Tohira opa, yana bir-ikkita o'qituvchilar dadamni boshlab direktor xonasiga kirib ketishyapti.

Ichkarida nima gap bo'lganini bilmadimu, o'sha kuniyoq Dilshodni maktabdan haydash to'g'risidagi qaror bekor qilinibdi. Ikki-uch kun o'tgach, kimyo laboratoriyasini dadam usta yuborib «o'rtog'im uchun» remont qildirib berdilar.

Mana, ertaga birinchi sentyabr... Dilshod boshqa maktabga boradi. Men esa o'sha... tun allamahol bo'lib qolganiga qaramay karavotda to'lg'anardim. Birdan kallamga g'alati fikr keldi. O'zimcha iljayib qo'ydim.

* * *

Qilig'imdan oyim shaytonlab qolayozdilar. Dadamning esa qovoq-tumshuqlari osilib ketdi. Ularning fikricha men «aynib» qolganmishman. Ertalab oyim kuyib-pishib maktabga otlangandilar, dadam yubormadilar.

— Qo'yaver, o'zim boraman, — dedilar.

Darvoza tomondan «Volga»ning signali eshitildi.

Papkasini yelkasiga osib olganicha maktabga shay bo'lib turgan Ziroat yalt etib menga qaradi Keyin qo'rqa-pisa:

— Dadajon, men piyoda ketaman, — dedi.

Shunday qilib Tohira opaning esi oqqancha qoldi. Dadam maktabga borib kelgach, uch kundan so'ng men Dilshod o'qiyotgan maktabga qatnay boshladim. Yo'q, yettinchi sinfga emas, sakkizinchiga.



Shukur **XOLMIRZAYEV**

(1940— 2005)

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining yirik vakili Shukur Xolmirzayev 1940- yil Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida dunyoga keladi. Ijodi Toshkent Davlat universiteti (O'zbekiston Milliy universiteti)da o'qib yurgan kezlari nashr etilgan «Oq otli» va «To'lqinlar» nomli qissalari bilan boshlanadi. Ilk asarlari bilan Abdulla Qahhor e'tiboriga tushadi. «O'n sakkizga kirmagan kim bor» (1965) qissasi badiiy ijod olamiga iste'dodli adib kirib kelganidan dalolat beradi. Yozuvchining shundan keyin yaratgan «Olis yulduzlar ostida», «Hayot abadiy», «Og'ir tosh ko'chsa» to'plamlariga kirgan hikoyalari, «So'nggi bekat», «Qil ko'prik», «Yo'lovchi», «Ola bo'ji», «Bodom qishda gulladi», «So'nmas olov», «Tog'larga qor tushdi» romanlari milliy ruh va mayin lirizm bilan, hikoyalari esa mard, tanti, ayni paytda sodadadil qishloq odamlarining yorqin timsollari yaratilganligi bilan ajralib turadi.

Sh. Xolmirzayev «Qora Kamar» nomli sahna asarida milliy ozodlik g'oyasini ehtiros bilan talqin etadi.

Iste'dodli adib 1989- yilda Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ladi. 1991- yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni bilan taqdirlanishi ko'p millionli kitobxonlarning yozuvchiga bo'lgan yuksak ehtiromi va e'tirofini anglatadi.

Shukur Xolmirzayev 2005- yilda vafot etgan.

OQTOSH

(Hikoya)

Biz Ulkan qishlog'iga ko'chib bordik. Onam — Sho'ro raisi, men — endi uchinchi sinfni bitirib ta'tilga chiqqan paytlarim edi.

Bizga atab katta bir o'rikzorning adog'ida o'tov tikib qo'yishgan ekan. Jihozlari ham bor: sholcha, bir taxmon ko'rpa-to'shak. Xo'sh, o'tov biqinida yer tandir, undan sal narida — katta ariq, uning bo'yida tollar. Tollarning, lof bo'lsayam, har bir butog'ida chumchuq uyasi bor. Chirq-chirq, chig'ir-chig'ir tovushlar tinmas edi.

Onam menga tushuntirdi:

— Biz Rais boboning uyiga qo'ndik. Bir-ikki yil turamiz. Keyin yana rayonga qaytib ketamiz. — Bu gaplarni tushunganimdan keyin u kishi davom etdi: — Rais bobongni Jo'ra degan o'g'li bor. Halizamon keladi. Kim bilan o'ynasang — o'yna-yu, o'sha bilan o'ynama!

— Nimaga?

— Ishing bo'lmasin.

Haqiqatan ham hademay Jo'ra keldi. Yonida ishtonini lipa urgan, shalpang quloq bir bola ham bor edi. Ularning bir-biriga munosabatidan kimliklarini bilib oldim... Jo'ra ariqning u betidagi pastak devorga minib o'tirdi-da, qo'lidagi palaxmon bilan tollar shoxiga tosh ota boshladi.

Onam bilan Rais bobo o'tovning chap tomonidagi su-pada bir-ikki kishiga nimalarnidir tushuntirishar, ulardan sal nariroqda Rais boboning to'riq oti bilan onamning jiy-ron oti o'tlab turardi.

Shuni aytishim kerakki, Rais boboni men ikki yillardan beri bilar edim. Tumanga — hovlimizga mana shu to'rig'ini minib borib qolar va mehmonxonada yotardi. Meni erkalar qachon bo'lmasin, o'zining Ulkan qishlog'iga tomoshaga olib borishini aytar, so'ng u qishloqni maqtar edi: «Dayrosi bor. Cho'milasan. Meniyam senday o'g'lim bor, do'st bo'lasan...»

Albatta men bu taklifdan quvonardim hamda o'sha «qachon»dir deyilgan muddat tezroq kelishini kutardim.

Mana, oqibat onam o'sha qishloqqa Sho'ro raisi etib tayinlandi-yu, biz keldik.

Rais bobo bilan onam anavi ikki kishiga bir nimalarni tayinlashdi-da, o'tovga qaytishdi.

Rais bobo Jo'rani ko'rib:

— E, nimaga o'ytib¹ o'tiribsan? Kelib, Sodiqboy bilan tanishmaysanmi? Senga aytar edim-ku? — dedi.

— Ha, Sodiqjon, kel. Akang bilan tanish, — dedi onam ham. Va mening yelkamdandan quchib: — Gapim esing-da bo'lsin, — deb shivirladi.

Jo'ra devordan tushib, qiyshayib keldi. Men har qalay shaharlik edim: unga qo'l uzatdim. Uyam qo'lining uchini berdi-da otasiga:

— Qurtni chumchuq jeb ketayapti, — dedi.

— He, ukkag'arlar! — Rais bobo etigini yechmoqchi bo'lib qo'njidan tutdi-yu, vaqtni boy beradigandek birdan alpang-talpang yurib borib, bitta tolga chiqib ketdi. Keyin ayrida turib olib shoxlarni shunday silkitdiki, chumchuq bolalari yomg'irdek to'kila boshladi. Jo'ra bilan Oqboyga ergashib men ham do'ppimni oldim-da, palaponlarni terib sola boshladim.

Rais bobo shoxma-shox yurib, boshqa tollargayam o'tdi. Ulardan ham son-sanoqsiz palaponlar to'kildi. Endi onam chumchuq bolalariga achinib, qoshini chimirib turar, nuqul:

— Bas endi, o'rtoq Boboyev! Bundan ko'ra qurt-xonalarga qorovullarni ko'paytirish kerak, — der edi.

Shu payt deng, qaysi go'rdan bir maymoq it bilan ikkita mushuk paydo bo'ldi-yu, ular ham to'kilgan chumchuq bolalarini terib, haligiday oshqozonlariga joylay boshladi. It bilan mushuk — bir-biriga dushman: yaqin kelganda, tashlanishib, fishillashib qolishar, keyin tag'in tirik xo'rakka tashlanishar edi.

¹ Unday qilib (shevada).

— Yuring-e, yarashmagan ishni qilib!.. — Onam jerkib shunday dedi-da, otlar tomonga yo'l oldi.

Saldan keyin Rais boboyam daraxtdan tushib va ust-boshini qoqib:

— Esa biz g'allaning boshiga ketdik. Jo'raboy, ukangni o'ynat! Palaxmon qilib ber. Cho'milishga olib bor... Mol-tishni¹ o'rgat. Xo'pmi, bolam? — deb va mening kiftimga qoqib qo'yib, onamning izidan ketdi.

Hademay ular otlarini minib etakka yenib ketisharkan, onam qayrilib qarab:

— Gapim esingdan chiqmasin, Sodiq! Haligi kitobingni o'qi! — dedi.

O'sha kuni o'rikzorning u yog'idagi bahaybat yontoqlar ostida paqqa bo'lmagan yong'oqlarni toshga urib, po'stlog'ini archib o'tirganimizda, Oqboy menga qiziq gaplarni aytdi:

— Enang Rais boboga tegarmish... Jo'raning enasi maraz bo'lgan. Dayrodan norman²-kapada yashaydi.

Jo'ra yong'oq shoxida edi. Pastga tushgandan keyin:

— Jo'ra aka, — dedim unga. — Enangiz maraz bo'lganmi?

U boshini egib qoldi.

— Do'xtirga oborish kerak-ku?

— Davosi yo'q emish, — deb pichirladi u.

— Bi-ir o'zlari yashaydimi kapada?

U bosh irg'adi.

— Yuring, borib ko'ramiz.

Jo'ra menga tikildi. Oqboy bo'lsa:

— Bugun bordingmi? — deb so'radi undan.

U boshini chayqadi.

— Kayvoni momo to'yga ketgan. Non yopmagan.

Biz tuman markazidagi uyimizda g'amimizni yeb, momom yopgan uch-to'rtta yog'li patir-non, kastryulga, qovurdoq solib olgan edik. Hali kelib, qora uyga joylashganimizdan keyin ana shulardan biroz tamaddi qilgandik.

¹ Suzishni (shevada).

² Narida (shevada).



— Non bor. Go'sht ham bor, — dedim. — Uyda! Ana, ishonmasangiz, kirib ko'ring!

Jo'ra g'amgin jilmaydi. Oqboy bo'lsa:

— Jur, — dedi. — Olamiz! Boramiz... Mana muniyam qidiratamiz! Borasanmi, Sodiq?

— E, bo'lmasamchi, — dedim.

Onam haligi gapni tayinlab ketgan bo'lsa-da, men Jo'raning yonidan jilmagan edim: axir, nima qilay? Kim bilan o'ynay? Ikkinchi tarafdin, Rais boboning tuman-da — uyimizda aytgan gaplari yodimda: Jo'ra meni daryoga olib borishi kerak edi. Uchinchidan desangiz, ayniqsa onamning gapidan keyin bu yigitga qiziqib qolgandim. Bundan tashqari, bechoraning...

...Onasi haligiday kasalga yo'liqqan, bitta o'zi bir kapa-da — daryoning u tomonida yashar ekan...

Shuni aytishim lozimki, o'shanda — urushdan keyingi, yo'g'e, elliginchi yillarning o'rtalarida ham tirikchilik kechirish og'ir, yetimlar ko'p, anavinaqa kasallar ham serob edi. Va bizning tuman markazida ham pes, maraz bo'lgan kimsalarni jamoadan chiqarib qo'yish rasm edi.

Oqboyning gapidan keyin Jo'ra yelkasini qisib, menga mo'ltirab qaradi. Men uning qo'lidan tortdim.

— Yuring.

Onam o'shanday degani bilan men bu yigitdan negadir qo'rqmadim. O'zimga ishonarmidim — bilmayman. Harqalay, maktabda chopish, sakrash, mushtlashish — boks bo'yicha ilg'orlar qatorida edim. Ishqilib, birovdan tayoq emasdim...

Patir nondan birini olib, orasiga qovurdoq qo'ydik. Bir qiyiqqa o'rab, yo'lga tushdik.

Rais bobo bilan onam otlarini yo'rttirib ketgan so'qmoq bilan borardik. O'riklar g'arq pishgan, yerga ko'rpa bo'lib to'kilib yotibdi deng. Ko'plari oyoq-tuyoq ostida ezilgan, achigan. Ular ustida arilar va pashshalar g'uj-g'uj. Ana shu — o'riklar hidi anqiydi!

¹ Tomosha qildiramiz (shevada).

Qandaydir tashlandiq, yovvoyi o'lkaga kelib qolgan-day sezasan o'zingni.

Bu qishloqda o'zi xonadonlar siyrak ekan: huv unday yerda qora suvoq qilingan bir katalak ko'rinsa, undan ancha narida bir kapa ko'zga tashlanadi. Undan ham narida o'tov... Keyin bilsam, bu yerliklarda chorva ham mo'l, qo'y-echkilarini yaylovlarga haydagan yoxud tog' o'tloqlariga chiqarib ketishgan ekan.

Ariq labidan bora-bora sholizor yoqasidan o'tdik. Va birdaniga bahaybat bir jarlik chetiga chiqib qoldik. Jarlik shunday kattaki, u qirg'og'i bilan bu qirg'og'ining orasi biron chaqirim keladi.

Biroq yonbag'irdan ilonizi bo'lib o'rmalab tushib ketgan so'qmoq ham borki, unda mol tuyoqlari va yalang'oyoqchalarning izlari qolgan.

— Ana, dayro, — dedi Jo'ra tubanlikni ko'rsatib.

Tubanda — jarlik tubida yaltirab suv oqar, sohillarni yulg'un bosib ketgan, qizarib gullagan bu yashil butalar orasida — qumda bo'lsa kerak, yarim yalang'och bolalar va lozim-ko'ylakli qizchalar har xil alfozda o'tirishar-yotishar edi.

Rais bobo «dayro» deganda, men kitoblarda o'qiganim kattakon nahrni ko'z oldimga keltirgan bo'lishim lozim — shuning uchun bu daryo menga soy bo'lib ko'rindi. Men unga bepisandlik bilan boqib:

— E, shumi? — dedim.

— Juringlar! Qaytishda cho'milamiz! — dedi Oqboy. Va biz unga ergashdik.

Qirg'oq bo'ylab sal yurganimizdan keyin shundoq qarshimizda jarlik qirg'oqlarini ulab turgan uzun osmako'prikka ko'zim tushdi. U ertaklardagi puli sirot ko'prigiday tuyuldi menga! Va yuragim gurs-gurs ura boshladi: «O'tayotganimizda, uzilib ketsa... Xudo urdi! Onam Jo'rani ayblaydi...»

Darvoqe, uzr etasiz, onamning bu yigitchaga ishonmasdan qarashining sababini g'ira-shira tushungandek edim: axir onam Rais boboga tegar emish...



Rais boboning esa xotini anavinaqa ahvolda: o'g'li bu... Demak, Jo'ra menga g'ayirlik bilan qarashi mumkin-da.

Lekin hozircha bu narsani sezmagan edim. Hoziroq aytib qo'yayki, keyinchalik ham sezmadim. Jo'ra taqdirga tan bergan, buning ustiga, u ham meni tezroq ko'rish va deylik, daryoni ko'rsatish, moltishni o'rgatishni o'ylab yurur ekan.

Ko'prikka qadam bosdik. Yo'ldan farqi yo'q. Ammo o'rtasiga yetganda, uning nari-beriga borib kelayotgani, ammo bu sezilmas darajada ekanini ko'rib, ha, ko'rib qolib, kapalagim uchib ketdi. Jo'raning bilagidan ushlab oldim.

— Qo'rqma, uka. Uzilmaydi. Mahkam bu, — dedi u tirsagimdan qisib. — Poda-poda mol o'tadi bundan. Suruv-suruv qo'y... Bultur bir chol o'ldi. Uning tobuti ortidan minglab odam ergashib jo'nadi. Shuniyam ko'tardi bu...

Jo'raning onasi oxirgi kunlarini kechirayotgan kapa qabristondan berida, qo'ziqoringa o'xshash ulkan gujum ostida ekan. Unga yaqinlashganda, Jo'ra Oqboydan tugunni oldi.

— Qolamiz, — dedi Oqboy menga. — Borib bo'lmaydi.

— Nimaga?

— Bo'lmaydi-da.

— Mayli.

Jo'ra ketdi. Borib, kapaga kirdi. Biz har tomonga qarab tomosha qilib turardik. Yaydoq, xas-xashak bosib ketgan kattakon qabristonda so'pito'rg'aylar ko'p, ular xush ovozda chuldirashib uchishar, qaysi biri uchmasin — tom bo'yi ko'tarilgach, havoda muallaq turib sayrab olar, keyin yerga — qovjiragan tikanlar, alaflar orasiga qo'nardi. Bir-ikkitasi atrofimizda pildirab yurardi.

— Bu qushni o'ldirib bo'lmaydi, — deb qoldi Oqboy. — Gunoh bo'ladi. Yomon bo'ladi.

— Qanday «yomon bo'ladi?»

— Yomon-da.

Keyin gujumga qarab dasdurustdan shu she'ni aytdi:

Mullat o'rg'ay — otim bo'lg'ay.

Meni o'ldirgan

Yetti eshikda yetim bo'lg'ay.

— O'-o', — dedim. — Chumchuqni o'ldirsa bo'ladimi?

— Uning turgan-bitgani ziyon, — dedi Oqboy. — Haligi palaponlarni nima qildim, bilasanmi?

— Yo'q. Nima qilding?

— Bittalab it bilan pishakka jedirdim, — javob berdi u bamaylixotir. — Munday olib tepaga otaman. Yo it ilib oldi, yo pishak. Chumchuqning turgan-bitgani ziyon, — deb takrorladi yana. — G'allaniyam shu quritayapti. Rais bobo bizni mashoq terishgayam qo'ymaydi! Qamchilab uradi. Chumchuq bo'lsa, jeb ketayapti. Shuning uchun palaxmon bilan...

Jo'ra kapadan chiqdi. Ko'zlari nam edi. Yuzlarini kafti bilan arta-arti keldi-da:

— Seni alqadilar, — dedi menga.

— Meni?

— Ha. Ko'pga kirsin. Yaxshi bola ekan, dedilar...

— Rahmat, aka. Ertaga yana kelamiz-a?

Jo'ra kiftini uchirib so'qmoqqa tushdi.

U — mening o'lchovim bo'yicha — o'rtabo'y, yelkari keng, yuzi ham keng va ko'zlari qiyiqroq edi. Rais boboning o'g'li bo'lishiga qaramasdan egnidagi surp ko'ylagi tirsaklariga yamoq tushgan, ishtonining bir pochasi uzun, do'ppisiyam hilvillab ketgan edi.

Men, harqalay, tik shimdaman, shohmot-nusxa ko'ylagimning yenglari kalta, oyog'imda keti. Soch o'sgan: to'g'rirog'i, soch qo'yanman.

Ko'prikka yetgan joyda quyiga enib ketgan eshak yo'li bor ekan. Anchagina keng. Aftidan, ko'prik qurilmasdan burun odamlar ana shu yo'ldan tushib chiqishgan.



Biz tubanga enishimiz bilan daryoning u qirg'og'i-yu bu qirg'og'idagi o'g'il hamda qiz bolalar tikka-tikka bo'lishib, bizni go'yo qarshi olishdi.

Yulg'unlarni oralab o'tarkanmiz, atrofga qiziqqanim uchunmi, har bir narsaga diqqat bilan nazar solardim. Yulg'unlarning tanasiga har xil xas-cho'plar, ildizlar taqalib qolgan. Ayrimlarining shoxlarida qush uyalari bor, ammo bari bo'm-bo'sh edi.

Tepamizdan chiy-chiylab jarqaldirg'ochlar uchib o'tadi, ba'zisi yuzimizga tegay-tegay deb ketardi.

Bu yer, ya'ni jarlikning tubi ham hayhotdek makon ekan! Suv ham katta va tinimsiz shovullar, xuddi kuchli bir shamol esmoqda-yu, ko'zga ko'rinmas chinorlar silkinmoqda edi!

Aytganimdek, bolalarning ko'pchiligi yarim yalang'och, ya'niki ishtonda, qizlar esa lozim-ko'ylakda-yu, ammo kiyimlari badanlariga yopishib qolgan va u-bu yerlariga qum yuqqan, paxtaband qilib o'rilgan sochlari ham ho'l, yuzlari qoraygan, shu bilan birga kulib turishar edi.

— Qalaysizlar? — deb baqirdi Oqboy. — Qurti chum-chuq jeb ketayapti! G'allaniyam sho'ri quridi! Sizlar nima qip juribsizlar-a, bekorchilar?

Qotma, murti sabza urgan bir bola:

— O'zing-chi, o'zing? — dedi.

— Men... — Oqboy Jo'raga, keyin qirg'oqqa imo qilib qo'ydi-da, past tushmadi. — Jurippizda, mana Sho'ro opaning ulini qidirtib!

Hamma menga tikildi. Men ular bilan qo'l berib so'rashish-tanishishga chog'landim. Biroq biri ham o'rnidan jilmadi: bolalar ust-boshimga qiziqib boqishar, qizlar o'zaro shivirlashar edi.

— Eshitdinglarmi, Ulkanga yangi Sho'ro keldi! Jo'ralarning o'toviga qo'ndi. Jiyron oti bor. Uli mana... Oti Sodiq! Hozir sizlarga moltishni ko'rsatib qo'yadi!

«Moltish» so'zining — suvda suzish ekanini tuman markazidayoq Rais bobodan so'rab-bilib olgan edim.

Ammo suzish bobida... Menimcha, tuman markazida yashaydigan-o'qiydigan tengqurlarimning eng katta nuqsoni — suzishni yaxshi bilmasliklari edi. To'g'ri, ikki hovlining birida hovuz bor. Unga suv quyilganda, barg-xazonlarni chiqarish uchun bolalar hovuzga tushishadi.

Shu tariqa men ham besh-o'n qadam suzishni o'rganib olgan edim.

Ammo bunday vag'illagan daryoda cho'milish... Uyalganim ham shu — daryoga qaradim.

Shoshqin, oppoq-serko'pik suv toshdan-toshga sakrab oqar, ba'zi joylarda oqayotgani bilinmas, ellik qadamlar etakda — daryo qirg'oq kamaridan aylanib o'tardiki, u tomonda suv umuman to'xtab qolganga o'xshar edi: rangiyam ko'm-ko'k.

— Moltishni bilasanmi? — deb so'radi Jo'ra.

— Sal-pal.

— Shunday ko'ringani bilan opketadi, — dedi u suvga termulib. — Oyog'ingdan chaladi... Lekin mana bular o'rgangan. Markazda dayro yo'g'-a?

— Yo'q. Rayonni chetlab o'tadi.

— Otam aytib edilar...

— Qani, bir-bir tashlab olaylik. Keyin ketamiz g'allaning boshiga! — deb qoldi shunda haligi — murti sabza urgan, qotma yigitcha. — Jo'ra aka, chechining-e! Kun isib ketdi!.. Ho', Sho'roning uli, sen ham cho'mil!

Shu gapdan keyin qizlar burilib, oqimga qarshi tomonga yo'l olishdi. Bolalar bo'lsa chopa-chopa suvga o'zlarini otib va umbaloq oshib, ko'karib turgan tomonga suza boshlashdi. Qarasam, Jo'ra ham ko'ylagini yechyapti.

Men ham shimim bilan ko'ylak-maykamni yechib, keti-shippakning ustiga qo'ydim.

Biz suv bo'yiga yetganda, qizaloqlar — ko'ylak-lozimlarida qiyqirishib-kulishib va umbaloq otishib, ol-dimizdan o'tib ketishdi-da, ko'karib turgan joyga yaqinlashaverib, yulg'unlardan ushlab-ushlab qolishdi.



Jo'radan keyin Oqboy ham qulog'iga bir nimani tiqib suvga kirdi. Suv belidan oshganda, o'zini tashladi va goh ko'rinib, goh ko'rinmay keta boshladi. Men ham suvga kirdim. Muzdek. Ikki qadam bosganimni bilaman, oyog'im toyib ketib, chalqancha yiqildim-ku! Turaman deyman — dumalayman. Ichimga suv kiriyapti. Biron narsadan ushlayin deyman — goh qo'lim yetmaydi, goh sirpanib ketadi.

Qandaydir vahimaga tushgan paytimda haligi ko'karib turgan joyga yaqinlashdim-u, oyog'im yerdan — suv tubidan uzildi! Uzilish zamon cho'kib ketayotganimni anglab, apil-tapil tepaga intildim-da, qirg'oqqa qarab suzdim!

Bu yerda oqim sust edi: hademay yulg'unlardan ushlab, toshloqqa chiqib oldim.

Mening ahvolimni ko'rib havotirga tushishganmi — Jo'ra bilan qotma yigitcha izimdan quloch otib kelishayotgan ekan. Ular ham sohilga chiqishdi.

— Qashqa bo'lmadingmi? Aytdim-ku, tezoqar bu, — dedi Jo'ra hansirab.

— Ha, yo'q, — dedim. — Toshlar sirg'anchiq ekan... Lekin rost, oyoqdan chalar ekan.

— Uf. Manavu iyrimga kirib ketadi-yov deb qo'rqib edim, — dedi murti sabza urgan. — Tagi chuqur. Uchto'rt odam bo'yi keladi. Keyin oqim zo'r. Bir marta o'zimniyam chirpirak qilib opketgan. Huv kechuvga bor-ganda, zo'rg'a chiqib olganman. O'shanda o'n yoshda edim... Uch yil bo'pti!

— Sen yaxshi suzolmaysan, — dedi Jo'ra menga. O'rgataman... Qo'rqmasang bo'ldi.

— Ha, qo'rqmasang bo'ldi, — dedi u yigit ham.

Shu palla suvning ko'm-ko'k sathida Oqboy paydo bo'ldi-da, qo'llarini yuqoriga ko'tarib sho'ng'idi. Zum o'tmay o'n qadamlar narida, suvning kamardan chiqayotgan joyida paydo bo'ldi boshi! Keyin bizga qarab mol-tib, ihrab-ihrab chiqib keldi.

Shu narsani aytishim shartki, biz o'tirgan joy juda-a ajoyib edi. Dumaloq ko'k, malla toshlar — kursimiz. Qizaloqlar ham tomoshadan quruq qoladiganday yetib kelishgan. Ular ikkita toshda cho'milib chiqqan kaklik jo'jalaridek g'uj bo'lib, go'yo o'zlarini oftobga toblab, patlarini quritishar edi.

Shundoq oyog'imiz ostida — o'sha ko'k iyrim. Ya'ni, girdob! Biroq uning qirg'oq qo'ltig'iga urilib, o'rama hosil qilib o'tayotgani sezilmas, aytishlaricha, oqimning zo'ri suvning tubida edi. Sirti esa shunday sokin.

Tepamizda go'yo ayvon shifti bor. Ya'ni, metin qirg'oq daryoga cho'zilib bag'rini tutib turar, biz uning soyasida o'tirardikki, haqiqatan ham ayvonda o'tirgandek edik.

Ustimizda qaldirg'ochlarning chiy-chiylashb uchishi-e! Bizni bu yerdan quvib yuborishga ahd qilishgandek!

Xullas kalom, men xiyol mulzam bo'lgan holda, boshqalar g'olibona ko'rinishda edi, haligi murti chiqib qolgan yigitcha:

— Ey, jo'ralar! «Oqtosh» o'ynaylik, a? Jo'ra aka, xo'p deng, — dedi. — Keyin to'g'ri g'allaga ketamiz!

— O'ynanglar, o'ynanglar! — deb qolishdi qizlar ham.

«Qiziq, qanaqa o'yin ekan bu?» deb o'yladim-da, Jo'raga qarovdim, u:

— Oqboy, sen bakovul, — dedi. — Oldin tushuntirgin o'yinni. Sodiq ham bilsin!

— Men tushuntiraman, — deb toshidan turdi o'yinning tashabbuschisi va qo'lidagi oppoq, judayam oq — quyruqdek toshni menga ko'rsatdi.

...Ana shu toshni suvning eng chuqur joyiga otarkan. Otayotganida, hammaning ko'z yumib turishi shart ekan. Keyin bakovulning gapi bilan bolalar ko'zlarini ochisharkan-da, «Bir, ikki, uch!» deyilishi bilan o'zlarini suvga otisharkan.

Iyrimning tubidan ana o'sha toshni olib chiqish lozim ekan.

Kim topib olib chiqsa, demak, o'sha — g'olib!



Daryoning eng chuqur yeridan u toshni qanaqa qilib topib chiqish mumkin?

Xayolingizga shu savol keldi, a?

Men ham shuni o'ylab, lol qolib turgan edim, bu yog'ini Jo'ra tushuntirdi:

— Suvning tagida ko'zni ochib yurish kerak. Bildingmi? Suv tiniq...

— Bildim, — dedim.

Suvning tagida ko'zni ochib, demak, tubidagi toshlarga tikilib yurish?!

Hovuzning loyqa suviga tushganingda hatto burningni, quloqlaringni ham iloji bo'lsa bekiteb olasan-u, ajab, ko'zni ochish... Aqlga sig'adimi shu gap?

Lekin bu yerdagilar uchun bu — o'ta jo'n gap, oddiy o'yin ekan!

Oqboy:

— ...Uch! — deyishi bilan ishtonini lipa urib, pochalarini ham shimarib olgan bolalar guv-guv etib suvga o'zlarini otishdi. Va hammasi g'oyib bo'lib ketdi.

Qizlar bilan men... sohilda qolgandim. Suvga tikilyapman. «Hozir chiqadi... Ana chiqdi. Yo'q! Nafasi qaytib ketmasmikan bularni?»

Yanoqlari turtib chiqqan va ko'p cho'milganidanmi sho'ralab ketgan, ammo quvligi shundoq bilinib turgan bir qizcha:

— Huv bola! Oting Sodiq-a? — deb so'radi.

— Sodiq, — dedim. Va beixtiyor kitoblarda yozilganidek: — Seniki-chi? — deb so'radim.

— Meni otimni nima qilasan? — U birdan sharaqlab kuldi. — Mayli, oqtoshni opchiqsang, otimni aytaman.

Dugonalari u bilan kelishib qo'yishgandek kulib qiqillab yuborishdi.

Men o'z-o'zimdand qizib-qizarib ketdim. Va asta o'rnimdand turdim. Ammo suv tagida ko'zni ochib yurish... Buning ustiga, bunday oqar suvda suzishniyam bilmayman. Tag'in: daryo tubida oqim bor ekan. Shu narsalar

miyadan g'uvillab o'tgancha suvga qarab jilayotganimni fahmlab qolganimda...

... Suv yuzasiga sho'lp etib bir bosh chiqdi. Keyin yana bir kalla, so'ng tag'in bittasi...

Jo'ra ham chiqib keldi.

— Oqimga tushib qoldim. Arang qutildim.

Oqboy ham chiqdi, kelib kuldi.

— Oqim opketipti deyman!

— G'irrom, — deb to'ng'illadi Jo'ra. — Bakovul bo'lib o'tirmaysanmi?

— O'tirolmadim-da.

Nazarimda, ikki daqiqalar o'tdi. Hamma chiqib bo'ldi. Faqat haligi murti sabza urgan...

Xayriyat-e!

Boshidan oldin toshni tutgan qo'li chiqdi suvdan! Va bu yoqda qiyqiriq bo'lib ketdi!

Ayniqsa, qizlarning quvonishgani!

Shunda, ishonasizmi, o'sha boladek bo'lgim keldi! Axir, yaxshi-da.

...Qizlar ham chuvvos solib, chapak chalib, olqishlab qarshi olishsa seni!

G'olibni!

Ammo unday bo'lishimga sira ko'zim yetmasdi; yo'q-yo'q, suv ostida, nari borsa, yarim daqiqa turarman.

Ko'zni ochib...

Oqimga tushib qolsam...

Obbo, oldin shunchaki suzishni o'rganishing kerak, xomtama bo'lma, Sodiq!

Qizlar u bolani, o'zlaricha olqishlab: «Jamol yutdi! Jutdi!» deganlaridan uning ismini bilib oldim. Va u bilan jo'ra bo'lish, undan uni-buni o'rganishga qasd qildim.

Biroq hoziroq aytib qo'ya qolay: u menigina emas, boshqa bolalarni ham pisand etmas ekan.

— Bo'ldi qilinglar. Dalaga ketdik, — deb so'qmoqqa tushdi. Aftidan u, umuman, ko'ylak kiymas, shuning uchun badani temirdek yaltirab ketgan edi.



Jo'ra menga:

— Hozir, hozir, — deb o'zini suvga otdi-da, hash-pash deguncha narigi qirg'oqqa chiqib va yulg'unlar orasidan mening ham kiyimlarimni olib daryoga tushdi. Va bir qo'llab suzib, chiqib ketdi.

Qoyil!

Kiyinib, Jamolning orqasidan tushdik. Qizlar kulib, gap otib qolishdi.

Boyagi quv qizcha bo'lsa:

— Jo'ra aka! Sodiqni tashlab keting! Biz moltishni o'rgatib qo'yamiz, — dedi.

Jo'ra unga qaramay:

— Yuraber. O'rganasan. Qo'rqmasang bo'ldi, — dedi menga.

— Qo'rqmayman. O'rgating, aka, — dedim.

— Mayli.

— Ertaga yana kelasizmi? Onangizniyam ko'rib ketamiz... Xo'pmi?

U mening yelkamga qo'l soldi-da:

— Xo'p, — dedi picha yurganimizdan keyin... — Sodiq, ko'nglingga olmasang, bir gap aytaman, — deb qoldi.

— Hech ham ko'ngilga olmayman, — deb to'xtadim.

U bilagimdan tortdi. Biz tuprog'i qaynab yotgan so'qmoqdan o'rlab borardik.

— Ayting, — deb qistadim.

— Enang meni yomon ko'radilar.

Qulog'im chingillab ketdi.

— Yolg'on, — dedim.

— Rost.

— A, nimaga? Xo'p, yomon ko'radiyam deylik...

— Bultur, bultur, — deb ming'illadi u. — Kechqurun keldilar. Vakil bo'lib. Otam xursand bo'p ketdilar. Keyin enang o'tovda yotdilar. Men otam bilan tashqarida yotdik. Bir mahal uyg'onsam, otam yo'q. Xo'p o'tirdim. Keyin qo'rqdimmi: «Ota-a!» deb chaqirdim. Otam o'tovdan chiqib keldilar...

Meni o'shanda — «yosh bola» bu, hech narsani tushunmagan demang. Men tushungan edim...

O'zimni qandaydir aybdor sezib, miq etmay qoldim. Qirg'oq ustiga chiqqandan so'ng:

— Keyin nima bo'ldi? — dedim.

— Keyin enang menga yomon qaraydigan bo'ldilar... Keyin kelishlarida otam meni kayvoni xolaning uyiga jo'natadigan bo'ldilar. Bilaman, enang aytgan...

— Ha, — deb yubordim-da: — Jo'ra aka, meni kechirasiz, — deb yalindim.

— Nimaga-nimaga?

— Onam chindan ham sizni...

U asta bosh irg'adi. So'ng tag'in yelkamga qo'l soldi. Men uning bu harakatidan qandaydir mehr, og'aning inisiga bo'lgan mehrini his etdim. So'ngra...

...o'zim ham uning belidan bir qo'lim bilan quchib oldim.

Daryo jiyagidan, ya'ni qirg'oq labidan ipga tizilgandek ketarkanmiz, beixtiyor ko'nglim buzilar, ammo ich-ichimda shod edim.

Xullas, bug'doyzor yoqasidagi tashlandiq kapada kunni kech qildik.

Jo'ra menga palaxmon yasab terdi. Palaxmon!.. Qildan eshilar ekan. Kapada kigiz parchalari ko'p edi, o'shalardan qilini sitib oldi. Oqboy bo'lsa, qayoqqadir chopib ketib, ikki changal jun topib keldi: o'tlab yurgan echkilardan yulib-yulib olibdi. Keyin ularni qo'shib, uzun-uzun pilta eshdik. So'ngra qizlarning mayda sochiga o'xshatib o'rishdi. Ikki quloqlar bo'ldi. Keyin bir uchini halqa qilib, bir uchini dumga o'xshatib, hatto tarab-tarab qo'yishdi. Ana undan keyin bu g'alati chilvirning qoq o'rtasida yong'oqdek tosh sig'adigan chuqurcha to'qishdi.

Shu!

Keyin deng, o'sha chuqurchaga toshni joylar ekan-siz-da, chilvir uchlarini juft qilib ushlab, tepada uch-to'rt marta aylantirar ekansiz. Chilvir qo'lingizdan chi-



qib ketay-ketay deganda, haligi dumli uchini qo'yyorar ekansiz!

Shu! Qarabsizki, haligi tosh zing'illab uchib ketayapti! Albatta mo'ljalga olishniyam bilish kerak...

Tumanda «rogatka» qilardik... Palaxmonning nomini bilardim, xolos.

G'allani qo'ridik-da-e!

Kechqurun bolalar ajralib-ajralib ketishdi: ertaga falon vaqtda «dayro bo'yida» uchrashiladi!

Jo'ra ikkimiz o'rikzorga kirganda, u iymanib menga tikildi:

— Uka, ke bir ish qilamiz... — dedi.

— Xo'p bo'ladi, aka.

— Enangni oldida... bir-birimiz bilan gaplashmaymiz. Arazlashganday bo'p yuramiz.

— Nimaga?

U menga shunday siniq, ta'na bilan boqdiki, gap ma'nosiga darhol fahmim yetdi.

— Ho', onam dalaga ketgandan keyin...

— Aka-ukamiz, — dedi u. — Ertaga dayroning yuqori tomoniga obaraman seni. U yerdayam bir-ikkita iyrim joylar bor... Moltishni o'rgataman.

Men uning belidan quchib oldim.

Ay, bolalik-a!

Kechasi onam ikkimiz o'tovda yotdik. Jo'ra bilan Rais bobo tashqarida — o'tov biqinidagi somon suvoq qilingan supada. Mening ancha paytgacha uyqum kelmadi: nazarimda, onammi — tashqariga chiqib ketadigandek, yoxud Rais bobomi — kirib keladigandek edi... Balki men uxlab qolganimdan keyin ular uchrashgandir...

Qiziq, keyinchalik men o'sha damlarni — kolxoz raisining o'tov sirtida, Sho'ro raisasining ichkarida — shundoq yaqin masofada yotishi va ularning pinhona aloqalaridan ayrim kishilar boxabar ham ekanligi, biroq odamlarning bu holga panja orasidan qarashlari haqida o'ylab, o'zimcha shunday xulosaga keldim: o'sha vaqtlarda turmush-

ning izmi shu ekan-da? Raislar xaloyiqning, deylik, ma-lomatidan, qo'rqmas ekanlar-da?

O'zim ham sezardim: bular ikkovlon Ulkan qish-log'ining xonlari — beklari edi!

Shuning uchun ular oddiy odob-andisha deganlaridan ham ustun turishardi chog'i...

Haqiqatan ham xalq bulardan zirillardi. Oqboyning mashoq tergan, qorni uchun g'alla o'g'irlagan bolalarni ham Rais boboning qamchilab urishi haqidagi gapi haq edi.

Bunday ish, men ishonamanki, onamning ham qo'lidan kelardi. Oddiy odamlarga shunaqayam do'q qilib yuborardiki...

Uzr, sal o'tlab ketdim.

...So'radilar, so'radilar kechasi. «Nima qilding? Kim-lar bilan o'ynading? Daryoga borgansan...»

«Bordim. Uzoqdan tomosha qildim Oqboy bilan, — deb javob berdim onamga.— Lekin Jo'ra bilan gaplash-ganim yo'q. Oqshom dasturxon ustidayam ko'rdingizku?»

— «Ha, senga ho'mrayib-ho'mrayib qaradi... — dedi onam. — Shundan ham bilaver. U senga dushman...»

Ertasi Raislar ishga ketishi zamon biz Jo'ra ikkimiz yana daryoga otlandik.

— Non-pon olamizmi onangizga?

— Tushdan keyin, — dedi Jo'ra. — Dayro yoqasida shotutlar bor. Yaqinda kallaklab ketishgan edi... Shu kun-lar yana pishib qolgandir...

— O'shandan ham teramiz-a?

— Ha.

Kun biron terak bo'yi ko'tarilmasdan biz daryoning «yuqori» tomoniga borib qiyalikdan endik. Bu joydagi jar-lik tomonga oqayotgan suv kichkina ko'prikning ostidan shovullab o'tar va yoyilib ketar, suv ostidagi barcha toshlar baralla ko'rinib turardi.

Gapning qisqasini aytсам, peshingacha suzishni ancha o'rganib oldim. Tag'in suv ostidagi silliq toshlarga oyoqni qo'yavermaslikni ham...



Daryo(cha)ni suzib-kesib o'tishga to'g'ri kelsa, albat-
ta, oqimga qarshiroq yurish lozim ekan. Chunki oqim bari-
bir seni surib, ko'zlangan joyingga yetkazmaydi. Shun-
chaki suvni kechib o'tayotganingda ham hadeb oqim bo'ylab
qarayversang, boshing aylanar ekan...

Suv ostida ko'zni ochib yurish...

Daf'atan ko'zni ochganingda, qarshingdanmi, yon-
veringdanmi ko'zingni nimadir bosar ekan: suv albatta!
Keyin chakkalaring sal-pal og'rir ekan. So'ngra:

...Qiziq, mavhum-xayoliy bir olamda seza boshlar
ekansan o'zingni.

Asta-sekin oyog'ing ostidagi toshchalarni ham ko'rar
ekan. Ular qandaydir yapasqidek! Qo'lingni uzatsang,
barmoqlaring ham kalta-kalta bo'lib «qolarkan». Hatto
oyoqlaring ham maymoqlanib ko'rinarkan.

Pakana-hunuk bir mahluqqa aylanar ekansan.

Oradan besh-olti kun o'tdi.

Kamina biron daqiqalar nafas olmay — suv ostida suza-
digan bo'lib qoldi.

Ko'z deganingiz ham suv tagida narsalarni balodek
ko'radi. Bu jarayonda haligiday hayratlanishlar ham yo'q
bo'ldi; qiyofamga ko'nikdingina emas, ko'zning o'ziyam
haligi bosimga o'rgandi chog'i — chakkalarimning lo'qillashi
ham qoldi.

Biz har kuni yo tushgacha, yo tushdan keyin lopilla-
gan osma ko'prikdan o'tib, Jo'ra akaning onasidan xabar
olgani borardik: ul-bul yegulik bilan...

Keyin o'sha aylanma yo'ldan yulg'unzor sohilga tu-
shardik. Tabiiy: bolalar-qizlar qatori o'zimizni «dayroga
tashlardik», moltib yurardik...

Jamol o'qtin-o'qtin meni maqtab ham qo'yardi:
«Qo'rqmasang bo'ldi. Dayro o'zimizniki...»

Qizaloqlar ham mendan kulishlarini bas qila boshla-
gan, ammo ko'zi suzuk, yanog'i chiqiq o'sha qizchagina
quvligini tashlamas, turib-turib: «Otimni aytmayman!»
deb qolardi.

Nimagaki, birodar, men hali o'sha iyrimning tagiga sho'ng'ib yetib borolmas edim!

Rost, bir-ikki marta yaqinlashgandek bo'ldim. Ammo nimadir bir kuch meni qayoqqadir surib ketayotganini sezib, apil-tapil tepaga chiqib oldim.

Oqtoshni esa, Jo'ra ham, Oqboy ham bir-ikki marta olib chiqishdi. Fahmimcha, bu topqirlik qandaydir darajada omadga ham bog'liq ekan: agar o'sha tosh tushgan yerga borib qolsang, marra seniki!

Biroq...

... Yana bitta nozik joyi borki, bunaqa oqtoshlar suv ostida ming bitta!

Sen otilgan toshni topib chiqishing kerak!

U esa — quyruqdekkinaya yapaloq tosh. O'ta silliq. Bironta joyida kemtigi-cho'tiri yo'q.

Xo'sh desangiz, bu yerda cho'milib sho'ng'ib-moltib olishgach, yana g'allaning boshiga, keyin qurtxonalarga borardik: qorovullik-qo'riqchilik qilardik.

Oqshomlari onam meni tergab qolar, men albatta yolg'on gapirardim: «Jo'ra bilan gaplashmayman!» Ammo onalar o'zi shunaqa bo'ladimi, nazarimda, u sezar edi. Shuning uchun menga olayib-olayib qarardi-da: «Pushaymon bo'lasan, bola. Ana, meni aytdi dersan. U seni bir balo qiladi...» derdi.

Aytmoqchi, bu. — «Oqtosh» o'yini juda qadim-qadim zamonlardan qolgan emish. Jamolning aytishicha, bir zamonlar bu yurtning odamlari yov bosganda, hatto haligiday iyrimlarga tushib, bemalol... nafas olmasdan o'tirisharkan. Yov o'tib ketgandan keyin suvdan chiqisharkan.

Eshityapsizmi, birodar?

Axir, bu juda g'alati, g'irt foydali o'yin... ekanda! Uning yoshlikdan bolalar, hatto qizaloqlar orasida ham urf bo'lgani shundan dalolat emasmi?

To'g'ri, tabiiy sharoit, ya'ni daryoning yaqinligi ham shunday o'yinning yaratilishiga turtki bo'lgan...



Biroq, o'lay agar, foydaning koni bu! Vujudni chiqirishini aytmaysizmi?

Bir kuni o'sha ko'm-ko'k iyrim yonida — kamar soyasida o'tirishgandik. Ustimizdan qaldirg'ochlar chiy-chiy-lab o'tar-aylanar, biz — beparvo, daryoning bosiq shovullashidan muloyim tortib (qizlar ham shu yerda edi, odatdagicha), Jamolning hikoyasini tinglardik.

U sel kelganda, «Dayro»ning qutirishi — qora uylar, kapalarni olib kelishi, daraxtlarni tomiri bilan yulishi, sohillarning bahaybat toshlarga va ba'zan qo'y-qo'zilarning o'liklariga to'lib qolishi, qo'yingchi, beshiklar ham topilishi haqida so'zlar ekan:

— Ey, men suvchi bo'laman-e! — deb qoldi. — Hozir Ulkanda bittayam suvchi qolmadi...

— O'qimaysanmi? — deb so'radi Oqboy.

— Mana, Sho'ro opaning uli o'qiydi... mening uchun ham, — deb qodi-ku birdan. — Nimagaki bundan suvchi chiqmaydi. Shu oqtoshniyam topib chiqolmaydi...

Men shahd bilan o'rnimdan turdim. Jo'ra qo'limdan ushladi.

— Yo'q. Hali erta, uka.

— Tushaman! Toshni tashlasin! — deb turib oldim. Ammo butun vujudim dir-dir titraydi: axir, suvning tubiga tushishim lozim! Tubiga!

Bular kamida uch-to'rt yillab moltigan, sho'ng'ib ko'zni ochib yurishni mashq qilishgan!

Jamol menga qarab qoldi-da:

— O'tir joyingga, — dedi. — Tegib ketdimi? Men bor gapni aytdim-ku? Men suvchi bo'laman. Sen o'qiysan.

O'ylab ko'rsam, gapi rost.

Biroq bularning yonida o'tirgim kelmay qoldi. Sekin chetlanib, chetdagi toshga borib o'tirdim.

Sezib turibman, qizlar ham menga achinishar edi. Anavi ko'zi suzuk quy bo'lsa, ishshayadi.

Hech kimga parvo qilmay, atrofni tomosha qila boshladim. Bir mahal qaragam, tepamizda parvoz qilayot-

gan qaldirg'ochlarning biri shuvillab kamarning shiftiga kirib ketgandek bo'ldi. Tikilib boqsam, huv undan qatning devorida chiporgina ini bor: undan bir-ikkita mallarang boshchalar sariq tumshuqlarini ochib tepaga talpinishar, uya labiga qo'nib olgan qaldirg'och ularga navbat bilan xo'rak yedirar edi. Tumshug'idan-a!

Og'zini katta ochib tutadi. Anavi jinqarchi bo'lsa, boshini suqib yuboradi. Naq jig'ildonidan oladi emakni! Qiziq: tumshug'i onasining bo'g'zini tilmasmikan?

Jonivor, butun umr bo'yi shu tariqa to'ydiradi-ya bolalarini! Keyin bolalari ham...

Men chumchuq deganini tumandagi uyimiz-hovlimizdayam ko'raverib ko'zim pishib ketgan edi. Xo'p, ana so'pito'rg'aylarni ham bu yerda ko'p ko'rdim: ularni «Dasht bulbuli!» deyisharkan. Ular inini buzish yomon ekan...

Ammo jarqaldirg'ochning bolasini ko'rish... Yaqindan ko'rish unga tikilish menga shunchalik qiziq tuyuldiki, o'sha inga chiqib borish yo'lini qidira boshladim.

Qidira boshladim-u, topdim! Ha... Shundoq yonimdan qatga o'rmasam, bemalol chiqib borar ekanman.

«Qat» degani — tog' bag'rilarida bo'ladigan ko'ndalang kesim deyish mumkin: o'sha kesimning tepasidan toshlar uvalanib to'kiladi. Keyin unday joylardan mundayroq kishi engashib yurishi ham mumkin: aytishlaricha, ovchilar yurarmish...

...Axir, ushbu daryo oqib tushayotgan tog' tumani-mizning shimolida-da!

Ha, toqqayam ko'p chiqqanman.

Shoshmang-shoshmang, «ko'rpaning qatiga qo'ydim» degan gapini eshitganmisiz?

Ko'z oldingizga kelgan bo'lsa, bas.

Shunday qilib, qatga chiqishga qaror qilgan paytimda, Jamol Oqboyga baqirdi:

— Bakovul! Toshni ot!



Oqboy irg'ib turib:

— «Ko'zni yuminglar! — deb hayqirdi. — Bir, ikki, uch!

Bolalar «gup-gup» etib, suvga sakrashdi. Girdobga yaqinlashganda sho'ng'ib-sho'ng'ib ketishdi.

Men angrayib turarkanman: «Jamol topib chiqmasinda» der edim. Negadir...

Qarangki, Jamol ham... oqtoshni topib chiqolmadi! Jo'ra ham, Oqboy toshni qayerga tashlaganini bilardi, albatta. Shuning uchun uyam o'zini suvga otib, ikki marta sho'ng'ib chiqdi. Qo'li bo'sh... Bolalar hansirashib, yana joy-joylariga o'tirishdi va toshning nima bo'lganini o'zlaricha taxminlay boshlashdi.

Qizlar bo'lsa endi bularga achingandek o'tirishar va odatdagicha shivirlashar edi.

— E, topmasam, shu yerdan ketmayman! Ketsam, shu yerning suvini ichmayman! — deb yubordi Jamol va tag'in o'zini suvga otdi. G'oyib bo'lib ketdi. Undan keyin boshqalar ham boz suvga sakrashdi: guv-guv-v...

Qizlar iyrim sathiga diqqat bilan tikilisharkan, mening xayolim tag'in qaldirg'och iniga og'di: endi katta qaldirg'och yo'q, uyachadan sarg'ish tumshuqlargina ko'rinardi!

Qatga o'rmalay ketdim. Yumshoq undek tuproq to'kilgan. Mitti qushchalarning panja izlari bor, xolos. Qatning ayrim joylari juda tor — ya'ni, shifti past bo'lib, u yerlardan boshimni xam qilib o'tardim.

Ayrim joylari keng, shift ham baland: bemalol chordan qurib o'tirsang bo'ladi.

Nihoyat, yetdim. Mana qarshimda: tomchi-tomchi loydan yasalgan hovuchdek in. Negadir chinor. Mitti-mitti somon qipiq-lari ham qo'shib yuborilgan.

Tavba, imoratni suvashga, xususan, tom suvoqqa ishlatiladigan loyga somon qo'shishlarini bilardim: suvoq mustahkam bo'ladi... Nahot bu narsani qaldirg'och ham bilsa?

Darvoqe bu sho'rlik qush loyni ham... tumshug'ida keltirgan-a?

Bolalari uchta ekan. Uchchalasi ham meni onalari deb o'ylashdimi, chiy-chiy lab og'izlarini kappa-kappa ochishdi. Voy, og'izlari shunaqayam kattaki, biri ikkinchisining og'ziga boshini tiqsa, bermalol sig'adi. Lekin ko'zlari yumuq. Haqiqatan ham malla.

...Men hali uyaga qo'limni uzatmagan ham edim! Birdan tevaragim chiy-chiy ovozlarga to'lib qoldi va bir juft qaldirg'och zing'illab aylanayotganini ko'rdim. Ko'rdim-u, ular naq ko'zlarimni cho'qib oladigandek chovut solishdi!

Men boshimni egib qoldim. Ular naq tepamda charx urishar, quloqlarimga, bo'ynimga, hatto yuzimga ham qanotlarining shamoli urilardi. Tag'in ko'zimni ochgandim, tag'in...

...Yana boshimni egib qoldim-u, shu bosh o'lgur aylanayotgandek bo'ldi.

«Bas! Tushish kerak!»

Ya'ni, qochish kerak...

Men yuzimni bir qo'lim bilan to'sib, kelgan yo'limga qaradim-u, yuragim orqaga tortib ketdi. Yo'lak juda tik va juda tor bo'lib, uning shundoq pastida...

...Ko'm-ko'k iyrim kilkillab, xuddi bir afsonafiy mahluqqa o'xshab turardi.

Uni ko'rdim-u, tamom bo'ldim.

— Tush! Pastga! Sodiq! — ana shunday chaqiriqlar kelayotganini ham shunda eshitdim. Va qirg'oqqa ko'z qirimni tashlasam, bolalaru qizlar tik turishib, meni imlashayotibdi.

Tavba, ular juda yiroqda turishgandek, kichkina bo'lib ko'rinishdi.

Men tushish uchun bir amallab burildim-da, demak, to'g'ri tushishim lozimligini anglab lol qoldim: qanaqasiga to'g'ri tushaman? Yo'q: boyagidek bo'lib olib, demak surilib-tislanib enishim mumkin, xolos! Bo'lar ish bo'ldi!



Tag'in uyaga o'nglanib olganimni bilaman, qaldirg'ochlarning endi qanotlari yuzimga tegib o'tdi. Va yana bosh o'lgur aylana ketdi. Shunda siljidim-u, u yog'i...

Qatdan quyiga uchdim!

Boshim bilan...

...Suvga kirdim-ketdim: ketyapman, ketyapman. Bir narsani bilamanki, bunday paytda ma'lum bir joyga borganingdan so'ng tashlanishdagi zarbaning kuchi su-sayadi-da, beixtiyor to'xtaysan. Ana shunda tepaga intilasan: qo'l-oyoqlaringni qimirlatsang, bermalol chiqib ketasan.

Hozir esa... to'xtaydigan siyog'im yo'q edi. Birdan ko'zimni ochdim. Ochdim-u, sutdek oq narsani — suvni ko'rdim. Keyin u tiniqlashdi. Keyin baliqmi — bir narsa oldimdan suzib o'tdi. Undan keyin quyiga tikildim-da, beixtiyor yana...

...Quyiroqqa tushish uchun intilganimni sezmay qoldim. Chunki turli-tuman oq-qora toshlar ko'rinib turardi.

Toshlarga qo'lim tekkan zamon menga tanish... haligi oqim zarb bilan surib yubordi. Alpang-talpeng bir toshga yopishdim. Qo'lim chiqib ketgan edi, bir tomirni ushlab oldim. To'xtadim. Ammo butun tanam buralib qoldi.

Tomirni qo'yvorsam, ketaman...

Qo'yvormasam, hademay nafasim qaytadi.

Shu o'y-shu qaror menga quvvat bo'ldi chog'i, bir muddat ko'nglim tinchib qoldi va beixtiyor oq toshlarga tikila boshladim. Ishonasizmi...

...O'sha oqtosh shunday ro'paramda — tomirning tak-kinasida chig'anoqdek bo'lib yotgan ekan!

Tomirdan bir qo'limni bo'shatib, toshni oldim.

Esimda: men butun dahshatni unutgan edim!

Endi, mayli, iloj qancha: bunaqada uzoq turolmayman. Bu yog'iga — suvosti oqimi qay manzilga oboradi noma'lumu, agar biron joyda meni chiqarib tashlaydigan bo'lsa, ungacha ham, demak, nafas olmasligimga to'g'ri keladi.

Bu mulohazadan so'ng: «E, bolalar bor-ku, Jo'ra aka bor! Jamol bor...» deb o'yladim. Va damim ichimga tushib ketayotganini payqadim-u,... tomirni ushlab turgan barmoqlarim bo'shashdi va men oqimga tushib ketdim. Ketayapman. Ko'zim ochiq...

...Oqlik va tiniqlik olamidaman. Ammo bu olamning yashil gilyohlari ham bor. Ular ham uzunasiga o'sgan: suv yo'li bo'ylab. Shuning uchun meni tutib qolisholmaydi. Men esam, ular orasidan sirg'alib o'taman.

Bu ajab bir olam edi: ha,ha! Bunday manzarani faqat tushda ko'rish mumkin! Tushdayam xuddi shunday bo'ladi: ixtiyoring go'yo birovning qo'lidadek.

Sen uning izmida: aqling-hushing o'zingda bo'lsa-da, hech ish qilolmayсан...

Kitoblarda yozishadi-ku, «ko'zimni ochganda, o'zimni kasalxonada ko'rdim», deb.

O'zimga kelibman chog'i, ko'zimni ochsam, chalqancha yotibman. Jo'ra belimga mingandek turib olib, qo'llarimni nari-beriga oborib-obkelyapti. Ko'zlarida... suv tomchisi emas: yosh.

Atrofimda — tepamda bolalar-u qizlar: birlari tik turishibdi, birlari cho'nqayib o'tirishibdi.

Bilmadim, uyalganimdanmi, birdan hushyor tortib ketib, o'rnimdan turmoqchi bo'ldim. Ammo ko'nglim aynib, suv qusdim. So'ngra bir nafas egilib qolib, yana qo'zg'almoqchi bo'luvdim, barmoqlarim og'rib ketdi: qaragam, qo'limda, ya'ni, kaftimda o'sha... oqtosh!

Kaftni ochmoqchi bo'ldim — ochilmaydi: qarishib qolgan.

— Hozir uqalaymiz. Hozir... — dedi Jo'ra va mening turib o'tirishimga ko'maklashdi. So'ngra og'ib ketmasligim uchunmi Oqboy orqamga o'tib, kiftimga tiralib o'tirdi. Qizlardan kimlardir kuldi: xursand bo'lgandan albatta. Axir, bir narsa bo'lsam, men — Sho'ro opaning o'g'li... Tasavvur etasizmi... Tasavvur etasiz.



Xuddi shu vaqt... yiroqdan bir qiyqiriq eshitildi! Hamma alanglab qaradi.

Baland qirg'oq ustida — chamasi bizni quyiga olib tushadigan so'qmoqda bir jiyron otliq turar, ot negadir sapchir, chavandoz yuganni tortib o'rnida aylantirar edi.

Shak-shubhasiz u kishi — mening onam edi.

— Sho'ro opa! Sho'ro... — deyishib qoldi bolalar. Qizlar ham shivir-shivir qilishdi-da, otliq so'qmoqqa tushib va chang-to'zon ko'tarib enar ekan, hamma...

...Jo'radan bo'lak hamma zim-g'oyib bo'lib ketishdi: qochishdi! Yulg'unlar tagiga, qabriston tarafdagi jarlik kamarlariga o'zlarini urishdi.

Ana shunda qirg'oq ustida to'riq otli ham ko'rindi. Va birpasdan so'ng u ham ena boshladi.

— Jo'ra aka, — dedim behol. — Meni... Sizdan iltimos, keting, aka...

— Yo'q, uka... Nimaga? Seni yaxshi ko'raman... Yaxshi bolasan...

— Meni kim opchiqdi?

— Kim bo'lardi.

— Siz-da?

Onam otdan tushib, meni bag'riga bosdi.

— Nima bo'ldi?... Nima?... Nima qilib qo'yding, hoy, dushman? Senimi? Uyga borib bo'psan...

— Ena, Jo'raka meni opchiqdi, — dedim. — Qaldirg'och bolasini ko'raman, deb...

...Rais bobo ham yetib keldi. Har yoqqa razm solib, chamasi bolalar va qizlarni ko'rib, o'g'liga ham razm solib, menga jilmaydi.

— Qalay, moltishni o'rgandingmi? Qo'lingdagi oqtoshku? O', opchiqqan bo'lsang...

— Gapirmang, o'rtoq Boboyev! O'lishga sal qoliptiku buning. Xayriyat, xudo bir asrapti...

— Yo'q, Meni Jo'rakam...

— Tashla u toshni! — deb do'q qilib qoldi onam. — Nimaga uni ushlab o'tiribsan?

Men barmog'imni ochmoqchi bo'ludim... ochilib ketdi!
Kulib, Jo'ra akaga qaradim. Uyam jilmaydi.

Shunda onam:

— O'rtiq Boboyev, buni mingashtiring, — dedi-da,
o'zi jiyronga mindi.

* * *

Oqtosh hamon mening xonamda turibdi. Suzish bo'yicha
musobaqalarda olgan har xil sovg'a-kuboklarim safida.

Lekin bu tosh ularning hammasidan aziz.

Onamning Jo'raga munosabatini so'raysizmi?

Jilla o'zgarmadi: shunaqayam bo'larkan-da, birodar...
Jo'ra hozir do'xtir.

Rais bobomdan uchta ukam bor. Onam ularni yaxshi
ko'radi, albatta.

Ammo Jo'rani...

Mening esa tug'ishganlarim orasida ham... eng sirdoshim,
suyganim Jo'ra aka.





Mahkam **MAHMUDOV**

(1940)

Adib, olim, noshir va pedagog M. Mahmudov 1940- yil Andijon shahrida ziyoli oilasida tavallud topadi.

1957- yil Andijondagi Muqimiy nomli 29- o'rtta maktabni a'lo baholarga tugatib, Toshkent Davlat universiteti (Milliy universitet)ning filologiya fakultetida o'qiydi.

«O'zbekiston ovozi», «Guliston», «Muloqot», «Sirli olam» kabi gazeta-jurnallar hamda «O'qituvchi», G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlari tahririyatlarida qalami charxlandi. «Abadiyat lahzalari», «Hayrat va tafakkur», «Mangu kuy izlab», «Men — men emasman» kabi badiiy, ilmiy-falsafiy kitoblari, Arastu, Forobiy, G'azzoliy, Jaloliddin Rumi, Balzak, Stefan Sveyg, Oskar Uayld, Jorj Sand, Andersen, Edgar Po, Jubron Xalil asarlari tarjimai va sharhlari bilan keng kitobxonlar ommasiga yaqindan tanildi. U «Misr malikasi Kleopatra», «Dehli sultoni Roziyabegim», «Ahli dil», «Rasululloh oilasidagi ayollar», «Sulaymon va Bilqis», «Tolut bilan Jolut», «Sulton Mahmud G'aznaviy», «Boysung'ur ibn Shohruh», «Piri Turkiston — Ahmad Yassaviy» singari tarixiy, diniy, falsafiy hikoya va badiialarida ko'hna tarixning hali ko'pchilikka notanish sahifalarini yoritadi.

SIRLI QASR

(Hikoya)

Jovid Oydagi sanatoriya redaksiyaning topshirig'i bilan borgan edi. Sanatoriya'dagi bemorlar oromgohning yozda juda qizib, qishda juda sovib ketishi haqida shikoyat qilgan edilar. «Tong» gazetasining yangi muharriri mister Kern shikoyatni tekshirish uchun Jovidni yubordi. Aslida Jovidning o'zi Oyga borishga chog'lanib turgandi — og'ir xaslatikka yo'liqqan hamkasbi — rassom qiz Zebo ham shu sanatoriya'da davolanayotgan edi. U borganida Zebo ancha sog'ayib, to'lishib qolgan ekan. Bemorligiga qaramay, tong paytlari va oqshomlari sayr qilib, qanchadan-qancha manzaralarni chizibdi — Jovid bunaqa nafis ranglarni ancha yillardan beri ko'rmagandi. Oydagi kraterlardan biri ko'lga aylantirilib, atrofiga yerdan tuproq olib borilib, gulzor va bog'larga aylantirilgan. Yerning o'zida esa iqtisodiy foyda keltirmaydigan bunday go'zalliklarga o'rin qolmagandi. Sanatoriya rahbarlariga uchrashgandan so'ng Jovid ko'l bo'yida o'tirishganida Zebodan shikoyat xatida ko'rsatilgan nohaqliklarning sabablarini so'rab oldi.

— Hammasi to'g'ri, — dedi Zebo ma'yus kulimsirab. Uning katta-katta qora ko'zlari ko'lning tiniq sathida solanib suzib yurgan oqqushlarda, ammo xayoli Jovidning savolida edi. — Gap shundaki, bu yerning havosi qizib yoki sovib ketishi sanatoriya xizmatchilariga sezilmaydi. Chunki o'zingiz bilasiz, ular robotlar. Bemorlar qizib ketadimi, sovqotib qoladimi, hatto sog'ayib ketadimi, o'ladimi — ularga baribir...

Qizning oqish yuzi ko'ldagi oqqushlar rangiday yana ham oqarib ketdi. U majburan jilmayganicha yuragini ushlab qoldi. Jovid qizning yuragi nozikligini, og'ir gaplarni ko'tarolmasligini bilardi, shuning uchun nega bechorani hayajonlantirdim, deb ichida o'zini koyidi, mehr bilan uning nozik qo'llarini kaftlari orasiga oldi va gapni boshqa yoqqa burdi.

— Esimdan chiqayozibdi, Mardon og'aynim sizga xat berib yuborgan edi...

Mardonning nomi tilga olingach, Zeboning yuziga birdan qizillik yugurdi, bundan o'zi xijolat chekdi shekilli, ko'zlarini undan olib qochdi.

Qiz Mardonni sevarmidi, shunchaki yoqtirarmidi, bunisi Jovidga qorong'i. Ammo shunday g'aroyib, nozikta'b, iste'dodli qizning to'nka Mardonni yoqtirishiga ajablanardi. To'g'ri, reportyor Mardon barvasta, kelishgan, qora tosh, qora ko'z yigit edi. Ammo did, farosat va iste'dod masalasida u robot jurnalistlardan unchalik farq qilmasdi. Zebo shuni bilarmikin? Yoki Mardonning balandparvoz, qaynab gapirishini ehtiros, jo'shqinlik deb tushunarmikin? U bu haqda qizdan so'rab ko'rishni xayoliga ham keltirmasdi. «Kelib-kelib shu to'nka Mardonga hasad qilamanmi?» — degan tuyg'u ham, «Aslida uzumning yaxshisini it yeydi», degan o'kinch tuyg'usi ham Jovidning sertashvish ko'nglida qorishib ketgan edi.

— Javobini qachon yozib berasiz? — Jovid bolalarcha soddalik bilan. Qizning chehrasiga yana bir lahza qizillik yugurdi, u yana ko'zlarini olib qochdi. Jovid esa bir tutam ko'katni suvda chayqar ekan, qizdan javob kutardi.

— Keragi yo'q, — dedi ma'yuslik bilan tanga gulli chit ko'ylagining etagini g'ijimlab o'ynar ekan Zebo. Qiz Mardonning majburan xat yozganini sezganga o'xshardi. Axir rassomlar juda sezgir bo'lishadi-ku. — Bu joylarning havosi yaxshi, tabiati faraxbaxsh. Ammo nimadir, juda muhim narsa yetishmaydi. Nimaligini o'zim ham bilmayman...

Shoir Oyda nima yetishmasligini bilardi — mehr yetmasdi. Bemorlar faqat o'zining sog'ligini va uzoq yashashni o'ylar, o'zgalarning dilida nima borligiga qiziqmas edilar. O'ttizinchi asr axloq qoidalariga ko'ra boshqa odamning ko'nglini ovlash, mehribonlik qilish eskilik sarqiti sanalardi.

— Jovid aka, yangi she'rlaringizdan o'qib bermaysizmi? — erkalanib so'radi qiz.

— Yaxshisi, o'zingiz nimalar chizganingizni ko'raylik, — taklif qildi Jovid. — Keyin she'r o'qish qochmas. Qani, albomni bu yoqqa oling-chi.

Zebo qizg'ish o'tlar ustida yotgan katta uzun albomni qo'lga oldi-yu, ko'rsatishni ham, ko'rsatmaslikni ham bilmay, ikkilanib qoldi.

— Bu yerda nozik sir borgan o'xshaydi, — hazillashti shoir. — Ruxsatingizsiz ko'rmayman...

— Har holda, qanday bo'larkin, ko'pchiligi chala ishlar... Ha, mayli, ko'ra qoling. Aslida ko'rganingiz yaxshi. Agar kulmasangiz, muhim bir sirni aytaman, — qiz ko'l betida suzib yurgan chinor yaproqlariga qaradi. — Bu yerda chizilgan manzaralarning hammasini tushimda ko'rganman...

Qiz bu gapimga kulmasmikin, deb boshini ko'tarib shoirning ko'zlariga tikildi. Jovid kulmas, uning o'ychan ko'zlaridan mayin, sehrii nur taralayotganday edi.

Jovid albomni qo'lga olar ekan, vujudini hayajon chulg'ab oldi.

Olisda — lojuvard osmon bilan tutashib ketgan, niliy gumbazlari botayotgan quyosh nurida sirli tovlanib turgan hashamatli maqbara. Osmon manguiligi bilan bino ulug'vorligi uyg'unlashib, odamni hayratga soladi. Bu ulug'vorlikni ko'rganda odam o'zini manguilikka daxldor sezadi. Bundan o'n besh asr avval qurilgan bu me'morlik obidasini Zebo qayerda ko'rgan ekan? Axir u davrlar haqidagi kitoblar noyob osori atiqqa bo'lib, topish juda qiyin edi. Quyosh turkumidagi sayyoralarni bundan ming yil avval o'zlashtirib, o'z hukmronligini o'rnatgan mirrixliklar bunaqa suratlarni xom xayol mevasi, deyishadi. Chunki ularning fikricha, mirrixliklar kelguncha Yerda hech qanday sivilizatsiya bo'lmagan, XX asrda, ming yil avval esa «Yer odamlari yovvoyilik bosqichida yashaganlar»: Bu gaplarga hech kim, Yer odamlari ham e'tiroz bildirmas edilar. Faqat ba'zi jurnalistlar va yozuvchilar, jumladan, Jovid ham ilgari Yerda yuksak madaniyat yaratilganligi haqida qizg'in maqolalar yozar edilar. Yerdagi va

Mirrixdagi Badiiy akademiyani tugallagan, Adolat ismini Adaga aylantirgan, martabali, mashhur robot — rassomlarning og'ziga tushgan dugonasi nima uchun Zeboning ustidan kulib yurganiga Jovid ilgari unchalik e'tibor bermas ekan. Qaddi-basti Zebodan qolishmaydigan, qirqilgan sochlarini yelkasiga tushirib yuradigan, San'at institutida rasmdan dars beradigan Ada ham aslida iste'dodli san'atkor edi. U Mirrixdagi akademiyada o'qib yurganida boshqa galaktikadan kelgan qandaydir bir rassomga erga tekkan, bir bola ko'rgan. Ko'p o'tmay, begona sayyordan kelgan kuyovi o'qishni tugatib, Adani bir bolasi bilan tashlab ketgan. Ada san'atga o'zini bag'ishlab, keyin erga tegmagan, begona sayyoralikdan orttirgan, yerliklarning tilini bilmaydigan bolasini parvarishlab, ko'p vaqtini robotlar hayotiga doir suratlar chizishga bag'ishlardi. Jovid o'zini san'atga bag'ishlagan bu iste'dodli juvonning hayoti Yer odamlari uchun kerakmasligini tushunar, ammo Adaning o'zi o'z fojiasini tushunmasdi. U qizishib, hech qachon Yerda san'at taraqqiy etgan emas, deb robot ustozlarining san'atiga sajda qilishni qo'ymas edi. Jovid shularni xayolidan o'tkazar ekan, Zeboning yangi rasmlarini Ada yana masxaralab kulishini tasavvur qildi.

Albomning qolgan varaqlarida yana ham g'aroyib, Adaning tili bilan aytganda — noreal rasmlar bor edi. Rasmlardan birida jannatday bog' orasida, marmar hovuz bo'yida soz bazmi ko'rsatilgandi. Azim chinor shoxlari orasidan tushib turgan oy yog'dusida marmar hovuz o'rtasidan otilayotgan favvora, och pushtirang harir ko'ylagining etaklari hilpirab, ikki o'rim uzun sochlari nihol qomatiga chulg'anib, charx aylanayotgan raqqosa, nomi unutilib ketayotgan qandaydir qadimiy cholg'u asboblarni chalayotgan sozandalar — barisi sehrli ko'rinardi.

Shoirning butun vujudini g'alati hayajon chulg'ab oldi. Axir bu manzaralarni u tushlarida ko'p marta ko'rgan edi. Xuddi shoir Jovid singari, Zebo ham tabiatni qattiq sevar, tabiatni esa tarixning uzviy bir qismi deb bilardi.



— Bundan ming yil avval ham Yer yuzida tabiat va tarixning birligini tushungan donishmand odamlar o'tgan, — dedi Jovid qizga rasmlari uchun minnatdorlik bilan boqar ekan. — O'ninchi asrda Forobiy tabiatni himoya qilgan, unga tajovuz qilishni jinoyat deb baholagan ekan.

— Qarang, hamfikir odamlar ming yillardan keyin ham bir-birlarini topib olarkan, — bolalarcha quvondi Zebo.

— Gapingiz to'g'ri, — dedi Jovid maysa ustida ikkala qo'li bilan tizzasini quchoqlagancha ko'lga tikilar ekan.

Quyosh Oyning tog'lari ortiga botib, ko'l yuzini qip-qizil «qon»ga bo'yagan, olisdagi oqqushlar ham qizilga bo'yalib, ko'rinmay ketgan edi.

Ular xayrlashishdi.

* * *

Jovid kosmibusdan tushib, ko'prik tomon yo'l oldi. Ko'prikning o'ng qirg'og'ida o'ttiz qavatli yangi bino tushgan. Bino oldida baquvvat buldozer tog'-tog' tuproq uyumi-ni jarlik tomon surardi. Jarlik yonbag'rida necha asrlardan beri yashab kelgan baquvvat chinor shoxlari uchigacha ko'milib qolay degan edi. Bundan bir yil avval uning qalin shoxlari orasida qushlar sayrar, ishxonasiga o'tayotgan shoir Jovid qadamini sekinlatib, qushlar xonishini uzoq-uzoq tinglar, xayolga cho'mar edi.

Ikkinchi qavatida redaksiya joylashgan ko'rimsizgina imorat oldida yuz qavatli savdo markazi binosi qad ko'tara boshlagach, tevarak-atrofdagi pastak, yakkam-dukkam hovli-joylarning aholisi allaqaylarga ko'chirib yuborildi. Ming yillardan beri bolalarning qiy-chuvlari, shovqin-suronlari tinmagan baland-past ko'chalardan, atrofga fayz kiritib turgan sershox oq tut, marvartak tutlardan endi asar ham qolmadi. Savdo markazi binosi uzoqlardan ham ko'rinib tursin uchunmi, shu oradagi hamma balandliklar o'yilib, pastliklar tuproq-shag'al bilan to'ldirildi. Ham-mayoq tep-tekis bo'lib, sahro tusini oldi.



Ariqlarda suv jildirab oqib turgan, bolalar oqizoq o'ynaydigan soya-salqin joylarni endi quyosh ayovsiz qizdirar, bilqillagan asfaltdan qoramoy hidi anqirdi.

Shoir Jovid oy sayin, kun sayin ko'milib borayotgan chinorga ma'yus boqar ekan, hayotning barcha jabhalarida baland-pastliklar rang-barangliklar yo'qolib, hamma narsa bir xillashib borayotganini his etdi.

«Tong» gazetasining sahifalaridagi materiallar ham bir xillashib, qiyofasizlashib borardi. Gazetada endi qaysidir zavodda qancha ming yangi robot tayyorlangani, bu robotlar qanday kasbga ixtisoslashgani, ular butun Quyosh sistemasidagi sayyoralarga qancha iqtisodiy foyda keltirayotgan yozilar edi. Ko'pincha, gazeta sahifalarida yangi robotlar ixtiro qilgan injenerlarning suratları bilan birga og'ir mehnat qilishga chidamli, ko'p yillar ishlayotgan mashhur robotlarning suratları bosilardi. Injenerlarning ham, robotlarning ham qiyofalari ko'pincha bir-biriga o'xshab ketar edi. Buning sababini tushunish qiyin emasdi. Injenerlar robotlarni o'zlariga o'xshatib ishlar edilar. Bu robotlar shunchalik mukammallashgan va odamlar shunchalik jo'nlashgan edilarki, go'yo ular o'rtasidagi tafovut yil sayin tugab borardi. «Tong» redaksiyasida ham Jovid bilan birga ko'pgina jurnalist robotlar ishlardi. Eski muharrir mister Ivens Rouzning ketishiga ham redaksiyada robotlarning ko'payganligi sabab bo'ldi shekilli. Mister Rouz redaksiyada robotlarni ishlatishga qarshi edi. To'g'ri, robotlar kam gonorar olsa ham uzoq-uzoq sayyoralarga komandirovkalarga borishar, yo'lda hech qanday falokatga uchramay, eson-omon qaytib kelishardi. Ammo ular borgan joylaridagi muhim voqealarni butun murakkabligi bilan tushunishga ojizlik qilishar, shuning uchun nima yangilik ko'rishsa, ma'nosiga chuqur yetmay, «ajoyib yangilik», deb maqtab kelaverar edilar.

Bir kuni Sa degan jurnalist robot Zuhal sayyorasining tog'li qishlog'ida pastlikdan do'nglikka qarab qor kurayotgan robotlarning ishini maqtab kelibdi. Mister Rouz jurnalistni qattiq urishib berdi. «Sizda farosat bormi? — dedi

u do'ng va yaltiroq peshonasidagi terni shoyi ro'molchasi bilan artar ekan. — Qorni balandga kurasa yana erib pastga oqadi, faqat suv bo'lib, buni boshlang'ich maktabda o'qitishmaganmi?»

Boshlang'ich maktabda robotlar o'qimasligini muharrir xayoliga ham keltirmagan edi.

Robot jurnalist uchun muharrirning terlagani ham, yuzi jahldan qizarib ketgani ham, hansirab gapirishi ham ahamiyatsiz edi. Chunki u injener bergan programmaga muvofiq, har qanday tashqi ta'sirlardan zararlanmay ishlashi, to'xtovsiz ishlashi kerak edi. Buning ustiga u faqat ijobiy materiallar yozishga moslashtirilgan edi. shuning uchun u mabodo biror yerda odam o'ldirgan banditni uchratsa, uni ham qahramon deb maqtab kelaverar edi. Bosh muharrir shunday xabar yozib kelgan «216-S» degan robot jurnalistni ishdan bo'shatmoqchi edi, bo'lmadi. Robotlar Markaziy boshqarmasining talabi bilan mister Rouzning o'zi vazifasidan chetlashtirildi. Hozir qayerda ekan u, o'ylardi Jovid. Bosh muharrir Jovidning istiqboli porloq, daho shoir ekanligini tushunar, gazetasida uning she'rlariga tez-tez o'rin berar edi. Mister Rouz ketdi-yu, redaksiyada robotlar yana ko'paydi.

Jovidning she'rlari juda ixcham, bo'yoqlarga boy, falsafiy ruhda edi. U ko'pchilik she'rlarida alvon chechaklarni, yuksak tog'larni, musaffo tonglarni, atlasrang ufqli oqshomlarni ulug'lar, uning she'rlari olis sayyoralardagi oddiy dehqonlarga yoqar, ammo poytaxtdagilar umrida qishloqni, tog'larni ko'rmagani uchun ularning go'zalligini his etolmas edilar. Jovidning she'rlarini ayniqsa robotlar tushunmas, idrok etolmas, shuning uchun yoqtirmas edilar. Ayniqsa, ba'zi zamonaviy modernistik bo'yoqli she'rlari robotlarni g'azabga keltirardi. Bir malakali tanqidchi robot, ismi sharifi 213 edi shekilli (robotlarning ko'pchiligi raqam bilan atalardi), Jovidni «ko'zlarimda suyuq haya-jon», degan satrlari uchun rosa do'pposlagan, benzin, atseton, neft suyuqdir, ammo nega hayajon suyuq bo'lar



ekan, deb masxara qilgan. Robotning hayajon nimaligini, uning rang-tusini bilmasligiga ajablanishning keragi yo'q edi, shuning uchun Jovid bunaqa tanqidga unchalik e'tibor bermasdi. Zeboning romantik ruhdagi rasmlarini ham ular nayza uchiga olishlari turgan gap edi. Jovid endigina portfelida noyob albomni — bir yarim ming yillik tarix manzaralarini ko'tarib kelayotganini esladi va yana butun vujudini hayajon chulg'ab oldi...

Yangi muharrir, mister Kern shoirni odatdagiday sovuq kutib oldi. «Qani, Oydan nima yangiliklar olib keldingiz», degan nigoh bilan uni divanga taklif qildi.

— Sanatoriy mashmashasida kim aybdor ekan? — odatdagiday, tez asosiy masalaga o'tdi muharrir va oldindan xulosa qildi. — Har holda robotlar emasdir.

— Robotlarning xuddi o'zi, — gapni cho'zib o'tirmadi Jovid ham. — O'shalarining aybi bilan ko'pchilik bemorlarning o'pkasi shamollagan...

— O'jarlikning oqibati bu, — keskin gapirdi yangi muharrir. — O'sha bemorlaringiz vaqtida o'pkalarini sun'iy nusxaga almashtirishmagan. Yuraklarini ham.

— Axir xalqaro qonunga ko'ra yurak va o'pkalarni almashtirish hamma uchun majburiy emas-ku!

— Ha, bilaman, — dedi muharrir qonunning shu moddasidan norozi ohangda. — Ammo men odamlarning osoyishtaligini o'ylab gapiryapman. Mana, robotlarni oling. Ular deyarli kasalga chalinmaydi, odamlardan uch-to'rt hissa uzoqroq yashaydi.

— Gap uzoq yashashda emas. Erkin yashashda.

— Ha, bilaman. Ammo tez o'lgandan tez o'lmagan yaxshiroq. Buni yosh go'dak ham tushunadi.

— Hammamiz ertami-kechmi, yo'qlikka mahkumimiz. Ruhliy boyliklarimiz esa mangu. Shunday ekan, ruhiy kamolotni o'ylashimiz kerak. Buni yoshi ulug'lar ham tushunavermaydi.

— Menga aql o'rgatmang, yoshlik qilasiz, — g'azabi qaynadi muharrirning. O'rnida boshqa odam bo'lsa, rangi

oqarib, yuragi sanchib qolishi mumkin edi. Ammo boshliq o'zi maqtagan robotlarday hech narsadan hayajonlanmas, xafa bo'lmas, quvonmas edi. Bunday osoyishtalik, loqaydlik o'zgalarning tashvish, hayajonlari; g'am-kulfatlari evaziga qo'lga kirishini Jovid yaxshi bilardi. Shunga qaramay, shef qo'l ostidagilarning hammasi sog'lom va osoyishta yashashini, yo'q, ishlashini o'ylardi. Chunki uning aqidasi ko'ra, ishlashdan tashqari yashash tarzi yo'q edi. Agar biror xodim ishlashdan boshqa narsani o'ylay boshlasa, sezgir asboblarni darhol bilib, rahbarlikka yetkazishar edi. Muharrirning xonasidagi nazoratchi mashinasining ekranlarida qaysi bo'limda qaysi xodim nima bilan shug'ullanayotgani ko'rinib turardi. Voqealarni mexanik asboblarday aniq va sovuqqonlik bilan aks ettirish va har xil murakkab hayajonlar ta'siridan qutqarish uchun deyarli barcha xodimlarning yuraklari almashtirib qo'yilgandi.

Jovid suhbatni yana ijodiy safar mavzuiga burdi.

— Darvoqe, mister Kern, men Oydan sensatsion yangilik olib keldim. — Bu — talantli rassom Zeboning tushida kashf etgan tabiat manzaralari. Bularning reproduksiyalarini «Tong»da e'lon qilsak, geograf-biolog va tarixchi olimlar o'rtasida rosa shov-shuv qo'zg'aladi. Shunday qilmasak, gazetamiz materiallari bir xillashib, juda nursizlashib ketyapti. Bunaqada o'quvchilarimizdan ayrilib qolishimiz hech gapmas.

Muharrir Jovidning fikrini diqqat bilan tinglagach, bir zum o'ylanib qoldi.

— Qani, rasmlarni bu yoqqa oling-chi.

Jovid portfelidan avaylab albomni oldi va mister Keriga uzatdi. U birinchi sahifa muharrirda qanday taassurot qoldirar ekan, deb ichki bir hayajon bilan tikildi.

Muharrirning qizil, lo'ppi yuzida, ko'zoynagi ostidagi jigarrang ko'zlarida hech qanday o'zgarish ko'rinmadi.

— Qadimgi odamlarning didiga ko'ra, bu go'zal imorat deb sanalgandir, ammo o'ttizinchi asr estetikasi, ayniqsa,

Mirrix erasing estetikasi bunday go'zallikni rad etadi. Bu yerdagi murakkab naqshlarga sarflangan mehnat, mablag' va asablar bilan hozir' mingta yuz qavatli universal magazin qurish mumkin. Har holda, biz buni gazetamizda e'lon qilolmaymiz. Mabodo, men sizday iste'dodli jurnalist va shoirning gapiga ishonganimda ham Mirrixdagi matbuot trestining rahbarlari meni mahalliychilikda, ya'ni Yerning o'tmishini sevishda, Yer ahlini ulug'lashda ayblashlari turgan gap.

— Bu rasmlarni boshqa sabab bilan ham berish mumkin.

— Qanday sabab bilan? — qiziqdi mister Kern.

— Ruhiy fenomen — «Tushdagi kashfiyot» sarlavhasi bilan bersak-chi? Gazetxonlarimiz orasida qo'lma-qo'l bo'lib ketadi.

Muharrir keskin e'tiroz bildirdi.

— Axir tushunsangiz-chi! Yoshingiz o'ttizdan oshibdi-yu, aqlingiz kirmabdi. Biz uchun gazetxonlarimiz fikri-ning hech qanday ahamiyati yo'q. Gazetxonlarimiz bizni u yoqdagilar ma'qullashsa bo'lgani... — muharrir kulimsirab, qo'lini ko'tarib, shift tomonga ishora qildi.

Shoir mister Kern bilan suhbat tugaganini tushundi va albomni avaylab portfeliga joyladi.

Chiqib ketayotganida muharrir, muhim gapi esidan chiqqanday, shoirni to'xtatdi:

— Darvoqe, yanagi borganingizda Zeboga tushuntirib qo'ying. Agar gazetamizda bundan buyon ham ishlashni istasa, bunaqa «durdona asarlar» yaratishni bas qilib, tushlarini faqat suvga aytsin, xa-xa-xa...

Jovid eshikni qattiq yopdi.

Uzun koridorda olisdan Mardon uni ko'rib qo'l silkitdi:

— Yaxshi keldingmi? Qanday yangiliklar bor?

— Hammasi eskicha, — qo'l siltadi Jovid va madaniyat bo'limi eshigini ochdi... Orqasidan Mardon xonaga kirdi.

— Yangiliklar ko'p, — ma'noli shivirladi Jovid. — Bir vaqtlar Yerda ham madaniyat bo'lgan ekan...

Erkin MALIK

(1941)



Erkin Malikov 1941- yilda Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanida tug‘ilgan. 1964- yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining kutubxonachilik fakultetini tugatgan. Keyin turli gazeta va jurnal tahririyatlarida, nashriyotlarda va O‘zbekiston radioeshittirish qo‘mitasida mas’ul lavozimlarda xizmat qiladi. Ayni paytda Sharq nashriyot-matbaa aksionerlik kompaniyasi bosh muharririyatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Erkin Malikovning «Bugunning qaqqajonlari — ertaning qahramonlari», «Champo otli ilon», «Ular mening do‘stlarim», «O‘qilmagan sahifalar», «Subhidam hikoyalari», «Ona shahrim — Toshkentim» kabi o‘ndan ortiq kitoblari chop etilgan. Bu kitoblarda bolalar ichki dunyosining sirli nuqtalari mahorat bilan ochib berilgan.

Adibga «7[^]-da qayta qurish» kitobi uchun O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G‘afur G‘ulom nomidagi mukofoti berilgan. U «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist» unvoniga ham ega.



XOTIRA

Yaqinda buvijonimga yil berdik. Ularni xotirlab kelgan odamlarni ko'rib suyunib yurdim. Lekin kechga borib... xuddi buvijonimni bugun qabristonga qo'yib kelgandek bir ahvolga tushdim. Bunga otin oyi sabab bo'ldilar. Ular oyim-larga: «Endi yosh narsa bundoq yurabermang. Ota-ona o'lmoq meros, ustingizdagi ko'kni yeching-da, chiroyli-chiroyli ko'ylaklaringizni kiyib yuring, taqinchoqlaringizniyam taqib oling, bo'ldi, yetar, esdan chiqaring, el-yurtga qo'shiling, to'y-to'kislarga boring», dedi.

Qarang-a, buvijonimni esdan chiqarib bo'larkanmi? Yaqinda tug'ilgan kunlari bo'ladi. O'sha kuniyam shogirdlari keladi. Buvim butun qishloqni o'qitganlar. Yig'ilishsa bormi, hovlimiz torlik qilib qoladi.

Men tug'ilgan kunni adam bilan oyimlarga eslatdim.

— Yaxshi, tayyorgarlik ko'rib qo'yamiz, — dedilar oyimlar.

Ammo men mehmonlarni hech qachon buvijonimdaqa qilib kutib ololmasligimizni sezib, ichimdan ezilib ketdim. Buvijonim mehmonlarini romli ayvonda kutib olardilar. Biz ham shu yerga joy qildik. Yodimga mis samovar tushdi. Buvim mehmonlarni samovar choy bilan siylardilar. Samovar buvim o'lgandan beri ko'rinmay qolgan edi.

— Oyi, samovarimiz qayoqda? — deb so'radim. Adam oyimlarga, oyim adamlarga qaradi.

Adamlar qo'l fonarlarini olib yerto'laga tushib ketdilar. Eslasam, buvijonimdan keyin bir marta ham samovarda choy ichmagan ekanmiz.

Men shu kuni hatto samovar choyini ham uddalay olmasligimizga ko'zim yetdi. Buvijonim samovarda bir kun suv qaynamasa mazasi chiqadi der edilar. Samovarning o'txonasiga bir yildan beri cho'g' tushgani yo'q. Unda qaynagan suv qandoq qilib buvijonimning choyiga o'xshasin endi?

Tug'ilgan kun keldi. Dasturxonlar bezaldi. Mis samovarda choy qaynadi. Quyosh qishlog'imizning baland-past uylari orqasidan o'zini ko'rsatdi. Men buvijonim o'rgatganlaridek qo'l kuyar-kuymas qilib obdastaga suv tayyorladim. Qo'l sochiqni yelkamga tashladim. Adamlar darvozaning bitta tabaqasini ochib, tiq etsa shu tomonga qarab, hovlida u yoqdan, bu yoqqa borib kelib yuribdilar. Oyimlar oshxonada. Soat to'qqizga zang urdi. Buvimning o'quvchilari ko'chaning bir joyiga to'p bo'lishib, keyin qatorlashib kirib kelishardi. Bari katta yoshdagi odamlar. Darvozada birinchi bo'lib Olim aka, Sobir aka, Bahrom aka deganlar ko'rinishardi... Har birining qo'lida qizil chinigullar. Buvijonimlar ular bilan bittama bitta yelka olib ko'rishardilar. Kelgusi yili ham shu kunlarda xudo ko'rishtirsin deb duo qilardilar.

Soat to'qqizdan osha boshladi. Keluvchilardan hamon darak yo'q. Adamlar hayron. Oyimlar oshxonadan qarab-qarab qo'yadilar. Kallamga bir fikr keldi-yu, yugurganimcha uyga kirdim. Qandildagi chinni gullarni oldimda hovliga chiqdim.

— Ha, — deyishdi adam bilan oyim baravariga.

— Gullarni qabrlariga qo'yib kelaman.

Oyimlar adamlarga qaradilar, adamlar oyimlarga. Ularni birdan chiroylari yorishdi. Yo'lga tushdik.

— O'lding, o'chding, deganlari shu-da, — dedilar oyim xafa bo'lib. Kelishmasa satqai sar...

Qabristonga kirib boryapmiz. Hammayoq yam-yashil. Baland-past, qabr toshlari... Mevali daraxtlar gullagan, archalar har doimgidek ko'm-ko'k. Maysalarning rangi shunaqangi tiniqki, xuddi birov yuzini bittalab yuvib chiqqandek. Bosib, payhon qilging kelmaydi. Buvijonimning qabrlariga yetib ham keldik. Keldigu, hayratdan qotib qoldik. Buvijonimning qabr toshi gullarga ko'milib yotardi. Oyim bilan adamning oyoqlari tolib, o'tirib qolishdi. Keyin ho'ngrab yuborishdi. Men bo'lsam qabr toshlari orasidan, gul egalarini izlayman. — Olim aka, Bahrom

aka, Sobir aka... Biroq qabriston jimjit, hech kim ko'rinmas edi. Bahor shamoligina maysalar yuzini silab-siyab chopardi.

NIMA QILIB QO'YDING, SHERZOD?

Solijon aka ko'z kasalliklari shifoxonasida ancha yotib, davolandi. Nihoyat shifo topib, uyiga qaytadigan bo'lib qoldi. Ammo og'ir, bosiq bu odam nimaga-dir uyiga ketishga oshiqmas edi. O'ziga bog'liq bo'lmagan bir narsa ipsiz bog'lab turardi. Uning o'y-fikri jarrohlik xonasida. Kasalxona yo'laklari bu kuni bir muncha tinchib qoladi. Sababi oq xalat kiyganlarning ko'pchiligi ichkarida bo'lishadi. Solijon akaning o'y-xayollari jarrohlik xonasida ham deb bo'lmas edi. U go'yo shaharning ko'p qavatli uylari orasida Sherzod degan bolani izlardi. Sherzod yerga ursa ko'kka sapchiydigan, tinib-tinchimas bola. Maktabga ham yolchitib bormaydi. Og'zidan saqich, qo'lidan cho'zma tushmaydi. Cho'ntagi to'la tosh. Undan uchib-qo'nib yurgan qushlar ham bezillaydi. U xalitdan tosh-bag'ir deb nom chiqargan.

Ajab, Sherzod haqida ko'pchilik nega shunday deb o'ylaydi. U dunyoga shunaqa bo'lib tug'ilganmi?

Sherzod kamdan-kam xursand bo'lib yuradi. U uyiga kirishga shoshilmaydi. Ko'chada yuraversam deydi. Adasi ichadi, oyisi bilan urush-janjal qilaveradi.

Sherzod ham adasiga o'xshab o'rtoqlariga baqiradi, arzimagan narsadan bahona qilib ularni do'pposlaydi. Ulug'bekni ham tutvolib urdi. Ulug'bek uylariga qochib chiqdi-da, balkondan turib uni so'kdi. Shunda Sherzod... sini ishga soldi. Tosh Ulug'bekning o'ng ko'zini

Solijon aka yotgan xonaga olib kirishdi. Ular... lishishdi.

Ulug'bek ekan, Ulug'bek kimligini bilasan-so'radi Solijon aka.

— Bilaman, u kishi podsho bo'lganlar, keyin yulduzlarni ko'p o'rganganlar. Men ham yulduzlarni o'rganishni yaxshi ko'raman.

— Qiziq-ku, — dedi Solijon aka, — yulduzlarni qandoq qilib o'rganib bo'ladi?

— Qutb yulduzini bilasizmi?

— Eshitganman, lekin u haqda hech narsa bilmayman.

— Kechasi adashib qolgan odamlar, kemalar, hatto qushlar ham Qutb yulduziga qarab, yo'llarini aniqlab oladilar, — dedi Ulug'bek.

— Mobodo sen Cho'lpon yulduzi haqida gapirmayapsanmi? — so'radi Solijon aka.

— Cho'lpon yulduzi boshqa. Qutb yulduzi boshqa. Cho'lpon yulduzi tong mahali ko'rinadi. Qutb yulduzi kechasi bilan bir joyda turadi. Osmondagi hamma yulduzlar uning atrofida aylanishadi. Qutb yulduziga qarab, boshqa yulduzlarning harakati o'rganiladi.

— Qoyil, — dedi Solijon aka hayratga tushib, — ismingga munosib bola ekansan.

Ular o'rtasida bunaqa suhbatlar tez-tez bo'lib turar, Ulug'bekning quvnoqligidanmi ko'zidagi jarohati ham yodidan ko'tarilib ketardi. Biroq Ulug'bekning o'ng ko'zi kun sayin ich-ichiga botib, puchayib borardi.

— Sen o'ng ko'zingni ochib yur. Bo'lmasa tuzalgandan keyin ham ko'zingni qisib yuradigan bo'lib qolasan, — deb dashnom berardi Solijon aka.

Ammo Ulug'bekni oldinda jarrohlik ishi kutayotganini eslaganda Solijon akaning yuragi oqruga tortib ketardi. Nahotki...

Bugun Ulug'bekni operatsiyaga olib kirib ketishdi. Ak-siga olib Solijon akaga javob tegdi. Solijon aka xonani bo'shatdi-da yosh do'sti Ulug'bekni kuta boshladi. Ish-qilib, yarim jon bo'lib qolmasinda! Shu yoshda dunyoga bir ko'z bilan qarab qolmasin-da... Nima qilib qo'yding, Sherzod?!



CHAMPONING O'LIMI

Men sizga Champo voqeasini aytib beraman. Cham-po deganim bu oddiy ilon. Bu nomni tasodifan o'ylab topganman. Men bog'hovlimizga ajoyib va g'aroyib, zaharli va zaharsiz, uzun-qisqa ilonlar borligini, ularni hech qachon o'ldirib, bezovta qilib bo'lmasligini shu yerlik odamlardan eshitar edim. Aslida nafaqat ilonga, pashshaga ham ozor bermasam deyman. Biroq men o'sha sirli ilonlarni juda-juda ko'rishni xohlardim. Chunki men o'z hayotimda ko'plab ilonlarga duch kelgan, ularning tusi va angori o'sha yashayotgan muhitiga o'xshashini ko'p kuzatgan edim. Keyin hayotimda ilonlar bilan bog'liq ajabtovur, eslasa odamning eti junjikadigan voqealar ham bo'lib o'tgan edi.

Bahor oxirlab, pichanlar o'rilgan payt. Bog'hovlimizdagi hali o'zlashtirilib ulgurmagan yerlarga ham o'roq tushgan. Navbatdagi dam olish kuni bog'hovliga qadam qo'yar ekanman, pichanlar bir tekis o'rilib, so'qmoqlar ochilib qolganligini ko'rib dilim yayrab ketdi. Bolaligim o'tgan Bo'zsuv bo'ylarini esladim. Ayni pichan o'rilgan paytlarida ilonlarning ini buzilardi. Har qadamda suv ilonlarini uchratish mumkin edi. Ular shuvillab oyoq tagidan o'tar va hali qurib ulgurmagan pichan tagiga kirib berkinardi. Ba'zilari pichan ustiga cho'zilib quyoshdan bahra olardi. Men o'shanday damlarda ham ilonlarni kam uchratardim. O'rtoqlarim undoq katta, bundoq katta ilonni ko'rdim deb maqtanishardi. Bir odamdan ilon yilida tug'ilganlarning ko'ziga ilon kam ko'rinadi. It yilida tug'ilganlarni it qopmaydi, deganini eshitgan edim. Bundan chiqdi, ilon yilida tug'ilganlarning ilonlarga aloqasi bor ekan-da, deb o'yildim. Ammo bir kuni o'sha ko'zimga kam ko'rinadigan ilonlardan biri... ha, meni zaharlab qo'yishiga ozgina qoldi. O'n-o'n bir yoshlarda edim. Ammamlarning uyida yashardim. Ammamning eri Majid pochcham urushdan yarador bo'lib qaytgan, tanasining

allaqayerda qolib ketgan temir parchasidan azob chekar edi. U kishi o'sha og'riq bilan olisha-olisha olamdan o'tib ketdilar. Ammallar uch go'daklari bilan beva qoldilar. Shundan keyin bu yerga kelib qoldim. Ammam kasalxonada ishlar, bir kecha-yu bir kunduz uyda bo'lsalar, bir kecha-yu bir kunduz ishda bo'lardilar. Bizning Zoya otliq oq echkimiz bo'lardi. Sersut edi. Suti ham qaymoqli, shirin. Ammam yo'q paytlarida echkini sog'ish, sutni kosalarga quyib, chanbaraklarga o'rnatish menga qolardi. Hovlimizdagi omonatgina qurilgan chaylaga to'rtta chambarak o'rnatilgan, ular kosalarning katta-kichikligiga qarab yasalgan edi.

Men kichkina chambarakka endigina emaklay boshlagan jiyanim Rixsining ulushini, undan keyiniga esa to'rt yoshli Ergashning, undan keyiniga Yo'ldoshning ulushini bir-bir joylardim. Oxirgi kattaroq chambarak meniki edi. Chamrakdagi sutlar kechasi bilan salqinda qaymoq olar, nonushtaga zog'ora nonni bo'ktirib mazza qilib yeb olardik.

Navbatdagi shunday nonushtadan keyin men o'zimni nimagadir boshqacha, lohas seza boshladim. A'zoyi badanim qizib, havo yetishmayotganday bo'laverdi. Biroq biror yerimda qattiq og'riq sezayotganim yo'q. Jiyanlarimga qarayman: ular qorinlari to'ygach, men bilan ishlari yo'q, o'ynab o'tirishardi. Shu payt allanarsa meni bog'ga boshladi. Nuqul qo'llarim bilan o'sha narsani olib tashlamochi bo'laman, qo'limga esa hech narsa ilinmaydi. Oxiri madad istab qo'shni hovliga yuzlandim. Mamariza tog'a ko'rindilar. U kishi domla edilar. Hovlida katta qanor qopni yo'rg'ab o'tirardilar. Aftidan, somon olib kelishga otlangan. Men ikki hovlini bir-biridan ajratib turadigan ariqchadan sakrab, tog'aning yonlariga o'tdim. Tog'a meni ko'rdilar-da, nima deysan degandek yuzimga qaradilar, men u kishiga tovushim bo'g'ilib zo'rg'a salom berdim va bir amallab g'alati holatni tushuntirdim.

Tog'a qanor qop bilan bigizni bir chekkaga qo'yдилarda-da, shoshmay o'rinlaridan turdilar. Keyin qani qo'lingni



berchi, deb bilagimdan bir zum tutdilar. Ko'zimning oqini ko'rib:

— Nima yeding? — dedilar.

Men nonushtada nima yegan bo'lsam o'shani aytdim.

— Kosadagi sut qayerda turgan edi? — yana so'radi tog'a.

— ...

Shundan keyin Mamariza tog'a sal shoshib qoldilar. Qo'limdan yetaklab hovlimizga o'tdilar. Men ularga chayla tagidagi chambaraklarni ko'rsatdim. Tog'a bir zum chaylaning shox-shabbalari orasiga tikildilar-da, seskanib ketdilar. Seskanganliklarini bilagimni qisib, ushlab turgan qo'llaridan bildim. Ammo men tog'a qarab turgan joyga qarab hech narsani ko'rmadim. Aftidan, ko'zlarim ham xira tortib borar, havo etmayotganidan chuqur-chuqur nafas olardim. Tog'a yetaklaganicha ariqcha bo'yiga olib bordilar. Va shu yerda o'sgan toldan bir necha xivchinni sindirib oldilar. Shu payt xivchinlar qarsillab elkamga tushib qoldi-ku! Iye, nimaga?! Tog'aning qo'lidan siltanib chiqdim-da, qochdim. Tog'a bo'lsa meni quva boshladilar. Xivchinlar goh yalang'och oyoqlarimga, goh boshim aralash yelkamga tushib qoladi. Men kechirilmas bir ish qilib qo'yganimni payqadim. Shunga jazo olardim chog'i. U kishi har zamonda: «Ahmoq, bachchag'ar! Yetib olsam go'shtingni mayda-mayda qilaman», deb qo'yardilar. Jiyanlarim mening bu holimni ko'rib, hangu-mang bo'lib qolishgan. Men hovli bo'ylab tinimsiz yugurar, tog'adan o'zim bilmagan gunohim uchun yolvorib kechirim so'rardim. Bu orada men ham terga botib, hansirab qoldim. Men boyagi azobni ham unutib, oxiri yiqilib qoldim. Ammo qahri qattiq tog'a bas qilay demas edi. Kaltakdan qutulish uchun yana turib qocha boshladim. Endi men og'zimga kelgan so'zlar bilan tog'ani bo'ralab so'kardim. Tog'a battar jahl bilan meni quvar, xivchin tegmagan joyim qolmagan, hamma yog'im lovullab yonar edi. Oxiri yerga yotib qoldim. Tog'a ham bir ahvolda yonimga cho'kdilar.

Duo o'qib, dam soldilar. Men urganlari nimasi-yu, dam solganlari nimasi, deb jig'ibiyron edim.

— Qani, — dedi u kishi. — Ko'zingni och-chi?

Men jahl bilan boshimni chetga burdim.

— Senga aytyapman? Ko'zingni och! Yo, yana kaltak eging kelyaptimi?

Men shundagina tog'aning bu savalashlari va duo o'qishlarida bir sir borligini angladim-da, tog'aga itoat qildim. Tog'a ko'zimning paxtasini ag'darib ko'rdilar-da: «Ha, bo'пти», dedilar xotirjam. Keyin muloyim tikilib:


— Bundan keyin chamberakka sut qo'yganda, albat-ta, ustini yopib qo'y. Ilon sut ichaman deb zahar ham solib ketibdi. Yaxshiki anovi jiyanlaringni kosasiga tegmap-ti. Xudo saqlabdi.

Men qushdek yengil bo'lib qolgan edim. Lekin a'zoyi badanim kuygandek jazillardi. Tog'a yana dedilar:

— Bir yomonning bir yaxshisi, endi seni ari ham, iskabtoparlar ham chaqmaydi, mazza qilib yurasan. Un-cha-muncha ilonning zahri ham zahmat etkazmaydi. Shunaqa!

Endi bilsam rahmatli Mamariza tog'a o'shanda mening tanamdagi ilon zahrini xivchin-u va ter bilan haydab chiqargan ekanlar.

ILONLARNI QANDOQ QILIB YEGANIMIZ HAQIDA

sha yili qishlog'imizga allaqanday tilini anglab bo'lmaydigan ozg'in, qoracha odamlar ko'chib kelishdi. Kattalarning aytishicha, ular xitoyliklar ekan. O'sha tomonlardan surgun qilinibdi. Surgun qilingan-lar kimningdir bo'sh uylariga, yerto'lalariga, ombor-xonalari-ga joylashishdi. Bechoralarning na ko'rpa-to'shklari, na qozon-tovoqlari bor. Qishloq odamlari ana shu zarur narsalar bilan ularning turmushini to'kis qildilar. Kirdi-chiqdi, bordi-keldi boshlandi. Biz esa bolalari bilan o'ynar edik. Ularning bolalari ko'proq qishloqdagi dastyori yo'q



xonadonlarining mollarini boqishga yollanishdi. Biz har kuni Bo'zsuv bo'ylariga mollarni haydab ketardik. Avvallari dala-da choy qaynatib ichish, dasturxon tuzash degan narsalarga e'tibor bermas ekanmiz. Xitoylik bolalar kelgach, tush paytida ham mollar yonida qoladigan bo'ldik. Ular orasida bitta ozg'in, uzun bo'yli, hamma ish qo'lidan keladigani bor edi. Biz oshpaz deb chaqirardik. U ba'zan bizga o'sha dalani o'zida hammaning sigiridan oz-mozdan sog'ib, shirguruch pishirib berardi. Allaqanday o'tlardan choy damlab ichishardi. Ammo bir kuni u boshqacha bir ovqatga urinib qoldi. Bizlarni ilon tutib kelishga buyurdi. Ilon tirik bo'lishi kerak. Shirgiruch tayyorlaydigan guruchimizni esa doka ro'molga tugib, buloq suviga tashlab qo'ydi. Ko'p o'tmay, bolalar uzun-qisqa ilonlarni tutib kelishdi. Oshpazimiz ulardan eng uzun, eng semizini tanlab oldi-da, boshqalarini qo'yib yubordi. Keyin haligi ilonni non tovaga solib bir chekkaga qo'ydi. O'zi esa o'tlab yurgan sigirlardan oz-ozdan sut sog'ib ola boshladi. Hatto, mening echkimdan ham sog'ib oldi. Sutni har kuni choy qaynatib ichadigan qorni katta, og'zi kichik mis qumg'onga quydi. Keyin to'rvadagi ilonni oldi-da, buloq suviga bir-ikki chayib, boshini qumg'on ichiga tiqdi. Ilon jon-jon deb qumg'onga kirib ketdi. Sal o'tmay ilonning boshi qumg'onning og'zida ko'rindi. Oshpaz qopqog'ini yopib qo'ydi. Keyin bizga o'choqqa o't yoqishga buyurdi. O'zi esa buloqdagi guruchni olib keldi-da, namagini rostlash uchun tuz sepdidi va yaxshilab aralashtirdi. Shundan keyin oshpaz ko'zani o'choq ustiga qo'ydi. Olov guril-lab yona boshlagan edi, pastroq yoqishga buyurdi. Keyin qumg'onning qopqog'ini ko'tardi. Ilon sapchib chiqmoqchi bo'ldi. Ammo qo'lidagi sopi uzun yog'och qoshiqcha bilan boshiga bir urgan edi, ilon yana sut ichiga sho'ng'ib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qumg'ondagi sut asta-sekin isiy boshlagan sari ilon tashqariga chiqish uchun boshini qumg'ondan chiqarar, og'zini kappa-kappa ochar edi. Shunda oshpaz ivitilgan muzdek guruchni uning og'ziga epchillik bilan qoshiqchada sola boshladi. Ilon bu yoqimli muzdek luqmani

mazza qilib yutar, yana-yana degandek to'xtovsiz og'zini ochardi. Ilon qancha og'zini katta ochsa, oshpaz uning og'ziga shuncha katta luqma tashlardi. Biz uning imo-ishorasi bilan olovni tezltdik. Ilonning harakatlari ham, oshpazning harakatlari ham tezlashib ketdi. Nihoyat, doka ro'moldagi guruch ham tugadi. Sut qaynashga kelib vijilladi-yu, ilon oxirgi marta og'zini karrakdek ochib cho'kib ketdi. Men o'shanda ilonlarning og'zi judayam katta ochilishini, uncha-muncha jo'jalarniyam yutib yuborishi hech gap emasligini sezgan edim. Oshpaz sut ko'zadan toshib chiqadigan bo'lsa, suv qo'yib taftini tushurib turdi.

Nihoyat oshpazning ishorasi bilan olov yoqishni to'xtatdik. Oshpaz qizib turgan mis ko'zani nam latta bilan ushlab g'ir-g'ir-shamol esib turgan salqin joyga eltib qo'ydi. Shundan keyin biz mollarni salqin joyga qaytarib, tushlik qilishga shoshildik. Hammamizning fikri yodimiz-miz ko'za ichidagi ilonda. Nazarimizda ko'zada guruch aralash ilon pishgan edi. Lekin buni yeyish haqida hech qaysimiz o'ylamasdik. Bir-birimzga «yeysanmi» demak, «ye», deb aftimizni bujmaytirar edik:

Odatdagidek dasturxon yozildi. Kim obi ilon, kim zog'ora non, kim chavati nonni o'rtaga qo'ydi. Oshpaz mis ko'zani ushlab ko'rib, sovuganini bildi-da, dasturxon yoniga ko'tarib keldi. Piyolalarga ko'zachadagi sutni taqsimlab quya boshladi. Sut ko'kimtir tusga kirgan, yuzida tangadek-tangadek sap-sariq yog' tomchilari suzib yurardi. Xitoylik bolalar piyolaga quyilgan narsani huzur bilan xo'play boshladilar. Ular shunday bir rohat tuyushardiki, beixtiyor biz ham piyoladagi nasibani qo'limizga olib, ta'mini ko'ra boshladik. Men ham shunday qildim. Tavba, men birinchi xo'plamdayoq tuflab tashlasam kerak; deb o'ylagan edim. Ammo tomog'imdan qanday o'tib ketганиni sezmay qoldim. U sal sho'rtakroq, ammo eritilgan sariyog'dek mazali edi. Men shu paytgacha bunaqa mazani birinchi marta his qilib turardim. Haligi narsani hammamiz pok-pokiza ichib oldik. Shunday keyin oshpaz urina-

urina ilonning bosh tomonini qumg'onning og'ziga to'g'irladida, ovqat-cho'p bilan qisib, tashqariga torta boshladi. Ular ana shunaqa ikkita cho'p bilan ovqatlanishga usta edilar. Bundoq qarasak ilon biz o'ylaganchalik bo'tqasi chiqmabdi. U qumg'on ichidan bus-butin sirg'alib chiqqa boshladi. Va nihoyat, dasturxonga boyagi uzunlikdagi ilon emas to'mtoqqina bir xasip qo'yildi. Hammamiz har tomondan ilonning ustidagi yaltirayotgan po'stlariga, to'mtoq dumiga va xandon pistaning og'zidek ochilib qolgan og'ziga hayrat bilan qaradik. Oshpaz cho'ntagidan ip chiqardi-da, bizni sanagandek ko'z yugurtirdi. Va ipda bir xil o'lchamda tugunchalar hosil qildi. Biz o'n ikki kishi edik. Ipda o'n ikkita tuguncha paydo bo'ldi. Keyin haligi ipni ilonning ustiga qo'ydi-da, o'tkir pichoq bilan har bir tugun orasini bir xilda kesib chiqdi. Kesilgan bo'laklarni oldimizga bir-bir qo'ydi. Endi ko'z oldimizda ilon emas, balki oddiy xasip turardi. Biz bu taomni qanday yeyishni bilmas edik. Oshpaz o'z nasibasini namoyishkorona qo'liga oldi-da, uning ustidagi piyoz po'stidek yupqa terisini osongina shilib tashladi. Keyin ikki qo'llab yer ekan, «oh-oh» degandek boshini sarak-sarak qilib qo'ydi. Boshqa xitoylik bolalar ham xuddi shunday qilib yeya boshlashdi. Qornimiz och edi... Shunday qilib birinchi marta xitoylik do'stlarimiz bilan ilon hasip edik. Hasip mazali va yoqimli edi. O'sha kuni biz kechaga dovur ochiqmadik. Ammo ilon hasipni ikkinchi marta eyish nasib qilmadi. Bu voqeadan xabar topgan qishloq kattalari shovqin ko'tarib, kelgindilarning uyiga bostirib borishdi. Ilon go'shti harom ekan. Kelgindilar o'g'illarini tutib olib, rosa kaltaklashdi...

Men o'z tomorqamizga olib boradigan so'qmoqdan borar ekanman, ana shu voqealarni bir-bir xayolimdan o'tkazardim. Vaqt o'n ikkiga yaqinlashib, kun qizigan sari hammayoqni pichan hidi tutgan. Men qo'shnimiz Berdirahmatning uyi yonidan o'tib, hovlimizga burildim-u, xashak ustida yotgan kamarga ko'zim tushdi. Pichan o'ruvchilarniki qolib ketibdi-da, olib qo'yay, kelishsa be-

raman, deb shu tomon yurdim. Buni qarangki, kamar deganim uzunligi bir qilochcha keladigan qora chipor ilon edi. Uning tanasi pichan ustida-yu, boshi ko'rinmasdi. Ko'nglimdan jonivorni o'roqchilar bilmay o'rib yuborishibdi-da degan o'y kechdi. Hali zamon Berdirahmatning sho'x, to'polonchi o'g'illari kelib qolsa, o'takalari yorilmasin deb ilonni bir chekkaga olib qo'ymoqchi bo'ldim. Uning dumidan ushlaganimni bilaman birdan jon bitib, menga daf qilib qoldi-yu. Tirik ekan. Men ilonni qo'yib yuborsam ish chappasiga ketishini angladim. Uni azod yuqoriga ko'tardim. Ilonning gavdasi o'g'irlik qilib, to'lg'ona boshladi. U jon-jahdi bilan siltanar, tanasini goh cho'zib, goh qisqartirib qo'limdan chiqishga urinardi. Ilon zaharli edi. Uning boshidagi qo'shuv alomati shundan darak berardi. Men tasodifiy bu holdan hayron bo'lib raqibimni nima qilishim kerakligini o'ylab qoldim. Qo'yib yuborsam, Berdirahmatning bolalariga biror-bir zarar yetkazishi mumkin. Chunki ular shu joylarda shataloq otib o'ynab yurishardi. Bilmasdan bosib olishsa bormi! O'ldirsammikin? Ha, boshini tutga bir ursam majaqlanadi. Ko'mib yuboraman. Bu fikrimdan darhol qaytdim. Ilonlar qasoskor bo'lishadi, deb eshitganman. Nima qildim endi...

Men ilonlar o'z o'rdasi — uni atrofida yashashini, uni boshqa joyga eltib tashlansa avvalgi joyini topib kelolmasligini eshitgan edim. Shuning uchun bu kutilmagan «tashvish»ni ko'targancha, bog'hovlidan chiqdim-da, asfalt yo'lining narigi yog'idagi soy bo'yiga eltib tashladim. Yana shu yo'l bilan izimga qaytar ekanman, o'zimdanda o'zim mamnun edim. Ilonni o'ldirmadim, buning ustiga bolalarni xavf-xatardan qutqardim. Har holda bu yerlarda ehtiyot bo'lib yurish kerakligini ko'nglimga tugdim. Shunday o'ylar bilan boyagi joydan o'tib borar ekanman, hayratdan qotib qoldim. Boyagi ilon yotgan pichan atrofida shunaqangi ilon bolalari g'ij-bij ediki... Ular boshchalarini u yoq, bu yoq cho'zib onasini izlashardi. Shundagina bildimki, ilon pichan ustida bekorga yotmagan, bola-



lari uni qora tortib atrofda sayr qilib yurishgan. Onalari birdan yo'qolib qolgach... Mana endi izlashyapti...

Men xol qo'yaman deb, ko'z chiqarganimni payqadim. Ha, ilonlarning ini buzilgan edi. Ular uzunligi bir-bir yarim qarich keladigan qora, chipor ilonchalar edi. Hammasining uch burchak boshchasida «biz zaharmiz» degan qo'shuv alomatlari bor. Men qilgan ishimdan ko'p pushaymon chekardim. Biroq endi kech edi. Xavotir olib bog' etagiga ko'z tashladim. Shu tobda Berdirahmatning bolalari kelib qolishsa bormi? Ikkinchi bu yerlarga qadam qo'ymasliklari aniq. Chunki bu qo'rqinchli manzara ularning naq tomorqasida bo'layotgan edi-da.

Xayriyat, Berdirahmatning bolalari bu hafta dalaga chiqishmadi. Ilon bolalari tarqalib ketdimi yo o'rdalariga kirib joylashib olishdimi, har qalay ko'rinmay qolishdi. Men bu voqeani hech kimga aytmadim. Keyingi hafta yana bog'hovliga chiqdim. Yana o'sha tanish so'qmoqdan yurdim. Biroq sudralib yuruvchi «tanish»larimni boshqa uchratmadim. Qiziq voqea ertasiga, peshin mahali sodir bo'ldi. Qo'shnimiznikiga mehmonlar kelishgan, ularning orasida namozxonlari bor edi. Men namozxonlarni peshin namozini o'qish uchun salqinroq deb uyga taklif qildim. Ulardan oldinroq ichkari kirib joynamoz to'shar ekanman, mehmonlar «iye, iye» deganlaricha ostonada to'xtab qolishdi. Men ularga qaradim. Ularning ko'zi uy burchagida yalt-yalt qilib sudralib borayotgan ilonchada edi. Men ko'rdim-u:

— Ha, bumi? Bu o'zimizning Champo-ku, e'tibor bermanglar, o'rgatilgan, — dedim.

Bu so'z qanday qilib miyamga kelib qolganiga, hatto, ilonchaga Champo deb nom topila qolganligiga hali-hanuz hayron bo'laman. Albatta, men bu gapni mehmonlarni xotirjam qilish uchun aytdim. Ammo ular mening gapimga shu zahotiyoyq ishonishdi. Chindan ham namozni xotirjam o'qib tugatdik. Mehmonlar xayr-xo'shlashib chiqib ketishdi. Ammo Champo mening xayolimdan ketmagan edi. Uni izlay boshladim. Topdim ham: Champo burchak-

da, kulcha bo'lib jimgina yotardi. Men uning bu yerga qanday qilib kirib qolganini tasmollay boshladim. Yoz bo'yi eshiklar ochiq turadi. Demak, u eshikdan kirgan. Bundan buyog'iga, eshik yopib yurilmasa, ish chatoq... Men Champoni zo'rlab chiqarib tashlashga shoshilmadim, o'zi qanday kirgan bo'lsa, shunday chiqib ketsin dedim. Buning ustiga Champo bilan ovora bo'lgulik holim yo'q edi. Charhab, uyqu bosib kelardi.

— Sen, — dedim Champoga esnab, — bu yerda uzoq yotmagin, ana kirgan eshining ochiq turibdi. Izzating borida chiqib ket. Men biroz uxlab olay.

Champo xuddi gaplarimni eshitganday bir qo'zg'alib qo'ydi. Tashqari qizdirar, uy ichi salqin, shundoqqina karavotga cho'zildim-u dong qotdim. Bir soatlar chamasi uxlab, tiniqib ko'zimni ochdim. O'rnimdan turar ekanman, Champoni esladim. Uning yotgan joyiga qarsam, yo'q. Hartugul yana karavot taglarini, u berkinishi mumkin bo'lgan shubhali joylarni ko'zdan kechirdim. Taxminim to'g'ri chiqqan ekan. U qanday adashib kirgan bo'lsa, shunday chiqib ketganligiga ishondim. Bu voqeani uydagilardan yashirdim. Oradan bir oylar chamasi vaqt o'tdi. Tomorqada ishlab yursam, uyda baqiriq-chaqiriq bo'lib qoldi.

— Ha, nima gap?

— Ilon... Nevarangiz ko'ribdi, qo'rqib ketdi!

— Ha, umi? U Champo-ku. Qo'rqmanglar, o'zimizning ilon. Axir uy bo'lgandan keyin iloni ham bo'ladi-da. Shunday deyman-u, yana eshikni bilmay ochiq goldirganimizni, yana ilon salqin joy izlab uyga kirib olganligini anglayman. Ammo «o'zimizning Champo-ku, uy bo'lgandan keyin iloni ham bo'ladi-da», degan gaplarni behuda aytganimni keyin payqadim. Chunki hech kim uyga kirmay qo'ydi. Men katta-yu, kichik xonalarni burchak-burchaklarigacha, hatto, etik, tuflilarning ichigacha qaradim. Ilondan darak yo'q. Faqat bir joyda sichqonning iniga ko'zim tushdi. Taxminimcha ilon shu kovakka kirib



ketgan edi. Qattiq loy olib kelib kovakni suyab tashladim. Ammo kechgacha uyga kirib chiqish bilan bog'liq ishlar mening zimmamda qolib ketdi. Bir kulaman, bir ach-chiqqlanaman. Axir ilon arqonmidiki bir yerda yotsa. Unga ham jon kerak. Agar o'sha kovakka kirib ketgan bo'lsa, qaytib chiqolmaydi, yo boshqa yoqdan yo'l topadi. Kalamushga duch kelib qolsa, sho'ri quriydi.

Biz yoz paytlari uyda yotmas, tashqarida — so'rida ux-lardik. Bomdod namozini o'qigach, bog' aylangani chiqdim. Bu taraflarda tong juda chiroyli bo'ladi. Avval bir-biriga qalashib ketgan tog' o'rkachlari ustiga shaftoli guliga o'xshash harir bir parda — ro'mol tashlanadi. Keyin u asta-sekin qizarib, lovullay boshlaydi. Sal o'tmay qoyalar uchi oltinday tovlanib, ko'zni qamashtiradi. Ana shunaqa dabdaba bilan quyosh chiqib keladi.

Men qandaydir ish bilan uyga kirganimda quyosh nurlari deraza osha uy ichini munavvar qilib turardi. Nur tushib turgan bo'yradek joyda ko'zimga bir narsa yalt-yult qilgandek bo'ldi. Qarasam ilon! Ha, kattagina. Ey, tavba deyman o'zimga-o'zim. Eshiklar yopiq bo'lsa, bu zahri qotil yana qayerdan paydo bo'ldi? Ilon meni sezdi-yu, o'zini karavot tagiga urdi. Men uni kuzata boshladim. Demak, shu tarafda men bilmaydigan biror joyda yotsa kerak-da. Balki karavotning oyoqlariga ilashib ko'rpani ichiga kirib olar. Ilon mening ta'qib etayotganimni sezardi. U allaqanday qo'rqinchli tovush chiqarib: «Yaqinlashma, meni tinch qo'y», degandek bo'lardi. Ilon oxiri do'q-po'pisam bilan karavot tagidan chiqdi-yu, xona o'rtasidagi fanerning tagiga kirib g'oyib bo'ldi. Qo'rquvdan seskanib ketdim. Fanerning ustiga sholsa solingan bo'lib, men uning ustida namoz o'qirdim. Fanerni qabarib, yerga yopishmayroq qolgan joyi bor edi. Ilon, sezishimcha, o'sha yerga kirib joylashib oldi. Men yana shuni angladimki, bu tasodifiy ilon emas, balki tunday bir yarim oylar muqaddam ko'rganim — Champo. U shuncha vaqt ana shuning tagida yashagan, uyga to'kilgan ushoqlar, pashsha va chivinlarni

yeb ulg'aygan. Xayolimda bu Champo deganim onasini adashtirib kelganligim uchun o'ch olay, deb uyga kirgan va asta-sekin ulg'ayib, zaharga to'lishini kutayotgan qasoskorga o'xshardi. Kim biladi, u qachon mendan qasos oladi? Axir men shuncha vaqt uning ustida namoz o'qib kelgan edim-da. Niyatim buzildi. Tashqaridan ketmon ko'tarib kirdim. Bu ishlarni imi-jimida, shovqinsiz qilardim. Oldin sholchasini ko'tardim. Keyin fanerni. Aytganimdek, men taxmin qilgan erimda ilon uzala tushib yotardi. Ketmonning yuzi bilan dumidan ezdim. U ajabtovur kattarib kuchga kirib qolgan edi. Joni o'gridi shekilli, o'zini ketmon dastasiga bir-ikki urdi. Men ketmon yuzini uning silliq qop-qora tanasida yurgizib naq bo'yniga olib keldim. Champo yolvorgandek, og'zini ochib, tilini chiqardi. O'zicha bir nimalar demoqchi bo'ldi. «O'ldirma, men senga shu paytgacha tegmadim-ku», degandek bo'lardi. Bir ko'nglim uniyam bir yoqlarga eltib adashtirib kelay dedim. Lekin ilonni tushda ko'rsang ganj, o'ngda ko'rsang yanch, degan naql xayolimga keldi-yu, bir zarb bilan boshini uzib tashladim. Keyin ketmon yuzida ko'tarib, kecha ilon deb vahima ko'targanlarga bir-bir ko'rsatdim.

— Mana, ilonni o'ldirdim. Endi uyga kiraveringlar.

Ammo o'zimning toshbag'irligimdan nafratlanib ketdim. Axir menga va menga o'xshash allaqancha shaharliklarga bu go'zal maskanlar o'z bag'ridan joy bersa-yu, biz uning boyligi bo'lgan jonivorlarini mana shunday bita-bitalab o'ldiraversak. Champoni ko'mar ekanman, xayr Champo, meni kechir, dedim. O'zimning ovozimdan o'zim cho'chib ketdim.





Hojiakbar **SHAYXOV**

(1945—2002)

Hojiakbar Islomovich Shayxov 1945- yil 25- mart kuni Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon uyg'ur avtonom rayonidagi Chuguchak shahrida tug'ilgan.

Ota-bobolari asli toshkentlik bo'lib, buvalari G'ulom Shayx 1920- yillarda sho'rolarning «quloqlarni sinf sifatida tugatish» siyosatidan qochib, Sharqiy Turkistonga borib qolgan. 1955- yili muhojirlarga vataniga qaytishga ruxsat berilgan. Ularning oilalari ham avval Qozog'istonga, so'ngra Toshkentga ko'chib kelishgan.

H. Shayxov 1963- yili o'rta maktabni tamomlab, Toshkent politexnika institutining energetika fakultetiga o'qishga kiradi.

1978—1981- yillar mobaynida O'zFA Elektronika institutida katta muhandis, I toifali muhandis-konstruktor vazifalarida ishlaydi. Bu davrlarda H. Shayxov badiiy adabiyot bilan jiddiy shug'ullanib, ilmiy-ommabop va ilmiy-fantastik asarlar ijod qiladi.

H. Shayxovning e'lon qilingan asarlari quyidagilar:

«7-SER» (1973), «Ajab yulduzlar» (1975), «Rene jumbog'i» (1977), «Yettinchi operatsiya» (1979), «G'aroyib ko'lanka» (1980), «Olmos jilosi» (1983), «V tom neobichniy den» (1985), «Hayotbaxsh xayollar» (1985), «Blesk almaza» (1988), «Ajdodlar xotirasi» (1986), «Demonstratsiya na orbite» (1988), «Zamin shaydosi» (1990), «Telba dunyo» (1992), «Tutash olamlar» (1996), «Strasti podnebesniye» (1995), «Hamon ro'zi g'ayrioddiy» (1988), «Zagadka Rene» (1989), «Nasledstvo» (1980), «Neobiknovennoye oblako» (1985 y.) va boshqalar.

DO'STIMNING KASHFIYOTI

(Fantastik hikoya)

Do'stinga tikilib qarasangiz, uning qomatdor, kelishgan bola emasligiga o'sha zahoti amin bo'lasiz. Qorachadan kelgan, ushoq yuzi doimo tund va g'amingday ko'rinadi. Miyasiga biror olijanob fikr kelgandagina ko'zlari ma'no kasb etadi, ya'ni o'tdek chaqnaq ketadi yoxud allanechuk hayrat va ishonch ifodasila porlab katta ochiladi. Uyqusizlikdanmi yoki zahmatkashlikdanmi, osilib tushgan vazmin qovoqlari esa, ko'pincha qizarib, shishib ketganday tuyuladi kishiga.

Do'stim matematika bilan fizika fanini besh panjaday o'zlashtirishni o'ziga katta maqsad qilib qo'ygan. Uning fikricha, bulardan boshqa hamma fanlar — fan emas, ermak uchun chiqarilgan bir narsa. Men adabiyot fani muxlisi edim, shuning uchun ham uning bu fikriga darrov qarshi chiqardim. Bahs boshlanardi. Qizishib ketardik. Hatto, bir-birimizga o'dag'aylashgacha borib yetardik. Lekin qancha talashmaylik, bari bir har ikkimiz ham qat'iyon o'z fikrimizda qolaverardik.

Ochig'ini aytsam, do'stim matematika nazariyalarini halitdanoq suv qilib ichgan. Bordi-yu, uxlab yotgan joyida uyg'otib, undan: «12 karra 12 necha bo'ladi?» — deb so'rasalar, hech tutilmay o'sha zahoti: «114» — deb javob berardi. «87 karra 87 qancha?» — deb so'ralsa, hayratlanarli aniqlik bilan, bir daqiqa o'tmay javobi olinardi. Hatto, undan oliy matematikadan determinand formulasi-ni keltirib chiqarish talab qilingan taqdirda ham u matematik temir qonuniyat asosida bamaylixtirlik bilan ajoyib suratda tez va sodda javob qaytarardi. Shuningdek, do'stim ko'pgina fizik konstruksiyalarning ta'rif-tavsifini hech qiynalmay izohlab, tushuntirib bera olar ediki, bunga har qanday olimning ham tan berishi aniq edi.

Boladagi bu g'alati qobiliyat uning barcha tanish-bilishlari, o'qituvchilarini hayratga solardi. Ba'zilar: «Bu

bola juda zo'r olim bo'ladi», deyishsa, ba'zilar: «Yo'q, bu boladan olimdan ham zo'rroq toifa odam chiqadi», deb e'tiroz bildirishar, uning ayrim dindor qarindoshlari hayrat bilan yoqa ushlab, yigitchada qandaydir ilohiy bir aql, kuch borligi to'g'risida gap tarqatishardi. Xo'ppa semiz bir ammasi bo'lsa, nuqul: «Ko'z tegib qoladi», — deya do'stimning boshi ustida isiriq tutatib aylantirardi.

Ammo do'stim bularning hammasiga mutlaqo e'tiborsiz qarar, parvoyiga keltirmas edi. U odaticha yarim kechgacha mijja qoqmay, allaqanday qalin kitoblarni o'qir, matematik formulalarni qog'ozlarga yozib-chizib chiqardi. Har kuni ertalab onasi uni turli formulalar yozilgan qog'ozlarga to'lib ketgan stolga bosh qo'ygan holda uxlab yotganini ko'rib, o'g'liga ham zo'r faxrlanish, ham katta tashvish tuyg'usi bilan termilib qolardi...

Do'stim o'ziga o'rtoq sifatida negadir faqat menigina tan olardi. (Ehtimol, u bilan bahslashishni sevganim tufaylidir.) Shuning uchun ham qachon uyiga borsam, vaqtichog'lik bilan ichkariga taklif qilar, keyin biz uning yorug' va shinamgina darsxonasida anchagacha suhbatlashib o'tirardik. Gapdan gap chiqib, kutilmaganda tortishib ketardik. U matematikani yoqlardi, men bo'lsam o'zim sevgan fanni... Eshikda do'stimning onasi ko'ringanidagina g'oyatda qizishib ketganimizni sezib, o'zimizni o'nglab olishga intildik. Onasidan bir oz tanbeh eshitganidan so'ng, birga kitob o'qirdik yoki dars tayyorlay boshlardik.

Darslar, umuman, do'stim uchun cho't emas edi. Garchi u ijtimoiy fanlardan bir amallab «uch», «to'rt» baho olib yursa ham, matematika va fizika fanlaridan tayyorlanmay borib, «besh» olaverardi. (Mazkur fanlarning masala va misollarini u yil boshidayoq bitta qoldirmay yechib qo'ygan edi-da.) Bunga ko'nikib ketgan o'qituvchi ba'zan unga so'ramasdan «besh» qo'yardi.

Hammasidan qizig'i, do'stimning uyida bo'lganimda ko'pincha darsxonasi turli tipdagi radiolampalar va yarim o'tkazgichli detallar bilan to'lib ketganini ko'rardim. Bili-

shimcha, ularni do'stimning talabi bilan magazindan onasi keltirib berardi. Detallar haqida u menga lom-mim demasdi. Men ham undan hech narsani so'rab-surishtirmasdim, chunki uning odatini yaxshi bilardim-da. Ammo men kutilmaganda do'stimning kechalari yozish-chizishlar bilan birga o'sha detallar ustida ham qandaydir sirli ish olib borayotganini payqab qoldim. Uning bu ishi menda shunchalik zo'r qiziqish uyg'otdiki, bu haqda undan so'rashdan o'zimni tiyib turolmadim. Ammo do'stim savolimni eshitiboq jahl bilan meni uyidan quvib chiqardi. Ha-ha, quvib chiqardi.

— Bor, jo'na, — deb baqirdi u menga qarab, — men ish olib borayotgan narsa haqida hech kim, hech narsa bilmasligi kerak. Mutlaqo hech kim! Yo'qsa, odamlar aqldan ozibdi, deb meni jinniga chiqarishadi. Ishimni tugatganimda esa, misli ko'rilmagan bir kashfiyot vujudga kelgan bo'ladi. Biroq, do'stim, sen xafa bo'lma. Vaqti kelib bu haqda senga batafsil so'zlab beraman. Iltimosim, hozircha meni tinch qo'y. Bor, jo'na...

Oradan oylar o'tdi. Zavqli bahor fasli tugab, o'rik meva berdi, maysalar qandaydir sarg'imtir tusga kira boshladi. Quyosh yerga qattiqroq tig' urishga tutindi. Yozgi ta'til ham boshlandi. Bu do'stim uchun qo'l keldi, albatta. U endi ertadan kechgacha o'z ishi bilan band bo'lib qoldi. Tashqi hayotdan uzilgan holda sira darsxonasidan chiqmay ishlashga kirishdi.

Bu ahvol onasi qalbini zo'r tashvish tuyg'ulari bilan to'ldirishi tabiiy edi. Lekin u endi o'g'lini mazkur «sirli» ishidan voz kechdirishga ojizlik qilishini bilar, bu haqda o'ylaganida allaqanday achinish, qo'rquv bilan etlari uvushib, o'g'lini qanday tarbiyalaganiga ba'zan o'zi ham tushunolmay qolardi.

Do'stim bolaligidanoq g'oyatda sinchkov, qiziquvchan, har narsaga urinaveradigan bola bo'lib o'sdi. Bir ish boshlansa, aslo qo'ymas, oxiriga yetkazmaguncha o'lib-qutulib tirishaverardi. Uydagilar ham bunday paytlarda qarshilik ko'rsatishmay, bolani o'z holiga qo'yib berishardi...



Bir kuni nima ham bo'lib budilnik buzilib qoladi. Onasi ustaga olib borish kerakligi haqida gapirib qolganda birdan o'g'li:

— Soatni men tuzataman! — deb xitob qiladi. Ona o'g'liga jiddiy tikilib qoladi. U o'g'lini mustaqil va ishbilarmon qilib tarbiyalash uchun qo'lidan kelgan hamma chora-tadbirlarni doimo ishga solar edi. Shuning uchun ham budilnikni qo'liga tutqazarkan:

— Qani, unnab ko'r-chi, — dedida ohista yurib chiqib ketdi.

O'sha kuni bola tun bo'yi uxlamaydi. Soatni sinchiklab o'rganadi, u yog'ini buraydi, bu yog'ini aylantiradi, terlab-pishib timirskilnaveradi, qo'ying-chi, uyqusizlikdan ko'zlari suzilib, qovoqlari qip-qizarib ketgan bo'lishiga qaramay, sahargacha tinib-tinchimaydi. Nihoyat, onasi ertalab turib qarasa, o'g'li yurib turgan soatni quchoqlagancha, stolga boshini qo'yib uxlab qolgan bo'ladi. O'shanda u olti yoshda edi.

Ha, kichikligida ham shunday irodali bola edi mening do'stim. Ammo ko'pdan-ko'p afsuslar bo'lsinki, mana shu ajoyib bolaga taqdir munosib ota bitmagan edi. Otasi — allaqaysi oliy o'quv yurti o'qituvchisi, — bevafo chiqib, bundan yetti yil avval oilasini tashlab ketgan edi. Odamlarning aytishicha, u o'z student qizlaridan biriga «oshiq» bo'lib qolganmish.

Ota... Uni naqadar chuqur muhabbat bilan sevardi mening do'stim. Otasini deb o'zini o'tga tashlashga tayyor edi. Jonidan ham aziz ko'rardi. Ammo, afsus, shunday pokiza muhabbatni u oqlamadi, nontepkilik qildi. To'g'ri, dadasi o'g'li bilan hech qachon yomon munosabatda bo'lmagan, aksincha, doim uni erkalab, nima aytsa, o'shani qarshisida muhayyo qilar, «o'g'lim» deya suyib quchar, o'par, o'ynatar edi.

Biroq uning favqulodda oilani tashlab ketishi... do'stinga nogahoniy zilzila yanglig' ta'sir etgandi. Yuragini kimdir ichdan g'ijimlab, changallab yulib olgandek tuyulgandi o'shanda.

Shunday bo'lsa-da, do'stimning otaga bo'lgan muhabbat o'tlari haligacha so'nmagan edi. U avval qanday porlagan bo'lsa, hozir ham xuddi shunday charaqlab turar va do'stim, dadam yana qaytadi, degan umidbaxsh fikr bilan mudom o'zini ovutib yashardi. Shuning uchun ham otasi to'g'risidagi mish-mish gaplarga ishonmas, to'g'rirog'i, ishongisi kelmasdi. Axir qaysi o'g'il o'zining eng ishongan kishisi — sevimli otasining qalloblikka qo'l urganiga osongina tan bergisi keladi, deysiz. Zero, onasi bu haqda o'g'liga lom-mim demasdi. Do'stimning doimo g'amgin qiyofada yurishiga otasini sog'inishi, qo'msashi sabab bo'lsa kerak, deb o'ylardim men...

Shunday qilib, do'stim o'z «sirli» ish ustida yetmish kun ishladi. Men bu orada Bo'stonliqdagi dam olish uyiga ham borib qaytdim. Buni qarangki, uyda nonushta qilib o'tirgandim, o'zi kirib kelsa bo'ladimi. Sevinib ketdim.

— Senga bergan va'damning ustidan chiqmoqchiman, — dedi u menga so'rashish uchun qo'l uzatar-kan. — Qani, yur biznikiga, ishlab chiqqan mashinamni ko'rsataman.

Do'stimning darsxonasiga kirib borganimiz hamono xonaning o'rtasidagi cho'yan pechkasimon g'alati bir apparat diqqat-e'tiborimni o'ziga tortdi. Sinchiklab ko'ra boshladim. Apparat ostidan chiqarilgan shnur elektrovilka yordamida bevosita rozetkaga ulangan edi. Ikki yon tomonidan mis simlar o'tgan bo'lib, ular hech narsa bilan birlashtirilmagan, havoda muallaq turardi. Simlarning uchlari esa, chiroyli ko'kimtir xlorvinil qog'ozi bilan puxta qilib o'rab qo'yilgandi.

Apparatning ustki qismi tekis bo'lib, unga aylana shaklida tartib bilan kichkina qora tugmachalar joylashtirilgan va har bir tugmacha ustiga maxsus harflar bilan belgi qo'yib chiqilgan edi. Umuman, apparatning ko'rinishi ixcham qopqoqli silindrni eslatardi.

Do'stim berilib tomosha qilayotganimni ko'rib, mamnun bo'lgandek, xiyol iljaygancha mag'rur boqib turardi.



— Qalay, mashina yoqdimi? — dedi u nihoyat, keyin jiddiy tovush bilan qo'shimcha qildi: — Agar yoqqan bo'lsa, endi senga buning «hunarini» ko'rsataman.

Shunday deb, menga haligi muallaq simlardan birining uchini mahkam ushlashni buyurdi-da, o'zi ikkinchi simning uchidan tutdi. Keyin (voajab!) do'stim mutlaqo kutilmaganda chap yuzimga tarsaki tortib yuborsa bo'ladim! Jahldan ko'zlarim olayib ketdi. Bunday paytlarda qarab turishni yomon ko'raman. Endi hamla qilmoqchi bo'lgan edim, do'stim mamnun holda qah-qah urib kularkan:

— Shoshma, og'ayni! O'zingni bos! Hozir seni xuddi qo'ydan yuvvosh qilib qo'yaman! — deb qiyqirdi-da, mashinadagi tugmachalardan birini shartta bosgan edi, o'sha zahoti boshim aylanib, gandraklab ketdim. Oz bo'lmasa yiqilib tushayozdim. Ko'zlarim tinib ketdi. Keyin bir lahza o'tgach, o'zimni o'nglab qaragam, qarshimda kulib turgan do'stimga nisbatan achchig'imdan asar ham qolmabdi. Aksincha, negadir uni yaxshi ko'rib, nuqul quchoqlagim, o'pgim kelardi shu topda.

«Axir bu telbalik-ku?! — dedim g'ijini. — Nima bo'ldi o'zi menga? Hozirgina g'azab bilan hamla qilmoqchi bo'lgan odamimga birdan...»

— «Yarashtirish mashinasi»ning birinchi tajribasi muvaffaqiyatli o'tdi! — deb xitob qildi do'stim quvonch bilan yelkanga yengil musht tushirarkan.

— «Yarashtirish mashinasi?» — taajjubdan og'zim ochilib, qotib qoldim. Do'stimdan, garchi uning ajoyib qobiliyati, misli yo'q talantiga maftunlik bilan tan bersamda, bunaqa bachkana ishni men sira kutmagandim. Shuning uchun ham kinoya bilan dedim:

— Nahotki shuncha vaqtingni mana shu... arzimagan ishga sarflagan bo'lsang, do'stim?

Kutilmaganda do'stimning ko'zlarida g'azab o'tlari chaqnadi:

— Arzimagan ish! — deb qichqirdi u shiddat bilan qarshimga chiqib menga nafratli nazarda boqarkan. —



Bunday deyishga qanday haddang sig'di?! Axir... axir men...

Ammo u gapini tugatolmadi. Taajjubimni battar oshirib, birdan o'zini yonida turgan stulga tashladi-da, yuzini panjalari orasiga olganicha ayanchli tovush bilan yig'lab yubordi. Voajab, do'stimning yig'lashini birinchi ko'rishim edi. Hatto, uning kichikligida baland tomndan sakrab, oyog'ini sindirib olganida ham yig'lamaganiga shaxsan o'zim shohid bo'lganman. Bu yig'i o'smirning yetmish kunlik chekkan zahmatlari tufaylimi yo mening shu mehnatini nazarga olmay, yengiltaklik bilan aytgan haqoratomuz gapim tufaylimi, bilib bo'lmas edi.

— Men shu mashinani yasash haqida yetti yildan beri bosh qotirardim, — dedi do'stim o'zini bosib olgach, haqoratlangan kishining gapi ohangida. Keyin xo'rsindida, hayajon bilan so'zida davom etdi: — Mana, nihoyat, niyatimga yetdim. Men bu apparat yordamida otamni onam bilan yarashtirmoqchiman, toki, oilamizda o'sha dastlabki osoyishta, go'zal hayot yana hukm sursin! Bu mening yetti yildan beri yuragimga bir zum ham tinchlik, halovat bermay kelayotgan birdan-bir orzum!.. Sen bo'lsang uni...

Sakrab o'rnimdan turib ketdim. Do'stimning bu gap-lari fikrlarimni favqulodda alg'ov-dalg'ov qilib, ko'zimni moshday ochgan edi. Shundagina uning onasini qanchalik sevsa, otasini hali ham o'shanday katta muhabbat bilan yaxshi ko'rishini ich-ichimdan his qildim. Shundagina uning otasini o'z oilasi quchog'iga qaytarish istagining naqadar kuchliligini yaqqol tasavvur etdim. Shundagina g'amgin qiyo-fali do'stimning haqiqiy, asl chehrasini ko'rganday bo'ldim. Do'stimning ulkan irodasi, odamiyligi oldida yetilgan boshqo-day bosh eggim, yetti bukilib ta'zim qilgim keldi.

— «Yarashtirish mashinasi»! — dedim apparatga boya-gidan mutlaqo boshqacha, tabarruk narsaga qaraganday tikilarkanman. Hozir mashina ko'z oldimda ota-onaga bo'lgan muqaddas sevgining buyuk timsoli sifatida namo-yon bo'lib turardi.

Xuddi shu payt eshik ochildi-da, ostonada do'stimning onasi — qora sochli, yoshgina ayol paydo bo'ldi. Aftidan, u mening tovushimni eshitib kirgandi.

— «Yarashtirish mashinasi»? — dedi biror yomon narsani payqaganday tashvishli tovush bilan o'g'liga murojaat qilib. — Tushunolmadim, bolam. Menga sira bunday demagan eding-ku?

— Ha, «yarashtirish mashinasi»! — deb shartta o'rnidan turdi do'stim. Shu tobda uning yuzi, ko'zlari qat'iyat bilan to'la edi. — Nihoyat, haqiqatni aytish payti keldi, oyi. Sizni dadam bilan yarashtirmoqchiman! Istasangiz ham, istamasangiz ham gap shu. Men otasi bor bo'la turib, yetim yashashni istamayman, istamayman! Tushundingizmi?

Ostonada turgan ayolning so'lg'in yuzi dokadek bo'zardi, ko'zlarida yosh tomchilari miltilladi. Qoramag'iz chehrasida achinish, mujmal pushaymon ifodalari aks etdi. U birdan qo'lini telbalariday baland ko'tardi-da, yig'i bilan bo'lingan uzuq-yuluq tovushda:

— Oh, hammasiga o'zim aybdorman, hammasiga! — deya xitob qildi. — Senga otang bilan bog'liq bor haqiqatni allaqachon aytishim kerak edi! Ammo, afsus, ming afsus, bunday qilolmadim. Shu choqqacha irodam yetishmadi bunga...

Ayol nigohini ro'paradagi bir nuqtaga tikkanicha bir zum sukutda qoldi. Vujudini bir lahzadayoq allaqanday sovuqqonlik, loqaydlik chulg'ab olganday edi.

— Kezi keldi, endi eshit, o'g'lim. Otang umuman yomon odam emas edi. Qaddi-basti kelishgan, muloyim, dilkash. Biz u bilan ilk bor turmush qurganimizdayoq katta bir xatoga yo'l qo'ydik, ya'ni dunyoda MUHABBAT ismli buyuk his mavjudligini nazarga ilmadik. Yoshlik ehtiroslariga juda erta berilib, chinakam muhabbat nimaligini tushunmadik. Oqibatda... Oramizda MUHABBAT yo'qligini biz to'ydan keyingi dastlabki oylardayoq payqadik. Tez orada bir-birimizdan ko'nglimiz qoldi. Endi otang ham, men

ham jisman birga yashardig-u, ma'naviy boshqa-boshqa olam edik. Bu o'rtada sen dunyoga kelding. Lekin oradagi sovuqlikni sen ham ko'tarolmading... Ana shunaqa, o'g'lim, oilada chinakam MUHABBAT bo'lmasa, har qanday yarashtirish mashinalari ham ish berolmaydi...

Ayol loqayd holda qoshidagi bo'sh stulga o'tirdi. Nigohi o'ta parishon, aftidan, hanuz duch kelmagan baxtsiz MUHABBATi haqida o'yga tolgan edi.

Onasiga hayrat bilan tikilib turgan do'stimning ko'zlarida yana bir karra o't chaqnadi. U bitta-bitta bosib onasining tepasiga keldi-da, issiq qo'llaridan ushlab:

— Nahotki shular rost, oyijon? — deb so'radi. Qarashida sinchkovlik va qat'iyat, taajjub va dangallik ifodalari mujassam edi.

Ayolning yuzi kutilmaganda sovuqqon, istehzoli qiyo-faga kirdi.

— Onang senga umrida loaqal biron marta yolg'on gapirganmidi? — deb savolga savol bilan javob qaytardi u.

Do'stim xijolat chekib, sekingina:

— Kechiring, oyijon, — dedi-da shoshilib borib, elektroshtepseldan apparatga ulangan shnurni sug'urib olib tashladi. Uning oyog'i tegib ketdi shekilli, «yarashtirish mashinasi» taraqlab dumalab tushdi.

Do'stim unga e'tibor ham bermadi. Shu lahzada u quchoq ochib, yurak yarasi yangilangan mahzun onasining istiqboliga qarab borardi...



Tohir MALIK

(1946)

O'zbek detektiv adabiyotining taniqli vakili Tohir Malik 1946-yil Toshkentda ziyoli oilasida tug'ilgan. U o'rta maktabni tamomlab kunduzi qurilishda, kechqurunlari Toshkent Davlat dorilfununining jurnalistika fakultetida tahsil ko'radi. Maktablarda ona tili va adabiyotdan dars beradi. Respublika radiosi va televideniye davlat qo'mitasida, «Sharq yulduzi», «Yoshlik» jurnallari tahririyatlarida, nashriyotlarda, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat ko'rsatadi.

Tohir Malikning «Hikmat afandining o'limi» nomli birinchi fantastik qissasi 1971-yilda chop qilinadi. So'ngra «Zarli g'ubor» (1978), «Somon yo'li elchilari» (1979), «Chorrahada qolgan odamlar» (1985), «Qaldirg'och» (1987), «Bir ko'cha, bir kecha» (1988), «Alvido, bolalik» (1989), «So'nggi o'q» (1990), 4 kitobdan iborat «Shaytanat» (1994—2000), «Mehmon tuyg'ular» (2004), «Jinoyatning uzun yo'li» (2005) kabi fantastik va detektiv qissalardan, hikoyalardan tashkil topgan kitoblari dunyo yuzini ko'rdi.

Tohir Malikning bolgar va rus adabiyotidan qilgan tarjimalari o'zbek kitobxonlarining sevimli asarlariga aylanib qolgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik badiiy asarlari, tarjimalari hamda nashirlik faoliyati bilan bolalar adabiyotining ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

ALVIDO, BOLALIK!

Uyqusiz tun

*yoxud qotillardan birining tungi ruhiy kechinmalari
haqida hikoya*

(Qissadan boblar)

Hsrorni onasi turtib uyg'otdi:
Yomon tush ko'rdingmi, muncha baqirmasang?
Asror indamadi. Uyquli ko'zlarini chirt yumib oldi.
— Yonboshlab yot, bosinqirabsan...

Onasi shunday deb chiqib ketdi. Asror ko'zini ochdi. Bu tushmi... yo'q, tush emas... Kecha o'z ko'zi bilan ko'rganlari... Shunchaki ko'rgan bo'lganida koshki edi... O'zi ham urdi uni. Tepdi, yomon tepdi. Bechora dod deb yubordi. Kim edi u? Asror tanimaydi. Hozir bir narsanigina biladi — sigaret berganida ortiqcha mashmasha yo'q edi. Xasisligi boshini yedi uning.

Endi nima bo'ladi?

U dahanini yostiqqa tiraganicha muk tushib yotdi. Hozir militsiya ularni qidirayotgandir? «Yo'q, hali qidirmaydi, — deb o'yladi Asror, — u odam suv ostida cho'kib yotibdi. Necha kunda chiqarkin yuzaga? Ana o'shandan keyin boshlashadi qidirishni. U odamning oilasi militsiyaga arz qilsa-chi? Ular voqeani bilishmaydi. «Yo'qolib qoldi» deyishadi. Uning hech kimi yo'qdir balki... Unda yaxshi... Suv tagida balchiq bosib qolib ket-sa yana yaxshi...» xayoliga shu fikr kelib, Asror biz oz yengil tortdi.

Hozir u pivoxonadan sarxush chiqqan, keyin bolalar orasida koptokday tepilgan, murdasi suvga tashlab yuborilgan odamni emas, o'z taqdirini o'ylardi. Militsiya... Uning ortidan qamoq... Shu fikrning o'ziyoq uni g'ippa bo'g'ib olardi.

Ko'zini yumdi. O'sha odamning nigohlari... Ko'zlari unga tikilib turibdi. «Men senga nima yomonlik qildim»,



deb so'rayapti. Asror aniq eslaydi: qorniga tepgan paytida u odam shunday qaraganday bo'ldi. Qiziq, nimaga u odamning ko'zlari ko'rinayapti? Axir qorong'i edi, ko'zlarini ko'rmagan edi-ku? U odam pichoq chiqardi. Salimning soniga urdi... «Ha, ha, bo'ldi, hamma ayb o'zida, pichoq chiqarmaganida tegmas edik. Shuni hamma bolalar qaytarsa, bizga balo ham urmaydi». Asror bu fikrdan yana bir oz yengil tortib, qaddini rostlab o'tirdi. «Shu gap bolalarning xayoliga kelarmikan, — deb o'yladi u, — yo aytib chiqsammikan? Biron-tasini militsiya kuzatayotgan bo'lsa-chi? Qamar o'tirib chiqqan. Uni kuzatishlari mumkin. Salim ham shunikida. Yarasi-ga qarashganmikan? Qamar qararmikan?»

Qamariddinning yaxshi-yomonligini Asror shu paytgacha aniq bilmaydi. Bir qarasang — xo'roz, o'rtog'ini deb o'tga tushishdan ham tap tortmaydi. Bir qarasang — yovuz, o'zinikilarni ham ayamaydi. Shundanmi, barcha undan qo'rqadi. Asror bundan mustasno emas. Qamariddin o'l desa o'ladi, tiril desa, tiriladi. Avval qo'rqqanidan shunday qilardi. Endi ko'nikib qolgan. Osonda quyosh sochayotganini ko'rib ajablanmagani kabi, Qamariddinga qulday tobe ekaniga ham hayron bo'lmaydi. Ha, Qamariddin ularga xoja, ular esa qul edi. Ammo birortasining xayoliga «Men qulman yoinki, «nima uchun men qulman» degan fikr kelmasdi. Ularning nazarida Qamariddin xoja emas, balki vallomat, ayrimlariga esa vasiy edi.

Hozir ham Asror uning yaxshi yo yomon tomonlarini o'ylamadi. Shunchaki «Salimga qararmikan?» degan fikr xayolini bir yoritib o'tdi, xolos.

Asrorning ko'kragi qizib, o'rnidan turdi-da, oshxonaga chiqdi. Muzdek suvdan simirib, ko'ngli orom topdi. Hozirgina suv ichib yengil tortganday bo'lgan edi. Dam o'tmay yana ko'kragi qizib, nafas olishi og'irlashdi. Dera-zani ochdi. Ko'chani to'zitib yurgan shamol uning dimog'iga chang ufurdi. U pastga qaradi. Ularning uyi beshinchi qavatda. Shundaygina derazalari ostidagi kaftdek



yerga uch tup gilos ekib, «bogʻ» qilib qoʻyishgan. Sal narida garajlari. Otasi tunda ikki-uch marta shu yerdan turib xabar oladi. Dadasining bu ishini dastlab koʻrganida Asror «birov mashinani olib qochmoqchi boʻlsa, shu beshinchi qavatdan oʻzlarini tashlasalar kerak», deb oʻylagan edi. Hozir nimagadir shu gap esiga tushdi. «Agar militsiya bilib qolib uyga qidirib kelsa, oʻzimni shu yerdan tashlayman. Qamalganimdan koʻra birdaniga oʻlganim yaxshi». Bu fikr miyasiga urildi-yu, tovonigacha zirillab ketdi. Peshonasidan muzdek ter chiqdi. Qoʻrqib ketganidan darrov derazani yopdi. «Jinni boʻlibmanmi, nimaga tashlarkanman, nimaga meni qamarkan, — deb oʻziga-oʻzi tasalli bera boshladi, — men oʻldiribmanmi uni, tepgan boʻlsam bitta tepdim. Salimga pichoq urgach, tepdim...»

Yulduzli osmonni bir chetdan yamlab kelayotgan qoʻngʻir bulutlar orasida nifoq chiqib, yashin chaqnadi. Uning nuri peshayvon derazalaridan oʻtib, gullar tushirilgan devorga urildi. Asrorning nazarida osmonda chaqmoq chaqnamadi, balki oʻsha odamning koʻzlari yondi. Nur ham oʻsha koʻzlardan chiqdi. «Men qotilimni izlab edim, topdim», deya shu beshinchi qavat peshayvoniga otildi. Momaqaldiroq gumburladi. Asrorning nazarida oʻsha odam naʼra tortdi. «Qarang, qotilimni topdim», deya shahar ahlini uygʻotmoqchi boʻldi.

Asror orqasiga tisarilib, oshxonaga qaytdi. Balkon eshigini qattiq yopdi. Joʻmrakdan suv oqizib yuziga tutdi. Orqada sharpa sezib, sapchib tushdi. Qarasa — onasi. Sinchkov nazarini qadab turibdi.

— Senga nima boʻldi? — dedi u, Asrorning sochini silab.

Asror onasidan koʻzini olib qochdi, keyin yutunib:

— Uyqum kelmayapti, — dedi.

— Charchagansan. Kechagi toʻyda uxlatishmabdi, eshitdim. Kirib yot, uyqung kelmasa, sana. Yuzgachami, minggachami, sanayver. Uxlaganingni bilmay qolasan.

Asror onasiga qarab oldi. «Onamning soddaliklari ham yaxshi», deb o'yladi-da, xonasiga qarab yurdi.

«Urinib qolyapti, bolam boyaqish, — deb o'yladi Ma'suma uning izidan qarab, — to'yga yubormay desam bo'lmasa, borsa bu ahvol. Erta-indin havo yurishib ketsa, to'y yana ko'payadi. Bolamga yana javr. Bormasa, otasiga javr. Topgan-tutganlari shularga-da axir, ko'tarib ketarmidi. Yaxshi hamki Asrorim buni tushunadi. Tushungani uchun indamaydi. Yana bir-ikki yil... keyin o'zi ham yo'lga kirib ketadi».

Ma'suma orzularining oqibati ko'pincha «keyin yo'lga kirib ketadi» degan fikrga qadaladi. Shunda birov «qaysi yo'lga kiradi?» deb so'rsa daf'atan javob bera olmaydi. Xo'sh, qaysi yo'lga kiradi?

Otasining yo'lga — san'atgami, yoki ota-onadan pinhon tutayogani Qamariddin yo'ligami? Yoki kul bosgan umidi — ilm yo'ligami? Buni na Ma'suma, na Asrorning o'zi biladi.

Asror xuddi ertaklardagiday uch yo'l qarshisiga kelib qolgan. Bir yo'lning boshida oq shayton turibdi. «Pul topib, aql topmagan odamlar ko'p ekan, shu yo'lga kir. Pul, maishat ichidasan. Odamlar boshingdan pul sochishadi, ammo istagan yo'riqlariga solishadi. It bo'lib vovulla deyishsa — vovullaysan, mushuk bo'lib miyovla deyishsa miyovlaysan, kul desa kulasan, xo'rlikka chidayolmasang ham kulasan, kula turib «rahmat, akaxon», deb ta'zim ham qilasan. Ammo, bu bilan ishing bo'lmasin. Pulini olsang, bas!» Bu oq shayton Asrorning tushlariga ham kiradi. Ajablanarlisi shuki, ko'pincha bu oq shayton dadasiga o'xshab ketadi. Asror bola bo'lib dadasining ko'ziga tik qaramagan. Shu sababli oq shayton ko'ziga qaraganda cho'chib tushadi.

Ikkinchi yo'lda qora shayton turadi. «Yigitning yo'li shu yo'l, — deydi u, — birovga egilmaysan, senga qulluq qilishadi. Sendan qo'rqishadi. Nimani istasang — shunga egasan. Ozodsan, eng muhimi shu. — erkin qushsan!»

Qora shayton Qamariddin bo‘lib ko‘ringanda cho‘chimaydi. Nimagadir otasidan ko‘ra ko‘proq uni yoqtiradi. Suyagi buzuq, ko‘zi g‘ilay bo‘lsa ham, shu yigit Asrorga istarali ko‘rinadi.

Uchinchi yo‘l boshida hech kim yo‘q. Ko‘cha ham g‘ira-shira qorong‘ulik ichida. To‘g‘ri, bu qorong‘ulikda ba‘zan muallimi Mahkam aka ko‘rinib qoladi. O‘zi yosh, ammo sochlari tekis oqargan bu olim uni imlaydi. «Bir umr azobga mahkum etilganlargina olim bo‘lishadi, — deydi u, — olim dam olish nima, dabdabali hayot nima — bilmaydi. Bir umr ishlaydi, kechayu kunduz tinim bilmaydi. Boyvachchalar undan kulishadi, amaldorlar ko‘krigidan itaradi, noqobillar hazar qiladi. U esa hammasiga chidab chumoliday ishlayveradi. Uning mehnati mevasini o‘sha boyvachchalar, amaldorlar, noqobillar ham baham ko‘rishadi. Bir umrlik mehnat azobidan, talashish-tortishishlardan qo‘rqmagan odam kirsin bu yo‘lga...»

Asror bulardan qo‘rqmas edi, kirardi. Nolimasdi ham. Faqat avval oq shayton, so‘ng qora shayton uchradi unga. Mana, hozir ikki shayton quliga aylangan bola ko‘zlarini chirt yumib, birdan yuzgacha, yuzdan minggacha sanab yotibdi. Sanagani foyda berdimi yo uyqusizlik yengdimi — uxlab qoldi.

Tushida shahar bezovta emish. Militsionerlar yelib-yugurisharmish. Ularni o‘sha o‘lgan odamning o‘zi boshlab yurganmish. Nuqul «Qotil qani?» deb baqirisharmish. Asror uni ko‘rgan sari: «Tirik ekan-ku!» deb xursand bo‘larmish. Keyin: «Tirik bo‘lsa, yana qanaqa qotilni izlash-yapti?» deb taajjublanarmish, beshinchi qavatga chiqib, qo‘ng‘iroq tugmasini bosishganmish...

Asror eshik qo‘ng‘irog‘ining asabiy jarangidan sapchib turib ketdi. Turishga turdi-yu, nima qilarini bilmay taxtaday qotdi. Onasining «hozir» degan ovozi, eshik ochilgandan keyin qo‘shni ayolning «Ma’sumaxon, ikkitagina tuxum berib turing, aylanay» deganini eshitib, sal o‘ziga keldi. Vujudida jon-pon qolmaganini shundagina his qildi.



Bo'sh qopday shalvirab o'tirib qoldi. Sovqotgan odamday badaniga yengil titroq turdi. Onasi:

— Turdingmi, bolaginam? — dedi eshikni qiya ochib.

«Bormayman maktabga, — deb o'yladi Asror, — hech qayoqqa chiqmayman». «Uyda yotib olganimdan shubhalanishsa-chi?» degan o'y xayoliga kelib, boshini ko'tardi. Keyin: «Muncha qo'rqaman, axir uni men o'ldirganim yo'q-ku!» deb o'ziga-o'zi tasalli berganicha o'rnidan turdi. «Men o'ldirganim yo'q!» deb qayta-qayta takrorladi. O'zini shunga ishontirmoqchi bo'ldi. Bu ruhiy muolaja ta'sir etdimi, sal yengil tortdi.

Tomog'idan narsa o'tmasa ham, o'zini majburlab nonushta qildi. Ko'chaga chiqdi. Chiqdi-yu beixtiyor atrofga alanglab oldi. Burchakdagi uy qarshisida Dilfuza uni poylayotgan edi. Ular har kuni shu yerda uchrashib, birga maktabga ketishardi. Dilfuza uni jilmayib qarshi olardi. Hozir mahzun bir ahvolda. «U ham uxlamaganga o'xshaydi», deb o'yladi Asror. Bosh irg'ab salomlashishdi. Xuddi urishib qolganday indamasdan yurishdi.

— Endi nima bo'ladi? — dedi Dilfuza past ovozda.

Asror unga bir qarab oldi, ammo javob qaytarmadi.

— Qamariddin boshlamagandaydi...

— Qamar boshlamadi, nimaga o'zi pichoq chiqardi! — dedi Asror jahl bilan. — Sen.. kecha u yerda yo'q eding, bildingmi?

— Siz-chi? — Dilfuza Asrorning biligidan ushlab to'xtatdi, — Siz-chi?

— Men... bilmadim...

— Siz ham yo'q edingiz. Birga... kinoda edik. Guvohlarim bor.

— Guvoh?

— Ha, dadamga kinoda edik, deganman. Tasdiqlashlari mumkin.

Asror javob qaytarishga ulgurmadi. Orqadan kimdir chaqirib qoldi. Ikkovlari baravar to'xtab, qarashdi. O'ttiz qadamcha narida sinfdoshlari Zoir yugurib kelayotgan ekan.



— Kecha Turob bilan boruvdik, uyingda yo‘q ekan-san, oying aytdilarmi borganimizni? — deb so‘radi u yetib kelgach.

— Kecha... kinoda edik, — Asror beixtiyor shunday deb Dilfuzaga qaradi. Dilfuza ko‘z ishorasi bilan uning gapini ma‘qulladi.

— Nimaga boruvdinglar?

— Turobning opasi erga tegyapti-ku? Yigirma ikkinchida ziyofati ekan. Bir qizitib berasan.

— Yigirma ikkinchi... shanbami? Bilmadim. Dadam to‘y olib qo‘ygan bo‘lishlari mumkin.

— Agar Turobning boshida tashvishlari bo‘lmaganida senga yalinmasdik. O‘zing xo‘p deganding-ku?

— Xo‘p deganman, lekin boshqa kunlar bo‘lsin-da, Juma, shanba, yakshanba band bo‘lamiz.

— Pulini bersak-chi?

— Kim beradi?

— Ishing bo‘lmasin. Dadangga ayt, pulini to‘laymiz.

Zoir shunday degach, xuddi darsdan kechikayotgan-day yugurib ketdi. Uning achchiqlanganini, birga yurish-dan or qilganini Asror ham, Dilfuza ham sezdi. Sezsa-da, bir-biriga bu haqida so‘z ochishmadi. Chunki, odamgarchilik haqida bahslashadigan kayfiyatda emasdilar. Hozir ularning xayoli bir narsa bilan — kechagi mudhish voqea bilan band edi.

Kinoxonaga yaqinlashganda Asror qator teraklar to-monga o‘g‘rincha qarab qo‘ydi. Qamariddinning o‘tiradigan yeri shu joy. O‘tgan yili xuddi shu yerda, xuddi shu paytda Qamariddin uni chaqirgan edi. Asror Qamariddinni ham, uning atrofidagilarni ham sirdan tanir edi. Bir necha oy muqaddam qamoqdan chiqqan Qamariddinning, sheriklarining yomon bolalar ekanligini ham bilardi. Qamariddin chaqirganida ko‘ngli nimanidir sezib, oyog‘idan ma-dor ketdi. Bormay, qochib ketsam-chi, deb ham o‘yladi. Ammo, qochib qayoqqa ham borardi. Besh-olti soatdan



keyin yana shu yerdan o'tadi. Ertaga ham, indiniga ham...
Noiloj bordi.

— Kecha to'yda yaxshi tushdimi? — dedi Qamariddin ishshayib. O'shanda uning ishshayganidan ko'rinuvchi so'yloq tishlari ham, g'ilay ko'zi ham Asrorga dahshatli ko'ringan edi. Nima deb javob berishni bilmay, indamay turgandi. Qamariddin esa uning yelkasiga qo'lini qo'yib, yumshoq ohangda ammo qat'iy buyruq qilgan edi, — Shirinkomadan cho'zish kerak. Bizdan qochma. Men bilan bo'lsang, birov chertmaydi seni. Bo'lmasang — o'zingga qiyin.

Dadasi Asrorga pul bermasdi. Asror onasidan olgan ovqat puliga qanoat qilardi. O'shanda ham cho'ntagida arzimagan tangalar bor edi. Qamariddin uning boshini silab turib mazax qildi. O'shanda Asror to'yga borilganda qistirilgan pullardan berkitib qolib, unga keltirib berish lozimligini tushundi.

Bora-bora Asrorning o'zi ham Qamariddinning «ishonchini'oqlab», shu yerda o'tiradigan bo'ldi. Qamariddin esa undan boshqa pul so'ramadi.

Hozir ularning joyi bo'sh. Hech kim yo'q. «Hammasi in-inida berkinib yotibdi, — deb o'yladi Asror, — maktabga kelganim yaxshi bo'ldi».

Maktab ko'chasiga burilishganda Asror qadamini tezlatdi.

— Sekinroq borarsan, — dedi Dilfuzaga qarab.

— Bugun ko'rishamizmi? — dedi Dilfuza siniq ovozda.

— Bilmayman.

Dilfuza sakkizinchida o'qiydi. Asror bilan birga maktabga kelib ketishi, tanaffuslarda gaplashib turishi ayrim o'quvchi, hatto o'qituvchilarda noto'g'ri fikr uyg'otgan, keraksiz mish-mishlarga sabab bo'lgan, oqibatda sinf rahbari qizni tartibga chaqirgan edi. Asror kecha «tarbiyaviy soat» natijalarini Dilfuzaning o'zidan eshitdi. Maktabga yetmay ajralishlariga shu sabab edi. Endi ularni birga ko'rmaganlari ma'qul.

Hozircha ular maktabga bora tursinlar. Biz ularni o'z tashvishlari, xayollari mayliga tashlab qo'yaylik-da, bu yerdan uch chaqirim naridagi rayon militsiyasiga boraylik. U yerda biz kutilmagan uchrashuvga duch kelamiz.

MILITSIYAGA YETIB KELGAN XABAR

*yoxud pensiyaga chiqishni mo'ljallab turgan jinoyatga
doir qidiruv bo'limi nozirining arizasini qaytarib
olgani haqidagi hikoya*

Mayor Maqsud Soliyev yarim tunda operatsiyani yakunlab, uch oydan beri izma-iz quvib kelayotgan o'g'riboshini qo'lga olgach, uyga qaytgan edi. Kech yotganiga qaramay, odaticha erta turdi. Nonushta payti xotinig qarab:

— Ish bitdi. Va'da bo'yicha bugun arizamga qo'l qo'yishadi. Ana endi ikkimiz qarilik gashtini suramiz, — dedi.

— Siz-a?.. — dedi xotini kinoya bilan, — uyda o'tira olarmikansiz?

— Bu gaping ham to'g'ri, yengilroq bir ishga kirarman.

Mayor bugun ishga shoshilmasa ham bo'lardi. Lekin tarki odat — amrimahol deganlaridek, choy icha turib ham soatiga bir-ikki qarab qo'ydi. Xotini buni sezib, yengil uf tortdi.

— Boraqoling ishingizga. Yana dunyoni o'g'ri bosib ketmasin, — deb kesatdi. Maqsud Soliyev bunday kesatiqlarga, xotini esa uning hamisha shoshib turishiga ko'nikib qolgan. Agar u ishga shoshilmasa, uyda o'tirsa, xotinig kesatiqlar uchun vaj qolmaydi. Ana shunda ikkovi chekishni tashlagan kashandaday garangsirab qolsa kerag-ov.. Shubhasiz, sobiq mayor ishini qo'msaydi. Xotin esa gap bilan uzib-uzib olishni. To yangicha boshlanajak sokin hayotga ko'nikkunlaricha qiynalishlari aniq.



Tunlari jinoyatchini quvishlar, ayozli kunlarda dildirab yo'l poylashlar, olishuvlar... hammasi tushda ko'rganday o'tadi, ketadi. Hamma qatori shomda televizor ko'radi; hamma qatori yotib uxlaydi. Yelib yugurmaydi. Ishga kirsak kirar, bo'lmasa choyxonada choyxo'rlik qilib yuraveradi-da.

Aslida pensiyaga o'tgan yili chiqish kerak edi. Avval o'zi paysalga soldi. Ishdan ketsa joni uzilib qoladiganday bo'laverdi. Keyin yuragi sanchib, nafasi qisilavergach, ariza berdi. Bo'lim boshlig'i ancha oyoq tiradi. Osonlikcha bo'shatmasliklarini mayor bilardi. Boshliq yosh, shoshqaloqroq. Jinoyatchilarni tez qo'lga tushirsa-yu, shuhratga burkansa, yuqoriroqqa ko'tarilsa. Bilakda kuch bor, g'ayrat bor, ammo Maqsud Soliyevdagi tajriba, aql unda yo'q. Shunday bo'lgach, ishongan xodimini osongina pensiyaga kuzata qolarmidi? Bundan uch oy avval mayorning ahdi qat'iyligini bilgach, ko'ndi. Biroq, bir shart qo'ydi. «Kechasi o'g'rilikni o'zingiz ochasiz», deb turib oldi. O'g'rilarning ish usuli mayorga tanish edi: bir ayol eshikni taqillatadi, qolganlar poylab turadi. Eshik ochilgach, bos-tirib kirishadi. Mana shu oddiy usul, ko'p aql talab etmaydigan o'g'rilik mayorni uch oy gangitdi. Nihoyat, kecha ishga yakun yasaldi. Bugun va'da bo'yicha, arizaga imzo chekiladi.

Nonushta paytida Maqsud Soliyevning dili ravshan edi. Ko'chaga chiqib ishxonaga yaqinlashgani sayin ko'ngli xiralashib boraverdi. Hozir boshliq huzuriga kiradi. Imzo chekiladi. Tamom! O'ttiz yillik mehnatiga shu zaylda yakun yasaladi. Balki boshqarmadan faxriy yorliq berishar, balki majlis chaqirib, tantanali ravishda kuzatishar. Mayor bularni o'ylab qayg'urmaydi. Uning qayg'usi boshqa — o'ttiz yil umrini bergan ish bilan vidolashishda.

Militsiya binosi ko'ringach, oyoqlari yurishdan bosh tortayotganday tuyuldi. «Ishqilib boshliq joyida bo'lmasin», «Ishqilib boshliq ko'nmasin», degan xayollar vujudini qamrab oldi.

Ichkariga kirishi bilan navbatchi militsioner «Boshliq yo‘qalayapti, tez kiring» degach, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi. «Tamom, ish pishibdi. Boshliq ko‘nibdi. Hozir men bilan xayrlashishadi».

Podpolkovnikning xonasida bo‘lim boshlig‘i bilan yana bir notanish kishi bor edi. Maqsud Soliyev kirgach, podpolkovnik o‘rnidan turib unga peshvoz chiqdi:

— Tabriklayman, Rahmat, sizga, — dedi u, mayorni ikki yelkasidan quchib. Keyin joyiga borib o‘tirdi-da, notanish kishini tanishtirdi:

— O‘rtoq Imomaliyev bizga bir xabar yetkazdilar. Kecha shom qorong‘isida besh-olti bezori bir odamni kaltaklab, keyin suvga tashlab yuboribdi.

Bu xabar mayorning g‘ujg‘on xayollarini bir zumda tarqatib sergak torttirdi. U bir zumning o‘zida, pensiyaga chiqayotgan odam libosini itqitib, jinoyatga doir qidiruv bo‘limining tajribali noziri qiyofasiga qaytdi. U sarsari xayollarini unutib:

— Qayerda? — deb so‘radi.

— «Chehra» degan pivoxona bor-ku, o‘shandan yuz metrcha narida. Anhor bo‘yida urishdi, — dedi Imomaliyev.

— Bezorilarni taniysizmi?

— Yo‘q.

— Jabrlangan odamni-chi?

— Hech qaysisini tanimayman. Pivo ichib o‘tirib ko‘zim tushdi. Avval urishdi. Odam yiqilganda tepishdi. Keyin bir nimalar qilishdi. Ko‘zim ilg‘amadi. Keyin... odam o‘lgan bo‘lsa kerak, suvga otishdi.

Ikki yonog‘i qip-qizil bu odam Maqsud Soliyevning ko‘ziga yomon ko‘rinib ketdi.

— Indamay o‘tiraverdingizmi pivo ichib, yordamga bormadingizmi?

— Kechirasiz, — dedi Imomaliyev o‘rnidan turib, — bezorilarga zarba berish — sizning ishingiz. Men burchimni ado etdim — sizga xabar qildim.



— Shunga ham shukr, katta rahmat sizga, — podpolkovnik shunday deb o'rnidan turdi-da, unga qo'l uzatdi. — Kerak bo'lsangiz yana bezovta qilamiz.

Imomaliyev chiqishga shaylanganida mayor uni gapga tutdi:

— Bezorilar necha kishi edi?

— Besh-oltita dedim-ku!

— Aniqroq bilmaysizmi? Yoshi-chi, yoshlarmi, yo kattalarmi?

— Bilmadim, g'ira-shirada ajratib bo'lmadi. Gavdasiga qaraganda bolalar edi.

— Sizdan iltimos, ko'rganlaringizni boshqalarga aytmay turing.

Imomaliyev xo'p, deb chiqib ketgach; podpolkovnik Maqsud Soliyevga ayyorona qarab oldi.

— Nima qilamiz? Prokurorni ogohlantirdik. G'avvoslarni chaqirdik.

— Hozircha shov-shuv ko'tarmay turish kerak. O'ldirilganini bildirmay turaylik.

Podpolkovnik mayorning maqsadini tushundi: qotillar hozir in-iniga kirib ketgan. Jinoiy ish qo'lg'alganini bilishsa hali-beri chiqishmaydi. Shunchaki baxtsiz hodisa, deyilsa, ularning yuzaga chiqishi tezlashadi. Mana shularni nazarda tutib, podpolkovnik uning taklifiga rozi bo'ldi.

— Shu ish bilan o'zingiz shug'ullanmaysizmi? Mana, bo'lim boshlig'i rozi bu taklifga.

Bu gapdan mayor gangidi. Bu yerga kirishdan maqsad boshqa edi. Gap teskari tomonga aylanib ketdi-ku? «Bo'lim mudiri rozimish, — deb o'yladi mayor, — bu taklif uning o'zidan chiqqandir, hoynahoy, ha, ayyor bola!»

— Men... nima desam ekan?

— Xohlang taklif o'rnida qabul qiling, xohlang buyruq.

— Men... ariza berib qo'yg'an edim.

Podpolkovnik stoli ustidagi bir varaq qog'ozni olib unga uzatdi.

— Mang, olib qo‘ying. Hali erta sizga. Endi kuchga to‘lib, etilgan paytingizda ketmoqchimisiz?

— Salomatligim... — Maqsud Soliyev gapini oxiriga yetkaza olmadi. Podpolkovnik uni shart kesdi:

— Shu ishni oxirigacha yetkazing-chi, keyin gaplashamiz.

Maqsud Soliyev yo‘q, deb turib olishi, kattaroq boshliqlarga murojaat qilishi ham mumkin edi. Lekin, haq gapga ko‘chilsa, hozirgi taklif unga yoqdi. Shuning uchun arizaga qo‘l uzatganini o‘zi ham sezmay qoldi. Hatto chiqar mahalida «yaxshi bo‘ldi» degan fikr diliga ravshanlik olib kirdi.

Dahlizda Imomaliyevga duch kelib to‘xtadi.

— O‘rtoq mayor, ular orasida bir qiz ham bor edi. Chetda turuvdi.

— Indamay turuvdimi?

— Ha, u urishga qo‘shilmadi, chetda edi.

— Men bu ma‘noda so‘ramadim, qiz qichqirmadimi, yordamga chaqirmadimi?

— Yo‘q, qichqirsa eshitardim.

— Ertaga ertalab, yo‘q sahar soat oltida pivoxona yoniga kela olasizmi?

— Zarur bo‘lsa kelaman.

— Rahmat sizga, yana biror nima esingizga tushib qolsa, telefon qiling, — Maqsud Soliyev shunday deb unga tashrif qog‘ozi uzatdi.

«Shunisiga ham shukr deymiz, — deb o‘yladi u nari ketgan Imomaliyevning orqasidan qarab. — Ko‘rgan ekan, yugurib bormaydimi, odam to‘plamaydimi. Ozgina harakati bilan bir bechorani o‘limdan saqlab qolardi. Pivoxonada boshqalar ham ko‘rishgan janjalni. Lekin, biron bir insof egasi topilmagan — birontasi ham o‘rnidan qo‘zg‘olmagan. Tag‘in ham bunda insof bor ekan, xabar qildi. Boshqalar-chi? Qo‘rqoqmi? Loqaydmi? Ular o‘sha odamning o‘limida o‘zlarini aybdor his qilarmikanlar?



«Men o'rtaga tushganimda tirik qolardi», deb vijdonlari azob berarmikan?»

Maqsud Soliyev o'ttiz yillik ishi davomida odamlarning turfa xilini ko'rdi. U tajribasiga suyangan holda bir narsaga amin bo'ldi: jamiyat uchun jinoyatchidan ko'ra loqayd odam xavfliroq! Jinoyatchi jabrini tortadi, balki to'g'ri yo'lini topib oladi. Loqayd odam esa yangi-yangi jinoyatlarni ko'rganida ham ko'z yumib ketaveradi. Buning uchun uni hech kim ayblamaydi. Loqaydlik degan dard bo'lmaganida qanchadan-qancha odam jinoyat jari yoqasida to'xtatib qolinar edi. Maqsud Soliyev mana shu hol bilan sira murosa qila olmaydi.

Maqsud Soliyev xonasiga kirib, balog'atga yetmaganlar bilan ish olib boruvchi bo'linga qo'ng'iroq qilib, pivoxona atrofini nazorat qiluvchi nozirni topdi.

— Ro'yxatingizda turuvchi barcha o'smirlar haqidagi ma'lumotni olib keling, — deb iltimos qildi. Uning ishni o'smirlardan boshlashiga faqat Imomaliyevning ma'lumoti emas, balki ko'p yillik tajribasi ham sabab edi. Bir kishiga ko'pchilik bo'lib hujum qilinsa, ko'p holda ular orasida o'smirlar uchrardi. Kalavanning uchini topish ham aynan shulardan boshlanardi. Dastlabki jinoyat qo'rquvi ularni fosh qilib qo'yardi...

Mayor telefondagi gapini tugatmay, bo'lim boshlig'i yosh yigitni boshlab xonaga kirib keldi.

— Ukamizni qanotingizga oling, Tal'at Shoumarov. Ikkinchi kursda o'qir ekanlar. Praktikantlar, Afg'onistonda xizmat qilgan ekanlar. Kuch yetarli. Ammo, bilim bilan tajriba boshqa.

Bo'lim boshlig'i shoshilib turgan ekan, chiqib ketdi. Mayor Tal'at bilan suhbatlashib, uning oilasi, harbiydagi xizmatini so'rab bildi. Keyin boshlanajak ishni ma'lum qildi.

— Bir rejam bor, siz shuni amalga oshirishda yordam berasiz. Hozircha siz student emas, bekorchisiz. Pivoni

yaxshi ko'rasizmi? Ichmasangiz ham pivoxona atrofida o'ralashishga to'g'ri keladi. Oqshomda siz bilan o'sha yerda uchrashamiz. Siz meni tanimaysiz, men sizni.

Ular shu qarorga kelib xayrlashdilar.

Mayor oqshomda uyiga o'tib kiyimlarini almashtirib chiqdi-da, pivoxona tomon yo'l oldi.

Biz mayor bilan pivoxonada hali uchrashamiz. U oqshomga qadar mayda-chuyda ishlari bilan ovora bo'lib tura tursin. Unga qadar maktabga qaytaylik. Asrorning holdan bir xabar olaylik.





Yoqut RAHIMOVA

(1947)

Yoqut Rahimova 1947- yil 1- yanvarda Toshkentda ziyoli oilasida tug'ilgan. O'rta maktabda o'qib yurgan chog'larida Quddus Muhammadiy rahbarlik qiladigan adabiyot to'garagida ijod sirlarini o'rganadi. 1964- yili uning «Oyisi kelguncha» nomli ilk hikoyasi «G'uncha» jurnalida bosiladi.

O'rta maktabni tugatib, Toshkent Politexnika institutining kimyo-texnologiya fakultetiga o'qishga kiradi. Uni muvaffaqiyatli tugatib, muhandis maqomini oladi.

Mehnat faoliyatini O'zbekiston oziq-ovqat sanoati ta'minot va taqsimot Bosh boshqarmasida iqtisodchi-muhandislik lavozimidan boshlaydi.

1973- yildan respublika gazeta va jurnallarida, nashriyotlarda xizmat qiladi. 2000- yildan respublika bolalar jurnali «G'uncha»da bosh muharrir lavozimida ishlab kelmoqda.

Yoqut Rahimovaning «G'urur» nomli ilk hikoyalar to'plami 1978- yili chop etilgan.

Adibaning «Ko'rishguncha, xayr!» nomli qissasi «Sharq yulduzi» jurnalida (1979) bosilgach, adabiy jamoatchilik va kitobxon e'tiboriga tushadi. Shundan keyin uning «Ko'ngil», «Boychechak», «Surat», «Oq bahor» «Bu Sizga, Oyijon!», «Shirinni taniysizmi?» nomli qissa va hikoyalar to'plamlari chop qilinadi.

Yoqut Rahimovaning ko'pgina hikoyalari qardosh xalqlar tillariga tarjima qilingan.

U «O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi», «Mustaqillikning 10 yilligi» nishonlari bilan taqdirlangan.

SHOKIR ARMIYAGA BORADI

Shokirning akasi Adham harbiy xizmatga ketadigan bo'lib qoldi. Adham akasining bir o'zini harbiy xizmatga ketmoqchi bo'layotganini eshitgan Shokir hayron bo'lib qoldi: Qanday qilib? Nega endi akasi Shokirni o'zi bilan olib ketmay, bir o'zi ketmoqchi bo'lyapti? Axir Shokir hech qachon akajonisidan ajralgan emas-ku! Nega endi uni ham olib ketmasdan bir o'zi ketarkan-a?!

Kichkintoy Shokir jaji boshini changallab, qanchalik o'ylamasin, buning sababini tushunolmasdim. Shunda u akajonisining oyog'iga yopishib, yalinib-yolvorishga tushdi:

— Jon akajon, meni ham armiyaga o'zingiz bilan birga olib ketaqoling. Yo'q demang, olib keting. Men hamma aytganlaringizni qilaman. Yaxshi bola bo'laman. Maylimi?..

Adham akasi uning gaplaridan kulib, shartta ko'tarib oldi-da, ovutishga tushdi:

— Se-en, Shokirjon, ko'p ham shoshilmay turgin. O'zing yaxshi, aqlli bolasan-ku. Avval men senga ham mos keladigan harbiycha forma buyuraman. U tayyor bo'lsin. Keyin senga to'g'ri keladigan yulduzchali shapka topaylik. Hammasi tayyor bo'lgandan keyin men armiyadan kelaman-da, seni harbiychasiga kiyintirib, o'zim bilan olib ketaman. Sen ungacha yaxshi bola bo'lib, oyimning hamma aytganlarini qilib turgin. Bo'ptimi?

— Bo'pti, — dedi xursand bo'lib Shokir. — Menga albatta, harbiycha forma olib kelasiz-a?

— Albatta olib kelaman, — dedi akasi.

Shokir akasining va'dasidan o'zida yo'q quvonib ketdi. «Qanday yaxshi-ya, — xayol surib ketdi u. — Akam o'zimga mos, kichkinagina harbiycha forma olib kelsalar. Shapkamning peshonasida ka-atta yulduzchasi bo'lsa. Ularni kiyib olsam, o'rtoqlarimning rosa havaslari kelgan bo'lardi-da. Qandoq zo'r bo'lardi-ya. Qaniydi, o'shalar hoziroq oldimda bo'lib qolsa. Ularni darrov kiyib



olardim-da, Adham akam bilan armiyaga ketardim. Lekin... buning iloji yo'q-da...»

Shokir akasini armiyaga kuzatar ekan, orqasidan havasi kelib qarab qoldi: «Tezroq boraqoling, akajon. Men sizni kutaman».

U endi har kuni Adham akasining forma olib kelishini zoriqib kuta boshladi. Shokirning ancha aqli kirib qoldi: u talinkasidagi ovqatni qoldirmasdan yeb qo'yar, kechqurunlari ham televizor ko'raman, deb xarxasha qilmasdan, oyisi aytishi bilan darrov uxlagani yotardi. Hatto kunduz kunlari ham injiqlik qilmay, «tixiy chas» paytida uxlaydigan bo'ldi. Uning juda ham tezroq katta bo'lgisi, kuchga to'lib, baquvvat bo'lgisi kelayotgandi. O'shanda Adham akasi unga yulduzchali shapka, pogonli kichkina shinel va etikcha olib keladi. Keyin ular armiyaga birga ketishadi.

Hozircha esa u Adham akasiga xat yozib turadi. Akasining topshiriqlarini hammasini bajarayotganini, albatta, oyijonisining ham hamma aytganlarini qilayotganligini aytadi.

Ur-ra! Bugun katta bayram: Adham akasidan xat keldi!

Akasi o'z xatida askarlik hayoti, armiyadagi do'stlari haqida hikoya qilgandi. Yana xatida Shokirdan yangi chizgan suratlaridan yuborishni ham so'ragandi. Shokir buni eshitib, xursand bo'lib ketdi va maslahat olgani yugurib oyijonisining yoniga keldi:— Oyijon, oyijon, ayting, Adham akamga yuborish uchun nimani rasmini chizay-a?

— Sen tank va avtomatlarni chizishni yaxshi ko'rasanku. Ana o'shalarni chizib yuboraqol, o'g'lim, — dedi oyisi.

— Voy, hozir sizga urush bo'lyaptimi, tank-avtomatlarni rasmini chizaman? — deb ajablendi Shokir. — Axir hozir hammayoqda tinchlik, hovlimizga bahor kelgan bo'lsa, shunday emasmi, oyijon!

— Ha-ya, to'g'ri aytasan, bolajonim, — dedi oyisi kulib. — Rostdan ham hammayoqda bahor... Bahorni chizaqol.

Shokir yugurib, o'z xonasiga kirib ketdi. Stol yoniga o'tirib, uzoq o'yladi: «Nimani chizsam ekan-a?» Keyin yana yugurib, oyisining yoniga keldi.

— Topdim, topdim oyijon, — dedi u quvonganidan sakrab. — Men akamlarga bog'imizning suratini chizib yuboraman. Arig'imizni, uning chetidagi ochilib turgan binafshalar, o'rigimizning qanday gullab yotganini chizaman. Yana-chi, oyijon, quyoshning qanday nur sochayotganini, tomimizdagi ochilib yotgan lolaqizg'aldoqlarni, chuchmo'malarni ham chizaman. Chuchmo'malarniyam, to'g'rimi, oyijon!

Shokirning gaplaridan oyijonisi sevinib ketdi:

— O'zim o'rgilay, sendan. Qanday aqlli bolasan-a! Akang sening rasmlaringni ko'rib, judayam sevinib ketadi. Xuddi bog'imizni ko'rgandek bo'ladi-ya. Hammasini chizaqolgin, bolam. O'zing juda zo'rsanda, o'g'lim...

Shokir oyisining xursand bo'lganidan o'zini maqtaganidan quvonib, xonasiga yugurdi. U erinmasdan uzoq, astoydil chizishga harakat qildi. Keyin nimadir esiga tushib qoldi shekilli, yana yugurib, oyisining yoniga keldi:

— Oyijon, qaldirg'ochlarni ham chizaymi? — deb so'radi.

— Ha, albatta. Chizsang, akang xursand bo'lardi, — dedi oyisi.

— Ammo, ular hali uchib kelishmadi-ku, — dedi hayron bo'lib Shokir.

— Nima qipti. Vaqti-soati yetgach, albatta, uchib kelishadi, — dedi oyisi.

— Yo'q. Avval uchib kelishsin, keyin chizaman, — dedi Shokir va yana rasm chizgani xonasiga kirib ketdi. Kechki payt u rasmlarini chizib, bitirdi. Keyin tagiga: «Akajon, hali qaldirg'ochlar bog'imizga uchib kelishmadi. Qachon uchib kelishsa, ularni ham albatta, sizga chizib yuboraman», deb yozib qo'ydi.

Nega shunday qarorga keldi — buni faqat o'zi bilardi.



Axir u xatni ARMIYAgA yozayotgandi. Shunday ekan, faqat to'g'risini yozishi kerak.

ARMIYA — mana shunaqa!

OOQIZOQ

Davron ariq ustidagi ensiz ko'prikchada o'tirib, oqizozq o'ynayotgandi. Uning tepasida papkasini ko'tarib, gerday-gancha Dilshod paydo bo'ldi.

Davron o'yinga qiziqib ketib, akasi kelganini ham sezmay qolgan ekan.

— Qayoqdan kelyapsiz, aka? — deb so'radi hayron bo'lib Davron.

— Qayoqdan kelayotganimni ko'rmayapsanmi? — Dilshod papkasiga ishora qildi. — Maktabdan kelyapman.

— Fu... — dedi mensimaygina Davron. — Maktabdan kelayotganmishlar. — U yana oqizog'ini chiqarib, suvga tashladi. Keyin qo'shib qo'ydi:

— Nima bo'пти, siz maktabdan kelsangiz, men bog'chadan keldim.

— Va-a! Bog'chadan kelganmish... — Dilshod qornini ushlab kula boshladi. — Bog'cha nima bo'пти, bog'cha! Unga hamma zumrashalar boraveradi-da! Maktab — bu boshqa gap. Unga seni olishmaydi.

— Olishmasa, olishmasin, — dedi Davron beparvolik bilan.

— Men shundoq ham o'qishni bilaman, — dedi keyin maqtanib.

— Bilmaysan!

— Bilaman.

— Yaxshi, qani, bilsang, mana bu sahifada nima yozilganini bir o'qib ber-chi, — dedi Dilshod papkasidan kitobni olib.

— Hozir o'qigim kelmayapti-da, — bahona qilib, esnadi Davron.

— A... bilmaysan-da, shuning uchun bahona qidiryp-



san, o'qigim kelmayapti, deb, — masxara qildi uni Dilshod.

— Bilama-an... faqat hozir oqizoq o'ynagim kelyapti, — javob qildi Davron.

Dilshodning unga havasi kelib ketdi. O'rtasidan ip bog'lab, oqizoq qilingan bir tutam o't sum ustida qalqib borar, sal uzoqlashishi bilan Davron suv yuzini jimirlatib, uni tortib olar, yana uzoqqa otardi... Eh, qanday maza!

— Davron, oqizog'ingni menga berib tur. Men ham bitta oqizay, — dedi Dilshod.

— Ho... — dedi Davron qizg'anib. — O'zim oqizyapman-ku!

— Fu... — dedi alam bilan Dilshod. — Shuyam oqizoq bo'пти-yu...

— Ajab bo'lsin, sizda oqizoq yo'q... — dedi Davron g'ururlanib.

— Nima bo'пти. Mening bo'yoq qalamim bor, — deb maqtandi Dilshod papkasini ochib. — Senda yo'q! Mana, menda bo'lsa, yigirma to'rtta bor.

— Vax-xax-xa! Yigirma to'rttamish... — Davron uni masxaralab, kula boshladi.

— Rostdan, yigirma to'rtta. Mana, ishonmasang, sanab ko'r.

— Nima qilaman sanab, — dedi bepisandlik bilan Davron.

— Yigirma to'rtta bo'lsa bo'lar, menga bittasi ham kerakmas.

— Nega kerakmas ekan? Bo'yoq qalaming bo'lmasa, hech narsani rasmini chizolmaysan, — kuldi Dilshod.

— Rasm chizib nima qilaman? Chizmayman!

— Xa-xa-xa! — kuldi Dilshod. — Rasm chizishni ham bilmaysan-da. Shuning uchun chizmaysan.

— Kim aytdi? Nega bilmas ekanman? — Alam qilib ketdi Davronga. — Sizdan ham yaxshi bilaman!

— Qani bilsang, biron nimani rasmini chizib berchi! — gapida turib oldi Dilshod.



— Bo'пти. Hozir nimani desangiz ham chizib tashlayman. To'xtab turing.

U uyiga kirib ketib, katta qog'oz ko'tarib chiqdi.

— Bering buyoqqa qalamingizni. Qani, nimani rasmini chizib beray? — deb kerildi Davron.

— Hozir... — Dilshod, «nimani chizdirsam ekan», deb o'ylay boshladi. Keyin:

— Topdim, — dedi xursand bo'lib. — Robotni chizib bera qol.

— Va-a, robotnimi, — dedi mensimay Davron. — Shunga bosh qotirib o'tiribsizmi? Undan osoni yo'q-ku! Hozir chizib tashlayman.

Davron shunday deb, Dilshodning papkasini oldi. Uning ustiga qog'ozini qo'yib, engashdi. «Nimadan boshlasam ekan?» deb o'ylanib qoldi. Keyin sevinib:

— Bo'ldi, topdim, — dedi o'ziga-o'zi va qog'ozga chiza boshladi. Lekin chizganlari quruq chiziqlardan boshqa narsa emasdi.

— O'yinchoq bo'libdi-da, robotni chizish, — dedi uni kuzatib turgan Dilshod masxara qilib. — Bu senga to'rtburchak uy emas, robotku, baribir ham uni o'xshatib chiza olmaysan.

— Hozir... shoshmang, — dedi Davron bo'shashib, — mana, hozir chizib tashlayman.

U chiziqlar tepasiga dumaloq qilib robotning boshini chizdi. Keyin oyoqlarini chizgandi, rasm robotdan ko'ra ko'proq bolalar bo'r bilan asfaltga chizadigan kulgili odamga o'xshab qoldi.


— E...e...e... — dedi Davron betoqatlanib va rasmni bo'yab tashladi. — Bo'lmadi! Hecham o'xshamayapti, — dedi u tan olib.

— Ana, ko'rdingmi! — dedi sevinib Dilshod. — Sen bo'lsang, bundan osoni yo'q, deganding...

Davron mulzam bo'lib, bir zum nima qilishini bilmay qoldi. Keyin, «alam qilsin», dedi-da, oqizog'ini yig'ishtirib, yugurganicha uyga kirib ketdi. Lekin... o'sha-

o'sha u boshqacha bo'lib qoldi. Qanaqasiga boshqacha deysizmi? O'zingiz ham buni darrov anglab olgan bo'lsangiz kerak-a...

QASOS

 anday yaxshi-ya! Qishning qirovli kunlari tugasa, qor-yomg'irlar to'xtasa-yu, bahor yomg'irlarining o'rnini issiq kunlar egallasa, hamma yoqni yashnatib, yoz kelsa!

O'ziyam ana o'shanda haqiqiy o'yin-kulgi boshlanadi-da! Nega buncha yozni kutib, oshiqyapsan, deysizmi? Gap shundaki, bizning uzun ko'chamizning etagidan katta kanal oqib o'tadi. Kanalning narigi tomoni esa poyoni yo'q ko'm-ko'k dalalar bilan qoplangan. Kanal bo'yi hamisha kichkintoy bolajonlar bilan gavjum bo'ladi. Yo'q, yo'q, bu yerga katta bolalar ham kelishadi. Ular o'zlari bilan baliq ovlagani qarmoq ham olib kelishadi. Kichkintoylar-chi, deysizmi? Ha, bu zumrashalar «oqizoq» o'ynasha-di — bir tutam o'ni o'rtasidan uzun ipga bog'lab olishadi-da, qirg'oqdan suvga tashlab, oqizoq qilib o'ynashadi. Oqizoqlarning suvda aylanishini, to'lqinlar bilan o'ynashini miriqib tomosha qilishadi. Ular kechgacha ham kanal bo'yidan siljishmaydi...

Shunday kunlarda men ham maktabdan kelaman-u, papkamni uloqtirib, qarmog'imni va bankaga oldindan yig'ib qo'ygan chuvalchanglarimni olib, kanal bo'yiga yuguraman. Qirg'oqda joylashib olib, suvga qarmog'imni tashlayman-u, undan ko'zimni uzmay o'tiraveraman. Mana, hozir-hozir tilla baliqcha qarmog'imga ilinadi! Quvonganimdan barcha narsalarni unutam — butun fikru xayolim qarmoqda bo'ladi. Axir vaqt degani ham xuddi daryoday gap ekan-da. Bir zum to'xtamay oqaveradi.

Uyga kech kirib, qorong'i tushganda qaytaman. Oyim meni ko'rgan zahotilari koyiy boshlaydilar:

— Maratjon, o'g'lim, yana dars tayyorlashni unutdingmi? Axir imtihonlaring boshlanay deyapti-ku. Bo'ldi.

Menga atalgan «2»lar tayyor, deyaver. Yoki yana sinfda qolmoqchimisan?

— Hechqisi yo'q, — deyman beparvo. — Hali yetib olaman. Mana, hoziroq dars tayyorlayman.

Shunday deb naridan-beri ovqatlanaman-da, rostdan ham dars tayyorlash uchun darsxonamga kiraman. Kito-bimni ochib, qatorma-qator o'qiy boshlayman. Ammo, qancha o'qimay, hech narsani tushunmayman, qayta-qayta o'qishga harakat qilaman-u, ammo foydasi yo'q, kitobimga boshimni qo'yib, uxlab qolaman.

Tushunaman, oyim haqlar. Aqlimni yig'ishim kerak. Axir rostdan ham imtihonlar yaqin qolgan-ku. Mayli... bugun, faqat bugun o'ynab olay, — deyman o'zimga-o'zim, — keyin albatta, o'tirib, imtihonlarga tayyorlanaman. Bugun, ertaga, indinga...

Har kuni shunday deb o'zimni ovutaman. Biroq, men o'yinni quvganimdek, kunlar bir-birini quvlab, imtihonlar ham yetib keladi. Mana, bugun ona tilidan birinchi imti-hon! Insho yozishimiz kerak. Men bo'lsam kitobimni qo'limga ham olmaganman. Endi nima qilaman? Yoki, kanal bo'yida o'tirib qarmoq bilan baliq ovlash qanday maza-ligini yozsammikin-a. Axir hayajonlanib, butun vujuding bilan berilib, nafas ham olmay, qalqovuchingni, qarmoq ipiga bog'langan po'kakning qimirlashini kuzatib o'tirish maza! Har nafas «qimirlasmikin-a» deya ko'z uzmay kuzatasan.

Buyoqda bo'lsa... bemaza imtihonlar...

Zerikkanimdan uyoq-buyoqqa alanglayman, biron iloji bormikin-a, deya qidiraman. Birdan ko'zim oldingi par-taga tushadi. Buni qarang: «Rustam-chi, anavi lapashang, ikkichi, shunaqayam yozyaptiki... Iya, to'xta, to'xta. U axir ko'chiryapti-ku! Partadoshi Dilbardan maza qilib ko'chirib yotibdi. Buni qarang-a! Rustam ko'chiradi-ku, men nega ko'chirmayman?

Sevinib, yonimga — Bahodirga qarayman.

— Baho, o', Baho, qo'lingni sal olib tur, — deb pichirlayman partadoshimga, — menga sirayam ko'rinmayapti. Men ham ko'chiray.

Yopiray! Ana bo'lmasa! Mening do'stim, partadoshim Bahodir qo'lini olish o'rniga daftarini panjasi bilan to'sib olsa bo'ladimi? U mening gapimni eshitmagandek, battarroq muk tushib, yoza boshladi. Bir zum boshini ko'tarib, o'ylab oladi-da, yana engashib, yoza boshlaydi.

Men yana unga yalinishga tushdim:

— Axir sen do'stimsan-ku, Baho. Sal boshini ko'rib olay, u yog'ini o'zim yozib tashlayman. Ozgina ko'rsataqol...

— Halaqit berma, — deya jerkib berdi do'stim. — O'zing yoz.

Ey, vaqt, sen o'zing qayoqqa shoshyapsan-a!

Ana, ba'zi sinfdoshlarim insholarini yozib bo'lib, topshirishga tushishdi. Bittasi, ana ikkinchisi ham topshiryapti. Mening daftarim bo'lsa, hamon top-toza. Biron fikr xayolimga kelmayapti-ya. Xuddi miyam to'xtab qolgandek...

Maktabdan uyga valdirab, zo'rg'a-zo'rg'a qaytib keldim. Ha, yaxshi, nima derdim — imtihondan yiqildim. Hech kim yordam bermadi, hatto Baho ham. Yana biz bo'lsak, oddiy partadosh emas, qadrdon do'stlarmiz-a. Nega u bunaqa qaysarlik qilib ko'chirtirishga bermadi-ya? Yon bosay ham demadi. Nima, ko'chirtirsa, bahosi kamayib qolarmidi?

«Ha, mayli. Shoshmay tur. Hali ko'rsan mendan, — dedim alamimdan po'pisa qilib, — shunday ko'rsatib qo'yayki...»

Kunning tafti qaytishi bilan men kanal bo'yiga yugurdim. Tabiiyki, bizning «professor» ham shu yerdalar. Ha. U kishi o'ynamay, kim o'ynasin? Axir imtihon topshirib olgan bo'lsa.

Bahodir ko'prik ustida joylashib olgan, qarmog'ini suvga tashlaganacha hech narsani payqamay, beparvo o'tirardi.

Men sekingina sezdirmasdan orqasidan bordim-da, yelkasidan uni suvga itarib yubordim. U qo'rqqanidan baqi-

rib, dodlaganicha, qulqullab, suvga ag'anadi, men esam orqa-oldimga qaramay, u yerdan qochib ketdim.

Ertasiga hammamiz imtihon baholarini bilgani maktabga borishimiz kerak edi. Men ham o'zimni bahoimni oldindan bilsamda, yana oyimlar sezib qolmasinlar, deb maktabga yo'l oldim.

Albatta, mo'jiza ro'y bergani yo'q — men o'zimga munosib baho oldim. Lekin nimagadir Bahodir maktabga kelmadi. U axir «besh» baho olgan edi-ku...

Yaxshiyamki, oyim uyda yo'q ekanlar. Ming qilsayam so'roq-javob kechroq bo'ladi. Dakkini kechroq eshitaman-da.

Bir payt uyga sinfdoshim Surayyo kelib qoldi.

— Men Bahodirning oldiga bordim, — dedi u, — nega maktabga kelmaganligini bildim. Buni qara-ya, Marat, Baho qayerdadir yiqilib tushib, boshini yorib olgan emish. Endi uyida yotganmish. Senga xat ham berib yubordi.

Men bu xatni Surayyoning qo'lidan qo'rqa-pisa oldim. Balki u orqasi bilan o'tirgan bo'lsa ham, meni tanigandir? Men haqimda nima o'ylagan bo'lsa, hammasini yozgandir?

Surayyoni oldida yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim. Axir uning oldida qanday qilib endi bosh ko'tarib yuraman...

Uyatdan yuzim lov-lov yonib, xatni zo'rg'a ochdim. Bahodir xatida shunday yozgandi:

— Salom, Marat! Ishlaring yaxshi emasligini eshitdim. Qo'yaver, sen xafa bo'lma. Balki senga imtihonni qaytadan topshirishingga ruxsat berishar. Men senga yordam bera-man. Boshim tuzalsa, ikkalovimiz birga baliq ovlaymiz.

Salom bilan do'sting Bahodir».

Xatni o'qib, men lavlagidek qip-qizarib ketgan bo'lsam kerak. Chunki, Surayyo ajablanib, menga tikildi:

— Nima gap, Marat, senga nima bo'ldi?

Men sarosimaga tushib, nima deyarimni bilmay qoldim. Axir Surayyoga nima deyman? O'z qilmishim haqida unga qanday og'iz ochaman?

Men unga hech narsa deyaolmadim. Sinfdoshimning ketishini kutib turdim. U ketishi bilan esa do'stimni ko'rgani va undan kechirim so'ragani yoniga qarab o'qdek uchdim...

VELOSIPED

Anvarning tug'ilgan kunida otasi unga velosiped sovg'a qildi. Anvarning sovg'asiga hamma bolalarning, ayniqsa, o'rtog'i Sardorning ko'proq havasi keldi. Sardor velosipedga qarab sira to'ymasdi. U Anvarning yonidan bir qadam ham siljimas, velosipedning goh yaltirab turgan qanotlarini, goh g'ildiraklarini, goh charmli o'rindig'ini ohista silab ko'rardi. Anvar velosipedga o'tirayotganida uni ushlab turar, yana yiqilib tushmagin, deb o'tirishga yordamlashardi.

Anvar bo'lsa, velosipedga joylashib o'tirib olgach, mana menda velosiped bor, senlarda esa yo'q, degandek, qalbi quvonchga va g'ururga to'lib, velosipedni tez haydab ketar, ko'chalarda uni shamoldek uchirib borardi. Sardor bo'lsa xavotirlanib, «ishqilib, yiqilib ketmasinda» deb uning orqasidan qolmay yugurib yurardi.

Anvar qayoqqa qarab burilmasin, Sardor ham o'sha yoqqa qarab yugurardi. Keyin charchab, nafasi bo'g'ziga tiqilib, yo'l chetiga o'tirib olar va sabr-toqat bilan Anvarning orqasiga qaytib kelishini kutardi.

Anvar bo'lsa, xuddi ko'chadagi barcha bolalarni qoyil qoldirmoqchidek, nikellangan qo'ng'irog'ini dam-badam chalib, dam u yoqda, dam bu yoqda doirachalar yasab, beg'am-betashvish ko'chalarda aylanib yurardi. O'ynab yurgan bolalarning yonidan o'tarkan, xuddi ularni bosib ketadigandek, qo'rqitib velosipedning rulini to'satdan burib yuborar, velosipedni gindiraklab haydardi.

Anvar hamma bolalardan ham ko'ra ko'proq Sardor uning velosipediga qoyil qolayotganini, havas qilayotganini ko'rib, sezib turardi.

Uning yanayam havasini keltirish uchun ochiqdan-ochiq Sardorning atrofida aylanardi. «Anvar velosipedini uchib kelish uchun menga ham berib turar», deb umid qilgan Sardor do'stining orqasidan qolmasdi. U Anvarning velosipedini egarlashga, zanjiri g'ildiragidan chiqib ketganda uni kiygazishga yordamlashar, yo'llaridan toshlarni terib tashlardi. U Anvarning: «Ma, Sardor sen ham uchib kel», deyishini sabrsizlik bilan kutardi.

Ammo Anvar mutlaqo bunday demoqchi emasdi. U bunday deyishni hatto xayoliga ham keltirmasdi. Nihoyat, kuta-kuta Sardorning bardoshi tugadi. U bugun Anvardan: «Velosipedingni menga berib tur, men ham bir uchib kelay» deb so'rashga ahd qildi.

Uylarining oldida velosipedining rulini tutgan Anvar ko'rinishi bilan Sardor yugurib uning yoniga keldi.

— Anvar, do'stim, berib tur, men ham bir uchib kelay, — deb yalindi u. — Agar berib tursang-chi, men senga pistoletimni berardim.

Lekin Anvar xuddi uning gapini eshitmagandek, velosipediga o'tirdi-da, jing'irog'ini chalib, qayoqqadir haydab ketdi.

Sardor bo'lsa hamon yalinib, uning orqasidan yugurardi:

— Anvar, o'rtoq, bir marta uchaqolay, berib turgin, do'stim...

Anvar bo'lsa, hamon uning gaplarini eshitmas, Sardor yalingan sari uning dimog'i battarroq ko'tarilar, rulini chapdan o'ngga burib, xotirjam minib yurardi.

Shu payt nimadir bo'ldi-yu, velosipedning kamerasi yorilib ketdi.


Anvar ham, uning orqasidan yugurib yurgan Sardor ham: «Voyy...» deya velosipedga achinib qarashar ekan, bir zum nima qilishlarini bilmay qotib qolishdi.

— Endi nimada uchaman, — deb so‘radi Anvar xafa bo‘lib Sardordan.

— Bilmasam, — dedi Sardor yelkasini qisib. — Menda velosiped yo‘q-ku. Bo‘lganda berib turardim. Maza qilib, uchib kelarding, — afsuslanib qo‘shib qo‘ydi Sardor.

— Eh, attang, nega sening velosipeding yo‘g‘-a, — dedi qattiq afsuslanib Anvar ham. — Agar bo‘lganda maza qilib senikida uchib yurgan bo‘lardim-da».

BIR DONA UZUM


rtalab Feruza daraxt tagidagi karavotda oyisi bilan choy ichib o‘tirardi. Oyisi bir bosh chillaki uzumni yeyayotib, g‘ujumlar orasidagi katta, qop-qora donaga ko‘zi tushib qoldi. Uzib oldi-yu, o‘zi yeyishga ko‘zi qiy-may, qizi Feruzaga qaradi. Feruza konfet qog‘ozini toz-lash bilan ovora edi.

— Feruza, mana buni qara, judayam chiroyli ekan-a! Och, og‘zingni! — Oyisi qo‘lidagi donani Feruzaning og‘ziga solib qo‘ydi. Feruza uzumni qarsillatib yer ekan, oyisi unga tikilib, huzur qilardi.

Oyisi choyini ichib bo‘ldi. Ishga shoshilayotgani uchun o‘rnidan turib ketdi. Feruza konfetni yeb bo‘lgach, qo‘liga bir bosh uzum oldi. Uzumni uzib-uzib yer ekan, u ham g‘ujumlar orasidagi qop-qora yirik donani ko‘rib qoldi.

— Oyijonim! — sevinib, oyisining oldiga yugurib kir-di Feruza, — mana buni qarang, siznikidan ham chiroy-li ekan. Oching og‘zingizni, — u mitti qo‘llari bilan qo‘li-dagi uzum donasini oyisining og‘ziga solib qo‘ydi.

KATTA QIZ

lar har kuni bog‘chaga uchovlon ketishadi: oyisi, Yulduz, Nodir. Kechqurun ham uchovlon qaytishadi: oyisi, Yulduz, Nodir.

Yulduz har kuni yo‘lda oyisining etagidan ushlab, unga ergashib kelarkan: «Nodirga maza! — deb o‘ylaydi havas



bilan: — Uni har kuni oyim ko'tarib keladilar, bo'y-nilaridan quchoqlab yuradi». Yulduz bo'lsa, oyisining etagidan ushlab, ularga ergashib keladi. Bu Yulduzga juda alam qiladi. Shuning uchun ba'zi-ba'zida u ham xarxasha boshlaydi:

— Oyijon! Meni ham ko'taring!

— Voy-y... axir, sen katta qizsan-ku, qanday qilib seni ko'taraman? — deydi oyisi.

— Bo'lmasa, opichay. Men ham sizni achom qilib yuraman, — deydi yana qaysarlik bilan Yulduz.

— Iya, qo'ng'izlardan qo'rqmaydigan qiz ham shunaqa oyisiga opichib yuradimi? Endi sen katta qiz bo'lib qolding-ku. Odamlar ko'rsa, uyat qiladi.

Yulduz oyisining bu gapini eshitib, kecha ro'y bergan voqeani eshladi.

Kechqurun hovlilaridagi katta taxta karavotda Yulduz ukasi bilan o'ynab o'tirgan edi. Shu payt qayoqdandir bir qop-qora qo'ng'iz yaltiroq qanotlarini yozganicha g'o'ng'illab uchib keldi va daraxtga osilgan lampochkaga urilib, Nodirning yoniga «tap» etib tushdi. Nodir qo'rqqanidan chinqirib yubordi.

— Yulduz opa... Qarang... Nima u?

— Qo'ng'iz! — dedi Yulduz muloyimgina.

— Qo'ng'i-iz?! — qaytardi Nodir va yana qattiqroq yig'lashga tushdi.

— Nodir, qo'rqma, — deb uni tinchlantirdi Yulduz. — Bu-chi, may qo'ng'izi. U hech kimga tegmaydi. Mana, qara! — Yulduz sirayam qo'rqmasdan qo'ng'izni ikki barmog'i bilan ushlab ko'rsatdi.

— A...a...a... — qo'rqib ketgan ukasi battarroq yig'lay boshladi.

— Sen qo'rqmagin, Nodirjon, — deb kuldi opasi. — Qo'rqma, mana qara, agar men uni qo'yib yuborsam, u darrov uchib ketadi. — Bor-ey, tezroq uch, qo'ng'izjon, ukajonimni qo'rqitmagin sen. U-chi, hali kichkina. Kaatta

bo'lganingda uchib kelasan, xo'pmi? Bor endi, xayr, uchib ketaver!

Yulduz shunday deb, qo'ng'izni osmonga otgan edi, u qanotlarini yozib, uchib ketdi.

— Lulduz opa, siz qo'ng'izdan qo'rqmaysiz-a? — dedi Nodir yoshli ko'zlarini unga tikib. — U qo'lizni tishlab olmaydi-a?

— Yo'-o'q... nima deyapsan, — kuldi opasi. — U si-rayam tishlamaydi. Bu yaxshi qo'ng'iz. Sen ham undan qo'rqmagin, xo'pmi?

— Xo'-o'p, — dedi Nodir ko'zlarini javdiratib.

— Mening qizim shunaqa katta qiz! U ukasini yig'latadigan qo'ng'izlardan sirayam qo'rqmaydi, — deb erkaladi oyisi Yulduzni.

Yulduz bu gaplarini eslab: «Meni ham ko'taring», deya qilgan xarxashasidan uyalib ketdi.

YULDUZNING TOVUG'I

Yulduzning onasi magazindan bir dasta o'yinchoqlar olib keldi. Ularning orasida nimalar yo'q edi, deysiz?! Ayiqpolvon deysizmi, shalpanqu-loq quyonmi, ayyor tulkimi... Yulduz har bir o'yinchoqni sevinib, birma-bir ko'zdan kechirdi. O'yinchoqlarning orasida unga hammasidan ham ko'proq kichkinagina chipor «tovuq» yoqib ketdi.

— Oyijon, oyijon, buyam Ozoda xolamlarning tovug'idaka tuxum qiladimi? — deb so'radi Yulduz.

— Bu o'yinchoq-ku, shirin qizim, tuxum qilmaydi, — dedi qizining gapiga kulib onasi.

— Yo'q, qiladi, qiladi, — qaysarligi tutdi Yulduzning. U «tovug'i»ning tuxum qilishini judayam xohlayotgandi.

Yulduz chopqillab borib, yashik ichidagi xumchani olib, undagi tuzni bo'sh tog'orachaga bo'shatayotganda, birdan onasi ko'rib qoldi.



— Hoy, Yulduz, nega olyapsan? — dedi hayron bo'lib u. — Qo'y, tuzni to'kib yuborasan.

— Yo'q, to'kmayman! — depsindi Yulduz.

— Xumcha nega kerak bo'lib qoldi senga? — hayron bo'ldi shunda onasi.

— Nega desangiz-chi, oyijon, Ozoda xolamlarning tovug'i-chi, tandirning ichida tuxum qipti, men ko'rdim. Meniyam tovug'im tandirning ichida tuxum qilishi kerak, bildiz? Hozir men ham xumchadan unga tandir yasamoqchiman.

Yulduz o'zini aytganidan qolmay xumchadagi tuzni tog'orachaga bo'shatdi va xumchani tokcha burchagiga yotqizdi. Hovlidan ozgina xashak olib kelib, xumchani ichiga solgach, ustiga «tovug'i»ni o'tqizib qo'ydi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Biroq Yulduzning «tovug'i» tuxum qilmadi. Yulduz har kuni jig'ibiyron bo'lib, «tovug'i»ning tuxum qilishini poylagani-poylagan.

Yulduzning «tovug'i» tuxum qilarmikan-a? Yoki u qaysarligi uchun oyisidan kechirim so'rasinmikan?

BEHZODNING OYISI NEGA QAYSARLIK QILDI?

Muxlisa maktabdan chiqib, ukasini bog'chadan uyiga olib keldi. Qarasa, oyisi hali ishdan qaytmagan ekan.

— Behzod, kel, — dedi Muxlisa, — oyim kelishlarini kutmay, ikkalamiz ovqat qilib turamiz, bo'ptimi?

— Men ovqat qilishni bilmayman-ku, — hayron bo'ldi ukasi.

— Men bilaman, — dedi opasi. — Oyimlardan o'rganib olganman. Sen menga yordamlashasan, xo'pmi?

— Xo'p bo'ladi, — dedi Behzod qo'llarini ishqab.

Muxlisa oshxonadan kartoshka olib chiqib, archa boshladi.

— Men-chi, Muxlisa opa, sizga paqirchamda suv olib kela qolaymi? — deb so'radi Behzod.

— Sen o‘zing aqlli bolasan-da, mayli, olib kela qol.

Behzod sevinib, bir necha marta qatnab, paqirchasida suv olib keldi. Axir, u yordamchi bo‘lganidan keyin shunday qilishi kerak-da! Muxlisa kartoshkani archib bo‘lgach, oyisi ko‘rsatganidek, sekin gazni yoqdi. Qozonni uning ustiga qo‘yib, ozgina yog‘ soldi. Yog‘ qizishi bilan to‘g‘ralgan go‘shetni qozonga tashladi. Go‘sh tushishi bilan jizillab, qo‘lchalariga yog‘ sachradi. Muxlisa og‘riqdan qo‘lini «puf-puf» lab, qozonni kavlati. Qozondan chiqayotgan bug‘ bilagidagi yog‘ sachragan joylarini battarroq achishtirardi. Muxlisa qiynalib-qiynalib go‘shetni qovurdi. Go‘sh t qizargach, ustiga piyozni, keyin kartoshkani soldi.

Bir payt Muxlisaning ko‘zlari yoshlanib, achisha boshladi. U hayron bo‘lib atrofiga alangladi. Yog‘ qizdirayotganida fortochkalarni ochmagani uchun oshxonaga tutun qamalib qolgan edi.

Muxlisa darrov taburetkaga chiqib, derazani ochib yubordi va oshxonaga toza havo kirdi. Qarasa, stol ustida kartoshka, piyoz po‘choqlari qalashib yotibdi. U po‘choqlarni yig‘ishtirib, hovlidagi chelakka tashlab kelishi uchun ukasiga berdi. O‘zi latta ho‘llab, stolni yaxshilab artdi. Keyin tog‘oracha, idish-tovoqlarning hammasini yuvib, joy-joyiga qo‘ydi.

— Ovqat qilish judayam qiyin ekan. Oyimlar har kuni rosa qiynalar ekanlar, — deb o‘yladi o‘zicha Muxlisa. — Men buni bilmas ekanman. Ukam bo‘lsa gohida tayyor ovqatni ham yemayman, deb xarxasha qiladi».

— Behzod, qanisan? — chaqirdi opasi.

— Bu yerdaman, — stol tagidan chiqib keldi ishchan yordamchi. U kubiklar bilan ovora edi shekilli.

— Behzod, men-chi, nonni kesib turaman, sen talin-kaga taxlagin, xo‘pmi?

— Bo‘p-ti, — xursand bo‘ldi Behzod. Ular ishga berilib ketib, uyga oyijonlari kirib kelganini ham sezmay qolishdi.



— Hormanglar, bolajonlarim, — dedi oyisi, ularning ishlayotganlarini ko'rib. — Men ishda biroz ushlanib qoldim. Xavotir olmadinglarmi?

— Oyijon, — Behzod yugurib borib, oyisining quchog'iga otildi.

Oyisi uni bag'riga bosib, yuzlaridan o'pdi.

— Men kiyimlarimni almashtirib chiqay, ovqat ham kech pishadigan bo'ldi, — dedi oyisi shoshilib.

Opa-uka bir-birlari bilan ko'z urishtirib olishdi. Oyisi xonasidan xalatini kiyib chiqarkan, oshxonaga kirib, qozon qopqog'ini ochdi-yu, hayron qoldi.

— Voy, o'zim o'rgilay sizlardan, ovqatni ham pishirib qo'ydinglarmi? — xursand bo'ldi oyisi.

— Oyijon, siz o'tiring, biz ovqatni suzimiz, — dedi Behzod.

— Hozir, men hozir chiqaman, — oyisi shunday deb kuldi-da, yotoqxonaga kirib ketdi.

Opa-uka stolga nonlarni qo'yib, qoshiq-piyolalarni tayyorlab, oyisining kelib o'tirishini kuta boshlashdi. Oyisi yotoqxonada nimalar bilandir ovora edi.

— Oyijon, qanisiz? Kela qoling! — yalinib chaqira boshladi Behzod.

— Hozir, hozir, — ichkaridan oyisining ovozi eshitildi.

— Mening qornim judayam ochib ketdi. Kela qoling... — yana yalindi Behzod. Ammo oyisi hadeganda chiqavermadi.

Kuta-kuta toqati toq bo'lgan Behzod bezovtalanib, nima qilishini bilmasdi. Shunda birdan... Muxlisa kulib yubordi.

— Qalay, kutish yaxshi ekanmi? — dedi ukasiga jilmayib. — Sen har kuni oyimlarni ovqat mahali shunchaday kuttirasana...

Behzod aybdordek ko'zlarini pirpiratdi. U shundagina oyisi har kuni ovqatga chaqirganda darrov kelib o'tirmay, «yana bir qoshiq yeya qol» desa, yemay, oyisi bechorani qanchalar qiynaganini o'yladi.

— Oyijon, nimalar qilyapsiz o‘zi? Yura qoling, — Behzod oxiri chidolmay, o‘zi oyisining oldiga kirdi. — Yuring, ovqatlanaylik...

Oyisi esa o‘g‘lining kirganini sezmagandek, kiyim iladigan shkafning oldida turib, ko‘ylaklarini tratibga solar edi.

— Oyijon, — dedi Behzod. — Meni kechiring. Endi sirayam sizni kuttirmayman. Chaqirganingizda, darrov borib o‘tiraman. Mana ko‘rasiz. Hozir yuring, ovqatlanaylik.

Oyisi Bezodning gapidan kulib yubordi va u bilan birga dasturxonga kelib o‘tirdi. Muxlisa ovqatni suzib, stolga keltirib qo‘ydi.

Oyisi bolalarga qarab: «Yegim kelmayapti», — deb «qaysarlik» qildi. Uchovlari ham baravariga kulib yuborishdi. Chunki oyisining nega bunday deyaotganini bolalar tushunishgan edi-da.



Normurod **NORQOBILOV**

(1953)



N. Norqobilov 1953- yil 7- iyunda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi Qishliq qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keladi. 1960—1970- yillarda o'rta maktabni tugatib, 1971—1973- yillari harbiy xizmatda bo'ladi, 1976—1982- yillarda Milliy universitetning jurnalistika fakultetida tahsil ko'radi. Bo'lajak adib tokarchilik, g'isht pishiruvchilik, temir yo'lichilik, hisobchilik va boshqa turli kasblarda ishlab o'ziga xos hayot yo'lini bosib o'tadi. Tabiatsevar bir odam sifatida respublikamizning tog'u toshlari, cho'lu sahrolari, o'ngir va g'orlarini kezib chiqadi, hayvonot dunyosi ichiga kiradi.

Yozuvchining «Chorraha» nomli birinchi hikoyasi 1982- yili «Toshkent oqshomi» gazetasida bosiladi.

O'tgan vaqt mobaynida «Zangori ko'l» (1987), «Unutilgan qo'shiq» (1990), «Yuzma-yuz» (1993), «Pahmoq» (1997), «Sariq gul» (1998), «Arazchi chumchuq» (1999), «Bekatladi oq uycha» (2000), «Jo'shqin daryo» (2005), «Ovul oralagan bo'ri» (2005) kabi qissa va hikoyalardan tashkil topgan o'ndan ortiq to'plamlari e'lon qilindi.

«Quyosh botmaydigan yurt», «Shim yoxud xotinlar janjali» nomli asarlari bir necha qismli videofilm qilingan.

N. Norqobilov asarlari rus, qozoq, tojik, ukrain, turkman, qirg'iz tillariga tarjima qilingan.

RO'MOLCHA

Mening ham shunaqa ro'molcham bo'lganidami, bolalarga ko'rsatib rosa havaslarini keltirardim! Keyin oyna tepasiga yoyib qo'yardim! Uyimiz chiroyli bo'lib ketardi!..» Qo'lidagi sariq ro'molchaga termulgancha, nimqorong'i somonxona to'rida, chirik xashaklar ustida o'tirgan bolakay goh entikardi, goh o'kinardi... Ro'molcha chiroyli, girdiga qizil ipak bilan to'rt to'qilgan, bir chetiga esa «M», «M» harflari chatilgan edi. Ammo u o'ziniki emas-da, na birovga ko'rsatib bo'ladi, na maqtanib — bolaga shunisi alam qilardi.

U birdan hovliqib turib ketdi: «Enamga aytsam to'qib bermasmikan?» Avvalroq shu fikr xayoliga kelmaganidan ajablandi. Ro'molchani tezgina qog'ozga o'rab, devor tiriqishiga bекitdi-da, dag'al taxtalardan qo'poldan-qo'pol yasalgan og'ir eshikni sekin itarib, o'g'ri mushukday alanglab qo'raga chiqdi, qo'radan hovliga o'tdi.

Ona ayvonda ko'ylakka yamoq tikib o'tirar edi, tepasiga kelib tik qotgan bolakayga anchayin qarab qo'ydi-da, ishida davom etdi.

— Ena, menga ro'molcha to'qib bering? — dedi bolakay yalinchoq ohangda.

Ona yonidagi qiyqim-siyqim joylashgan quroq tugunni kavlashtirib, bir parcha toza oq lattani bolakayga uzatdi.

Bolakay lattaning orqa-oldini aylantirib ko'rarkan:

— Nima bu? — dedi taajjulanib.

— Ro'molcha.

— Iy-y, bunaqasi kerakmas! — uning lablari cho'chchaydi.

— Qanaqasi kerak?

— Kashtaligi!

— Unaqasini katta yigit bo'lsang qizlar to'qib beradi! — ona kuldi.

— Qachon katta yigit bo'laman?!

Ona yalt etib unga qaradi. Ko'zlariga hayrat indi: «Tavba, nima deyapti bu?!»

Shu payt beshikdagi chaqaloq inga-ingalab qoldi. U beshik bilan birpas andarmon bo'ldi, chaqaloqni tinchlantirib, yana o'g'liga qaradi. Bolakay hamon qaqqayib turar, ko'zlarida umid, nimadir kutmoqda edi. Ona qizarindi — ro'molcha to'qishni bilmas edi.

— Sen bola, buzoqqa suv berdingmi? — deya so'radi bolakayning xayolini ro'molchadan chalg'itish uchun. Yo'q, javobini olgach, g'azablangan bo'ldi: — Senga qachon es kiradi, a? Nima, doim qulog'ingga quyib turishim kerakmi?

Bolakayning ko'ngli cho'kdi. Hovliga chiqib, tums Shaygancha turib qoldi: «Nega unaqa deydi? Qachon katta yigit bo'laman-u... Eh-hi!» Shunda o'zini juda kichkina, bilagida o'rmalab borayotgan chumolidan ham kichkina his qildi.

Buzoqqa suv berib kelganida, tushlikka qaytgan otasi ayvonda yonboshlab yotar, onasi poygohda chalob qilaturib, eriga qarab javrar edi:

— Hoy, otasi, manavingizning tani sog'mas, merovsirab qolgan. Bugun allanimalar deb boshimni qotirdi. Do'xtir-po'xtirga qaratish kerak buni.

Ota sergak tortdi, yarim o'girilib, o'g'lining rang-ro'yiga sinchkov razm soldi. Qaltis vaziyat: agar ota uning sog'lig'idan salgina shubhalansa — tamom, qishloq medpunkti qolib, to'g'ri rayon markazidagi kasalxonaga olib tushadi. Duch kelgan eshikka boshini suqib: «Bu silarni kattakonlaring qayerda?» deb surishtiradi. Ular otasini bosh vrach huzuriga yo'llashadi. «Do'xtirjon aka, shu bizning go'dakni ko'rib qo'ying! — deydi u bolakayni oldinga turtib. — Kechadan buyon mazasi yo'qroq». Uning dovdird xatti-harakatlaridan bolakay uyaladi, otasiga hayratomuz qarab turgan oq xalatli chiroyli opalar oldida gunohkor sezadi o'zini...

Yo'q, otasi xotirjam edi, soqol bosgan iyagini qirt-qirt qashib, onasiga xo'mraydi: «Vahimang qursin, seni!»

Bolakay uyga kirdi. Taxmondagi po'staklardan birini olib, chappa to'shab yotdi. Uyqusi kelmas, butun fikrizikri ro'molchada edi: «Qani endi mening ham shunaqa ro'molcham bo'lsa!»

Ayvonda ota-onasi bahslashishar, gap uning merov-sirab qolgani haqida borar edi. Onasi haq — u o'g'ilchasi ruhiyatida anglab bo'lmaydigan nimadir sodir bo'lganini botiniy sezgi bilan his qilmoqda edi.

Voqea besh kun burun, qishloqqa ko'chma kino kelgan kuni yuz berdi: peshinda ko'chaga chiqib ketgan bolakay uyga birato'la kino tugagach qaytdi. Darvozadan kirishi hamon bedapoyadan olib kelinmagan buzoq esiga tushdi. Obbo, yana gap eshitadigan bo'ldi-da... Oyoq uchida yurib, qo'ra eshigiga bordi. Eshik tirqishidan ichkari mo'raladi: buzoq yo'q! Behol devorga suyandi. Tomorqaga o'tay desa, qorong'i, vahimali, kirmay desa, onasining kaltagi. Aksiga olib bugun akalari ham, otasi ham yo'q — tog'asinikiga ketgan, onasi esa, supada, big'-big' yig'layotgan ukasini ovutolmay, xunob bo'lib o'tiribdi.

— Qoraginang o'chsin seni-ya! Shu paytgacha qayerlarda sanqib yuribsan, a? — deya qichqirdi ona uning sharpasini payqab.

Qorong'ida qoqilib-poqilib, tokzor oralab borib, bedapoyaga chiqdi. Qarovsiz qolgan buzoq arqoniga o'ralib, devor tagida yotgan ekan, timirskilanib qoziqni topdi. Chiyirilgan arqonni bo'shatib, endi buzoqni haydamoqchi edi hamki, shundoq yonginasida kimdir kulganday bo'ldi. Bolakay bir sakrab tushdi, yon-veriga alang-jalang qaradi. Ajina! Buzoqni tashlab qochmoqchi edi, oyoqlari joyidan jilmadi; baqirmoqchi edi, ovozi chiqmadi. Kutilmaganda, qiz bolaning «Voy!» degani, so'ngra yigit kishining bo'g'iq, ehtirosli ovozi eshitildi:

«Bugungi kun, nazarimda, bir yilga cho'zildi!»

Qiz kuldi:

— «Menga ham!»

Bolaning vujudidagi qo'rquv endi hayrat bilan almasindi (ovoz devor ortidan kelmoqda edi). Anqayib qolgan bolakay, qo'lidan arqoni tushib, beixtiyor devorga qapishdi. Ovozlar tanishday... «Kim bo'ldi ekan?!»

«Men sizni... Jonginam!..» deb ehtirosli erkaldari yigit. Ovozi g'alati, xuddi tepa oshgan kishiday hansiraydi.

«Vuy-y, Muxtor aka!.. Unaqa qilmang!» deb qoldi qiz.

«Iya, Muxtor aka-ku! — Bolakay hayajondan qalqib ketdi. — Anovinisi kim bo'ldi ekan?! Malika opami?! Ha, Malika... Malika opa! Nima qilishyapti ular?!»

Qandaydir «cho'lp-cho'lp...»dan so'ng shivir-shivir eshitildi yana.

Bolakay o'zini noqulay his etdi; ketmoqchi bo'ldi. Biroq hamma yosh bolalarga xos qiziquvchanlik uyatdan ustun keldi, ularni ko'rmoq istagida devorning kemtik joyiga bordi. Kemtik baland edi, bo'yi yetmadi. Shu payt onasi chaqirib qoldi. Yuragi toshgan bolakay, tokzor oralab yurgan buzoqni oldiga solib, hovliga chopdi. Hozirgina eshitgan-ko'rganlarini onasiga aytmochi bo'ldi.

— Shunchayam yo'q bo'lib ketasanmi, juvonmarg?! — deya baqirdi onasi to'satdan uning qulog'idan cho'zg'ilab.

Bolakay jizillab og'riyotgan qulog'ini changallagancha, ko'chaga qochdi. Xo'rliigi keldi: «Endi, aytib bo'pman, hecham aytmayman!»

U sirni onasiga aytmadi. Ertalab tog'asinikidan qaytgan akalariga tish yormoqchi bo'ldi-yu, kech bo'lishi bilan ularning devorga yopirilishini o'ylab, shashtidan qaytdi, qizg'andi. Lekin kimgadir aytgisi kelardi. Aytdi, buzog'iga aytdi:

— Muxtor aka Malika opani o'pdi... Men bildim! Faqat men bilaman buni! Sen hech nimani bilmaysan! Mana shunaqa!

Buzoqni sero'troq joyga qantarib qo'ydi-da, devor oshib, tutzorga (devorning naryog'i kolxoz tutzori edi)

tushdi. Yigit bilan qiz turgan kechagi joyni sinchiklab ko'zdan kechira boshladi. Chala qurigan, toptalgan xaslar ustida qimmatbaho qand qog'ozlari, yana allanimalar sochilib yotar edi. Bolakayning og'zidan suvi keldi, qult yutib, qog'ozlardan birini qo'liga olib hidlab ham ko'rdi, To'satdan g'o'maylar orasida sarg'ayib turgan narsaga ko'zi tushib qoldi. Sariq ro'molcha! Girdiga qip-qizil ipak bilan to'r to'qilgan, bir chetiga «M», «M» harflari chatib bitilgan chiroyli sariq ro'molcha! Undan xushbo'y atir hidi anqir edi.

Bolakay quvonchdan entikdi. Tezgina ro'molchani qo'yniga yashirib, devor oshdi. Xuddi qo'ynidagini birov ko'rib qoladiganday, biqinib somonxonaga kirdi. Ro'molchani xashaklar orasiga bekitib qo'ydi-da, tashqari chiqib, bir varaq qog'oz topdi, so'ng yana somonxona eshigini zichlab yopib, xashaklar ustiga yaxshilab o'rtnashib oldi-da, hayajon ichida ro'molchani ko'zdan kechira boshladi. Ro'molcha chiroyli edi, harflariyam bor!

Bolakay bu yorug' olamda buzog'i, ota-onasi, akalari va ukasi, targ'il mushugiyu olapar iti, shuningdek, sho'x jo'ralaridan tashqari, «Jonim!..» deb qizni erkalovchi yigit, yigitga ro'molcha tikib beruvchi qiz ham borligidan avvallari bexabar edi. Hatto Malika opa bilan Muxtor akalarni ko'cha-ko'yda uchratib qolsa unchalik e'tibor bermasdi, endi atayin ularning yo'liga chiqadigan, allanechuk tomosha qiladigan bo'ldi. Belida enli kamar, o'siq, qora sochlari silliq taralgan, ukki ko'z, novcha yigit uning nazarida eng chiroyli yigit edi. Qiz esa, momosi so'zlab bergan ertaklardagi farishtaning o'zi! To'g'ri, ertaklardagi farishtalar bolakayning tasavvurida oppoq harir ko'ylakda, oppoq qanotlarini yelpigancha, chehralari gulgun holda namoyon bo'lardi. Bu qiz esa, qoragina, yelkalarida qanotlari ham yo'q, ko'ylagi ham oppoq harirdan emas, oddiygina, mayda gulli chit ko'ylak. Ammo u chiroyli ro'molchalar tikishni biladi!..



Bolakayga alam qiladigan joyi shu ediki, ro'molchani birovga ko'rsatib bo'lmaydi. Egalariga qaytarishni hatto o'ylamasdi ham. Shuning uchun yashirib saqlayapti-da. Bolakay o'zining ham shunaqa ro'molchasi bo'lishini juda-juda istar, bu istak kundan-kunga kuchayib bormoqda edi. Axir ro'molchani birovlariga ko'rsatib maqtanish qandoq maza! Bugun onasiga yalinib ko'rdi, lekin ko'nmedi: «Katta yigit bo'lsang, qizlar tikib beradi», dedi. Endi uning tez-roq katta yigit bo'lgisi kelardi. O'shanda u istagan qiziga: «Ey, jonim!» desa — bas, qizlar chiroyli ro'molchalar tikib beradi!

Ertasi choshgohda bolakay, odatdagidek, buzog'ini sug'orib-qo'yish uchun chelak ko'tarib, ko'chaga chiqdi. Darvozalari qarshisidagi vodoprovod atrofida to'rt-besh qizaloq chug'urlashib turar, navbat bilan suv olmoqda edi. Qizlarni ko'rgach, bolakayning boshiga g'alati fikr keldi: «Ey, jonim!» desam shular tikib bermasmikan? Beixtiyor qizaloqlar orasidan ko'ngliga mosini axtara boshladi: avval, o'zidan ikki sinf yuqorida o'qiydigan Salomatni tanladi. Lekin qizning burun kavlab turishi unga yoqmadi. Keyin yana ikki qizni ko'z ostiga oldi-yu, ulardan ham u-bu ayb topdi. Oxiri o'zi bilan birga o'qiydigan qo'shni qizcha — Ra'no didiga o'tirishdi. Ammo bu gal unga hech nima demadi, suvni olib, uyga kirib ketdi.

Poday qaytar payti esa qizni yolg'iz uchratdi, ariq bo'yida sabzi tozalayotgan ekan. Tepasida serrayib turgan bolakayni ko'rib, Ra'no avvaliga hayron bo'ldi. Chunki bolakay ko'zlari yongancha, shira yuqi labini yalayotgan go'dakday, nuqul tamshanar, atrofga bezovta alanglar edi... Keyin bir oz cho'chidi: «Tag'in sochimdan tortqilab qolsa-ya!.. Ho-o, tortib ham ko'rsin-chi, akamga aytib...» Har ehtimolga qarshi o'rnidan turdi.

— Ey, jonim Ra'no! Men sizni... — dedi bolakay du-duqlanib va boshini qashib qoldi: «Tag'in nima deyish kerak edi?! Qizcha anqaydi: bola uni sizlamoqda edi, buning

ustida gaplari ham g'alati. — Qanchalik yaxshi ko'rishimni bilsangiz... Eh-h! — dedi bolakay yana.

Endi qizchani jahli chiqdi. Shahd bilan qo'lini oldinga cho'zgan edi, tirnoqlari nimanidir sidirib o'tdi. Shu zahoti bolaning o'ng yuzida qonli izlar ko'rindi... Qizcha yig'laganicha, darvoza ortiga o'tib, g'oyib bo'ldi.

Bolakay kalovlana-kalovlana ortiga burildi. Kaftini yuziga bosdi, barmoqlariga qon yuqdi. Shu ko'yi turganida bo'yni aralash yelkasiga nimadir tars etib tushdi. U munkib yuztuban yiqildi. Yiqilishi bilan beli, yelkasi aralash tepkilar tusha boshladi. Og'riqdan bolakayning ko'z oldi tumanlashib, dodlab yubordi...

Bir payt qo'ltig'idan kimdir ko'tardi. Xo'rliqi kelib bo'zlayotgan bolakay xaloskoriga qaradi: katta akasi Xoldor ekan.

— U enag'ar qattiq urdimi? — deb so'radi u.

Bolakay indamadi.

— To'ra qiyshiq nega urdi, deyaqman?

U seskandi. Akasiga yalt etib qaradi:

— Kim?!

— Kim urganini o'zing bilmaysanmi?

Bolakay siltanib, akasi qo'lidan chiqdi, qochib borib somonxonaga kirdi. O'zini xashaklar ustiga tashlaganicha yotdi, uzoq yotdi. Qiziq, Ra'no sabzi tozalayotgan edi, tepasiga bordi, yaxshi ko'raman, dedi. U esa, ro'molcha tikib berish o'rniga bolakayning betini timdaladi, akasiga urdirdi... Bolakay ohista bosh ko'tarib, devor tirqishidan tashqari qaradi. U o'zini gunohkor sezmoqda edi. «Birovning ro'molchasini olganim uchun Ra'no meni timdaladi, akasi urdi... Hozir boraman-da, ro'molchani Malika opaga beraman, topib oluvdim deyman, sizlarni hech kimga aytganim yo'q, deyman. Yo Muxtor akaga bersammikan? Tutib olib ursa-ya, nega gap poylab yuribsan, deb...»

Oradan kunlar o'tdi. Bolakay ro'molchani egalariga qaytarmadi. Qizg'andi, qattiq qizg'andi. Yuzidagi tirnoq izlari esa, allaqachon bitib ketdi. Ammo Ra'no o'sha bo'lgan



voqeani oqizmay-tomizmay onasiga yetkazgan ekan, qo'shni xola uni ko'rdi deguncha, «Ha, kuyov!» deydigan bo'ldi... Kundan-kunga bolakayning Ra'nodan o'ch olgisi, ro'molchani ko'rsatib havasini qo'zg'atgisi kelar, afsus, buning iloji yo'q edi.

Bu orada qishloqda bir gap tarqaldi: Olim traktorchi-ning o'g'li Muxtor bilan Fayzi fermaning o'g'li Sami mahmadona Voronej degan tomonga o'qishga ketishayotgan emish. Ertaga jo'narmishlar. Bu voqea chindan ham mishmishga arzigulik edi. Chunki haligacha biror kimcha uzoq Rossiya taraflarga o'qishga bormagan, Qarshi yoki Samarqandni hatlab Toshkentdagi biror hunar bilim yurtiga ilashib qolganlar ham qishloq ahli nazarida «musofir yurt-da — katta o'qishda» edi.

Ertasi ertalab qishloq chetiga, maktab yonidagi sayxonlikka ko'p odam yig'ildi. Bular yigitlarni kuzatib chiqqan xeshlari hamda qo'ni-qo'shnilar edi. Har kim bilganicha maslahat bera boshladi:

— Doim baqamti yuringlar!

— Ha, ming qilsayam musofir yurt-da!

— O'zlaring xizmat qilgan joylar ekan-u, shunday bo'lsa ham...

Qornini ko'z-ko'z qilgandek, po'mpaytirib, o'rtada papiros tutatib turgan Xidir cho'loq cho'ntagini kavlash-tirib, bir dasta pul chiqardi-da, namoyishkorona jiyaniga uzatdi. Muxtor, «Yo'q, kerakmas», degan bo'ldi-yu, so'ng bamaylixotir cho'ntagiga solib qo'ydi. Xidir cho'loq semiz, kalta-kalta barmoqlarini bukib sanab, qiroat bilan gap boshladi:

— Raz, ketyapsanlarmi, doim o'zlaringga mahkam bo'linglar, bu — bir; bosib, kallani chalg'itmay o'qinglar, bu — ikki; qizlar bilan oshu qattiq bo'lib tag'in... Armiya ko'rgan bo'lsalaring ham, kallalaring hali xom, bu — uch.

Hamma jim, hamma uning so'zlarini e'tibor bilan tinglaydi, u esa har bir gapini raqam bilan yakunlaydi. Obro'yi

zo'r, do'konchi-da, qishloqning yarmisi undan nasiyaga mol oladi.

Bir chekkada, tengdoshlari orasida turgan bolakay be-toqatlanar, qo'lidagi ro'molchani Muxtorga qanday qilib berishni o'ylar edi. Ammo yigitni o'rab olgan jonli halqadan o'tishning sira iloji yo'q. O'tmoqchi bo'lib urinib ham ko'rdi. «Oyoq tagida o'ralashma!» deb chetga chiqarib qo'yishdi.

«Eh, odamlar buncha ko'p gapirishadi...»

Shu mahal ko'cha boshida mashinasi ko'rindi. Davra battar jipslashdi. Bolakay tevarakka jonsarak alangladi, ko'zi maktab darvozasi yonida xomush turgan Malika opasiga tushdi, o'sha tomon oshiqdi. U hech narsani o'ylamas, hozir o'ylaydigan vaqt emas edi.

— Malika opa, Malika opa! O'zingiz oborib bering! Men... men topib oluvdim, mana! Mana!.. — Mashina ular yonidan g'uvillab o'tib, odamlar yonida to'xtadi. — Tez-roq bo'lsangiz-chi, ketib qoladi hozir! — Mashina qo'zg'aldi. Uzatib chiqqanlar qo'l silkib qolishdi. — Ana ketib qoldi! Siz bo'lsa...

Mashina og'ir, chayqalib, muyulishda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uning ortidan ma'yus termilib qolgan qiz, qarshisida vijir-vijir qilayotgan bolakayni endi payqadi. «Bunga nima kerak?»

— Siz... mang endi! — Bolakay yig'lamoqdan beri bo'lib, ro'molchani zarda bilan qizning kaftiga suqdi.

Ro'molchani ko'rgan qiz, rangi quv uchib, esankirab qoldi. Bir necha daqiqa shu alfozda turdi, so'ng, xuddi hozir bolakay qochib ketidiganday shappa uning yelkasidan tutdi.

— To'ychi! To'ychijon! Qq... qayerdan topding buni?! — deya bilagidan tutib, maktab kutubxonasiga boshlab kirdi. Nimqorong'i xonaning ichi kitoblarga liq-to'la edi. U o'rtadagi stolni aylanib o'tib, ro'molchani tortmaga tiqdi. Stol ustida pala-partish qalashib yotgan

kitoblar orasidan qizg'ish muqovali yupqa kitobcha olib, bolakayning yoniga keldi.

— Qaragin, ertak kitob... rasmlari ko'p. Qani, buyoqqa o'tir-chil!

Bolakay kitobga alahsidi. Qiz uning yelkasidan quchib, yarim egilgana so'radi:

— To'yhijon, ro'molcha to'g'risida hech kimga ayt-madingmi?

Bolakay bosh chayqadi.

— Bundan keyin ham hech kimga aytmagin, xo'pmi?!

U yana bosh irg'adi, keyin qizga erkalanib qaradi.

— Malika opa, menga ham ro'molcha tikib bering!

— Xo'p-xo'p, tikib beraman! — dedi qiz allanechuk shoshqaloqlik bilan.

— Sarig'idan-a?!

— Ha-ha, sarig'idan.

— Qachon? — Bolakayning ko'zlari chaqnadi.

— Ertaga olasan.

Bolakay kutubxonaga yelday kirib kelganida Malika qo'lida latta, kitoblar changini artmoqda edi.

— Tikib bo'ldingizmi? — deya so'radi hovliqib.

Malika mayin kulimsirab, stol tortmasidan sariq ro'molcha olib, unga uzatdi. Bolakayning ko'zlari chaq nab ketdi... Keyin to'satdan qovog'i solinib, lablari cho'chohaydi:

— Iy-y, yozuvi yo'q-ku?

— Qanaqa yozuv? — Qiz ajablandi.

— Kechagi ro'molchadagidek...

Birdan Malika opasining yuzlari qizarib ketdi. Yengil entikib, unga mehr bilan termildi. Ro'molchani qo'lga olib, chetiga qizil ipak bilan «T» harfini chatib berdi.

— Endi «M» harfini... — dedi bolakay uzatilgan ro'molchani olmay.

— Nima qilasan uni?

U tumshayib yerga qaradi.

— Ha, mayli, sen aytgancha bo‘la qolsin, — deya rozi bo‘ldi qiz va «T»ning yoniga «M»ni chatib berdi.

Bolakay ko‘chada irg‘ishlab borardi, uning endi o‘z ro‘molchasi bor... Vodoprovod yonida turgan qizaloqlarga ko‘zi tushgach, qadamini sekinlatdi. Ular orasida Ra‘no ham bor edi. Bolakay ular yoniga bordi, cho‘chinqirab turgan Ra‘noga e‘tibor bermagan bo‘lib, ro‘molchani yoyib, ko‘z-ko‘z qildi.

— Mening ro‘molcham bor!

Qizlar chug‘urlashib ketishdi.

— Voy, buncha chiroyli!

— Kim tikib berdi?

— Vuy-y, yozuvi ham bor ekan!

Ra‘no jim, goh yal-yal tovlanib turgan ro‘molchaga, goh bolakayga javdirar, ich-ichidan havasi kelar edi. Bolakay qizchaga mag‘rur bir nigoh tashlab, darvoza tomon yurdi. To‘xtadi, ortiga o‘girildi, Ra‘noga sinchkov, ginali nazar tashladi: «Ro‘molcha tikib berish o‘rniga, betimni timdalab o‘tiribsan!»

Uyga kirib onasiga maqtandi. Bejirim ro‘molcha onaning havasini qo‘zg‘atdi. U ro‘molchani avaylab tutib, bolakayning qistovi bilan oyna tepasiga yoydi. Nazarida uy ichi yorishib ketganday bo‘ldi.

Bolakay tomorqaga o‘tdi. Dumi bilan pashsha qo‘rib yotgan buzog‘ining bo‘ynidan quchib, bosh barmog‘ini tumshug‘iga nuqib maqtandi:

— Endi bizning ro‘molchamiz bor! Mana bundoq!..

Bir oydan oshdiki, bolakay har kuni kutubxonaga qatnaydi. Malika opasi unga ertaklar o‘qib beradi. Dastlab u «Uch og‘ayni botirlar», «Zumrad va Qimmat» ertaklaridagi dahshatli va hayajonli voqealar bilan tanishdi, bora-bora ertaklar hajmi va salmog‘i kengaya borib, dunyoda qiz o‘g‘irlovchi devlar, xiyonatkor do‘stlar, gullab-yashnab turgan o‘lkalarni o‘lik sukunatga mahkum etguvchi yalmog‘izlar borligini bilib oldi. Kitobdagi ertaklar mosi so‘zlab bergan ertaklarga nisbatan dahshatliroq edi.

Ertak boshlanishi bilan yuragi uvishib, hayajonga tushadi, keyin quvonib ketadi, ertak xayrli tugaydi-da. Goho qizga boqib o'ylab qoladi: «Qora dev Malika opamni o'g'irlab ketsa-ya!.. E, o'g'irlab ham ko'rsin, Muxtor aka boplab ta'zirini berib qo'yadi!»

Ammo kechagi voqea bolakayni g'oyatda ajablantirdi.

— To'ychijon, — dedi Malika opa qizarinib, — bir ish buyursam, bajarasanmi?! — Bolakay «xo'p» degach, u uzoq chaynalib qoldi, so'ng ming istihola bilan maqsadga ko'chdi: — Muxtor akangizning ukasi bor-u, kim edi?.. Ha, Eldor! Borib o'shandan, akangdan xat kelyaptimi deb so'rab kel, maylimi? Faqat hech kim bilmasin.

Bolakay Eldor soqovni (ikkalasi bir sinfda o'qiydi) ko'cha eshigi oldidan topdi. U yolg'iz hammompish o'ynab o'tirgan ekan, unga qo'shilib, picha o'ynagan bo'ldi. Keyin, sekin so'radi:

— Eldor, akangdan xat kelyaptimi?

— Ha, ushsha keldi, — dedi Eldor burnini shilq tortib.

— Uchtami?

Eldor bosh silkib tasdiqladi.

O'sha zahoti xabarni yetkazganida, Malika opasi xomush tortib qoldi. Kitoblarni titkilagan bo'lib, ko'z yoshlarini surdi, sezdirmay...

Bugun ham bolakay buzog'i oldiga bir chelak suv qo'ydi-da, onasining ko'zini shamg'alat qilib, kutubxonaga yugurdi. Qiya ochiq turgan eshikni dadil ochib, ichkariga yo'nalgan joyida taqqa to'xtab qoldi. Qiz bag'rini stolga bosganicha, yelkari titrab, yig'lamoqda edi... Bir mahal qaddini ko'tardi, oldida yotgan qandaydir maktubni qo'lga olib, bir soniya unga tikilib turdi-da, so'ng mayda-mayda qilib yirtib tashladi. Tusi qo'rqinchli, nuqul qaltiraydi. Bolakay kirishga cho'chidi, ortiga chekindi. Dili vayron, aqli lol: «Nega xatni yirtib tashladi?! Muxtor akadan xat keldimikan? Nega unda... yig'ladi?!»

Tushdan so'ng yana kutubxonaga bordi: eshik qulf, hovlida qorovul chol gullarni sug'orib yurardi.

— Ha, o'g'lim, maktabingni sog'indingmi? — dedi chol unga ko'zi tushib. U indamadi. Chol pushtaga tuproq torta turib, gapida davom etdi. — Ko'p ichikaverma, hali o'qiyverib-o'qiyverib, o'qish badingga ham uradi. O'ynab qol, bolam!

Bolakay churq etmadi, boshini quyi solganicha, bir-bir bosib ko'chaga chiqib ketdi: «Nega yig'ladi ekan-a!»

Kechaga yaqin qishloqqa Sami mahmadona kirib keldi. Hol-ahvol so'rganlarga: «Ikkinchisidan yiqildim», dedi. Muxtorni so'rganlarga esa, qovog'ini solib, baralla so'kindi: «G'irt nomard ekan! O'qishga emas, ishlashga borgan ekan, ablah! Hozir zavodda ishlayapti. Men unga ishonib, sarson bo'lganim qoldi!»

Bolakay hayron: «Nega yig'ladi ekan-a?!»

Bolakay tush ko'rdi: qop-qora bulutlar ummonida Malika opa suzib yurgan emish. Chaqin chaqnab, uni og'ushiga tortarmish. Malika opasi, ustida o'sha harir ko'ylak, ularning changalidan qutulmoqqa urinarmish. Bo'lmabdi, shunda u chinqirib, xuddi chaqaloq ukasiday chinqirib, yig'lay boshlabdi. Birdan osmonu falakda Mux-tor akasi paydo bo'libdi, qo'lida o'tkir shamshir. Malika opasi esa yanada qattiq uvvos tortib yig'larmish...

Bolakay uyg'ondi, tushi bilan o'ngi ayqashib-uyqashib ketdi: tong sukunatini tilkalab dahshatli yig'i tovushlari yangramoqda edi. Birin-sirin akalari uyg'ondi, bir-biriga hang-mang termilishadi: «Nima gap?» Narigi supada onasi qo'shni kampir Momoxol momo bilan boshini sarak-sarak qilib suhbatlashib o'tiribdi.

Bir payt darvozada otasi ko'rindi. Xotinlar chug'urchiq-day yopirilishdi:

— Opkelishdimi?

— Nega ichibdi?

— Ota supa labiga og'ir cho'kdi, uh tortdi.

— Homilasi bor ekan.



Ayollar yuzlarini changallab qolishdi. Momoxol momo qalqib, supadan dumalab tushishiga sal qoldi.

— Voy, o'Imasam!

— Kimdan?!

— Xudo biladi! — dedi jahl bilan otasi. — Hozircha turli mish-mishlar yuribdi. Birov u deydi, birov bu...

Kattalar shoshib chiqib ketishdi. Oftob nuri yoyilgan hovlida yolg'iz qolgan bolakay kalovlanib goh uyga kiradi, goh tashqariga chiqadi. Qo'shni hovlidan ukasining big'illab yig'lagani, Ra'noning allasi (onasi ukasini unga tashlab ketgan shekilli eshitiladi. U hovlida merovsirab yurdi-yurdi-da, so'ng uyga kirdi. Oyoqlari tagiga stul qo'yib, oyna tepasidan ro'molchani sidirib oldi. Garangsib tomorqaga o'tdi. Buzog'i oldiga borib cho'kkaladi. Ko'zlaridan tinmay yosh quyilar edi...

— Malika opa o'lib qoldi, sirka ichib o'l-i-ib qoldi... — deya buzog'ining bo'ynidan quchdi.

Buzoq hurkib tisarildi...

Ona uyga qaytib kelgach, bolakayni uvat chetidan hushsiz topdi. Uning bosh tomonidan buzoq yamlab tashlagan sariq ro'molcha yotardi.

TOVATOSH

Aka, shu... qishlog'inggacha oborib qo'yib suyunchiga otangdan bir qo'chqor undirardim-u... vaqtim chatoqda. Bu yog'i endi oz qoldi. Yigit odamga nima — bir sakrasang, yetding hisob, — dedi yo'l bo'yi mum tishlab kelgan badqovoq shofyor xijolatomuz ohangda va mashinani ayrilish yerda to'xtatdi. Keyin Dilmurodning cho'ntak kavlayotganini payqab, norozi bosh chayqadi: — I-i, puling yoningda tursin, uka. Biz soldat bolalardan pul olmaymiz. Xo'p, omon bo'li!

Yo'l bo'yida, tog'u toshlar orasida yolg'iz qolgan Dilmurod tepasida og'ir yuki bilan imillab borayotgan ma-

shina ko'zdan yo'qolguncha, orqasidan qarab turdi. So'ng qoyalar ortiga yashirinayotgan quyoshga tashvishli bir nazar soldi-da, katta yo'l qolib, nishablikdan — torgina so'qmoqdan archazor oralab tusha ketdi.

U qishloqqa kirib kelganida oqshom cho'kkan, salqin havoda tezak tutuniga omuxta piyozdog' hidi anqir edi. Tanish bu hiddan Dilmurod vujudida yoqimli bir titroq sezdi, o'pkasini to'ldirib-to'ldirib nafas oldi. Uyga qo'qqisidan kirib borgisi keldi va shunday qilsa tug'ishganlarining ne holga tushishini o'zicha tasavvur etib jilmayib qo'ydi.

Hartugul yo'lda hech kim uchramadi.

Dilmurod tabaqalari lang ochiq darvoza ostonasiga qadam qo'yanida, uni birinchi bo'lib hovlida g'imirsib yurgan opasi payqadi. Payqadiyu keng ko'ylagini halpillatgancha, yurakni tilkalovchi faryod bilan yugurib keldi:

— Dilmurod! Otaginamdan ayrilib qoldik, inijon!

Boshiga bexos so'yil tushganday gangib qolgan Dilmurod bo'yniga osilgan opasining yelkasi osha hovlidagi boshqa tug'ishganlarini ko'rdi. Bari motamsaro qiyofada.

— Ni-nima?! — deya hayqirdi u va opasini o'zidan keskin chetlatib, jonholatda uy tomon yugurdi, mudhish xabarga ishongisi kelmaganday eshiklarni qars-qurs ochib-yopib, barcha xonalarga bir-bir bosh suqib chiqdi...

Dilmurod gandraklagancha tashqariga yo'nalarkan, peshayvonda yelkasidan quchgan kimnidir nari itardi, yig'lamsirab ming'irladi: «Qachon?» «Kecha...» dedi biron. Bir ayol hiqillab qo'shimcha qildi: «Yo'lingga ko'z tutatuta... ketdi sho'rlik». U karaxt holda hovli o'rtasidagi kattakon tovatoshga borib o'tirdi. Yuzini kaftlariga bosib, u yon-bu yon chayqalib turdi-turdi-da, so'ngra yelkalari titrab yig'lab yubordi. Yig'i aralash kimnidir so'kdi, kimlarnidir la'natladi, atrofini gir qurshaganlar faqat bir gapini tuzukroq anglashdi: «...sanqib yurmay, vaqtida kelaqolsam, o'larmidim!»

Dilmurod xizmat joyidan Toshkentga uch kun burun kelgan edi. Poyezddan tusha solib, yo'lni to'g'ri student-

lar shaharchasiga burdi. Qator g'ishtin yotoqxonalaridan birida sinfdosh jo'ralaridan ikkitasi turishar edi, ularni osongina topdi. O'sha kech yarim tungacha bazm qilishdi. Ertasi jo'ralari davrasida shahar aylandi. Katta magazindan otasiga qishloqbop, arzon baho kostyum-shim, enasi, akasingillariga hamda boshqa qarindosh-urug'lariga bir talay sovg'a oldi. Keyin jo'ralaridan biri tahsil olayotgan jismoniy tarbiya institutiga bordi, sambo mashg'ulotini tomosha qilgan bo'ldi. Kurashning eng jaydari usullarini ham o'zlashtirilmay trenerdan dakki eshitayotgan ba'zi talabalarni ko'rib, hafsalasi pir bo'ldi: «Institutga ham har kimni olaverar ekan-da? — dedi tashqariga chiqishgach, boshini sarak-sarak qilib. — Bular shu turishida yurt sharafini himoya qila olarmikan?!» Jo'ralari uning gapini ma'qullashdi. Jo'shib ketgan Dilmurod shu yil fizkultura institutiga hujjat topshirishini, nasib etsa kurash tushishini bu mishiqilarga hali ko'rsatib qo'yajagini, xullas, butun orzu-maqsadini bir-bir bayon qila boshladi. Jo'ralari uni bazo'r to'xtatib qolishdi, chunki kecha yarim tungacha shu gaplarni eshitishgan, harbiyda kurash tushib ko'pchilikning ko'kragini yerga tekkizganidan ham xabardor edilar. «O'zimiz ham bilamiz!» dedi oshnalaridan biri. Yana birovi unga nasihatomuz tanbeh berdi: «Amaling zo'r, kuching bisyor jo'ra! Ammo lekin sen har yerda munaqa shaldirayverma! Polvon kishi bosiq bo'lgani ma'qul!» Dilmurod sholg'omday qizarindi: «Aytдим qo'ydim-da, endi. Til qurg'ur besuyak... — Birpas turib qo'shimcha qildi. — Bizga ijaraga bir uy topib qo'yinglar. O'n-o'n besh kunga qolmay qaytib kelaman. Bunda yotib tayyorlanmasam, qishloqda yumush ko'p».

O'sha kuni kechki poyezdga chiqmoqchi edi, qo'yishmadi. Kursdoshlaridan birining tug'ilgan kuni ekan, uni ham olib borishdi.

Dilmurod yigit bo'lib buncha qizni bir yerda yig'in holda ko'rmagan edi. Tag'in, bir-biridan ko'hlik — qarab ko'z to'yamaydi! U yurak yutib biror qizga gap otmagan bo'lsa-

da, o'ktam yigit emasmi, o'tirish davomida sirli, yashirin nigohlarni ko'p payqadi, ko'ngli sarhush tortdi. Poygakda o'tirgan suluv qizni zimdan kuzatib o'tirdi. «Shunisi zo'r ekan! Jo'ralardan ismini so'rab bilmoq kerak».

Uchinchi kun yo'lga chiqa turib, jo'ralariga qat'iy tayinladi: «Sizlarga boyevoy zadacha. Shu ... Shoiraxonga ko'z-quloq bo'lib yuringlar! Tag'in birov ilib ketmasin!»

Mana, endi... o'zini, o'ziga qo'shib jo'ralarini so'kmoqda, la'natlamoqda: «Vaqtida kela qolsam, tirik ko'rardim-a!» deb o'kinmoqda.

Dilmurod tunni tikonga ag'anab o'tkazdi. Tongga yaqin ko'zi ilingan ekan, gangir-gungur ovozdan uyg'onib ketdi. Kiyinib supadan tushdi va hovli o'rtasidagi tovatosh yonida gaplashib turgan akalari yoniga bordi.

Shu dam o'ng oyog'ini siltab bosib kelayotgan tog'asi darvozadan ko'rindi.

— Ketdikmi? — deya so'radi u kela solib.

— Hozir, — dedi katta akasi Xolmurod va toshga yopishdi. Lekin uni qo'zg'atishga kuchi yetmadi va nega qarab turibsanlar, deganday ukalariga o'graydi. Kichik akasi Elmurod darhol uning qavatiga kirdi: ikkovlashib toshni og'ilxona tomonga yumalata boshladilar. Dilmurod avvaliga hayron bo'ldi, o'ychanlik bilan alamnok kulimsiradi: «Ikkovlashib bir toshga... Otam esa buni bir o'zi Tentaksoydan yelkasida ko'tarib chiqqan!»

— Jijan, bugun otang rahmatlining uchini o'tkazamiz, — deya izoh berdi tog'a. — Oyoq ostida yotmasin, deb...

— Chetga chiqarib tashlamoqchi! Otam yelkasida ko'tarib kelgan toshni bular chetga chiqarib tashlamoqchi!»

Dilmurod shartta akalarning yo'lga ko'ndalang bo'ldi.

— Qo'yinglar, joyida turaversin! — dedi u qandaydir begona, xirqiragan ovozda va jindek qo'pollik bilan akalarni toshdan yiroqlashtirdi-da, yengil bir harakat qilib, toshni qayta joyiga yumalatib qo'ydi. — Shunday yotaversin!

Og'alar ajablanib uning yo'g'on paylari temirdek o'ynab chiqqan bilaklariga jim qarab qolishdi: ehtimol hozir ular Dilmurodning qiyofasida otalarini ko'rayotgandirlar?.. Har qalay, ikkovi ham baravariga yelka qisdi. Aftidan, Dilmurodning bu qo'pol muomalasi ularning g'ashiga tekkan edi. O'rtada muqarrar dilxiralik bo'lishini o'z vaqtida anglab yetgan tog'a darhol oraga tushdi:

— Hay, Dilmurodboy aytgancha bo'laqolsin... Endi, yigitlar, tezda borib, Abdinikidan qozon obkelaylik. Qani!

Akalari tog'aning ortidan ko'chaga chiqib ketishgach, Dilmurod sekin toshga cho'kdi. Qishloqni gir qurshagan kulrang qoyalarga, yonbag'ir bo'ylab tartibsiz sochilgan toshdevorli uylarga, qishloqni qoq ikkiga bo'lib pishqirib oqayotgan soyga, tonggi yumush bilan andarmon odamlarga nazar solarkan, chuqur xo'rsindi. Oradan ikki yil o'tibdi-yu, soy yoqasiga tushgan qandaydir g'ishtin binoni demaganda, qishloq hali ham o'sha-o'sha — hech narsa o'zgarmagan. Faqat, otasining — ko'kish hovurga o'xshash siyrak tuman og'ushida abadiy mudroq tog'u toshlar bag'ridagi qo'riqxonaga nazoratchisining nafasi yo'q qishloqda... Undan manavi qo'rg'onsifat hovli, uch o'g'ilu to'rt qiz, bir qo'ra chorva, shuningdek, ko'pgina o'chmas xotiralar guvohi tovatoshgina qolgan, xolos...

Dilmurod tovatoshning g'adur-budir sirtini siypalab, beixtiyor xotiralar og'ushiga singdi.

O'shanda u o'n yoshda edi. Otasi toshni Tentaksoydan yelkasida ko'tarib chiqdi. Enasi, azbaroyi ichi achiganidan koyib berganida, u pinak buzmay: «Kampir, bu tevarakning» toshi keliga yaramaydi, urgan sayin uvog'i chiqadi, bu tosh suvda qotgan, selda pishgan. Bir keli yasayki, nevara-chevaranggacha huzurini ko'rsin!» dedi. Shundan so'ng toshning ustiga tizzalab olib, o'tkir chaqmoq bilan qoq tepasidan o'yishga tushdi. Biroq bir misqolcha tosh ko'char-ko'chmas, birdan o'ng ko'zini tutib ix-ixlab qoldi. Ko'zidagi tosh parchasi olib tashlangach, avval, keli topib beraman, deb bir oy burun va'da bergan traktorchi osh-

nasini boplab so'kdi, so'ngra xo'mrayib: «Uyning kuygir, o'r tosh ekan, bo'y bergisi kelmayпти», dedi.

O'sha kuni otasi u-bu yumush bilan ovora bo'lib, toshni o'yishga fursat topmadi. Kechga yaqin esa keldi va da bergan oshnasi traktorning ko'hna silindrini ko'tarib kelib qoldi. Ikki oshna silindrni yog'ochga o'rnashtirib, quling o'rgilsin bir keli yasashdiki, enasi quvonganidan darhol bug'doy tuyib, sermoyu sergo'sht palovdan so'ng das-turxonga serqatiq, xushta'm go'ja tortdi.

Tovatoshga ehtiyoj yo'qoldi, shu-shu hovli o'rtasida turibdi.

Qishloq bo'yicha yolg'iz otasigina bu toshni ko'tara olar, shuni aytib Dilmurod tengqurlari o'rtasida doimo maqtanib yurar edi. Albatta, boshqalar ham undan qolishmas, bolalarga xos shayq va ishonch bilan otalarini ko'klarga ko'tarib maqtashga harakat qilishar edi. Lekin ularniki quruq gap, Dilmurodniki esa aniq — ana, hovli o'rtasidagi tovatosh guvoh! Bu toshni hatto Sayfi chavandozning to'ng'ichi Begali polvon ham tizzasidan yuqoriga ololmagan!

Tosh Dilmurodning g'ururi edi, otasi esa — ishongan tog'i.

Ularnikiga tez-tez darvoza qoqib, goh do'st, goh dushman kayfiyatida odamlar kelib turar edi. Ota yaxshilarga eshik ochar, izzatini qilar, yomonlarni esa darvozadanoq iziga qayirar edi. Ammo ular bir gapdanoq keta qolmasdi: boshda rosa yalinalardi, xullas, tortib olingan miltiqlar yoki qandaydir aktlar haqida gaplashishar edi. Ota ko'novermagach, yolvorib turgan kimsaning muloyim basharasi shu damdayoq qahrli tus olardi va u kishi andisha-pandishani yig'ishtirib qo'yib, vaqti-soati kelsa boplab o'chini olishini ochiq-oydin aytardi, u bilan birga kelganlar ham do'q-po'pisa qilar edilar.

Bunday kezlarda Dilmurod hovli o'rtasida, tosh yonida tik qotganча, mojaroni bemayliхotir kuzatayotgan bo'lardi: «Anov kishining baqirishini... Urib ko'rsin-chil! Otam manavi toshminan bir urib, o'ldirib qo'ysin!»

Ammo otasi u kutganichalik, toshni boshi uzra ozod ko'tarib, do'q urayotgan kimsaga hamla qilmas, ne-ne balo-qazoni o'ta xotirjamlik hamda sovuqqonlik bilan daf etar edi. Keyin oyda ikki-uch bor tortib olingan miltiq va o'g'rincha daraxt kesganlar ustidan tuzilgan aktlarni rayon markazidagi ikki qavatli qizg'ish binoga — idoraga topshirib qaytardi.

Otasining bu ishi begonalar tugul, o'z xeshlariga ham ko'pda yoqavermasdi. Ayniqsa, tog'aga «Pochcha, — derdi u, — shu fe'lingiz yomonda. Arzimagan jondorni deb ko'ngilni xira qilish yaxshi emas». Yoki: «Pochcha, bitta archa kesilsa kesilibdi-da, nima, shu bilan tog'da o'rmon kamayib qolarmidi? Ko'p qiynamang bechorani, ko'z-ko'zga tushadi-ya!» deb e'tiroz bildirib turardi. Keyinchalik otadan alam yegan kishilarni xoli yerda uchratib qolgudek bo'lsa, ko'nglini ovlashga tushardi: «O'zing ko'rding, birodar, seni yoqlab pochcha (pochcham demasdi) bilan xo'b urishdim. Bundan ortiq nima ham qila olardim? Zakunga yopishib, o'z foydasidan yuz o'g'irgan telba-da u!»

Qaynisining orqavorotdan bu taxlit so'zlashlarini ota payqardi-yu, indamasdi. Lekin bir gal indadi.

Bu voqea akasi Xolmurod institutga kirolmay qaytgan yili yuz berdi. U hovlida afti alamdan bujmayib yurdi-yurdi-da, dardkash istab tog'anikiga o'tdi. Dilmurod unga ergashdi. Tog'aning kayfi chog' ekan, bir shisha araq ochdi. Akasi otasidan bekitiqcha to'y-ma'ralalarda oz-mozdan ichib yurar edi, tog'aning qo'lini qaytarmadi...

Tog'a jiyanining darklarini jim turib tingladi, keyin tomoq qirib dedi: «Xo'sh... endi, jiyan, gapning po'stkallasini aytganda, otang qattiqlik qildi, ha! Qo'radagi chorvaning yarmisidan voz kechganida, sen institut tugul, akademiya kirib ketarding... Mana, bizning G'ozivoy ham to'rttaning kuchi bilan o'qiyapti-da. Lekin men otangga aytgan edim. Eshitgisi ham kelmadi. Qattiqlik qildi!»

Akasi shu gaplarga ishondi! Ko'ngli o'ksib, o'pkasi to'lib, uyalmay-netmay ko'zlariga yosh oldi...

Otasi tog'da edi. Tunda qaytib, Dilmuroddan bo'lgan voqeani eshitdi, lekin tishini-tishiga bosdi, chidadi. Ertasi esa, mis-sim qo'shib o'rilgan zarang sopli qamchisini belbog'iga qistirib Xolmurod yotgan uyga kirdi. Sekin turt-di. Tepasida birpas tek turdida, sizlab gap boshladi: «O'g'lim, kecha bu, tog'angiznikida ko'z yoshi qilibsiz deb eshitdik?! Bizning naslda bunday chiginlar bo'lmas edi! Bunaqa isnodga qanday chidaymiz endi, a?!»

Ilgari u bolalarini hech urmagan. Bu gal o'zini tutib turolmadi, buning ustiga Xolmurodning qo'rquvdan qalt-qalt turishi ham g'azabini oshirib yuborgan edi. Qamchi havoda g'izilladi, g'izillayverdi... Xolmurod to'shakka mixlangach, otasi to'g'ri tog'anikiga o'tibdi. Tog'a ishga o'tlanib turgan ekan, pochchasining vajohatini ko'rib, o'zini derazadan tashlab qochibdi, hovlisi ortidagi archazordan panohtopmoqchi bo'lgan-da. Keyinchalik otasining aytishicha, tog'a bexos toshga qoqilib, koptokday soy tubiga yumalabdi...

Oradan kunlar o'tib, tog'aning badanidagi mayda jarohtlar bitib keldi-yu, lekin o'ng oyog'i bir umrga majruh bo'lib qoldi... U pochchaning ustidan shikoyat qilmadi — elu xalqdan uyaldi.

Ota esa bu voqeani shunday sharhladi: «Qumtoshi tushmagur juda mo'rt ekan, sal turtkiga uvalanib ketdi».

Otaning qiziq fe'li bor edi: u odamlarni biror xil toshga mengzar edi. Masalan, tog'a bilan Xolmurodni «qumtosh» derdi, chunki bularni og'irning ustidan, yengilning ostidan yurguvchi imoni sust kimsalar tirikchilik deb har qanday harom-xarishdan qaytmaydiganlar, deb hisoblanardi. Yangasi Nigoraxonni chaqmoqtoshga mengzardi: har qancha uchqun berib, ko'zni olgan bilan tafti yo'q — Elmurod bechoraning chakkalariga bekorga qirov qo'nmagan, derdi u. Qo'shni uchastka qorovuli, og'aynisi Cho'li o'rmonchini esa — asriy xarsangtoshga: uning imoni but, e'tiqodi mustahkam!



Dilmurod otasi uni qaysi toshga mengzaganini bilmaydi. Hayot bo'lganida, bir kulib, albatta, o'xshatardi ham...

Hovli yuziga oftob bir tekis yoyilganda, pastdan katta qozon ortilgan eshakarava, arava ketidan akalari va ularga nimalarnidir uqtirib kelayotgan tog'a ko'rindi. Tog'aning qiynalib qadam tashlashini ko'rib, Dilmurod ko'nglida unga nisbatan g'alati bir iliqlik tuydi: «Qarindosh — qarindoshda! Bechora barcha gina-quduratini unutib, hamma ishga bosh-qoshi bo'lib yuribdi!»

U yuvinishga tutindi, jamalaksoch singlisi oftobada suv quyib turdi. Enasi unga ohorli ko'ylak-shim va yupqa paxtalik yap-yangi to'n hamda do'ppi olib chiqdi. U bularni kiymog'i, ya'ni motam libosida bo'lmog'i lozim edi.

Otasining yigirmasi o'tdi. Keldi-ketdi aridi. Dilmurod ham ko'p qatori judolikka sekin-asta ko'nikdi. Shu kunlarda Toshkentga jo'nash taraddudida edi.

Bugun u safar oldidan ko'nglini yozib kelish niyatida tog'ni aylanmoqchi bo'ldi. Tasmasi chiriy boshlagan durbinini yelkasiga osib, otxonaga o'tdi: ot joyida yo'q! Shundagina otasining to'rig'ini tog'asi minib yurganini esladi. Yuragining bir cheti jiz etib qo'ydi-yu, piyoda yo'lga tushdi. Qishloqning kun chiqish tarafida yuksalgan Kampirqoya cho'qqisiga chiqib bordi. Cho'qqidan atrof kaftdek ko'zga tashlanib turardi. U tosh ustiga o'tirib tevarakni kuzata boshladi. Bir payt qishloq yoqalab o'tgan yo'ldan timirskilanib kelayotgan ikkita yengil mashina ko'rindi. Qiziqsinib, kuzatishda davom etdi. Ana, oldinda kelayotgan mashina qishloqdan yarim chaqirimcha beridagi ko'm-ko'k olmazor orasida oqarib turgan qorovulxona biqinidagi shlagbaumga tumshuq tirab to'xtadi. Kimdir tushib qorovulxona eshigini tortib ko'rdi. Keyin u yo q-bu yoqqa alanglab, shlagbaum arqonini bo'shatdi. Mashinalar olg'a intildi: shlagbaum ochiqligicha qolaverdi.

Mashinalarning qo'riqxonaga bamaylixotir kirib kelishi Dilmurodning g'ashiga tegdi, xayolida kechagi suhbat jonlandi.

Kecha kechqurun Cho'li o'rmonchi atay uni yo'qlab kelibdi.

— Ha... Otang rahmatli bir qoya edi! — dedi Cho'li o'rmonchi uzoqdan gap boshlab. — Shunday odam-a!.. Esiz!

— Issiq jon-da... kim o'ylabdi deysiz! — dedi akasi Xolmurod.

— Armiya-ku bitdi, — dedi Cho'li o'rmonchi Xolmurodning gapiga e'tibor bermagan ko'yi, — endi nima qilmoqchisan, Dilmurodboy?

— Bu o'qiydi, — deb Xolmurod yana oraga suqildi.

— O'qimoqchiman, amaki, — dedi Dilmurod ham. Nimalikka?

— Shu, fizkultura institutini qoralab turibmiz.

— Hm, Tohir malimday bolalarga «raz-dva» o'rga-tarkansan-da?

— Yo'q, kurashchi bo'laman. Yo'llanmam ham bor armiyadan!

— Kurashchi bo'lish uchun institutda o'qish shartmi? Axir, kurashni o'zimizning to'ylarda ham o'rgansa bo'ladi-ku?

— To'ydagi kurashni gapirasiz-a, Cho'li amaki. — Xolmurodning jahli chiqdi. — Axir, ukamdan ittifoq miq-yosidagi kurashchi yetishib chiqishi mumkin. Axir, bu-ning turgan-bitgani... nima edi... talant-ku! Ana, Meli pol-von, televizorlarda chiqyapti. Otasi qishloqqa sig'may qol-di! Dilmurod uni Qarqaradagi to'yda oyog'ini osmondan keltirib urgan!

— Talant-malantini bilmadim-u, do'xtir, lekin qo'riqxonaga qarovsiz qoldi. Demoqchimanki, bu otangning o'rnini bossa! To'raqul, Rahmonberdilarga qolsa dunyoni sel bossin: ular ko'proq o'z tomorqalariga qayg'urishadi. Qara, qo'riqxonaga it ham kiryapti, bit ham. Yana o'zi biladi, buniyam o'ziga yarasha kallasi bor!

— E'tibor berma gapiga, — dedi Xolmurod chol ket-gach. — Unga qolsa, butun avlodimiz o'rmonchi bo'lsin. Ja

saviyasi past odam-da, kurashni to'yda o'rgansa bo'larmish. Tavba. Tiliyam o'lgudek sassiqlik: bir kuni meni to'xtatib olib, senga do'xtirlikdan ko'ra qassoblik ko'proq yarashadi, jasadningni qara, deydi...

Dilmurod akasining semiz, qip-qizil, barkashdek basharasiga, tugmalarini tarang tortib turgan katta qorniga qarab turib, Cho'li o'rmonchining topqirligidan ichida kulib qo'ydi.

— Sen yo'l tadorigini ko'raver, men ertaga samolyotga belat obkelaman, — deb so'zini tugatdi Xolmurod.

Mashinalarning bemalol qo'riqxonaga kirib kelishi Dilmurodga otasining yo'qligini yana bir karra eslatib qo'ydi.

Mashinalar Dilmurod turgan qoya ostida — soy sekinlab oqadigan xushmanzara sayxonlikda to'xtadi. Eshiklar ochilib sariq-semiz, uzun-qisqa sakkiz kishi tushdi va bari qo'lini beliga tirab, tevarakni maroq bilan tomosha qilyotgandek picha turdi. So'ngra birin-ketin yumushga unashdi: kimdir bolta tutib archazor oralab ketdi: kimdir kalta so'pli belkurakda tandir qaza boshladi; yana kimdir soy bo'yiga joy hozirladi; ikki kishi mashina yukxonasidan oyoqlari kuluklangan semiz qo'yni olib, chetroqqa o'tdi. Qolgan uchtasi — basavlat va qorindorlari beligacha yechinishib, badanlarini oftobga toblagancha, karta o'ynashga tushishdi.

Ularning bu taxlit emin-erkin yurishlaridan kayfiyati buzilgan Dilmurod ko'rmayin ham, ko'ymayin ham, deb o'rnidan turdi. Bir xayoli — ularni haydab yubormoqchi ham bo'ldi. Lekin o'zini huquqsiz sezdi; axir, kimsan, deb so'rasha, o'lib ketgan Begimqul o'rmonchining o'g'liman, deydimi? Qanday aytadi?

Dilmurod pastga enib, jar yoqalab bordi-da, Mingbu- loq tarafga o'rladi. U yerlar yovvoyi olma, zirk butalari bilan qoplangan, zehn solib qaragan kishi butalar o'z- o'zidan o'smaganini, ularni mirishkor qo'l tartib bilan o'tqazganini payqashi qiyin emasdi.

Bu o'rmonni tanigan Dilmurodning ko'nglidan g'ashlik arib, xayolida yoqimli xotiralar uyg'ondi.

O'shanda o'rancha akasi Elmurod haykaltaroshlik institutida (hozir oblast markazida ishlaydi. Haykaltarosh) o'qirdi. Yerdan qor arib, havo endi-endi isiy boshlagan bahor kunlarining birida shahardan qaytib, tovatosh atrofiga aylanishib qoldi. Qo'lida asbob-uskuna.

— Nima qilayapsan, o'g'lim? — dedi ota uning harakatlaridan ajablanib.

— Buustingizni ishlatmoqchiman, ota! — deya javob berdi akasi bir oz takabburlik bilan.

— Buysting nimasi?

— Buyst emas, byust, ya'ni, sizning qiyofangiz!

— E, haykalmi?

— Shunday desa ham bo'ladi.

— Hm... Keyin maktab hovlisidagi anov haykal yoniga o'rnatib qo'yanmi?

— Nimani?

— Haykalimni-da.

— E, yo'q. Prosta tak... o'zim uchun-da, ota. Ijod...

— Hay, unda men senga boshqacha haykal yasashni o'rgataman, o'g'lim. — Otasi shunday dedi-da, Dilmurodga yuzlandi: — O'g'lim, ombordan uchta belkurak obchiq!

Ota Elmurod bilan Dilmurodning qo'liga bittadan belkurak tutqazdi-da, ularni Mingbuloqqa boshlab bordi. Taqir yerni ko'rsatib, bir qadam-bir qadam oraliq tashlab yuztadan oshiq chuqurcha kavlashni buyurdi.

O'sha kuni uchovlashib nomozgargacha ko'chat o'tqazdilar. Uyga qaytayotib, ota yo'lda Elmurodga dedi:

— Manov archalarni kim o'tqazganini bilasanmi? Bil-maysan! Unda sen chaqaloq eding. Bularni rahmatli bobong ekkan. Qara, qandoq o'rmon bo'lgan! Anov nishablikdagilarni Sayfi chavandoz, huv Bujur qoya etagidagilarni Safarali, mana bu toshloqdagilarni Tohirbek ekkan. E-e, sanab sanog'iga yetmaysan. Ilgarining odamlari yirik-yirik bo'lardi. Imoni but, iligi mustahkam edi! Hozir



odamlar maydalashib boryapti, bo'y-basti emas, fe'l-atvorini aytaman... Mana, seni kim aytadi Berdimurod polvonning nevarasi, deb?! Tag'in, haykal deysay. Keyin, Cho'livoy bilan Berdi tajang ustimdan kulib yurishsinmi? Uning o'rniga bir tup daraxt ek! Bularni ekan odamning ko'pi o'tib ketdi, ammo-lekin o'rmonlari qoldi! Biz qariyalar hali-hali ularni eslab turamiz, falonchini o'rmoni, deb!

Qo'llari qavarib, qovoq-tumshug'i osilgan akasi churq etmadi. Lekin shu-shu u ham toshga qayta yaqinlashmadi. O'shanga ham, mana besh yil bo'libdi.

Dilmurod xayol og'ushida butazor oralab borarkan, archazorga yetgan joyida tuyqusdan ko'zi butalar ostida o'zaklagan ravoch yaproqlari orasida xiyol uchi chiqib turgan yog'ochga tushdi. Yaproqlarni oyog'i bilan nari-beri surib, olib ketishga tayyorlab qo'yilgan ikkita archa yog'ochini ko'rdi.

Dilmurod qishloqqa qaytib, to'g'ri To'raqul o'rmonchilikiga bordi, uyida yo'q ekan, Rahmonberdinikiga o'tdi. Rahmonberdi tomorqasidagi tamakiga ishlov berayotgan ekan. Dilmurodni ko'rib hayron bo'ldi.

— Rahmonberdi aka, — dedi Dilmurod salom-alikdan so'ng maqsadga ko'chib, — Mingbuloqda kimdir ikkita archani kesib, tayyorlab qo'yibdi. Ichkarida chet odamlar ham yuribdi.

— Obbo, enag'arlar-ey! — Rahmonberdi o'rmonchi go'yo g'azablangan bo'ldi. — Tutamiz, jiyan, giribonidan g'ippa tutamiz. Chet kishilar qayerda yuribdi deding?.. Bo'пти, hozir boribiq tirqirataman!

Dilmurodning nazarida, u hoziroq qo'riqxonaga ot qo'yadigandek edi, ko'ngli tinchlanib ko'chaga yo'naldi. Yuqoriga o'rlar ekan, pastqam devor osha Rahmonberdini ko'rdi: u avvalgidek bamaylixotir ketmon chopar edi.

Ko'rganlarini kechqurun akasiga aytgan edi, Xolmurod uning kuyunishidan hayron bo'ldi:

— Qo'riqxonaga bilan necha pullik ishing bor? Ana, egalari qarasin, qurutdek sanab pulini olyapti-ku!

— Aytдим-ku, qaramadi, deb! Bunaqada...

— E, boshni qotirma! Buncha oh-voh qilasan? — Xolmurod uni jerkib bo'lib, oldiga pasport bilan birga bitta bilet tashladi. — Ma, ertaga uchinchi reysda uhasan.

G'azabdan Dilmurodning tirnog'igacha titrab ketdi.

— Tosh! — dedi past, lekin shiddatli ovozda.

— Nima?

— Tosh! Qumtosh! Otam bilib aytgan ekan: Qum-toshsan!

— Esingni yedingmi?!

Dilmurod akasi yonidan turib, mehmonxonaga o'tdi. Shiftga qarab, uzoq o'ylanib yotdi. Keyin, ilkis o'nidan g'o'zg'aldi va g'uldirab qo'ydi:

— Hali senlarga ko'rsatib qo'yaman!

U Mingbuloqqa yetib kelganda, toqqa zimiston qorong'iligi cho'kkan edi. Atrofni bir sidirg'a ko'zdan kechirib chiqdi-da, borib katta xarsang panasiga yonboshladi. Uning tasavvuricha, o'g'rilar soy tarafdin kelishi lozim edi. Haqiqatan ham, oradin ko'p yotmay, soylikdan ikki otlinqning qorasi ko'rindi. Ular suhbatlashib kelmoqda edi. Shevasidan Dilmurod ularning yuqori qishloqliklardan ekanini darrov payqadi. Bundan g'azabi o'n chandon ortdi. Chunki ularning ko'pi vaqtida otasiga xo'b alam o'tkazgan edi...

Gurkirab turgan archa o'rnida judolikdan shohidlik beruvchi kundani ko'rsa, otasi doim to'satdan bodi tutgan kishidek afti bujmayib, qaddi dol bo'lib qolar edi. Uning ta'rificha, yuqori qishloq ahlining aksariyati yerning siynasiga yopishgan kana — unaqalar uyini toshdan quradi, tomiga archa yog'ochi ishlatadi, chorvasi tog'da o'tlaydi, lekin o'zlaridan bilib toqqa birorta cho'p o'tqazmaydi.

Shu damgacha Dilmurodning yuragida cho'kib turgan istihola bir zumda tarqab ketdi. Aksincha, u endi o'zini



huquqli, burchli sezdi, qo'riqxonaga uchun javobgar his qildi.

Hayqirgancha tosh panasidan otilib chiqqanida, o'g'rilar otdan tushib, yog'ochlarni o'ngarib ketishning o'ng'ayroq yo'lini maslahat qilmoqda edilar. Kutilmaganda qarshisida paydo bo'lgan Dilmurodni qorovul bilib, ularni biri qochmoqqa tutindi, lekin endi egarga tirmashgan chog'ida ensasidan tutgan kuchli qo'l uni butalar ostiga uloqtirdi. Ikkinchisi qo'rqqanidan tayoqday qotdi, keyin Dilmurodning marhum o'rmonchining o'g'illaridan biri ekanini sezib, dadillashdi.

— Oy-y, kimsan o'zi?! Bizni tutmoqqa provong bormu? — deya urmoqqa qo'l ko'tardi.

Dilmurod uning qamchin tutgan qo'lidan shappa ushlab, yelkasidan oshirib urdi: ikki kishi ekan, shu tobda o'n kishini saranjom etmoqqa chog'i, hadisi bor edi uning.

O'g'rilar apil-tapil o'rinlaridan turdilar, lekin ustlariga tik bostirib kelayotgan yigitga ro'baro' bo'lishga yuraklari dov bermadi: otlariga tirmashib qochib qoldilar.

Otlar dukuri uzoqlashgach, Dilmurod yog'ochlarga qaradi: «Endi nima qildim bularni? Bugun bo'lmasa ertaga baribir o'maradi. Axir, men bir umr ularni poylab yotolmayman-ku!...» Lekin yuragi g'ashlanmadi, qaytaga dimog'i chog' bo'lib, yayrab kuldi. Keyingi kunlarda birinchi bor yurakdan chiqarib kulishi edi. Tun pardasi qo'ynida tinch mudrayotgan tog'lar yolg'iz o'ziga daxldordek atrofga mag'rur nazar tashladi.

Xolmurod kekchi edi. Ukasining kechagi gapini hali ham unutilmagan, allaqachon yo'l tadorigini ko'rishi lozim bo'lgan Dilmurodning tovatosh ustida xotirjam o'rtirganidan ajablansa-da, borib sababini so'rashga bo'yni yor bermadi. Biroq ichi yonardi. U chap qanoti sal pachoqlangan yashil «Jiguli»sini uzoq artib tozalardi: Motorni o't oldirib, bo'laqol, kech qolyapmiz, degan ma'noda ketma-ket kuchli gaz berdi. Dilmurod esa,

o'zi o'tirgan tosh misol qotgan. Singlisi kiyim-kechak bilan to'lg'azilgan chamadonni ko'tarib chiqib, uning yoniga qo'ydi: Dilmurod go'yo merov — qiyo boqmaydi. Enasi kelib, holini so'radi: Dilmurod go'yo gung — miq etmaydi...

U to qishloq adog'ida qandaydir mashinanig qorasi ko'ringunicha, shu taxlit o'tirdi. Keyin shitob bilan pastga enib ketdi. Qorovulxonaga mashinadan sal oldin yetib bordi. Shlagbaumni yopgan ham ediki, sariq «Moskvich» yetib keldi. Undan jonsarak, oriqqina shofyor yigit va chakka sochlari oqargan kishi tushdi. Boshqalar mashinadan chiqmadi, ko'kraklarini oldingi o'rindiqning suyanchig'iga tirab notanish nazoratchiga ajabsinib qarab o'tiraverishdi.

— Ishlar tuzukmi, uka? — dedi oqsoch kishi qo'lini cho'zib. — Rahmonberdi ko'rinmaydilar?

— Bu yoqqa kirish mumkin emas! — dedi Dilmurod qo'rslik bilan.

— Iya, axir oldingi hafta...

— Aka, mashinani qaytaring!

Haydovchi yigit oqsochga qaradi. Oqsoch Dilmurodni go'dak bilib, avramoqqa tutindi, lekin...

— Aka, ko'p ming'irlamasdan, mashinani qaytaring! Yo'qsa... — Yo'qsa nima bo'lishini uning o'zi ham bilmasdi.

Oqsoch noiloj qoldi: gap talashish foydasizligini bildi. Bo'yin egib ketmoq qiyin edi, shuningdek, yigitga achchiq so'z aytmoq ham qiyin... Mashina iziga qayrildi. Dilmurodning nazarida oqsoch boplab so'kindi, na iloj — parvo qilmadi. Bu uning dastlabki so'kish eshitishi edi. Eh-he, hali hammasi oldinda.

Bugun yakshanba emasmi, tushgacha yigirmaga yaqin mashinani iziga qaytardi. Bungacha Xolmurod ikki marta kelib ketdi. Har kelishida yolvoradi, baqiradi, so'kinib-so'kinib ketadi. Dilmurod tosh, Dilmurod gung — akasiga loaqal qayrilib qaramadi.

So'ng tog'a keldi. Ma'lum bo'lishicha, bozordan qaytib Xolmuroddan barcha gapni eshitgan, xo'b ajablangan, so'ng otni qayta egarlab, bu yoqqa yo'l olgan.

— Keling, tog'a, — dedi Dilmurod uni og'iz ochgani qo'ymay. — Zap keldingiz-da! Endi otdan tushing! Bo'la qoling! Otning egasi bor! Birovning otini minishga... uyaling, tog'a!

Tog'a angraydi, oldiniga hazil qilyapti, deb o'yladi, jiddiyligini bilgach, zardasi qaynadi: otdan shartta tushib, qamchini chetga uloqtirdi-yu oqsoqlangancha iziga burildi.

Dilmurod sakrab otga mindi. Qishloqqa yo'l tutdi. Sayfi chavandozning hovlisi yonidan o'tayotib, odatdagidek, oshxona tuynugidan kimdir mo'ralaganini payqadi. O'sha yoqqa o'g'rincha nigoh tashladi: chiroyli ro'mol tang'ilgan boshniyu, katta-katta ko'zlarni ko'rди. Yuragi dukillab, shirin entikdi. Birdan ko'z o'ngida Toshkent, yotoqxona va Shoira paydo bo'ldi, biroq ularni xuddi tushdagidek tezda unutdi. Beixtiyor ortiga o'girilib, yana oshxona tomonga qaradi. U qarashi bilan chiroyli bosh ko'zdan g'oyib bo'ldi — uyalib qochdi!..

Dilmurod uyga qaytib, otni asli joyiga qantardi va hovliga o'tdi. Ko'zi tovatoshga tushdi. Otasi o'shandan keyin bu toshni hech qachon ko'tarmagani ilk bor yodiga tushdi. Va lekin umr bo'yi yelkasida undan ming chandon og'ir, zil-zambil yukni ko'tarib kelganini, endilikda bu yuk o'zining yelkasida ekanini yurak-yurakdan his qildi.

Shoyim BO'TAYEV



Shoyim Bo'tayev 1959- yil 20- iyunda Tojikistonning O'rtepa tumanidagi Maydoncha qishlog'ida tug'ilgan. 1982- yilda Xo'jand Davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tugatib, ish faoliyatini gazetalarda muxbirlikdan boshlagan.

Ilk hikoyasi o'quvchilik yillarida «Gulxan» jurnalida, ilk qissasi talabalik chog'ida «Sharq yulduzi» jurnalida chop etilgan.

1984- yilda qissa va hikoyalardan iborat dastlabki to'plami «Dunyoning sarhisobi bor», undan so'ng bolalar hayotidan olib yozilgan «Endi bari boshqacha» hikoyalar to'plami o'quvchilar qo'liga borib tegdi.

«Kunbotardagi bog'», «Shamol o'yini», «Ena yurt» qissa va hikoyalar to'plamlari, «Qo'riqlangan oy» romani chop etilib adabiy jamoatchilik nazariga tushdi.

Uning «Kunbotardagi bog'» qissasi asosida «Bog'» deb nomlangan yetti qismdan iborat videofilm yaratildi.

Shoyim Bo'tayev O'zbekiston radiosi «Adabiyot va radioteatr» Bosh muharririyatining Bosh muharriri, «O'zbektelefilm» studiyasi Bosh muharriri lavozimlarida uzoq muddat (1994–2005-yillar) faoliyat olib borib, o'zbek yozuvchilarining asarlarini magnet tasmlariga yozib olish va bu asarlar asosida kinofilmlar yaratishga bosh bo'lib, madaniyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

Yozuvchining «Shox» romani keng kitobxonlar ommasining e'tiborini o'ziga jalb etdi. Uning asarlari turli tillarga tarjima qilingan.

Shoyim Bo'tayev samarali ijodi va mehnati uchun «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan.



USTA VA CHARXPALAK

(*Ertak-qissa*)

USTA

Siz o'qishni boshlagan mana shu ertak-qissa to'qilmasdan burun Usta ishini tugatib, asbob-uskunalari ni yig'ishtirib xaltasiga solgan, narvonni yasab bo'lgan edi. Odamlar bu narvonni bekamu ko'st yaratilgan deb hisoblashardi. Ammo o'z ijodining mahsulidan Ustaning ko'ngli negadir to'lmagan edi. U qandaydir boshqacha, mukammalroq narsa yaratishni orzular edi.

Aslida, narvonni yaratayotganda ham shu xayolda edi...

NARVON

Usta narvonga qalb qo'rini berdi.
Uni roppa-rosa olti metr qilib yaratdi.
O'sha kuni Usta o'zi yashayotgan tog' yonbag'ridagi qishloqchanning namxush ko'chasidan narvonni yelkasida ko'tarib o'tdi.

Qishloq chetida, ulkan qoyatoshning ostida Muqaddas Chashma bor edi. Necha yuz yillardan buyon qishloq ahli, o'tgan-ketganlar bu chashmadan suv ichib chanqovlarini qondirib kelayotganliklari va ekin-tikinlar ham shu suv bilan sug'orib ko'kartirilishi, ulardan yaxshigina hosil olinishi sababli chashma muqaddas hisoblanardi. Odamlarga foydasi tegsa, har bir narsa muqaddaslashib, e'zozlanishi azaldan ma'lum. Xullas, qishlog'imizning ko'rki bo'lib, ko'rinib tursin deb odamlar chashmaning ustiga naqshinkor ustunlar bilan ayvon ko'tarishgan, uning tomini oq tunuka bilan yopishgan edi. Bu chashmaga ham, uning ustidagi ayvonga ham, ayvon tomiga yopilgan oq tunukaga ham boshqalarning havasi kelib, og'izlari ochilganicha tomoshalab qolishardi. Nimadir bo'ldi-yu, tunukalardan birining bir tomoni ko'tarilib, qiyshayib

qoldi. Tomga zarari tegmasa ham ko'zga xunuk ko'rinar edi. Shuni tuzatib qo'ysangiz-chi, deb odamlar uni Ustaga ko'rsatishardi. Narvon bo'lmagani uchun Usta bu ishni paysalga solib kelardi. Narvonni yasab bo'lgan kuniyoq uni ko'tarib o'sha yoqqa yo'l olgandi.

Usta ko'tarib ketayotganida narvonning uch metri orqada qolgan bo'lsa, uch metri oldinga chiqib turgandi. Ustaning o'zi o'rtada borayotgani uchun uzoqdan qaragan odamga o'zidan bir necha baravar kattalikdagi xasni ko'tarib ketayotgan chumoliga o'xshab ko'rinar edi.

Hali aytganimizdek, uzunligi olti metr, eni yarim metr, o'n ikkita poyasi bo'lgan bu narvon qoratolning quritilgan shoxidan yasalgani uchun vahimali ko'ringani bilan pardek yengil edi. Bundan bexabar odamlar Ustaning kuchiga qoyil qolishib:

— O'zi jikkakkina bo'lgani bilan Ustaga kuchdan xudo bergan-da, — deya bosh chayqab qo'yishdi.

Shu gap aytilgan mahalda Usta bir qalqib ketdi.

Ko'z yomon-da!

Usta yelkasida ko'tarib ketayotgan narvonni yasayotgan mahalda uning har bir poyasiga o'zicha nom qo'yib chiqqandi. Nega bunaqa qilganining sababini uning o'zidan so'rashsa ham tuzuk-tuzuk tushuntirib berolmasdi.

Shunaqa qilib desangiz, narvonning pastki poyasi biroz kengroq joyni egallagani, baquvvatroq hamda uzunroq bo'lgani bois kattasi shu deb Usta unga Hasan deb nom bergan edi. Hasanni erkalab To'ng'ichvoy deb ham atadi. Ustaning shunaqa qiziq-qiziq fe'l-atvori bor edi-da. Tepaga chiqqani sayin poyalar oz-ozdan, bilinar-bilinmas qisqarib boraverar edi. Hasandan keyingi poyaga ikkinchi Hasan deb, undan keyingisiga uchinchi Hasan deb, keyingilariga ham to'rtinchi Hasan, beshinchi Hasan deb navbati bilan Usta nom berib chiqdi.

Shundan so'ng u tomoq qirib:

— Sizlar kattasizlar, mustahkam turmasalaringiz ukalaringiz sinib ketadi-ya, — deb qo'ydi.



Usta bu gapni o'zicha aytgan bo'lsayam Hasanlar uning ma'nosiga tushunishib, eslarida olib qolishdi.

Eng kichik poya narvonning narigi uchida — tepada turar edi.

Usta unga Husan deb nom berdi.

Pastga tushgani sayin poyalar oz-ozdan, bilinar-bilinmas uzayib boraverar edi.

Husandan pastdagi poyani ikkinchi Husan, undan ham pastdavisini uchinchisi Husan, yanayam pastdagilarini to'rtinchi Husan, beshinchi Husan deb Usta navbati bilan nomlab chiqdi. Ularning orasida eng nimjoni, injiq-erkatoyi Husanning o'zi edi. Usta uni erkalab Kenjatoy deb ham atadi.

Aytmoqchi, Hasan va Husanlar o'rtasidagi yana ikkita poyani Usta o'rtancha Hasan-Husan deb atagan edi. O'rtancha Hasan-Husanlar bir-birlariga juda-juda o'xshashar edi. Ularni bir-biridan ba'zan Ustaning o'zi ham ajratolmay qolardi. Shunda Hasanlar tomondagisining Hasanligini, Husanlar tomondagisining Husan ekanligini bilib olardi.

O'sha kuni Usta Muqaddas Chashma ustidagi ayvonning tomiga narvonni qo'yib chiqdi va qiyshayib qolgan oq tunukani to'g'rilab, tuzatib qo'ydi. Narvonning tepadagi poyasi Husan ham tomida edi, u bu ishni xuddi o'zi bajar-gandek kerilib, dimog'i havolandi.

Shunaqa bo'ldi.

AYIQ ODAM

Ustaning bir qo'shnisi bor edi. U shunaqayam yalqov ediki, oyning aksini suvda ko'rsa bosh ko'tarib osmonga qarashga eringani uchun taniyolmay, bu qanaqa suv jonivori bo'ldiykin, deb o'ylanib qolardi.

Yana unga, biron-bir yumushni bajarish zarurligini yoz payti yuklashsa yoki aytishsa, e, deb qo'yar va qish-

ning o'rtasida boshini ko'tarib, a-a, deganicha haligi gapni esga olar edi.

Uni Ayiq odam deyishardi.

Negaki, uni ayiq desa odamga o'xshar, odam desa ayiqqa o'xshardi — juda g'alati, farqlab olish qiyin edi.

Erta ko'klamda shu qo'shnisining kulbasi tomidan chakka o'ta boshlab, nima qilarini bilmay qoldi. Chakka tomayotgan joylarga tog'orachalar, kosa-piyolalar qo'yib chiqdi. Axiyri ovqat ichishga ham idish-oyoq qolmadi. Ammo bunga Ayiq odam ko'p ham qayg'urmadi — negaki, bu paytga kelib uning uyida ovqat degan narsaning urvog'ini topib bo'lmadi.

«Hademay Osmon xolaning suvi tugab qolsa kerak, — deya o'ylay boshladi Ayiq odam. — Shunda yomg'ir tinadi. Picha sabr qilsam, hammasi o'tib ketadi».

Ammo Osmon xola suvni rosa g'amlagan edi. Sharillatib to'kavergani bilan adog'i ko'rinmadi.

Bu hol Ayiq odamga katta tashvish tug'dirdi.

U o'yga toldi.

O'y-xayolida serquyosh kunlar, pishiqlik bo'ldi. Xayolan shig'il mevalari daraxtlarning shoxlarini bukib yotgan bog'larda, polizlarda kezdi. Ayiq odam, ayniqsa, tarvuzni yaxshi ko'rardi. U xayolida kattakon tarvuzni endi bo'lib yeyman deb turganida qoq miyasiga xanjar kelib urilganday bo'ldi. Endi o'ldim, deb o'ylagan Ayiq odam bir seskanib o'ziga keldi.

Bilib turganingizdek, uning miyasiga xanjar kelib tushmagandi. Shirin xayollar og'ushida ekanligida bir sovuq tomchi uy tomini teshib o'tib Ayiq odamning boshiga tushgan, bu qiligi bilan:

— Ho-oy yalqov, ko'zingni ochsang-chi, xayoling qayerlarga og'ib ketdi, tomni tuzatishni o'ylamay-sanmi? — degandek bo'lgan edi.

Buni Ayiq odam anglamadi.

O'tiraverdi.

Shunda ikkinchi tomchi ham uning boshiga tushdi.



Bunisi endi gurzi bilan urgandek bo'ldi.

Ayiq odam juda sabr-toqatli, chidamli edi, shundayam parvo qilmayotgandek pinagini buzmadi.

Uning pinak buzmaganidan tom boshidagi tomchilar hayron qolishdi. Axir, bunday choqda bir sovuq tomchi har qanday odamning boshiga tushsa ham uni tahlikaga solib qo'yadi-da.

— Bu qoyamikan? — endi tomni teshib o'tishga chog'lanayotgan tomchi raqibining kimligini aniqlashtirib olmoqchi bo'lganday yaltirab qo'ydi.

— Yo'g'-e, odam bo'lsa kerak, — dedi boshqasi.

— Agar odam bo'lganida birinchi zarbdayoq aqlini yig'ib, harakatga tushardi, — deyishdi tajribali tomchilar.

— Unda ayiq bo'lsa kerak, — deb taxmin qildi yana bir tomchi.

— Ayiq bo'lganda boshiga ikki tomchi tushgandayoq o'ziga kelardi, — deyishdi tajribali tomchilar o'z tajribalaridan kelib chiqishib.

— Demak, bu qoya ekan! — xulosa chiqardi tomni teshib o'tishga chog'lanayotgan tomchi va ortidan yana bir yuzu o'n ikki ming tomchini ergashtirib Ayiq odamning boshini mo'ljalga olishdi.

Ketma-ket tushaversa tomchi ham toshdan og'ir bo'lib ketarkan. Jon shirinlik qilib Ayiq odam ari talayotgandek dodlaganicha o'z uyidan qochib chiqib tikka Ustaning darvozasi oldiga kelib qoldi.

Darvozani taqillatdi.

Usta chiqdi.

Qarasa, dag'-dag' titraganicha qo'shnisi turibdi.

— Keling, qo'shni, tinchlikmi? — so'radi Usta.

Ayiq odam bor gapni aytib berdi. Tomchilardan shikoyat qilib, kulbasining tomidan chakka o'tmagan joy qolmaganini shikoyat qildi.

— Ayb o'zingizda, — dedi Usta, u shunaqa, to'g'ri gapni kim bo'lsayam, betiga aytardi. — Issiq kunlarda to-

mingizni shuvoq qilganingizda bunaqa ahvolga tushib o'tirmasdingiz.

— Endi nima qilsam ekan? — so'radi Ayiq odam, u juda no'noqligidan nima qilishini ham bilmasdi.

Usta kift qisdi.

Shunda Ayiq odamning ko'zi darvozaxonadagi narvonga tushib qoldi-yu dardining davosi topilgandek suyunib:

— Narvoningizni berib tursangiz, — dedi.

— Narvonni nima qilasiz? — so'radi Usta.

— Tomga chiqib chakka o'tayotgan joylarni tuzatib tushaman, — dedi Ayiq odam.

Usta, hozir loygarchilikda behuda ovora bo'lasiz, demoqchi bo'ldi-yu, narvon so'rab turgani uchun bergisi kelmayapti deya o'ylab ko'ngliga kelmasin, degan xayolda indamadi. Mayli oling, dedi. Ayiq odam narvonni ko'tarib ketdi.

Tomga qo'ydi.

O'zi bir amallab tomga chiqib nimalardir qila boshladi.

Sharros yomg'ir yana quyib yubordi.

Ayiq odam shosha-pisha pastga tushdi.

Uning oyog'ida poyafzali bor-yo'qligi ham noma'lum edi. Lekin, oyog'iga botmon loy yopishgani chin edi. U, o'ylab o'tirmay, shosha-pisha oyog'ining loyini narvonning pastki poyasi Hasanga artdi-da, shosha-pisha uyga kirib ketdi.

Narvonning Usta Hasan deb atagan pastki poyasi loyga botib, Ayiq odamning bu qilig'idan xafa bo'lib qolaverdi.

Uning bu holatini sezgan ikkinchi Hasan:

— Qo'yaver, xafa bo'lishga arzimaydi, erta oftob chiqsa u qoldirib ketgan loy qurib tushib ketadi, — deb tasalli bergan bo'ldi.

— Xafa bo'lma, — dedi uchinchi Hasan ham.

— Arzimaydi, — dedi to'rtinchi Hasan.

— Shuyam gapmi, — dedi beshinchi Hasan.

O'rtancha Hasan-Husanlar ham ko'ngil ko'taradigan qandaydir so'zlar aytishdi.



Ammo, Husanlardan miq etgan sado chiqmadi.
Tom boshidagi Husan bo'lsa negadir kulib yubordi.
Uning kulgisi hammaga eshitildi.

Qitig'i kelganidan kulgan bo'lsa kerak, deb hech kim e'tibor bermadi.

Husan endi qah-qah otib kuldi.

— Nega kulasan? — jahl bilan so'radi serzarda to'rtinchi Hasan.

— Akamiz Hasanning ahvoliga-dâ, — dedi Husan. — Kim xohlasa unga oyog'ini artadi, xohlasa tepib o'tadi — ishqilib, ko'ngli nimaiki bemaza ishni xohlasa, Hasanga nisbatan qilaveradi, shunga kulgim qistadi.

— Bu ishlarni ko'rib sen yig'lashing kerak, nahotki kulsang, — dedi beshinchi Hasan. — Axir pastda ana shu birovlar tomonidan tepib tahqirlanayotgan, azob chekayotgan akamiz Hasan bo'lmasa biz ham hech kimmas-miz-ku, nahotki shuni tushunmasang?

— Tushunishni ham istamayman! — dedi kalon-dimog'lik bilan Husan. — Negaki, men hammadan yuqorida, ozoda, daxlsiz holda yashayman!..

U shunday deb turganida yomg'ir tinib, tun cho'kdi. Osmonda yulduzlar miltiradi. Oymomo ham ko'rindi. Ularning hammasi aka-ukalarning o'rtasidagi gap-so'zlarga hayron-hayron bo'lganicha quloq solishayotgan edi.

TUNGI SUHBAT



Oymomo tom boshiga kelib o'tirib olgandi. Narvonning tepadagi Usta Husan deb atalgan poyasi qizishib ketganidan Oymomoning kelib o'tirganini ham payqamay o'zini-o'zi maqtayverdi: uning aytishiga qaraganda, yuksaklikda va viqorda dunyoda unga teng keladigani yo'q ekan; pastki pog'onalarda turadiganlar unga qancha xizmat qilishsa oz ekan; u shunga arzirkan; u yuksakda turgani uchun tomlardagi lola-

qizg'aldoqlarning, chuchmomalarning hid-bo'yidan bahramand bo'la olar ekan, kerak bo'lsa, bulutlar bilan so'ylasharkan.

Oymomo uning gaplaridan astoydil hayratga tushdi.

Qani, bir sinab ko'ray-chi, deb uni savolga tutmoqchi bo'ldi.

— Ho-oy! — deya sekingina chaqirdi.

Ammo, uning ovozini hamma Hasan-Husanlar eshitishdi.

Husan tevarak-atrofga alangladi.

— Ko'p alanglayverma, seni chaqiryapman, — dedi Oymomo.

— Kimsan? — dedi Husan uni tanimay.

— Men har qancha yuksaklikda yashasam-da Erdan past turadigan Oyman, — dedi Oymomo.

— Xo'sh, menda qanday gaping bor?

— Otang kim?

Husan javob berolmadi.

— Onang kim?— so'radi Oymomo.

Husan javob berolmadi.

— Yaratuvching kim?— so'radi Oymomo.

Husan javob berolmadi.

— Sening otang Yer, — dedi Oymomo. — Endi ayt-chi, otang Yerdan ham balanddamisan?

— Albatta-da, — dedi Husan o'ylab o'tirmay. — Yerga tushish uchun beshta Husanu oltita Hasanni bosib o'tish kerak. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, u mendan ancha past-da joylashgan.

— Sening onang Qoratol, — dedi Oymomo. — Endi ayt-chi, onang Qoratoldan ham yuksakdamisan?

Husan o'ylanayotgandek turib qoldi.

Shunda atrofdagilar, endi u o'zining Qoratoldan qanchalik pastdaligini, ham ruhan, ham ma'n'an, ham jismolan undan nechog'li kichkina-mittiligini tasavvur etib, o'z gaplaridan uyalayotgan bo'lsa kerak, degan xayolga borishdi.



Lekin shu choqda Husan:

— Qoratal nima bo'bdi? — deb qoldi.

Atrofdagilar hangu mang bo'lishdi.

Husandan qanday gap chiqsayam, bunaqasini kuttishmagandi-da.

Axir, Qoratal unga ona edi!

Onagayam shunday deydilarmi?

E, attang...

— Qanchalik o'sib-yuksalmasin, Qoratal baribir bir kunmas-bir kun qulaydi yoki uni kesib ketishadi, — so'zida davom etdi Husan. — Hozir ham e'tibor berib qarasalaringiz ilgarigiga nisbatan uning ancha cho'kib qolganini ko'rasizlar. Shunday ekan, albatta, men Qoratoldan yuksakdaman-da! Axir, bu men-a! Me-en bu! O'n bir pog'onani dog'da qoldirib yuksalishning o'zi bo'ladimi? Bilib qo'yinglar, bu hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

— Sening yaratuvching Usta bo'ladi, — dedi Oymomo. — Hali dunyoda o'z yaratuvchisidan ham ulug' hech kimni ko'rmadim. Endi ayt-chi, Ustadan ham o'zingni ulug' hisoblaysanmi?

— Albatta-da! — dedi Husan o'ylab-netib o'tirmay.

Uning bu xitobidan atrofdagilar chuvillab yuborishdi. Chunki Ustaga nisbatan bunaqa shakkoklik yomon oqibat-larga olib kelishi mumkin edi. Nimaligi noma'lum-u, ammo, nimadir — ko'ngilsiz biror hodisa ro'y berishi muqarrarligi ko'rinib turardi Husanning javobidan.

— Sen dunyodagi eng yomon kasalga yo'liqibsan, — dedi Oymomo Husanga. — Tepaga chiqvolib manmansirashing menga juda ko'p ilgarigi voqealarni eslatdi. O'zingni to'g'rilamasang, oxiri baxayr bo'lmaydi.

Shu gaplarni aytib, Oymomo osmonga havolab ketdi.

FALOKAT

Bostirib kelayotgan qop-qora, vahimali quyuq bulutlar oralab Oymomo osmonga chiqib ketib o'zini yashirdi. Osmon qozonida bodragan yulduzlar ham ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Chaqmoq chaqdi.

Momaqaldiroq gumburladi.

Chaqmoq chaqqanda tom boshida qo'qqayib turgan narvon poyasi Husanni yaqqol yorishtirib, kimdir birov uning kimligini yaxshilab ko'rib olmoqchiday bo'lardi.

Uyam manaman deb turardi.

Osmon kuchlari bilan yolg'iz o'zi baqariti turishga qodirday ko'rinardi. Aslida, u hech narsa emas, yarim qulochlik oddiy yog'och edi. Usta mahoratining sharofati bilan tom boshiga chiqib olish unga nasib etgan edi. Osmon kuchlari uni emas, Ustani yaxshi bilishardi.

Yana chaqmoq chaqdi.

Yana momaqaldiroq gumburladi.

Ammo bu galgisi shunaqayam kuchli va vahimali ediki, hammayoqni zirillatib, titratib yubordi.

Avval yomg'ir, keyin jala quya boshladi. Do'l urdi. Ora-chora chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburlab turardi.

Keyin do'l aralash yomg'ir chelaklab quya boshladi va shundan so'ng falokat ro'y berdi...

ERTALAB

Ertalab quyosh chiqdi.

Hammayoq halqob-halqob, ko'lmak-ko'lmak suv edi. Quyosh chiqmasdanoq borliq uyg'ongan, uning daragini eshitib qushlar chuldirashini boshlab yuborishgan edi.

Tevarak-atrofdan hamma narsa tiniqqan, dovu-daraxtlar cho'milib olganidan yashnab-yaltirab turishar, mo'ri-



lardan ko'kka oppoq tutun o'rlamoqda edi. Ammo nimadir yetishmayotgandek, nimadir kecha boru. bugun yo'qdek tuyulmoqda edi. Ko'p o'tmay buning nimaligi ayon bo'ldi. Bu Ayiq odamning kulbasi edi. Tungi yomg'ir-do'llarga dosh berolmay qulab tushgan edi. Devorlargina qo'qqayib turishardi. Eshikni sindirib, bir uyum loy-tuproq va xas-xashaklar orasidan Ayiq odamni sudrab chiqishdi. Uning o'lik-tirikligi noma'lum edi. Zambilga solib allaqayoqqa olib ketishdi. Narvon bo'lsa suv havzasiga sakra-yotgan g'avvosdek kulba vayronasiga sho'ng'ib turar, tepada uning ozgina qismi, ikki-uchta poyasigina ko'rinib turar, bu poyalar Hasanlar bo'lib, ulargina shikastsiz qolgandi.

Usta keldi.

Bosh chayqadi.

Uch-to'rt kishilashib narvonni tortib olmoqchi bo'lishdi. Narvon chiqmadi. Vayronalar orasida ham qandaydir bahaybat bir kuch uni o'zi tomon tortib turganday edi.

Bu kuch Ajal bo'lgan ekan.

Qo'yvormay turarkan.

Tortayotganlarning jahllari chiqdi. Ular ko'plashishdi. Yanayam ko'plashishdi. Butun qishloq ahli Ustaga ko'maklashib narvonni Ajal komidan tortib olmoqchi bo'lishdi.

Axiyri, norvon sug'irilib ketdi.

Ammo uning yarmi yo'q edi. Husanlar qismi vayronalar orasida uzilib tushib qolgan edi. Usta endi olti poyali bo'lib qolgan narvonni ko'targancha uyiga jo'nadi.

USTAGA SHAKKOKLIK

A yiq odamning uyi vayronasi ostida narvonning sinib uzilib tushgan qismini kavlab olishga Ustaning hafsalasi kelmadi. Kavlab olsa ham bo'lardi-yu narvon bahonasida boshqa narsalarni ham olib ketib qolgansan, degan gap-so'zlar chiqishidan hayiqdi.

Garchi Ustaning o'zi juda dovyurak, qo'rqmas bo'lsa-da, tuhmat bor joyga yaqin yo'lamaslikka urinardi.

U donishmand ham edi.

Yaxshini yomon yengishi mumkinligini bilardi.

Ezgulikni yovuzlik yo'qotishi mumkinligini bilardi.

Nur ustiga ba'zan zulmat qoplashini bilardi.

Shularga o'xshash barcha hodisalarning vaqtinchaligini ham yaxshi bilardi:

Lekin tuhmatni u barchasidan xavfliroq hisoblardi. Negaki tuhmat pinhoniyydir, yashirindir. Shu sababli, har xil tuhmatlar bo'lishi mumkinligini o'ylab, Usta vayrona ostida qolgan narvonning yarmidan voz kechib qo'ya qoldi. Aslida, ulardan ham ayb o'tgan edi. Husanning Oymomga javoblari, yaratganini tan olmagani, Ustaga shakkokligi bunga sabab bo'lgandi.

BEKORCHILIK

Usta narvonning qolgan qismini ko'tarib kelib, hovlisining bir chetiga tashlab qo'ydi. Ko'nglidan, shu narvonni yasamasam ham bo'lar ekan, degan fikr kechdi.

Usta o'z ishi bilan ketdi.

Kalta bo'lib qolgan narvonning hech kimga keragi bo'lmay qolgandi.

Tomga qo'yib chiqish uchun narvon kaltalik qilardi.

Tomga qo'yilmasa narvon boshqa nima ishga ham yarardi deysiz?

Axir har bir narsaning o'z xizmat vazifasi bor: chelak suv olish uchun, tandir non yopish uchun, qozon ovqat pishirish uchun, charx ip yigirish uchun yaratilganidek, narvon ham, o'z navbatida, tomga chiqish uchun zarur.

— Qiyin, qiyin, dunyoda kalta narvonlarga qiyin ekan, — dedi uchinchi Hasan nimadandir xulosa chiqargandek bo'lib.

— Shunisigayam shukr qilish kerak, — xo'rsinib qo'ydi o'rtancha Hasan-Husanlarning Hasani.

Falokat yuz bergan chog'ida fojiaga yo'liqishgan ukalariga hammadan ham yaqin turgani shu Hasan edi. Shu bois, u hamon o'ziga kelolmayotgandi.

— Bekorchi temirni zang bosadi, — dedi ikkinchi Hasan gapni uzoqdan olib.

— Ish bo'lmay, shunaqa turaversak bizniyam qurt bosib ketmasa deb qo'rqaman, — dedi to'rtinchi Hasan.

Ularning gap-so'zlaridan odamlarga keragi bo'lmay, bir chekkada chang bosib yotaverish judayam jonlariga tekkanini fahmlab olish qiyin emasdi. Ha, haqiqatan ham, hayotda doimiy harakatdagi narsalargina yashashga qobil ekan. Qanchalik sir bo'lmasin, aytib qo'yishga majburman. Fikr ham shunday ekan. Qanchalik ishga solinsa fikr qatlamlari shunchalik ochilib boraverar ekan. Mo'jizalarga to'la dunyodan hayratga tushaverar ekan. Hayratga tushgani sayin yana yuksalaverar ekan — shunaqa ekan.

Narvonning eng katta poyasi to'ng'ich Hasan miq etmadi.

Bo'lib o'tgan voqea-hodisalar unda juda og'ir taassurot qoldirgandi.

U shu sababli o'z o'y-xayollari bilan band edi.

TO'NG'ICH HASANNING ORZULARI

Dunyoda juda ham uzun, yuksak qoyalarni ham zabt etadigan narvonlar ham bo'larkan, — deb qoldi bir mahal to'ng'ich Hasan.

— Foydasi yo'q, — dedi uchinchi Hasan.

To'ng'ich Hasan unga ajablanib qaradi.

— Foydasi yo'q dedimmi, foydasi yo'q-da, — dedi yana uchinchi Hasan nimalargadir ishora qilganicha.

— Nima demoqchi bo'layotganingni tushunolmayapman, — dedi to'ng'ich Hasan.

— Agar narvon qanchalik uzun, poyalari milyonta bo'lsayam foydasi yo'q, — tushuntirdi uchinchi Hasan. —

O'sha sen aytgan yuksak qoyalarga chiqish baxti ular-ning hammasiga nasib etmaydi.

— Xo'sh, nima bo'пти?

— Maqtanchoq Husan yodingdan chiqdimi? Yuksak qoyaga emas, tomga chiqqanda ham bosar-tusarini bilmay qolgandi. Aytmoqchimanki, milyon-milyon poyalarni pastda qoldirib, yuksakka bitta-ikkitagina poyani chiqarib qo'yishdan naf bormi o'zi?

— Biz vosita xolos, — dedi to'ng'ich Husan. — Maqsadimiz odamlarga xizmat qilish. Nafaqat biz, dunyodagi barcha narsalarga odamlar uchun xizmat qilish buyurilgan.

— Bundan bizga nima naf?

— Qismatimizda shunday bitilgan. Bu bizning vazifamiz.

— Anavi Ayiq odamgayam xizmat qilgandik.

— U jazosini tortib ketdi.

— Baribiram-da.

— Baribir emas, biz yuksaklikka qarichma-qarich, poyama-poya intilaverishimiz kerak. Aslida, gap yuksaklikda ham emas.

— Gap nimada bo'lmasa?

— Yuksaklikni zabt etish yo'lida. Shu yo'ldagi qiyinchiliklarda. Bu yo'llarni hamma bosib o'tishi kerak.

— Tushunarli.

To'ng'ich Hasan ko'nglidagi barcha gaplarni, o'ylagan fikrlarini to'liq yetkazish uchun nimadir yetishmayotganini his etdi.

U gapni boshqa yoqqa burdi.

— Bir mahallar, hali Husanlardan ajramagan vaqtlarimizda quduqqa tushgan edik, — dedi.

O'rtancha Hasan-Husanning Hasani bu voqeani eslolmadi.

— Ha, esladik, — deyishdi boshqa poyalar. — Quduqning tubidan guvillagan ovoz chiqib turgandi.

— Quduqning o'sha guvillagan ovoz chiqayotgan eng tubida men turgan edim.

- Husan odatdagidek tepada edi.
- Ammo men o'shanda o'zimni eng yuksakda turganday his etgan edim, — dedi to'ng'ich Hasan shirin xotiralarga berilayotgandek. — O'shanda bildimki, yuksalish uchun faqat tepalikka chiqish shart emas ekan.
- Ajoyib fikr, — dedi uchinchi Hasan.
- Menga u yerda ajoyib olamni ko'rish nasib etdi, — so'zida davom etdi Hasan, — Yerning qa'riga qanchalik chuqur kirib boraverganing sayin shunchalik uzoq o'tmish bilan to'qnash kelayotgandek bo'laverar ekan-san. Rostini aytsam, men u yerda guvoh bo'lgan ajoyib olam, o'tmishdan kelayotgandek tuyulgan guvillagan tovushning sehri tufayli tepaga ko'tarilishni aslo-aslo istamasdim.
- Hozir ham istamaysanmi?
- Yo'q.
- Nimani istaysan o'zi?
- Yana bir bora quduq tubiga tushishni.

SAVDOGAR

Ko'chaning adog'ida bir savdogar yashar edi. U Ustaniyam, uning ishiniyam ko'p ham tan olmasdi.

Shu savdogar bir kuni kutilmaganda Ustani yo'qlab kelib qoldi. Ular salom-alik qilib ko'rishishdi. Usta uni uyga kirishga taklif qildi.

Savdogar unamadi.

— Bir ish yuzasidan maslahatlashgani keluvdim, — dedi.

— Qani eshitaylik-chi, qo'limizdan kelsa, aqlimiz yetsa maslahatni sizdan ayarmidik, — dedi Usta.

Savdogar bu gapdan xursand bo'ldi.

Keyin darhol qovog'i osildi.

— Odamlar mendan ko'ra eshagimni aqlli hisoblashayapti, — dedi savdogar dabdurustdan.

Usta o'ylanib qoldi.

Bo'lsa bordir-da, ko'pchilik bir narsani bilib aytadida, xayolidan kechdi Ustaning.

So'ngra tilida:

— Nahotki?! — deganicha o'zini ajablanganday ko'rsatdi. — Buning sababini bilsak bo'ladimi?

— Bilasiz, men soyning naryog'idagi qishloqdan tuz olib kelib sotaman, — dedi savdogar Ustaning bilmaydigan narsasini bilasiz, deganicha. — Eshagimning ustiga tuz to'la qopni ortib, u nobakorni Muqaddas Chashma arig'idan kechdirib o'tar edim. Bir gal eshagim munkib ketib qopga suv tegib, ancha tuz erib ketdi. Tuz erigach, eshak o'z yukining yengillashganini payqab qoldi va suvga sho'ng'ib barcha tuzimni eritib oqizib yubordi. Ikkinchi, uchinchi... xullas, har gal shunaqa qilib, meni xonavayron qilyapti. Nobakorga kaltak ham kor qilmayapti.

Bu voqeani eshitib Usta kuldi.

Mening ustimdan kulmoqda, degan xayolda uning kulganidan savdogar xafa bo'ldi.

— Har qanday jonzod ustiga og'ir yuk tushganda undan tezroq qutulgisi keladi, — dedi Usta savdogarga. — Eshakning aqli bo'lganida Sizning urganingiz, koyishingiz kor qilib suvga sho'ng'imagan, tuzni oqizmagan bo'lardi. Lekin endi uni so'yib yuborsangiz ham bu qilig'ini tashlamaydi.

— Nima qilsam ekan?— Ustaga jovdirab tikildi savdogar. — Eshakni sotib o'rniga boshqasini olsammikan?

— Boshqa eshak olsangiz ham bu qiliqni takrorlayveradi, — dedi Usta. — Siz yaxshisi shu eshagingizni tarbiyalang.

— Tarbiyalang?! — hayratga tushdi savdogar. — Eshakni-ya?!

— Albatta.

— Qanday qilib.

— Siz tuz o'rniga qopga yung solib qo'ying. Yung erib oqib ketmaydi-yu suvni o'ziga shimib besh-o'n baravar



og'irlashadi. Eshagingiz kunini ko'radi shunda, ustida yuk bilan suvga sho'ng'imag'digan bo'ladi¹.

Ustadan bu gapni eshitib savdogarning ko'zi chaq nab ketdi.

— Albatta, shu ishni qilaman! — dedi ketayotib.

U negadir hovlining bir chetida yotgan cho'ltoq narvonga ham ko'z qirini tashlab qo'ydi. Xayolidan nima gap o'tganini hech kim bilmadi.

USTA TOPDI

Muqaddas Chashma ustidagi ayvon tomini tuzatib bo'lganidan keyin Usta narvonga e'tibor bermay qo'ygandi. Uning yarmi sinib, Ayiq odamning kulbasi vayronasi ostida qolganidan keyin tamomila hafsalasi pir bo'ldi. U hamisha mukammalroq, odamlarga ko'proq nafi tegadigan narsa yasash xayolida edi...

Savdogar kelib ketgach, uning eshagingining xurmacha qilig'i haqida o'ylab, uning Muqaddas Chashma arig'idan o'tayotgan holatini ko'z o'ngiga keltirarkan, Usta to'satdan chapak chalganicha:

— Topdi-m! — deb qiyqirib yubordi.

Usta Muqaddas Chashma arig'i tomon yo'l oldi.

MUQADDAS CHASHMA ARIG'I

Muqaddas Chashma arig'ida Muqaddas Chashmaning suvi oqardi.

Unga yana boshqa buloqlarning, yomg'ir-qorlarning ham suvlari qo'shildirdi.

Muqaddas Chashma arig'ining narigi sohili tik balandlik bo'lgani uchun u yoqqa suv chiqmas edi. Suv chiqmagan gach, ko'k ko'karmas, daraxt o'smas, ekin bitmas edi. Tuz ko'payib, yerni yemirib borar, odamlar tuz sotish

¹ Usta bu yerda qadim dunyo faylasuflaridan biri Falesga qiyos qilinaypti. Bu voqea tafsiloti aslida milletlik Falesga tegishli.

bilan shug'ullanishardi. Haligi Ustaning huzuriga eshagidan nolib kelgan savdogar ham o'sha yerlardan tuz keltirardi.

Charxpalak yasab, narigi sohilning qaqroq yerlariga ham Muqaddas Chashmaning suvidan chiqarishim kerak, o'yladi Usta. U chang-to'zonga burkanib yotadigan narigi sohil yerlarining ham ko'm-ko'k yashnab turganini ko'z o'ngiga keltirib quvonib ketdi.

Ishga kirishdi.

Usta Muqaddas Chashma arig'ining charxpalak o'rnatishga qulay joyini izlay boshladi. Unga narigi sohildagi yoshu qari birdek ergashib, ko'maklashishga urinishdi.

Axiyri, shunday joy topildi.

Odamlar ustaga yordamlashish uchun shay turishardi. Charxpalakning o'zini, uning novini va boshqa maydachuydalarini yasash, o'rnatish uchun ancha-muncha mablag' ham zarur bo'lib qoldi. Ustaning o'zida hech vaqo yo'q edi. Har ikkala sohildagi qishloqlarning odamlari ham amal-taqal kun ko'rib yurishar edi.

Ustaning boshi qotdi.

NARVONGA ISH CHIQDI

Ustanikiga savdogar kelib, eshakni qanday ahmoq qilganini kula-kula gapirib berdi.

— Uch marta yung olib o'tib eshakni qiynab qo'yibsiz-da, — dedi Usta. — Axir bir martasi ham kifoya edi-ku.

— Boshqa noma'qulchilik qilmasin dedim-da.

Usta savdogarga hayron bo'lib qaradi. O'ziga tegishli jonivorga bu qadar rahmsizlik qilish mumkinligini u aqliga sig'dira olmasdi.

— Eshakning esini kirgizaman deb ancha-muncha zarar ko'rdim, — dedi savdogar. — Anchagina yung shalabbo bo'lib yotibdi. Uni yoyib quritib olishim kerak. Shunga narvoningizni berib tursangiz.



Usta rozi bo'ldi.

Narvonni savdogarga berib yubordi.

Savdogar narvonni ko'ndalangiga yotqizib eshak suvga sho'ng'iganda shiltai shalabbo bo'lgan yungni uning ustiga yoyib chiqdi. Bechora eshak, shunday og'ir yukni suvdan qanday sudrab chiqdi ekan-a?

OSMON UZOQ, YER QATTIQ

Ustaning xayoli o'zida bo'lmay qoldi: fikri-zikri chax-palakni ishga tushirib, narigi sohilda yashayotgan-larning mushkulini oson qilishda edi. Ammo holva degan bilan og'iz chuchimas ekan. Unga mablag' kerak edi. Nima qilib bo'lsayam ishni boshlashim kerak, deb o'ylardi u, keyin xudo biron yo'lini ko'rsatar.

Ammo ish boshlash uchun ham ancha-muncha narsa kerak bo'lardi.

Usta tanish-bilishlarini, qavmu qarindoshlarini xayolan bir-bir tasavvur qilib chiqdi: biron najot topish nari tursin, qaytganga ko'ngli xiralashib qoldi.

Usta tasavvur etgan yaqinlari mehnatdan qochmaydigan, xudodan qo'rqadigan halol-pok kishilar edi. Shunday bo'lsa-da, ular amal-taqal kun ko'rishar, qozonlarini suvga tashlab qo'yishgan, bir burda qora non topishsa shunga xursand edilar. Ularning barchasining yuz-ko'zlarida og'ir mung, iztirob muhrlanib qolganday ko'rinardi. Shu bois Usta ulardan biron narsa so'ray olmasdi.

Tog'ni ursa talqon qilgudek oyog'idan o't chaqnab turgan yosh-yalanglar har ikki sohildagi qishloqlarni allaqachonlar tark etib ketishgan, ular allaqaylarda o'z baxtlarini izlab yurishardi. Ammo Ustaning nazdida tug'ilgan joydan o'zga manzillarda baxt topilishi mumkin emasdek ko'rinardi. Axir nafaqat odam bolasi, qushlar ham, hayvonlar ham, hattoki, hasharotlar ham qayerda

bo'lishmasin, oxir-oqibat tug'ilgan joylariga qaytishadi va shundagina baxtni topishadi. Ammo bu baxtning ularga keragi bo'lmaydi.

Endi nima qilsam ekan?

Ustaning xayolida faqat shu o'y edi.

MISH-MISH

Su kunlarda Usta yashayotgan qishloqda g'alati mish-mish tarqalib qoldi. Ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmaydi odam. Ishonay desa, aql bovar qilmaydi, ishonmay desa, o'z ko'zim bilan ko'rdim, deya ikki oyoqni bir etikka tiqib olgan duppa-durust odamlarni ahmoqqa chiqarib qo'yish mumkin.

Xullasi kalom, gapning po'skallasi, eshagining hiylasidan xunob bo'lib odamlarning og'ziga tushgan va maslahat so'rab Ustaning oldiga kelgan o'sha tuz savdogarining uyida bir sichqon bor emish. Unchalik katta ham, unchalik kichkina ham emas, o'rtacha gavdali bir sichqon emish. Kulrang tusda emish. Ko'rinishidan boshqa sichqonlardan uning hech-hech farqi yo'q emish: qulog'iyam, ko'ziyam, dumiyam, qorniyam, oyoqlariyam...ishqilib, sichqonga xos nimaiki bor, boshqa sichqonlarda qanday bo'lsa, unda ham shunday emish. Ammo jumlai jahondagi barcha sichqonlardan uning birgina farqi bor emish. Farq bo'lgandayam ko'z ko'rib, quloq eshitmagan farq emish, o'zi mushtumdakkina bo'lgani bilan savdogarnikidagi sichqonni yuragi otning kallasidek emish, sheryurak emish u.

O'zi mushtumdekkin bo'lsa-yu, yuragi otning kallasidek bo'lsa?!

Bu qanaqasi?

— Bo'lmagan gap, — deyishdi bu gapni eshitib aqlariga sig'dira olmaganlar qo'l siltab. — Hamma sichqondayam yurak bir xil bo'ladi. Chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi. Sherning yuragi sheryachchada bo'ladi.



Ammo shunaqa gaplarni gapirganlar ham savdo-gar-nikiga borib sichqonni o'z ko'zlari bilan ko'rib kelishgach til tishlagancha indamay qo'ya qolishdi. Sichqonning xatti-harakatlari, qiliqlari chindanam g'alati ekan: qadimgi ba-hodirlar kabi u hech ikkilanmay har qanday odamning oldiga tap tortmay kelaverarkan. Kelgani-ku, mayli, ikki oyoqda tik turib, qo'lchasini beliga tiragancha qorinchasini oldinga chiqarib, o'zing kimsan, deganday ko'zga tik boqib turishi ancha-muncha dovyurakman deb yurganlarning ham esxonasini chiqarib yuborayozarkan. Shunaqa ekan. Kaltakdan qo'rqmaskan. Mushukka tikka chang solarkan, itni masxara qilarkan. Savdogar hayron emish. Uning das-turxon ustiga ham bostirib kelaverishi, xohlagan taomiga teginishi jahlini chiqarsa-da, o'ldirib yuborishga ko'zi qiy-masmish. Uyida shunaqa g'alati jonivor bo'lgani, odam-larning e'tiborini tortayotgani, xalqning og'ziga tushgani unga ma'qul emish. Ko'rishga qiziqib kelganlarning bar-chasiga sichqonni chopqir otni yoki olg'ir burgutni maq-tanib ko'rsatayotgandek bajonidil ko'rsatarmish. Bu ham yetmagandek, kelganlarning oldiga dasturxon yozib, das-turxon ustida sichqonning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan boshqa qiliqlarini ham gapirib berarmish, hayron qolgani-ni aytarmish. Odamlar sichqonni muhokama qilishdan charchamasdi: balki bu sichqon dunyodagi barcha sichqon-larning podshosi bo'lib, tasodifan adashib savdogarning uyiga kelib qolgandir, deyishardi; balki bu sichqon sichqon emas, fildir... anavunaqa... tanosux¹ bois sichqonga aylanib qolgandir, deyishardi; balki bu sichqon umuman hayvon zotidan emas, shaytoni lainning o'zginadir, deyishardi. Har kim har xil tasmollarni aytishardi. Bu tasmollarning birortasiyam jo'yali emasdi.

Mish-mishlar Ustaning qulog'iga ham yetdi.

O'z ishi, charxpalak yasab Muqaddas Chashma arig'ining narigi sohilidagi qishloqlarga suv chiqarib be-rish xayoli bilan band bo'lgan Usta avvaliga bu mish-

¹ *Tanosux* — evrilishi, ruhning ko'chishi.

mishlarga umuman e'tibor qaratmadi. Ertasi kuni erta tongda kecha qulog'iga chalingan mish-mishlar yodiga tushib qolib, kutilmaganda unga ajoyib bir fikr kelib qoldi.

SAVDOGARNIKIDA

Kutilmaganda Ustaning kallasiga ajoyib bir fikr kelib qolishi bilan u odatdagidek o'zini tutolmay:

— Topdi-im! — deganicha qichqirib yubordi.

Keyin ovozimni hech kim eshitmadimikan, degan xavotirda tevarak-atrofga olazarak nazar tashlab oldi. U xavotirlanmasa ham bo'laverardi, negaki, kechagi og'ir mehnatdan toliqqan odamlar boshlarini ko'tarolmay tong uyqusini olishardi.

Usta savdogarnikiga qarab yo'l oldi.

Ustaning bu qadar erta tashrifi savdogarni ajablantirdi.

Ular salom-alik qilishdi.

— Narvon kerak bo'lib qoldimi? — so'radi savdogar Ustani narvonni so'rab kelgan gumon qilib.

Usta bosh irg'adi.

Savdogar narvonni ko'tarib chiqdi.

— Rahmat, — deya minnatdorchilik bildirdi u. — Ho'l bo'lgan yunglarni o'z vaqtida yoyib quritib oldim. Endi yana tuz olib kelyapman. Eshagimning esi kirib yaramas odatini yig'ishtirgani yaxshi bo'ldi-da. Endi u tuzniyam xurjunga suv tegib ketmasin deb juda ehtiyotkorlik bilan olib o'tyapti. Jo'yali maslahat bermaganingizda ancha boshim qotib yuruvdi, endi sizdan qanchalik minnatdor bo'lsam arziydi.

Usta indamadi.

Narvonni yelkasiga ortmoqlab taysallab turaverdi.

— Uyga kirib bir piyola choy ichib ketmaysizmi? — mos ohangida so'rab, Usta kutgan mavzuda savdogarning gap ochib qoldi. — Sichqonimiz ham inidan chiqib uning g'alati qiliqlarini bir ko'rib ketardingiz.

Kitob
qimmat turadi.
Narvon 1200000
mish

Usta indamay yelkasidagi narvonni yana pastga tushirib qo'ydi.

Savdogarning ortidan ergashib, uning uyiga kirdi.

Ikkovlon mehmonxona o'rtasiga to'shalgan bo'yra ustidagi ko'rpachalarga o'tirishdi. Dasturxon, non-choy keltirildi. Ular choy icha boshlashdi. Savdogarning nigohi mehmonxonaning taxmon tomonidagi burchagida edi, nimanidir kutayotgandek ko'rinardi.

Axiyri, u yengil nafas olib:

— Ana kelyapti, — dedi ohista tovushda.

Usta xiyol o'girilib qaradi: ne ko'z bilan ko'rsinki, kulrang bir sichqon tamtamlanib, shunaqayam tamanno bilan ular tomonga bitta-bittalab odim otib kelmoqda ediki, peshonalarini shoyi durra bilan tang'ib, barmoqlarini qar-sillatganicha ko'krak kerib yuradigan hannoti xotinlar ham uning oldida ip esha olishmasdi. Xotinlar-ku mayli, o'z yo'liga, harchand urinsa-da va katta ketsa-da ahyon-ahyon zoti zaifaligini oshkor va namoyon etmasdan bo'lak ilojlari yo'q, ammo bu sichqonning qarshisida nosqovoqning popugini silab qiyiqni yelkaga tashlagan, mo'ylovni tepaga burab uchraganga jirtak otadigan qadimgi azamatlar ham o'y surib, kalovlanib qolishi turgan gap edi. Shu bois, Usta uzunquloq ko'cha gaplarining, mish-mishlarning bari behuda emasligiga nainki ishonch hosil qildi, balki eshitganlari ko'rganlarining oldida holva ekanligini ham to'la his etdi.

Sichqon Ustaning qarshisiga kelib ikki oyog'ida tik turdi. Qo'lini beliga qo'yib, bu kim bo'lsaykim, degandek Ustaning ko'zlariga tik boqdi. Usta uning nigohida cheksiz kuch-qudratni his etib, beixtiyor seskanib ketdi. Nazarida, qarshisidagi sichqon uni mahv etadigandek tuyuldi.

Savdogar, ko'rmysizmi, degandek Ustaga xijolatomuzlik bilan nazar tashlab qo'ydi-da, sichqonni pashshak bilan urib haydamoqchi bo'ldi.

Usta buni payqadi, savdogarning qo'lidan ushla

— Tegmang, — dedi ohista ovoz bilan.

Ustaning ovozi savdogarga ta'sir qildi, xayoliga qandaydir favqulodda fikr kelib qoldi, shekilli:

— Nahotki, bu sichqonda biron xosiyat bor deb o'ylasangiz? — deganicha Ustaga boqdi.

— Bu sichqonda hech qanday xosiyat yo'q, — dedi Usta uqdirayotgandek. — Fazilat ham yo'q unda. U oddiy sichqon. Unda hech qanaqa boshqacha yurak ham yo'q. Jasorat ham yo'q unda.

— Bo'lmasa nega bunaqa... — chaynaldi savdogar.

— Bu yerda bir sir bor, — jilmaydi Usta.

SIR

Ustaning, bu yerda bir sir bor, deganini eshitib savdogar anqayib qoldi: sal-pal o'ziga kelgach, avval hamon qo'lchasini belchasiga tiragancha qorinchasini oldinga chiqarib ko'krakchasini kerib turgan sichqonga ko'z qirini tashlab qo'yib, so'ngra e'tiborini Ustaning horg'in nigohiga qaratdi.

— Ajabo! — hayratini yashirolmaganidan bo'lsa kerak, savdogar baralla xitob qilib yubordi. — Ochiqroq gapirmasangiz, o'lay agar, hech vaqoni tushunmayapman, boshim g'ovlab ketdi.

Savdogar savdo-sotiqda, ayniqsa, beli bukilmagan pullarni sanab olishda chaqqongina bo'lsa-da, ba'zi nozik masalalarda kallasi shishib, nima qilarini bilmay qolardi, bu hol eshak va tuz muammosida yaqqol ko'rinib qolgandi. Usta savdogarning ichu tashini birdek ko'rib turgandek unga tikilib qoldi-da:

— Bu sirning egasi mana shu sichqondir, — dedi.

Sichqon ko'z qisib, bosh qimirlatib qo'ygandek bo'ldi.

Savdogar sichqondan allaqanday sir axtarayotgandek unga tikilib qoldi-yu, Ustaning ko'rganini u ko'rolmadi.

— U qanaqa sir ekan? — dedi Usta tomonga o'girilib so'rashga majbur bo'ldi.



— Endi bu sirdan sizni men va sichqon uchalamiz ogohimiz, — dedi Ustalar nimalargadir ishora qilganicha. — Agar ikkalamiz birlashib sichqondan ulushini tortib olsak bu sir ikkalamizniki bo'lib qoladi. Demak, sir ostida yashiringan narsani ham ikkalamiz teppa-teng bo'lashib olishga haqli hisoblanamiz.

Usta savdogarga sinchkov boqdi.

Savdogar o'ylanib qoldi: Usta aytayotgan sir uni juda-juda qiziqtirib qo'ygan edi-yu, faqat bir tomoni ko'nglini xira qilib turardi. Ustaning sherikchilik haqidagi taklifi uning boshini qotirmoqda edi. Hammaga yaxshi ayonki, savdogar ahli sherikchilik haqidagi gapni hech yoqtirmaydi. Nimaiki bo'lsa o'zim qilsam va o'zimga bo'lsa deydi. Ammo u hozir qanchalik bosh qotirmasin, Ustaning shartiga ko'nmay iloji yo'q edi: hali aytganimizdek, savdogar pul sanashda qanchalik epchil bo'lmasin, nozik fahm-farosat bobida Ustaga teng kelishga uning hech qachon qurbi yetmasdi.

Shunaqa edi.

Savdogar bosh egib:

— Xo'p, siz aytganchalik bo'la qolsin, — deya, Ustaning shartiga ko'nganini bildirdi.

Usta dasturxonga fотиha o'qidi.

Omin qilishdi.

Keyin Usta va savdogar o'rinlaridan turib, tashqariga yo'nalishdi.

SIR OCHILDI

Ular tashqariga yo'nalisharkan, savdogar betoqatlik bilan:

— Qayoqqa? Sir nima bo'ladi? — deb so'radi.

— Siz borib ketmonni olib kelavering, — bamayli-xotirlik bilan savdogarga buyurdi Usta. — Men pahlavon sichqonni deraza ortidan picha tomosha qilmoqchiman.

Savdogar hayron qolganicha ketmon olib kelishga ketdi.

Usta mehmonxona derazasidan ichkariga boqdi: sichqon

bu mulku molikonaning egasi yolg'iz o'zidek bemalol aylanib yurardi, qornini osmonga qilgancha qadimgi boy-lardek chalqancha yotardi, dik-dik sakrardi, ishqilib, ko'ngliga neki xush kelsa, shuni qilardi. Axiyri u charchab-toliqdi shekilli, bitta-bitta qadam tashlaganicha taxmon tomon yura boshladi, taxmonga yaqinlashib uyoq-buyoqqa sergak nazar tashlab oldi-da, taxmon ostidagi iniga viqor bilan kirib ketdi.

Usta sichqonning inini ko'rib oldi.

Bu orada ketmon ko'tarib savdogar ham yetib keldi.

Ular yana ichkarilashdi.

Usta sichqonning inini savdogarga ko'rsatib:

— Qani, mana bu koshonaning ichida nima borligini bir ko'rib qo'yaylik-chi, — dedi.

Savdogar ketmon urib sichqonning inini buza boshladi. Buni payqagan sichqon inidan otilib chiqib ketmon urayotgan savdogarga hamla qilmoqchi bo'ldi.

— Siz unga e'tibor bermang, — savdogarga aql o'rgatdi Usta. — Hademay shaxdi pasayib qoladi.

Hash-pash deguncha bo'lmay sichqonning ini buzib tashlandi.

Qarashsa, inning ostida ancha-muncha oltin tangalar sochilib yotgan ekan.

— Bu sichqonning kuch-quvvatining, sheryurakligining, mushukka ham tashlana olishining boisi — ya'ni siri edi, — dedi Usta. — Mana, uning sirini ikkalamiz topib, tortib oldik, endi bu oltinlarni teppa-teng bo'lashib olishimiz qoldi, xolos.

Va'da bergani uchun savdogarning dami ichida bo'ldi.

U kallasini ishlatib bu sirni yolg'iz o'zi topmaganiga afsuslanmoqda edi.

Lekin o'zi shunaqa bo'larkan: ba'zilar pul sanash bilan, ba'zilar kallani ishlatib kun ko'rishar ekan — shunaqa bo'lib kelgan ekan; unisini bunisiga, bunisini unisiga chog'ishtirib bo'lmas ekan; har kimning o'z o'rni bo'lgani tuzuk ekan.



Ular oltinlarni bo'lishayotib, sichqon eslariga tushib qoldi. Ikkalasiyam birdaniga ortlariga o'girilib qarashdi, sichqondan nom-nishon ko'rinmadi, allaqachon justakni rostlab, boshi oqqan noma'lum tomonlarga badar ketgan edi. Shunaqa bo'lgandi.

XAYRLASHUV

K elishilgandek, sichqonning inidan topilgan oltinlarni savdogar bilan Usta teng ikkiga bo'lishdi. Har kim o'z tegishini oldi. Usta bir qo'liga oltin solingan xaltachani, ikkinchi yelkasiga narvonni olvolib savdogar bilan xayrlashdi.

— Xayr.

— Xayr.

— Endi mening charxpalak qurib Muqaddas Chashmaning narigi sohiliga suv chiqarib obod qilish orzuim ushaladigan bo'ldi, — dedi Usta.

— Unaqa qila ko'rmang, Usta, — dedi savdogar. — Agar siz shunday qilsangiz, u yerlardagi tuz konlari yo'qolib ketib, mening ishlarim kasodga uchraydi.

— Hayotda imkon ko'p, — dedi Usta. — Odamlarga yaxshi bo'lishini tilaganga yana yaxshilik qaytadi.

Savdogar Ustaning so'nggi gapini eshitib o'ylanib qoldi.

Odatdagidek, u qanchalik bosh qotirmasin, Ustaning gapini ma'nosini chaqolmadi. Keyin o'zi uchun samarasiz bu yumushni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, sichqonning inidan chiqqan oltinlardan o'ziga tekkan qismini sanashga kirishib ketdi.

Sanay-sanay hisob-kitob qilib ko'rdiki, u bitta oltin tangani Ustaga qaraganda ko'p olvolgan ekan. Ana shu bitta oltin tangani ko'p olganiga savdogar o'zida yo'q suyunib, quvondi va kutilmaganda qo'liga tekkan boylikni har qanday ziyrak sichqon ham topolmaydigan joyga yashirishga kirishdi.

CHARXPALAK

Usta o'ziga tekkan tangalarni sanab ham o'tirmasdan charxpalak uchun zarur narsalarga sarflay boshladi. Tez orada Muqaddas Chashma arig'ida ajoyib charxpalak paydo bo'ldi va tunu kun birdek aylanib narigi sohilga ham suv chiqarib bera boshladi.

Charxpalak kosachalari navbatma-navbat tepaga chiqib, pastga tushib aylanaverdi, barchasi novga birdek suv quyib turdi.

Usta narvon yog'ochlarini, poyalarini ham charxpalakka ishlatib yuborgandi.

Katta poya — to'ng'ich Hasanning quduqqa tushish orzusi ham sal boshqacha tarzda amalga oshdi: u kosachalardan biri bilan tez-tez Muqaddas Chashma arig'iga tushib chiqayotganidan, suv chiqarishga o'zining hissasi qo'shilyotganidan behad shod edi.

Ustaning charxpalakdan ko'ngli to'ldi.

Narigi sohil qishloqlarini obodonlashtirish uchun yana ko'plab charxpalaklar kerak bo'lgani uchun Usta tunu kun tinim bilmay ter to'kib ishlardi.

VA NIHOYAT...

Savdogar ham tinim bilmasdi.

Tuz konlari kamayib ketmay tashib olay degan o'yda erta-yu kech tuz olib o'tar edi. U yana to'rtta eshak sotib oldi va ularning ham aqlini yung bilan kiritib qo'ydi.

Endi u uyida maqtanchoq sichqon paydo bo'lgudek bo'lsa nima qilishini o'zi yaxshi biladi.

Yana-tag'in kim bilsin?

Aqli har qancha to'lishmasin, uning Ustaga bir kunmas bir kun baribir ishi tushishi aniq. Axir bu dunyo sir-asrorlarga to'la, belgilarga qarab mohiyatni ayta olish yolg'iz Ustagagina nasib etganini savdogarning tan olmasdan o'zga iloji yo'q.

MUNDARIJA

Beg'ubor tuyg'ular ko'zgusi 3

G'afur G'ULOM

Shum bola (*qissadan parcha*) 9

Turg'unboy G'OYIPOV

Ertaklar

G'ani degan bolaning parvozi 40

Yana u'char ot haqida 42

O'qilon va non 45

Oltin shoxli kiyik 46

OYBEK

Bola Alisher (*qissadan parcha*) 51

Mirkarim OSIM

To'maris (*tarixiy hikoya*) 82

Hakim NAZIR

Hikoyalar

Oqibat 103

Najot 108

Yoqubjon SHUKUROV

Kutilmagan voqea (*hikoya*) 120

Ona mehri (*ertak*) 125

Mahmud MURODOV

Kichik hikoyalar

Yaxshi amaki 133

Bog'cha bola 135

Dala xunuk bo'lib qoladi	136
Sening galing	137
Kapalak	138
Xira	140
Baroq	141
Guldor	142
Qo'shnilar	143
Bo'lib yeyishdi	145

Habib PO'LATOV

Kichik hikoyalar

Eng qiziq o'yin	147
Mosh	149
Dik-dikjon (<i>ertak</i>)	151
Ikki irmoq (<i>ertak</i>)	152

Sunnatilla ANORBOYEV

Hikoyalar

Kenja Botirning o'q-yoyi	157
Qo'rqoq	166

G'ani JAHONGIROV

Yaylov shabadalari (<i>hikoya</i>)	173
--	-----

Nosir FOZILOV

Hikoyalar

Mening husnim	181
Tug'ilgan kunim	190

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

Omonboy bilan Davronboyning sarguzashlari (<i>qissa</i>)	201
--	-----

Oqiljon HUSANOV

Hikoyalar

Qor odamning sovg'asi	228
Anton amaki	232



Farhod MUSAJON

Hikoyalar

«Shakar» qizcha	240
Yomg'ir	242
Tugallanmagan suhbat	245

Sobit G'OFUROV

Kichik hikoyalar

A'zam tut	252
Jiyron	253
Teshik kulcha	257

Yayra SA'DULLAYEVA

Kichik hikoyalar

Ko'cha to'la bolalar	262
Mirzavoy	262
«Shirintoy»	264
Nodirbek	265
Durdona	267
Davronbek	268
Antiqaxon	270
Nusratmi, Rixsivoy	272
Nilufar	274
Lobarxon	276

Latif MAHMUDOV

Hikoyalar

O'rik	281
Umidaning nayrang'i	286
Siz ishonasizmi!	293

Ergash RAIMOV

Portlash (<i>hikoya</i>)	302
----------------------------------	-----

Shukur XOLMIRZAYEV

Oqtosh (<i>hikoya</i>)	315
--------------------------------	-----

Mahkam MAHMUDOV

Sirli qasr (<i>hikoya</i>)	343
------------------------------------	-----

Erkin MALIK

Hikoyalar

Xotira	354
Nima qilib qo'ying, Sherzod?	356
Champoning o'limi	358

Hojiakbar SHAYXOV

o'stimning kashfiyoti (<i>fantastik hikoya</i>)	371
---	-----

Tohir MALIK

vido, bolalik! (<i>qissadan boblar</i>)	381
---	-----

Yoqut RAHIMOVA

Kichik hikoyalar

Shokir armiyaga boradi	397
Oqizoq	400
Qasos	403
Velosiped	407
Bir dona uzum	409
Katta qiz	409
Yulduzning tovug'i	411
Behzodning oyisi nega qaysarlik qildi?	412

Normurod NORQOBILOV

Hikoyalar

Ro'molcha	417
Tovatosh	430

Shoyim BO'TAYEV

a va charxpalak (<i>ertak-qissa</i>)	448
--	-----

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI ANTOLOGIYASI

II

NASR

To'plovchi va so'zboshi muallifi pedagogika
fanlari doktori, professor
Safo MATJON

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent –2006

Muharrir To'liqin Alimov
Rassom Shuhrat Odilov
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Dizayner Azizxo'ja Tillaxo'jayev
Musahhah Mahmuda Usmonova

Bosishga ruxsat etildi 09.11.2006. Bichimi 84×108^{1/32}*Times garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 25,2. Nashr b. t. 23,76. Adadi
3000 nusxa. Buyurtma № 155. Shartnoma № 91–2006.

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 100129, Toshkent,
Navoiy ko'chasi, 30- uy.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-
matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy. //
Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi 1- uy.

83.8
Y 18

O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. –T.: Cho'lpon
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2006- yil. 480 b.

II jild: Nasr.

BBK 83.